O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNI IJTIMOIY-HUQUQIY TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI TO‘PLAMI



2025-yil 29-sentabr

TOSHKENT

KBK-67
J-11

“Jamoat xavfsizligini ta’minlashni ijtimoiy-huquqiy takomillashtirish yo‘nalishlari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami.– Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2025-y. 519 b.

Mazkur konferensiya materiallari to‘plami Jamoat xavfsizligini ta’minlashni ijtimoiy-huquqiy takomillashtirish yo‘nalishini zamonaviy talablar bilan uyg‘unlashtirish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar, ekspert xulosalari va tahliliy materiallarni o‘z ichiga oladi. Ushbu nashrda soha mutaxassislari, huquqshunos olimlar va amaliyotchilar tomonidan amalga oshirilgan huquqiy islohotlar natijalari, ularning samaradorligi hamda qonunchilikni yanada takomillashtirish istiqbollari atroflicha yoritilgan.

To‘plamda Jamoat xavfsizligini ta’minlashni ijtimoiy-huquqiy takomillashtirish yo‘nalishidagi o‘zgarishlar, xalqaro tajribalar, inson huquqlari himoyasi hamda zamonaviy huquqiy tendensiyalar bilan uyg‘unlashgan yondashuvlar haqida ilmiy-nazariy va amaliy tahlillar keltirilgan. Shu bilan birga, huquqni qo‘llash amaliyoti va normativ-huquqiy bazani modernizatsiya qilish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Mazkur nashr huquqshunos olimlar, amaliyotchilar, doktorantlar va huquqiy sohadagi tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

To‘plamga kiritilgan maqola va tezislar mazmuniga muallif javobgar hisoblanadi.

Mas’ul muharrir:

Selimanova S.M. yuridik fanlar doktori, professor, polkovnik.

Tahrir hay’ati a’zolari:

Yarashev B.Ch. yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Yuldashev Sh.N. yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Tursunova S.R. yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Tallibayev U.Sh. yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Axmedov Sh.O. JXT kafedrasi o‘qituvchisi, kapitan

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2025

KIRISH SO‘ZI

Assalom alaykum hurmatli konferensiya ishtirokchilari, hurmatli mehmonlar va soha mutaxassislari!

Sizlarni **“Jamoat xavfsizligini ta’minlashni ijtimoiy-huquqiy takomillashtirish yo‘nalishlari”** mavzusida tashkil etilgan ilmiy-amaliy konferensiyada samimiy qutlashdan mamnunmiz.

Ma’lumki, jamoat xavfsizligi nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi, balki butun jamiyatning barqaror hayotini belgilovchi eng muhim ustunlardan biridir. Xavfsizlik ta’minlangan joyda ijtimoiy taraqqiyot, insonlarning erkin va farovon hayoti, tadbirkorlik va tashabbuslarning barqaror rivojlanishi kafolatlanadi. Shu bois ushbu masala doimiy e’tibor va izchil takomillashtirishni talab etadi.

Bugungi konferensiyaning ahamiyati shundaki, biz jamoat xavfsizligini ta’minlashni ijtimoiy-huquqiy jihatdan yanada takomillashtirish masalalarini ilmiy-amaliy nuqtai nazardan ko‘rib chiqamiz. Shu bilan birga, jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi ijtimoiy-huquqiy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish, uning huquqiy asoslarni mustahkamlash bo‘yicha samarali taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

Bundan tashqari ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish va uni milliy qonunchilikka uyg‘unlashtirish ham asosiy yo‘nalishlardan hisoblanadi. Zero, jamoat xavfsizligini ta’minlash borasidagi har bir yangicha yondashuv — bu kelajak avlodning tinch va barqaror hayotiga qo‘yilgan mustahkam poydevordir.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti, xalq farovonligi va huquqiy demokratik jamiyat qurish jarayonida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu borada muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: *“Fuqarolarimizning osoyishtaligi va xavfsizligini ta’minlamasdan turib, biz boshqa islohotlardan kutilgan samaraga erisha olmaymiz”.*

So‘nggi yillarda yurtimizda mazkur yo‘nalishda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Jamoat xavfsizligini ta’minlash konsepsiyasi” qabul qilinishi, huquqbuzarliklar profilaktikasi va

jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida davlat dasturlarining ishlab chiqilishi mamlakatimizda jamoat xavfsizligi tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Bu jarayonda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan bir qatorda mahalla instituti, nodavlat tashkilotlar va keng jamoatchilikning hamkorligiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar mamlakatimizda erkin va farovon hayotni ta’minlash, kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, qonun ustuvorligi va adolatni qaror toptirish, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, eng muhimi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatlashga qaratilgan. Ushbu vazifalarning samarali amalga oshirilishi nafaqat davlat boshqaruvi tizimi uchun, balki mahalla darajasidagi ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish jarayonlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son qarorida “Har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish” tizimini samarali tashkil etish bo‘yicha ustuvor chora-tadbirlar belgilangan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-avgustdagi PQ-253-son qarorda esa, xavfsiz muhitni ta’minlashning tashkiliy-profilaktik mexanizmlarini yanada kuchaytirish, mas’ul subyektlarning shaxsiy javobgarligini oshirish, kriminogen vaziyati murakkab hududlarda esa manzilli va individual yondashuv asosida ishlash mexanizmlari nazarda tutildi.

Ma’lumot uchun: Jamoat xavfsizligiga qarshi 2023 yilda 3538 ta, 2024 yilda 3098, 2025 yilning 8 oyida 2300 ta *jinoyatlar qayd etilgan.*

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar bilan jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va mahalla darajasida samarali ijtimoiy profilaktikani yo‘lga qo‘yish bo‘yicha yangi bosqichga qadam qo‘yildi. Natijada, mahallalarda xavfsizlikni kafolatlash, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va jinoyatchilikka qarshi kurashda fuqarolarning hamkorligini kuchaytirish bo‘yicha izchil huquqiy asos yaratildi.

***Ma’lumot uchun: Jamoat joylarida 2023 yilda 5774 ta, 2024 yilda 5517, 2025 yilning 8 oyida 3265 ta** jinoyatlar qayd etilgan.*

Hurmatli yig‘ilish qatnashchilari!

Mazkur ilmiy anjumanda yetakchi huquqshunos olimlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari, keng jamoatchilik vakillari, amaliyotchilar va yosh tadqiqotchilar ishtirok etmoqda. Ularning tahliliy yondashuvlari va ilgari suradigan ilmiy g‘oyalari mamlakatimiz huquqiy tizimini rivojlantirish, qonunchilik normalarining samaradorligini oshirish va ularning amaliyotga tatbiq etilishining real mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Barchangizga mazmunli muloqot, samarali muhokama va konferensiyaning muvaffaqiyatli yakunlanishini tilayman.

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich,

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,
polkovnik, yuridik fanlar doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist.

ASOSIY QISM

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI TIZIMIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI IJTIMOIY-HUQUQIY TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA AMALGA OSHIRILADIGAN ISHLAR

Kurvanboyev T.S.
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Jamoat tartibini saqlashni tashkil etish boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari polkovnik

Assalomu alaykum hurmatli ofitserlar, konferensiya ishtirokchilari!

Avvalambor Jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha Ilmiy-amaliy konferensiyaga taklif etganliklaringiz uchun o‘z minnatdorchiligimni bildiraman.

Barchamizga yaxshi ma’lumki, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar avvalo inson manfaatlari, uning daxlsizligiga qaratilib, mazkur jarayonda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda Milliy gvardiya bo‘linmalarining munosib o‘rni bor.

Bugungi kunda Milliy gvardiya bo‘linmalari “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonun va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni hamda boshqa rahbariy hujjatlarga asosan mamlakatizda jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha bir qator vazifalarni bajarib kelmoqda.

Ta’kidlash joizki, Milliy gvardiya to‘g‘risidagi qonunga muvofiq Milliy gvardiya O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo‘shinlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo‘lgan maxsus turi hisoblanadi.

Yuklatilgan vazifalarga asosan Milliy gvardiya mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash hamda kundalik faoliyatda shaxs, jamiyat, davlat va milliy manfaatlarning harbiy sohada davlat xavfsizligiga bo‘lgan tahdidlarni oldini olish va ularga qarshi kurashish borasida faoliyat olib boradi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Bugungi kunda Milliy gvardiya bo‘linmalari Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlarida ommaviy tadbirlar hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo‘yicha vazifalarni bajarib kelmoqda.

Xususan, Milliy gvardiya javobgarlik hududlari bo‘lgan 52 ta bozor, 41 ta isrohat bog‘lari, 37 ta xiyobonlarda mustaqil ravishda patrullik xizmati orqali jamoat tartibini ta’minlab, ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan 280 ta obyektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha xizmat faoliyatini olib boradi.

Hozirgi kunda dunyodagi harbiy-siyosiy vaziyatning izchil o‘zgarishi tahlillaridan kelib chiqib, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash borasida Milliy gvardiya bo‘linmalarining xizmat o‘tash tartibi takomillashtirilib kelinmoqda.

Avvallari, jamoat tartibini saqlash, ommaviy tadbirlar va aholi gavjum joylarda xavfsizlikni ta’minlash maqsadida shaxsiy tarkib qurolsiz jalb etilgan bo‘lsa, so‘ngi yillarda xorijiy davlatlarda yuz bergan ayanchli holatlardan kelib chiqib, hozirda ommaviy tadbirlar o‘tkazish obyektlari hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan hududlarda yengil zirxlangan texnikalarda jangovar ekipajlar hamda jamoat tartibini saqlash uchun kuch vositalar tarkibi ko‘paytirilib, ularni shtatdagi qurollar bilan xizmat o‘tash amaliyoti joriy etildi.

Shuningdek, bo‘linmalarning javobgarlik hududida vaziyat o‘zgarganda unga tezkorlik bilan ta’sir ko‘rsatish uchun, “Tezkor harakatlanuvchi guruhlarning” xizmat o‘tash tartibi takomillashtirilib, holat sodir bo‘lgan joyga yetib borishiga ketadigan vaqtni sezilarli darajada qisqartirishga erishildi.

Bundan tashqari, javobgarlik hududlarida ommaviy tartibsizliklar yuzaga kelganda, vaziyatning ehtimoliy keskinlashuviga tezkorlik bilan ta’sir ko‘rsatish maqsadida har bir viloyat kesimida yig‘ma otryad shakllantirilib, safarbar etish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Milliy gvardiya javobgarligida bo‘lgan istirohat bog‘lari va sayilgog‘larda soat 1800 dan 2400 gacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida fuqarolar tashrifini ko‘payib borayotganligini hamda tungi vaqtlarda jinoyat ko‘p sodir etilayotganligini inobatga olib, Milliy gvardiya bo‘linmalari shaxsiy tarkibining ko‘proq qismini kechgi vaqtda xizmatga jalb etish hamda kechayu-kunduz mustaqil ravishda patrullik xizmatini tashkil etish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Harbiy xizmatchilarga patrullik xizmatini o‘tashda xizmat faoliyatini takomillashtirish hamda yaratilgan imkoniyatlar natijasida Milliy gvardiya javobgarlik hududlarida jinoyatlar salmog‘i yildan-yilga kamayishiga erishildi.

***Ma’lumot uchun: 2022 yilda 643 ta, 2023 yil 485 ta, 2024 yil 381 ta, 2025 yil** shu kunga qadar **158 ta** jinoyatlar qayd etilgan.*

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yuklatilgan vazifalarga shaxsiy tarkibni doimiy tayyorlab borish maqsadida harbiy xizmatchilarning mutaxassislik bo‘yicha tayyorgarliklari qayta ko‘rib chiqilib takomillashtirilib borilmoqda.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha Milliy gvardiya o‘ziga yuklatilgan vazifalarni kuch ishlatar tuzilmalar bilan hamkorlikda bajarishini inobatga olib, quyidagilar taklif etiladi:

- respublika bo‘yicha jamiyatga xavf tug‘diradigan, mulkiy turdagi jinoyatlarning salmog‘i hozirda o‘sib borayotganligini (o‘g‘rilik, kissavurlik, firibgarlik, bezorilik va boshqa turlari) inobatga olib, bunday turdagi jinoyatlarni oldini olish bo‘yicha zamonaviy texnika (videokuzatuv, sun’iy intelekt) imkoniyatlaridan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yishni;

- hamkorlikdagi bo‘linmalar bilan jamoat xavfsizligiga qaratilgan taxdidlar hamda ommaviy tartibbuzarliklarni oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha ilg‘or xorijiy davlatlarning tajribalari hamda yangi taktikalari tahlillaridan foydalangan holda muntazam ravishda majmuaviy mashg‘ulotlarni o‘tkazib borishni.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI IJTIMOIY-HUQUQIY TA’MINLASH SOHASIDA HAMKORLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

Ismailov I.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
yuridik fanlar doktori, professor isomiddinosmoilov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamoat xavfsizligi masalalariga oid nazariy manbalar va O‘zbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligi tizimida amalga oshirilayotgan islohatlar tahliliga asoslangan holda jamoat xavfsizligini ijtimoiy-huquqiy ta’minlashdagi hamkorlikka oid qarashlar va amaliyot, shuningdek uni takomillashtirish masalalar yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: jamoat xavfsizligi, ijtimoiy ta’minlash, ijtimoiy profilaktika, huquqiy ta’minlash, mahalla yettiligi, hamkorlik, takomillashtirish.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida qabul qilingan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida:

- barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
- xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;
- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash[1] asosiy g‘oyalar sifatida aks ettirilganligi jamoat xavfsizligini ta’minlashni ijtimoiy-huquqiy takomillashtirish zaruratini taqozo etadi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashni ijtimoiy-huquqiy takomillashtirishning eng dolzarb va muammolarga boy yo‘nalishlaridan biri mazkur sohada samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdir. Hamkorlik masalalarini yoritishdan oldin jamoat xavfsizligini ta’minlashning “ijtimoiy” va “huquqiy” jihatlariga oid nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida o‘tkazilayotgan islohatlar natijasida huquqni qo‘llash amaliyotiga “ijtimoiy profilaktika” tushunchasi kiritildi, hamda uni amalga oshirishning tashkiliy va huquqiy asoslari yaratilmoqda[2].

Jamoat xavfsizligini ijtimoiy ta’minlash bevosita jamiyatdagi mavjud va vujudga kelishi mumkin bo‘lgan tahdid va tajovuzlarning manbai

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi “”O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni https://lex.uz/docs/6600413

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining: “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023 yil 21 dekabrdagi PF-209-son Farmoni https://lex.uz/docs/6705763; 01.06.2023 yil 1 iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-82-son Farmoni; 2025 yil 3 yanvardagi “2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son Qarori https://lex.uz/docs/7330260; 18.08.2025 yil 18 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini yanada oshirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” PQ-253-son Qarori https://lex.uz/uz/docs/7690026 va boshqa qonunchilik hujjatlari.

bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarning barvaqt oldini olish borasidagi chora-tadbirlarni maqsadli hamda tizimli amalga oshirishdan iboratdir. V.V. Luneev ta’kidlaganidek, “jamiyat xavfsizligi faqat jinoyatchilikka qarshi kurash darajasi bilan emas, balki ijtimoiy profilaktika darajasi bilan ham belgilanadi, chunki u tahdidlarning yuzaga kelish ehtimolini pasaytiradi”[1].

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, ayrim ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy profilaktika davlat va jamiyatning deviant xulq-atvorga hamda huquqbuzarlikka olib keluvchi omillarning oldini olish va ularni zararsizlantirishga qaratilgan tizimli faoliyat sifatida qaralsa[2], E. Dyurkgeymning klassik konsepsiyasida jamiyat barqarorligi ijtimoiy integratsiya va hamjihatlik darajasiga bog‘liqligi ta’kidlangan bo‘lsa[3], ijtimoiy buzilish esa deviantlik va jinoyatchilik o‘sishiga olib kelishi ko‘rsatilgan[4]

Kriminologiyada ijtimoiy profilaktika jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy va tarbiyaviy chora-tadbirlar majmuasi sifatida ta’riflanadi. Xususan, tadqiqotlarda ta’kidlaganidek, “huquq-tartibot samaradorligi ko‘p jihatdan jazo choralariga emas, balki huquqbuzarlik sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga yo‘naltirilgan profilaktikaga bog‘liqdir”[5]. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy profilaktika tahdidlarning manbai bo‘lgan ildizini yo‘qotish orqali shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish funksiyasini bajaradi.

Bundan tashqari tadqiqotlarda ta’kidlaganidek, jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlar va tuzilmaviy buzilishlar oqibatida “me’yorlardan chetga chiqish” yuz beradi, bu esa muayyan toifadagi shaxslarda deviant xulq-atvor shakllanishiga turtki beradi[6]. Shu o‘rinda, ijtimoiy profilaktika jamiyatda g‘ayriijtimoiy xulq-atvor shakllanishi darajasini pasaytiradigan va aholining muammolarini hal qilishda ko‘mak berish orqali adolatli ijtimoiy imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta’minlaydigan muhim vosita hisoblanadi.

Ilmiy manbalar[7] tahlili asosida jamoat xavfsizligini ta’minlashda ijtimoiy profilaktikaning ahamiyatiga oid quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

---

[1] Лунеев В.В. Преступност XX века: мировые, региональные и российские тенденции.– М.:Норма, 1999,с. 54

[2] Гилинский Я.И. Девиантология: социология преступности, наркотизма, проституции, самоубийств и иных «отклонений». – СПб.: Изд-во «Юридический центр Пресс», 2004. – С.112

[3] Durkheim É. The Division of Labor in Society. – New York: Free Press, 1997 [1893]

[4] Durkheim É. Suicide: A Study in Sociology. – New York: Free Press, 1997 [1897].

[5] Долгова А.И. Криминология: учебник. – 6-е изд., перераб. и доп. – М.: Норма, 2019. С.97

[6] Merton R.K. Social Theory and Social Structure. – New York: Free Press, 1968.

[7] Кудрявцев В.Н. Причины правонарушений. – М.: Наука, 1986. – С.

birinchidan, jinoyatchilik va uning sabab sharoitlarining, shuningdek jamoat xavfsizligiga tahdid hamda tajovuzlarning oldini olishga qaratilgan – *preventiv;*

ikkinchidan, jamiyat, uning a'zolari huquqiy ongi hamda madaniyatini, shuningdek qonunga hurmat va itoatkorligini shakllantirishga qaratilgan – *ijtimoiy tarbiya*;

uchinchidan, aholining himoyaga mustoj qatlamining ijtimoiy moslashuv va tiklanish jarayoniga yordam berishga qaratilgan – *birlashtirish(qo'shish);*

to'rtinchidan, ijtimoiy ziddiyat va taranglikni yumshatishga hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ishonchni yanada mustahkamlashga qaratilgan – *kuchaytirish* kabi asosiy funksiyalarni bajaradi.

Ilmiy tadqiqotlarda kuchli ijtimoiy aloqalar(oila, maktab, jamiyat) shaxslarda deviant xulq-atvor shakllanishining oldini olishda muhim ahamiyatga egaligi[1] ta'kidlanganligi ijtimoiy profilaktikani amalga oshirish uchun mas'ul va unda ishtirok etuvchi subyektlar o'rtasida hamkorlik maqsadli va tizimli bo'lishini taqozo etadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, "samarali profilaktika tizimi shunday xavfsiz muhitni vujudga keltiradiki, unda huquqbuzarlik istisno holat sifatida namoyon bo'ladi"[2]. Bunday yondashuv A. Koenning "submadaniyat" nazariyasi[3], R. Klauard va L. Olinning "differensial imkoniyatlar"[4] konsepsiyasi bilan uyg'un bo'lib, ular fikriga ko'ra, marginal guruhlardan chiqqan yoshlar qonuniy yo'l bilan maqsadga erishish imkoniyatidan mahrum bo'lganda deviant yo'lni tanlashga moyil bo'ladi. Shu sababli, ta'lim, mehnat va ma'naviy-ma'rifiy dasturlarda nazarda tutilgan profilaktik chora-tadbirlar nafaqat ijtimoiy, balki kriminologik ahamiyatga ham egadir.

Shuningdek, G. Bekker o'zining "Autsayderlar" asarida shaxsni "tamg'alash"(stigmatizatsiya qilish) uning g'ayriijtimoiy xulq-atvori kuchayishiga olib kelishini ko'rsatgan[5]. Ijtimoiy profilaktikaning muhim jihati jinoyatchilikka qarshi kurashishning ustuvor yo'nalishi sifatida huquqbuzarlarni ijtimoiy moslashtirish va tiklash uchun zarur sharoitni yaratishni nazarda tutadi.

---

[1] Hirschi T. Causes of Delinquency. – Berkeley: University of California Press, 1969. C. 309 p.
[2] Антонян Ю.М. Преступност и социалный контрол. – М.: Норма, 2012. – С. 142
[3] Cohen A. Delinquent Boys: The Culture of the Gang. – Glencoe, IL: Free Press, 1955. – 186 p.
[4] Cloward R., Ohlin L. Delinquency and Opportunity: A Theory of Delinquent Gangs. – New York: Free Press, 1960. – 356 p
[5] Becker H.S. Outsiders: Studies in the Sociology of Deviance. – New York: Free Press, 1963. – 179 p.

Ijtimoiy profilaktikaning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

a) ijtimoiy profilaktika jamiyat xavfsizligini ta’minlashning asosiy tarkibiy qismi va ustuvor yo‘nalishi hisoblanib, u tahdidlarning oqibatiga emas, balki bevosita sabablariga ta’sir qiladi;

b) uning nazariy asosini kriminologiyadagi jinoyatchilik sabab va sharoitlar hamda ularning oldini olishga oid ta’limotlar tashkil etadi;

v) ijtimoiy profilaktikaning samaradorligi “shaxs – oila – jamiyat – davlat” o‘rtasidagi hamkorlikka bevosita bog‘liqdir;

g) bugungi globallashuv va jadallashuv sharoitida ijtimoiy profilaktika insoniyat uchun og‘ir oqibatlar keltiruvchi jinoyatchilik, uning uyushgan turlari, giyohvand vositalari va psixotrop moddalarning, qurol-yarog‘larning noqonuniy muomlasi, terrorizm, ekstremizm, odam savdosi kabi XXI asrning boshqa tahdidlariga qarshi kurashishda muhim strategik ahamiyatga ega vosita hisoblanadi.

Jamoat xavfsizligi — jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi[1]. Shuning uchun ham mazkur murakkab va uzluksiz jarayon, maqsadli va tizimli ravishda ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy va boshqa shu kabi mexanizmlarni uyg‘unlikda qo‘llagan holda amalga oshiriladi. Tadqiqotlarda ta’kidlaganidek, “jamiyat xavfsizligini ta’minlashda huquqiy mexanizmlar faqatgina jazo funksiyasi bilan chegaralanmay, balki huquqiy tartibni barqarorlashtirishning strategik vositasi sifatida ham xizmat qiladi”[2].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, huquqiy yo‘nalish – bu jamiyat xavfsizligini ta’minlashda huquqiy normalar, institutlar va huquqiy madaniyatning rolini belgilaydigan tizim bo‘lib, u “qonun ustuvorligi va huquqiy tartibot, jinoyatchilikning oldini olish va barqaror xavfsizlik muhitini ta’minlashning eng muhim sharti hisoblanadi”[3].

Shu bilan birga, huquqiy yo‘nalish xalqaro huquqiy hujjatlarda ham o‘z ifodasini topgan bo‘lib, Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipiga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni https://lex.uz/docs/5749291

[2] Лунеев В.В. Преступност XX века: мировые, региональные и российские тенденции. – М.: Норма, 1999. –С.64

[3] Долгова А.И. Криминология: учебник. – 6-е изд., перераб. и доп. – М.: Норма, 2019. – С. 95

huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir[1]".

Jamoat xavfsizligini huquqiy ta'minlash yo‘nalishining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

birinchisi, qonun ustuvorligini ta'minlashdan iborat bo‘lib, Konstitutsiya va uning asosida qabul qilingan qonun hamda boshqa qonunchilik hujjatlari jamoat xavfsizligining asosiy ustuni hisoblanadi, chunki u qonun oldida tenglikni kafolatlaydi;

ikkinchisi, jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishdan iborat bo‘lib, jamiyat a'zolarida Konstitutsiya va qonunlarni, boshqa fuqarolarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish hamda ularga rioya etishni ta'minlaydi, chunki "fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda korrupsiyaning barcha shakllariga nisbatan murosasiz munosabatni qaror toptirishga erishiladi[2]".

uchinchisi, huquqni ta'minlovchi va qo‘llovchi institutlarni mustahkamlash, xususan IIV, Milliy gvardiya, FVV, prokuratura va boshqa jamoat xavfsizligini ta'minlashga mas'ul hamda unda ishtirok etuvchi davlat organlari, shuningdek fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish va isloh qilishdan iborat;

to‘rtinchisi, jamoat xavfsizligi sohasida xalqaro hamkorlikni ta'minlash, xususan jinoyatchilik, uning uyushgan shakllariga, ekstremizm, terrorizm, odam savdosi qarshi kurashda, shuningdek tabiiy va texnogen xususiyatli favqulotda vaziyatlarning oldini olish hamda oqibatlarini bartaraf etishda huquqiy hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ijtimoiy-huquqiy ta'minlash sohasida hamkorlikni takomillashtirish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi talablari asosida "Tarqqiyot", "O‘zbekiston-2030" strategiyalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi va 2022 — 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq amalga oshirib kelinmoqda.

Jamoat xavfsizligi sohasiga oid hujjatlarda belgilangan maqsad va vazifalar dorasida amalga oshirilgan islohatlar doirasida bugungi kunda mamlakatning har bir mahallasida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi ta'minlashning tashkiliy-

[1] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi https://lex.uz/docs/6445145.

[2]https://zamin.uz/uzbekiston/16569-shavkat-mirzieev-korrupciyaga-qarshi-kurashish-togrisidagi-qonunni-imzoladi.html

huquqiy asoslari takomillashtirish natijasida ushbu yo‘nalishda hamkorlikni ta’minlashning mutlaqo yangi zamonaviy modeli shakllantirildi. Xususan:

birinchidan, respublika, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi;

ikkinchidan, O‘zbekiston mahallalari uyushmasini, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo‘limlarini tashkil etildi;

uchinchidan, Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasida 5 ta shtat birligidan iborat bo‘lgan «Mahalla yettiligi» faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘limi tashkil etildi;

to‘rtinchidan, mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan «mahalla yettiligi» tashkil qilindi, asosiy vazifalari belgilandi va faoliyati yo‘lga qo‘yildi;

beshinchidan, “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” orqali ijtimoiy yordam ko‘rsatish va subsidiyalar ajratishda byurokratiyadan xoli va mahallaning hamjihatligini aks ettiruvchi, masalalarni kolligial qaror qabul qilish va bevosida hamkorlikda hal etishni nazarda tutuvchi yangi tartiblar joriy etildi[1].

Bundan tashqari “Mahalla yettiligi” tomonidan aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimi takomillashtirilib, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi, mahalladagi yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, davlat soliq inspektori va ijtimoiy xizmat xodimlarining hamkorlik mexanizmlari amaliyotga joriy etildi[2].

O‘zbekistonda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida har bir mahallada muammolarni joyida aniqlab, kompleks yondashuv asosida hamkorlikda hal etish mexanizmlarini joriy etish zaruratidan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasiga muvofiq:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining: 2023 yil 1 iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-82-son Farmoni https://lex.uz/docs/6480342; 2023 yil 21 dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-son Farmoni https://lex.uz/docs/6705763

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 15 martdagi “Mahallabay ishlashga mas’ul bo‘lgan shaxslar faoliyatini va hamkorligini samarali ta’minlash hamda «Mahalla yettiligi» faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 137-son qarori https://lex.uz/uz/docs/6840781

a) ijtimoiy profilaktikani amalga oshirishning aniq mexanizmlari amaliyotga joriy etilayotganligi;

b) ijtimoiy profilaktika tadbirlarini hamkorlikda amalga oshirishni raqamlashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan “E-ijtimoiy profilaktika” axborot tizim va “Mahalla”ning yagona platformasi bilan integratsiya qilinganligi;

v) ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan shaxslar doirasi va ijtimoiy profilaktika obyektlarini aniqlash, ularga doir ma’lumotlarni “mahalla yettiligi”, shuningdek, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlariga elektron shaklda taqdim etish tartibi joriy etilganligi;

g) “mahalla yettiligi” hamda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish tartibini qo‘llashning yo‘lga qo‘yilganligi;

d) “mahalla yettiligi” hamda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda nazorat qilish, shuningdek, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini yakunlash tartibi qonunchilik hujjatlarida aniq belgilang anligi[1] O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlashning ijtimoiy-huquqiy yo‘nalishda bosqichma-bosqich takomillashtirib borayotganligini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish samaradorligini oshirish, xususan ijtimoiy profilaktika obyektlariga nisbatan kompleks profilaktik chora-tadbirlarni uyg‘unlikda va hamkorlikda maqsadli hamda manzilli amalga oshirishni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun mas’ul davlat organlari va muassasalari uchun 2025 yilda “Har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish” ustuvor vazifa etib belgilanib:

birinchidan, mahallalarda xavfsiz muhit yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini oshirish maqsadida manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha respublika dasturi, Toshkent shahri, viloyatlar, shuningdek tuman va shaharlarda esa “Yo‘l xaritalari” ishlab chiqildi hamda ularning ijrosini ta’minlash yo‘lga qo‘yildi;

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 noyabrdagi ““Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida ”gi 801-son qarori https://lex.uz/docs/7243832

ikkinchidan, 2024 yilda jinoyat sodir etilgan har bir mahallada choraklik manzilli chora-tadbirlar belgilangan “Yo‘l xaritalar” ishlab chiqish tartibi joriy etildi, mahalla — tuman — viloyat darajasida ularning ijrosi uchun bevosita mas’ul rahbarlar biriktirildi va aniq sohaviy javobgarlik yuklatildi;

uchinchidan, kriminogen vaziyat og‘ir mahallalarda ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari tomonidan huquqbuzarliklarga sabab bo‘layotgan asl omillarni aniqlash va barham berish bo‘yicha taklif, metodikalar ishlab chiqish va “Mahalla yettiligiga” amaliy-uslubiy yordam ko‘rsatish amaliyoti joriy etildi;

to‘rtinchidan, 2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhit yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning samarali tizimini shakllantirishga qaratilgan asosiy maqsadli ko‘rsatkichlar tasdiqlandi[1].

Shuni alohida qayd etish joizki, mahallalarda, xususan kriminogen vaziyat murakkab bo‘lgan mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklar barvaqt profilaktikasini samarali tashkil etish maqsadida “Kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha manzilli choralar konsepsiyasi” va “Kriminogen vaziyati murakkab va og‘ir mahallalarda “namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz uy” tashkil etish bo‘yicha namunaviy talablar” tasdiqlandi hamda ularning ijrosini ta’minlash yo‘lga qo‘yildi[2].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta’minlashning ijtimoiy-huquqiy yo‘nalishlarini takomillashtirish borasida maqsadli va tizimli kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan bu sohada hamkorlikni samaradorligini oshirishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator omillar saqlanib qolmoqda. Xususan:

mahalla hududida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklar barvaqt profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirishga MFY kengashi a’zolari, aholi faollari, nuroniylar, hududda joylashgan tashkilot va muassalarni jalb etishdagi sustkashlik, mas’ullarda tashkilotchilik va tashabbuskorlik, utakchilik salohiyatining, manfaatdorlik o‘yg‘otuvchi mexanizmlarining yetarli emasligi;

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3 yanvardagi “2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son Qarori https://lex.uz/docs/7330260

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 18 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini yanada oshirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” PQ-253-son Qarori https://lex.uz/uz/docs/7690026

“Mahalla yetttiligi” a’zolarining mahalla aholisi tarkibidan tayinlanmayotganligi, ularning xizmat faoliyatiga oid qonunchilik hujjatlari mazmun-mohiyatini yetarli bilmasligi hamda ularni amalda qo‘llash bo‘yicha tajribaning yetishmasligi;

mahalla raisi tomonidan “Mahalla yettiligi” a’zolari faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish bo‘yicha vakolatlarini yetarli darajada amalga oshirmayotganligi;

“Mahalla yetttiligi” a’zolarining aholi, ayniqsa yoshlar va ularning ota-onalari uchun qulay bo‘lgan vaqtda, kechki vaqtlar, shanba, yakshanba va bayram kunlari faoliyat olib bormasligi;

profilaktika inspektorlari va patrul-post xizmati xodimlarining boshqa tadbirlarga jalb etishi oqibatida hududning ochiq qolishiga yo‘l qo‘yilayotganligi;

yig‘ilishlar va muloqat jarayonlarining tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi, hujjatlar aylanishi va hisobotdorlikda ochiqlik hamda shaffoflikning yetishmasligi;

yoshlar va keksa avlod o‘rtasida qarashlar farqining kattaligi, shaxsiy va idoraviy manfaatning umumiy manfaatdan ustun qo‘yilishi, bir-birini tushunmaslik, shaxsiy raqobat va ishonchsizlik, hissiy qarama-qarshilik kabi salbiy insoniy xususiyatlarning mavjudligi;

aholini ijtimoiy muammolarining ko‘pligi va ularni hal etish uchun resurslarning cheklanganligi va yetishmasligi kabi omillar bugungi kunda mahallada jamoat xavfsizligini ijtimoiy-huquqiy ta’minlashda hamkorlikni samarali ta’minlashga to‘sqinlik qilmoqda.

Mamlakatimizda Taraqqiyot, “O‘zbekiston-2030” strategiyalariga va O‘zbekiston Rechpublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasiga muvofiq amalga oshirilayotgan islohatlar, albatta mavjud muammolarni ijobiy hal etish imkonini yaratadi hamda mahallalarda jamoat xavfsizligini ijtimoiy-huquqiy ta’minlashda hamkorlikni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH VA JAMOAT TARTIBINI SAQLASHDA PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING FUQAROLAR O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARI BILAN HAMKORLIGI

Suvanqulov M.I.
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti kafedra boshlig‘i
yu.f.n., dotsent, polkovnik

Mamlakatimizda Prezidentimiz rahbarligida ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirish, uni mutlaqo yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish, soha xodimlarining aholi bilan hamkorligini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli amaliy ishlar bajarilmoqda.

Bundan ko‘zlangan maqsad, ichki ishlar organlarini aholiga o‘z vaqtida va sifatli yordam ko‘rsatadigan, har bir xodimi tomonidan «Xalq manfaatlariga xizmat qilishni» o‘z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo‘naltirilgan professional, xalqchil tuzilmaga aylantirishdan iborat.

Yangi O‘zbekistonning ichki ishlar organlari ham yangilanib, takomillashib bormoqda. Mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini tashkil etish bo‘yicha mutlaqo yangi tizim yaratildi. Mazkur tizimga muvofiq:

birinchidan, har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid muammolarni bevosita joylarning o‘zida hal etish;

ikkinchidan, hududlarda jinoyatchilik ahvolidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni toifalarga ajratish hamda hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda «jinoyat o‘choqlari»ni bartaraf etish uchun barcha zarur kuch va vositalarni jalb qilish;

uchinchidan, «respublika - viloyat - tuman - mahalla» tizimi asosida yaxlit boshqaruv va uzluksiz nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish, ichki ishlar va boshqa davlat organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash borasidagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirish orqali mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash yo‘lga qo‘yildi[1]. Bu bilan jamoat xavfsizligini ta’minlash, xususan huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida ichki ishlar organlari va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2021 yil 26 martdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 06/21/6196/0240-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024 y., 06/24/10/0031-son)

hamkorligida “fuqarobay”, “oilabay” va “mahallabay” ishlash orqali ijtimoiy profilaktika chora-tadbirlarini tizimli hamda manzilli amalga oshirish tartibi joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha “2022 – 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish Strategiyasi»ga muvofiq:

a) sodir etilgan jinoyatlarning asl omillarini aniqlash va bartaraf etishda huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning vakolat doirasini aniq belgilash;

b) «Ijtimoiy profilaktika», «probatsion profilaktika», «tergov profilaktikasi», «sud profilaktikasi»ni huquqbuzarliklar profilaktikasi turlari sifatida joriy etish va ularni qo‘llashning aniq mexanizmlarini belgilash;

v) Mulkiy turdagi jinoyatlarning oldini olish, notinch oilalar hamda oilaviy zo‘ravonlik qurbonlari bilan ijtimoiy profilaktika tadbirlarini yangicha yondashuv – «Xavfsiz xonadon» va «Xavfsiz hovli» tizimi asosida amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish kabi shakl va usullarini rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda[1].

O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha strategiyada belgilangan jamoat xavfsizligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishi bo‘lgan huquqbuzarliklar profilaktikasini fuqarolik jamiyati institutlari, xususan fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ko‘magi va hamkorligisiz samarali tashkil etib bo‘lmaydi. Zero, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Mahalla xalq bilan davlat o‘rtasidagi ko‘prik bo‘lishi kerak. Odamlarning quvonchu tashvishidan doimo xabardor bo‘lish mahallaning asosiy vazifasidir”[2].

Amaldagi qonunchilik[3] talablariga muvofiq profilaktika inspektorlari o‘ziga biriktirilgan hududda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining quyidagi tuzilmalari bilan:

1) Fuqarolar yig‘ini;

2) Fuqarolar yig‘ini komissiyalari;

3) Jamoatchilik tuzilmalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.11.2021 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son

[2]https://daryo.uz/k/2017/04/12/shavkat-mirziyoyev-mahalla-xalq-bilan-davlat-ortasida-koprik-bolishi-kerak.

[3] O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi 407-son qonuni. O‘zbekiston Respublikasi hujjatlari to‘plami, 2016 y., 38-son, 438-modda.; O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 17-son, 219-modda.; O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarlik profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 20-son, 221-modda

Profilaktika inspektorining fuqarolar yig‘ini bilan hamkorligi.

Fuqarolar yig‘ini faoliyatining asosiy maqsadi mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hududidagi fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o‘ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek, milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda hal qilish, ularning huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini oshirish, «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyili asosida ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashdan iborat[1].

Profilaktika inspektorining fuqarolar yig‘ini bilan hamkorligi asosan mahalla hududida aholining tinch va osoyishta hayot kechirishi, huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta’minlash, shuningdek jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid bo‘lgan masalalarni ko‘rib chiqishda birgalikda ishtirok etishi orqali, shuningdek uning fuqarolar yig‘inida aholi oldida har oyda faoliyati bo‘yicha hisobot berish yo‘li bilan ta’minlanadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2896-son Qaroriga binoan:

birinchidan, 2017 yilning 1 oktabrdan boshlab profilaktika inspektorlarining har oy yakunida fuqarolar yig‘inida huquqbuzarliklar profilaktikasi va huquqbuzarliklarni oldini olish holati to‘g‘risidagi hisobotini eshitish, hisobot yakuniga ko‘ra ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi yuzasidan ko‘rilayotgan choralar va ish natijalari tanqidiy muhokama qilish, ular faoliyatining samaradorligiga alohida baho berish hamda egallab turgan lavozimiga loyiq yoki noloyiqligi haqida tavsiyalar qabul qilish amaliyoti joriy etildi[2]. Mazkur hisobot eshitish tartibi O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2017 yil 6 sentabrdagi 193-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlari tayanch punktlari profilaktika inspektorlarining hisobotini fuqarolar yig‘inlarida eshitish tartibi to‘g‘risida Nizom” bilan belgilangan.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 iyundagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 380-son qarori //Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.06.2021 y., 09/21/380/0574-son;

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2896-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 17-son, 288-modda.

ikkinchidan, amaldagi qonunchilikka[1] ko‘ra profilaktika inspektori fuqarolar yig‘ini hududida xotin-qizlar va bolalarga nisbatan tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan yoxud bunday tazyiq o‘tkazish va zo‘ravonlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarni aniqlash, shuningdek bunday shaxslar bilan olib boriladigan profilaktik ishlarni amalga oshirishda;

uchinchidan, «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyilining to‘laqonli va samarali joriy etilishini ta’minlash choralarini ko‘rishda;

to‘rtinchidan, hududlarda huquqbuzarliklar, ayniqsa, voyaga yetmaganlar, yoshlar va ayollar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir ta’sirchan ishlarni tashkil etishda hamkorlik qiladi;

Profilaktika inspektorining fuqarolari yig‘ini huzuridagi komissiyasiyalar bilan hamkorligi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 iyundagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 380-son qaroriga[2] ko‘ra fuqarolar yig‘ini huzurida *oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash; xotin-qizlar bilan ishlash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va jamoatchilik nazorati, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish va taftish komissiyalar* faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, profilaktika inspektori mazkur komissiyalardan *oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash; xotin-qizlar bilan ishlash komissiyalari* bilan uzviy hamkorlikda faoliyat yuritadi.

Profilaktika inspektori oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi bilan hamkorlikda:

– mahallada oilaviy nizolar, yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik holatlari, fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning turli yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolishi, ichkilikbozlik hamda giyohvandlik illatlariga berilishi, huquqbuzarliklarning sodir etilishi – oilalar barbod bo‘lishining asosiy sabablaridan biri ekanligi haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

–ajrim yoqasida turgan oilalarni yarashtirish choralarini ko‘rish;

– nizoli oilalarning turmush tarzi va muhitini o‘rganib, tinchlik va totuvlikka salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga barham berish;

– aholi o‘rtasida to‘ylar va boshqa marosimlarni ixcham, keng aholi manfaatlarini, milliy qadriyatlar va ibratli an’analarni hisobga olgan holda o‘tkazish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib borish va bu boradagi ijobiy

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 17-son, 219-modda.

[2] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.06.2021 y., 09/21/380/0574-son;

tajribalarni ommalashtirish hamda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi[1].

IIV tomonidan berilgan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024 yil 9 oyi davomida respublika bo‘yicha fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida 9417 ta «Oilaviy qadryatlarni mustahkamlash komissiya»lar tashkil etilgan bo‘lib, profilaktika inspektori tomonidan komissiyaga 9722 ta hujjat taqdim etilgan, ulardan 19448 ta oila-turmush doirasidagi nizolar ko‘rib chiqilgan, 17015 ta oilalar muhokama qilingan, shundan muhokama natijasida 11452 ta oilaga notinchliklarga barham berilgan, 8034 ta masala bevosita nikohdan ajralish holatlari bo‘yicha ko‘rib chiqilgan, 6069 ta oila ajrashib ketishdan saqlanib qolgan[2].

Profilaktika inspektorining xotin-qizlar bilan ishlash bo‘yicha komissiyalari bilan hamkorlikda:

– xotin-qizlar o‘rtasida salbiy holatlarning (jinoyatchilik, o‘z joniga qasd qilish, fohishabozlik, giyohvandlik, voyaga yetmagan qizlarni erta turmushga berish kabi)ning oldini olishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;

– tahdid va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlar va bolalarning himoyasini ta’minlashga va aybdorlarni javobgarlikka tortishga oid harakatlarni amalga oshirishda ko‘maklashish;

– jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan, probatsiya xizmati hisobida turgan hamda ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan xotin-qizlarni ishga joylashtirishga, ularning hayotda o‘z o‘rinlarini topishida ko‘maklashish kabi chora-tadbirlarni amalga oshiradi[3].

Profilaktika inspektorining fuqarolar yig‘ini faoliyatiga ko‘maklashuvchi jamoatchilik tuzilmalari bilan hamkorligi.

Fuqarolar yig‘ini huzuridagi «Ota-onalar universiteti» jamoatchilik tuzilmasi. Mazkur tuzilma profilaktika inspektorlari bilan mahallada ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, farzand tarbiyasiga oid masalalarda ota-onalarning malakasini oshirishda yordam berish, bu borada oilalardagi mavjud muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 iyundagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 380-son qarori //Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.06.2021 y., 09/21/380/0574-son;

[2] IIV statistik ma’luomoti

[3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 iyundagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 380-son qarori //Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.06.2021 y., 09/21/380/0574-son;

Har bir mahallada tashkil etiladigan «Ota-onalar universiteti» jamoatchilik tuzilmasi va profilaktika inspektori bilan hamkorlikdagi faoliyati oldiga 3 ta asosiy vazifa qo‘yilgan:

1) ota-onalarning farzand tarbiyasidagi huquqiy, ma’naviy-axloqiy, pedagogik, psixologik va tibbiy bilimlarini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

2) farzand tarbiyasiga yetarli e’tibor bermayotgan ota-onalar bilan ishlash, fuqarolar yig‘inidagi oilalarda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi holatlarning oldini olish;

3) farzand tarbiyasi jarayonida ota-onalarga yordam ko‘rsatish, oilada sog‘lom ma’naviy muhitni ta’minlashga ko‘maklashish.

Fuqarolar yig‘inlari huzuridagi «Keksalar maslahati» guruhi. Mazkur tuzilma keksa avlod vakillari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning nafaqadagi xodimlarining boy hayotiy tajribasidan unumli foydalanish maqsadida tashkil etilgan bo‘lib, mahallada ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini saqlashda, loqaydlik, oilaviy kelishmovchiliklar va yoshlar o‘rtasida «ommaviy madaniyat»ning salbiy illatlari tarqalishini oldini olishda, profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi.

Fuqarolar yig‘inlari huzuridagi «Fidokor yoshlar» jamoatchilik patrul guruhi. «Fidokor yoshlar» jamoatchilik patrul guruhlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 iyundagi «Toshkent shahrida jamoat tartibini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» PQ-3786-son[1] hamda 2018 yil 24 dekabrdagi «Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4075-son qaroriga[2] muvofiq tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi va Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashining 2019 yil «19» yanvardagi 3/1/qq-4/3-q/q-son qaroriga asosan “Fidokor yoshlar» jamoatchilik patrul guruhlari to‘g‘risida NIZOM” tasdiqlangan.

«Fidokor yoshlar» jamoatchilik patrul guruhi mahallada jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi ishlarni kuchaytirish maqsadida harbiy xizmatga

[1] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.06.2018 y., 09/18/3786/1368-son;
[2] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2018 y., 07/18/4075/2370-son

chaqiriluvchilar, oliy harbiy bilim yurtlari va ichki ishlar organlariga nomzodlar orasidan shakllantiriladi.

Jamoatchilik guruhlarining maqsadi begilangan hududning osoyishtaligi va xavfsizligini ta’minlash hamda jamoat tartibini saqlashda ichki ishlar organlariga ko‘maklashishdan iborat bo‘lib, ularni faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha javobgarlik tuman ichki ishlar organlari boshliqlarining yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari va profilaktika inspektorlari zimmasiga yuklangan.

“Fidokor yoshlar» jamoatchilik patrul guruhlari profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

birinchidan, ko‘chalar va boshqa jamoat joylarida jinoyatchilikning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlashda ko‘maklashish;

ikkinchidan, kechki vaqtda ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ommaviy va boshqa tadbirlarni o‘tkazish mobaynida fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishda ishtirok etish;

uchinchidan, patrullik yo‘nalishlarida huquqbuzarlik sodir etgan yoki shubhali shaxslarni hamda nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlarni aniqlash va ichki ishlar organlariga olib borishda ko‘maklashish;

to‘rtinchidan, huquqbuzarliklar va baxtsiz hodisalardan jabrlangan fuqarolarga yordam ko‘rsatish hamda ularning hayoti va sog‘lig‘iga xavf solayotgan tahdidlarni bartaraf etishda huquqni muhofaza qilish idoralariga ko‘maklashish.

Jamoatchilik guruhi a’osi o‘zining mahallasida huquq tartibotni ta’minlashda faol qatnashgan jamoatchilik guruhi a’zolariga profilaktika inspektorlari tomonidan fuqarolar yig‘inlari raislari bilan birgalikda xizmatga (o‘qishga) tanlov o‘tkazishda inobatga olinadigan tavsiyanomalar berilishi mumkin.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024 yil yakuniga bo‘yicha respublika miqyosida 5454 ta “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlari tashkil qilingan bo‘lib, ularning a’zolari soni esa 13017 nafarni tashkil etadi, shundan mudofaa bo‘limlarining yo‘llanmasi asosida 6231 ta, IIV-IIBB-IIB kadrlar boshqarmasi yo‘llanmasi asosida 1677 ta, Yoshlar agentligi shahar-tuman kengashlari yo‘llanmasi asosida 1981 ta, fuqarolar yig‘inlari yo‘llanmasi asosida 3161 nafar a’zolar jamlangan.

“Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlari tomonidan 2024 yil yakuni bo‘yicha 7087 ta huquqbuzarliklar oldi olingan.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlari tomonidan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar bo‘yicha amalda ishlar yetarli darajada tashkil etilmagan. O‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovlar natijasiga ko‘ra respondentlarning 58 foizi “hamkorlik qoniqarsiz” ekanligini bildirgan bo‘lsa, 22 foiz respondentlar esa jamoatchilik guruhining “o‘rni yo‘qligini” bildirgan[1].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mahallalarda jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tarbini saqlashda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ularning jamoatchilik tuzilmalari bilan uzviy hamkorlikda faoliyat yuritadi.

NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNING MEHNATINI IJTIMOIY – HUQUQIY TAKOMILLASHTIRISH

Usmanova M.A.
Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra professori yu.f.d. professor

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnatini tashkiliy-huquqiy jihatdan takomillashtirish, nogironlar bandligi, kasbga tayyorlash, mehnatga joylashtirish, tadbirkorlikni rag‘batlantirish va huquqiy kafolatlar sohasida amalga oshirilgan islohotlar tahliliy yoritilgan. Shuningdek, mavjud muammolar, amaliy natijalar va takomillashtirishga oid tavsiyalar asosli tarzda bayon etilgan. Maqola huquqshunoslar, ijtimoiy soha mutaxassislari va nogironlar bilan ishlovchi tashkilotlar uchun foydali manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Nogironlar mehnati, bandlik, huquqiy kafolat, inklyuziv jamiyat, mehnat bozori, kasbga tayyorlash, kvotalash tizimi, ijtimoiy himoya, tashkiliy huquqiy mexanizmlar, nogironlar siyosati.

Inson huquqlari va erkinliklari — demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, har bir fuqaroga teng imkoniyatlar yaratish orqali ijtimoiy adolatni ta’minlashni ko‘zlaydi. Jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyatda faol ishtirok etishini ta’minlash, ularning mehnatga bo‘lgan huquqini kafolatlash va bu boradagi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish har bir taraqqiy topgan davlatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Bugungi globallashuv davrida nogironligi bo‘lgan fuqarolarning mehnat faoliyatida ishtirokini rag‘batlantirish, ularni bandlik tizimiga jalb etish va munosib mehnat sharoitlarini yaratish davlat

[1] IIV ma’lumoti

siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Chunki har qanday jamiyatda ijtimoiy tenglik, inkluziv taraqqiyot va inson qadr-qimmatiga asoslangan yondashuvlar mehnat huquqlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar mehnat bozori ishtirokchilari sifatida ko‘plab to‘siqlarga duch kelmoqda. Ular orasida ish beruvchilarning salbiy stereotiplari, ishlab chiqarish muhitining yetarli darajada moslashtirilmaganligi, zarur infratuzilmaning yetishmasligi, hamda mehnat qonunchiligidagi bo‘shliqlar muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, ishga joylashish jarayonida diskriminatsion holatlarning mavjudligi yoki imkoniyatlarning teng taqsimlanmasligi ularning iqtisodiy faolligini keskin pasaytiradi. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy inklyuziyaning buzilishiga, ijtimoiy tengsizlik darajasining ortishiga olib keladi. Shu bois nogironligi bo‘lgan shaxslar mehnatini samarali tashkil etish va himoya qilishga doir tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni tubdan qayta ko‘rib chiqish zaruriyati kun tartibiga chiqmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish va ularni ijtimoiy-iqtisodiy hayotga faol jalb etish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yilmoqda. Jumladan, 2021-yilda "Nogironlar huquqlari to‘g‘risida"gi Konvensiyaga qo‘shilish, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi hamda “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da qator ijtimoiy dasturlar amalga oshirilgani buning amaliy dalilidir. Shu bilan birga, mavjud huquqiy baza va amaliy mexanizmlar tizimini chuqur tahlil qilish, ularni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, zamonaviy yondashuvlar asosida bandlik infratuzilmasini qayta qurish zarurati saqlanib qolmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnat huquqlarini ta’minlash borasida bir qator muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlarning asosi bo‘lgan huquqiy hujjatlar nogironlarning mehnatga bo‘lgan huquqlarini qonuniy asosda himoya qilish, ularni iqtisodiy faol qatlamga aylantirish, hamda ijtimoiy inklyuziyani kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, 2020-yil 15-oktabrda qabul qilingan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-641-son) ushbu yo‘nalishda burilish nuqtasi bo‘ldi. Ushbu qonunda nogironlar uchun bandlik sohasida teng imkoniyatlar yaratish, maxsus ish o‘rinlari tashkil etish, mehnat bozorida ularning qobiliyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish kafolatlari mustahkamlandi [1].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-dekabrdagi PF–32-sonli Farmoni bilan ratifikatsiya qilingan BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi ham milliy qonunchilikka xalqaro standartlarni integratsiya qilishda muhim rol o‘ynadi [2]. Konvensiyada nogiron shaxslarning mehnatga oid huquqlari alohida bobda yoritilib, davlatlarga ularni teng asosda ishga qabul qilish, moslashtirilgan mehnat muhitini yaratish, diskriminatsiyadan himoya qilish majburiyati yuklangan.

Amaliy choralar qatorida, nogiron shaxslar uchun kvotalangan ish o‘rinlari tizimining joriy etilishi alohida e’tiborga loyiq. Bu orqali mehnatga layoqatli nogiron shaxslar sonining ortishi, ularning o‘z kasbiga mos ish topish imkoniyati kengaymoqda.

Shuningdek, 2022-yildan boshlab “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” orqali nogiron shaxslarning bandlikka oid ma’lumotlari jamlanib, ularni ish bilan ta’minlash bo‘yicha elektron platforma orqali maqsadli ish olib borilmoqda. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzurida esa Nogironlar uchun maxsus bandlik markazlari tashkil etilib, kasbga yo‘naltirish, professional reabilitatsiya, hamda malaka oshirish xizmatlari ko‘rsatilib kelmoqda [3].

Bu boradagi ijobiy natijalar ham sezilmoqda. Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yildan 2023-yilga qadar nogironligi bo‘lgan shaxslar orasida bandlik darajasi 18 foizdan 26 foizga oshgan [4]. Bu — qisqa vaqt ichida salmoqli o‘sish bo‘lib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, nogironligi bo‘lgan ayollar va yoshlar uchun startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari orqali ularning tadbirkorlik faoliyati rivojlantirilmoqda. Misol uchun, “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi, “Ayollar daftari” va “Nogironlar jamg‘armasi” orqali subsidiya va grantlar ajratilishi natijasida 2022-yilning o‘zida 7 mingdan ortiq nogiron fuqaro kichik tadbirkorlik bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘lgan [5].

Biroq, mavjud muammolar hamon o‘z dolzarbligini saqlab turibdi. Xususan, ish beruvchilarning nogironlar mehnat salohiyatiga past baho berishi, ishlab chiqarish obyektlarining nogironlar uchun moslashtirilmaganligi, hamda nazorat mexanizmlarining sustligi tizimli muammoligicha qolmoqda. Bundan tashqari, ba’zi holatlarda kvotalar rasmiy ijro etilgan bo‘lsa-da, nogironlarning real ishga qabul qilinishi, ularning malakasi va ish sharoitiga moslashtirilgan vazifalarga joylashtirilishi orasida ziddiyatlar kuzatiladi [6].

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnat huquqlarini ta’minlash borasida ancha salmoqli yutuqlar mavjud. Biroq bu yutuqlar hali yetarli emas. Menimcha, nogiron shaxslarning mehnatga bo‘lgan huquqlarini samarali himoya qilish uchun nafaqat huquqiy asoslar, balki mentalitet darajasida ham ijobiy o‘zgarishlar bo‘lishi lozim. Ish beruvchilarni rag‘batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarini universal dizayn tamoyillari asosida qurish, hamda kasbiy reabilitatsiya xizmatlarini hududiy darajada kengaytirish bu boradagi dolzarb ehtiyojlardan sanaladi. Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat tashkilotlar ishtirokini kengaytirgan holda nogiron shaxslarning mehnat salohiyatini ochish uchun inklyuziv mehnat bozori modeliga o‘tish zarur, deb hisoblayman.

O‘zbekiston Respublikasida nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnat huquqlarini ta’minlash bo‘yicha olib borilgan davlat siyosati o‘zining dastlabki ijobiy natijalarini ko‘rsata boshladi. Xususan, 2020–2024-yillar davomida nogironlar bandligi, kasbga tayyorlash, ishga joylashtirish va ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirish sohasida qator tashkiliy-huquqiy mexanizmlar yo‘lga qo‘yildi. Bu mexanizmlar orqali nogiron fuqarolar ijtimoiy himoya obyekti sifatidagi rolidan chiqib, jamiyatning faol ishlab chiqaruvchi subyektiga aylanib bormoqda.

Statistika agentligining so‘nggi hisobotlariga ko‘ra, 2021-yilda nogiron shaxslar orasida mehnatga layoqatli aholining bandlik darajasi 18 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil yakunida bu ko‘rsatkich 26 foizga yetgan [1]. Bu ko‘rsatkich har yili 3–4 foizli o‘sishni anglatib, qisqa muddatda muhim natijalardandir. Bunga nogiron shaxslar uchun ajratilgan kvotalangan ish o‘rinlari, maxsus bandlik markazlari faoliyati, kasbga qayta tayyorlash tizimi va raqamli platformalar orqali mehnatga joylashtirish xizmatlarining joriy etilishi katta hissa qo‘shdi.

Bundan tashqari, 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan “2022–2026-yillarda nogironlar huquqlarini ta’minlash strategiyasi” asosida har bir soha va hudud uchun alohida indikatorlar belgilandi. Ushbu hujjat nogironlarning bandligini ta’minlashni davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgiladi. Strategiyaga muvofiq, nogironlar uchun yaratilgan maxsus ish o‘rinlari soni 2024-yil oxiriga kelib 1,5 barobarga oshdi [7].

Bandlikni rag‘batlantirishda ijtimoiy sheriklik modeli ham samarali bo‘ldi. Xususan, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari, tuman bandlik

bo‘limlari va nodavlat notijorat tashkilotlar o‘rtasida tuzilgan hamkorlik memorandumlari asosida nogironlar uchun turli sohalarda qisqa muddatli amaliyotlar, malaka oshirish kurslari va onlayn-treninglar tashkil etildi. Bu esa nogironlarning nafaqat ish topishi, balki zamonaviy kasblarni egallash orqali raqobatbardosh bo‘lishlariga ham xizmat qildi[8].

Tadbirkorlik sohasida esa, “Biznesni rivojlantirish jamg‘armasi” va “Milliy inklyuziv rivojlanish dasturi” orqali nogironlar tomonidan ochilgan oilaviy korxonalarning soni 2023-yilda 9 mingdan oshdi. Ularning yarmidan ko‘pi ayollar va yoshlar tomonidan tashkil etilgan. Bu esa gender va yosh guruhlar kesimida nogironlarning iqtisodiy faolligi ortib borayotganini ko‘rsatadi [9].

Bundan tashqari, BMTning Nogironlar huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi O‘zbekiston tomonidan amalga oshirilgan ishlarni ijobiy baholadi. 2023-yilda e’lon qilingan hisobotda mamlakatda nogironlar bandligi, ularning ijtimoiy integratsiyasi va tashkiliy-huquqiy kafolatlarning bosqichma-bosqich kuchaytirilayotgani alohida ta’kidlandi [10].

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnatini tashkiliy-huquqiy jihatdan takomillashtirish — O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. So‘nggi yillarda ushbu sohaga oid qonunlar qabul qilinib, strategik hujjatlar, davlat dasturlari va amaliy chora-tadbirlar orqali nogironlar mehnat huquqlarini ta’minlash bo‘yicha muhim natijalarga erishildi. Kvotalar tizimi, kasbga tayyorlash markazlari, inklyuziv bandlik mexanizmlari, tadbirkorlikni rag‘batlantirish dasturlari bu boradagi asosiy vositalar bo‘ldi. Biroq, hali ham ayrim hududlarda infratuzilmaning yetarli emasligi, ijtimoiy stereotiplar, ish beruvchilarning sust yondashuvi kabi muammolar mavjud. Shu sababli, ushbu sohaga oid islohotlar barqaror va izchil davom ettirilishi, ijro mexanizmlarining samaradorligi oshirilishi, jamiyatda inklyuziv madaniyatni shakllantirish bo‘yicha uzluksiz ma’rifiy ishlar olib borilishi zarur. Mening fikrimcha, nogironlar mehnati bo‘yicha alohida davlat agentligi yoki vakolatli muvofiqlashtiruvchi markaz tashkil etilishi ushbu sohani yanada tizimli qilishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, nogironlarning o‘z vakillari ishtirokida qarorlar qabul qilinishi ularning chinakam ishtirokini ta’minlaydi va amaliy natijalarni kuchaytiradi.

Biroq, tizimda hanuzgacha ayrim muammolar mavjud: ishlab chiqarish obyektlari va xizmat ko‘rsatish sohalarining aksariyati nogironlar uchun moslashtirilmagan; ish beruvchilarda ijtimoiy mas’uliyat yetarlicha shakllanmagan; ba’zida kvotalar bajarilishi faqat hujjatlarda aks

ettirilmoqda. Bundan tashqari, nazorat va monitoring tizimi kuchsizligi sababli ayrim nogiron shaxslar o‘z huquqlaridan to‘laqonli foydalana olmayapti [11].

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni ish bilan band qilish masalasini hal qilishda o‘rinda aholining ehtiyojmand qatlamlari bilan ishlashning turli yo‘llari va metodlarini aniqlash, ulardagi uzviy bog‘liqlik va hamkorlikni tashkil qilish, ijtimoiy-iqtisodiy omillardan samarali foydalanish muhim va dolzarb masaladir. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib nogironligi bor shaxslarni bandliginita’minlash orqali ijtimoiy himoyalash masalalarining dolzarbligini quyidagi omillar bilan belgilash mumkin:

Birinchidan, jamiyatda yaratilgan ijtimoiy himoyalash tizimi aholining ehtiyojmand qatlamlari uchun ularning bandligini ta’minlash orqali munosib turmush tarzini yaratishda mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu ijtimoiy tizimdan samarali foydalanishda nogironligi bor shaxslarni bandligini ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy himoyalash nogironligi bor shaxslarni bandligini ta’minlashning manzilli amalga oshirishni talab qiladi. Shu bois ham aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash, ilmiy-amaliy o‘rganish, ijtimoiy faollashish tendentsiyalarini aniqlash, bandligini ta’minlashning turli mexanizmlaridan unumli foydalanish shu kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanib, mazkur jarayonni atroflicha ilmiy-nazariy tahlil qilish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xususan, qonunchiligimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynaladigan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan shaxslar qatori nogironlarni ishga joylashtirishda ham turli imtiyozlar ko‘zda tutilgan. Masalan, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasida Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar etib belgilab qo‘yilgan:

- ish o‘rinlari tashkil etilishini rag‘batlantirish va aholi bandligiga ko‘maklashish, shu jumladan ish o‘rinlarini tashkil etishga doir davlat buyurtmasini hamda ish qidirayotgan shaxslarni va ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga hamda ularning malakasini oshirishga doir davlat buyurtmasini shakllantirish orqali ko‘maklashish;
- ishsiz shaxslarni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish, ishsizlikni kamaytirish choralarini ko‘rish, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirishga ko‘maklashish;

- yoshlarni, ayniqsa qishloq joylardagi yoshlarni, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlari, kasb-hunar maktablari, kasb-hunar kollejlari, texnikumlar, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirishni ta’minlash bo‘yicha choralarni amalga oshirish;
- aholi bandligi sohasida zamonaviy kasbiy standartlarni joriy etish, mehnatni normalashtirish hamda mehnatga haq to‘lash mexanizmlarini takomillashtirish;
- aholi bandligi sohasida ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta’minlash;
- ishga joylashtirish jarayonlariga ilg‘or axborot texnologiyalarini joriy etish, aholining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha xizmatlar bozorida zamonaviy infratuzilmani va raqobat muhitini yaratish;

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashishida ko‘maklashish, O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida ularning huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishini ta’minlash kabilar.

Nogironligi bor shaxslarni mehnat bilan ta’minlashda kvotaga ega va kvotasiz modellar mavjud. Xodimlarining soni yigirma kishidan ortiq bo‘lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda mahalliy davlat hokimiyati organlari nogironlarni ishga joylashtirish uchun xodimlar sonining kamida uch foizi miqdorida ish joylarining eng kam sonini belgilaydi va zaxirada saqlaydi. Nogironlarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam sonini yaratish bo‘yicha mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlarini ijro etmaganligi uchun korxona, muassasa va tashkilotga har bir yaratilmagan ish joyi uchun ana shu korxona, muassasa va tashkilot xodimining o‘rtacha yillik ish haqi miqdorida jarima solinadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, malakatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta’minlash jamiyatda sotsial o‘zgarishlar sodir bo‘lishini ta’minlaydi, ularning farovon yashash imkoniyatlarini kengaytiradi, bandlik muammolarini hal etish vositasi, aholining zaif qatlamlarini kambag‘allikdan chiqarish omili, nogironligi bo‘lgan shaxslarni mehnat bozorida ochiq harakatlanishini ta’minlovchi vosita hisoblanadi. Hukumat esa, o‘z navbatida, nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyatda ijtimoiy faol bo‘lishi va munosib mehnat sharoitlarini yaratish hamda ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaxshilash sohasida tezkor va zarur islohotlarni amalga oshirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. “Aholining bandlik darajasi” bo‘yicha 2021–2023-yillar tahlili. — T.: 2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. Yillik hisobotlar. — T.: 2023.
3. “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi rasmiy axborotnomasidan. — T.: 2023.
4. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. “Nogironlarning mehnatga qo‘shgan hissasi” nomli tahliliy maqola. — 2023.
5. Mustaqil ekspertlar guruhi. “Nogironlar bandligi: huquq va amaliyotdagi tafovutlar” analitik hisobot. — T.: 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida” (ORQ-641), 2020-yil 15-oktabr.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–60-son qarori. “2022–2026-yillarda nogironlar huquqlarini ta’minlash strategiyasi”, 2022-yil.
8. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi va Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma’lumotlari. – T.: 2023.
9. “Milliy inklyuziv rivojlanish dasturi” doirasidagi natijalar. Iqtisodiyot va moliya vazirligi axboroti. – T.: 2024.
10. BMT Nogironlar huquqlari qo‘mitasi. “O‘zbekiston bo‘yicha umumiy baholov hisobot”, 2023-yil, Nyu-York.
11. “Nogironlar huquqlari bo‘yicha ombudsman hisobotlari”, 2023-yil. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Ombudsman instituti.

РАСКРЫТИЕ, РАССЛЕДОВАНИЕ И ПРОФИЛАКТИКА ПРЕСТУПЛЕНИЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННО-ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ КАК ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Матчанов А.А.
Профессор кафедры уголовно-процессуального права Академии МВД Республики Узбекистан доктор юридических наук, профессор, полковник

Аннотация: В статье рассматриваются факторы обеспечения общесвенной безопасности посредством раскрытия, расследования и профилактики преступлений совершаемых в сфере информационно-

цифровых технологий в Республике Узбекистан, проведен научный анализ основных понятий этих преступлений определяющего общественно опасное деяние совершаемое в цифровом, виртуальном киберпространстве основанных на мнениях ученых исследовавших данную проблему. Делается вывод о том, что общественная безопасность, обладая социальной и политической значимостью, в условиях реформирования Узбекистана становится надежным фундаментом реализации правоохранительными органами в борьбе с преступлениями совершаемых в сфере информационно-цифровых технологий.

Ключевые слова: общественная безопасность, преступления в сфере информационно-цифровых технологий, раскрытие, расследование и профилактика киберпреступлений, компьютер, виртуальное пространство.

Глобальное развитие инновационных, информационно-цифровых технологий (ИЦТ) и искусственного интеллекта (ИИ) в современном мире, создали общество, где они стали необходимым атрибутом нашей жизни. Наряду с положительными сторонами использование ИЦТ и ИИ создали условия и возможности совершения преступлений в информационно-цифровом, виртуальном пространстве с помощью компьютерных и иных машинных технологий используемых в Интернете и в других социальных сетях. Преступления, совершаемые с их использованием, обозначающимися как киберпреступления имеют транснациональный характер. По прогнозам возможный ущерб от этих преступлений в мире к 2030 году может достигнуть рекордных 90 трлн. долларов США[1].

Раскрытие, расследование и профилактика киберпреступлений, требуют как технических, так и теоретических, юридических знаний. Возникшие возможности незаконного проникновения в виртуальную информационную сеть с целью криминального обогащения посредством «киберпреступления» [2, с.54] (слово «cyber» пришло из греческого, где «кибернетикой» называют науку об управлении и передаче информации среди людей и машин) или с помощью искусственного интеллект (англ. artificial intelligence). ИИ в самом широком смысле – это интеллект, демонстрируемый машинными носителями, в частности компьютерными системами которыми может причинять вред охраняемым общественным отношениям, что

обусловливает и актуализирует проблему уголовно-правовой защиты таких отношений[3].

На раскрытие, расследование и профилактику киберпреступлений в Узбекистане влияют социально-правовые факторы, включая развитие законодательства, повышение цифровой грамотности населения.

Правовая система Узбекистана постепенно адаптируется к вызовам киберпреступности. В стране принят ряд важных нормативно-правовых актов, регулирующих эту сферу. Так, принят Закон «О кибербезопасности» (2022 г.), который определяет основные принципы и субъектов обеспечения кибербезопасности. Кроме того, Уголовный кодекс страны содержит статьи, касающиеся мошенничества, хищений, а также преступлений против личности (клевета, оскорбление), совершаемых с использованием информационно-цифровых технологий. 30 апреля 2025 года было принято Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-153, направленное на дальнейшее усиление борьбы с киберпреступлениями.

Несмотря на прогресс, правовая база ещё требует совершенствования. Недостаточность специализированных норм, регулирующих новые виды киберпреступлений, может усложнять процесс раскрытия, расследования и профилактики. Для достижения положительного результата необходимо совершенствовать взаимодействие между правоохранительными органами, банками и телекоммуникационными компаниями для более оперативного выявления и пресечения киберпреступлений[4, с. 73].

Выполняя коммуникативную и познавательную функцию, понятие или термин, какого либо явления выражает некоторую категорию сведений об объекте познания и понятно для правильного восприятия. При этом терминология, применяемая в теории и практике, должна отличаться исключительной точностью, определённостью, однозначностью употребляемых обозначений и терминов. В этой связи определение новых понятий и определений может осуществляться за счёт реальных результатов научного познания.

Это относится к научной терминологии, используемой в процессе раскрытия, расследования и профилактики киберпреступлений. Совершение этих правонарушений стало возможным в связи с

широким распространением ИЦТ и ИИ во всех сферах жизнедеятельности[5, с.214].

В современной юриспруденции правонарушения, совершаемые в сфере ИЦТ и ИИ, обозначаются под различными понятиями и терминами. Самыми распространенными из них являются такие как: киберпреступление; преступления, совершенные с использованием информационно-цифровых технологий; информационные преступления; компьютерные преступления; цифровые, электронные преступления и др.

Это только часть терминов, которыми могут быть названы общественно опасные деяния, совершаемые в виртуальном пространстве. Даже если взять двоих профессиональных специалистов в сфере ИЦТ и ИИ, с большой вероятностью, каждый из них одно и то же правонарушения назовет по-разному.

В раскрытии и расследовании необходимо знать, что киберпреступления можно разделить на два больших вида. В первом – объект само устройство, на которое совершена атака, а во втором атакуемое устройство, как трамплин для совершения основного преступления: действия преступников направлены на сами устройства – заносят вирус, вредоносные программы или совершают DoS-атаки.

Преступники используют устройства для кибер-сталкинга, кражи информации или онлайн-личности, а также совершения фишинговых атак. Самые распространенные, как и несколько лет назад, фишинговые атаки, DDoS-атаки и социальная инженерия[6].

С развитием ИЦТ и ИИ понятие «компьютер», «информационно-цифровые носители», «информационные, социальные сети», «Интернет», «искусственный интеллект» становится обыденным. В настоящее время практически все гаджеты имеют доступ в сеть Интернет. С развитием 3G, 4G, 5G-сетей мобильные телефоны подключаются к глобальной сети по технологии UMTS (сеть третьего поколения) или HSPDA (сеть четвёртого поколения) и по быстродействию практически не уступают возможностям подключения к сети Интернет посредством тривиального компьютера, а в будущем превзойдут его по техническим характеристикам и параметрам[7, с.151].

Правильное восприятия алгоритма раскрытия, расследования и профилактики киберпреступлений предполагает знание необходимых элементов входящих в систему данного общественно-опасного деяния.

Одним из основных элементов киберпреступлений является компьютер. Данное устройство предназначено для автоматизации процессов обработки информации, в котором работает аппаратура под управлением определяющих её действия программ

Другим составляющим элементом киберпреступлений является компьютерная система это совокупность различных компонентов, используемых для совместной обработки данных (сменные носители информации, модемы, принтеры и т. п.) [8]. Компьютерные сети (глобальные и локальные) включают в себя системы связи компьютеров или вычислительного оборудования (например, серверов). Компьютерная программа или программное обеспечение представляет собой последовательность пошаговых инструкций, предназначенная для исполнения вычислительной машиной [9, с. 109]. Имеются также циркулирующие данные в которые входит информация, которая движется в вышеперечисленных системах. И наконец, пользователи как субъекты киберпреступлений подразделяются на потерпевших пострадавших от преступного деяния и виновных в совершении преступлений в сфере информационных технологий.

Е.С. Шевченко понимает под киберпреступлением общественно опасное деяние, совершаемое в киберпространстве, посягающее на общественную безопасность, собственность, права человека, другие охраняемые законом отношения, необходимым элементом механизма подготовки, совершения, сокрытия и отражения которого является компьютерная информация, выступающая в роли предмета или средства преступления[10, с.29].

С возрастающей статистикой пользователей компьютером увеличивается как число доверчивых потребителей, не способных отказаться от заманчивых предложений, так и тех, кто использует сеть Интернет для совершения противоправных деяний. Компьютерные и телекоммуникационные системы открывают не только уникальные возможности для удовлетворения самых широких запросов человека во всех сферах его жизнедеятельности и функционирования государства, но и создают благоприятные условия для различного рода злонамеренных действий. Находятся люди и организованные группы, профессионально делающие свой бизнес на мошенничестве в сфере высоких технологий и извлекающие незаконным путём большие прибыли. Масштабы и структура киберпреступности в разных странах

заметно различаются и зависят, прежде всего, от характера и уровня развития информационных технологий, степени распространения сети Интернет, использования электронных сервисов и электронной коммерции и т. п. В США структура киберпреступности выглядит следующим образом. По проверенным данным хищения денежных средств с электронных счетов составляют 44 %; повреждения программного обеспечения – 16 %; столько же – похищение секретной информации; фальсификация информации – 12 %; заказ услуг за чужой счёт –10 %[11, с.38].

Наиболее распространёнными способами преступных действий являются: мошенничества в системах дистанционного банковского обслуживания (ДБО). Целые группы киберпреступников занимались организованной кражей ключей для систем ДБО с целью последующего перевода в наличные денежные средства. Чаще всего компрометация электронных ключей осуществляется с помощью вредоносного программного обеспечения (ПО) через Интернет. Данное вредоносное ПО содержит определённый код, который встраивается в программное обеспечение атакуемого компьютера.

Проблема, связанная с раскрытием, расследованием и профилактикой киберпреступлений усугубляется тем, что решать её силами только одного государства не представляется невозможным. В борьбе с этим транснациональным злом необходима координация действий на международном уровне. В Руководстве по предотвращению и контролю над преступлениями, связанными с использованием компьютерной сети Интернет для стран – членов ООН, преступные посягательства в киберпространстве признаны глобальной международной проблемой. Аналогичные положения содержат и другие международные нормативные правовые акты: Конвенция Совета Европы о киберпреступности, Бангкокская декларации, Окинавская Хартия глобального информационного общества[12].

Существующие в настоящее время, различные мнения относительно понятийного аппарата раскрытия и расследования киберпреступлений связан, как представляется, с отсутствием единого подхода в научным исследованиям, посвящённым изучению этих преступлений и теоретическим аспектам правонарушений данной категории. В то же время результаты анализа научных исследований в методике раскрытия и расследования киберпреступлений

свидетельствуют о существующем дефиците теоретических и конкретных практически значимых рекомендаций по расследованию и раскрытию киберпреступлений, о недостаточно полном понятийном аппарате, об отсутствии научно обоснованного термина «киберпреступление» в его криминалистическом аспекте. В понимании методики расследования киберпреступлений, тактики производства следственных, процессуальных действий и оперативно-розыскных мероприятий еще в не достаточной мере были объектом криминалистических исследований.

Таким образом, в современных условиях продолжаются дискуссии о подходах к совершенствованию алгоритма методики раскрытия, расследования и профилактики киберпреступлений. Несовершенство теоретических знаний, проверенной на практике соответствующей методики создает проблему для органов осуществляющих доследственную проверку и предварительное следствие. Для разрешения данной проблемы необходимо создать институциональные основы деятельности специализированных подразделений по борьбе с киберпреступностью в структуре правоохранительных органов, которые будут сосредоточены на расследовании таких преступлений. Также необходимо проводить научные исследования в области киберпреступности, что позволит лучше понять механизмы и методы работы киберпреступников.

Список использованной литературы:

1. https://www.vedomosti.ru/importsubstitution/new_technologies/articles/2023/03/14/966290-internet-neset-poteri (дата обращения 29.09.2024 года)

2. *Анорбоев А.У.* Уголовно-правовые аспекты киберпреступлений: Автореф. дис. …д-ра философии (PhD). – Т., 2020. –54 с.

3. *Мосечкин И. Н.* Искусственный интеллект и уголовная ответственность: проблемы становления нового вида субъекта преступления // Вестник СПбГУ. Серия 14. Право. 2019. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/iskusstvennyy-intellekt-i-ugolovnaya-otvetstvennost-problemy-stanovleniya-novogo-vida-subyekta-prestupleniya (дата обращения: 29.09.2024).

4. *Евдокимов К.Н.* Противодействие компьютерной преступности: теория, законодательство, практика: Автореф. дис. … док. юрид. наук. – М.,2022. – 73 с.

5. *Барышников П. Н.* Человек и системы искусственного интеллекта / П. Н. Барышников. – Вопросы философии. – 2023. – № 7. – С. 214-218. – URL: https://eivis.ru/browse/doc/86692595 (дата обращения: 05.06.2024).

6. https://securitymedia.org/info/kibeprestupleniya-raznoobrazie-i-ugolovnoe-presledovanie.html (дата обращения 20.09. 2025 года)

7. Чапкин Н. С. Разум и искусственный интеллект в аспекте новых возможностей / Н. С. Чапкин // Власть истории – История власти. – 2023. – № 47. – С. 151-154. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/razum-i-iskusstvennyy-intellekt-v-aspekte-novyh-vozmozhnos tey (дата обращения: 20.09.2025).

8. Эффективное предупреждение преступности: в ногу с новейшими достижениями // М-лы Десятого Конгресса Организации Объединённых Наций по предупреждению преступности и обращению с правонарушителями: A/CONF.187/10. Вена, 10 – 17 апреля 2000 года (п. 5).

9. *Тушканова О. В.* Терминологический справочник судебной компьютерной экспертизы: справочн. пособие. М., 2005. С. 109.

10. *Шевченко Е. С.* О криминалистической трактовке понятия «киберпреступность» // Информационное право. 2014. № 3 (39). С. 29 – 32.

11. *Селико Ю.; Прохоров А.* Internet – отмычка для компьютера // Компьютер-пресс. 2002. № 3. С. 38.

12. *Волеводз А.Г.* Противодействие компьютерным преступлениям: правовые основы международного сотрудничества. М.: Юрлитинформ, 2002: Окинавская Хартия глобального информационного общества (принята 23.07.2000 г. на о. Окинава (Япония) на совещании руководителей Глав государств и правительств стран «Группы Восьми»).

JAMOAT XAVFSIZLIGINI IJTIMOIY-HUQUQIY TAKOMILLASHTIRISHDA AHOLI BANDLIGI VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH MASALALARI

Yarashev B.Ch.
Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘ining o‘rinbosari,
y.f.b.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamaot xavfsizligini ijtimoiy-huquqiy takomillashtirishda aholi bandligi va kambag‘allikni qisqartirish masalalari

ko‘rib chiqiladi. Maqola mavzusining dolzarbligi, aholi bandligi va kambag‘allikni qisqartirishga e’tibor qaratilmasa natijada jamoat xavfsizligiga tahdid solishi, halqni rozi qilish bog‘liq masala ekanligi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida aholi bandligi va kambag‘allikni qisqartirish sohasini yanada takomillashtirish bilan bog‘liq qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha xulosalar va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Aholi bandligi, kambag‘allikni qisqartirish, mehnat munosabatlari, ish beruvchi, xodim, mehnat qonunchiligi, jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi.

O‘zbekiston mustaqillik yillaridan buyon jamiyat barqarorligini ta’minlash, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, huquq va erkinliklarini kafolatlash masalalarini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab kelmoqda. Shu nuqtai nazardan mehnat munosabatlari nafaqat iqtisodiy jarayonlar, balki jamoat xavfsizligi bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lgan huquqiy institutdir. Chunki mehnat sohasidagi huquqbuzarliklar, aholi bandligi va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bevosita jamoat xavfsizligining buzilishiga olib keladi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash konsepsiyasida mehnat huquqlarini kafolatlash alohida profilaktik mexanizm sifatida qaralishi belgilangan. Zero, adolatli mehnat sharoitlari mavjud bo‘lmagan, aholi bandligi ta’minlanmagan, kambag‘allikni qisqartirish masalalari o‘ylanmagan jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash mushkuldir. O‘zbekiston Respublikasida 2021-yilda tasdiqlangan “Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi”da ham davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi asosida xavfsizlikni ta’minlash vazifasi belgilangan[1]. Bu esa mehnat huquqlari bilan jamoat xavfsizligi o‘rtasidagi uzviy aloqani yuridik jihatdan ham mustahkamlaydi.

Shu o‘rinda jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi tushunchalariga berilgan ta’riflarga bir diqqat e’tibor qaratadigan bo‘lsak. Jamoat xavfsizligi – jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi deb belgilangan.

Aholi bandligi va kambag‘allikni qisqartirish masalalari, insonlarning mehnat qilishi va dam olishlari uchun qulay sharoit yaratish bevosita jamoat xavfsizligi va mehnat munosabatlari sohasi uzviy bog‘liqni namoyon etadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son farmoni

Mehnat huquqlari jamiyatda ijtimoiy adolat va xavfsizlikning kafolati hisoblanadi. Agar xodimning huquqlari to‘liq ta’minlansa, aholi bandligi darajasi oshirib borilsa u o‘zini ijtimoiy jihatdan himoyalangan deb his qiladi. Aksincha, huquq buzilishlari jamoaviy noroziliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois mehnat munosabatlari sohasini faqat iqtisodiy kategoriyaga emas, balki xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida ham baholash lozim deb xisoblaymiz.

Ma’lumki band bo‘lmagan shaxslarga qat’iyatsizlik, ishonchsizlik holatlari va oson daromad topish ilinji mavjudligini inobatga olgan holda sharoitga to‘g‘ri baho bera olmaslik va boshqa shu kabilar xosdir. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Jinoyat kodeksining umumiy qoidalari (jinoiy javobgarlikka tortish asoslari, ayb shakli, jinoyat tarkibi, ishtirokchilik haqidagi va boshq.) barcha shaxslarga nisbatan teng tartibda tatbiq etiladi. Shu bois jinoyat qonunchiligining barcha qoidalari uzluksiz ravishda bir butun holda ko‘rib chiqilishi lozim.

Bugungi kunda jamoat xavfsizligiga tahdid solayotgan bo‘g‘in bo‘lib hisoblangan ishsizlar jinoyatchiligi uning tuzilishiga qarab tahlil etilganda, ular tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar ichida bosqinchilik, talonchilik, firibgarlik, o‘g‘rilik, bezorilik, jinoyatlari ko‘proq sodir etilmoqda. Ushbu jinoyatlarning obyektiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak barcha jinoyat turlari moddiy qimmatliklarni qo‘lga kiritish yoki bekorchilik xolatlaridan kelib chiqishi mumkinligini ko‘rishimiz mumkin. Yana e’tiborli jihati shundaki fuqarolarning ishsiz qatlami tomonidan kun kechirishi bilan bog‘liq moddiy ehtiyojlarni jinoiy yo‘l bilan amalga oshirishni afzal ko‘rishlari sezilib turadi.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra 2025-yil 1-iyul holatiga ko‘ra iqtisodiyotda ish bilan bind aholi soni 14,6 mln nafarni tashkil etgan bo‘lsa, ishsizlar soni 800 ming kishini tashkil etgan. Ushbu raqamlar mamlakatimizda aholi bandligini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilayotganligini ko‘rsatadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan aholi bandligi va kambag‘allikni qisqartirish masalalarida ko‘plab tizimli ishlsr amalga oshirildi, shular qatorida mehnat migratsiyasidan qaytganlarni ishga olgan korxonaga har bir xodim uchun bir yil davomida Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasidan oyiga 500 ming so‘m subsidiya berilishi. Ushbu tadbirlarga bir yil uchun taxminan 100 milliard so‘m ajratilishi belgilangan.

Kun kelib mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarning bandligiga ko‘maklashish ham muhim masala sifatida ko‘rib chiqilmoqda va Sayxunobod tajribasi asosida mehnat migratsiyasidan qaytganlarga tomorqada mahsulot yetishtirib, daromad olishi uchun moliyaviy ko‘mak berilishi yo‘lga qo‘yildi hamda shu kabi boshqa turdagi bandlik xizmatlari ko‘rsatilmoqda. Qolaversa tibbiy muassasalar migratsiyadan qaytgan shaxslar va ularning oila a’zolarini bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishi mumkin. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasida 2023-yil 15-oktabrdan boshlab “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etilgan bo‘lib, ushbu markaz tomonidan ota-onasi xorijda mehnat qilayotgan bolalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatilishi yo‘lga qo‘yildi. Bularning barchasi mamlakatimizda jamiyat barqarorligini ta’minlash, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, huquq va erkinliklarini kafolatlash hamda aholi bandligi va kambag‘allikni qisqartirish masalalariga qaratilgan.

Mavzu yuzasidan milliy qonunchiligimizga yuzlanadigan bo‘lsak O‘zbekiston Respublikasida mehnat va xavfsizlik sohalarini tartibga soluvchi asosiy huquqiy manbalar quyidagilardan iborat:

- **Konstitutsiya** (2023-yilgi yangi tahrir): 42-moddaga ko‘ra, har kim mehnat qilish huquqiga ega, xavfsiz mehnat sharoitlari va adolatli ish haqi kafolatlanadi. 43-moddada davlat mehnat huquqlarini himoya qilishi belgilangan;
- **Mehnat kodeksi** (2022-yil 28-oktabrda qabul qilingan, 2023-yil 30-apreldan kuchga kirgan): xodimlarning huquqlari, mehnat shartnomasi, mehnatni muhofaza qilish, nizolarni hal qilish tartibi belgilab qo‘yilgan;
- **“Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi”** (PF-27-son, 29.11.2021): xavfsizlikni ta’minlashda davlat va jamiyat hamkorligi, profilaktika choralarining ustuvorligi o‘z aksini topgan;
- **O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi qonuni** (2019): xodimlarning manfaatlarini himoya qilish va jamoat tartibini saqlashdagi roli borasida so‘z yuritilgan.

Mazkur qonuniy asoslar mehnat huquqini kafolatlash va aholi bandligi, kambag‘allikni qisqartirish masalalari jamoat xavfsizligini bir-biriga bog‘lab turuvchi normativ bazani tashkil etadi.

Bularning barchasi so‘nggi yillarda mehnat munosabatlarini tartibga solish, aholi bandligi va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha sezilarli islohotlar amalga oshirilayotganligini namoyon etadi.

Xalqaro mehnat tashkilotining hisobotlariga ko‘ra mamlakatimizda 2017-yildan boshlab bugungi kunga qadar majburiy mehnatga qarshi qat’iy kurash olib borildi, kerak bo‘lsa majburiy mehnat deyarli tugatildi, Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi qabul qilinishi bilan xodimlar huquqlari kengaytirildi, jamoat xavfsizligini ta’minlashda HMQOlar bilan bir qatorda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, mahalliy xokimyat organlari, kasaba uyushmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari ham faol ishtirok etmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki aholi bandligi va kambag‘allikni qisqartirish, mehnat munosabatlari va jamoat xavfsizligi o‘rtasida uzviy bog‘lanish mavjud. Shunday ekan aholi bandligi va kambag‘allikni qisqartirish masalalarida tizimli ishlsrni tashkil etish, jamoat xavfsizligini mustahkamlash barchamizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023). Lex.uz. https://lex.uz/docs/-

2. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (2022). Lex.uz. https://lex.uz/docs/-

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-27-son Farmoni “Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi to‘g‘risida” (29.11.2021). https://lex.uz/docs/-

4. International Labour Organization (ILO). (1999). Decent Work Agenda. Geneva. https://ilo.org

5. United Nations. (1948). Universal Declaration of Human Rights. https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights

6. Council of Europe. (1961). European Social Charter. https://www.coe.int

7. National Labor Relations Act (1935). U.S. Code. https://www.nlrb.gov

8. XMT Hisobotlari (2022). Uzbekistan: Progress on Eradication of Forced Labor. https://ilo.org

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH SOHASIDAGI ILMIY AMALIY TADQIQOTLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Ikanov A.A.
Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim
Alijonov I.R.
Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqola jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlar faoliyatini takomillashtirish masalalari, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining bu bordagi o‘rni tadqiq qilinib, sohaga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, jamoat xavfsizligini ta’minlash, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, Ilmiy-amaliy tadqiqotlar instituti, tahdidlar, xavf-xatarlar.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish, huquqbuzarlikni sodir etishga sabab bo‘layotgan ijtimoiy-maishiy muammolarni ijtimoiy profilaktika choralari tizimi orqali hal etish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirish borasida samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Buning natijasida O‘zbekistonning xavfsiz davlat sifatidagi reyting va indekslardagi o‘rni yaxshilanib bormoqda, jumladan butunjahon odil sudlov loyihasi (World Justice Project-AQSh) tashkiloti tomonidan har yili o‘tkaziladigan huquq ustuvorligi indeksining “Tartib va xavfsizlik indikatori”[1] bo‘yicha O‘zbekiston, dunyoda 142 ta davlat orasida 17-o‘rinni, Osiyoda 49 ta davlat orasida 5-o‘rinni, Markaziy Osiyo va Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlari orasida 1-o‘rinni egallaganligi fikrimizni yorqin dalili hisoblanadi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasining ilmiy asoslarini tadqiq qilish sohaga professional kadrlarni maqsadli tayyorlashda ilmiy va ta’lim muassasalarining o‘rni beqiyos, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti qisqa muddatda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida kadrlarni maqsadli tayyorlash hamda sohaga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishda tayanch metodik bazaga aylandi[2].

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida jamoat xavfsizligini ta’minlash muammolarini, shuningdek jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish tizimini takomillashtirish bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Universitet tarkibidagi Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi jamoat xavfsizligi muammolarini tadqiq qilish va ilmiy yechimlarni taqdim qilishda asosiy bo‘g‘inga aylanmoqda, xususan markaz ilmiy xodimlari jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi qonunchilik loyihalarini, davlat dasturlari, yo‘l xaritalar va boshqa masalalarni qabul qilishda faol ishtirok etib kelishmoqda.

2025 yilning 3 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan **“2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi PQ – 1 — son Qarori[3] hamda 2025 yil 18 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini yanada oshirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PQ-253-son Qarorlari[4] loyihalarini ishlab chiqishda aynan Ilmiy-amaliy tadqiqot markazi xodimlarining ishtirok etishi Markazga bo‘lgan yuksak ishonch namunasidir.

Biroq, jamoat xavfsizligiga yuzaga kelayotgan zamonaviy xavf-xatar, tahdid va tajovuzlar Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi faoliyatini yanada takomillashtirish orqali bu boradagi ishlarni yanada chuqurlashtirish va yangi bosqichga olib chiqish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Shu sababli Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi negizida Universitet huzurida yuridik shaxs maqomisiz “Ilmiy-amaliy tadqiqotlar instituti”ni tashkil etib, quyidagilarni uning asosiy vazifalari etib belgilash maqsadga muvofiq:

(I) jamoat xavfsizligiga tahdidlarni barvaqt aniqlash, ularni baholash, prognozlash va bartaraf etish borasida, shuningdek zamonaviy harbiy konfliktlar va ommaviy tartibsizliklarni kelib chiqishi, ularda qo‘llanilayotgan taktika va strategiyalarni ilmiy-amaliy tadqiq etish;

(II) jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

(III) jamoat xavfsizligini ta’minlashga oid davlat va xalqaro grant loyihalarini tayyorlash va ijrosini ta’minlash, shuningdek xavfsizlik

sohasiga oid fundamental, innovatsion va amaliy loyihalarni, ixtirochilik va ratsionalizatorlik ishlarini amalga oshirish;

(IV) ilmiy-tadqiqot muassasalari (yetakchi xorijiy) bilan o‘ziga yuklatilgan vazifalar doirasida hamkorlikni amalga oshirish, shu jumladan, qo‘shma ilmiy-amaliy tadqiqotlar loyihalarini amalga oshirish hamda ilmiy kadrlarni o‘qitish sohasida o‘zaro hamkorlik bo‘yicha memorandumlar tuzish;

(V) jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini, jumladan PROFAYLING, CPTED va OSINT texnologiyalarini qo‘llash istiqbollarini ilmiy tadqiq qilish;

(VI) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezident Administratsiyasi, Prezident huzuridagi Xavfsizlik Kengashi kotibiyati, Vazirlar Mahkamasi, Milliy gvardiya qo‘mondonligiga va tegishli vazirliklarga axborot-tahliliy materiallar tayyorlash;

(VII) davlat boshqaruvi organlarining ko‘rsatmasi (buyurtmasi) asosida alohida (maqsadli) tadqiqotlar o‘tkazish va qonunchilikda belgilangan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

Shuningdek, Institutga yuklangan vazifalarni samarali bajarishi uchun:

Prezident huzuridagi Xavfsizlik Kengashi kotibiyati va Tashqi ishlar vazirligi ko‘magida Institut ilmiy xodimlari xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy ilmiy tadqiqot muassasalarida o‘qitish, malakasini oshirish va stajirovka o‘tashini yo‘lga qo‘yish;

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Milliy gvardiya bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish va innovatsion texnologiyalarni yaratishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida maqsadli ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini amalga oshirish;

Mudofaa sanoati agentligi ko‘magida Universitetda jamoat xavfsizligini ta’minlash, shuningdek mudofaa va xavfsizlik sohalarida ilg‘or texnologiyalarni yaratish hamda ularni ilmiy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali tijoratlashtirishni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga Institutga quyidagi huquqlarni berish nazarda tutish lozim:

ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish uchun zarur bo‘lgan statistik va boshqa axborotlarni davlat organlari, vazirlik hamda idoralardan beg‘araz asosda so‘rab olish;

ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari doirasida Qurolli Kuchlar, Huquqni muhofaza qilish organlari, Mudofaa sanoati agentligi hamda uning tasarrufidagi korxonalarning moddiy-texnik vositalari va laboratoriya uskunalaridan beg‘araz foydalanish, shuningdek hamkorlikda sinov-tajriba ishlarini amalga oshirish;

jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimidagi tizimli muammolarni bartaraf etish yuzasidan barcha davlat organlariga ilmiy xulosalar kiritish;

jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida shartnoma asosida ekspertlik, ilmiy-tadqiqot, noshirlik va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa pullik xizmatlar ko‘rsatish;

ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriyasida ilmiy tadqiqot natijalari asosida qurol-aslaha, o‘q-dorilar, maxsus vositalar, dronlar, robototexnika majmualari, dasturiy ta’minotlar, boshqa texnika vositalari namunalarini va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish;

jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida qabul qilingan qonunchilik hujjatlarida berilgan ilmiy taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi to‘g‘risidagi xulosa va dalolatnomalar rasmiylashtirish.

Mazkur takliflarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasini ishlab chiqish hamda ayrim normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish talab etiladi.

Fikrimizcha, Jamoat xavfsizligi universitetida Ilmiy-amaliy tadqiqot markazining tashkil etilishi jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot faoliyatini yanada takomillashtirishga, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida tayanch tadqiqot markaziga aylanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global/2024 /Order%20;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15-apreldagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5077-sonli Qarori //http:www.lex.uz.//.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3-yanvardagi “2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada

oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-sonli Qarori //http:www.lex.uz.//.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 18-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini yanada oshirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PQ-253-son Qarori //http:www.lex.uz.//.

JAMOAT XAVFSIZLIGI SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH VA MALAKA OSHIRISHNING IJTIMOIY-HUQUQIY ASOSLARI

Qurbonov Sh.M.
Jamoat xavfsizligi universiteti o‘quv-uslubiy boshqarma
katta o‘qituvchi metodesti, podpolkovnik

Annotatsiya:Maqolada O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligi kadrlarini tayyorlash tizimining ijtimoiy-huquqiy transformatsiyasi tahlil qilinadi. Prezidentning PQ-5077-son qarori asosida Jamoat xavfsizligi universitetining tashkil etilishi, sohani mustaqil ravishda rivojlantirishga asos bo‘lgani ko‘rsatiladi.[1] Tahlillar tizimni takomillashtirishda xalqaro standartlarni, xususan, BMT va YeXHTning inson huquqlari bo‘yicha talablarini integratsiya qilish zaruriyatini [2] ta’kidlaydi. Maqola kompetensiyaga asoslangan yondashuv va uzluksiz malaka oshirish mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqadi.

Kalit so‘zlar:Jamoat xavfsizligi, kadrlar tayyorlash, huquqiy asoslar, kompetensiya, jamoat politsiyasi, EXHT standartlari.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash — huquq ustuvorligini mustahkamlash va aholining adolatga bo‘lgan ishonchini shakllantirishning fundamental shartidir. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-huquqiy islohotlar, xususan, Prezidentning Murojaatnomasida ta’kidlanganidek, huquq-tartibot idoralarining faoliyatini tubdan o‘zgartirish, ularni "yangicha ishlashga o‘rgatish" hamda "odil sudlov sifatini oshirish" vazifalarini kun tartibiga qo‘ydi. Ushbu ustuvor siyosiy talablar sohadagi kadrlar siyosatini zamonaviy ijtimoiy-huquqiy tamoyillar asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Bu vazifalarni amalga oshirish doirasida, 2021 yil 15 apreldagi PQ-5077-son Qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti (JXU) tashkil etildi, bu esa sohaning bazaviy oliy harbiy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga asos soldi.

Mazkur institutsional o‘zgarishlar kadrlar tayyorlash tizimini faqat texnik jihatdan emas, balki gumanitar va etik me’yorlar bo‘yicha ham chuqur takomillashtirish zarurligini anglatadi.

Maqolaning maqsadi O‘zbekistonda jamoat xavfsizligi sohasida kadrlar tayyorlashning zamonaviy ijtimoiy-huquqiy asoslarini tahlil qilish, mavjud tizimning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, hamda xalqaro ilg‘or tajribaga (AQSh, Germaniya) tayanib, tizimni kompetensiya va yetik me’yorlarga asoslangan holda transformatsiya qilish bo‘yicha aniq takliflar berishdan iborat.

Zamonaviy jamoat xavfsizligi tizimining nazariy asosi Sir Robert Peelning dastlabki politsiya tamoyillaridan kelib chiqqan bo‘lib, hozirda "Community Policing" (Jamoat politsiyasi) falsafasi bilan boyitilgan. Ushbu falsafa huquq-tartibot organlari faoliyatini reaktiv (jinoyat sodir bo‘lgandan keyin choralar ko‘rish) modeldan proaktiv (jinoyatlarning oldini olish) modeliga o‘tkazishni, eng muhimi, fuqarolar bilan doimiy hamkorlik va ishonchga asoslangan munosabatlarni o‘rnatishni talab qiladi. Kadrlar tayyorlash bu falsafani chuqur anglashga qaratilishi zarur.

Huquqiy mohiyat jihatidan, kadrlar tayyorlash dasturlari faqat milliy qonunchilikka emas, balki inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarga, xususan, BMT va YeXHTning me’yorlariga qat’iy rioya qilishi shart. Xalqaro hujjatlar, masalan, huquq-tartibot organlari xodimlarini o‘qitishda axborotdan foydalanish huquqiga e’tibor qaratish, jurnalistlarni hibsga olish yoki so‘roq qilishdagi cheklovlar va ularning himoyalanishi masalalarini kiritish zarurligini belgilaydi.

Shu nuqtai nazardan, huquq-tartibot organlari xodimlarining har qanday harakati qonuniy yoki yo‘qligini aniqlash uchun xalqaro va qiyosiy huquqda belgilangan “uch qismli mezon” qo‘llanilishi lozim. Bu mezon – cheklov qonun bilan belgilanganligi, qonuniy maqsadni ko‘zlaganligi va demokratik jamiyatda zarur hamda mutanosib ekanligini anglatadi. Ushbu mezonlarning o‘quv dasturlariga to‘liq integratsiyasi huquqni qo‘llash amaliyotining legitimliligini oshiradi. Bundan tashqari, kadrlar tayyorlashda jurnalistlar xavfsizligini ta’minlash, ularga qarshi jinoyatlarni tergov qilish protokollari va gender jihatlarini inobatga olgan holda ta’qib xavflarini baholashni yaxshilash kabi majburiy choralar ko‘rilishi YeXHT tomonidan ham talab etiladi. Agar xodimlar inson huquqlari standartlariga mos tarzda ishlasa, jamoatchilikning organlarga nisbatan ishonchi ortadi, bu esa samarali jinoyatchilikning oldini olish uchun asos yaratadi.

O‘zbekiston jamoat xavfsizligi kadrlarini tayyorlash tizimi institutsional jihatdan yaxshi shakllangan. U Ichki ishlar vazirligi (IIV) oliy ta’lim muassasalarini, Jamoat xavfsizligi universitetini , Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetini va IIV Maxsus tayyorgarlik o‘quv markazini o‘z ichiga oladi.

Tizimda uzluksiz ta’lim va malaka oshirish mexanizmlari mavjud. Yosh kadrlarning kasbiy o‘sishini uzluksiz monitoring qilish va ularga murabbiylar biriktirish tizimi yaratilgan. Bundan tashqari, “El-yurt umidi” jamg‘armasi doirasida istiqbolli kadrlarni rivojlangan xorijiy davlatlarda malaka oshirish va ilg‘or tajribani o‘zlashtirish tizimi takomillashtirilmoqda. Xorijiy davlatlar ta’lim muassasalarida o‘qish uchun tanlovlar ham o‘tkaziladi.

Tizimning kuchli monitoringga ehtiyoji borligi, dastlabki tanlov va tayyorgarlikning sifati yetarli emasligini ko‘rsatadi. Malaka oshirish va murabbiylik tizimi ko‘proq reaktiv xarakterga ega, ya’ni tizim xatolarni oldini olishdan ko‘ra, ularni xizmat davomida tuzatishga qaratilgan.

Asosiy zaifliklardan biri kadrlar bo‘linmalari faoliyatida psixodiagnostika vositalaridan to‘liq foydalanish va amaliyotchi psixologning etik kodeksiga qat’iy rioya qilish mexanizmlarining mustahkam emasligidadir. Bu esa kadrlarni tanlashda nafaqat bilimlarni, balki ularning psixologik barqarorligi va axloqiy me’yorlarini ham birinchi o‘ringa qo‘yish zarurligini ta’kidlaydi. Prezident tomonidan “huquq-tartibot idoralarini yangicha ishlashga o‘rgatish” talabi mavjud o‘quv dasturlari zamonaviy strategik boshqaruv va insonparvarlik ko‘nikmalarini yetkazib bera olmasligini, shuningdek, kadrlar siyosatining tubdan qayta ko‘rib chiqilishini talab etayotganini bildiradi.

Jamoat xavfsizligi kadrlarini tayyorlashda xorijiy tajribalarni o‘rganish O‘zbekiston tizimini transformatsiya qilish uchun muhim yo‘nalishlarni taqdim etadi.

AQSh tajribasi: Amerika Qo‘shma Shtatlari (AQSh) tizimi, ayniqsa, Jamoat politsiyasi (Community Policing) falsafasiga qat’iy amal qiladi. U yerdagi ta’lim dasturlari faqat qonunni va texnik protseduralarni o‘rgatishga emas, balki xodimlarning munosabati, vaziyatni baholash, nizolarni zo‘ravonliksiz hal qilish, shuningdek, jamiyat bilan samarali muloqot qilish kabi "yumshoq ko‘nikmalar" (soft skills) ni shakllantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv fuqarolarning politsiya niyati va salohiyati haqidagi tasavvurlarini o‘zgartirish orqali hamkorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Germaniya tajribasi: Germaniya huquq-tartibot organlari kadrlar tayyorlashda yuqori darajadagi professionalizm va pedagogik sifat nazoratiga e’tibor qaratadi. O‘zbekiston normativ hujjatlarida ham idoraviy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari tarkibiga pedagog kadrlarni ishga qabul qilish komissiyasi faoliyatini nazorat qilish mexanizmlari mavjudligi Germaniya tajribasi bilan mos keladi. Germaniya tajribasidan olinadigan asosiy xulosa shundaki, o‘quv dasturlarining sifati faqat mazmunga emas, balki ta’lim beruvchilarning o‘z malakasiga, ilmiy salohiyatiga va pedagogik nazoratning uzluksizligiga bog‘liqdir. Yuqori sifatli o‘qituvchilar tarkibiga ega bo‘lish “yangicha ishlashga o‘rgatish” vazifasini samarali amalga oshirishning asosiy omilidir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Germaniya modelidan pedagogik sifatni nazorat qilishni, AQSh modelidan esa "Community Policing" falsafasini va inson huquqlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni kuchaytirishni o‘zlashtirishi strategik ahamiyatga ega.

Tizimni transformatsiya qilish huquqiy baza, o‘quv dasturlari va baholash mexanizmlarini tubdan o‘zgartirishni talab etadi.

1. Huquqiy bazani takomillashtirish: Jamoat xavfsizligi sohasiga oid barcha me’yoriy hujjatlarga BMT va YeXHTning inson huquqlari bo‘yicha majburiy standartlarini, jumladan, axborot erkinligini cheklashda “uch qismli sinov”ni qo‘llash tamoyilini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritish.

2. Kompetensiyaga asoslangan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish: Ta’limni faqat qonunchilikni yodlashdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga o‘tkazish. Bu borada quyidagi asosiy kompetensiyalar ustuvor hisoblanadi:

Kadrlar Tayyorlash va Malaka Oshirishda Asosiy Kompetensiyalar

3. Amaliy trening va simulyatsiya mashg‘ulotlarini keng joriy etish: Nazariy ma’ruzalar o‘rniga, vaziyat tahlillari (case studies) va real simulyatsiyalarga asoslangan ta’limga ustuvorlik berish. Bu, ayniqsa, jurnalistlar xavfsizligini ta’minlash va tartibsizliklar vaqtida mutanosiblikni saqlash bo‘yicha treninglarni o‘z ichiga olishi kerak.

4. Uzluksiz malaka oshirish tizimini joriy qilish va baholash: Malaka oshirish kurslarini xizmat yillari uchun majburiy o‘tash emas, balki xodimlarning xizmat natijalari va aniqlangan kompetensiya bo‘shliqlari asosida individual rejalashtirish. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish, "El-yurt umidi" jamg‘armasi orqali nafaqat rahbarlarni, balki ta’lim beruvchi pedagog-kadrlarni ham chet elda o‘qitish.

Taklif qilingan Uzluksiz Malaka Oshirish Modullari

5. Samaradorlikni baholashning yangi mezonlarini kiritish: Kadrlar tayyorlashning yakuniy samaradorligini faqat imtihon natijalari orqali emas, balki ijtimoiy-huquqiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan mezonlar orqali baholash.

Kadrlar Tayyorlash Samaradorligini Baholash Kriteriylari

O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi sohasida kadrlar tayyorlash bo‘yicha institutsional asoslarni mustahkamladi, Jamoat xavfsizligi universiteti va uzluksiz ta’lim tuzilmalarining mavjudligi bunga yaqqol misoldir. Biroq, tizimning amaliy samaradorligini oshirish uchun huquqiy va ijtimoiy yondashuvlarni chuqur o‘zgartirish talab etiladi.

Tizim hali ham an’anaviy pedagogik yondashuvlarga va reaktiv nazoratga tayanmoqda. Huquq-tartibot organlarining adolatli hukm va qarorlar chiqarilishiga bevosita ta’sirini oshirish uchun kadrlar tanlovida psixodiagnostikani kuchaytirish va o‘quv dasturlariga BMT/EXHT inson huquqlari standartlarini to‘liq integratsiya qilish shart.

Kompetensiyaga asoslangan ta’limga, xususan, "Community Policing" falsafasini amaliyotga joriy etish orqali O‘zbekiston fuqarolar ishonchini qozonadi, odil sudlov sifatini oshiradi va uzoq muddatli ijtimoiy-huquqiy barqarorlikni ta’minlashga erishadi. Xorijiy tajribadan olingan xulosalar va taqdim etilgan baholash mezonlari tizim transformatsiyasi uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Majburiy Psixodiagnostik Tanlov: Kadrlar bo‘linmalariga psixologik xavf tahlili va "Etik Kodeks" asosida qat’iy saralash mexanizmlarini joriy etish.

1. **Xalqaro Standartlarni Integratsiya Qilish:** Xalqaro standartlar (BMT, YeXHT) bo‘yicha maxsus sertifikatlash kurslarini barcha xodimlar va pedagoglar uchun majburiy qilish.
2. **Pedagogik Kadrlarni Tayyorlash:** Germaniya tajribasiga o‘xshab, JXU professor-o‘qituvchilari tarkibining malakasini "El-yurt umidi" jamg‘armasi orqali xorijda tizimli oshirish va malaka oshirish faoliyatini nazorat qilish.
3. **Jamoat Politsiyasi Modeli:** Barcha ta’lim bosqichlariga Community Policing falsafasini kiritish va ta’lim natijalarini Jamoatchilik Ishonch Indeksi orqali baholash.
4. **Qonunchilikni Aniqlashtirish:** Huquq-tartibot organlari faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlarga huquqlarni cheklashning uch qismli mezonini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi PQ-5077-son Qarori. “Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-fevraldagi PQ-4168-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3430-son Qarori. “O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari kadrlar bilan ishlash va ularning xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida” (O‘zgarishlar bilan).
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-dekabrdagi PF-205-son Farmoni (IIV idoraviy ta’lim muassasalari bo‘yicha).
5. EXHT (OSCE). Recommendations on the Safety of Journalists and Prosecution of Crimes against Media Workers. 2023.
6. UNESCO/OHCHR/OSCE. Training Modules for Law Enforcement on Freedom of Expression and Public Order. Module 3.
7. Sodiqova M. Jamoat xavfsizligi organlarida kadrlar siyosati va psixodiagnostika masalalari. Ilmiy-amaliy maqola.
8. Peel, R. (1829). Peelian Principles and their relation to Community Policing. *Wikipedia* (Ma’lumotga havola asos

MILLIY GVARDIYANING JAMOAT XAVFSIZLIGI VA DAVLAT SIYOSATINI TA’MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL O‘RNI

Usmanov A.T.
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Surishtiruvni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari
alisherusmanovalibi@umail.uz

Annotatsiya: Maqolada davlat boshqaruvi tizimida Milliy gvardiyaning o‘rni va maqomi atroflicha tahlil qilingan. Muallif davlat xizmati va davlat boshqaruvi tushunchalarining huquqiy va nazariy asoslarini yoritar ekan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining tashkiliy tuzilishi, funksiyalari hamda huquqiy maqomini tadqiq qiladi. Qonunchilik tahlili asosida Milliy gvardiyaning markazlashgan boshqaruv tizimi, qo‘mondonning maqomi va uning Prezidentga bevosita hisobdorligi, shuningdek, qo‘riqlash faoliyati sohasida davlat siyosatini amalga oshirishdagi vakolatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada Milliy gvardiyaning

amalda “Vazirlik maqomi”ga ega organ sifatida faoliyat yuritishi ilmiy asoslanadi. Shu bilan birga, muallif qo‘riqlash faoliyati sohasida davlat siyosatini takomillashtirish maqsadida ilmiy-tadqiqot muassasasi tashkil etish zaruriyati to‘g‘risida taklif ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: davlat boshqaruvi, davlat xizmati, Milliy gvardiya, vazirlik, qo‘riqlash faoliyati, davlat siyosati.

Davlat boshqaruvi murakkab, harakatchan tizimga ega bo‘lib, uning har bir elementi ijtimoiy hayotni tartibga solishga ta’sir ko‘rsatadi. Yuridik adabiyotlarda davlat boshqaruvining **tizimlilik** xususiyatiga alohida e’tibor berilgan. Milliy va chet el yuridik adabiyotida **davlat boshqaruvi** organining umume’tirof etilgan ta’rifi mavjud emas. Jumladan, bir qator olimlar tomonidan ushbu tushunchaning xususiyatlaridan kelib chiqib, unga mualliflik ta’rifi berilgan[1].

I.A.Xamedovning fikricha, “Davlat boshqaruviga berilgan barcha ta’riflarda, uning asosiy mazmuni – **davlatning ijtimoiy** munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan maqsadga muvofiq amaliy ta’sir etish ekani ko‘rsatib o‘tilgan”[2].

Qozog‘istonlik olim F.I.Bokijanova esa, “**davlat boshqaruvi** - maxsus vakolatli boshqaruv subyektlari tomonidan qonun bilan belgilangan hajmda va tartibda amalga oshiriladigan kundalik va operativ faoliyat turi. Davlat boshqaruvi jarayonida maxsus vakolatli subyektlar o‘z vakolatlari doirasida va ularga tegishli masalalar bo‘yicha **davlatning ichki va tashqi funksiyalarini** amalga oshiradilar. Bu faqat ijro hokimiyati doirasida emas, balki qonun chiqaruvchi, sud va prokuratura sohalarida ham amalga oshiriladi”[3]-deb ta’kidlagan.

Modomiki **davlat boshqaruvi** davlatning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan ta’sir yoki davlatning ichki va tashqi funksiyalarini amalga oshirishdan iborat ekanligidan kelib chiqilsa, **“davlat xizmati”** va uning **turlari** haqida to‘xtalish lozim bo‘ladi.

Davlat xizmati bu davlat **hokimiyati** va **boshqaruvi organlari**ning vakolatlarini amalga oshirishga qaratilgan professional xizmat faoliyatidir[4].

---

[1] Fayziev X. Davlat boshqaruvi organlari tushunchasi // Demokratlashtirish va inson huquqlari. – 2022. - №2. – B. 43-47

[2] Ismoilov N.T., Muxamedov O‘.X., Tursunov A.S. va boshq. Ma’muriy huquq: Darslik / Sh.T. Ikramov va I.A. Xamedov tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – B.-7.

[3] Бокижанова Ф.И., Сыздыкова К.Ш., Калиакпарова Г.Ш., Сеитова А.Б. Теория государственного управления: Учебное пособие. (2-ое изд.) Алматы: ИП «LP-Zhasulan», 2021. – С.-5.

[4] Davlat xizmati. O‘quv qo‘llanma / X.Azizov, A.Yo‘ldoshev, Sh.Asadov, X.Xayitov, D.Karimov, D.Bekchanov, D.Atajanova, F.Yuldasheva. – Toshkent: “Tafakkur qanoti”, 2019. – 248 bet

Harbiy xizmat esa O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi **davlat xizmatining** alohida turi[1].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Haqiqiy rahbar, haqiqiy yetakchi odamlarning bardoshini sinash uchun emas, balki ularga munosib shart-sharoit yaratib berish, og‘irini yengil qilish uchun rahbar etib tayinlanadi. Barcha bo‘g‘indagi rahbarlar – u vazir yoki hokim bo‘ladimi, idora yoki tashkilot boshlig‘i bo‘ladimi, o‘zining odob-axloqi va madaniyati bilan hammaga o‘rnak va namuna bo‘lishi zarur”[2].

Davlatning faoliyat ko‘rsatishi, davlat apparati va davlat xizmatining holati mamlakat aholisida unga nisbatan tasavvurlarni paydo qiladi. Davlat nomidan harakat qilayotgan xizmatchining salohiyati va faoliyatiga qarab davlatga yoki davlat apparatiga baho beriladi. Shu sababli, har bir davlatda **davlat xizmatining** qanday shakllangani, uning demokratik talablarga mos ekanligi muhim hisoblanadi. **Davlat hokimiyati** va **boshqaruvi organlari**ni yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash, ular bilan doimiy ishlash, malakasini oshirib borish, samarali davlat xizmatchilari zaxirasini shakllantirish masalalari har qanday davlat oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi[3].

O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatini isloh qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish **davlat boshqaruvini** tashkil etishning dolzarb masalalaridan biri hisoblanib, davlat xizmatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda davlat xizmatiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normalar o‘z aksini topgan. Davlat xizmati konstitutsiyaviy, ma’muriy, mehnat, moliya va boshqa huquq sohalarining normalari bilan tartibga solingan bo‘lib, huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan tegishli ishlar davom ettirilmoqda.

Davlat va jamiyat hayotida qonuniylikni ta’minlash borasida davlat boshqaruvi organlari tomonidan davlatning funksiya va vazifalarini amalga oshirish jarayonida aholiga turli xizmatlar ko‘rsatiladi. Ushbu jarayonda, davlat o‘z funksiya va vazifalarini muntazam amalga oshirishini ta’minlashda davlat xizmatini to‘g‘ri tashkil etish juda muhim ekanligini

---

[1] “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.12.2002 yildagi 436-II-son // https://lex.uz/docs/78717

[2] Mirziyoyev Sh.M. Tartib-intizom va mas’uliyatni kuchaytirish, jinoyatchilikning oldini olish muhitini mustahkamlash – huquqbuzarlik profilaktikasi samaradorligining asosiy omilidir // 2017 yil 15 noyabr kungi mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida belgilangan vazifalar ijrosi, bu borada mavjud muammolar va ularni hal etish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishigi ma’ruza. 2017 y. 15 noyabr // Manba: O‘zbekistan Milliy axborot agentligi (O‘zA)ning veb-sayti- www.uza.uz

[3] Davlat xizmati. O‘quv qo‘llanma / X.Azizov, A.Yo‘ldoshev, Sh.Asadov, X.Xayitov, D.Karimov, D.Bekchanov, D.Atajanova, F.Yuldasheva. – Toshkent: “Tafakkur qanoti”, 2019. – 248 bet

ta’kidlash lozim. Vazifalarni bajarishda esa davlat xizmatchilarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ilmiy-nazariy adabiyotlarda huquqshunos, siyosatshunos, iqtisodchi olimlar “davlat xizmati” va “davlat xizmatchisi” tushunchalariga turlicha ta’riflar berishmoqda. Davlat xizmati tushunchasini ko‘rib chiqishdan oldin “xizmat” tushunchasiga to‘xtalish maqsadga muvofiq.

D.N.Baxraxning fikricha: “Inson, davlat va jamiyatning maqsadga muvofiq faoliyat yo‘nalishlaridan biri – bu **xizmatdir**”, deb ta’rif berilgan. Bu tushuncha turli ma’nolarda: insonning faoliyat turi, ijtimoiy-huquqiy institut sifatida, davlat organlarining maxsus tizimi ma’nosida qo‘llanilishi mumkin. Demak, “**xizmat** – boshqaruvdan, davlat faoliyatini amalga oshirishdan, boshqaruvni ta’minlashdan, aholiga ijtimoiy-madaniy xizmat ko‘rsatishdan iborat”[1].

Shuningdek, **xizmat** – insonlarning ijtimoiy foydali mehnat turi sifatida talqin qilinadi. Huquqiy adabiyotlarda “**davlat xizmati**” tushunchasi huquqiy institut bo‘lib, davlat organlaridagi ijtimoiy foydali mehnat turi sifatida talqin qilinadi. Huquqiy institut sifatida davlat xizmati undagi kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarning yig‘indisidir. ...Ba’zi bir huquqshunos olimlar “xizmat huquqi” tushunchasiga to‘xtalib, “xizmat huquqi” atamasining o‘zini qo‘llash maqsadga muvofiq emas, deb hisoblasalar, ayrimlari, “xizmat huquqini” **ma’muriy huquqning ichki sohasi** sifatida, uchinchi guruh olimlari esa, “xizmat huquqi”ni kompleks soha tarkibiga kiritadilar. Bundan tashqari, **xizmat huquqi** mustaqil huquq sohasi ekanligi to‘g‘risidagi qarashlar ham mavjud[2].

N.I.Korkunovning ta’rifiga ko‘ra, har qanday davlat manfaati uchun **faoliyatni** davlat xizmati (keng ma’noda) deb atash mumkin. U davlat xizmatini davlat xizmatchisining davlatga nisbatan alohida ijtimoiy-huquqiy munosabati sifatida, bo‘ysunishga asoslangan va uning mazmuni majburiy faoliyatga ega, davlat nomidan amalga oshiriladigan va muayyan vazifani amalga oshirishga qaratilgan davlat faoliyati sifatida tariflaydi[3].

Ayrim qo‘llanmalarda “**Davlat xizmati** – bu davlat organida ma’lum bir mansabni egallab turgan shaxs tomonidan davlat vazifalari va

[1] Бахрах А.П. Административное право. – Москва, 1993.

[2] Davlat xizmati. O‘quv qo‘llanma / X.Azizov, A.Yo‘ldoshev, Sh.Asadov, X.Xayitov, D.Karimov, D.Bekchanov, D.Atajanova, F.Yuldasheva. – Toshkent: “Tafakkur qanoti”, 2019. – 8 bet

[3] Коркунов Н.М. Русское государственное право. С.-Петербург Типография М. М. Стасюлевича. 1909 г.. // https://istmat.org/node/25521 (мурожаат қилинган вақт: 28.06.2025).

funksiyalarini bajarish maqsadida hokimiyat vakolatlarining amalga oshirilishiga qaratilgan kasbiy **faoliyatdir**"[1]-deyilgan.

Mamlakatimizda davlat xizmatini tartibga soladigan normativ-huquqiy hujjatlarga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar va konunosti hujjatlar kiradi.

O‘zbekistonda 2017 yildan davlat xizmatini tartibga soladigan maxsus unifikatsiyalashgan "Davlat xizmati to‘g‘risida"gi qonunni qabul qilish ustida ish olib borila boshlangan. Jumladan, O‘zLiDeP 2018 yilda "Davlat xizmati to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishiga erishmoqchi ekanligini bildirgan[2].

O‘zbekistonlik mutaxassislar davlat xizmatchisi boshqa xizmatchilaridan bir qancha belgilar bilan ajralib turishini ta'kidlaydilar.

Birinchi belgi – xizmat qilayotgan davlatning fuqarosi bo‘lishi. Davlat xizmatchisi barcha harakatlarini davlat nomidan amalga oshiradi va davlatning vazifa va funksiyalarini bajarish jarayonida ma'lum bir vakolatlarga, huquq va majburiyatlarga, ijtimoiy kafolatlarga ega bo‘ladi. Bu esa davlat tomonidan ta'minlanadi. **Ikkinchi belgisi** bu – maxsus bilim, tegishli malaka ya'ni oliy ma'lumotga egalik. Davlat xizmatchisidan o‘z xizmat vazifalarini professionallik darajada ijro etish shart. **Uchinchi belgisi** bu shaxs o‘z faoliyatini Davlat reestriga kiritilgan lavozimlarda amalga oshirishi va davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida mansab lavozimga egalik. Ya'ni, davlat xizmatchisi davlat boshqaruv organlarida tegishli mansab lavozimini egallaydi va egallangan mansab lavozimiga qarab xizmatchini "davlat xizmatchisi" sifatida ajratib olish mumkin. Aynan egallagan mansab (lavozim) davlat tomonidan beriladigan vakolatlar doirasini, xizmatiga maosh, chin, maxsus unvon va boshqalarni belgilaydi. **To‘rtinchi belgi** bu davlat xizmatchilari mehnatiga haq to‘lash davlat budjeti mablag‘laridan amalga oshirilishidir[3].

O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatchisi **uch toifaga**, ya'ni **davlat fuqarolik** xizmatchisiga, **Qurolli Kuchlar harbiy** xizmatchisiga hamda **davlat maxsus** xizmatchisiga bo‘linadi[4].

---

[1] Davlat xizmati: o‘quv qo‘llanma / E. T. Xojiev, G. S. Ismailova, M. A. Raximova. – Toshkent: Baktria press, 2015. – B. 15.

[2] "O‘zLiDeP 2018 yilda "Davlat xizmati to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishiga erishmoqchi". O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. 2017-12-29. // https://old.gov.uz/uz/news/view/13669 (murojaat qilingan vaqt: 30.06.2025).

[3] Davlat xizmati. O‘quv qo‘llanma / X.Azizov, A.Yo‘ldoshev, Sh.Asadov, X.Xayitov, D.Karimov, D.Bekchanov, D.Atajanova, F.Yuldasheva. – Toshkent: "Tafakkur qanoti", 2019. -B.– 27-28.

[4] "O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 03.10.2019 yildagi PF-5843-son. // https://lex.uz/docs/4549998 (murojaat qilingan vaqt: 30.06.2025).

Davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyati davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi harbiy xizmat hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi xizmat alohida qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Davlat boshqaruvi tushunchasi bilan **“davlat xizmati”** va **“davlat xizmatchisi”** atamalari o‘zaro juda yaqin bog‘liq bo‘lib, kesishadi[1]. Bu tushunchalar bir-birini to‘ldiradi, chunki davlat boshqaruvi amaliyotda aynan **davlat xizmatchilari** orqali amalga oshiriladi.

“Davlat boshqaruvi” atamasi jamiyat hayotini tartibga solish va muvofiqlashtirish muammolari bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy faoliyat sohasini ifodalaydi. Bu muammoni **tizimli** o‘rganishdagi boshlang‘ich nuqta — davlatni boshqaruv subyekti sifatida ko‘rib, uning faoliyati natijadorligi, **samaradorligi** va hisobdorligini anglashdan iborat[2].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “**organ**” so‘zining ma’nolari keltirilgan bo‘lib, ulardan biri “Hayotning muayyan bir sohasida belgilangan vazifalarni bajaruvchi muassasa, tashkilot” yoki “Mexanizm va mashinalarning ma’lum vazifani bajaradigan murakkab mustaqil qismi”[3]-deb izoh berilgan.

Belorus olimining ta’kidlashicha, “har qanday **davlat hokimiyati organining** o‘ziga xos jihati shundaki, u davlat vazifalari va funksiyalarini amalga oshiradi hamda davlat nomidan ish yuritadi, davlat hokimiyati vakolatlari bilan ta’minlangan bo‘ladi. Bu vakolatlar organga davlat nomidan yuridik hujjatlar qabul qilish huquqini beradi. Bunday hujjatlar ularga qaratilgan shaxslar uchun majburiy hisoblanadi va ularni amalga oshirishni ta’minlovchi choralarni, jumladan, ishontirish, rag‘batlantirish va majburlash choralarini qo‘llash imkoniyatini o‘z ichiga oladi”[4].

Davlat organi – belgilangan tartibda davlat apparati tizimida tashkil etilgan tuzilma bo‘lib, vazifalar, funksiyalar, tuzilish xususiyatlari va maxsus kompetensiyasi bilan tavsiflanadi. Organ tushunchasi kengroq tushuncha bo‘lgan “tashkilot” ning bir qismi hisoblanadi. Tashkilot - bu insonlarning birlashmasi, jamoasi bo‘lib hisoblanadi, tashkilot insonlarning ma’lum bir maqsadga erishish yoki ma’lum bir vazifani bajarishga

---

[1] Бокижанова Ф.И., Сыздыкова К.Ш., Калиакпарова Г.Ш., Сеитова А.Б. Теория государственного управления: Учебное пособие. (2-ое изд.) Алматы: ИП «LP-Zhasulan», 2021. – С.6..

[2] Купряшин, Г. Л. Основы государственного и муниципалного управления : учебник и практикум для академического бакалавриата / Г. Л. Купряшин. — 2-е изд., перераб. и доп. — М. : Издателство Юрайт, 2018. — С. 18-19.

[3] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. // https://izoh.uz/uz/word/organ (murojaat qilingan vaqt: 16.04.2025).

[4] Пугачёва, Т.И. Административное право: Учеб.-метод. комплекс для студ. спец. 1-24 01 02 «Правоведение». В 4 ч. Ч. 1 / Т.И. Пугачёва. – Новополоцк: ПГУ, 2006. – С. 83.

erishishga qaratilgan faoliyatini anglatadi. Har qanday davlat organi davlat tashkilotining bir ko‘rinishi bo‘lib, davlat funksiyasini amalga oshiradi. Davlat organlari davlat-hokimiyat vakolatiga ega bo‘ladi, ya’ni: normativ aktlarni qabul qiladilar, huquq qo‘llash va huquqni himoya qilish faoliyatini amalga oshiradilar[1].

Davlat fuqarolik xizmatini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasida, **davlat organi** — Davlat fuqarolik xizmati tatbiq qilinadigan davlat organlari va tashkilotlari ro‘yxatiga kiritilgan davlat hokimiyat vakolatlariga ega bo‘lgan tashkiliy jihatdan alohida tuzilma,[2] deb ta’rif berilgan.

“Boshqaruv organi” tushunchasi — bu mazmunan «tashkilot» degan kengroq tushunchaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Tashkilot — bu aniq maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun umumiy harakat yo‘nalishi bilan birlashgan shaxslar jamoasidir. **Organ** — bu biror tashkilotning muayyan bir ko‘rinishi (raznovidnost) bo‘lib, u orqali tashkilot o‘z faoliyatini amalga oshiradi. Har bir davlat va mahalliy boshqaruv organi tegishlicha davlat yoki mahalliy hududiy tashkilot nomidan ish yuritadi. Organlar majmuasi esa **davlat apparatini** tashkil etadi[3].

X.Fayziyev 2022 yilda chop etgan maqolasida Rossiyalik huquqshunos olim A.A.Grishkovesning quyidagi fikrlarini keltirgan: “**Davlat boshqaruvi organi** – bu normativ ravishda aniq belgilangan kompetensiya doirasiga ega, yuridik (qonun yoki qonun ijrosi yuzasidan chiqarilgan qonunosti normativ-huquqiy hujjat asosida) va tashkiliy jihatdan davlat apparati tuzilmasining alohida qismi hisoblanib, qoida tariqasida, uning kompetensiyasiga davlat hokimiyati vakolatlari, jumladan, **boshqaruvga oid huquqiy hujjatlarni** chiqarish hamda qonunda nazarda tutilgan hollarda davlat majburlov choralarini qo‘llash kabilarni amalga oshirish kiradi”[4].

Boshqaruv funksiyasi — boshqariladigan hodisa, munosabat yoki holatga qaratilgan haqiqiy (real), majburlovchi, maqsadli, shakllantiruvchi

[1] Hojiev E.T. Davlat xizmati. O‘quv qo‘llanma. Tashkent Davlat yuridik instituti, 2004. – B 23.
[2] Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.06.2025 yildagi PF-95-son // https://lex.uz/ru/docs/7587464
[3] Кизил, Е. В. Основы государственного и муниципалного управления : конспект лекций / Е. В. Кизил. – Комсомолск-на-Амуре : ФГБОУ ВПО «КнАГТУ», 2014. – С.32.
[4] Файзиев Х. Давлат бошқаруви органлари тушунчаси // Demokratlashtirish va inson huquqlari. – 2022. - №2. – Б. 43-47

va tartibga soluvchi ta’sir, bu ta’sirga mazkur hodisalar, munosabatlar va holatlar aks ta’sir qaytaradi va ta’sirni qabul qiladi. [1]

F.I.Bokijanova, boshqaruv funksiyalarini samarali amalga oshirish uchun davlat boshqaruvi subyektlari bir tomonlama davlat hokimiyati vakolatlariga doir **huquqiy hujjatlarni** ishlab chiqish va qabul qilish bo‘yicha vakolatlari bilan ta’minlanadilar va bu huquqiy hujjatlarni ijrosi davlat majburlash choralari bilan kafolatlanadi[2] - deb ta’kidlab, **davlat xizmati instituti-**

davlat xizmat munosabatlarini shakllantirish tartibi;

davlat nomidan (shuningdek, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari nomidan) uning funksiyalarini amalga oshiruvchi xizmatchilar egallaydigan davlat lavozimlari, hamda xizmatchining huquqiy maqomi;

xizmatni o‘tash tartibi;

davlat xizmat munosabatlarini tugatish asoslarini belgilaydigan huquqiy normalarni o‘z ichiga olishi haqida fikr bildiradi. Davlat xizmati institutining barcha asosiy elementlarini belgilaydigan aniq **qonun hujjatlari** va boshqa **normativ aktlar** mavjudligini ta’kidlaydi.

H.Rahmonqulovning fikricha “har qanday huquq sohasining predmeti uning normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardan iborat. Ma’muriy huquq umuman olganda, **davlat boshqaruvi sohasida** vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normalarning yig‘indisidan tashkil topgan huquq sohalaridan iborat. Bunday ijtimoiy munosabatlar davlat organlari tomonidan ijro etish va **boshqarish faoliyatini** amalga oshirish jarayonida vujudga keladi”[3].

Davlat organlari davlatning boshqa tashkilotlaridan farqli ravishda, jamiyatning turli sohalarida tashkillashtirish, tartibga solish, rahbarlik qilish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, ijro etish va farmoyish berish kabi funksiyalarni bajaradi. Umumiy qoidaga ko‘ra, davlat organlari davlat boshqaruvini amalga oshiradilar. Davlat boshqaruvini amalga oshirish maqsadida davlat davlat organlari o‘rtasida vakolatlarni taqsimlash yo‘li bilan ularga hokimiyat-vakolatini beradi. Har bir davlat organi faqatgina hokimiyat-vakolati doirasida harakat qilishi mumkin. Davlat organlari, davlat muassasasi va davlat korxonasidan farqli ravishda, o‘zining oldida turgan maqsadga erishish hamda davlat vazifalari va funksiyalarini amalga

[1] Бокижанова Ф.И., Сыздыкова К.Ш., Калиакпарова Г.Ш., Сеитова А.Б. Теория государственного управления: Учебное пособие. (2-ое изд.) Алматы: ИП «LP-Zhasulan», 2021. – С. 210.

[2] Бокижанова Ф.И., Сыздыкова К.Ш., Калиакпарова Г.Ш., Сеитова А.Б. Теория государственного управления: Учебное пособие. (2-ое изд.) Алматы: ИП «LP-Zhasulan», 2021. – С. 6.

[3] Rahmonqulov H.R. O‘zbekiston Respublikasining milliy huquq tizimi (o‘quv qo‘llanma). Toshkent Davlat yuridik instituti, Toshkent, 2004. – B.15.

oshirish uchun turli maxsus usullardan (masalan, davlatning majburlov kuchidan) foydalanadi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning avgust oyidagi tegishli farmoni asosida O‘zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligi va davlat suverenitetini himoya qilish, fuqarolarning konstitutsion huquq va erkinliklarini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi IIV Ichki vazifalarni bajaruvchi bo‘linmasi va O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining maxsus brigadasi bazasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qaytadan shakllantirildi.

Bu vaqtda, Milliy gvardiyaning faoliyati, uning alohida tarkibiy bo‘linmalari va muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi, yuqorida ko‘rsatilgan vazirlik va idoralarining buyruqlari, O‘zbekiston Respublikasining bir nechta qonunosti hujjatlari bilan belgilangan edi.

Xavfsizlik kengashining 2018 yilning 10 yanvar kuni o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishida, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Milliy gvardiyaning asosiy vazifalari va davlat va jamoat xavfsizligi sohasida oxirgi yillarda yuz bergan muammolar haqida gapirar ekanlar, Milliy gvardiya tashkil etilganini alohida ta’kidlab, maxsus harbiy bo‘linma faoliyati jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish, aholini turli terrorchilik xatarlaridan, jinoiy va boshqa noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilishga qaratilganligini, Milliy gvardiya mamlakat xavfsizligini ta’minlash tizimidagi muhim bo‘g‘inga aylanganligini bildirdilar[2].

2019 yilning yanvar oyiga qadar Milliy gvardiya shaxsiy tarkibi harbiy unvonga ega bo‘lgan va muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilardan iborat edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq, 2019 yil 29 yanvarda Ichki ishlar vazirligidan Milliy gvardiya tarkibiga Qo‘riqlash bosh boshqarmasi va uning hududiy bo‘linmalari, Xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari qo‘riqlanishini ta’minlash bo‘yicha alohida bataloni, ichki ishlar organlari xodimlarini dastlabki tayyorlash va malakasini oshirish markazlari, Milliy gvardiya tuzilmasida esa Surishtiruvni muvofiqlashtirish boshqarmasi hamda hududiy surishtiruv bo‘limlari, shuningdek nazorat va ruxsat berish boshqarmasi tashkil etildi.

---

[1] Xojiev E. T. Davlat xizmati : o‘quv qo‘llanma / E. T. Xojiev, G. S. Ismailova, M. A. Raximova. – Toshkent: Baktria press, 2015. – B.14.

[2] Milliy gvardiya jamoat tartibini saqlash bilan shug‘ullanadi, Sputnik yangiliklar agentligi. // https://sputniknews.uz/docs/terms_of_use.html

2019 yilning 12 noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida «O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida»gi qonun loyihasi ko‘rib chiqildi. 2019 yil 13 dekabr kuni esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi majlisida Senatining yigirma beshinchi yalpi majlisi muhokamasiga kiritilgan masalalar dastlabki tarzda ko‘rib chiqildi. Senatorlar “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini muhokama qilishdi.

Mazkur Qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2019 yil 14 dekabrdagi yigirma beshinchi yalpi majlisda ma’qullandi. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonun 2020 yil 18 noyabrda imzolanib, rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran olti oy o‘tgach, ya’ni 2021 yilning 20 may kuni kuchga kirishi belgilandi[1].

Qonun bilan Milliy gvardiyaning faoliyati huquqiy tartibga solindi va unda organning huquqiy maqomi hamda asosiy vazifalari belgilab berildi. Unga ko‘ra, Milliy gvardiya O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo‘shinlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo‘lgan maxsus turi ekanligi o‘rnatildi.

Shuningdek, Milliy gvardiyaning asosiy vazifalari etib quyidagilar:

- jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;
- davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlash;
- **qo‘riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish** va boshqa vazifalar belgilandi.

Boshqa organlardan farqli ravishda Milliy gvardiyaning boshqaruv organi Milliy gvardiyaning markaziy devoni etib nomlandi. Qonunda Milliy gvardiya Milliy gvardiyaning qo‘mondoni rahbarlik qiladigan yagona markazlashtirilgan tizimni tashkil qilishi, Milliy gvardiya qo‘mondoni bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunishi, hamda Milliy gvardiya qo‘mondoni maqomiga ko‘ra **vazirga tenglashtirilgani** qayd etildi.

[1] “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.11.2020 yildagi O‘RQ-647-son. // https://lex.uz/docs/5128310#5128801

O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida “**Vazirlik** — muayyan davlatlarda alohida bir sohaga rahbarlik qiladigan ijrochi organ. Vazirlik rahbari, odatda, hukumat tarkibiga kiruvchi davlat arbobi hisoblanadi. Vazirliklar qonun chiqaruvchi oliy organlar (mas., AQShda) yoki davlat rahbari (mas., Fransiyada) tomonidan, qonunlar yoxud hukumat aktlari asosida (mas., Buyuk Britaniyada) tashkil qilinadi”[1]-deb ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasida Vazirlik davlatning markaziy boshqaruv organi, davlat mahkamasining muhim qismi. Asosiy vazifasi — iqtisodiyot muayyan tarmog‘iga, ijtimoiy-madaniy qurilish va ma’muriy-siyosiy faoliyatga rahbarlik qilishdan, o‘ziga topshirilgan tarmoqning har jihatdan rivojlanishini ta’minlashdan iborat. Vazirliklar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rahbarligida ish olib boradi va tarmoqqa oid barcha masalalarni o‘z huquqi doirasida hal etadi. Vazirlikni hukumat tarkibiga kiradigan vazir boshqaradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Vazirlar Mahkamasi a’zolarini tayinlaydi va lavozimidan ozod qila-di, keyinchalik bu masalalarni Oliy Majlisning tasdig‘iga kiritadi.

Yuridik adabiyotlarni va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili asosida **“Vazirlik”**ning quyidagi ta’rifni shakllantirish mumkin:

Vazirlik — muayyan sohada davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, tegishli tizimdagi qo‘mita va agentliklar faoliyatini muvofiqlashtirish vakolatiga ega, Vazirlar Mahkamasiga hamda (ayrim masalalar bo‘yicha) Prezidentga hisobdor bo‘lgan va amaldagi qonunchilik normalari doirasida faoliyat yuritadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi”ni ham amaliy jihatdan **“Vazirlik” maqomiga** ega organ sifatida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Buni quyidagi holatlar bilan asoslaymiz:

Markazlashgan boshqaruv tizimi. Qonun hujjatlarida Milliy gvardiya yagona markazlashtirilgan tizim sifatida belgilangan. Bu uning davlat boshqaruvida mustaqil va yaxlit tuzilma sifatida faoliyat yuritishini anglatadi. Hududiy boshqarmalar, muassasalar va harbiy qismlar faoliyatiga rahbarlik qiladi.

Qo‘mondonning maqomi. Milliy gvardiya qo‘mondoni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bevosita bo‘ysunuvchi mansabdor shaxs sifatida vazir maqomiga tenglashtirilgan. Demak, uning boshqaruv organi — Milliy

[1] O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi rasmiy sayti: Qomus.INFO // https://qomus.info/encyclopedia/ cat-v/vazirlik-uz/

gvardiya markaziy devoni — amalda O‘zbekiston Respublikasidagi vazirliklar apparati bilan bir xil vazifa va vakolatlarga ega.

Hisobdorlik va nazorat. Vazirliklardan farqli ravishda, Milliy gvardiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri Prezidentga hisobdor bo‘lgan holda o‘z faoliyatini amalga oshiradi. Bu uning huquqiy maqomi va siyosiy ahamiyatini vazirliklar darajasiga ko‘taradi.

Asosiy vazifalarning o‘xshashligi. Milliy gvardiya jamoat xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash va strategik obyektlarni muhofaza qilish kabi vazifalarni amalga oshiradi. Bu vazifalar davlat siyosatining muayyan sohasiga rahbarlik qilish, uning barqaror rivojlanishini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, vazirlikka xos funksiyalardir. Uning asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan, **qo‘riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosati** — jamoat xavfsizligini ta’minlash, strategik va muhim davlat obyektlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, shuningdek, ichki tartib va barqarorlikni kafolatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirishga yo‘naltirilgan davlat boshqaruvi yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu siyosatni amalga oshirish vakolati Milliy gvardiya zimmasiga yuklatilgan.

Xulosa: Yuqoridagilardan kelib chiqib, Milliy gvardiya huquqiy jihatdan formal **“Vazirlik”** deb atalmagan bo‘lsa-da, uning tashkiliy tuzilishi, boshqaruv maqomi va davlat siyosatini amalga oshirishdagi vakolatlari aniq ma’noda vazirlikka mos keladi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasini amaldagi huquqiy va siyosiy amaliyot nuqtai nazaridan **“Vazirlik maqomiga ega organ”** sifatida ko‘rib, davlat boshqaruvi sohasidagi faoliyatini ushbu aspektda tadqiq qilishimiz mumkin.

Taklif: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga qo‘riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish asosiy vazifa etib belgilanganidan kelib chiqib, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini hamda obyektlarini tajovuzlardan himoya qilish sifatini oshirish shuningdek, qonun ijodkorligi, qo‘riqlash faoliyatini huquqiy ta’minlash jarayonlarining samaradorligini oshirish va ilmiy jihatdan asoslanganligini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qoshida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashiga hisobdor bo‘lgan, ilmiy-tadqiqot muassasasi shaklidagi **“Qo‘riqlash faoliyati sohasida davlat siyosatini rivojlantirish instituti”**ning faoliyatini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Institutning asosiy vazifalari sifatida:

-O‘zbekiston Respublikasida Qo‘riqlash faoliyati sohasida davlat siyosatini rivojlantirish va amalga oshirish borasidagi faoliyatini ilmiy, axborot-tahliliy jihatdan ta’minlashni;

-mamlakatda Qo‘riqlash faoliyati sohasida olib borilayotgan islohotlarni huquqiy jihatdan ta’minlashni prognozlash va ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarni tashkil qilish va o‘tkazishni belgilash taklif etiladi.

JINOYAT PROTSESSIDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI NATIJALARIDAN DALIL SIFATIDA FOYDALANISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Karimov V.
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yu.f.d.

Annotatsiya. Maqolada tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish va rasmiylashtirish tartibi bo‘yicha qonun talablariga rioya qilinmasligi, bunday tadbirlarni o‘tkazishning asoslantirilmaganligi, tadbirlar o‘tkazilishiga asos bo‘lgan ma’lumotlarning ishonchliligini tekshirib bo‘lmasligi, shuningdek, tergov harakatlarini o‘tkazishda jinoyat-protsessual qonun normalariga amal qilinmasligi, dalillarning maqbul emasligiga olib kelishi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Tezkor-qidiruv faoliyati, tezkor-qidiruv tadbirlari, tezkor-qidiruv faoliyati natijalari, tezkor kuzatuv, tezkor kiritish.

Keyingi yillarda mamlakatimizda o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish, poraxo‘rlik, giyohvandlik, firibgarlik kabi jinoyatlar, va ayniqsa ularning kibermakonda, axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan uyushgan turlari borgan sari o‘sib borish tendensiyasiga ega. Bunday sharoitda bu kabi jinoyatlarga qarshi kurashning an’anaviy jinoyat-protsessual shakllari asosan o‘z samarasini yo‘qotadi. Shu bilan birga, bu kabi latent jinoyatlarga qarshi kurashda tezkor-qidiruv faoliyatining (keyingi o‘rinlarda – TQF deb yuritiladi) roli keskin ortib bormoqda. Amaliyotning guvohlik berishicha, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etuvchi shaxslarning aybdorligi haqidagi dalillarning aksariyati TQF natijalari asosida shakllantiriladi.

Ushbu mavzuga qiziqish shundan iboratki, bunday jinoyatlarni tergov qilish jarayonida TQF natijalari jinoyat ishi bo‘yicha aybni isbotlashda muhim o‘rin tutadi. Qonunchilikdagi muammo va kamchiliklarni, shuningdek, TQF natijalaridan tergov jarayonida foydalanish tartibini

chuqurroq bilish, shubhasiz, foydali bo‘lib, tergovchiga amaliyotda yordam beradi.

Asosiy qism. Jinoiy faoliyatni aniqlash - bu tergovni amalga oshiruvchi shaxsning jinoyat voqealari va ularning ishtirokchilarini aniqlashga qaratilgan protsessual va noprotsessual harakatlarning murakkab tizimi bo‘lib, undan foydalanishda tergovni boshqarish bo‘yicha qarorlar qabul qilish, ularni aniq tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlari (keyingi o‘rinlarda – TQT deb yuritiladi)ni o‘tkazish tartib-qoidalariga rioya qilishni taqozo etadi[1].

Turli TQT (tezkor kuzatuv, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, pochta, kurerlik jo‘natmalari va telegraf xabarlarni nazorat qilish, abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olish, jinoiy guruhlar ichiga tezkor kiritish orqali kirib borish va h.k.) hamda zarur maxsus texnik vositalarni qo‘llash yordamida uyushgan jinoiy guruhlar faoliyatini hujjatlashtirish imkoniyati yaratiladi[2]. “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasida o‘z aksini topgan “tezkor kiritish” tezkor-qidiruv tadbirini o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsad esa kriminal muhit ichidagilarning jinoiy faoliyati haqida ma’lumotlar olish, jinoiy guruh va uyushmalar faoliyatini fosh etish, ular orasida jinoiy rollarning taqsimlanishi, jinoiy yo‘l bilan topilgan mol-mulkning saqlash joylarini aniqlash, qidirilayotgan jinoyatchilarni topish va shu kabi TQF vazifalarini hal etish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni olish hisoblanadi. Jinoiy muhitga kirib borish, giyohvand vositalar savdosi bilan bog‘liq jinoiy guruhlar a’zolari bilan aloqa o‘rnatish, ularning faoliyatini kuzatib borish va ma’lum darajada nazorat qilish imkoniyatini beradi[3].

Ko‘pincha, tezkor kiritish TQTni o‘tkazish orqali jinoiy guruhning tarkibi, tuzilishi, uning aloqalari, rejalari va boshqalar haqida ma’lumot olish mumkin. Jinoyatning oldini olishning iloji bo‘lmagan hollarda ham TQF natijalarini olish imkoniyati tug‘iladi[4], bu esa dastlabki tergov jarayonida dalillarning mumkin bo‘lgan manbalari to‘g‘risida

---

[1] Қаранг: *Каримов В.* Ўзбекистон Республикасининг “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги қонунига илмий-амалий шарҳ: – Тошкент, 2021. – Б. 38-40.

[2] См.: *Долгачёва О.И., Нефедьев А.С., Потапова Н.Н*. Некоторые организационно-правовые особенности проведения оперативно-разыскных мероприятий оперативными подразделениями по борьбе с незаконным оборотом наркотиков // Отраслевые проблемы юридической науки и практики. Вестник Нижегородской академии МВД России. 2014. № 2 (26). С. 76-80.

[3] См. *Аленин А.П*. Методика проверки незаконного оборота наркотических средств. – Астана. 2019. – 135 с.

[4] Қаранг: *Каримов В.* Тезкор-қидирув фаолияти: дарслик. – Тошкент, 2021. – Б. 275.

yo‘naltiruvchi xususiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlardan foydalanishga imkon beradi, shuningdek, keyinchalik qonunga muvofiq bo‘lishi mumkin bo‘lgan ba’zi bir to‘g‘ri qayd etilgan ma’lumotlar dalil sifatida jarayonga kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 18 fevraldagi O‘RQ-675-sonli qonuni bilan Jinoyat-protsessual kodeksi (keyingi o‘rinlarda – JPK)ning 81-moddasi “Agar TQTning natijalari faqat qonun talablariga muvofiq olingan bo‘lsa, ushbu Kodeks normalariga muvofiq tekshirilgan va baholanganidan keyin hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining yoki TQTda ishtirok etgan boshqa shaxslarning harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan holda shaxsda jinoyat sodir etish uchun shakllangan qasd mavjud bo‘lganligidan dalolat bersa, ushbu natijalar dalil sifatida tan olinishi mumkin” degan mazmundagi uchinchi qism bilan to‘ldirilgan[1]. Bu natijalar tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan jinoyat alomatlari, shuningdek, ularni sodir etgan hamda tergov organlari, surishtiruv yoki suddan yashiringan shaxslar haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

E’tibor berish lozimki, *birinchidan*, TQF natijalari dalil hisoblanmaydi, chunki ular JPKda belgilangan “dalil” tushunchasiga to‘liq mos kelmaydi[2]. Xususan, ular JPKda belgilangan tartibda olinmagan va 81-moddaning birinchi qismida sanab o‘tilgan subyektlar tomonidan yig‘ilmagan. Shuning uchun olingan ma’lumotlar dalil sifatida tan olinishi ham, tan olinmasligi ham mumkin. Masalan, bunday natijalar tergov harakatlarini tayyorlash va o‘tkazishda “yo‘naltiruvchi ma’lumot” sifatida foydalanilishi, yoki ulardan jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun asos va sabab sifatida foydalanilishi mumkin[3].

Ikkinchidan, TQF natijalari faqat “TQF to‘g‘risida”gi qonunda belgilangan tartibda olingan ma’lumotlardan iborat bo‘lishi kerak. Demak, agar TQTni o‘tkazishda mazkur qonun talablari buzilsa, olingan natijalardan jinoyat-protsessida dalil sifatida foydalanish mumkin emas. Bu yerda muhim jihat shundaki, “TQF to‘g‘risida”gi qonunning 2-moddasida qayd qilingan TQFning huquqiy asoslariga nafaqat Konstitutsiya va qonunlar, balki ularga muvofiq qabul qilingan TQFni amalga oshiruvchi davlat organlarining idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari ham kiritilgan. Shu sababli, har qanday qonunbuzarlik, jumladan, TQTni tashkil etish va

[1] Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 18 февралдаги ЎРҚ-675-сонли Қонуни таҳририда.
[2] См.: *Корнев А.С., Кузнецов В.А., Новиков А.В.,* К вопросу о допустимости использования результатов отдельных оперативно-розыскных мероприятий в доказывании по уголовным делам, связанным с незаконным оборотом наркотических средств// Вопросы российского и международного права. 2022. Том 12. № 6А. С. 285-292.
[3] Ўзбекистон Республикасининг Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисидаги қонуни 19-моддасининг 1, 2-қисмлари.

o‘tkazish taktikasi bo‘yicha qabul qilingan idoraviy yo‘riqnomalar talablarini buzish ham, TQF natijalaridan jinoyat protsessida foydalanish imkoniyatini yo‘qqa chiqaradi. Bu muhim qoida bo‘lib, bizning tahlillarimizda tezkor bo‘linmalar yo‘l qo‘yadigan odatiy xatolar misolida ko‘rishimiz mumkin.

JPKning 95^1-moddasida: «Agar faktik ma’lumotlar qonunga xilof usullar orqali yoki jinoyat protsessi ishtirokchilarini qonun bilan kafolatlangan huquqlaridan mahrum qilish yoki bu huquqlarni cheklash yo‘li bilan yoxud ushbu Kodeks talablari buzilgan holda olingan bo‘lsa, ular dalil sifatida maqbul emas deb topiladi», – deb ko‘rsatilgan. Bu normadan xulosa chiqarish mumkinki, jinoyat-protsessual tartibga to‘liq rioya qilingan holda olingan TQF natijalaridan jinoyat ishlari bo‘yicha isbotlashda dalil sifatida foydalanish mumkin.

TQF to‘g‘risidagi qonun (14-modda, birinchi qism) va boshqa ochiq normativ-huquqiy hujjatlar TQTni o‘tkazish tartibini, ishtirokchilarning to‘liq tarkibini, olingan natijalarni rasmiylashtirish usullarini, tuziladigan hujjatlarning nomlari va shakllarini tartibga solmaydi.

TQTlarini o‘tkazish va ularning natijalarini rasmiylashtirish bo‘yicha aniq talablar TQFni amalga oshiruvchi organlarning yopiq xususiyatga ega idoraviy normativ hujjatlarida mavjud. Biroq, *birinchidan,* bu talablar juda qisqa shaklda bayon qilingan; *ikkinchidan,* ular ko‘pincha juda umumiy yoki tavsiyaviy xususiyatga ega; *uchinchidan*, tergovchilar, prokurorlar, sudyalar, advokatlar va jinoyat-protsessining boshqa ishtirokchilari, ushbu normativ hujjatlar bilan tanishish imkoniyatiga ega emaslar. Qonunchilikdagi bunday bo‘shliq turli, shu jumladan, salbiy oqibatlarga olib keladi. Ulardan biri – bu turli hududlarda TQT o‘tkazish, muayyan harakatlarning qonuniyligi va yakuniy hujjatlarni rasmiylashtirish bo‘yicha amaliyotning o‘ta xilma-xil va ziddiyatli bo‘lishi. Shuningdek, turli hududlardagi sudlar ham TQF natijalari asosida olingan dalillardan foydalanish masalasiga turlicha yondashmoqda. Masalan, ayrim hududlarda alohida xodimlar va hatto butun bir tezkor bo‘linmalar TQT o‘tkazish va ularning natijalaridan isbotlashda foydalanish bo‘yicha noto‘g‘ri amaliyotni shakllantirishga urinish holatlari kuzatiladi. Masalan, ayrim hollarda, tezkor bo‘linma xodimlari jinoyat ishi qo‘zg‘atilgunga qadar “TQF to‘g‘risida”gi qonunning 14-modda 1-qismi to‘qqizinchi xatboshisiga muvofiq, “turar joylarni tekshirish” TQTni “tintuv” tergov harakatiga xos bo‘lgan shaklda o‘tkazishga urinish holatlari uchraydi. Ya’ni, tezkor xodimlar tomonidan xonadon egasining roziligisiz eshiklar buzib ochilishi, hozir bo‘lgan

shaxslarga tekshiruv joyini tark etishni taqiqlash holatlari kuzatiladi. Qonunchilik hujjatlari, idoraviy yo‘riqnomalarni tahlil qilish “turar joylarni tekshirish” TQT va “tintuv” tergov harakati o‘rtasidagi xususiyatlarni belgilash imkonini bermaydi. Masalan, jinoyat ishi qo‘zg‘atilgunga qadar prokuror sanksiyasi asosida o‘tkaziladigan “turar joylarni tekshirish” TQT bilan jinoyat ishi doirasida tergovchi tomonidan o‘tkaziladigan “tintuv” tergov harakati o‘rtasida qanday farq borligi aniq belgilanmaganligi bois, amaliyotda ayrim qiyinchiliklar kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Ayrim hollarda, TQT turlaridan bo‘lgan tezkor eksperiment[1] TQTni o‘tkazishdagi xatoliklardan biri – bu tadbirni o‘tkazishga ruxsat beruvchi organ rahbari qarorida yanglish holda “tezkor kuzatuv”[2] TQT turi sifatida qayd etilishi kuzatiladi. Buning sababi juda oddiy bo‘lib, normativ-huquqiy hujjatlarda TQTlarini o‘tkazish tartibi va natijalarni qayd etish usullari aniq belgilanmaganligi, tezkor-qidiruv bo‘linmalari zaruriyat tug‘ilganda, bilib-bilmasdan, bir tadbirni boshqasi bilan “almashtirish” imkoniyatiga egaligidir. Vaholanki, “TQF to‘g‘risida”gi qonunning 17-moddasi birinchi qismi to‘rtinchi xatboshisida “ushbu Qonunning 14-moddasida nazarda tutilmagan TQTni o‘tkazish taqiqlangan”.

Shuni ta’kidlash joizki, sud yoki himoya tomoni bunday harakatlarning noqonuniyligi haqida asoslantirilgan xulosaga kelish uchun, hech bo‘lmaganda, yopiq xususiyatga ega idoraviy yo‘riqnomalarni so‘rab olishi va tahlil qilishlari kerak[3]. Ammo bunday fikr barcha mutaxassislarning hayoliga kelavermaydi. Bundan tashqari, tashkiliy jihatdan mavjud qiyinchiliklarni yengish ham kerak bo‘ladi. Shu bilan birga, TQF natijalaridan foydalanish qonuniyligini samarali tekshirish vositalari faqat nazorat qiluvchi prokurorlarning qo‘lida mavjuddir.

Tergovchi, surishtiruvchi va prokuratura organlarining mansabdor shaxslari iqtisodiy jinoyatlar, giyohvandlik vositalarini noqonuniy o‘tkazish holatlarini aniqlashga qaratilgan “nazorat ostida olish” TQTda bevosita ishtirok etish huquqiga ega emasligini unutmaslik kerak. Buning ikkita asosiy sababi bor:

- jinoyat protsessining nomlari ko‘rsatilgan ishtirokchilari TQFni amalga oshirish huquqiga ega bo‘linmalar ro‘yxatiga kiritilmagan (TQF to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasi birinchi qismi).

---

[1] Ўзбекистон Республикасининг Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисидаги қонуни 14-моддасининг 1-қисми 16-банди.

[2] Ўзбекистон Республикасининг Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисидаги қонуни 14-моддасининг 1-қисми 7-банди.

[3] См.*: Чечетин А.Е.* Обеспечение прав личности при проведении проверочных закупок наркотиков // Вестник Сибирского юридического института ФСКН России. 2015. № 2(19). С. 19-26.

- agar tergovchi u yoki bu tarzda TQTda ishtirok etgan bo‘lsa, masalan, "xaridorga" kimyoviy ishlov berilgan kupyuralar yoki texnik vositalarni taqdim etgan bo‘lsa, unga giyohvandlik vositalarni sotib olish tartibi va boshqa harakatlar to‘g‘risida yo‘l-yo‘riq bergan bo‘lsa, tadbir natijalarini rasmiylashtirishda bevosita ishtirok etgan bo‘lsa, u guvoh sifatida tan olinishi mumkin[1]. Bu esa uning jinoyat ishida ishtirok etishiga monelik qiluvchi holat deb topiladi[2]. Har xil hududlarda giyohvandlik vositalarini o‘tkazuvchidan sotib oluvchi, pora predmetini poraxo‘rga beruvchi shaxslar turlicha (arizachi, xaridor va h.k.) nomlanadi.

Shu bilan birga, tergovchining TQTni rejalashtirishda, tezkor-qidiruv bo‘linmalari xodimlariga tadbirni o‘tkazish, natijalarni rasmiylashtirish, ulardan jinoyat protsessida dalil sifatida foydalanish istiqbollari va boshqalar bo‘yicha maslahat berishda ishtirok etishi istisno qilinmaydi. Amaliyot tajribasidan ma’lumki, bunday hollarda ko‘pincha tergovchilar tegishli protsessual hujjatlarning loyihalarini tayyorlashda tezkor xodimlarga amaliy yordam ko‘rsatishlariga to‘g‘ri keladi, chunki tadbir o‘tkazuvchi tezkor bo‘linma xodimlari ularni har doim ham to‘g‘ri rasmiylashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lmaydilar.

TQF materiallari jinoyat ishi qo‘zg‘atish uchun asos bo‘lishi, jinoyat ishi o‘z yurituvida bo‘lgan surishtiruv, tergov organlariga, prokurorga tergov harakatlariga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish uchun taqdim etilishi, shuningdek bu materiallardan O‘zbekiston Respublikasi JPK normalariga muvofiq jinoyat ishlari bo‘yicha isbot qilishda foydalanilishi mumkin[3].

TQT natijalari, ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi organ rahbarining qarori asosida, idoraviy normativ hujjatlar bilan belgilangan tartibda taqdim etiladi[4]. Agar TQF natijalarini taqdim etish jarayonida Yo‘riqnoma talablariga rioya etilmasa, bu ushbu natijalarning dalil sifatida foydalanishning qonuniyligi shubha ostida qolishiga olib kelishi mumkin. Yo‘riqnomaning mazmunidan xulosa qilish mumkinki, u tegishli natijalarni taqdim etishning quyidagi uchta holatini tartibga soladi:

- TQFni amalga oshiruvchi organlarning tashabbusi bilan;

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 65-моддаси.

[2] Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 76-моддаси.

[3] Ўзбекистон Республикасининг “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги қонуни 19-моддасининг иккинчи қисми.

[4] Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси, Президент давлат хавфсизлик хизмати, Давлат хавфсизлик хизмати, Ички ишлар вазирлиги, Мудофаа вазирлиги, Давлат божхона қўмитаси ва Электрон технологияларини ривожлантириш марказининг 2021 йил 31 августдаги “Тезкор-қидирув тадбирларини ташкил этиш, ўтказиш, расмийлаштириш ва уларнинг натижаларини тақдим этиш тўғрисидаги Йўриқнома”.

- tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov organi mansabdor shaxsining alohida topshirig‘i;

- jinoyat ishi yohud tergovga qadar tekshiruv materiallari ish yurituvida bo‘lgan prokurorning qonunda belgilangan tartibdagi topshirig‘i yoki ko‘rsatmasiga asosan[1].

Xalqaro huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar va xorijiy davlatlarning huquqni muhofaza qilish organlari so‘rovlarini bajarish jarayonida olingan TQF natijalarini taqdim etish tartibi alohida normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

Yo‘riqnoma tergovchining o‘z tashabbusi bilan, jinoyat ishi uchun muhim bo‘lgan va unda TQF natijalari qayd etilgan predmetlar hamda hujjatlarni olib qo‘yish to‘g‘risida qaror chiqargan holatlarni tartibga solmaydi. JPKning 159-moddasi birinchi qismiga muvofiq, olib qo‘yish surishtiruvchining yoki tergovchining qarori yoxud sudning ajrimiga ko‘ra o‘tkaziladi, bunda ular olib qo‘yishni o‘tkazishni surishtiruv organiga yoki tergovchiga topshirishga haqli[2]. Shaxsiy elektron ma’lumotlarni olib qo‘yish va tintuv qilish, JPKning 161-moddasi sakkizinchi qismiga muvofiq, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan sudning qaroriga asosan amalga oshiriladi[3].

Fikrimizcha, TQF natijalarini olish va ularni jinoyat protsessiga kiritishning bunday usuli ham mumkin bo‘lib, basharti bunda barcha qonuniy talablar bajarilsa, ushbu asosda olingan dalillar maqbul deb topilishi mumkin.

TQF natijalarini taqdim etish to‘rtta bosqichda amalga oshiriladi:

1) TQFni amalga oshiruvchi organ rahbari tomonidan natijalarni surishtiruv, tergov organi yoki prokurorga taqdim etish haqida qaror chiqarish[4];

2) davlat sirini o‘z ichiga olgan ayrim tezkor xizmat hujjatlarining maxfiylik grifini yechish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

3) kuzatuv xatini rasmiylashtirish;

4) materiallarning amalda topshirilishi (pochta orqali yuborish, kurer orqali yetkazish va h.k.).

Surishtiruv organi, tergovchi yoki prokurorga TQF natijalarini jo‘natish tartibi (pochta orqali yuborish, shaxsan qo‘liga yoki boshqa

---

[1] Кўрсатилган манба – 85-банди.

[2] Ўзбекистон Республикасининг 2025 йил 28 январдаги ЎРҚ-1022-сонли Қонуни таҳририда.

[3] Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 21 ноябрдаги ЎРҚ-1003-сонли Қонуни таҳририда.

[4] Ўзбекистон Республикасининг “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги қонуни 19-моддасининг тўртинчи қисми.

usullar) alohida har bir holatda ish yuritish tartibini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida faoliyatni amalga oshiruvchi organ tomonidan tanlanadi.

Yuqorida qayd etilgan hujjatlarga jinoyat-protsessual qonunchilikka muvofiq ashyoviy dalil sifatida e'tirof etish uchun TQT natijasida olingan (tayyorlangan) fotografik negativlar va fotosuratlar, kinotasmalar, fonogrammalar, videoyozuv kassetalar, kompyuter axborot tashuvchilar, chizmalar, rejalar, sxemalar, ma'lumotlar, shuningdek boshqa moddiy obyektlar ham ilova qilinishi mumkin. Ilova qilinayotgan materiallar, hujjatlar va boshqa obyektlarning olingan vaqti, joyi va sharoiti to‘g‘risidagi ma'lumotlar jinoyat alomatlari aniqlanganligi bo‘yicha yozilgan bildirgi yoki ma'lumotnomada qayd ettirilishi lozim.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish masalasini hal etish uchun taqdim etilayotgan TQF natijalarida jinoyat alomatlarini ko‘rsatuvchi ma'lumotlar yetarlicha bo‘lishi, ya'ni: qaerda, qachon va qaysi jinoyat belgilari aniqlanganligi; ular qanday sharoitlarda aniqlanganligi; ushbu jinoyatni sodir etgan shaxs (agar ular ma'lum bo‘lsa) va jinoyatning guvohlari (agar ular ma'lum bo‘lsa) to‘g‘risidagi ma'lumotlar; ashyoviy dalil bo‘lishi mumkin bo‘lgan predmetlar va hujjatlarning turgan joyi to‘g‘risida; jinoyat ishini qo‘zg‘atish masalasini hal etishdagi ahamiyatga ega har qanday voqea va hodisalarni o‘zida aks ettirishi kerak.

TQF natijalarining tergovchiga taqdim etilishi hamda tergovchi tomonidan ularni qabul qilinishining o‘zi, hali ushbu natijalarning dalilga aylanishini anglatmaydi. Protsessual qarorlarni qabul qilishda qo‘llaniladigan TQF natijalarini tekshirish faqat quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin: a) ularni olishning qonuniyligini tekshirish (tegishli subyekt tomonidan ushbu natijalar zaruratga qarab sanksiya yoki ajrim asosida olinganligini) va b) ularning maxfiylik darajasini yechish va tergovchiga taqdim etish tartibiga rioya qilinganligini tekshirish.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, TQF natijalari bo‘yicha quyidagi mualliflik tarifini taklif qilish mumkin: *TQF natijalari deganda, tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan jinoyat belgilari, jinoyatni tayyorlayotgan, sodir etayotgan yoki sodir etgan, shu jumladan surishtiruv, tergov organlari yoki suddan yashiringan shaxslar, shuningdek, "TQF to‘g‘risida"gi qonunga muvofiq olingan, tergov uchun ahamiyatga ega bo‘lgan har qanday holatlar, guvoh bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxslar to‘g‘risidagi ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan manbalar tushuniladi.*

JAMOAT XAVFSIZLIGI VA JAMOAT TARTIBI TUSHUNCHALARI IJTIMOIY JIHATLARINI TAXLIL QILISHNING AYRIM MASALALARI

Alimov G‘.A.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yu.f.d.

Annotatsiya: Ushbu maqola xalqaro hujjatlar va milliy qonunchilik normalarida jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga oid rahbariy tushunchalarni, ularni o‘zaro nisbatini, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga huquqshunos olimlar tomonidan berilgan ta’riflar turli yondashuvlarni, ushbu tushunchalarni o‘ziga xos xususiyatlarini, jamoat xavfsizligi va tartibini ta’minlovchi huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning vakolatlari va vazifalarini o‘z ichiga qamrab olgan.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, ularning tushunchasi va ta’rifi, BMTning Fuqaroviy va siyosiy huquqlari bo‘yicha halqaro Pakt, Sirakuza tamoyillari, ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya.

Jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash (qo‘riqlash va himoya qilish) - bu davlat organlari tomonidan ma’lum bir murakkab vaziyatlarda huquq va erkinliklarning cheklanishini va insonning individual erkinligiga aralashishni, ko‘pincha hokimiyat organlari, o‘z vakolatlarini haddan tashqari, suiiste’mol qilish bilan keyin esa qonunlarning mazmunini noto‘g‘ri tassaruf etgan holda inson huquqlari va erkinliklarini shafqatsiz cheklab qo‘yishi yoki inkor etishi mumkin.

Bu holda huquq va erkinliklarni cheklash zarurati hokimiyat uchun kurashda, separatistik harakatlarda va davlatlararo kelishmovchiliklarda ifodalangan davlat ichidagi nizolarda ham davlatning o‘zini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini saqlab qolish istagi bilan izohlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi Konstitutsiyasining 33-moddasi 3-qismiga binoan, “axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yiladi”[1].

[1]O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,T. Adolat, 2023.B.6.

Bugungi kunda davlat jamoat xavfsizligini ta’minlashning yetakchi subyekti sifatida ma’lum darajada mavxum va anik bo‘lmagan qoidalarni himoya qiladi, degan tanqidlar uchrab turibdi. Biroq, ekspert va mutaxassislar buni ushbu masala bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning yetarli emasligi bilan bog‘lashadi. Tadqiqotlarning aksariyati ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha faoliyatining huquqiy va tashkiliy asoslarini taxlil qilish doirasida amalga oshirilgan bo‘lib, unda "jamoat xavfsizligi" tushunchasi keng huquqiy normalar doirasida ko‘rib chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi”da “jamoat xavfsizligiga” quyidagi keng ma’nodagi tushuncha berilgan: “jamoat xavfsizligi — jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi”[1].

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi milliy xavfsizlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat siyosatini belgilovchi muhim hujjat hisoblanadi, shu bois, uni ilmiy asoslash va zamonaviy shakllantirish, shuningdek, boshqa shunga o‘xshash huquqiy xodisalar bilan chegaralanish va muayyan aloqalarni o‘rnatish tadqiqot faoliyati uchun xam, huquq uchun xam, ijro amaliyoti uchun ham katta ahamiyatga ega.

Ta’kidlash joizki, mamlakatning umuman xavfsizlikning prinsipial yangi konsepsiyasiga o‘tishi sharoitida ushbu masalani nazariy tadqiq etish yangi nazariy va amaliy axamiyatga ega bo‘lmoqda. Bu, birinchi navbatda, jamiyatimiz va butun davlat rivojlanishi uchun ichki va tashqi sharoitlarning sezilarli o‘zgarishi bilan bog‘liq.

"Jamoat xavfsizligi" tushunchasini taxlil qilishga to‘xtaladigan bo‘lsak, shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda ilmiy ishlarda ushbu huquqiy toifani belgilash bo‘yicha ko‘plab qarashlar shakllangan. "Jamoat xavfsizligi" atamasi ilmiy bilimlarning turli sohalarida va ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, huquqni muxofaza qiluvchi organlarning amaliy faoliyatida keng qo‘llaniladi. Biroq, uning keng qo‘llanilishiga karamay, afsuski, bugungi kunda "jamoat xavfsizligi" ta’rifiga yagona yondashuv mavjud emas. Shu munosabat bilan "jamoat xavfsizligi"

[1]Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021y., 06/21/27/116-son

tushunchasining mazmunini aniqlash bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, amaldagi qonun hujjatlarini har tomonlama taxlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Jamoat xavfsizligini hisobga olgan xolda L.Rogozin uni "tabiiy ofatlar yoki boshqa maxsus sharoitlar bilan bog‘lik holda, alohida sharoitlar yuzaga kelganda jamiyat uchun ortib borayotgan xavf tug‘diruvchi obyektlardan foydalangan holda, huquqiy normalarga muvofiq shakllanadigan jamoat munosabatlari tizimi" deb ta’riflaydi[1].

Professor L.L.Popovning fikricha, jamoat xavfsizligi deganda odamlar va umuman jamiyat uchun ortib borayotgan xavf-xatarni keltirib chiqaradigan joylar va obyektlardan foydalanishda, alohida sharoitlar, tabiiy ofat yoki ijtimoiy yoki texnogen xususiyatdagi boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, huquqiy, texnik va boshqa turdagi normalarga muvofik yuzaga keladigan jamoat munosabatlari tizimi tushuniladi[2].

B.T.Xamxoyevning fikricha, jamoat xavfsizligi odamlarning xayoti va sog‘ligiga, ularning mol-mulkiga taxdidlarning oldini olish yoki bartaraf etish bilan bog‘lik bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladigan ajralmas qismdir[3].

Va nihoyat, shaxsning, jamiyatning, davlatning hayotiy manfaatlarini amalga oshirishdan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarning mavjudligi, ular ijtimoiy imtiyozlar, konstitutsiyaviy tuzum, jamoat tartibi, shaxsiy daxlsizlik, mulk va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Jamoat tartibi deganda mohiyatan ma’lum bir jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy normalar bilan davlat tomonidan tartibga solinadigan, tashkil etilgan va qo‘llab-quvvatlanadigan butun tizim, ijtimoiy munosabatlarning butun tizimi tushunilgan[4]. Keng ma’noda jamoat tartibi ma’lum bir tarzda tartiblangan ijtimoiy munosabatlar tizimini (majmuini) o‘z ichiga oladi: iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axloqiy va hokazolarni, shu munosabat bilan uni konstitutsiyaviy tuzum doirasidagi jamiyatdagi shaxslarning xulq-atvori qoidalari majmui sifatida belgilash mumkin[5]. V.V. Lazarev, L.L. Popov va L.M. Rozinlar “jamoat tartibi - ijtimoiy munosabatlar tizimining ma’lum bir sifati bo‘lib, u ijtimoiy munosabatlarning shunday tartibliligidan iborat bo‘lgan, jamiyat xayotining

[1] Попов Л.Л. Административное право (вопросы административно-юрисдикционной деятелности органов внутренних дел). -М.: Академия МВД СССР. 1983. 280 с.

[2] Административное право/под ред. Л.Л.Попова.- М.: Юрист. 2002. 699 с.

[3] Хамроев Б.Т. Проблемы определения общественной безопасности // Административное право и процесс. 2011. № 7. С. 40-42.

[4] Яценко С.С. Уголовно-правовая охрана общественного порядка. -Киев,1986. С. 10.

[5] . Административное право зарубежных стран: Учебник / Под ред. А.Н.Козырина и М.А.Штатиной. -М.: Спарк, 2003. С. 307.

uyg‘unligi va ritmiga, jamoat munosabatlari ishtirokchilarining o‘z huquq va majburiyatlarini to‘sqinliksiz amalga oshirishiga va ularning manfaatlari, jamoat hamda shaxsiy tinchligining himoya qilinishiga olib keladi” deb ta’kidlashadi[1].

B.P.Kondrashovning aytishicha, jamoat tartibini keng ma’noda ijtimoiy normalarga (huquq normalari, axloq, urf-odatlar, an’analar va boshqalar) rioya etish natijasida vujudga kelgan, daxlsizligi davlatning butun siyosiy tizimi tomonidan kafolatlangan ijtimoiy munosabatlar tizimi tushuniladi[2]. Shunday qilib, “jamoat tartibi” so‘zining keng ma’nosida jamiyatda mavjud bo‘lgan, ijtimoiy normalarga, shu jumladan huquq normalari va jamiyat qoidalariga muvofiq rivojlangan munosabatlarning butun tizimi tushiniladi[3].

Bu soha jamiyat hayotida osoyishtalik muhitini, mehnat va dam olish uchun normal sharoitlarni, davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar va ularning tuzilmalari, muassasalar, jamoat birlashmalari, shuningdek, davlat va maxalliy xokimiyat xodimlar faoliyatini ta’minlash maqsadida, odamlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida jamoat joylarida rivojlanadigan ijtimoiy normalar bilan tartibga solinadigan munosabatlar tizimi bilan cheklanadi.

Shularni hisobga olib, nazarimizda jamoat tartibi tushunchasini quyidagi ta’rif kengroq qamrab oladi: Jamoat tartibini saqlash – bu jamoat joylarida odamlar o‘rtasida vujudga keladigan va rivojlanadigan, qonuniy amalga oshirilishi shaxsiy va jamoat xavfsizligiga rioya etilishini, odamlarning normal muloqotini, sha’ni, qadr-qimmati, hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilinishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, birinchi navbatda, ichki ishlar organlari, milliy gvardiya, prokuratura, davlat xavfsizlik xizmati, favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa fuqarolik tashkilotlari faoliyati bilan ta’minlangan davlat va jamiyatning muvofiqlashtirilgan ijtimoiy-huquqiy jamoat munosabatlari tizimidir deb e’tirof etsak to‘g‘ri bo‘ladi.

[1]Лазарев В.В., Попов Л.Л., Розин Л.М. Правовые основы обеспечения общественного порядка. -М., 1967.

[2] Кондрашев Б.П. Общественная безопасност и административно-правовые средства ее обеспечения.-М.МЮИ МВД России «Щит-М»1998.

[3]Коржанский Н.И. Объект и предмет уголовно-правовой охраны. -М., 1980. С.15.

JAMOAT XAVFSIZLIGI KONSEPSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Alijonov I.R.
Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqola jamoat xavfsizligini konsepsiyasini zamonaviy xavf-xatar va tahdidlardan kelib chiqqan holda takomillashtirish masalalari yoritilib, yangi tahrirdagi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasiga taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, jamoat xavfsizligini ta’minlash, normativ-huquqiy hujjatlar, jamoat xavfsizligi konsepsiyasi, tahdidlar, xavf-hatarlar, jamoat xavfsizligini subyektlari.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni «Xalq manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas’ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini «Barcha sa’y-harakatlar inson qadri uchun» degan ustuvor g‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda.

Shu boisdan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi «Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6196-son Farmoniga[1] muvofiq, shuningdek, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni[2] qabul qilinib, mazkur farmon bilan

a) O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi;

b) 2022 — 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi;

v) 2022 — 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2022 yilda amalga oshirish bo‘yicha «yo‘l xaritasi» tasdiqlandi[3].

Mazkur farmon bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat siyosatini va istiqbolini belgilab beruvchi muhim hujjat bo‘lib, sohaga doir ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qildi. Shu bilan birga ilk bor jamoat xavfsizligi tushunchasiga huquqiy ta’rif berildi, jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlarning vazifalar belgilandi.

Biroq, jamoat xavfsizligiga yuzaga kelayotgan zamonaviy xavf-xatar, tahdid va tajovuzlar jamoat xavfsizligining konseptual asoslarini yanada takomillashtirish orqali jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish va yangi bosqichga olib chiqish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Shu boisdan, Jamoat xavfsizligi konsepsiyasining yangi tahriri loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Yangi tahrirdagi Konsepsiyada ayrim nomutanosibliklarni bartaraf etish lozim deb hisoblaymiz.

Jumladan, Konsepsiyaning 2-bobi *“Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasini davlat tomonidan tartibga solish”* deb nomlanib 6-moddasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi jamoat xavfsizligini ta’minlovchi va unda ishtirok etuvchi subyektlardan iborat ekanligi belgilangan[4].

Shu bilan birga, mazkur moddaning ikkinchi qismida jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar keltirib o‘tilgan, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va mahalliy davlat hokimiyati organlari jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlari qatoriga kiritib o‘tilgan. Shuningdek ularning vazifalari va majburiyatlari belgilangan.

Biroq, O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunida[5] huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlar qatoriga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati organlari, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, adliya organlari, davlat bojxona xizmati

organlari, davlat soliq xizmati organlari, mehnat organlari, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi organlari va O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo‘linmalari kiritilgan bo‘lsada, ular Konsepsiyada ko‘rsatib o‘tilmagan. Vaholanki, mazkur subyektlar jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida ham muhim o‘ringa ega.

Shuni alohida ta’kidlash joizki huquqbuzarliklar profilaktikasi jamoat xavfsizligining tarkibiy qismi hisoblanadi, demak jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlarining qatori huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlardan bir qancha kengroq bo‘lishi lozim.

Bizning fikrimizcha, jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlarining qatorini kengaytirish orqali barcha davlat organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi mas’uliyati va javobgarligini belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jamoat xavfsizligi subyektlarini tasniflash va chegarasini belgilash maqsadida ko‘plab olimlarning ilmiy izlanishlari va xorijiy mamlakatlarining qonunchiligiga nazar tashlaymiz.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi murakkabligi sababli o‘z ichiga nafaqat zarur vakolatga ega davlat organlari balki tegishli tashkiliy boshqaruv subyektlarini ham qamrab oladi.

Rossiya Federatsiyasining “Xavfsizlik to‘g‘risida”gi federal qonuniga muvofiq Rossiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlariga barcha davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jamoat birlashmalari, boshqa tashkilotlar shuningdek, fuqarolar kirishi belgilangan[6].

Xususan, qonunning 1-moddasida jamoat xavfsizligi holati uchun asosiy mas’uliyat o‘z vakolatlarini federal, mintaqaviy va mahalliy bo‘g‘indagi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati orqali amalga oshiruvchi Davlat tomonidan amalga oshirilishi belgilab o‘tilgan.

Shu bilan birga, jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlarini federal, mintaqaviy va mahalliy bo‘g‘inlarga ajratilgan.

Federal bo‘g‘indagi subyektlari o‘z navbatida uch guruhga ajratilgan.

Birinchi guruhga jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida rahbarlik va boshqaruvni amalga oshiruvchi subyektlar ya’ni Rossiya Federatsiyasining Prezidenti va u rahbarlik qiluvchi Xavfsizlik Kengashi, shuningdek Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi;

Ikkinchi guruhga jamoat xavfsizligini ta’minlashda bevosita ishtirok etuvchi ijro hokimiyatining organlari (IIV, FXX, MV va boshqalar);

Uchinchi guruhga jamoat tashkilotlari va birlashmalari kiritilgan[7].

Qozog‘iston Respublikasining 2012 yildagi “Milliy xavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonunida jamoat xavfsizligi Milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Shu bilan birga jamoat xavfsizligini asosiy subyektlari sifatida Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti, Parlament, Vazirlar Mahkamasi va Sud hokimiyati kiritilgan hamda 30 ta davlat organining jamoat xavfsizligini ta’minlash subyekti sifatidagi vazifalari belgilab berilgan[8].

Bizning fikrimizcha, mazkur qonunda xavfsizlikni ta’minlash subyektlari birmuncha to‘liq ko‘rsatilgan bo‘lib, ularning aniq vazifalari chegaralari belgilab berilgan, bu esa o‘z navbatida xavfsizlikni ta’minlash davlat organlarining vazifa va vakolatlarining takrorlanishini oldini oladi.

Rus olimi V.V.Petrovning fikricha, zamonaviy sharoitda davlat manfaatlarini himoya qilish va himoya qilish uchun yagona ko‘p funksiyali va ko‘p elementli tizim mavjud bo‘lgandagina xavfsizlikka tahdidlarga qarshi tura oladi. Uning yaratilishi xavfsizlikni himoya qilish funksiyalarining takrorlanishi va parchalanishini bartaraf etishga imkon beradi[9].

Shu munosabat bilan barcha xavfsizlik tuzilmalarining sa’y-harakatlarini birlashtirish, me’yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish va bu boradagi milliy qonunchilikni unifikatsiya qilish zarur[10].

Chunonchi, xavfsizlikni ta’minlovchi subyektlarning tarqoqligi va raqobati davlat xavfsizligiga mavjud tahdidlarga qarshi turishda sezilarli muvaffaqiyatga erishishni imkonsiz qiladi. Ushbu yo‘nalishdagi faoliyat konseptual va batafsil bo‘lishi, barcha harakatlar kelishilgan holda aniq va izchil amalga oshirilishi hamda normativ-huquqiy hujjatlar tizimida ifodalanishi lozim.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Jamoat xavfsizligi Konsepsiyasi mazkur muammolarni qisman hal qilishga, amaldagi huquqiy bo‘shliqlarni to‘ldirishga, jamoat xavfsizligining subyektlari tizimi va ularning aniq vazifalarini belgilab berishga xizmat qiladi.

Bizning nazarimizda, jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlarini tasniflash, vazifa va funksiyalarini aniqlashtirish, jamoat xavfsizligini ta’minlashga barcha davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari, fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar (chet el fuqarolarining) javobgarligini belgilash jamoat xavfsizligini ta’minlashga barcha

subyektlarning mas’uliyatini oshirish barobarida jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga amaldagi jamoat xavfsizligi konsepsiyasidagi jamoat xavfsizligi tushunchasiga berilgan ta’rifni yanada takomillashtirish, jamoat xavfsizligiga yuzaga kelayotgan tahdidlarni aniq belgilash va tizimlashtirish, konsepsiyaning kirish qismida jamoat xavfsizligi sohasidagi muammolarni yoritib berish lozim deb hisoblaymiz.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda yangi tahrirdagi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini quyidagi tuzilishda qabul qilishni taklif qilamiz:

1-bob. Kirish;

2-bob. Umumiy qoidalar;

3-bob. Jamoat xavfsizligiga tajovuz qiluvchi asosiy tahdidlar klassifikatsiyasi;

4-bob. Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat siyosati;

5-bob. Jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar;

6-bob. Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tashkil etish;

7-bob. Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tashkil etish;

8-bob. Yakunlovchi qoidalar.

Yangi tahrirdagi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi jamoat xavfsizligi muammolarini to‘liq qamrab olish va ularni oldini olish borasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini qamrab olishi lozim bo‘ladi.

Fikrimizcha, yangi tahrirdagi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasining qabul qilinishi, O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasini yangi bosqichga olib chiqishga va barcha davlat organlarining mas’uliyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi «Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6196-son Farmoni //http:www.lex.uz.//.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni //http:www.lex.uz.//.;

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va

uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni //http:www.lex.uz.//.

4. Shu yerning o‘zidan qarang.

5. O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-371-con Qonuni //http:www.lex.uz.//.

6. Федералный закон РФ О безопасности http://www.internet-law.ru/.

7. Воронов А.М. Система обеспечения общественной безопасности: проблемы оптимизатсии //https://cyberleninka.ru/.

8. Закон ”О национальной безопасности Республики Казахстан” (с изменениями и дополнениями по состоянию на 27.12.2021 г.) // https://online.zakon.kz/.

9. В.В.Петров Проблемы правового регулирования деятелности субектов обеспечения безопасности российского государства // https://cyberleninka.ru/.

10. Чапчиков С.Ю. Новые угрозы и вызовы как основная причина изменения содержания деятелности Российского государства по обеспечению безопасности // «Черные дыры» в Российском законодателстве. — М., 2011. № 3. С. 6-8.

AYOLLAR HUQUQLARINI TA’MINLASHDA OILADA ZO‘RAVONLIKKA QARSHI PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLAR

Zakirov B.E.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi unversiteti,
Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollar xuquqlarini ta’minlashda oilada zo‘ravolikka qarshi profilaktik chora-tadbirlar metodikasini yaratish, jamiyatda ayollar rolini oshirish hamda bandligini ta’minlashni amalga oshirishga qaratilgan tadbirlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: zo‘ravonlik, oilada zo‘ravonlik, ayollar huquqlari, profilaktik chora-tadbirlar, bartaraf etish

O‘zbekistonda olib borilayotgan tub isloxatlardan maqsad fuqarolarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ularni har qanday ko‘rinishdagi tahdid va tajovuzlardan himoya qilish, shaxs, jamiyat, davlat xavfsizligini ta’minlash bilan birga, huquqbuzarliklar, shu jumladan ayollar xukuklarini ta’minlashda oilada zuravonlikka karshi

profilaktik chora-tadbirlar orqali ta’minlashdir. Mahalla tizimini takomillashtirish, mahallalarda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, huquqbuzarliklar, shu jumladan ayollar xukuklarini ta’minlashda oilada zuravonlikni barvaqt profilaktikasini ta’minlash, ayniqsa kriminogen vaziyat og‘ir bo‘lgan har bir mahallada aholini bandligini ta’minlash, turmush tarzini yaxshilash bo‘yicha aniq topshiriqlar berildi. Mazkur topshiriqlarga asosan mahallalarda “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolar bilan ishlashning yangi tizimni, ya’ni har bir mahalla, oila va fuqaro kesimida “mahallabay” va “oilabay” hamda *“fuqarobay”* ishlash tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi belgilandi. Chunki Prezidentimiz ta’kidlaganidek mahalla dunyodagi davlat boshqaruvi sohasida chinakam xalqchil, davlatimizning betakror shakldagi o‘ziga xos milliy xarakterga ega bo‘lgan noyob tuzilmasi hisoblanadi.

Bu borada ilmiy yondashuv va ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal joriy etish lozim. Har bir jinoyat yoki huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha har qaysi hudud o‘z tajribasini yaratishi maqsadga muvofiq[1].

O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunida qayd etilganidek, huquqbuzarliklar profilaktikasi – bu huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llanadigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimidir[2].

Ayollar xukuklarini ta’minlashda oilada zuravonlikka karshi profilaktik chora-tadbirlar o‘z ko‘lami, qamrab oladigan darajasiga ko‘ra respublika, hududiy, mahalliy, muayyan hudud yoki obyekt miqyosida amalga oshirilishi mumkin. Bugungi kunda respublikamizning barcha mahallalarida tashkil etilgan huquq-targ‘ibor maskanlarida va Toshkent shahri tumanlarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar markazlarida, shuningdek, yirik tuman va shaharlarda tashkil etilayotgan mahalla huquq-tartibot maskanlarida faoliyat olib borayotgan profilaktika inspektorlari har qanday darajadagi huquqbuzarliklar profilaktikasini, uning har bir turi va chora-tadbirlarini amalga oshiruvchi asosiy subyektlar hisoblanadi.

Mahalla hududida ayollar xukuklarini ta’minlashda oilada zuravonlikka karshi profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirishda huquq-tartibot maskani subyektlari muhim o‘rin tutadi. Mahalla hududida jinoyatchilikni oldini olishda huquqbuzarliklar profilaktikasining turlarini samarali qo‘llash natijasida jinoyatchilikning keskin kamayishiga erishilayapdi.

Xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvatlash bugun yaxshi samara bermoqda[3].

Ayollar huquqlarini ta’minlashda oilada zuravonlikka karshi profilaktik chora-tadbirlar tizimida huquqbuzarliklarning profilaktikasi ushbu turdagi huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sabablari va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish bo‘yicha faoliyat bo‘lib, umumiy , maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktika huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tomonidan amalga oshirilsa, umumiy profilaktika uni bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar bilan birga ushbu jarayonda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar tomonidan ham olib borilishi mumkin. Mahalla hududida mahalla huquq-tartibot maskanining subyektlari *huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish doirasida:* huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir tegishli davlat dasturlari, hududiy va boshqa dasturlar talablarini ijro etib boradilar; xizmat hududi xususiyatlaridan kelib chiqib, huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir ishlab chiqilayotgan hududiy va boshqa dasturlarga takliflar beradilar; ushbu jarayonga huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi boshqa organ va muassasalar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari va fuqarolarni jalb etadilar[4].

Ushbu tadbirlarni amalga oshirishda avvalam bor qonun va qonun osti normativ xujjatlarga asoslangan xolda omalga oshirish lozim. Jumladan: 2019 yil 2 sentabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari” to‘g‘risidagi 562-sonli va “Xotin-qizlarni taz’iq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi 561-sonli qonunlari hamda “Oyilaviy va maishiy zo‘ravonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilish bo‘yicha ayrim qonun xujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 21 oktabr 2024 yil 978-sonli qonunda MJTK, JK va JPKlarga tegishli bu jarayonni tartibga solish bo‘yicha ta’luqli o‘zgarish va qo‘shimchalar kiritildi bu esa amaliyotda va kundalik xayotda

ayollarni huquqlarini ta’minlashda oilada zo‘ravonlikka qarshi profilaktik chora-tadbirlar olib borishda samarali natijalar berib kelmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olib ayollar huquqlarini ta’minlashda oilada zuravonlikka karshi profilaktik chora-tadbirlar orqali oila-turmush doirasidagi nizolarning oldini olish bo‘yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- fuqarolarga oila-turmushdagi zo‘ravonlik faktlari haqida yoki o‘ziga nisbatan tahdid va tajovuzlar sodir etish holatlari yuzaga kelganda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga zudlik bilan xabar berish;
- zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarni vaqtincha xavfsiz joyda (reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlarida yoki ota-ona yoxud boshqa qarindosh urug‘lar oldida) bo‘lishlari uchun ularga qisqa raqamli **“1146”** ishonch telefoniga murojaat etish mumkinligi va mavjud muammoga tegishli yechim olishni tushuntirish;
- oiladagi nizoli vaziyatlarni ijobiy hal qilish, oila a’zolari o‘rtasida buzilgan ijtimoiy munosabatlarni tiklash va boshqa oilaviy masalalar yuzasidan psixologik yoki huquqiy maslahat olish;
- oilada zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning xulq-atvorini jamoatchilik o‘rtasida muhokama qilish, unga nisbatan ta’sir choralarini qo‘llash maqsadida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga murojaat qilishni tushuntirib targ‘ibot va tashviqot olib borish.

Shuni ta’qidlash lozimki, mamlakatimizda ayollar xuquqlarini ta’minlashda oilada zo‘ravonlikka qarshi xuquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha olib borilayapgan tizimli isloxotlar halqimizning tinch va osoishtaligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli farmoni // URL: http//www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni.

3. Muhitdinova F. A. Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlarining himoyasi va kafolatlari . – https: // cyberleninka. ry - 2024

4.Zakurlayev A. K. Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati: O‘quv qo‘llanma. T.: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi universiteti, 2021.- B. 94-104

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH BO‘LINMALARI HARBIY XIZMATCHILARINING AHOLI BILAN MUOMALA MADANIYATI: PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAHLIL

Maxmudov R.M.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi professori,
pedagogika fanlari doktori, professor
tel: +998 99 821 66 95

Annotatsiya: maqolada jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari harbiy xizmatchilarining aholi bilan muomala madaniyatini pedagogik-psixologik nuqtai nazardan chuqur tahlil qiladi. Unda muomalaning psixologik o‘ziga xosliklari, turlari, nutq madaniyati va uning qoidalari, shuningdek, muomala qonuniyatlari va mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Maqola harbiy xizmatchilar faoliyatidagi psixologik zo‘riqishlar, yolg‘on va sirlarni aniqlash usullari, fuqarolar bilan muomala qoidalari hamda ta’sir etish metodlari (ishontirish)ni o‘rganadi. Maqolada amaliy taklif-tavsiyalar va xulosa berilgan bo‘lib, maqola harbiy xizmatchilarning kasbiy malakasini oshirish orqali jamiyat barqarorligini ta’minlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, muomala madaniyati, nutq madaniyati, psixologik tahlil, harbiy xizmatchilar, fuqarolar bilan muomala, mulokot turlari, ishontirish usuli, pedagogik tavsiyalar, kasbiy malaka.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalarida faoliyat yurituvchi harbiy xizmatchilar jamiyatning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ularning aholi bilan muomalasi nafaqat huquqiy, balki psixologik va pedagogik jihatlarda ham katta ahamiyatga ega. Zamonaviy sharoitlarda, ommaviy tadbirlar, tartibsizliklar va favqulodda vaziyatlar ko‘payib borayotgan bir paytda, harbiy xizmatchilarning fuqarolar bilan muloqot madaniyati jamiyatdagi ishonch va barqarorlikni ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi[1]. Pedagogika-psixologiya fanlari nuqtai nazaridan muomalaning psixologik o‘ziga xosliklari, turlari, nutq madaniyati va qoidalari kabi masalalarni tahlil qilish davr talabidir.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, insonlararo muloqot ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida, shaxslar o‘rtasidagi birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Jamoat xavfsizligini ta’minlash kontekstida bu jarayon murakkablashadi, chunki harbiy xizmatchilar turli toifadagi fuqarolar bilan, jumladan, shubhali shaxslar, guvohlar va oddiy aholi bilan

[1] Djurayev R.M., Rustambayev M.X. va boshqalar. Jamoat xavfsizligi asoslari. T.: O’R JXU, 2023. B. 350-377

aloqada bo‘ladilar. Natijada, muomalaning samaradorligi harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lib, bu esa pedagogik ta’sir usullarini talab etadi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari harbiy xizmatchilarining aholi bilan muomala madaniyatini psixologik-pedagogik nuqtai nazaridan tahlil qilish, uning turlarini va qonuniyatlarini ochib berish hamda amaliy takliflar ishlab chiqishda: muomalaning psixologik o‘ziga xosliklarini aniqlash; nutq madaniyati va qoidalarini tizimlashtirish; ta’sir etish usullarini ko‘rib chiqish zarur. Ushbu tahlil O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga (masalan, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun) va xalqaro psixologik nazariyalarga asoslanadi.

Muomalaning psixologik o‘ziga xosligi va tushunchasi: inson faoliyati davomida boshqa odamlar bilan muloqotda bo‘lishi tabiiy jarayon bo‘lib, unda axborot almashinuvi, ta’sir ko‘rsatish va tajriba o‘tkazish amalga oshiriladi. Psixologiyada muloqot shaxslararo munosabatlarning asosiy shakli sifatida qaraladi[1]. Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalarida bu jarayon maxsus ahamiyatga ega, chunki harbiy xizmatchilar odatiy va favqulodda sharoitlarda (ommaviy tadbirlar, tartibsizliklar) fuqarolar xavfsizligini ta’minlashda turli toifadagi shaxslar bilan aloqaga kirishadilar.

Muomalaning psixologik o‘ziga xosligi shundaki, u nafaqat til orqali, balki xatti-harakatlar, mimika va imo-ishoralar orqali amalga oshiriladi. Harbiy xizmatchilarning faoliyati samaradorligi psixologik aloqa o‘rnatish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lib, bu kasbiy sifatlar (xotira, diqqat, idrok, tafakkur) ishtirokida ro‘y beradi. Masalan, voqeani o‘tmishdagi vaziyatlar bilan solishtirish harbiy xizmatchiga tez qaror qabul qilishga yordam beradi.

Muloqot psixologik jihatdan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayoni bo‘lib, shaxslarning qiziqishlari va dunyoqarashiga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi [2]. Jamoat xavfsizligi kontekstida muloqot quyidagi turlarga bo‘linadi:

Bevosita muloqot: “Yuzma-yuz” suhbat, unda harbiy xizmatchi shaxsni idrok qiladi va barcha vositalarni qo‘llaydi;

- Bilvosita muloqot: Aloqa vositalari (ratsiya, telefon) orqali;
- Rolli muloqot: Ijtimoiy rollar asosida, masalan, shubhali shaxs bilan;
- Mazmunli muloqot: Mimika va harakatlar orqali holatni bildirish;

[1] Ананеев, Б.Г. Человек как предмет познания. 1968. - 263 стр.
[2] Мясищев, В.Н. Психология отношений. 1960. – 177 б.

- Rasmiy muloqot: Yuridik kuchga ega, masalan, bayonnoma tuzish;
- Norasmiy muloqot: Shaxsiy ma’lumotlar almashinuvi.
- Ushbu turlar harbiy xizmatchilarning faoliyatida muhim o‘rin egallaydi va psixologik to‘siqlarni bartaraf etishni talab etadi.
- Nutq madaniyati va uning harbiy xizmatchilar faoliyatidagi roli

Nutq madaniyati harbiy xizmatchilarning muvaffaqiyatli muloqotining asosiy omili bo‘lib, u fikrlarni aniq va ta’sirchan yetkazish qobiliyatini anglatadi. Psixologiyada nutq madaniyati shaxsiy-kasbiy sifatlar (xushmuomalalik, insonparvarlik) orqali shakllanadi. Harbiy xizmatchilarning nutqi quyidagi qoidalarga mos kelishi kerak: mazmunli va chuqur bilimga asoslangan bo‘lishi; grammatik jihatdan to‘g‘ri va shevachilikdan xoli; aniq, qisqa va tushunarli; mantiqiy izchil va sof; ifodali va yorqin; mavzuga mos va sodda; suhbatdoshning ruhiy holati, yoshi, kasbini inobatga olgan[1].

Nutq madaniyatini oshirish vositalari: badiiy asarlar o‘qish, grammatika o‘rganish, lug‘atlar bilan ishlash, gazeta-jurnallar o‘qish, hikmatlarni mutolaa qilish, xizmatdoshlar oldida nutq so‘zlash hisoblansa, Favqulodda vaziyatlarda nutq odobi talablari: shirinsuxanlik, imo-ishoralarni kam ishlatish, fikrlarni diqqat bilan eshitish, oila sirlarini saqlash va haqoratomuz so‘zlardan tiyilish lozim bo‘ladi.

Harbiy xizmatchilarning faoliyati doimiy psixologik zo‘riqish bilan bog‘liq, chunki fuqarolar qarama-qarshi munosabatda bo‘lishi mumkin. Muomalaning qonuniyatlari: fikrlarni sodda va aniq ifodalash, tahlil qilish; xushmuomalalik bilan suhbat olib borish; tinglash mexanizmini ishlab chiqish; ma’lumotga qiziqish bildirish, tushunarsiz bo‘lsa takrorlashni so‘rash; salbiy omillarga e’tibor qaratmaslik; mimika va jestlarga e’tibor berish, ma’lumotlarni umumlashtirish; eshitish qobiliyatini shakllantirish; Kasbiy mahorat: psixologik chidamlilik, salbiy his-tuyg‘ularni bartaraf etish, ruhiy zo‘riqishni yengish, psixo-pedagogik madaniyatni shakllantirish.

Amaliyotda muloqotda yolg‘on va sirlar mavjud bo‘lishi mumkin, masalan, gumonlanuvchining yolg‘onlari. Zamonaviy psixologik bilimlar (masalan, mikromimika tahlili, Ekman, 2003) nosamimiy holatlarni aniqlashga yordam beradi[2].

[1] Djurayev R.M., Rustambayev M.X. va boshqalar. Jamoat xavfsizligi asoslari. T.: O’R JXU, 2023. B. 350-377.
[2] Ekman, P. Emotions Revealed. 2003. P.351

Fuqarolar bilan muomala qilish qoidalari - xizmat vazifalarini bajarishda muomala qoidalari: davlat vakili ekanligini unutmaslik; salomlashish va o‘zini tanishtirish; savollarga xushmuomalalik bilan javob berish; xizmat guvohnomasini ko‘rsatish; qo‘pollik, kinoya, tahdidlardan tiyilish; hujjatlarni tekshirishda muloyimlik; shaxsiy munozaralarga aralashmaslik; bayramlarda kam ahamiyatli buzilishlarga tanbeh bermaslik; hurmat bilan gaplashish (“sen”, “siz”); xizmatdan tashqari yordam berish; qo‘shnilar bilan yaxshi munosabat.

Muomalaning ilmiy-psixologik va sotsiologik jihatdan o‘rganilgan xususiyatlari kasbiy vazifalarga yo‘naltirilganlikni, huquqiy normativ asoslarda tartibga solinganlikni, psixologik to‘siqlarni masalan, ijtimoiy masofa, emotsional ziddiyatlarni va maxsus jargonlarni bilish zarurligini o‘z ichiga oladi, chunki bu omillar tizimli muloqotni ta’minlab, professional sohalarda samaradorlikni oshiradi va institusional nazoratni kuchaytiradi. Muloqot jarayonida ta’sir etish usullaridan biri bo‘lgan ishontirish, isbotsiz qabul qilishga qaratilgan retoric va psixologik mexanizm sifatida qaralib, uning muvaffaqiyati shaxsiy ishonch, puxta tayyorgarlik, faktlarning to‘g‘riligi va isbotlanishi, tipiklik (umumiy qabul qilingan normalarga moslik), ishonchni qozonish strategiyalari (empatiya va mantiqiy argumentatsiya orqali) hamda vazminlik - emotsional barqarorlik va o‘zini tutish kabi omillarga bog‘liqdir. Bu esa kognitiv dissonans nazariyasi va ijtimoiy ta’sir modellariga asoslanib, kommunikativ jarayonlarni optimallashtirish imkonini beradi. Jamoat xavfsizligida ishontirish asosiy usul bo‘lib, ehtiyotkorlik bilan qo‘llash zarur. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

a. Harbiy xizmatchilar uchun psixologik treninglar o‘tkazish: muloqot turlarini o‘rgatish, nutq madaniyatini rivojlantirish.

b. Pedagogik darsliklar ishlab chiqish: muomalaning psixologik qonuniyatlarini o‘z ichiga olgan.

c. Amaliyotda monitoring: muloqot jarayonlarini baholash va takomillashtirish.

d. Favqulodda vaziyatlar uchun protokollar: psixologik to‘siqlarni bartaraf etish usullari.

e. Hamkorlik: psixologlar va pedagoglar bilan birgalikda seminarlar.

i. Nutq madaniyatini oshirish: lug‘atlar va badiiy adabiyotlar bilan doimiy ishlash.

g. Yolg‘onni aniqlash treninglari: mikromimika va jestlarga asoslangan.

k. Aholi bilan munosabatni yaxshilash: jamoaviy tadbirlar va maslahatlar.

l. Qonunchilikni takomillashtirish: muomala madaniyati qoidalarini qat’iyroq belgilash.

n. Ilmiy tadqiqotlar: mavzuni chuqurlashtirish uchun grantlar ajratish.

Xulosa qilib aytganda, jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari harbiy xizmatchilarining aholi bilan muomala madaniyati psixologik-pedagogik nuqtai nazaridan murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim rol oynaydi. Maqolada muomalaning turlari, nutq madaniyati, qoidalari va ta’sir usullari tahlil qilinib, ularning samaradorligi harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligiga bog‘liqligi ko‘rsatildi. Taklif etilgan tavsiylar amaliyotda qo‘llanilganda, muloqot sifati oshadi va fuqarolar ishonchi kuchayadi. Kelajakda mavzuni empirik tadqiqotlar orqali chuqur o‘rganish zarur va davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djurayev R.M., Rustambayev M.X. va boshqalar. Jamoat xavfsizligi asoslari. T.: O‘R JXU, 2023. B. 350-377.

2. Ананеев, Б.Г. Человек как предмет познания. 1968. - 263 б.

3. Мясишчев, В.Н. Психология отношений. 1960. – 177 б.

4. Ekman, P. Emotions Revealed. 2003. P.351.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA AXBOROT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI

Mamatkulov D.M.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi universiteti dotsenti,
Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Yaqin tariximizgacha muayyan axborotni olov, tutun, chopar, qushlar, karvon, shimol mamlakatlarida esa, itlar singari vositalar orqali bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazib kelingan. Mazkur axborot tashuvchilar tomonidan axborotni belgilangan manziliga yetkazgunga qadar bir necha soat, kun yoki oylar ketgan.

XX asr o‘rtalaridan boshlab muayyan xabar axborot komunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali uzatila boshlandi. XX asrning so‘ngi o‘n yilligida boshlangan AKTning intensiv rivoji telefon, radio, televideniya, internet kabilar bir mamlakat doirasidan chiqib sayyoraviy maqomga ko‘tarilishiga olib keldi. Mazkur rivojlanish avvalo axborot uzatish tezligiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Endilikda, AKT orqali muayyan axborotni bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazish tezligi 0,6 sekundga yetdi. Mazkur

o‘zgarishlar natijasida yo‘ldosh (sputnik) telefoniyasi, yo‘ldosh radiotelevideniyasi, internet hamda ijtimoiy tarmoqlar insoniyat hayotidan mutloq o‘rin egalladi.

Ta’kidlash kerakki, dunyo taraqqiyoti axborot va uning uzatish bilan bog‘liq quyidagi uch bosqichni bosib o‘tdi. Ular:

1. Ilk, sodda shaklda axborot uzatish davri;
2. Faol axborot uzatish davri;
3. Yolg‘on axborot uzatish davri.

Bugungi kunda insoniyat jamiyati yolg‘on axborot uzatish davriga kirib keldi. Darhaqiqat, hozirda global yoki lokal axborot makonida ishonchli axborotlar ulushidan ko‘ra “fake news” - soxta axborotlar ulushi katta miqdorni tashkil etmoqda.

Davrimizning asosiy xususiyatlaridan yana biri shundaki, bugungi kunga kelib, an’anaviy bozor va raqobatdan mutloq farq qiladigan yangi bozor va raqobat shakllari vujudga keldi.

Yangi bozorda mahsulot emas, inson e’tibori sotilmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoq kompaniyalari (*Facebook, “Twitter” yoki “X”, “Telegram”, “Instagram”, “V-kontakte”, “Linkedln” kabilar*) aynan shuning uchun ya’ni, odamlarni ekrandan uzoqlashtirmaslik, ularning diqqatini ko‘proq ushlab turish uchun o‘zaro raqobatlashmoqda.

Darhaqiqat, hozirda hech kim ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi sifatida unga pul to‘lamaydi. Lekin, shuni unutmaslik lozimki, iqtisodiyotning asosiy tamoyiliga ko‘ra “Agar kimdir mahsulot uchun pul to‘lamayotgan bo‘lsa, bilinki, uning o‘zi mahsulot hisoblanadi!”.

Ta’kidlash kerakki, ijtimoiy tarmoq kompaniyalarining uchta asosiy maqsadi mavjud. Ular:

1. Inson e’tiborini tortish va uni ushlab turish. Bu maqsad kishilarni iloji boricha ijtimoiy tarmoqda bo‘lish vaqtini uzaytirishga qaratilgan;
2. Do‘stlarimizni ijtimoiy tarmoqqa qo‘shish va ularga axborot uzatishimizni rag‘batlantirish. Bundan maqsad ijtimoiy tarmoq auditoriyasini kengaytirish va uni yanada rivojlantirish;
3. Ijtimoiy tarmoqdagi axborotlar orasiga mohirona reklama joylash. Bu mazkur sohadagi kompaniyalarining asosiy maqsadi bo‘lib bu orqali o‘z faoliyatlarini monetizatsiya qilishadi.

Shu vaqtga qadar inson shaxsi va psixologiyasi bu qadar kuchli kuzatilmagan va o‘rganilmagan edi. Endilikda axborot gigantlari tomonidan insonning har bir xatti-harakati: ekrandagi rasmga qancha soniya tikilgani, qaysi mazmundagi videolarni ko‘p tomosha qilgani, yozayotgan izoh

(komentariy)larining mazmuni va xissiy dinamikasidan uning ruhiy va intelektual xolatidagi o‘zgarishlar chuqur o‘rganib borilmoqda. Albatta, bu ishni aniq kimdir emas, balki, murakkab algoritmga asoslangan axborot tizimi amalga oshirmoqda.

Shu tariqa ijtimoiy tarmoqlar onlayn aloqa, ayniqsa yosh avlod uchun birinchi o‘ringa chiqqan yangi, vertual dunyoni yaratdi. Bu dunyoda inson fyuchersi (*futurus – lotincha kelajak, fyuchers – xali ishlab chiqilmagan mahsulotlarning oldi-sottisi bo‘yicha o‘zaro kelishuv*) ya’ni, kelajakdagi istak va ehtiyojlari, oldindan qiladigan xatti-harakatlari sotuvga qo‘yilmoqda. Bu degani hozirgi zamon kishisining istak va ehtiyojlari va amaliy xatti-harakatlari uning o‘ziga emas, ko‘proq axborot gigantlari istaklariga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ham tarixan o‘z qo‘lidagi narsa-buyum va uskunalarning mutloq egasi bo‘lgan inson endilikda o‘ziga tegishli axborot texnologiyalari (*smartfon, kompyuter va turli gejetlar*)ning tobesiga aylandi.

Darhaqiqat, mana shunday vaziyat dunyoda gibrid urush jarayonlari uchun qulay shart-sharoitni vujudga keltirayotganidan dalolat beradi. Ma’lumki, “gibrid urush (inglizcha – *hybrid warfare*) – hujum qilayotgan tomonning klassik ravishdagi harbiy bosib kirish usulini qo‘llamasdan, yashirin operatsiyalar, qo‘poruvchilik harakatlari, kiber urush hamda dushman hududida harakatlanayotgan nomuntazam, isyonchi guruhlarni qo‘llab quvvatlagan holda o‘z raqibiga bosim o‘tkazish bo‘yicha dushmanlik harakatlari. Bunday holatlarda harbiy harakatlar umuman olib borilmasligi va rasmiy nuqtai nazardan gibrid urushi tinchlik davrida ham olib borilishi mumkin” [3,b. 77].

Ta’kidlash kerakki, axborotning psixologik ta’siri bilan bog‘liq bugungi murakkab xolat hamda uning ta’sirida yuzaga keladigan gibrid urush tahdidi mamlakatimiz uchun ham begona emas. Bu xolat ayniqsa to‘laqonli hayotiy tajriba shakllanmagan, biroq zamonaviy texnologiyalarga o‘ta qiziquvchan va psixologik jihatdan tobe yoshlar faoliyati orqali yanada xavfli bo‘lishi mumkin.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligiga ko‘ra 18 yoshga to‘lgan, harbiy xizmatga yaroqli har bir fuqaro Qurolli kuchlar tizmida o‘z fuqarolik burchini bajarishi majbur etib belgilangan. Afsuski, hozirda axborotning salbiy psixologik ta’sirini kuchayishi natijasida aksariyat mamlakatlar ijtimoiy hayotida hatbiy tizim uchun potensial zahira bo‘lgan yosh avlodda mazkur sohaga qishiqishni pasayish tendensiyasi yuzaga kelmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kundagi axborotning salbiy

psixologik ta’siri harbiy tizimda avlodlar almashunuvi masalasini havf ostida qoldirmoqda.

Axborotning salbiy psixologik ta’siri sharoitida birinchi muammo, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi uchun potensial zahira bo‘lgan yosh avlodni asrash hamda mazkur sohada avlodlar almashunuvi to‘laqonli ta’minlash bo‘lsa, ikkinchi muammo hozirda bevosita jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimidagi xizmatchi va harbiy xizmatchilari orasida gibrid urush shakllaridan biri bo‘lgan internet, ijtimoiy tarmoq va ayniqsa onlayn azart o‘yinlarga tobelikning ortayotgani hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi jamiyat tartibi va xavfsizligini ta’minlashga qodir bo‘lishi uchun avvalo, o‘zini axborotning salbiy psixologik ta’siri hamda nostandart shakldagi gibrid urushlardan himoya qilmog‘i kerak. Albatta, bu o‘rinda himoya deganda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimidagi klassik shakldagi harbiy arsenal bilan jamiyat tartibi va xavfsizligini ta’minlash nazarda tutilmaydi. Bu birinchi navbatda axborotning salbiy psixologik ta’siridan himoyalanishni, zarur bo‘lganda milliy manfaat himoyasi yo‘lida gibrid va axborot urushlariga kira olishni nazarda tutadi.

Bizningcha, bugungi axborotning salbiy psixologik ta’siri va gibrid urush shakllari kuchayib borayotgan bir sharoitda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimidagi Oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlariga kompleks tarzda “Axborot xavfsizligi psixologiyasi” o‘quv kursini joriy etish;

Ikkinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi bilan bog‘liq ravishda harbiy jurnalistika sohasini rivojlantirish. Buning uchun shu soha fuqorolik Oliy ta’lim muassasalari bilan qo‘shma fakultetlar ochish va ularda harbiy jurnalist kadrlarni tayyorlash;

Uchinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi uchun “Jurnalistika va axborot xavfsizligi” ixtisosligini joriy etish hamda yaqin istiqbolda mazkur ixtisoslik bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish;

To‘rtinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi (keng xalq ommasi bilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar)ni yoritish uchun blogerlik faoliyatiga imkon berish;

Beshinchidan, gibrid va axborot urushlarining katta ehtimolini hisobga olgan holda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida axborot-psixologik

operatsiyalar bo‘yicha mutaxassislar hamda kiber armiya bo‘linmalarini shakllantirish;

Oltinchidan, axborot-psixologik operatsiyalar bo‘yicha mutaxassislar hamda kiber armiya bo‘linmalari uchun alohida jismoniy va professional me’yorlar ishlab chiqish. Masalan, jismoniy jihatdan nogironligi bo‘lsada, lekin professional jihatdan soha uchun zarur malakaga ega bo‘lgan shaxslarni xizmatga olish.

So‘ngi so‘z o‘rnida shuni aytish mumkinki, bundan buyon har bir davlatning jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida albatta ikki turdagi bo‘linmalarni tarkib topishi muqarrar. Ularning birinchisi, albatta uzoq yillik rivojlanish tarixiga ega bo‘lgan klassik shakldagi harbiy bo‘linmalar bo‘lsa, ikkinchisi zamon talablari asosida shakllantiriladigan gibrid va axborot urushlariga qarshi turuvchi axborot-psixologik operatsiyalar bo‘yicha mutaxassislar hamda kiber bo‘linmalar hisoblanadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida “Axborot xavfsizligi psixologiyasi” o‘quv kursini kompleks tarzda o‘qitish, harbiy jurnalistika va blogerlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, “Harbiy jurnalistika va axborot xavfsizligi” ixtisosligi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish hamda eng asosiysi axborot-psixologik operatsiyalar bo‘yicha mutaxassislar hamda kiber bo‘linmalarni shakllantirish jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada zamonaviylashuvi hamda ushbu sohasini yanada mustahkam bo‘lishini ta’minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbarning kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston 2017.
2. Paxrutdinov Sh.I. Taraqqiyotga tahdid: nazariya va amaliyot. - T.: Akademiya, 2006.
3. Samarov R.S. Harbiy atamalarning yangi izohli lug‘ati. Toshkent.: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.384-b.
4. Adelstein A.S. Total Propaganda Horn Mass Culture to Popular Culture. – Mahway, N.J. – London, 2021.
5. Semiruxin L.V. Nanotexnologii i soznanie // Filosofskie nauki. - 2022. - №2.
6. Mamatkulov D.M. Mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi // Monografiya – Toshkent: «Lesson press» nashriyoti, 2023 – 224 b.

NOQONUNIY MIGRATSIYA OQIBATIDA YUZAGA KELADIGAN JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAHDIDLAR

Tursunova S.R.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligini ta’minlash”kafedrasi dosenti, yu.f.b.f.d (PhD)

Annotatsiya. Maqolada noqonuniy migratsiya zamonaviy global jarayon sifatida tahlil qilingan. IOM, Frontex, UNODC va JSST ma’lumotlari hamda milliy manbalar asosida 2024–2025-yillarda O‘zbekistonda migratsiya jarayonlari salbiy saldosi va mehnat migratsiyasi ustuvorligi qayd etilgan. Shu bilan birga, Turkiya, Meksika va YEI misolida o‘zbekistonlik fuqarolarning noqonuniy holati yoritilgan. Tahlilda noqonuniy migratsiyaning jamoat xavfsizligiga ta’siri – jinoyatchilik va ekstremizm xavfini kuchaytirishi, soya iqtisodiyotini shakllantirishi va ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta’siri ko‘rsatilgan. Shuningdek, milliy va xalqaro tajribalar solishtirilib, O‘zbekiston qonunchiligining o‘rni hamda huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, idoralararo hamkorlik, raqamli nazorat va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga oid takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar. Noqonuniy migratsiya, jamoat xavfsizligi, mehnat migratsiyasi, soya iqtisodiyoti, terrorizm, ekstremizm, huquqiy maqom, Frontex, IOM, UNODC, YEI, O‘zbekiston qonunchiligi.

Noqonuniy migratsiya zamonaviy global jarayonlarning eng murakkab va ziddiyatli sohalaridan biri hisoblanadi. “Noqonuniy migratsiya - davlatning migratsiya qonunchiligini buzish orqali amalga oshiriladigan ko‘chish jarayoni”[1] kabi holatlar bilan ifodalanadi. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM) noqonuniy migratsiyani “davlat tomonidan qonunan belgilangan kirish, chiqish yoki yashash qoidalarining buzilishi”[2] sifatida ta’riflaydi.

Jahon miqyosida noqonuniy migratsiya ko‘lami tobora ortib borayotgani statistik ma’lumotlarda ham aks etgan. Masalan, Yevropa Ittifoqi Frontex agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda YEI chegaralarida noqonuniy kirish holatlari 380 mingdan ziyodni tashkil etgan bo‘lib, bu 2016 yildan keyingi eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi.[3] Bunday

[1] Abdullayev A. “Migratsiya jarayonlarini huquqiy tartibga solishning nazariy asoslari”. MonografiY. Toshkent: TDYUU nashriyoti, 2021. – B. 45–47.

[2] International Organization for Migration (IOM). “Glossary on Migration”. – Geneva: IOM, 2019. – P. 129. https://publications.iom.int

[3] Frontex. “Risk Analysis for 2024”. – Warsaw: Frontex, 2024. – P. 17–19. https://frontex.europa.eu

jarayonlar faqat Yevropa uchun emas, balki Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham dolzarbdir.[1]

2024–2025 yillarda O‘zbekistonda migratsiya jarayonlari salbiy migratsiya saldosi bilan tavsiflanmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda mamlakatdan chiqib ketganlar kirib kelganlardan **7,066 nafarga ko‘p** bo‘lgan[2]. Praga jarayoni ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilning birinchi yarmida O‘zbekistonga **1,080 kishi** doimiy ravishda ko‘chib kelgan bo‘lsa, shu davrda **5,066 kishi** mamlakatni tark etgan.[3] IOM Uzbekistanning 2024-yil oktabr–dekabr va 2025-yil yanvar–mart oylariga oid hisobotlarida qayd etilishicha, migratsiya jarayonlari hanuz mehnat migratsiyasi ustuvor yo‘nalishda davom etmoqda, ayniqsa Rossiya, Qozog‘iston va Turkiya asosiy qabul qiluvchi davlatlar sifatida qayd etilgan. Shu bilan birga, xorijiy fuqarolarning O‘zbekiston hududida doimiy yashashi ham sezilarli darajada o‘sib bormoqda. IOM ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil boshiga kelib mamlakatda **1,1 milliondan ortiq xorijiy shaxs** istiqomat qilmoqda, bu aholining taxminan 3,5 foizini tashkil etadi[4].

O‘zbekistondagi noqonuniy migrantlar soni bo‘yicha rasmiy manbalarda ochiq ma’lumotlar uchramaydi. Biroq o‘zbekistonlik migrantlarning noqonuniy bo‘lib turishi bilan bog‘liq ayrim holatlar qayd etilgan. Bu holatlar ayrim o‘zbekistonlik migrantlar uchun xorijda qonuniy tartibda istiqomat qilish bilan bog‘liq muammolarni ko‘rsatadi. Turkiya Respublikasi MBR ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yanvar-aprel oylarida 3 746 nafar O‘zbekiston fuqarosi noqonuniy migrant sifatida qayd etilgan. Meksika Statistika idorasi huzuridagi Migratsiya siyosati bo‘limi (MSB) ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda 4 179 nafar O‘zbekiston fuqarosi AQShga yo‘l olayotgan paytda Meksika hududida noqonuniy maqomdagi migrantlar sifatida qo‘lga olingan. Yevrostatning dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda Yei tashqi chegaralari va ichki hududlarida jami 4 065 nafar o‘zbekistonlik noqonuniy migrant aniqlangan. 2024-yilda Yei hududida aniqlangan o‘zbekistonlik noqonuniy migrantlarning asosiy qismi quyidagi davlatlarda qayd etilgan: Germaniya (850 nafar), Latviya (735 nafar), Chexiya (655 nafar), Polsha (610 nafar) va Shvetsiya (380 nafar).[5]

[1] Nasriddinov D. “Mehnat migratsiyasi va uning huquqiy oqibatlari”. O‘quv qo‘llanma – Toshkent: “Adolat”, 2022. – B. 63–66.
[2] World Bank. *Net Migration – Uzbekistan (2024)*. – data.worldbank.org
[3] Prague Process. *Uzbekistan Country Profile (2024)*. – pragueprocess.eu
[4] IOM Uzbekistan. *Migration Situation Report (Oct–Dec 2024; Jan–Mar 2025)*. – uzbekistan.iom.int
[5] https://uzbekistan.iom.int/sites/g/files/tmzbdl2566/files/documents/2025-06/ozbekiston-migratsiya-vaziyatiga-oid-hisobot-2025-yil-yanvar-mart.pdf?utm_source=chatgpt.com

Mavjud ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, noqonuniy migratsiya nafaqat mehnat bozori va ijtimoiy sohaga, balki bevosita jamoat xavfsizligiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Chunki qonun doirasidan tashqarida bo‘lgan shaxslarning huquqiy maqomsizligi ularni huquqbuzarlik va jinoyatchilik jarayonlariga moyil qilishi, shuningdek, terroristik va ekstremistik guruhlar uchun “kungay maydoni”ni yaratishi mumkin[1]. Shu jihatdan, noqonuniy migratsiya masalasini jamoat xavfsizligidan ajratgan holda tahlil qilish imkoniyati yo‘q.

Noqonuniy migratsiyaning asosiy muammolaridan biri – uning jamiyatning barqaror rivojlanishiga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy va sanitariya sohalarida turli salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi bilan bog‘liq. Bu xavflar jamoat xavfsizligi tizimidagi barcha yo‘nalishlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Noqonuniy migratsiya jamiyatda ijtimoiy muvozanatni buzadi. Huquqiy maqomi yo‘q shaxslar ko‘pincha noqonuniy ijara uylarida yashaydi, aholi punktlarida "qora mehnat bozori" orqali ishga kirib oladi. Bu esa mahallalarda ijtimoiy nizolarning kuchayishiga, turli millat vakillari o‘rtasida qarama-qarshiliklar paydo bo‘lishiga olib keladi[2]. Masalan, Rossiya va Qozog‘istonda olib borilgan tadqiqotlar noqonuniy migrantlar to‘planib yashaydigan hududlarda maishiy janjallar, mayda bezorilik va jamoat tartibini buzish holatlari sezilarli darajada yuqori ekanligini ko‘rsatgan[3].

Noqonuniy migrantlar rasmiy mehnat munosabatlaridan chetda qolganligi sababli soya iqtisodiyotni shakllantiradi. Bu holat davlat byudjetiga soliq va ijtimoiy to‘lovlarning tushmasligiga olib keladi[4]. Masalan, Xalqaro mehnat tashkiloti hisobotida qayd etilishicha, Markaziy Osiyo davlatlarida noqonuniy mehnat migrantlarining iqtisodiy faoliyati yalpi ichki mahsulotning kamida 3–5 foiziga teng bo‘lgan "qora bozor" aylanmasini shakllantirmoqda[5]. Bu nafaqat iqtisodiy yo‘qotish, balki mehnat huquqlarining poymol qilinishi va huquqiy muhofazasizlik holatlarini ham kuchaytiradi.

---

[1] UNODC. “Smuggling of migrants: A global review”. – Vienna: UNODC, 2022. – P. 88–90. https://www.unodc.org

[2] Abdullayev A. “Migratsiya jarayonlarini huquqiy tartibga solishning nazariy asoslari”. Monografiya – Toshkent: TDYUU nashriyoti, 2021. – B. 112–115.

[3] Mukomel V. “Illegal Migration and Security Challenges in Russia and Kazakhstan”. – Central Asian Survey, 2020, Vol. 39(4), P. 523–540. (ilmiy maqola)

[4] O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy tadqiqotlar instituti. “Soya iqtisodiyoti va migratsiya jarayonlari tahlili”. – Toshkent: 2022. – B. 37–40. (ilmiy tahliliy hisobot)

[5] International Labour Organization (ILO). “Global Estimates on Migrant Workers”. – Geneva: ILO, 2021. – P. 55–58.https://ilo.org

Noqonuniy migrantlar ko‘pincha tibbiy nazoratdan o‘tmagan holda mamlakatga kirib keladi. Bu esa turli yuqumli kasalliklarni tarqatish xavfini oshiradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘plab mamlakatlarda tuberkulyoz, VICH va virusli gepatit kabi kasalliklarni tarqatish omillari ichida nazoratsiz migratsiya alohida ko‘rsatilgan[1]. Shuningdek, noqonuniy migrantlarning sog‘liqni saqlash tizimidan rasmiy foydalanish imkoniyati yo‘qligi ularni yashirin, xavfli va nazoratsiz tibbiy xizmatdan foydalanishga majbur etadi.

Noqonuniy migrantlarning huquqiy maqomsizligi ularning shaxsini aniqlash va nazorat qilish jarayonlarini murakkablashtiradi. Bu esa profilaktika inspektorlari va ichki ishlar organlari uchun qo‘shimcha xavf manbai yaratadi. Masalan, O‘zbekistonda “E-mehmon” tizimlari joriy etilgan bo‘lsa-da, noqonuniy migrantlarning ma’lum qismi hanuz qonuniy ro‘yxatdan chetda qolmoqda. Bu esa ularning jamoat tartibini buzish holatlarini oldindan aniqlash va bartaraf etish imkoniyatini cheklaydi.

Noqonuniy migratsiya jinoyatchilikning ko‘payishi, ekstremizm xavfining kuchayishi va huquqni muhofaza qilish organlarining profilaktika faoliyatini qiyinlashtirishi bilan jamoat xavfsizligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid soladi. Shu sababli, bu sohadagi milliy siyosat huquqiy-tashkiliy choralar bilan birga raqamli nazorat tizimlari, chegara xavfsizligini kuchaytirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga yo‘naltirilishi lozim.

Noqonuniy migratsiya jamoat xavfsizligi uchun transmilliy muammo hisoblanib, uning oldini olishda faqat milliy darajadagi choralar bilan cheklanish samara bermaydi. Shu sababli ko‘plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar noqonuniy migratsiyaga qarshi kompleks yondashuvlarni ishlab chiqqan. O‘zbekiston ham bu jarayonda milliy qonunchilikni xalqaro tavsiya va standartlar bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va uning Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM) noqonuniy migratsiyani oldini olishda huquqiy maqomsiz shaxslarni legallashtirish, ularning huquqlarini himoya qilish va davlatlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarurligini qayd etadi[2]. UNODC esa noqonuniy migratsiya ko‘pincha odam savdosi va uyushgan jinoyatchilik bilan bog‘liqligini ta’kidlab, chegara nazorati va ma’lumotlar almashinuvini kuchaytirishni tavsiya etmoqda[3]. Yevropa Ittifoqida Frontex agentligi turli

[1] World Health Organization (WHO). “Migration and Health: Key Issues”. – Geneva: WHO, 2022. – P. 12–14. https://who.int

[2] International Organization for Migration (IOM). “World Migration Report 2022”. – Geneva: IOM, 2022. – P. 221–225. https://publications.iom.int

[3] UNODC. “Global Study on Smuggling of Migrants”. – Vienna: UNODC, 2021. – P. 54–58.

davlatlar politsiya va chegara xizmatlarini integratsiyalash orqali migratsiya yo‘llarini nazorat qiladi. Shu bilan birga, YEI “Returns Directive” orqali noqonuniy migrantlarni qaytarish tartibini yagona standartga keltirgan[1].

Rossiya Federatsiyasida noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash “Migratsiya nazorati to‘g‘risida”gi qonun asosida amalga oshiriladi. Unda migrantlarning vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tish tartibi va noqonuniy migratsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlik aniq belgilangan[2]. Qozog‘istonda esa ichki ishlar organlari huzuridagi maxsus migratsiya politsiyasi bo‘linmalari orqali nazorat amalga oshiriladi. Shu bilan birga, 2021-yildan “E-Qonaq” elektron tizimi joriy qilinib, vaqtinchalik yashash joyini onlayn ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi yo‘lga qo‘yilgan[3].

O‘zbekiston Respublikasida migratsiya masalalari qator qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi. Jumladan: “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi qonun[4], “O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holati to‘g‘risida”[5]gi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni ro‘yxatga olish tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[6], “Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo‘lishlari va tranzit o‘tishlari tartibi to‘g‘risida”gi qarorilar va boshqa qonunchilik hujjatlarida aks ettirilgan.

Bugungi kunda ***“E-mehmon”*** hamda ***“Manzil”*** avtomatlashtirilgan axborot tizimlari faoliyat yuritadi. 1074-son qonun bilan ***“E-xabar berish”*** avtomatlashtirilgan axborot tizimi ham ishga tushirilishi nazarda tutilgan.

Amaldagi tizimlar ijobiy natija bergan bo‘lsa-da, muammolar ham yo‘q emas. Masalan, ko‘pincha noqonuniy ijara munosabatlari yashirin

[1] European Commission. “Directive 2008/115/EC on common standards and procedures for returning illegally staying third-country nationals”. – Official Journal of the EU, 2008.

[2] Федеральный закон РФ "О миграционном учете иностранных граждан и лиц без гражданства в Российской Федерации," No109-ФЗ, 2006 г.

[3] Ministry of Internal Affairs of Kazakhstan. “E-Qonaq Digital Registration System”. – Astana: MIA Report, 2022.

[4] O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qonuni , 10.07.2025 yildagi O‘RQ-1074-son (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.07.2025-y., 03/25/1074/0596-son)

[5] O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holati to‘g‘risida”gi Qonuni, 04.06.2021 yildagi O‘RQ-692-son

[6] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 28.09.2020 yildagi 593-son

holda amalga oshiriladi va profilaktika inspektorlari ularni to‘liq qamrab ololmaydi.

Noqonuniy migratsiya masalasi nafaqat jamoat xavfsizligiga tahdid soladi, balki davlat boshqaruvi, huquqni muhofaza qilish tizimi va ijtimoiy barqarorlikka ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Mavjud qonunchilik va amaliyotdagi ayrim bo‘shliqlar masalaning samarali hal etilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli, ilmiy-tahliliy nuqtai nazardan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini tizimli ravishda ko‘rib chiqish zarur.

Migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish uchun, avvalo, huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Migrantlarni identifikatsiya qilish va ularga vaqtinchalik maqom berishning soddalashtirilgan huquqiy tartibini joriy etish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, amaldagi qonunlardagi izohsizliklar va turli idoralar o‘rtasidagi vakolatlar takrorini bartaraf etish, huquqiy tizimning yaxlitligini ta’minlaydi. Shu orqali migratsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning oldini olish samaraliroq yo‘lga qo‘yiladi. Masalan, “ogohlantirish + ro‘yxatga olish” modeli huquqbuzarliklarni profilaktika qilishning samarali vositasi sifatida qo‘llanilishi mumkin.

Tashkiliy sohada idoralararo hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda ichki ishlar organlari, mehnat inspeksiyalari va mahalla fuqarolar yig‘inlari o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvi tizimi sust ishlamoqda. Bu esa noqonuniy ijara bozoridagi shaxslarni aniqlashda jiddiy to‘siqlar keltirib chiqaradi. Shu sababli, holatlar aniqlangan zahoti avtomatik xabar berish (“real-time monitoring”) tizimini yo‘lga qo‘yish orqali nazoratni kuchaytirish mumkin.

Raqamli tizimlarni rivojlantirish ham dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Migratsiya jarayonlarini butun respublika miqyosida qamrab oluvchi yagona axborot tizimlari infratuzilmani mustahkamlaydi. Shuningdek, shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonlarida xalqaro standartlarga mos qo‘shimcha huquqiy kafolatlarni joriy etish zarur. Bu kiberxavfsizlikni ta’minlash va davlat-xususiy sherikchilik asosida innovatsion yechimlarni tatbiq etish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Shu bilan birga, xorijiy davlatlarda mehnat qilayotgan yoki vaqtinchalik yashab turgan O‘zbekiston fuqarolarini huquqiy himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish davlat siyosatida ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Bu nafaqat inson huquqlarini himoya qilish, balki mamlakatning xalqaro nufuzini oshirish hamda jamoat xavfsizligiga xizmat qiladi.

Demak, noqonuniy migratsiya jamiyat hayotining turli sohalarida – ijtimoiy munosabatlarda, iqtisodiy tizimda va sog‘liqni saqlash sohasida

kompleks xavflarni keltirib chiqaradi. Ushbu xavflar o‘z navbatida jamoat xavfsizligini ta’minlashda davlat organlari oldiga qo‘shimcha vazifalar qo‘yadi. Shu bois, mazkur masalaga faqat huquqiy emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv orqali ham samarali yechim topish zarur.

Jamoat xavfsizligini mustahkamlash uchun noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda **“qonun ustuvorligi – raqamli nazorat – xalqaro hamkorlik – profilaktika”** tamoyillari asosiy yo‘nalish sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq.

ТАКТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАДЕРЖАНИЯ РАЗЫСКИВАЕМЫХ ПРЕСТУПНИКОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Джурабаев Р.Т.
преподаватель цикла боевой подготовки Института повышения квалификации МВД Республики Узбекистан, подполковник

Аннотация. В статье рассматриваются тактические особенности задержания разыскиваемых преступников, как одного из необходимых элементов в обеспечении общественной безопасности в Узбекистане. Основываясь на используемой тактике задержания лиц находящихся в розыске как участников уголовно-процессуальных отношений, проведен анализ мнения ученых относительно уголовно-процессуального порядка и криминалистической тактики, алгоритма действий сотрудников службы уголовного розыска осуществляющих задержание разыскиваемых преступников.

Ключевые слова: задержание, разыскиваемый преступник, обеспечение общественной безопасности, криминалистическая тактика, борьба с преступностью служба уголовного розыска.

Обеспечение общественной безопасности, является актуальной проблемой, где одним из элементов является тактика задержания разыскиваемых преступников, которые умышленно скрываются от правосудия. Данная тактика имеет важное значение в для осуществления расследования, когда преступник скрывается и находится в розыске за совершенное преступление.

С точки зрения криминалистической тактики задержания, данное действие, имеющее прикладной (практический) характер осуществляется посредством умелого применения и использования тактических приемов, знание которых гарантирует успешную реализацию целей уголовного преследования. Тактику задержания

должен знать каждое должностное лицо ответственное за расследование преступлений в компетенцию, которых входит их розыск. Задержание разыскиваемых преступников можно представить как комплексную технологию реализующую алгоритм действий сотрудников уголовного розыска. В законодательных актах оно применяется для обозначения процесса задержания разыскиваемых, в зависимости от разновидности розыска (государственный, межгосударственный или международный) каждый из которых специфичен по своей правовой природе, основаниям и порядку применения[1, с. 65].

Следует признать, что криминалистическая тактика и уголовно-процессуальный порядок задержания разыскиваемого, его содержание и место в системе мер процессуального принуждения освещены в юридической литературе в недостаточно степени[2, с. 23].

Проведенный опрос слушателей обучающихся в Институте повышения квалификации МВД Республики Узбекистан показало, что большинство сотрудников не имеют необходимых знаний и навыков по тактике задержания разыскиваемого.

Согласно содержания уголовно-процессуального законодательства задержание подозреваемого определяется как мера процессуального принуждения, применяемая органом осуществляющих доследственную проверку, дознавателем, следователем на срок не более 48 часов с момента фактического задержания лица по подозрению в совершении преступления. Данное понятие содержит указание на правовую природу, субъекты, правомочные произвести задержание, срок, начальный момент задержания, лицо, в отношении которого оно может быть проведено. В рассматриваемом понятии нашли отражение не все признаки, раскрывающие специфику данной меры процессуального принуждения.

Следует согласиться с мнением Е.Г.Васильевой, которая указывает, что в законодательном определении не обозначено основное содержание данной меры принуждения[3, с.48]. В целом подход законодателя, к трактовке тактики задержания подозреваемого следует признать приемлемым и для определения понятия задержания разыскиваемого обвиняемого. Вместе с тем следует учитывать следующие обстоятельства. Задержание разыскиваемого существенно отличается от задержания, подозреваемого, что не может не отразится

на системе признаков, раскрывающих его суть. Поэтому следует уточнить систему признаков, позволяющих постичь назначение данной меры принуждения. Кроме того, признаки, присущие обоим видам задержания, различаются по содержанию в зависимости от его вида. Так, в качестве субъекта задержания указано лицо подозреваемого в совершении преступления при наличии обстоятельств, предусмотренных ст. 221 УПК Республики Узбекистан. В нашем же случае задерживается разыскиваемый обвиняемый, в связи, с чем следует подробно остановиться на каждом признаке его задержания. Это позволит не только с различных сторон рассмотреть указанную меру принуждения, но и выявить черты, отличающие ее от задержания подозреваемого.

Достижению поставленных задач будет способствовать анализ имеющихся в юридической литературе определений тактики задержания разыскиваемого. Так, А.А. Матчанов, относительно алгоритма задержания объявленных в розыск обвиняемых указывал, что задержание данной категории лиц имеет ряд тактических особенностей, которые определяются в зависимости от обстоятельств расследуемого преступления и криминологической характеристики разыскиваемого. От этого зависит тактика его задержания, которая во многом определяет вид тактической комбинации или операции, подготовки к их проведению[4, с.36].

Сравнивая уголовно-процессуальное задержание подозреваемого, обвиняемого и задержание разыскиваемого обвиняемого можно выделить такой сущностный признак последнего, связанный с его тактикой проведения и процессуальным оформлением. Важное значение имеет акцентирование внимания на подготовке к задержанию разыскиваемого обвиняемого, который проводится с разработки плана и собственно алгоритма задержания.

Следует помнить, что задержание разыскиваемого различается от его процессуального статуса и объявление его в государственный, межгосударственный или международный розыск. Это определяется полномочным лицом, осуществляющим расследование и его розыск (следователь по уголовному делу находящимся в его производстве и подразделений розыска оперативной службы уголовного розыска).

А.С. Каманицин определяет задержание разыскиваемого обвиняемого как необходимую меру уголовно-процессуального принуждения при установлении его местонахождения, содержание

которой состоит в кратковременном содержании под стражей обвиняемого в целях незамедлительного доставления его в суд для рассмотрения ходатайства органов уголовного преследования об избрании меры пресечения в виде заключения под стражу[5, с.112].

Данное определение имеет ряд моментов, которые необходимо уточнить. Во-первых, не указывается, что задержанию может быть подвергнут только обвиняемый, находящийся в розыске; во-вторых, не обозначен момент ограничения свободы обвиняемого; в-третьих, задержание обвиняемого может применяться не только для доставления обвиняемого в суд.

С учетом анализа правового регулирования задержания разыскиваемого обвиняемого с научной позиции, считаем, что понятие «задержание разыскиваемого обвиняемого» должно охватывать правовую природу, содержание, цель субъектов осуществляющих розыск и правомочных производить задержание. Уяснение сути указанных элементов позволит всесторонне охарактеризовать данную меру процессуального принуждения в отношении задержанного разыскиваемого обвиняемого.

Наиболее характерно это для тактики задержания разыскиваемого, а также сопряженных с ним действий – изъятия оружия, уличающих предметов и документов и сопровождения лица в служебное помещение, а также, отчасти, фиксации обстоятельств задержания разыскиваемого. Применительно именно к этим действиям вырабатывается тактика задержания разыскиваемого преступника подходящая к определенной обстановке. Однако собственно тактические рекомендации касаются именно действий по физическому задержанию разыскиваемого преступников. Это относится и к розыску и задержанию вооруженных лиц, совершивших особо тяжкие преступления[6, с.56].

На наш взгляд, в юридической литературе правильно отмечается, что тактика задержания разыскиваемого преступника имеет определенный процессуальный порядок. Сущность тактики задержания разыскиваемого преступника имеет многогранный характер и в юридической литературе встречаются различные мнения ученых процессуалистов и криминалистов[7, с.42]. Но все сходятся во мнении о необходимости совершенствования тактики задержания разыскиваемых преступников.

В заключении можно сделать вывод, что для совершенствования борьбы с преступностью необходимо совершенствовать тактику задержания разыскиваемых преступников, а также внедрение в данную сферу тактических приемов задержания, которые применяются сотрудниками службы уголовного розыска и изучить передовой зарубежный опыт для эффективного обеспечения общественной безопасности в нашей стране.

Использованная литература:

1. Матчанов А.А. Уголовно-процессуальные и криминалистические аспекты совершенствования розыска лиц, совершивших преступления: Автореф. дис. …д-ра юрид. наук (DSc). – Т., 2019. – 65 с.

2. Попков Н.В. Задержание подозреваемого и обвиняемого как вид государственного принуждения: дис. ... канд. юрид. наук. - Н.Новгород, 2007 – 23 с.

3. Васильева Е.Г. Уголовно-процессуальное задержание // Материалы международной научно-практической конференции, посвященной 20-летию кафедры уголовного процесса КарЮИ МВД РК им. Б. Басейнова. - Караганда, 2006. - С. 48.

4. Матчанов А.А. Особенности задержания обвиняемого, находящегося в розыске. Монография – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2005. – (123 с.)

5. Каманицин А.С. Задержание обвиняемого - проблемы становления нового уголовно-процессуального института. Проблемы правоведения: сборник научных статей молодых ученных юридического факультета / отв. ред. О.А. Заячковский. - Калининград, 2005. - С. 112-116.

6. Дубовец Г. К. Организация деятельности органов внутренних дел по розыску и задержанию вооруженных лиц, совершивших особо тяжкие преступления: Автореф. дис. …док. юрид. наук. - М., 2003. – 56 с.

7. Ткачук Т.А. Научно-техническое обеспечение розыскной деятельности в уголовном процессе России: Автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – Владимир, 2011. – 42 с.

JAMOAT XAVFSIZLIGI TIZIMIDA YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING TASHKILIY-HUQUQIY YO‘NALISHLARI

Axmedov Sh.O.
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari jamoat xavfsizligi tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari, shuningdek, BMT, JST va UNECE tavsiyalari asosida yo‘l harakati xavfsizligi masalalari yoritilgan. Amaldagi holat, muammolar va ularning ijtimoiy-huquqiy oqibatlari tahlil qilingan hamda tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha bazi taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: yo‘l harakati xavfsizligi; jamoat xavfsizligi; huquqiy asoslar; tashkiliy mexanizmlar; xalqaro tajriba; profilaktika; “Safe System”.

Bugungi globallashuv jarayonida jamoat xavfsizligi masalasi davlatlarning ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Jamoat xavfsizligini ta’minlashning muhim tarkibiy qismlaridan biri esa yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash hisoblanadi. Chunki yo‘l-transport tizimi milliy iqtisodiyotning tayanch sohasi, fuqarolarning kundalik hayoti va mehnat faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, undagi har qanday uzilishlar yoki favqulodda vaziyatlar keng ko‘lamli ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha har yili 1,35 milliondan ortiq kishi yo‘l-transport hodisalari oqibatida halok bo‘ladi, 50 milliondan ziyodi esa turli darajada jarohatlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda mamlakatimizda 9 364 ta yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lgan, ularda 2 203 nafar fuqaro halok bo‘lgan, 8 901 kishi esa jarohatlangan. Ushbu raqamlar yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash orqali jamoat xavfsizligini kuchaytirish dolzarb masala ekanligini ko‘rsatmoqda.

Jamoat xavfsizligini ijtimoiy-huquqiy jihatdan ta’minlash jarayoni huquqiy normalar, davlat siyosati va tashkiliy institutlarning uzviy hamkorligini talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, yo‘l harakati xavfsizligini faqat texnikaviy chora-tadbirlar yoki huquqiy javobgarlik choralarini

qo‘llash orqali emas, balki kompleks tashkiliy-huquqiy asoslarni takomillashtirish orqali samarali natijaga erishish mumkin. Xususan, normativ-huquqiy hujjatlarda aniqlik kiritish, xalqaro standartlarga moslashtirish, profilaktik mexanizmlarni kuchaytirish, ta’lim va huquqiy targ‘ibotni rivojlantirish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Yo‘l harakati xavfsizligi – bu transport vositalari va yo‘l infratuzilmasidan foydalanish jarayonida inson hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulki, shuningdek jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan ijtimoiy, tashkiliy va huquqiy munosabatlar majmuasidir. Ushbu tushuncha huquqiy davlatning konstitutsiyaviy tamoyillari bilan bevosita bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasida inson hayoti huquqi, 26-moddasida inson sha’ni va qadr-qimmati, 32-moddasida esa erkin harakatlanish huquqi kafolatlangan bo‘lib, ular bevosita yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bilan uyg‘unlashadi.

Nazariy jihatdan yo‘l harakati xavfsizligi “xavfsizlik” tushunchasining transport sohasiga tatbiqi bo‘lib, u nafaqat huquqiy javobgarlik mexanizmlari orqali, balki profilaktika, tashkiliy boshqaruv, ilmiy-texnik taraqqiyot va xalqaro hamkorlik orqali ham ta’minlanadi. Shu bois, yo‘l harakati xavfsizligi inson xavfsizligining transport yo‘nalishidagi maxsus bo‘g‘ini sifatida qaraladi.

Jamoat xavfsizligi — shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini turli xavf-xatarlardan himoya qilishni nazarda tutadigan huquqiy kategoriya hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi”da ushbu tushuncha keng qamrovda yoritilib, ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta’minlash vazifasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mazkur konsepsiyada yo‘l harakati xavfsizligi jamoat xavfsizligining alohida sohasi sifatida qayd etilgan. Huquqiy nuqtayi nazardan, yo‘l harakati xavfsizligi jamoat xavfsizligi tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, uning buzilishi kengroq xavfsizlik muammolarini keltirib chiqaradi. Masalan, yo‘l-transport hodisalari nafaqat inson hayotiga tahdid tug‘diradi, balki sog‘liqni saqlash tizimiga ortiqcha yuklama beradi, iqtisodiy faoliyatni izdan chiqaradi, davlat organlariga qo‘shimcha tashkiliy va moliyaviy xarajatlar yuklaydi.

BMT Bosh Assambleyasining 74/299-son rezolyutsiyasi (2020) yo‘l harakati xavfsizligini global darajada inson xavfsizligi masalasi sifatida e’tirof etgan. Ushbu hujjatda 2021–2030-yillar “Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha global harakatlar o‘n yilligi” deb e’lon qilinib, davlatlardan yo‘l-

transport hodisalaridan o‘lim va jarohatlarni kamida 50 foizga qisqartirish maqsadi qo‘yilgan. Shuningdek, Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining (JST) “Global Plan for the Decade of Action for Road Safety 2021–2030” hujjatida yo‘l harakati xavfsizligi “Safe System” yondashuvi asosida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, inson xatolarga yo‘l qo‘yishi muqarrar, biroq transport tizimi bu xatolarni “kechira oladigan” tarzda loyihalanishi kerak. Demak, yo‘l harakati xavfsizligi nafaqat huquqiy, balki tashkiliy va texnik omillar bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi.

Huquqshunos olimlar yo‘l harakati xavfsizligini turlicha izohlaganlar. Masalan, rus olimi M. K. Tikhomirov uni “transport munosabatlari xavfsizligini huquqiy va tashkiliy kafolatlar majmuasi” sifatida talqin qilgan. Germaniya tajribasida esa yo‘l harakati xavfsizligi “Beteiligte im Verfahren” (jarayon ishtirokchilari) orqali nazorat qilinib, unda fuqarolarning huquqlari, davlatning javobgarligi va xalqaro standartlar uyg‘unlashgan. O‘zbekistonda esa yo‘l harakati xavfsizligi nazariyasi huquqiy davlat tamoyillari, konstitutsiyaviy huquqlarni himoya qilish va jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan uzviy bog‘langan holda rivojlanmoqda. Shu bois, yo‘l harakati xavfsizligini mustahkamlash masalasi nafaqat huquqiy siyosat, balki ijtimoiy siyosatning ham tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligi sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza mustaqillikdan keyingi yillarda bosqichma-bosqich shakllandi. Eng asosiy huquqiy hujjat sifatida 2024-yil 19-yanvarda qabul qilingan yangi tahrirdagi **“Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi Qonun** hisoblanadi. Ushbu qonun:

- yo‘l harakati qatnashchilarining huquq va majburiyatlarini;
- davlat organlari va ularning vakolatlarini;
- yo‘l-patrul xizmati faoliyatini;
- yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tartibini belgilab berdi.

Shuningdek, mazkur qonun yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda **xalqaro standartlar**ni joriy etish, **fuqarolarning xavfsiz yashash huquqini kafolatlash** va **zamonaviy boshqaruv tizimlarini rivojlantirish** kabi tamoyillarga tayanadi.

So‘nggi yillarda yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

Sun’iy intellekt asosida nazorat kameralarini o‘rnatish – tezlikni aniqlash, svetofor signaliga amal qilmaslik kabi qoidabuzarliklarni avtomatik qayd qilish.

YPX xodimlarini bodikameralar va planshetlar bilan jihozlash – bu nafaqat tartibni, balki ochiqlik va shaffoflikni ham ta’minlaydi.

Huquqbuzarliklar bazasini yagona elektron tizimga kiritish – ma’lumotlarning tezkor qayd etilishi, jarimalar ustidan shikoyat qilish tartibining soddalashtirilishi.

Huquqiy jihatdan yo‘l infratuzilmasining xavfsizlik talablari “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan bo‘lsa-da, amalda ularning to‘liq ijrosi ta’minlanmayapti. Bu esa jamoat xavfsizligining umumiy darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Yo‘l harakati xavfsizligiga oid eng katta muammolardan biri — aholining huquqiy ong va madaniyat darajasining pastligidir. Ko‘plab haydovchilar va piyodalar:

- qoidalarning asosiy bandlarini bilmaydi;
- xavfsizlik kamaridan muntazam foydalanmaydi;
- bolalar o‘rindiqlaridan foydalanishga e’tibor bermaydi;
- piyodalar o‘tish joylarida ham qoidalarni buzadi.

Bu holat nafaqat yo‘l-transport hodisalariga olib keladi, balki jamiyatda huquqqa bo‘lgan hurmatning pasayishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda huquqiy madaniyatni oshirish ustuvor vazifalardan biri bo‘lishi kerak.

Yo‘l harakati qatnashchilari orasida eng zaif toifaga bolalar, keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar kiradi. Amaldagi qonunchilikda bu toifalar uchun alohida kafolatlar belgilangan bo‘lsa-da (masalan, maktab atrofidagi xavfsizlik belgilarini o‘rnatish, piyodalar o‘tish joylarini belgilash), amaliyotda ularning ijrosi doim ham ta’minlanmaydi.

Natijada bolalar ishtirokidagi YTHlar yuqori darajada qolmoqda. JST ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha yo‘l-transport hodisalari yoshlar o‘limining birinchi uchta sababidan biridir. Bu esa O‘zbekistonda ham alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan muammo hisoblanadi. Bundan tashqari yo‘l harakati xavfsizligidagi muammolarni faqat huquqiy kategoriya sifatida emas, balki ijtimoiy kategoriya sifatida ham ko‘rib chiqish kerak. Chunki:

- ✓ Qoidabuzarliklarning yuqori darajasi jamiyatda huquqqa hurmatning pasayganidan dalolat beradi;
- ✓ Yo‘l-transport hodisalari davlatning sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot va huquqni muhofaza qilish tizimlariga ortiqcha yuklama beradi;

✓ Infratuzilma muammolari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi;

✓ Fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

Demak, yo‘l harakati xavfsizligidagi muammolarni bartaraf etish faqatgina huquqiy normalarni kuchaytirish orqali emas, balki ijtimoiy-huquqiy kompleks yondashuvni talab qiladi. Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda huquqiy madaniyatni oshirish muhim omil hisoblanadi. Buning uchun:

✓ Maktablarda va oliy ta’lim muassasalarida “Yo‘l harakati xavfsizligi asoslari” fanini majburiy tarzda kiritish;

✓ Televizion va raqamli platformalarda muntazam ravishda ijtimoiy roliklar namoyishi;

✓ Jamoatchilik nazorati mexanizmlarini rivojlantirish, masalan, “Yo‘l patruli – xalq nazorati” onlayn platformalarini yaratish zarur.

Shuningdek, bolalar bog‘chalari va maktablarda “yo‘l harakati maktablari” tashkil etish orqali yosh avlodning huquqiy madaniyatini erta bosqichdan shakllantirish mumkin.

Xorijiy davlatlar tajribasi O‘zbekiston uchun samarali yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qilishi mumkin:

- **Shvetsiya** – “Vision Zero” strategiyasi asosida yo‘l-transport hodisalarida o‘lim darajasini deyarli minimal darajaga tushirishga erishdi. Ushbu modelni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash mumkin.
- **Yaponiya** – transport intizomini nazorat qilishda sun’iy intellekt va robotlashtirilgan tizimlardan foydalanmoqda.
- **AQSh** – xavfsizlik kamari, bolalar o‘rindiqlari va tezlikka oid qat’iy qonuniy nazorat mexanizmlari orqali YTH oqibatida o‘limlarni sezilarli kamaytirgan.

O‘zbekiston qonunchiligini ushbu xalqaro tajribalar bilan uyg‘unlashtirish orqali yo‘l harakati xavfsizligini yanada mustahkamlash mumkin. JST tavsiyalariga muvofiq, “oltin soat” qoidasi asosida YTH sodir bo‘lgan joyga tez tibbiy yordam yetib kelishi inson hayotini saqlab qolishning asosiy kafolatidir. Shu bois:

- Maxsus “yo‘l travmatologiya markazlari”ni tashkil etish;
- 103 xizmati va YPX o‘rtasida onlayn integratsiyani kuchaytirish;
- Qutqaruv mashinalari uchun “yashil koridor” tizimini kengaytirish zarur.

Bunday chora-tadbirlar jamoat xavfsizligini ijtimoiy-huquqiy jihatdan ta’minlashga bevosita xizmat qiladi.

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish orqali jamoat xavfsizligini mustahkamlash quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

1. Milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish.
2. Davlat organlari o‘rtasida muvofiqlashtirishni kuchaytirish.
3. Huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish.
4. Xalqaro tajribalarni tatbiq etish.
5. Post-krash tibbiy yordam tizimini mustahkamlash.
6. Moliyaviy resurslarni samarali boshqarish.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, yo‘l harakati xavfsizligi jamoat xavfsizligi tizimining ajralmas qismi bo‘lib, uning samarali ta’minlanishi davlat barqarorligi va fuqarolarning hayot sifati uchun muhim kafolatdir. O‘zbekistonda ushbu sohada normativ-huquqiy baza mavjud bo‘lsa-da, xalqaro standartlarga to‘liq moslashtirish, huquqiy madaniyatni oshirish, davlat organlari o‘rtasida muvofiqlashtirishni kuchaytirish va post-krash tizimini rivojlantirish zarur. Taklif etilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar jamoat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi
3. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi
4. O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi O‘RQ-900-son Qonuni (2024-yil 19-yanvar). https://lex.uz/docs/6885707
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risida (2021-yil 29-noyabr). https://lex.uz
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 304-son Qarori “Yo‘l-patrul xizmati faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2011-yil 12-oktabr). https://lex.uz
7. Belin, M.-Å. (2016). *Vision Zero in Sweden: An innovation in road safety policy*. Safety Science, 82, 236–240. https://doi.org/10.1016/j.ssci.2015.07.017
8. Tikhomirov, M. K. (2018). *Administrativnoye pravo i obespecheniye bezopasnosti dorozhnogo dvizheniya*. Moskva: Norma.

9. Schmidt, H. (2019). *Beteiligte im Verfahren: Rechtsstellung und Aufgaben im deutschen Strafprozess*. Berlin: Springer.
10. World Health Organization. (2023). *Global status report on road safety 2023*. Geneva: WHO. https://www.who.int/publications/i/item/9789240066743
11. UNECE. (2024). *Road Safety Performance Review: Uzbekistan*. Geneva: United Nations Economic Commission for Europe. https://unece.org
12. OECD/ITF. (2022). *Road Safety Annual Report 2022*. Paris: OECD Publishing. https://www.itf-oecd.org

BOLA HUQUQLARINI TA'MINLAShDA PROFILAKTIK ChORA-TADBIRLARNING SAMARADORLIGI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR

Yuldashev Sh.N.
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi unversiteti,Jamoat xavfsizligini ta'minlash kafedrasi dotsenti, y.f.b.f.d (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bola huquqlarini ta'minlashda profilaktik chora-tadbirlarning ahamiyati tahlil qilingan. Xalqaro huquqiy tajriba va milliy qonunchilik asosida profilaktikaning nazariy jihatlari yoritilib, amalda qo'llanilayotgan choralar tahlil qilingan. Shuningdek, muallif bola huquqlarini himoya qilish sohasida mavjud muammolarni ko'rsatib, olimlar fikrlarini solishtirib bahs qiladi hamda ularni bartaraf etishga oid taklif va tavsiyalarini taqdim etadi.

Kalit so'zlar: bola huquqlari, profilaktika, davlat siyosat, huquqiy ta'minot, ijtimoiy himoya, pedagogik yondashuv, huquqbuzarliklar oldini olish.

Bola huquqlari masalasi zamonaviy jamiyat taraqqiyotida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki bola – bu nafaqat jamiyatning bugungi a'zosi, balki uning kelajagini belgilaydigan ijtimoiy subyektdir. Shu boisdan ham milliy va xalqaro darajada bola huquqlarini ta'minlashga oid huquqiy, siyosiy, ijtimoiy hamda tarbiyaviy chora-tadbirlar tizimi shakllantirilgan. Biroq amaliyotdagi ko'pgina holatlar shuni ko'rsatadiki, bolalarning huquq va erkinliklarini himoya qilish ko'pincha postfaktum – ya'ni huquq buzilgandan keyin amalga oshiriladi. Bu esa samaradorlikni pasaytiradi. Shu sababli profilaktik chora-tadbirlarning o'rni beqiyosdir.

BMTning 1989 yilda qabul qilingan «Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya»sida davlatlardan bola huquqlarini ta’minlashda faqatgina huquqbuzarliklarga qarshi kurashish emas, balki ularning oldini olish bo‘yicha tizimli choralar ko‘rish talab etiladi[1]. Bu talab milliy qonunchilikda ham o‘z ifodasini topgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunida (2008 yil) profilaktik chora-tadbirlar bolaning huquqiy himoyasining asosiy yo‘nalishi sifatida belgilangan[2].

Tadqiqotchi olim M.Z. Ziyodullayev ta’kidlaganidek, «Profilaktika huquqbuzarlik yuz bergandan keyingi chora emas, balki huquqiy madaniyatni oshirish, ma’naviy-axloqiy rivojlanish va ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirishning uzviy qismi» hisoblanadi[3]. Demak, profilaktika nafaqat huquqiy, balki pedagogik va ijtimoiy jihatlardan ham o‘rganilishi lozim.

Ayrim olimlar (A.S. Tursunov, I.Y. Fazilov, S.B. Xo‘jaqulov) esa, profilaktika ko‘proq huquqiy tartibga solish va jazo mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liq, deb hisoblaydilar[4]. Muallif esa mazkur qarash bilan to‘liq qo‘shilmaydi, chunki bola huquqlarini ta’minlashda asosiy e’tibor jazo choralariga emas, balki bolaning ongini, tafakkurini va ijtimoiy moslashuvini to‘g‘ri yo‘naltirishga qaratilmog‘i lozim. Bu borada pedagogik va psixologik yo‘nalishlar ko‘proq samara beradi.

Shu bilan birga, profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligi ko‘p jihatdan davlat va jamiyatning o‘zaro hamkorligiga, nodavlat tashkilotlar, mahalla tizimi, ota-ona va ta’lim muassasalarining mas’uliyatiga bog‘liqdir. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bola huquqlarini ta’minlash faqat davlat organlari emas, balki butun jamiyatning umumiy vazifasidir.

---

[1] Конвенция о правах ребенка. Принята резолюцией 4/25 Генеральной Ассамблеи от 20 ноября 1989 года. https://www.un.org/ru/ documents/decl_conv/ conventions/ childcon.shtml

[2] O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi 7.01.2008 yildagi Qonuni. O‘RQ-139. https://lex.uz/docs/1297315

[3] *Ziyodullayev M.Z.* The Concept and Specific Characteristics of Early Prevention of Offence // Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology // ISSN: 1001-4055. Vol. 45 No. 1 (2024) (Scopus)– P. 3661–3665

[4] Tursunov A.S., Fazilov I.Y., Xo‘jaqulov S.B. Huquqbuzarlilar profilaktikasi: Darslik (Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarining Ijtimoiy-gumanitar fanlar 4-ta’lim yunalishlari uchun) / Ma’sul muharrir B.A.Matlyubov – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – 361 b

Profilaktika tushunchasi huquqshunoslikda ham, pedagogikada ham keng qo‘llaniladi. U umumiy ma’noda muayyan salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan tizimli choralar majmui sifatida izohlanadi. Professor F.M. Zaripovning ta’kidlashicha, «Profilaktika – bu nafaqat huquqiy jarayon, balki ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtiruvchi madaniy-intellektual mexanizm»dir[1].

Bola huquqlarini ta’minlashda profilaktikaning nazariy asoslari, avvalo, huquqiy tarbiya va ma’rifiy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, bolaning huquq va burchlari haqida erta bosqichda bilim berish, ularning huquqiy ongini shakllantirish, shaxsiy mas’uliyatini oshirish – profilaktikaning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Shuningdek, ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan, profilaktika – bolaning ijtimoiy muhitda o‘zini topishi, ijtimoiy rollarni to‘g‘ri anglashi, salbiy ta’sirlardan himoyalanishi jarayoni sifatida qaraladi. Bu fikrni rus tadqiqotchisi V.F. Shmidt ham qo‘llab-quvvatlaydi, uning fikricha «Profilaktika faqat huquqiy yo‘nalish bilan cheklanmasdan, bolaning ijtimoiy adaptatsiyasini kuchaytirishi lozim»[2].

Amaliyotda esa profilaktikaning nazariy jihatlari ko‘pincha formal qonun normalari bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa uning samaradorligini pasaytiradi. Masalan, ayrim ta’lim muassasalarida huquqiy tarbiya faqat ma’ruzalar bilan cheklanib, bolaning shaxsiy faol ishtirokiga e’tibor berilamaydi. Bizning fikrimizcha, haqiqiy samaradorlik faqat interaktiv usullar, rolli o‘yinlar, simulyatsiyalar, amaliy mashg‘ulotlar orqali erishiladi.

Shu ma’noda profilaktika nazariyasida ikki yo‘nalishni ajratish mumkin:

1. yuridik yo‘nalish – huquqiy normalar va davlat siyosatini amalga oshirish;

2. pedagogik-yo‘nalish – bolaning huquqiy ongi va shaxsiy mas’uliyatini rivojlantirish.

---

[1] Zaripov F.M. O‘quvchilar huquqbuzarliklari va jinoyatchiligi profilaktikasini takomillashtirish masalalari // Современное образование (Uzbekistan). 2020. №1 (86). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/uvchilar-u-u-buzarliklari-va-zhinoyatchiligi-profilaktikasini-takomillashtirish-masalalari

[2] Шмидт В.Ф. Психоаналитические и педогогические труды. Психоаналитическое воспитание.-Ижевск: ERGO, 2012. ISBN 978-3894848194

Fikrimizga ko‘ra, ushbu ikki yo‘nalish bir-birini to‘ldirishi kerak. Faqat qonun bilan cheklanish samara bermaydi, chunki bola shaxs sifatida tarbiyalanmas ekan, qonun normalari formal holatda qolaveradi.

Bola huquqlarini ta’minlash masalasida xalqaro huquqiy tajriba muhim ahamiyatga ega. Chunki milliy qonunchilik ko‘p jihatdan xalqaro huquq normalari bilan uyg‘unlikda rivojlanib boradi. BMTning «Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya»si (1989 y.) bola huquqlarini himoya qilish sohasidagi eng asosiy xalqaro hujjat hisoblanadi. Ushbu Konvensiyada davlatlarga bolalarni nafaqat himoya qilish, balki ularning huquqlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni oldindan bartaraf etish vazifasi yuklatilgan.

Shuningdek, Yevropa kengashi, YUNISEF, YUNESKO kabi tashkilotlar o‘z hujjatlari va dasturlarida profilaktikaning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishgan. Masalan, YUNISEFning 2022 yilgi hisobotida profilaktika bola huquqlarini himoya qilishda «asosiy strategik yo‘nalish» sifatida e’tirof etilgan[1]. Unda ta’lim muassasalarida huquqiy bilim berish, oilalar bilan hamkorlik qilish va ijtimoiy xizmatlar tizimini kuchaytirish zarurligi qayd etilgan.

Milliy qonunchilikda esa O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida (2023 yilgi yangi tahrir) bola huquqlarini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan[2]. Shuningdek, «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonun (2008 y.) ham profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy qonunchilikda profilaktikaning huquqiy asoslari yetarlicha mavjud, ammo ularning amaliy tatbiqi ko‘pincha samarasiz bo‘lib qolmoqda. Qonun normalari deklarativ holda qolib ketmasligi, balki amaliy mexanizmlar bilan ta’minlanishi zarur, chunki ko‘p hollarda profilaktika tadbirlari qog‘ozda qolib, amalda to‘liq bajarilmaydi.

Qonunchilikdagi tizimli yondashuv samarali natija beradi, faqat ijro organlari faoliyatida shaffoflik va nazoratni kuchaytirish zarur.

[1] BMT bolalar fondi. (inglizcha. United Nations International Children's Emergency Fund; Ingilizcha qisqartma UNICEF)
[2] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023.

Qonunchilik asoslari yetarli, biroq ularni to‘liq amalga oshirish uchun davlat va jamiyatning institutsional hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, profilaktikaning samaradorligi, avvalo, davlat siyosati va jamiyatning barcha qatlamlari o‘rtasidagi uzviy hamkorlikka bog‘liq. Masalan, ayrim davlatlarida bola huquqlarini himoya qilishda profilaktika ustuvor bo‘lib, u nafaqat huquqiy mexanizm, balki ijtimoiy xizmatlar, psixologik ko‘mak va pedagogik dasturlar orqali ta’minlanadi. O‘zbekistonda ham ana shunday tajribalarni milliy tizimga moslashtirish zarur.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bola huquqlarini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2019 yilda qabul qilingan “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun bolalarning turli sohalardagi huquq va erkinliklarini kafolatlab berdi. Ushbu qonunda bolaning hayotdan to‘liq bahramand bo‘lishi, ta’lim olishi, sog‘lom turmush tarzi va zo‘ravonlikdan himoyalanishiga oid normalar belgilandi.

Amaliyotdagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, bola huquqlarini himoya qilish davlatning bir tomonlama vazifasi emas. Mamlakatimizda oila va mahalla institutlari, huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari hamda jamoat tashkilotlari ham ushbu jarayonda faol ishtirok etmoqda.

Bola huquqlarini ta’minlashda profilaktik chora-tadbirlar huquqiy, pedagogik, psixologik va ijtimoiy mexanizmlar uyg‘unligida samarali bo‘ladi. Nazariy jihatdan profilaktika huquqbuzarlik sodir bo‘lishidan oldin uning sabablari va sharoitlarini bartaraf qilishni anglatsa, amaliy jihatdan u davlat, oila va jamiyat hamkorligida amalga oshiriladi. O‘zbekistonda qonunchilik bazasi yetarlicha shakllangan bo‘lsa-da, uning hayotiy ijrosini ta’minlash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shu bois, bola huquqlarini ta’minlashda profilaktik chora-tadbirlar davlat siyosati va jamiyat tashabbuslarining birgalikdagi mahsuli sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023 yi yangi nahrir
2. BMT “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi 16.12.1966 yildagi xalqaro pakt https://www.un.org/ru/documents/decl_ conv/conventions/ pactpol.shtml

3. BMT Bosh Assambleyasi 1386 (XIV) rezolyusiyasi 20 noyabr 1959 yil. Bola huquqlari deklaratsiyasi. https://www.un.org/ ru/documents/decl_ conv/ declarations/childdec.shtml

4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 22.09.1994 yil. https://lex.uz/docs/111453?ONDATE= 01.04.1995%2000

5. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi 7.01.2008 yildagi O‘RQ-139-sonli Qonuni, 3-modda. https://lex.uz/acts/1297315

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.04.2019 yildagi PQ-4296-sonli “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori. https://lex.uz/uz/docs/ 4302023

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.05.2020 yildagi “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4736-sonli Qarori. https://lex.uz/uz/docs/4831107

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 09.08.2021 yil PF-6275-sonli Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/5570490

ОСОБЕННОСТИ ПРОКУРОРСКОГО НАДЗОРА ПРИ ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В БОРЬБЕ С НЕЗАКОННЫМ ОБОРОТОМ НАРКОТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ ИЛИ ПСИХОТРОПНЫХ ВЕЩЕСТВ

Максудов Х.Х.
Старший прокурор Управления надзора за исполнением законов органами внутренних дел Генеральной Прокуратуры Республики Узбекистан

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы связанного с анализом современного состояния прокурорского надзора при обеспечении общественного безопасности в борьбы с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ в мире, регионе Центральной Азии и в Узбекистане. Проводится комплексный научный анализ данного вида прокурорского надзора за исполнением

законов в борьбе с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ и на основании изучения мнения ученых относительно особенностей участия прокурора в обеспечения общественной безопасности при осуществлении прокурорского надзора за исполнением законов в рассматриваемой сфере.

Ключевые слова: общественная безопасность, прокурорский надзор, незаконный оборот наркотиков и психотропных веществ, прокурор, надзор за исполнением законов, предварительное следствие, дознание, доследственная проверка.

В обеспечении общественной безопасности важное место занимает прокурорский надзор за исполнением законов и в частности расследовании преступлений связанных с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ. Эти преступления, имеют глобальный, транснациональный характер и представляют опасность для жизни и здоровья граждан. При расследовании данных преступлений требуется совершенствование механизма обеспечения законности посредством осуществления прокурорского надзора. Органы прокуратуры занимают особое место в правоохранительной системе каждого государства и на них возлагаются полномочия непосредственного надзора за единообразным исполнением законов в различных направлениях и в частности за исполнением законов в сфере борьбы с незаконным оборотом наркотиков. Противодействие незаконному обороту наркотиков, согласно мировой статистике, приобретает глобальный, межгосударственный характер. Согласно Всемирного доклада о наркотиках Управления Организации Объединенных Наций по наркотикам и преступности (УНП ООН) за последние десять лет число людей, употреблявших каннабис, увеличилось на 23 процента, а опиоиды употреблял 61 млн человек, что составляло 1,2 процента мирового населения[1].

Необходимо признать, что в обеспечении общественной безопасности изучение вопросов совершенствование прокурорского надзора за исполнением законов в сфере борьбы с незаконным оборотом наркотиков правоохранительными органами представляют важное научно-практическое значение. Особо выделена роль прокурорского надзора как основной функции прокуратуры в предупреждении преступлений и иных правонарушений в сфере оборота наркотиков[2, с.212]. Отдельное внимание уделяется исследованиям в сфере совершенствования нормативно-правовой

регламентации прокурорского надзора, организационно-правовых основ совершенствования надзорного механизма органов прокуратуры в сфере борьбы с незаконным оборотом наркотиков. Это относится и к соблюдению международных стандартов, а также международного опыта применения тактических приемов прокурорского надзора за исполнением законодательства в исследуемой сфере. По данным ООН, число людей, употребляющих наркотики, за десятилетие вырос на 23 процента и при этом страдающих расстройствами, связанными с использованием наркотических веществ, возросло на 45 процентов больше, чем 10 лет назад[3].

В Узбекистане уделяется особое внимание дальнейшему повышению эффективности, совершенствованию механизмов прокурорского надзора за исполнением законов в сфере борьбы с незаконным оборотом наркотиков, созданию правовой базы для осуществления прокурорами надзора за точным и единообразным исполнением законодательства в данной области. Статистические данные о незаконном обороте наркотиков свидетельствуют, что в Узбекистане количество возбужденных уголовных дел по этим преступлениями за прошлый год возросло на 12,7 процента, а самого общественно-опасного вида – сбыта наркотических средств на 29,2 процента[4]. Это свидетельствует об имеющихся недостатках в правоприменительной деятельности, в том числе и необходимости эффективной системы прокурорского надзора за исполнением законов посредством прокурорского надзора. Однако реализующиеся меры совершенствования прокурорского надзора за исполнением законов в сфере борьбы с незаконным оборотом наркотиков еще не дали своего достаточного эффекта и необходимо систематизировать стратегическую направленность противодействию незаконному обороту наркотиков, определив приоритеты и ожидаемые результаты в рассматриваемой сфере. Это и ставит задачу научного анализа, выявлению и разработке научных решений проблем связанных с совершенствованием прокурорского надзора за исполнением законов в сфере борьбы с незаконным оборотом наркотиков.

Некоторые научно-теоретические и практические аспекты, связанные с прокурорским надзором за исполнением законов в сфере борьбы с незаконным оборотом наркотиков в Республике Узбекистан раскрыты в научных исследованиях ученых Узбекистана. В частности,

государственно-правовые особенности места и роли прокурора и совершенствования деятельности прокуратуры были исследованы З.С.Ибрагимовым[5, с.41], М.Махбубовым[6, с.327], Ш.М. Саидовым[7, с.43], уголовно-процессуальные стороны Б.Х.Пулатовым[8, с.45], Ф.Х. Алимовым[9], А.Р.Даврановым[10], Д.С. Довудовой[11], М.З. Раджаповой[12, с.45], уголовно-правовые аспекты борьбы с наркотиками М.М.Кадыровым[13], И.Сафаровым[14, с.174], административно-правовые стороны Ш.И. Шайзаковым[15, с.50] международное сотрудничество органов прокуратуры Д.Д. Валижоновым[16, с.50] и других.

Одним из факторов, влияющих на оптимизацию борьбы с незаконным оборотом наркотиков, является прокурорских надзор за проведением расследования данного вида преступлений. Прокуратура как структурный элемент правозащитного механизма государства обладает уникальными возможностями для качественного повышения эффективности работы всей системы государственных органов по противодействию незаконному обороту наркотиков[17, с.4]. Организация эффективного прокурорского надзора в данном направлении обеспечивает своевременное выявление нарушений законности в деятельности следователя и дознавателя. Прокуратура как высший надзирающий орган регулярно осуществляет проверки законности действий и решений следственных органов в ходе досудебного производства, в том числе и по фактам расследования незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ.

Прокурорский надзор непосредственно способствует неукоснительному соблюдению законности в деятельности органов осуществляющих расследование в досудебном производстве. По мнению Н.В. Павловской важным направлением прокурорского надзора является надзор «за исполнением законов органами, осуществляющими оперативно-розыскную деятельность, дознание и предварительное следствие по уголовным делам о различных наркопреступлениях» [18, с.152].

На органы прокуратуры возлагается надзора за методикой и алгоритмом раскрытия и расследования преступлений, связанных с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ. Для этого работники прокуратуры должны знать особенности частной криминалистической методики расследования этих преступлений. Об этом, в своей монографии указывает А.А. Матчанов,

обращая особое внимание на этапы данной методики разделяя их на: первоначальный; предварительный; последующий и заключительный[19, с.27]. Первоначальный этап, в сущности, совпадает с доследственной проверкой проводимой до принятия решения о возбуждении или отказе в возбуждении уголовного дела. Первоначальный этап включает в себя неотложные следственные и процессуальные действия, предусмотренные УПК после возбуждения уголовного дела и направленные на установление доказательств достаточных для предъявления обвинения. Последующие этап состоит в обеспечении доказательственной базы и установления всех обстоятельств уголовного дела. На завершающем этапе оформляются материалы дела для ознакомления обвиняемого, его защитника, рассматриваются ходатайства, составляется обвинительное заключение и уголовное дело направляется прокурору для утверждения. На каждом этапе расследование осуществляется прокурорский надзор за соблюдением законности в деятельности следователя, дознавателя и должностных лиц, проводящих доследственную проверку и оперативно-розыскную деятельность.

При осуществлении прокурорского надзора за расследованием преступлений, составляющие незаконный оборот наркотических средств или психотропных веществ прокуроры должны основываться на эффективности алгоритма прикладной, практической деятельности органов следствия. Одним из действенных средств являются прокурорские проверки, сущность которых в своем исследовании раскрыла О.А. Грачева, сделав вывод, что исполнение закона в досудебном производстве основываются и на регламентации порядка проведения прокурором проверок исполнения закона органами дознания и предварительного следствия [20, с.5]

Принципиально соглашаясь с мнениями вышеуказанных ученых относительно особенностей алгоритма прокурорского надзора за исполнением законов в расследовании незаконного оборота наркотических средств или психотропных веществ, как системы или модели использования.

Для совершенствования алгоритма прокурорского надзора за исполнением законности в расследовании преступлений связанных с незаконным оборотом наркотических средств или психотропных веществ предлагается, на наш взгляд рекомендуется осуществлять нижеследующие мероприятия:

1. Обращать особое внимание на алгоритм прокурорского надзора за служебной деятельностью органов следствия, дознания и подразделений осуществляющих доследственную проверку по умелому применению криминалистической методики расследования незаконному обороту наркотических средств и психотропных веществ. Для этого систематически знакомится с принятыми планами реализации тактических мероприятий, комбинаций и операций оперативными подразделениями уголовного розыска и на основании результатов проводить мониторинг эффективности их деятельности.

2. Регулярно, на основании полномочий осуществления надзора прокурора за исполнением законов прокурором и ранее утвержденных планов проведения прокурорских проверок, раз в три месяца изучать соответствующие производства оперативного учета с целью их проверки и анализа статистических и иных оперативных данных. На основании полученных результатов вносить соответствующие представления об искоренении и устранении выявленных причин совершения преступлений, связанных с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ.

3. Разработать необходимый алгоритм надзора за исполнением законов органами, осуществляющими дознание, предварительное следствие и доследственную проверку по выявленным случаям незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ. Предусмотреть в данном алгоритме последовательные действия субъектов осуществляющих надзор обратив особое внимание на аспекты криминалистической методики расследования рассматриваемых видов преступлений.

4. Целесообразно разработать соответствующую организационную технологию прокурорского надзора за исполнением законов в расследовании преступлений в сфере незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ основанного на координации взаимодействия между правоохранительными органами и институтами гражданского общества.

Использованная литература:

1. https://www.unodc.org/res/wdr2022/MS/WDR22_Booklet_1_russian.pdf (дата обращения 12.06.2023 года)

2. Деятельность прокуратуры по предупреждению преступлений и иных правонарушений в сфере оборота наркотиков: монография /

[О.А. Евланова и др.]; под общ. ред. Н.В. Субановой; Акад. Ген. прокуратуры Рос. Федерации. – М., 2016. – 212 с.

3. https://kun.uz/ru/news/2023/06/26/v-uzbekistane-sojgli-boleye-2-tonn-narkotikov (Дата обращения 23.06.2023 года)

4. Гиёҳвандлик воситалари билан қонунга хилоф равишда муомала қилишга қарши курашиш йўналишида 2023/ 2022 йиллар 6 ой якуни бўйича хисобот

5. Ибрагимов З. С. Давлат ҳокимияти тизимида прокуратуранинг ўрни ва роли (қиёсий-ҳуқуқий таҳлил): Юрид. фан. док-ри. дис. … автореф. – Т., 2004. – 41 б.

6. Махбубов М. Создание и развитие органов прокуратуры в Узбекистане: Дисс. ...д-ра юрид. наук.-Т.,1993. – 327 с.

7. Саидов Ш. М. Организационно-правовые основы правотворческой деятельности органов прокуратуры и вопросы их совершенствования: Автореф. дис. …д-ра философии (PhD). – Т., 2022. – 43 с.

8. Пулатов Б.Х. Теоретические и практические проблемы и пути совершенствования законодательного регулирования участия прокурора при рассмотрении уголовных дел в судах: Автореф. дис. …док. юрид. наук: Т., 2002. – 45 с.

9. Алимов Ф.Х. Процессуальное положение прокурора в досудебном производстве: теория и практика: Автореф. дис.… канд. юрид. наук. – Т., 2009. – 25 с.

10. Давронов А.Р. Прокурорский надзор за расследованием преступлений в сфере информационных технологий: Автореф. дис. …д-ра философии (PhD). – Т., 2021. – 53 с.

11. Довудова Д. С. Вопросы совершенствования прокурорских полномочий при ведении уголовных дел в судах первых инстанций: Автореф. дис. …д-ра философии (PhD). – Т., 2020. – 59 с.

12. Раджапова М. З. Совершенствование функций и полномочий прокурора при рассмотрении уголовных дел в вышестоящих судебных инстанциях: сравнительно-правовой анализ: Автореф. дис. …д-ра философии (PhD). – Т., 2023. – 57 с.

13. Кадыров М.М. Проблемы уголовно-правовой борьбы с незаконным оборотом наркотических средств: Автореф. дис. … докт. юрид. наук. –Т.: АН РУз, 1994. – 45 с.

14. Сафаров И. Борьба с хранением и сбытом наркотических средств (уголовно-правовой и криминологический аспект): Дис. … канд. юрид. наук. – Т.: ИФИП АН, 1990. – 174 с.

15. Шайзаков Ш. И. Организационно-правовые основы участия прокурора в административном судопроизводстве: сравнительно-правовой анализ: Автореф. дис. …д-ра философии (PhD). – Т., 2021. – 50 с.

16. Валижонов Д.Д. Международное сотрудничество органов прокуратуры Республики Узбекистан в борьбе с преступностью: Автореф. дис. …д-ра философии (PhD). – Т., 2021. – 50 с.

17. Шаров М. И. Прокурорский надзор за исполнением законов об обороте наркотиков: Автореф. дис. … канд. юрид. наук. – М., 2017. – С.4.

18. Павловская Н.В. Коррупция в сфере противодействия незаконному обороту наркотических средств: монография / Акад. Ген. прокуратуры Рос. Федерации. М., 2014. – 184 с.

19. Матчанов А.А. Раскрытие и расследование незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ. Монография – Т. Академия МВД Республики Узбекистан, 2007. – 144 с.

20. Грачёва О.А. Проверка исполнения закона как основная форма надзора прокурора в досудебных стадиях уголовного судопроизводства: монография. – М., 2020. –144 с.

FUQAROLARNI VAQTINCHA RO‘YXATDAN O‘TKAZISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: MAVJUD VAZIYAT VA XORIJIY TAJRIBA

Muxamedov U.T.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi katta o‘qituvchisi
ulugbekmuxamedov1966@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarni vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazish tizimining hozirgi holati huquqiy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Elektron tizimlar, jumladan “E-rent” platformasi imkoniyatlari o‘rganilgan hamda Rossiya, Qozog‘iston, Germaniya va Janubiy Koreya tajribalari bilan taqqoslangan. Tadqiqot natijasida tizim samaradorligini oshirish, axborot bazalarini integratsiya qilish va fuqarolar uchun qulay elektron xizmatlarni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazish, jamoat xavfsizligi, migratsiya jarayonlari, huquqiy asoslar, elektron tizim, xorijiy tajriba, raqamlashtirish, E-rent.

Fuqarolarni vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazish tizimi zamonaviy davlat boshqaruvining muhim instrumentlaridan biri bo‘lib, aholi migratsiyasini nazorat qilish, jamoat xavfsizligini ta’minlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni samarali tartibga solishda alohida o‘rin tutadi. O‘zbekistonda keyingi yillarda ichki migratsiyaning, ayniqsa poytaxt va yirik shaharlarga yo‘nalgan ko‘chish jarayonlarining sezilarli darajada oshishi mazkur tizimni takomillashtirish zaruratini yaqqol ko‘rsatmoqda[1]. Bu holat nafaqat demografik muvozanatga, balki uy-joy bozori, mehnat resurslari taqsimoti va mahalla darajasidagi ijtimoiy barqarorlikka ham ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mavjud milliy huquqiy asoslar, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Fuqarolarni ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi qonun, ushbu sohadagi davlat siyosatini belgilab bermoqda[2]. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda raqamli platformalar, xususan “E-rent” amaliyoti orqali vaqtincha ijara munosabatlarini elektron tarzda qayd etish tizimi joriy etildi[3]. Bu fuqarolarni hisobga olishni shaffoflashtirish va davlat organlari hamda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tuzilmalarining hamkorligini mustahkamlash imkonini bermoqda.

Xorijiy tajriba ham mazkur masalada qator samarali modellarni taklif etmoqda. Masalan, Rossiya Federatsiyasida vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazishning majburiy tartibi amalda bo‘lib, bu ichki migratsiyani nazorat qilishda davlat organlari uchun muhim instrument hisoblanadi[4]. Qozog‘istonda esa “Mekenjay” yagona axborot tizimi orqali aholi ko‘chishi monitoring qilinadi va ijtimoiy xizmatlar taqsimoti shu tizim orqali amalga oshiriladi. Germaniyada aholini vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazish federal qonunchilikka asoslangan holda mahalliy organlar orqali amalga oshiriladi va elektron portallar orqali integratsiya qilingan. Janubiy Koreyada esa raqamli identifikatsiya va migratsiyani nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi orqali nafaqat aholi harakati, balki ularning ijtimoiy xizmatlarga kirishi ham ta’minlanadi[5].

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston uchun xorijiy tajribani chuqur tahlil qilish va milliy shart-sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, 2023 yil.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Adolat, 2023.
[3] “E-rent” elektron platformasi faoliyati to‘g‘risida. – URL: https://my.gov.uz (murojaat sanasi: 25.09.2025).
[4] Федеральный закон Российской Федератсии “О миграционном учете иностранных граждан и лис без гражданства в Российской Федератсии” от 18 июля 2006 g. № 109-FZ.
[5] UN DESA. International Migration Policies. – New York: United Nations, 2022. – P. 45–52.

Amaldagi tizimdagi asosiy muammolar – migratsiya ma’lumotlarining to‘liq qamrab olinmasligi, raqamli ma’lumotlar bazalari integratsiyasining yetarli darajada emasligi hamda huquqiy mexanizmlarning ayrim ziddiyatlari hisoblanadi. Shu bois, tizimni takomillashtirishda elektron integratsiyani chuqurlashtirish, “E-rent” kabi platformalarni kengaytirish va mahalliy organlar hamda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar o‘rtasida yagona axborot maydonini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu nafaqat aholi harakatini aniq monitoring qilish, balki jamoat xavfsizligini mustahkamlash hamda davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda aholi migratsiyasini tartibga solish maqsadida 2022 yilda Vazirlar Mahkamasining 622-son qarori bilan “E-rent” elektron tizimi joriy etildi[1]. Ushbu tizim orqali vaqtincha ijara munosabatlari va aholini vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlari raqamlashtirilgan holda amalga oshirilmoqda. 2023 yilda Toshkent shahri va viloyatida jami 47 258 nafar fuqaro vaqtincha ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ularning 71,9 foizi poytaxt hissasiga to‘g‘ri kelgan[2]. Bu holat ichki migratsiya oqimlari asosan poytaxtga yo‘nalganini ko‘rsatadi hamda uy-joy siyosati, infratuzilma va mehnat bozoridagi bosimni kuchaytirmoqda.

Statistik tahlildan ko‘rinib turibdiki, 2022–2023 yillarda vaqtincha ro‘yxatdan o‘tganlar soni muttasil o‘sish tendensiyasini namoyon etgan[3]. Bu, bir tomondan, raqamli platforma orqali jarayonlarning shaffofligi va qonuniyligini ta’minlagan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, aholining migratsiya harakatlari ko‘lamini to‘liq hisobga olish imkonini kengaytirgan. Shu jihatdan “E-rent” tizimini aholini ro‘yxatdan o‘tkazishning raqamli modeli sifatida yanada takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O‘zbekistonda vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazishning huquqiy poydevori Konstitutsiyaning 27-moddasida belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unda fuqarolarning yashash joyini erkin tanlash huquqi kafolatlangan[4]. Shu bilan birga, “Fuqarolarni ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi qonun hamda Vazirlar Mahkamasining 622-son qarori mazkur sohadagi asosiy me’yoriy hujjatlar hisoblanadi[5]. Ichki ishlar vazirligi buyruq va yo‘riqnomalari esa amaliyotdagi tartib va vakolatlarni belgilab beradi.

Xalqaro tajribani tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazish tizimi turli davlatlarda turlicha amalga oshiriladi. Rossiyada

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 27 oktabrdagi 622-son qarori.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlari, 2023 yil.
[3] O‘zbekiston Respublikasi IIV statistikasi asosida.
[4] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Adolat, 2023.
[5] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 27 oktabrdagi 622-son qarori.

fuqarolar yetti kun ichida yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tishga majbur bo‘lib, jarayon “Gosuslugi” portali orqali elektron shaklda amalga oshiriladi[1]. Qozog‘istonda esa ushbu muddat uch kun qilib belgilangan va “Egov.kz” platformasi orqali ro‘yxatdan o‘tish imkoni yaratilgan[2]. Germaniyada ro‘yxatdan o‘tish mahalliy organlarda 14 kun ichida amalga oshiriladi, xizmatlar integratsiyasi kuchli bo‘lishiga qaramay, jarayon ko‘p hollarda hanuz qo‘lda amalga oshirilmoqda[3]. Janubiy Koreyada esa raqamli ID-karta orqali to‘liq onlayn tarzda amalga oshiriladi va tizim yuqori darajada raqamlashtirilgan, ammo shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligiga oid xavotirlar saqlanib qolmoqda[4].

Rossiya va Qozog‘iston olimlari vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazish tizimining asosiy maqsadi sifatida jamoat xavfsizligini ta’minlash omillarini birinchi o‘ringa qo‘yadilar[5]. G‘arbiy Yevropa tadqiqotchilari esa inson huquqlari va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalasiga katta e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydilar[6]. O‘zbekistonlik mutaxassislar esa tizimni raqamlashtirish, ma’lumotlar bazalarini integratsiya qilish hamda huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali amaliy samaradorlikka erishish mumkinligini qayd etmoqdalar[7].

Shu tariqa, milliy va xorijiy tajribani chuqur tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, huquqiy asoslarni mustahkamlash va inson huquqlariga ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab etadi.

O‘zbekistonda vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazish tizimi so‘nggi yillarda bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinmoqda. Xususan, 2022 yilda Vazirlar Mahkamasining 622-son qarori bilan “E-rent” elektron tizimi joriy etilgani ushbu sohada raqamlashtirish jarayonining muhim bosqichi bo‘ldi[8]. Shu bilan birga, amaliyotda axborot bazalarining yetarli darajada integratsiya qilinmagani, aholining huquqiy madaniyati pastligi hamda xizmat ko‘rsatish jarayonlarining to‘liq shaffof emasligi kabi muammolar hali ham mavjudligini ko‘rsatmoqda[9]. Bu holat tizimning samaradorligiga

[1] Федералный закон РФ “О миграционном учете иностранных граждан…” от 18.07.2006 g. № 109-FZ.
[2] Ministry of Justice of Kazakhstan. Migration rules. – 2023.
[3] Bundesmeldegesetz (BMG). Germany, 2015.
[4] Government of the Republic of Korea. Resident Registration Act. – Seoul, 2022.
[5] Sivakov S.A. Migratsionnыy uchet grajdan. – M.: Yurist, 2021.
[6] Hailbronner K. Immigration and Asylum Law. – Oxford: OUP, 2020.
[7] Toshqulov A. “Migratsiya jarayonlarini tartibga solishning huquqiy asoslari” // Yuridik fanlar jurnali. – 2023. – №2. – B. 45–52.
[8] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 27 oktabrdagi 622-son qarori.
[9] O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlari asosida tahlil, 2023 yil.

to‘sqinlik qiladi va ichki migratsiya jarayonlarini to‘liq tartibga solish imkoniyatlarini cheklaydi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida bir qator amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Birinchidan, vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazishga oid axborot tizimlarini Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Mehnat organlari bilan integratsiya qilish orqali yagona ma’lumot maydonini shakllantirish zarur[1]. Ikkinchidan, “E-rent” tizimini respublika miqyosida kengaytirish va mobil ilovalarni joriy etish orqali aholining barcha qatlamlari uchun tizimdan foydalanish imkoniyatlarini osonlashtirish lozim[2]. Uchinchidan, profilaktika inspektorlari va mahalla tizimi xodimlari uchun qo‘shimcha malaka oshirish kurslarini tashkil etish tizimning amaliy samaradorligini oshirishi mumkin.

Shuningdek, aholi o‘rtasida huquqiy madaniyat va xabardorlik darajasini oshirish maqsadida ommaviy huquqiy kampaniyalarni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega[3]. Bu choralar fuqarolarning o‘z huquq va majburiyatlarini anglashiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, raqamli ro‘yxatga olish jarayonlarida shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilish bo‘yicha qo‘shimcha kafolatlar yaratilishi zarur. Chunki Janubiy Koreya va Yevropa davlatlari tajribasida ko‘rilganidek, axborot xavfsizligi masalasi tizimga ishonch darajasi bilan uzviy bog‘liq[4].

Shunday qilib, vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazish tizimini takomillashtirish nafaqat ichki migratsiya jarayonlarini samarali nazorat qilish, balki jamoat xavfsizligini ta’minlash va inson huquqlarini himoya qilishda ham muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Adolat, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, 2023 yil.
3. Toshqulov A. “Migratsiya jarayonlarini tartibga solishda huquqiy madaniyatning ahamiyati” // Yuridik fanlar jurnali. – 2023. – №3. – B. 45–52. 65–72.
4. Сиваков С.А. Миграционный учет граждан. – М.: Yurist, 2021.

[1] United Nations. Digital Government in Migration Management. – New York: UN, 2021. – P. 54–60.
[2] “E-rent” elektron platformasi. – URL: https://my.gov.uz (murojaat sanasi: 25.09.2025).
[3] Toshqulov A. “Migratsiya jarayonlarini tartibga solishda huquqiy madaniyatning ahamiyati” // Yuridik fanlar jurnali. – 2023. – №3. – B. 65–72.
[4] Hailbronner K. Immigration and Asylum Law. – Oxford: OUP, 2020. – P. 212–220.

5. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlari asosida tahlil, 2023 yil.
6. O‘zbekiston Respublikasi IIV statistikasi asosida.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 27 oktabrdagi 622-son qarori.
8. United Nations. Digital Government in Migration Management. – New York: UN, 2021. – P. 54–60.
9. UN DESA. International Migration Policies. – New York: United Nations, 2022. – P. 45–52.
10. Ministry of Justice of Kazakhstan. Migration rules. – 2023.
11. Hailbronner K. Immigration and Asylum Law. – Oxford: OUP, 2020. – P. 212–220.
12. Government of the Republic of Korea. Resident Registration Act. – Seoul, 2022.
13. Bundesmeldegesetz (BMG). Germany, 2015.
14. “E-rent” elektron platformasi faoliyati to‘g‘risida. – URL: https://my.gov.uz (murojaat sanasi: 25.09.2025).
15. Федералный закон Российской Федерации “О миграционном учете иностранных граждан и лиц без гражданства в Российской Федерации” от 18 июля 2006 г. № 109-ФЗ.

SHAXSIY XAVFSIZLIKKA BO‘LGAN NAZARIY YONDASHUVLAR

Yarashev B.Ch.
Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘ining o‘rinbosari,
y.f.b.f.d. (PhD), dotsent
Raxmonov X.P.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy dunyoda xavfsizlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy jihatlari yoritilgan. Xavfsizlik tushunchasining tarixiy rivojlanishi, uning davlat, jamiyat va shaxs manfaatlari bilan uzviy bog‘liqligi tahlil qilinadi. Turli tadqiqotchilar qarashlari asosida xavfsizlikning tizimli-faoliyat yondashuvida talqin qilinishi va xavfsizlik subyektlari faoliyatining asosiy tamoyillari ochib berilgan. Maqolada xavfsizlikni ta’minlash jarayoni obyektiv ehtiyojlarni aniqlash va subyektiv manfaatlarga erishish

jarayoni sifatida izohlanadi hamda ushbu jarayonning dolzarbligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: xavfsizlik tushunchasi, shaxsiy xavfsizlik, milliy manfaatlar, obyektiv ehtiyojlar, subyektiv manfaatlar, tizimli-faoliyat yondashuvi, davlat siyosati, xavfsizlik subyektlari, ijtimoiy xavfsizlik.

Zamonaviy dunyoda xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyojning ahamiyati ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Uning yordamida iqtisodiyot, tashqi va ichki siyosat, jamoat xavfsizligi va huquq-tartibot, mudofaa va boshqa sohalarda xavfsizlik mezonlarini belgilash, kompleks chora-tadbirlar va xavfsizlik mexanizmlarini ishlab chiqishning dolzarbligi ortib bormoqda.

Bu borada olimlar o‘rtasida turlicha qarashlar mavjud bo‘lib, xavfsizlik tushunchasiga ham o‘ziga xos ta’riflar ishlab chiqilganini ko‘rishimiz mumkin.

“Xavfsizlik” tushunchasi turli yo‘nalishlarda ishlatilishiga ko‘ra, uning ma’nosini turlicha tahlil qilsa bo‘ladi. O‘z navbatida, g‘oyaviy jihatdan xavfsizlik, hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlardan himoyalanish, kafolatlanish ma’nolarini bildiradi.

Dastavval “xavfsizlik” tushunchasining tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak, ushbu atama 1190-yillarga borib taqaladi[1]. Unga ko‘ra, Rober tushunchaga quyidagicha ta’rif beradi: “o‘zini har qanday xavf-xatardan himoyalangan deb hisoblovchi inson ruhiyatining xotirjam holati” Tarixning keyingi davrlarida davlat tuzilmalarining shakllanishi bilan bog‘lik ravishda «xavfsizlik» tushunchasi moddiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda davlat qurilishi, boshqarish organlari tendensiyalariga mos keladigan real xavf-xatarning (jismoniy va ma’naviy) yo‘qligi natijasida vujudga keladigan tinchlik holati sharoiti ma’nosini anglatgan

Xususan, A.T.Tursunbekov fikricha[2], xavfsizlik, avvalo, ijtimoiy hodisadir. Bu uning tub mohiyatini, ya’ni kishilik jamiyatini o‘rab turgan dunyoga, mavjudlik shartlari va xavfsizlik obyektiga munosabatning o‘zgarmas asosini faoliyat tashkil etishini anglatadi. O‘z navbatida faoliyat biror-bir natijaga erishishni yakuniy maqsad qilib qo‘ygan bosqichma-bosqich, izchil amalga oshiriluvchi jarayonning namoyon bo‘lishidir. Bu ma’noda xavfsizlik muayyan jarayonning yakuniy maqsadi - xavfsizlik subyektlari faoliyatining natijasi, mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotchi T.V. Vladimirova davlat xavfsizligini jamoat xavfsizligi (ijtimoiy xavfsizlik) va shaxs xavfsizligi bilan bir qatorda milliy xavfsizlikni ta’minlashning yo‘nalishlaridan biri deb hisoblaydi. Ularning orasidagi farq

har doim ham bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan ushbu subyektlarning manfaatlariga bog‘liq deb hisoblaydi[3].

Shuningdek, uning fikricha, shaxs manfaatlari va boshqa manfaatlarni ham himoya qilishga qaratilgan amaliyotlar majmuasini milliy xavfsizlik bajaradi.

Fikrimizcha, xavfsizlikni mohiyatini ochib berishda shaxs, davlat, jamiyat xavfsizligi (turlari), siyosiy, harbiy, iqtisodiy, axborot xavfsizligi (sohalari), milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik (darajalari) to‘g‘risida ham so‘z yuritish mumkin. Sababi, qayd qilib o‘tilgan elementlar yig‘indisi bir butun tizimni yaratadi.

Shu bilan birga mazkur tizimning alohida olingan har bir elementi, o‘z navbatida, mustaqil tizimni va shu bilan birga mustaqil tadqiqot predmetini tashkil etadi. Turli siyosiy maktablar, qarashlar, mafkura va siyosiy rejimlarning mavjudligi esa tadqiqotchi vazifasini yanada murakkablashtiradi.

Rossiyalik tadqiqotchi G.V. Ivashenko «Xavfsizlik tushunchasi haqida» deb nomlangan maqolasida xavfsizlik mohiyatini tahlil qilar ekan, tizimli-faoliyat yondashuvidan kelib chiqib, uning mazmunini quyidagicha ifodalaydi: «faoliyat har qanday ijtimoiy mavjudotning yashab qolishini ta’minlovchi usul, va uning tub mohiyatini anglatuvchi omildir. Ijtimoiy hayotda faoliyatning u yoki bu jihatini namoyon etmaydigan birorta ham hodisa mavjud emas».

Xavfsizlik subyekti faoliyatining mazmuni manfaatlar tashkil etadi.

Hayotiy muhim milliy manfaatlar – xavfsizlik obyektlari ehtiyojlar bilan bevosita aloqadorlikdagina mavjud bo‘lishi mumkin. Aniqroq aytganda, hayotiy muhim milliy manfaatlar xavfsizlik subyektlarining ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularning shakllanishida o‘ziga xos asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu o‘rinda o‘zini, o‘zligini saqlab qolish va rivojlanish – xavfsizlik subyekti ega bo‘lishi lozim bo‘lgan eng muhim ehtiyojlar sifatida baholanadi.

Ehtiyojlar o‘z tabiatiga ko‘ra obyektiv, ya’ni ularning mavjudligi doim ham subyektlar xohish-irodasiga bog‘liq emas. Manfaat esa faoliyat subyektlari tomonidan o‘zlarining obyektiv ehtiyojlarini anglab yetishi natijasida shakllantiriladi.

Hayotiy muhim milliy manfaatlar obyektiv ehtiyojlarni qondirish uslub va vositalarini o‘zida mujassam etgan xavfsizlik borasidagi davlat siyosatining mazmun va yo‘nalishlarini belgilab beradi. Xulosa o‘rnida aytish lozimki, xavfsizlik subyektlari tomonidan obyektiv ehtiyojlarni

aniqlash va ularni anglab yetish subyektlarning maqsadga, ya’ni xavfsizlikka erishishga qaratilgan bosqichma-bosqich harakatining boshlanish nuqtasi hisoblanadi.

Demak, xavfsizlik subyektlari faoliyatini obyektiv ehtiyojlarni qondirish va subyektiv manfaatlarga erishish bilan bog‘liq jarayon tarzida tavsiflash mumkin.

Subyektlar faoliyatining samaradorligi ularning manfaatlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan muayyan shart-sharoitlarning mavjudligiga bog‘liq. Mazkur sharoitlar subyektlar tomonidan shakllantirilib, huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy va boshqa ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Odatda, faoliyat tizimida mazkur komponentning mavjud bo‘lmasligi, unda muayyan bo‘shliqni yuzaga keltiradi.

Shuning uchun ham uni bartaraf etishning muhim bosqichi va ishtirokchilarning ustuvor vazifasi sifatida qaraladi. Mazkur o‘rinda subyekt xavfsizligi, uning faoliyati xavfsizligi tadqiqotchilar tomonidan «mavjud bo‘lish shart-sharoitlarining majmui» sifatida ko‘rilib, xavfsizlik «subyekt manfaatlarining himoyalanganlik holati emas, balki subyekt mavjudligining shart-sharoitlari» tarzida ta’riflanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, zamonaviy dunyoda xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotganligi tufayli uni ta’minlashning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xavfsizlik tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, u shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish jarayonida yuzaga keluvchi tizimli faoliyat sifatida qaraladi. Tadqiqotchilar xavfsizlikni turli yo‘nalishlarda izohlaydi: bir tomondan u hayotiy ehtiyojlar va manfaatlarni qondirish, boshqa tomondan esa subyekt faoliyatining barqaror shart-sharoitlarini yaratish bilan bog‘liq. Xavfsizlikni ta’minlash milliy, mintaqaviy va xalqaro darajalarda ko‘rib chiqilishi, shuningdek, siyosiy, iqtisodiy, harbiy va axborot sohalarida kompleks yondashuvlarni talab etadi. Shu bois xavfsizlik – bu faqat manfaatlarni himoya qilish emas, balki subyektlarning mavjudligi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish jarayonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Radjabova H.Sh. “Xavfsizlik” tushunchasining leksiksemantik tahlili (Ingliz va O‘zbek tillari misolida) // Results of National Scientific Research. https://scienceweb.uz/publication/ 2096.

2. Tursunbekov A.T. Xavfsizlik ijtimoiy hodisa sifatida. Tafakkur manzili. 2022-yil avgust. https://cyberleninka.ru/article/n/havfsizlik-izhtimoiy-odisa-sifatida/viewer.

3. Владимирова Т.В. Безопасность общества как устойчивость социального порядка в условиях возрастания девиации // Национальная безопасность / nota bene. 2013. № 1.С. 12-19. URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=62338

4. Иващенко Г.В. О понятии «безопасность». 2005. https://library.by/portalus/modules/philosophy/readme.php?subaction=showfull&id=1108062853&archive=0215&start_from=&ucat=&

VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK VA MAJBURLASH TUSHUNCHALARINING JINOIY-HUQUQIY TAHLILI

Ashurova N.O‘.
O‘zbekiston Rsepublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
yu.f.b.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya: Maqolada voyaga yetmaganlarga nisbatan zo‘ravonlik va majburlash tushunchalarini tahlil qilishda milliy qonunchiligimizdagi asosiy jihatlarga e’tibor qaratish zarurligi, jumladan, majburlash va zo‘ravonlik qilish tushunchalarining jinoiy-huquqiy tomonlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Voyaga yetmagan, zo‘ravonlik, majburlash, BMT, UNVAC, erkinlik, jinsiy daxlsizlik,ijtimoiy yordam.

Zamonaviy dunyoda ijtimoiy munosabatlarning murakkab va serqirra tuzilmasi voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalasini muhim global ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Voyaga yetmaganlarning jismoniy, ruhiy va ma’naviy barkamol avlod sifatida voyaga yetishi uchun zarur sharoitlarni yaratish nafaqat davlat siyosatining muhim yo‘nalishi, balki xalqaro hamjamiyatning umumiy manfaatlariga xizmat qiluvchi vazifadir.

Shu sababli, ushbu sohadagi huquqiy va institutsional asoslarni tubdan takomillashtirish zarurati jahon hamjamiyatida keng e’tirof etilgan asosiy masalalardan biriga aylanmoqda. Voyaga yetmaganlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar va amaliy siyosatlar nafaqat ijtimoiy adolat prinsiplarini ta’minlaydi, balki mamlakatning iqtisodiy va madaniy barqarorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki voyaga yetmaganlar nafaqat jamiyatning ijtimoiy guruhi, balki uning kelajagi sifatida qaraladi.

YuNISEF ma’lumotiga ko‘ra, dunyoda 2 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan har 10 voyaga yetmaganlardan 6 nafari har kuni jismoniy zo‘ravonlikka uchraydi. Har 5 daqiqada bir nafar bola zo‘rovonlikdan vafot

etadi. Bu raqamlar muntazam o‘zgarib turadi.[1] Birlashgan Millatlar Tashkilotining Voyaga yetmaganlarga nisbatan zo‘ravonlik bo‘yicha tadqiqot hisobotining (UNVAC) ma’lumotlariga ko‘ra, 2006 yilda dunyoda 50 000 ortiq voyaga yetmaganlar xalok bo‘lgan bo‘lsa, 2022 yildan boshlab har yili 80 000 dan ortiq voyaga yetmaganlar zo‘ravonlik qurboni bo‘lmoqda.[2] Zo‘ravonlik natijasida jarohatlangan voyaga yetmaganlarning shifoxonalarda davolanayotganlar soni 1-2 millionni tashkil qiladi. Jinsiy zo‘ravonliklarning 55 foizi esa, ota-onalar va yaqin qarindoshlar tomonidan sodir etilgan.[3]

Afsuski, O‘zbekistonda haligacha bunday tadqiqotlar natijalarini yig‘ish, qayta ishlash va solishtirish tizimi yaratilmagan. Shunga qaramay, mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda voyaga yetmaganlarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari ko‘paymoqda.

O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar kabi aholining eng zaif qatlamlariga nisbatan zo‘ravonlik, jumladan, oilaviy zo‘ravonlik, jiddiy ijtimoiy muammolardan biriga aylanib bormoqda. Bu muammo nafaqat ayrim shaxslarning hayotiga, balki jamiyatning umumiy barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi turli ijtimoiy va shaxsiy muammolarni yuzaga keltiradi. Zo‘ravonlik holatlari nafaqat jabrlanuvchining jismoniy va ruhiy holatiga zarar yetkazadi, balki uning ijtimoiy faoliyatini, hayotiy imkoniyatlarini ham cheklaydi.

Bu borada muammoni yechish uchun nafaqat zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish, balki jabrlanuvchilarni reabilitatsiya qilish va ularga ruhiy hamda ijtimoiy yordam ko‘rsatish ham muhim ahamiyatga ega. Jabrlanuvchilarga yordam berish, ularning ruhiy muvozanatini tiklash va ijtimoiy munosabatlarga qaytishini ta’minlash orqali jamiyatda zo‘ravonlikning ijobiy ta’sirlarini kamaytirish mumkin. Shu bilan birga, zo‘ravonlik sodir etgan shaxslar bilan maqsadli profilaktik ishlarni amalga oshirish orqali bunday holatlarning takrorlanishining oldini olish zarur.

O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish yo‘nalishidagi qonunchilik yanada takomillashib bormoqda. Shu ma’noda, 2024 yil 14 noyabr kuni qabul qilingan “Voyaga yetmaganlarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun[4] mazkur sohadagi muhim huquqiy hujjat sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunning asosiy maqsadi voyaga yetmaganlarni jismoniy, jinsiy, ruhiy zo‘ravonlik, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish va ta’qib etish kabi

zo‘ravonlikning har qanday shakllaridan himoya qilishni ta’minlashdir. Unga ko‘ra, voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan zo‘ravonlik harakatlari qonun bilan ta’qiqlanadi va ular uchun javobgarlik muqarrar qilinadi.

Qonunning yana bir muhim jihati — u xalqaro standartlarga mos keladigan mexanizmlarni joriy etishga qaratilganligidir. Davlat zo‘ravonlik jabrdiydalariga yordam ko‘rsatish, ularni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish uchun zarur bo‘lgan barcha huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni yaratish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Xususan, bu borada olimlarning ham o‘ziga xos qarashlari bo‘lib, L.Alekseevaning ta’kidlashicha, eng keng tarqalgan zo‘ravonlik turi bu – jismoniy kuch ishlatishdir. Butun dunyoda mazkur zo‘ravonlikning asosiy qurbonlari voyaga yetmaganlar hisoblanadi. Jismoniy zo‘ravonlik obyektiv tomonlari: yuzga zarba berish, silkitish, urish, bo‘g‘ish, tepish, erkinlikni cheklash, kamar, arqon bilan urish, og‘ir narsalar va hatto pichoq bilan urish kabi namoyon bo‘ladi. Jismoniy zo‘ravonlik tahdidlar (shu jumladan qurol bilan) va shaxsiy mulkni yo‘q qilish, yopiq xonada qamoqqa olish va boshqalar kabi bilvosita harakatlarni o‘z ichiga oladi.[5]

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik – jamiyatda yoki oilada kattalar tomonidan kundalik turmush jarayonida bolaning hayoti, sog‘lig‘i, rivojlanishi, jismoniy, ma’naviy va ahloqiy kamoloti, erkinligi, jinsiy daxlsizligi, or-nomusi, qadr-qimmati va qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq hamda qonuniy manfaatlariga qarshi jismoniy kuch ishlatish yoki uni qo‘llash bilan qo‘rqitish.[6]

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko‘ra esa, “Voyaga yetmaganlarga og‘irligi turli darajada bo‘lgan tan jarohatlari yetkazish, ularni xavf ostida qoldirish, hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfli holatda bo‘lgan voyaga yetmaganlarga yordam ko‘rsatmaslik hamda zo‘ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklarni sodir etish yoxud voyaga yetmaganlarning hayoti, sog‘lig‘i yoki erkinligiga tajovuz qiladigan jismoniy ta’sir o‘tkazish voyaga yetmaganlarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik”[7] deb e’tirof etiladi.

Huquqshunos Yu.M.Antonyan jinoiy zo‘ravonlik haqida yozar ekan, uni jamiyat uchun eng xavfli antijamiyatli hodisalardan biri sifatida baholaydi. Uning fikricha, “Zo‘ravonlik nafaqat shaxsga, balki jamiyatning axloqiy asoslariga, davlatning barqarorligiga va iqtisodiy taraqqiyotga jiddiy xavf soladi. Zo‘ravonlik shaxsni ruhan va jismonan yemirib yuborishga, jamiyatda qo‘rquv muhitini shakllantirishga olib keladi.

Bunday sharoitda odamlar o‘rtasidagi ishonch aloqalari yo‘qoladi, bu esa butun jamiyatning barqarorligiga putur yetkazadi”.[8] Shu bilan birga, u zo‘ravonlikning keng tarqalishi jamiyatda qonunga nisbatan ishonchsizlik muhitini shakllantirishi va uning rivojlanish salohiyatini pasaytirishini ham ta’kidlagan.

V.V.Kladko esa, “Aybdor tomonidan sodir etilgan, huquq me’yorlariga va jabrlanuvchining irodasiga zid keluvchi, unga jismoniy va (yoki) psixik ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan harakatlardir. Ushbu harakatlar voyaga yetmagan shaxsga jismoniy og‘riq, axloqiy va ruhiy azob yetkazadi, uning rivojlanishiga salbiy ta’sir qilishi, shuningdek, uning jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin yoki shunday ta’sir ko‘rsatadi”, fikrini ilgari suradi.[9]

Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi 2024 yilda voyaga yetmaganlar ombudsmani nomiga 2023 yilga nisbatan 2,4 baravar ko‘proq — 1064 ta murojaat kelib tushdi. Murojaatlarning eng ko‘pi Toshkent shahri va viloyati hamda Qashqadaryo viloyatidan, eng kami esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Navoiy viloyatidan yo‘llangan. Bunda Murojaatlarning 43,4% bolaning shaxsiy huquq va erkinliklari, 41% uning ijtimoiy huquqlari, 4,3% iqtisodiy va ekologik huquqlari, 11,3% esa, boshqa huquqlariga oid bo‘lgan. Hududlar kesimida murojaatlarning eng ko‘pi Toshkent shahri, Toshkent viloyati hamda Qashqadaryo viloyatidan, eng kami esa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Navoiy viloyatidan yo‘llangan[10].

Biroq, mutaxassislar baholashicha, voyaga yetmaganlarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarining 97% gacha bo‘lgan qismi rasmiy qayd etishdan tashqarida qolmoqda va statistikada aks etmaydi. Bu holat nafaqat muammoning keng qamrovliligini, balki uni hal etish uchun zamonaviy va samarali mexanizmlarni yaratish zarurligini ko‘rsatadi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan zo‘ravonlikning chuqur ijtimoiy ildizlari va uning qonuniy oqibatlari batafsil o‘rganilishi zarur, chunki ushbu muammoni hal qilish faqatgina qonunchilikni takomillashtirishni emas, balki jamiyatning umumiy ongida ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishni ham talab qiladi.

Jinoyat qonuni voyaga yetmaganlarning erkinligiga qarshi qilingan har qanday tajovuzni jinoiy jazoga tortishga asoslangan. Jumladan, amaldagi Jinoyat kodeksi tahlillari jismoniy zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni quyidagicha ajratish imkonini beradi, ya’ni – JK 97-moddasi (Qasddan odam o‘ldirish) ikkinchi qismi “v” bandi; JK 99-moddasi (Onaning o‘z chaqalog‘ini qasddan o‘ldirishi); JK 103-moddasi (o‘zini o‘zi

o‘ldirish darajasiga yetkazish) ikkinchi qismi “b” bandi; JK 110-moddasi (qiynash) ikkinchi qismi “a” bandi; JK 115^1-moddasi (Insonni undan a’zolarini va (yoki) to‘qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash) ikkinchi qismi; JK 126^1-moddasi (Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik); JK 235-moddasi (qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash) ikkinchi qismi “d” bandi; JK 277-moddasi (Bezorilik) ikkinchi qismi “d” bandi.

Albatta, jinoyat qonunchiligida majburlash nafaqat ijtimoiy xavfli qilmish sifatida, balki uning turli jihatlarda namoyon bo‘lishi mumkinligi hisobga olinadi. Masalan, majburlash jinoyat sodir etish usuli sifatida, jinoyatning jinoiyligini istisno qiluvchi holat sifatida, jazo turi sifatida va boshqa holatlarda ko‘riladi. An’anaviy yondashuvlarga asoslanib, majburlash va zo‘ravonlikning ikki asosiy ko‘rinishlari ajratiladi: jismoniy va ruhiy majburlash (zo‘ravonlik).

Fikrimizcha, amaldagi Jinoyat kodeksida “Zo‘rlik”, “Jismoniy zo‘rlik” va “Ruhiy zo‘rlik” kabi tushunchalarning mustahkamlanishi huquqni qo‘llovchi organlar va amaliyot xodimlari orasida turlicha talqin qilinishlarga chek qo‘yish bilan birga, zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni saralash amaliyotini soddalashtirishga imkon beradi. Biroq, Jinoyat kodeksi JK 115-moddasi “Ayolni o‘z homilasini sun’iy ravishda tushirishga majburlash”; JK 121-moddasi “Shaxsni jinsiy aloqa qilishga majbur etish”; JK 115^1-moddasi “Insonni undan a’zolarini va (yoki) to‘qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash”; JK 136-moddasi “Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to‘sqinlik qilish” kabi moddalari mazmunidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, zo‘rlik ishlatish majburlov chorasining bir ko‘rinishi hisoblanadi va “Majburlash” atamasi “Zo‘rlik” atamasidan ko‘ra kengroq mazmunga ega.

Demak, yuqorida tahlil qilingan qonunchilik, shuningek soha olimlarining doktrinal fikrlari va ilmiy tahlillarimiz asosida shakllangan mulohazalarimiz asosida voyaga yetmaganlarga nisbatan zo‘ravonlik va majburlash tushunchalarini tahlil qilishda milliy qonunchiligimizning quyidagi asosiy jihatlariga e’tibor qaratish kerakligini ma’lum qilamiz:

Maqsadli yo‘naltirilganlik. Majburlashning markaziy belgisi bu uning muayyan maqsadga ega ekanligidadir. Bu maqsad shaxsni ma’lum bir xatti-harakat yoki harakatsizlikka undashdan iborat bo‘lib, uning irodasiga qarshi

amalga oshiriladi. Bunda shaxsning erkin tanlov qilishiga to‘sqinlik qilinadi.

Shaxsning iroda erkinligiga tajovuz. Majburlash jinoyat huquqida shaxsning irodasiga ta’sir etish usuli sifatida tasniflanadi. Bu ta’sir shaxsning erkin tanlov qilish qobiliyatini susaytirib, uning irodasini bo‘ysundirishga qaratilgan bo‘ladi.

Qasdga asoslangan bosim. Majburlash jarayonida qo‘llaniladigan ta’sir vositalari, masalan fizik, psixologik yoki boshqa shakldagi ta’sirlarga asoslangan bo‘lib, ular shaxsni ma’lum bir majburiy holatga tushirish uchun mo‘ljallangan.

Yakuniy xulosa o‘rnida aytish mumkinki, voyaga yetmaganlarga nisbatan zo‘ravonlik va majburlash tushunchalarini tahlil qilishda milliy qonunchiligimizdagi asosiy jihatlarga e’tibor qaratish muhimdir. Bunda shaxsning erkin tanlov qilish imkoniyati cheklanadi va zo‘ravonlik yoki majburlash uning irodasiga ta’sir etish usuli sifatida qo‘llaniladi. Bu esa, milliy qonunchiligimizda voyaga yetmaganlarni majburlash va zo‘ravonlikdan himoya qilish mexanizmlarini konkretlashtirishda ilmiy-nazariy jihatlarning dolzarbligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Juvonen J., Graham, S. “Bullying in Schools: The Power of Bullies and the Plight of Victims”. Annual Review of Psychology. 65:159–85.doi:10.1146. 2014.

2. UN. “International Day of Innocent Children Victims of Aggression 4 June”. Annual Report of the United Nations Secretary-General on Children and Armed Conflict 2022, 2023 // https://www.un.org

3. Gilbert R., Widom C., Browne K., Fergusson D., Webb E. Burden and consequences of child maltreatment in high-income countries. Lancet 373: 68, 2009.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabr kunidagi “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-996-son Qonuni // https://lex.uz/uz/docs/7219502

5. Alekseeva L.S. Jestokoe obraщenie s detmi: yego posledstviya i predotvraщenie. – M.: Natsionalnыy knijnыy sentr, IF “Sentabr”, 2016.

6. Omonov N.O. “Bolalarning oilaviy tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishning nazariy, xuquqiy va amaliy muammolari” // Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. Jild: 02. Nashr: 10. 2023 yil. 76-84.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabr kunidagi “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-996-son Qonuni. 3-modda // https://lex.uz/uz/docs/7219502
8. Antonyan Yu.M. Nasilie. Chelovek. Obщestvo. – M.: 2001. S. 4.
9. Kladko V.V. Nasilstvennыe posyagatelstva v otnoshenii nesovershennoletnix: ugolovno-pravovoy i kriminologicheskiy aspektы**:** avtoref. dis. … kand. yurid. nauk: Chelyabinskiy gos. un-t. Yekaterinburg, 2022. 24 s.
10. Bahodir A. “2024-yilda Bolalar Ombudsmaniga murojaatlar soni 2,4 baravarga ko‘paydi”. 25.05.2025 yil // https://www.gazeta.uz

TERGOV AMALIYOTIDA PEDAGOG VA PSIXOLOG ISHTIROKINING BUGUNGI HOLATI

Axmedova M.A.
IIV Akademiyasi oliy ta’limdan keyingi ta’lim fakulteti
tayanch doktorantura doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston tergov amaliyotida pedagog va psixolog ishtirokining bugungi holati tahlil qilinadi. Mavzu doirasida milliy qonunchilikning normativ asoslari, amaldagi muammolar hamda xalqaro tajriba, xususan AQSh va Rossiya amaliyotlari o‘rganiladi. Tadqiqot davomida pedagog va psixologlarning tergov jarayonidagi vazifalari, ularning huquqiy maqomi va xulosalarining protsessual ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish orqali O‘zbekiston amaliyotini takomillashtirishga doir ilmiy asoslangan takliflar ilgari suriladi.

Tayanch so‘zlar: tergov amaliyoti, pedagog, psixolog, voyaga yetmaganlar, huquqiy maqom, xalqaro tajriba, Child Advocacy Centers, ekspert xulosasi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson qadri, sha’ni va huquqlarini ta’minlash davlat siyosatining bosh ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab qo‘yilgan. Ushbu strategiya mamlakatda huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va ruhiy jihatdan zaif shaxslarning huquqlarini himoya qilish masalasi alohida o‘rin tutadi.Chunki jinoyat protsessida ushbu toifa vakillarining huquqlarini ishonchli himoya qilmasdan turib, demokratik tamoyillarga asoslangan huquqiy tizimni shakllantirish mumkin emas. Shu nuqtayi nazardan, tergov amaliyotida pedagog va psixologlarning ishtiroki

inson huquqlari kafolatlarini mustahkamlashning eng muhim mexanizmlaridan biri sifatida belgilanadi.

Mazkur jarayon, bir tomondan, voyaga yetmaganlar va ruhiy jihatdan zaif shaxslarning o‘zini erkin his etishiga, ikkinchi tomondan esa tergov organlarining faoliyatini xalqaro standartlarga uyg‘un ravishda olib borilishiga xizmat qiladi. Shu bois Yangi O‘zbekiston davrida ushbu institutni takomillashtirish va amaliyotga samarali joriy etish nafaqat milliy qonunchilikni rivojlantirish, balki xalqaro maydondagi majburiyatlarni bajarish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi pedagog va psixolog ishtirokining huquqiy asoslarini aniq belgilab bergan. Jumladan: 121-moddaga muvofiq, tergov harakatlariga mutaxassis jalb qilinishi mumkin. Ushbu norma doirasida pedagog va psixolog mutaxassis sifatida chaqirilishi mumkin; 554-moddada esa voyaga yetmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki jabrlanuvchini so‘roq qilish tartibini belgilab, bunda pedagog ishtirokini majburiy shart sifatida qayd etilgan[1].Bundan tashqari, 2008-yilda qabul qilingan “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun davlat organlariga voyaga yetmaganlarning huquqlarini ta’minlash majburiyatini yuklagan bo‘lib bu qonunning davlat sudga qadar ish yuritishning va sud muhokamasining barcha bosqichlarida bolalarning qonunchilikda belgilangan barcha protsessual huquqlariga rioya etilishi hamda bu huquqlar kafolatlarining ta’minlanishi bo‘yicha choralar ko‘rishligi ko‘rsatilgan[2].

Bugungi kunda tergov amaliyotida pedagog va psixologlarning jalb qilinishi qonunchilik huquqiy imkoniyatlar doirasida amalga oshirilmoqda, lekin bu institut barcha hududlarda tizimli va barqaror shaklda tatbiq etilmagan**.** Ayrim hududlarda, xususan jinoyat ishlari bolalar ishtirokida bo‘lsa, pedagog yoki psixolog mutaxassislar muntazam ravishda jalb qilinsada, ammo ko‘plab hududlarda bu faqat qonun qoidani bajarish darajasida qolmoqda. Natijada, pedagog va psixolog ishtirokining amaliy kuchi hududlar bo‘yicha keskin farq qilinishi va jinoyat protsesslarida uslubiy adolatlilik tamoyili yetarli darajada ta’minlanmayotganiga asos bo‘ladi.

Tergov amaliyotida pedagogning ishtiroki, avvalo, voyaga yetmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilish va ularning shaxsiy rivojlanish xususiyatlarini to‘liq yoritib berishga qaratilgan. Pedagogning vazifalari

[1] https://www.lex.uz/acts/111460
[2] https://lex.uz/uz/docs/-1297315?ONDATE2=18.05.2022&action=compare

etib quyidagilarni belgilashimiz mumkin: birinchidan, u voyaga yetmagan gumon qilinuvchi yoki jabrlanuvchining tarbiyaviy muhitini ochib beradi. Bu jarayonda pedagog bola ulg‘ayayotgan oilaviy sharoit, ta’lim muassasasi muhiti va ijtimoiy muhitni tahlil qiladi. Chunki aynan tarbiyaviy muhit bolaning xulq-atvori, ijtimoiy qadriyatlarga munosabati va qonuniy xatti-harakatlari shakllanishida hal qiluvchi omillardan biridir; ikkinchidan, pedagog bolaning ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlaydi. Bu doirada bola bilan muloqot qiladigan shaxslar (ota-ona, do‘stlar, o‘qituvchilar), uning atrofidagi ijtimoiy guruhlar, turmush tarziga oid sharoitlar va boshqa ijtimoiy determinantlar baholanadi. Mazkur jarayon tergov organlariga bolaning jinoyat sodir etishiga olib kelgan yoki uni jabrlanuvchi holatiga tushirgan sabablarni kengroq anglash imkonini beradi; uchinchidan, pedagog so‘roq jarayonida bolaning o‘zini erkin his etishini ta’minlash vazifasini bajaradi. Bu bilan u bolaga psixologik tayanch vazifasini o‘taydi, bolaning ruhiy bosim ostida qolmasligi va o‘z fikrini erkin ifoda etishi uchun qulay muhit yaratadi. Ushbu yondashuv JPKning 554-moddasida nazarda tutilgan talablarni amalda ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Psixolog esa tergov jarayonida voyaga yetmagan yoki ruhiy jihatdan zaif shaxsning ruhiy holatini himoya qilishga qaratilgan mutaxassis sifatida jalb etiladi. Uning vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, psixolog bolaning yoki ruhiy jihatdan zaif shaxsning psixik holatini kuzatadi. U shaxsning hissiy kechinmalari, nutqi, mimikasi va xulq-atvorini tahlil qilib, tergov jarayonida ularning ruhiy salomatligi buzilmasligini ta’minlaydi; ikkinchidan, psixolog so‘roq chog‘ida yuzaga keladigan stressni kamaytirish va qo‘rquvni bartaraf etishga yordam beradi. Chunki bolaning qo‘rquv yoki vahima holatida bergan ko‘rsatuvlari ishonchlilik mezoniga to‘liq javob bermasligi mumkin. Psixologning vazifasi esa, tergov harakati jarayonida bolaning o‘zini xavfsiz his qilishi uchun zarur psixologik sharoitni yaratishdir; uchinchidan, psixolog bolaning psixologik xususiyatlarini inobatga olib, tergovchiga metodik tavsiyalar beradi. Masalan, bola bilan qanday ohangda suhbat qurish, qanday savollarni berish yoki qachon tanaffus qilish zarurligi haqidagi ko‘rsatmalar orqali tergovchi faoliyatining samaradorligini oshiradi.

Huquqiy davlat tamoyillari shuni ko‘rsatadiki, qonunda belgilangan normalar faqat qog‘ozda emas, balki amaliyotda ham to‘laqonli tatbiq etilgandagina o‘zining ijtimoiy samaradorligini namoyon qiladi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda tergov amaliyotida pedagog va psixolog

ishtirokini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslar mavjud bo‘lsada, ularning amalda qo‘llanilishi hali to‘liq tizimlashtirilmagan va bir qator strukturaviy muammolar bilan cheklanmoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra pedagog va psixologlar tergov jarayoniga jalb qilinishi huquqiy jihatdan belgilangan bo‘lishiga qaramasdan, bir qator strukturaviy, metodologik va ressursga oid muammolar natijasida ularning ishtiroki keng ko‘lamda tatbiq etilmagani malum bo‘ldi:

Birinchidan, malakali pedagog va psixologlarning yetishmasligi, ya’ni ko‘plab hududlarda pedagog va psixolog mutaxassislar akademik tayyorgarlik, tajriba va maxsus kurslardan o‘tish bo‘yicha cheklangan imkoniyatlarga ega. Bu holat mutaxassislar sonining yetarli emasligiga olib keladi, natijada har bir jinoyat ishi bo‘yicha pedagog yoki psixolog jalb etish mumkin emas. Ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra sud psixologiyasi amaliyotida malaka va tegishli litsenziyaga ega bo‘lmagan ekspert yoki mutaxassislarning jalb qilinishi xulosalarning obyektivligi va ishonchliligiga putur yetkazib, xato ehtimolini sezilarli darajada oshirad.

Ikkinchidan, xulosalarning protsessual maqomi pastligi (ekspert xulosasiga tenglashtirilmasligi) pedagog va psixolog tomonidan tayyorlangan xulosalar amaliyotda ko‘pincha ekspert xulosasi sifatida qabul qilinmaydi. Bunday sharoitda, pedagog yoki psixolog xulosasi protsessual jihatdan teng maqomga ega bo‘lmay qoladi va sudyalar tomonidan chetdan rejali baholanishi mumkin.

Uchinchidan, hududlar bo‘yicha jalb etilishning nomutanosibligi bo‘lib, tergov amaliyotida pedagog va psixologlarni jalb qilish barcha hududlarda bir xil darajada amalga oshirilmaydi. Masalan, bir qator viloyatlarda voyaga yetmaganlar ishtirokidagi jinoyat ishlari bo‘yicha muntazam psixologlar jalb qilinayotgan bo‘lsa, boshqa hududlarda bu deyarli ko‘zga tashlanmaydi.

To‘rtinchidan, moddiy-texnik bazaning yetishmasligi, ya’ni, tergov jarayonida psixologik xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunalar (masalan, ovoz yozish vositalari, video intervyu xonalari, psixometrik testlar, maxsus xonalar) ko‘plab hollarda mavjud emas yoki eskirgan holatda. Bu esa pedagog va psixologlarning samarali ishlashiga jiddiy to‘sqinlik qiladi. sud psixologiyasining amaliyotdagi yuqori talablariga javob berish uchun resurslar cheklanganligi odatiy muammo sifatida qayd etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, O‘zbekistonda pedagog va psixolog ishtirokining huquqiy asoslari mavjud, biroq

amaliyotda ularning faoliyati barqaror va tizimli emas. Bu borada amerika tajribasiga nazar tashlasak, voyaga yetmaganlar bilan bog‘liq jinoyat ishlari bo‘yicha tergov jarayonida pedagog va psixologlarning ishtiroki mustaqil institut sifatida shakllangan. Ushbu institutning asosiy vazifasi — bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, ularning psixologik salomatligini ta’minlagan holda ishonchli dalillarni yig‘ishdir[1]. AQSh sud amaliyotida psixolog va ijtimoiy mutaxassislarning xulosalari ko‘pincha ekspert guvoh maqomida tan olinadi. Bu ularning xulosalarini oddiy ko‘makchi fikrdan yuqori darajaga ko‘taradi va protsessual jihatdan dalil sifatida baholash imkonini beradi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, mutaxassislarning ishtiroki bolaning bergan ko‘rsatmalari aniqligi va ishonchliligini sezilarli darajada oshiradi. AQSh amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, tergov jarayonida pedagog va psixolog ishtiroki bolalar huquqlarini himoya qilish bilan bir qatorda sud-tergov tizimi uchun ham ishonchli dalillarni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Bu modelning asosiy ustunligi shundaki, bolaga nisbatan insonparvarlik yondashuvi bilan birga, huquqiy jarayonning adolatli kechishini ham kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. United Nations. (1989). Convention on the Rights of the Child. https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child
4. United Nations. (1990). United Nations Standard Minimum Rules for the Administration of Juvenile Justice (Beijing Rules)
5. United Nations. (1990). United Nations Rules for the Protection of Juveniles Deprived of their Liberty (Havana Rules).
6. European Union. (2016). Directive (EU) 2016/800 on procedural safeguards for children. https://eur-lex.europa.eu
7. London, K., Bruck, M., Ceci, S. J., & Shuman, D. W. (2008). Disclosure of child sexual abuse: What does the research tell us about the ways that children tell?.Psychology, Public Policy, and Law, 14(1), 1–26. https://doi.org/10.1037/1076-8971.14.1.1

[1] London, K., Bruck, M., Ceci, S. J., & Shuman, D. W. (2008). Disclosure of child sexual abuse: What does the research tell us about the ways that children tell?. ***Psychology, Public Policy, and Law, 14***(1), 1–26. https://doi.org/10.1037/1076-8971.14.1.1

GIYOHVANDLIK VOSITALARINI NOQONUNIY AYLANMASIGA OID JINOYATLAR BO‘YICHA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI NATIJALARIDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

Ochilov I.A.
O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasiga oid jinoyat ishlari bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyati (TQF) natijalaridan foydalanishning huquqiy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Protsessual qoidabuzarliklar, dalillarning yetarli darajada tekshirilmasligi va qonunchilikdagi bo‘shliqlar kabi huquqni qo‘llash amaliyotidagi asosiy muammolar aniqlanib, huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, huquq-tartibot idoralari xodimlarining malakasini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha choralar taklif qilinadi.

Kalit so‘zlar: TQF, giyohvandlik vositalar, isbotlash, huquqni qo‘llash amaliyoti, normativ-huquqiy hujjatlar, protsessual qoidabuzarliklar, sud amaliyoti, huquqiy tartibga solish, xalqaro hamkorlik.

So‘nggi yillarda giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi muammosi alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq jinoyatlar soni yuqori darajada saqlanib turibdi. 2024 yilda respublika bo‘yicha giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va tarkibida kuchli ta’sir qiluvchi moddalar bo‘lgan dori vositalari bilan bog‘liq o‘n ikki mingdan ortiq jinoyatlar qayd etilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan 2023 yilga nisbatan 33,5 foizga ko‘payishi kuzatilgan.

Bunday kriminogen vaziyatga ta’sir qiluvchi muhim yo‘nalishlardan biri, bu turli maishiy texnikalar ichiga yashirilgan sintetik giyohvandlik vositalarini internet tarmog‘i orqali anonim tarzda sotilayotganidir[1]. Misol uchun, Toshkent shahrida ijaraga olingan xonadonlarda kuchli ta’sir qiluvchi dori vositalarini bo‘sh flakon va kapsulalarga qo‘lbola qadoqlash va “zakladka” usulida tarqatayotganligi aniqlangan.

Bunday sharoitda ushbu toifadagi jinoyatlarga qarshi kurashning an’anaviy jinoyat-protsessual shakllari asosan o‘z samarasini yo‘qotadi va bu borada tezkor-qidiruv faoliyatining (keyingi o‘rinlarda – TQF) tutgan

[1] Қаранг: *Дўстов М.А.* Тезкор-қидирув фаолияти ва жиноят протсессида шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашнинг долзарб масалалари // Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами /– Тошкент: Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси, 2025. – Б. 167-180.

o‘rni keskin ortib boradi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan shug‘ullangan shaxslarning aybdorligi haqidagi dalillarning aksariyati “nazorat ostida olish”, “tezkor eksperiment”, “nazorat ostida yetkazib berish” kabi tezkor-qidiruv tadbirlari (keyingi o‘rinlarda – TQT) natijalari asosida shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining “TQF to‘g‘risida”gi qonuni[1] va Jinoyat-protsessual kodeksida[2] TQTni o‘tkazish va ularning natijalaridan jinoyat ishlari bo‘yicha dalil sifatida foydalanishni tartibga soluvchi asosiy qoidalar belgilangan. TQF natijalari deganda mazkur faoliyat subyektlari tomonidan, jinoyat alomatlari va ularni sodir etgan shaxslar, shuningdek davlat xavfsizligiga tahdid solayotgan shaxslar, hodisalar, harakatlar (harakatsizlik) haqida qonunda belgilangan tartibda olingan ma’lumotlar tushuniladi. Tezkor-qidiruv qonunchiligida TQF natijalaridan tezkor-qidiruv jarayonida ham, jinoyat protsessida ham foydalanishning asosiy yo‘nalishlari hamda jinoyat-protsessual jihatlari belgilangan. TQF natijalari, o‘ziga xosligi bois, har doim ham protsessual ahamiyatga ega bo‘lmasligi va jinoyat protsessida rasman qo‘llanilmasligi mumkin[3]. Ko‘pincha ular rasmiy TQF amalga oshirilishi va natijasi sifatida taqdim etilishi mumkin bo‘lgan axborot sifatidagina namoyon bo‘ladi. Bu konspiratsiya prinsipiga, ya’ni TQFning nooshkora asoslariga rioya etish zarurati bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

TQF natijalari jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash va ushlash, shuningdek, sud muhokamasi uchun zarur bo‘lgan dalillar bazasini to‘plash imkonini beradi. Bu borada o‘tkaziladigan TQTning asosiy turlari sifatida tezkor kuzatuv, nazorat ostida olish, tezkor eksperiment, telefon so‘zlashuvlarini eshitish va tezkor kiritish kabi TQTni keltirish mumkin.

TQF natijalaridan sud amaliyotida muvaffaqiyatli foydalanilgan quyidagi misollar[4] ayblanuvchilarning aybdorligini isbotlash va ayblov hukmlari chiqarishda muhim o‘rin tutgan:

1. Sudlanuvchi M.A., O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 273-moddasi beshinchi qismiga ko‘ra, giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni ko‘p miqdorda qonunga xilof ravishda sotishda aybdor deb topildi. Tezkor xodimlar tomonidan M.A.ning xonadoni tekshirilganda bir nechta idishdagi suyuqlik va uning

[1] Ўзбекистон Республикасининг “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги қонуннинг 19-моддаси.
[2] Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси, 81-модданинг учинчи қисми.
[3] Қаранг: *Каримов В.* Ўзбекистон Республикасининг “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги қонунига илмий-амалий шарҳ:. – Тошкент, 2021. – Б. 211.
[4] Навоий вилоят жиноят ишлари бўйича кассация инстанцияси суди ажримлари.

giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish niyatini tasdiqlovchi boshqa jihozlar olingan. Tekshiruv dalolatnomasida uy xammomida og‘ir kimyoviy hid mavjudligi va u giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarishga moslashtirilgani qayd etilgan. Olib qo‘yilgan jihozlar va prekursorlar M.A.ning giyohvandlik vositalarini muntazam ishlab chiqarish niyatini tasdiqladi. Sud himoya tomonning M.A.ning harakatlarida jinoiy niyat mavjud emasligi to‘g‘risidagi vajlarini rad etib, giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarishga moslashtirilgan jihozlarning yuqori narxi va ishlab chiqarilgan giyohvandlik vositalari miqdorining alohida yirik miqdordan ko‘p marta ortiqligiga e’tibor qaratgan.

2. Sudlanuvchilar R.N. va Sh.A. oldindan til biriktirib, guruh bo‘lib, giyohvandlik vositalarini ko‘p miqdorda qonunga xilof ravishda o‘tkazishga urinishda aybdor deb topilgan. Ular birgalikda sheriklari tomonidan tayyorlangan giyohvandlik vositalari partiyasini olish sharoitlari va sotish usullari bo‘yicha kelishib olishib ularini tarqatuvchi sifatida ishlashga rozi bo‘lgani TQT jarayonida aniqlangan. R.N.ning giyohvandlik vositalarini telefon orqali “zakladka” qilish yo‘li bilan sotish bo‘yicha keyingi harakatlarni muhokama qilganligi, o‘tkazilgan “telefon so‘zlashuvlarini eshitish” va “tezkor kuzatuv” TQT natijasida o‘z tasdig‘ini topgan. Sud ayblanuvchilarning giyohvandlik vositalarini iste’mol qilishga qaramligi to‘g‘risidagi himoyachining vajlarini inobatga olmasdan rad etgan va ularni Jinoyat kodeksining 273-moddasi beshinchi qismi bo‘yicha javobgarlikka tortgan.

Bu boradagi huquqni qo‘llash amaliyotidagi asosiy muammolar sifatida tezkor xodimlar tomonidan TQT o‘tkazish jarayonida yo‘l qo‘yiladigan protsessual qoidabuzarliklar, dalillarning yetarli darajada tekshirilmasligi va baholanmasligi, qonunchilikdagi bo‘shliqlar va TQFni amalga oshiruvchi organlar xodimlarining malakasi yetarli emasligini keltirish mumkin[1]. Bu muammolar TQF natijalaridan foydalanish samaradorligini pasaytiradi va pirovardida ayblanuvchilarning oqlanishiga olib kelishi mumkin.

TQF natijalaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, qonunchilikdagi bo‘shliqlar va ziddiyatlarni bartaraf etish, huquq-tartibot idoralari xodimlarining malakasini oshirish, zamonaviy texnologiyalar va TQT usullarini joriy etish,

[1] См.: *Ларин К.И., Чурилов С.Н.* Использование в доказқвании результатов оперативно-розқскной деятельности. – М.: Образование и право, № 8. 2021. – С. 260-264.

shuningdek, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va tezkor bo‘linmalar faoliyati ustidan mustaqil nazoratni ta’minlash zarur.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, mazkur sohadagi qonunchilik va amaliy faoliyatni takomillashtirish bo‘yicha quyidagilarni taklif qilish mumkin:

1. Huquqiy tartibga solishni takomillashtirish: aniq protsessual normalarni ishlab chiqish va qonunchilikdagi bo‘shliqlar hamda ziddiyatlarni bartaraf etish. Nazorat ostida olish, tezkor eksperiment va telefon so‘zlashuvlarini eshitish kabi TQTni o‘tkazish tartibini belgilovchi qonunchilik hujjatlari tegishli moddalarini yanada aniqlashtirish lozim TQFni amalga oshirish natijasida olingan dalillarning maqbulligini ta’minlash va ularni tergov yo‘li bilan tekshirishga oid shartlarni aniqlashtirish.

2. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining malakasini oshirish: ularni muntazam o‘qitib borish va malakasini oshirish, shuningdek, eng ilg‘or tajribalar bilan qurollantirish. Tezkor-qidiruv faoliyati sohasidagi yetakchi mutaxassislar ishtirokida har yilgi malaka oshirish kurslarini o‘tkazish va giyohvandlik vositalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha xalqaro konferensiyalar o‘tkazish.

3. Zamonaviy texnologiyalar va TQF usullarini joriy etish: tahliliy dasturlar va ma’lumotlar bazalaridan foydalanish, shuningdek, TQT jarayonida video kuzatuv tizimlari va boshqa texnik vositalarni keng qo‘llash. Telefon so‘zlashuvlarini tahlil qilish va shubhali aloqalarni aniqlash uchun sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish. Giyohvandlik vositalarni saqlash va o‘tkazish gumon qilingan joylarda yashirin kameralar o‘rnatish.

4. Fuqarolar huquqlarini ta’minlash va qonuniylikka rioya etish: fuqarolar huquqlarini himoya qilishni kafolatlash va mustaqil nazorat o‘rnatish. TQFni amalga oshiruvchi organlar hamda ularning xodimlari tomonidan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilgan taqdirda, mazkur organlar hamda ularning rahbarlari ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni tiklash, yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash hamda aybdorlarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish choralarini ko‘rishi shart.

5. Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash: axborot almashish va hamkorlikda tadbirlar o‘tkazish, shuningdek, xalqaro tajribani o‘rganish va tahlil qilish. Giyohvandlik vositalarni o‘tkazish kanallarini bartaraf etish

bo‘yicha birgalikdagi TQTlarni tashkillashtirish. Narkotrafikka qarshi kurashning ilg‘or amaliyotiga ega davlatlar tajribasini o‘rganish.

O‘zbekiston Respublikasida Giyohvandlik vositalarning noqonuniy aylanmasi muammosi so‘nggi yillarda ro‘yxatga olingan jinoyatlar sonining tobora oshib borishi tufayli hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda. TQF natijalari bunday jinoyatlarni aniqlash, bartaraf etish va fosh qilish, shuningdek, sud muhokamasi uchun muvaffaqiyatli dalillar bazasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. TQF natijalaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, qonunchilikdagi bo‘shliqlar va ziddiyatlarni bartaraf etish, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining malakasini oshirish, zamonaviy texnologiyalar va TQF usullarini joriy etish, shuningdek, fuqarolar huquqlarini himoya qilish va tezkor bo‘linmalar faoliyati ustidan mustaqil nazoratni ta’minlash zarur.

Bu choralar TQF natijalaridan Giyohvandlik vositalarning noqonuniy aylanmasiga oid jinoyat ishlari bo‘yicha dalillarni isbotlashda foydalanish samaradorligini oshirishga, fuqarolar huquqlariga rioya etishni ta’minlashga va huquqni qo‘llash amaliyotini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi deb o‘ylaymiz.

ODIL SUDLOV – xavfsizlik va jamiyat barqarorligi asosi

Davletov O‘.M.
Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘ining o‘rinbosari,
yu.f.b.f.d (PhD)., dotsent, podpolkovnik

Jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti uchun eng muhim shartlardan biri – bu adolatli sudlovning mavjudligidir. Sud hokimiyatining mustaqilligi, qonun ustuvorligi va odil sudlov prinsiplari xavfsizlik hamda jamiyat tartibini saqlashning muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Binobarin, odil sudlov qonuniylikni ta’minlaydi. Qonunlarning to‘g‘ri va adolatli qo‘llanilishi jamiyatda huquqiy tartib-intizomni mustahkamlaydi. Har bir fuqaro biladiki, qonun buzilgan taqdirda sud adolatli qaror qabul qiladi. Agar sud qarorlari odilona bo‘lsa, fuqarolar norozilik kayfiyatiga berilmaydi, bu esa jamoat tartibini buzilishidan saqlaydi.

Odil sudlov ***yurtimiz va xalqimiz ravnaqi uchun muhim jarayon hisoblanib,*** demokratik davlatchilikning sifat belgisi, mamlakatimizda qonun ustuvrligi va sud-huquq tizimini isloh qilishning ajralmas va tarkibiy qismidir. Bir so‘z bilan aytganda, odil sudlov – bu sud hokimiyatining mustaqilligi, xolis va qonuniy qaror qabul qilish jarayonidir.

Odil sudlov jamiyat hayotida, jamiyat a’zolarining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirishda, insonlarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, odil sudlov har qaysi davrlarda ham ulug‘langanligini, qadrlanganligini hamda insonlar unga intilib yashaganliklarini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Xususan, rim faylasuflari “Pereat mundus et fiat justitia”, ya’ni “mayli dunyo barbod bo‘lsin, lekin odil sudlov qaror topsin” deb ta’kidlaganliklari bejiz emas. Rim faylasuflarining mazkur mumtoz shiorlari bir qarashda mubolag‘adan iborat bo‘lsada, lekin ular odil sudlovga shu qadar yuqori baho beradilar.

Albatta, jamiyatda yuzaga keladigan nizolarni hal qilishda odil sudlov hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Agar nizolar qonuniy yo‘l bilan sud orqali hal qilinsa, odamlar norozilik kayfiyatiga berilmaydi, mojarolar tinch yo‘l bilan bartaraf etiladi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikning muhim omilidir.

Umuman olganda, O‘zbekiston Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi «Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni bilan 2023–2026 yillarga mo‘ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi tasdiqlandi.

Unga ko‘ra odil sudlovni ta’minlashning ustuvor vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

«Inson qadri uchun» g‘oyasi asosida chinakam adolatli sud tizimini shakllantirish hamda uning faoliyatini xalq manfaati va inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga yo‘naltirish;

adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning, shu jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, har bir shaxs sud va sudyalar siymosida o‘zining ishonchli himoyachisini ko‘rishiga erishish;

fuqarolar hamda tadbirkorlarga o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini sudlarda himoya qila olishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sud ishlarini yuritishda tortishuv va taraflarning tengligi tamoyillarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, sudlarning xolisligini ta’minlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish;

sudlar faoliyatini to‘liq raqamlashtirish, sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, idoralararo elektron ma’lumot almashinuvini yaxshilash, sud majlislarida masofadan turib qatnashish imkoniyatini kengaytirish;

sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligi kafolatlarini kuchaytirish, sudga hurmatsizlik qilish va sud ishiga aralashishning oldini olish bo‘yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish;

sud qarorlarining qat’iy ijrosini ta’minlash, bu borada davlat organlari va mahalliy hokimliklarning mas’uliyatini oshirish;

sudyalar va sud xodimlarida yuksak muomala madaniyatini shakllantirish orqali sudga murojaat qilgan har bir fuqaro va tadbirkorda suddan, pirovardida esa davlatdan rozilik hissini uyg‘otish.

Galdagi vazifa, qonun ustuvorligi va sud huquq tizimi sohasidagi islohotlarni “Odil va mustaqil sud – Yangi O‘zbekiston poydevori” shiori ostida izchil davom ettirishimiz lozim.

Qolaversa, odil sudlov O‘zbekistonda xavfsizlikni, jamoat tartibi va barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Buni quyidagi bir necha asosiy jihatlar orqali tushunishimiz mumkin:

birinchidan, sud hokimiyati qonunlarni adolatli qo‘llash orqali jamiyatda tartib va intizomni mustahkamlaydi;

ikkinchidan, odilona chiqarilgan sud qarorlari jinoyatchilar uchun ibrat bo‘ladi;

uchinchidan, har bir fuqaroning konstitusiyaviy huquqlari sud orqali kafolatlanadi;

to‘rtinchidan, sud qarorlari adolat tamoyiliga asoslanganda, odamlar o‘zlarini himoyalangan deb his qiladi;

beshinchidan, adolatli sudlov xafsizlikni mustahkamlaydi. Adolatsizlik esa jamiyatda huquqsizlik, zo‘ravonlik va norozilik kuchayadi.

Mamlakatda sud hokimiyati mustaqil bo‘lsa – odil sudlov ta’minlanadi, odil sudlov ta’minlansa – xavfsizlik va jamiyat barqarorligiga erishiladi, xavfsizlik va jamiyat barqarorligi esa O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘si, fuqarolarning ertangi kunga bo‘lgan ishonchi oshishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, odil sudlov – bu nafaqat huquqni qo‘llash mexanizmi, balki xavfsizlik va jamoat tartibini ta’minlash, ijtimoiy barqarorlik masalasidir.

Takliflar:

1. “Sud profilaktikasi”ni huquqbuzarliklar profilaktikasi turlari sifatida joriy etish va ularni qo‘llashning aniq mexanizmlarini belgilash;

2. Xavfsizlik va jamiyat barqarorligiga ijtimoiy xavfi yuqori bo‘lgan sud muhokamalari bo‘yicha sayyor sud majlislarini o‘tkazish;

3. Fuqarolarning sudga bo‘lgan ishonchini oshirish, jamoat xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan turli kelishmovchiliklarni oldini olish maqsadida sudlar faoliyatini to‘liq raqamlashtirish hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish;

4. Jamiyat barqarorligini ta’minlashda “Yangi O‘zbekistonning – Yangi professional sudyalar korpusi”ni shakllantirish.

ОБЩЕСТВЕННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ЦИФРОВИЗАЦИИ: БАЛАНС МЕЖДУ ГОСУДАРСТВЕННЫМ КОНТРОЛЕМ И ДЕМОКРАТИЧЕСКИМИ ЦЕННОСТЯМИ

Хужамбердиев Ф.К.
доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент Университета общественной безопасности Республики Университета
ORCID: 0009-0003-8128-7487

Современные общества функционируют в условиях нарастающих глобальных вызовов, связанных с транснациональной преступностью, терроризмом, киберугрозами, миграционными процессами и социальным неравенством. Эти факторы усиливают потребность государств в формировании эффективных систем обеспечения общественной безопасности, которые должны одновременно отвечать требованиям правового государства и учитывать новые реалии глобализации и цифровизации.

Особую значимость приобретает проблема поиска баланса между необходимостью усиления мер безопасности и защитой демократических институтов и прав личности. В условиях «общества риска», о котором пишут Энтони Гидденс и Ульрих Бек, безопасность становится не только политико-правовым, но и социально-технологическим феноменом. Вопрос заключается в том, каким образом государство может адаптировать механизмы обеспечения общественной безопасности к новым угрозам, сохраняя при этом верховенство закона и предотвращая скатывание к авторитарным практикам.

В научной литературе представлены различные подходы к пониманию сущности общественной безопасности и её правового обеспечения. Одни исследователи (Г. Кельзен, Дж. Локк, М. Вебер) акцентируют внимание на верховенстве права и институциональных основах, другие (К. Шмитт, С. Хантингтон) допускают возможность

временного отхода от правовых норм в кризисных условиях. Современные учёные, включая Э. Гидденса, У. Бека, М. Кастельса, З. Баумана, рассматривают безопасность в контексте технологических и социальных трансформаций, указывая на необходимость комплексного подхода.

Актуальность данного исследования обусловлена потребностью в переосмыслении традиционных концепций безопасности применительно к новым вызовам XXI века, а также необходимостью выработки правовых и институциональных механизмов, позволяющих сочетать эффективность государственного управления с демократическими ценностями.

Современные ученые, такие как Энтони Гидденс [1] и Ульрих Бек [2], подчеркивают, что современные общества находятся в состоянии «общества риска», где безопасность неразрывно связана с технологическими вызовами, глобализацией и транснациональной преступностью. Гидденс утверждает, что современные государства должны адаптировать свои системы безопасности к новым реалиям, внедряя цифровые технологии и алгоритмы прогнозирования угроз. Бек, в свою очередь, предупреждает, что чрезмерная технологизация контроля за безопасностью может привести к усилению государственного надзора и ограничению гражданских свобод. Однако с этим нельзя полностью согласиться, так как цифровизация механизмов безопасности позволяет не только прогнозировать угрозы, но и предотвращать их, снижая избыточное вмешательство государства в частную жизнь граждан.

Дополняя их точку зрения, Дэвид Гарланд [3] считает, что концепция «культуры контроля» становится основой современной политики безопасности, где государство активно использует превентивные меры и предиктивную аналитику для снижения преступности. Однако, как отмечает Бенедикт Андерсон [4], чрезмерное усиление механизмов безопасности может привести к формированию «воображаемых угроз», когда государство начинает оправдывать жесткие меры гипотетическими рисками. В этой связи возникает вопрос: насколько оправдано применение таких методов, если они могут подрывать доверие граждан к государству? Полемика вокруг этого вопроса не утихает, поскольку государства должны находить компромисс между необходимостью контроля и защитой фундаментальных прав личности.

Результаты данного исследования коррелируют с работами Ганса Кельзена [5], который настаивал на необходимости абсолютного соблюдения правовых норм для обеспечения безопасности. Однако, как отмечал Карл Шмитт [6], в экстремальных ситуациях может возникнуть необходимость временного отхода от обычных правовых норм. Это мнение поддерживает Самуэль Хантингтон [7], утверждая, что в условиях кризиса государство может применять более жесткие меры. В то же время, Рональд Дворкин [8] и Джозеф Раз [9] подчеркивали, что без соблюдения верховенства закона любые меры безопасности могут привести к формированию авторитарных режимов.

Макс Вебер [10] предложил концепцию государственной монополии на насилие, что подтверждается эмпирическими исследованиями эффективности правоохранительных органов. Его теория согласуется с работами Фрэнсиса Фукуямы [11], который подчеркивал, что слабые институты не способны обеспечить безопасность. Однако Мишель Фуко [12] критиковал усиление роли государства в системе безопасности, утверждая, что это ведет к усилению механизмов социального контроля. Здесь возникает вопрос: действительно ли усиление государственного контроля неизбежно ведет к авторитаризму, или же этот процесс можно регулировать через институты демократического контроля? В поддержку последнего тезиса выступают современные исследователи, такие как Стивен Левицкий и Даниэль Зиблатт [13], которые утверждают, что устойчивые демократические институты способны минимизировать риски злоупотребления властью.

Дополняя этот анализ, Мануэль Кастельс [14] рассматривает безопасность как часть глобального информационного общества, где киберугрозы и цифровые риски требуют новой стратегии регулирования. В его работах подчеркивается, что традиционные модели безопасности устарели и нуждаются в адаптации к современным технологическим вызовам. В свою очередь, Зигмунт Бауман [15] утверждает, что глобальная безопасность становится все более связанной с социальным неравенством и процессами миграции, что требует многоуровневого подхода к ее обеспечению.

Александр Вендт [16] предлагает концепцию конструктивистского подхода к безопасности, где важно учитывать восприятие угроз обществом. Он считает, что государства могут

чрезмерно преувеличивать внешние и внутренние угрозы, что ведет к росту контроля и снижению демократических стандартов. Однако его позиция вызывает возражения со стороны таких исследователей, как Джон Мьюллер [17], который утверждает, что угрозы безопасности зачастую являются реальными и требуют адекватного государственного реагирования.

Таким образом, среди ученых нет единого мнения относительно того, как должны балансироваться меры безопасности и защита демократических ценностей. С одной стороны, чрезмерная централизация власти может привести к ослаблению институтов гражданского общества, с другой – недостаточный контроль государства за безопасностью ведет к увеличению преступности и дестабилизации общества.

Проведенный анализ показывает, что политика безопасности должна учитывать не только правовые нормы, но и социальные и технологические реалии. Глобализация, цифровизация и транснациональные угрозы требуют пересмотра традиционных подходов к безопасности. При этом демократические институты должны обеспечивать контроль над государственными структурами, чтобы избежать превращения механизмов безопасности в средство подавления гражданских прав.

Необходима дальнейшая полемика по вопросу определения допустимых пределов государственного вмешательства в частную жизнь граждан. Будущие исследования могут быть направлены на анализ конкретных примеров успешного сочетания демократических ценностей и эффективной политики безопасности.

Список использованной литературы:

1. Гидденс Э. Последствия модерности. — СПб.: Питер, 2004. — С. 67-101.

2. Бек У. Обшчество риска: на пути к другому модерну. — М.: Прогресс-Традитсия, 2001. — С. 30-85.

3. Гарланд Д. Култура контроля: преступност' и сотсиал'нйи порядок в современнои эпокҳе. — Оксфорд: Охфорд Университ Пресс, 2001. — С. 120-165.

4. Андерсон Б. Вообразҳаеме сообшчества: размйшления о проискҳозҳдении и распространении натсионализма. — Лондон: Версо, 1991. — С. 40-77.

5. Келзен Г. Чистое учение о праве. — М.: НОРМА, 2002. — С. 25-48.
6. Шмитт К. Политическая теология и кризис парламентаризма. — СПб.: Владимир Дал', 2008. — С. 56-94.
7. Кҳантингтон С. Столкновение тсивилизатсии и преобразование мирового порядка. — М.: АСТ, 1993. — С. 98-134.
8. Дворкин Р. Империя права. — М.: Вес' Мир, 2004. — С. 150-188.
9. Раз Дзҳ. Контсептсия правового государства: философские основй. — М.: Прогресс-Традитсия, 2010. — С. 85-140.
10. Вебер М. Политика как призвание и профессия. — М.: Политиздат, 1990. — С. 112-145.
11. Фукуяма Ф. Государство: управление и мировой порядок в ХХИ веке. — М.: АСТ, 2004. — С. 175-220.
12. Фуко М. Надзират' и наказйват'. Розҳдение тюр'мй. — М.: Ад Маргинем, 1995. — С. 55-92.
13. Левитскй С., Зиблатт Д. Ҳow Демосрасиес Дие. — Hew Ёрк: Cpowh Публишинг Гроуп, 2018. — П. 50-95.
14. Кастелс М. Информатсионная эпокҳа: экономика, обшчество и кул'тура. — Оксфорд: Бласкwелл, 1996. — С. 110-145.
15. Бауман З. Глобализатсия: последствия для человека и обшчества. — Н'ю-Ёрк: Солумбиа Университй Пресс, 2000. — С. 88-130.
16. Вендт А. Сотсиал'ная теория мезҳдународноп политики. — Кембридзҳ: Самбридге Университй Пресс, 1999. — С. 200-245.
17. Mueller J. Overblown: How Politicians and the Terrorism Industry Inflate National Security Threats, and Why We Beliyeve Them. — New York: Free Press, 2006. — P. 120-155.

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHNING IJTIMOIY-HUQUQIY MUAMMOLARI: ASOSIY YO‘NALISHLAR VA TAVSIYALAR

Payziyev A.M.
Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus-huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi dotsenti, y.f.b.f.d.(PhD)

“Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ularning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga nisbatan qarshi immunitetni shakllantirish, shuningdek, inson salomatligini ta’minlashga qaratilgan ishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda”[1].

Giyohvandlik – jamiyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid soluvchi muammo bo‘lib, uning oldini olish va bartaraf etishda ijtimoiy-huquqiy choralar muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunchilikni takomillashtirish, profilaktika ishlarini kuchaytirish va reabilitatsiya tizimini yaratish kabi yo‘nalishlar bu kurashning asosini tashkil qiladi. Huquqni muhofaza qilish organlari giyohvandlikka qarshi kurashda faollik ko‘rsatishi, jinoyatlarni samarali aniqlash va jazoni adolatli qo‘llash muhimdir. Shu bilan birga, yoshlar o‘rtasidagi profilaktika tadbirlari va oilaviy tarbiyani kuchaytirish jamiyatdagi giyohvandlik tarqalishining oldini olishga yordam beradi.

Bu borada mamlakatimizda keng ko‘lamli ishlar olib borilishiga qaramay ushbu illatning ildizini quritishga, butunlay yo‘q qilishga erishib bo‘lmaydi. 2023 yiligi ma’lumotlarga ko‘ra, umumiy 8280 ta noqonuniy muomala bilan bog‘liq jinoyat aniqlangan. Ularning katta qismi — 6147 ta holat jinoiy javobgarlikka tortish bilan yakunlangan. Shuningdek, 1407 ta holatda ma’muriy javobgarlik belgilangan. Tezkor tadbirlar natijasida 2 tn 31 kg 886 gr giyohvandlik vositalar va psixotrop moddalar noqonuniy muomaladan olingan. Shundan, 2 tn 25 kg 13 gr giyohvandlik vositalar va 6 kg 127 gr psixotrop moddalar. Musodara qilingan giyohvandlik vositalarning 866 kg 253 gr kontrabanda bo‘lsa, 19 kg 687 gr o‘z hoxishi bilan topshirilgan va 31 kg 580 gr egasiz bo‘lgan. Shuningdek, 10486 m.kv maydonda tarkibida giyohvandlik vositalari mavjud o‘simliklar yo‘q qilingan[2].

[1] “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024 — 2028-yillarga mo‘ljallangan MILLIY STRATEGIYA”si 2024-yil 6-may, PF-73-son. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.05.2024-y., 06/24/73/0327-son.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazining 2022-yil uchun informatsion byulleteni. https://www.unodc.org/centralasia.

So‘ngi yillarda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar va kuchli ta’sir qiluvchi dorilarning ta’siri ortib borishi jahon hamjamiyatiga jiddiy tahdid solmoqda. Xususan, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ushbu og‘uni istemol qiluvchilar soni ortib borayotganligini, ayniqsa bunda yoshlarning ulishi oshib bormoqda. “World Population Review” ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston giyohvandlik moddalarni iste’mol qilish bo‘yicha mamlakatlar reytingida 95-o‘rinni egalladi, bu esa Markaziy Osiyoning bir qolgan davlatlari orasida eng yaxshi natija. Mintaqa davlatlari orasida Qozog‘iston o‘z iste’moli bo‘yicha yetakchi bo‘ldi – 8-o‘rin, Qirg‘iziston 23-o‘rinni egalladi. Turkmaniston 41, Tojikiston 76-o‘rindan joy olgan[1].

Giyohvandlik muammosi jamiyat taraqqiyotiga jiddiy zarar yetkazadigan ijtimoiy va huquqiy muammo hisoblanadi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun kompleks va tizimli chora-tadbirlar qo‘llanilishi kerak. Giyohvandlikka qarshi kurashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

Qonunchilikdagi muammolar: qonunlardagi bo‘shliqlar, ayrim normalar yetarli darajada aniq va qat’iy emasligi, yangi turdagi giyohvandlik vositalari va sintetik moddalarga qarshi qonunchilik bazasi yetarli emasligi, jazolarning yengilligi yoki notengligi, ma’muriy jazolar jinoyatlar oldini olish uchun yetarli darajada ta’sirchan emasligi, huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida nomuvofiqliklar, korrupsiya va ma’lumot yetkazishdagi kamchiliklar borligi.

Profilaktika va ta’lim: profilaktik ishlarning yetarli darajada samarali emasligi, ko‘p hollarda profilaktik tadbirlar rasmiy va formal xarakterda o‘tkaziladi, bu esa yoshlarga ta’sir qilmaydi, targ‘ibot ishlari hayotiy emas, zamonaviy media vositalari va yoshlar tilida emas, natijada yoshlar befarqlik bilan qaraydi, o‘quv-tarbiya muassasalarida bilim va ma’lumot yetishmasligi, maktab va kolledjlarda giyohvandlikka qarshi maxsus fan yoki muntazam darslar yo‘q, o‘qituvchilar va tarbiyachilarning o‘zida ham bu sohada bilim va malaka yetarli emas, ota-onalar va oiladagi nazoratning zaifligi, ko‘pgina oilalarda bolalarning tarbiyasi va internetdagi faoliyati ustidan yetarli nazorat olib borilmaydi, ota-onalarda giyohvandlik alomatlari va uning oldini olish haqida bilim yetishmaydi, yoshlar o‘rtasida ma’naviy bo‘shliq va qiziqish yo‘qligi, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali giyohvand moddalarni reklama qilish, sotish va ularni “moda” sifatida

[1] https://uz.kursiv.media/2024-02-19/uzbekistan-v-top-100-stran-po-upotrebleniyu-narkotikov/

ko‘rsatish holatlari ko‘payib borayotganligi, hukumat va jamoat tashkilotlari o‘rtasida muvofiqlikning yo‘qligi.

Reabilitatsiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash: reabilitatsiya markazlari yetishmasligi, Ko‘p shahar va tumanlarda giyohvandlikka chalingan shaxslar uchun maxsus davolash va reabilitatsiya markazlari yo‘q yoki soni juda kamligi, Kasbiy va malakali mutaxassislar tanqisligi, Davolash va reabilitatsiya jarayonida faoliyat yurituvchi psixolog, psixoterapevt, narkolog va ijtimoiy ishchilar soni yetarli emas, jamiyatda stigma va tab’iylashtirish (tamg‘alash) muammo**,** Reabilitatsiyadan keyingi nazorat va kuzatuv mexanizmining yetarli darajada emasligi, reabilitatsiyadan keyin shaxslarni ish bilan ta’minlash, qayta ta’limga jalb qilish imkoniyatlari cheklangan.

Xalqaro hamkorlik: Davlatlar o‘rtasida doimiy axborot almashish tizimini yaratish, Qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, Chegaralarda yuqori texnologiyali nazorat vositalarini joriy etish, Xalqaro konvensiyalar va kelishuvlarga qat’iy rioya qilish, Kambag‘al davlatlarga texnik va moliyaviy yordam ko‘rsatish, Davlatlar o‘rtasida ishonch va ochiq muloqotni mustahkamlash zarur.

Yuqorida keltirilgan ijtimoiy-huquqiy moammolardan kelib chiqib giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomilasi bilan bog‘liq muammolarni o‘z vaqtida va samarali bartaraf etish bo‘yicha quyidagilarni tavsiya qilish maqsadga muvofiq.

Qonunchilikni takomillashtirish va amaliy tatbiqini kuchaytirish: giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasini qat’iy tarzda cheklash uchun qonunlarni yangilash va mustahkamlash, jinoyat uchun jazolarni qat’iylashtirish va huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini takomillashtirish, qonunlarning aholining barcha qatlamlariga tushunarli bo‘lishini ta’minlash.

Profilaktika va ma’rifiy ishlarini kengaytirish: yoshlarning giyohvandlikka qarshi sog‘lom turmush tarziga rag‘batlantirish uchun maktablarda va oilada profilaktik dasturlar tashkil etish, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, oila, jamoatchilik va diniy tashkilotlarni profilaktikada faol ishtirok etishga jalb etish.

Ijtimoiy reabilitatsiya va qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish: giyohvandlikdan qutulgan shaxslarni davolash, psixologik yordam va kasb-hunarga o‘rgatishga yo‘naltirilgan dasturlar ishlab chiqish, ularni jamiyatga qayta integratsiya qilish uchun ijtimoiy xizmatlarni mustahkamlash,

mehnatga joylashtirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirish.

Huquqni muhofaza qilish organlari va jamoatchilik o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish: huquqni muhofaza qilish organlari va jamoat tashkilotlari o‘rtasida axborot almashish va birgalikda profilaktik tadbirlar o‘tkazish, jamoatchilik nazoratini mustahkamlash orqali giyohvandlikka qarshi kurashda samaradorlikni oshirish.

Ijtimoiy-iqtisodiy sabablarni bartaraf etish: kambag‘allik, ishsizlik va ijtimoiy noaniqliklarni kamaytirish uchun ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, yoshlarning ta’lim olish va kasb-hunar egallash imkoniyatlarini kengaytirish.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish: giyohvandlik vositalarining transmilliy aylanmasini cheklash uchun xalqaro huquqiy normalarni joriy etish, xalqaro tashkilotlar bilan tajriba almashish va hamkorlikni mustahkamlash.

Xulosa qilib aytganda, giyohvandlik bugungi kunda nafaqat shaxsiy muammo, balki butun jamiyat uchun xavfli ijtimoiy illatdir. Unga qarshi kurashishda huquqiy, ta’limiy, tibbiy va ijtimoiy yondashuvlar uyg‘unlikda amalga oshirilishi zarur. Qonunchilik sohasidagi kamchiliklar, profilaktika ishlarining yetarli darajada samarasizligi, reabilitatsiya markazlarining kamligi va jamiyatdagi manfiy munosabatlar bu jarayonda asosiy to‘siqlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlikdagi yetishmovchiliklar, axborot almashinuvi va chegara nazoratidagi muammolar global darajadagi kurash samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Giyohvandlikka qarshi samarali kurash olib borish uchun barcha sohalar o‘rtasida muvofiqlik, huquqiy islohotlar, ta’lim va targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, hamda jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston [Matn] / Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent : “O‘zbekiston” nashriyoti , 2024. - 560 b.

2. BMTning “Giyohvandlik vositalari to‘g‘risida”gi konvensiyasi. 2000-yil 15-noyabr, Nyu-York. https://lex.uz/docs/-1304566.

3. O‘zbekiston Respublikasining 813-I-son.19.08.1999 y. “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lexuz.

4. “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024 — 2028-yillarga mo‘ljallangan MILLIY STRATEGIYA”si 2024-yil 6-may, PF-73-son. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.05.2024-y., 06/24/73/0327-son.

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ: КЛАССИЧЕСКИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ

Хужамбердиев Ф.К.
доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент Университета общественной безопасности Республики Университета
ORCID: 0009-0003-8128-7487

Обеспечение общественной безопасности является одной из ключевых задач современного правового государства, так как оно непосредственно связано с устойчивым развитием общества, защитой прав и свобод личности, а также с эффективностью функционирования государственных институтов. В условиях глобализации и технологических трансформаций государства сталкиваются с качественно новыми угрозами — транснациональной преступностью, международным терроризмом, экстремизмом, киберпреступностью и внутренними проявлениями социальной нестабильности. Это обуславливает необходимость выработки эффективных правовых и институциональных механизмов обеспечения безопасности, при этом соблюдение верховенства закона остаётся краеугольным принципом демократического развития.

Актуальность исследования определяется потребностью в поиске оптимального баланса между эффективностью государственного управления и соблюдением демократических принципов, предотвращающим тенденции к излишней централизации власти и возможным авторитарным проявлениям. Особое значение эта проблема приобретает для Узбекистана, где в последние годы проводится комплексная правовая и институциональная реформа, направленная на совершенствование системы общественной

безопасности, интеграцию современных технологий и повышение уровня правовой культуры граждан.

В научной литературе сложились различные подходы к пониманию сущности и механизмов обеспечения общественной безопасности. Так, Г. Кельзен, Дж. Локк, М. Вебер, Ш. Монтескье акцентировали внимание на верховенстве права и институциональных гарантиях, тогда как К. Шмитт и С. Хантингтон допускали временное ограничение правовых норм в условиях кризиса. Современные отечественные исследователи (Ш.Ю. Турсунов, С.Н. Гордеев, И. Исмаилов и др.) развивают комплексный подход, объединяющий правовые, социальные и технологические факторы.

Цель исследования заключается в раскрытии правовых и институциональных основ обеспечения общественной безопасности в условиях современных вызовов, выявлении рисков чрезмерной централизации власти и обосновании необходимости гармоничного сочетания правового регулирования, демократических институтов и эффективного государственного управления.

Обеспечение общественной безопасности является одной из ключевых задач правового государства, требующей баланса между верховенством закона и эффективностью государственного управления. В современных условиях государствам приходится сталкиваться с разнообразными угрозами, такими как транснациональная преступность, терроризм, экстремизм, киберпреступность и внутренняя социальная нестабильность. В связи с этим встает вопрос о том, как обеспечить безопасность, не нарушая основные демократические принципы и права человека.

Общественная безопасность является неотъемлемой частью стабильного и устойчивого развития общества. В условиях глобализации, роста преступности и технологических вызовов государства вынуждены разрабатывать новые подходы к обеспечению безопасности, соблюдая при этом верховенство закона. Данный вопрос особенно актуален для Узбекистана, где проводится комплексная реформа правовой и институциональной системы, направленная на совершенствование механизмов безопасности. Важно найти оптимальный баланс между необходимостью усиления государственной власти в целях предотвращения угроз и защитой прав граждан, чтобы избежать авторитарных тенденций.

Вопросы правового обеспечения общественной безопасности рассматривались многими исследователями, среди которых можно выделить Ганса Кельзена, Джона Локка, Монтескье, Карла Шмитта, Макса Вебера, Самуэля Хантингтона, Рональда Дворкина и Джозефа Раза. Ганс Кельзен подчеркивал важность абсолютного соблюдения законности в вопросах безопасности, тогда как Джон Локк связывал безопасность с общественным договором. Монтескье выступал за принцип разделения властей, предотвращающий концентрацию власти в руках государства. В то же время Карл Шмитт и Самуэль Хантингтон рассматривали ситуации, когда безопасность может преобладать над демократическими институтами, включая возможность временного отхода от правовых норм в кризисные моменты. Макс Вебер обосновал концепцию государственной монополии на применение насилия как ключевого фактора обеспечения общественной безопасности.

Критические взгляды на чрезмерное усиление власти в сфере безопасности представлены в работах Рональда Дворкина и Джозефа Раза, которые подчеркивали необходимость сохранения верховенства права и защиты прав граждан. Мишель Фуко, в свою очередь, предупреждал о рисках чрезмерного государственного контроля под предлогом безопасности.

В контексте Узбекистана вопросы обеспечения общественной безопасности рассматривались рядом отечественных ученых, включая Ш.Ю. Турсунова[1], который акцентирует внимание на необходимости комплексного подхода к безопасности, объединяющего правовые, социально-экономические и технологические меры. По его мнению, обеспечение стабильности государства требует не только укрепления институциональных механизмов, но и формирования высокого уровня правосознания и правовой культуры среди граждан. Международный опыт подтверждает, что эффективная система безопасности должна включать в себя сбалансированное сочетание правовых норм, институциональных реформ и современных технологий, позволяющих оперативно реагировать на внутренние и внешние угрозы.

Обеспечение общественной безопасности является предметом всестороннего изучения в отечественной юридической науке. Исследования в данной области охватывают широкий спектр вопросов, включая правовые и институциональные механизмы

обеспечения безопасности, а также необходимость учета современных угроз и социальных факторов.

Так, С.Н. Гордеев подчеркивает, что охрана общественного порядка представляет собой один из ключевых инструментов обеспечения общественной безопасности[2]. Исследователь акцентирует внимание на важности эффективного взаимодействия правоохранительных органов и гражданского общества, что, по его мнению, является необходимым условием поддержания общественного порядка и стабильности.

В свою очередь, И. Исмаилов указывает на возрастание числа и интенсивности угроз, что требует совершенствования системы обеспечения общественной безопасности[3]. Согласно его позиции, формирование эффективного механизма общественной безопасности должно основываться на следующих принципах:

Анализ оперативной и криминогенной обстановки;

Разработка действенных механизмов прогнозирования и реагирования;

Создание единой системы управления в кризисных ситуациях.

Исследование подтвердило, что обеспечение общественной безопасности в правовом государстве требует баланса между верховенством закона и эффективностью государственных институтов. Важность этой проблемы подчеркивают теоретические подходы ведущих ученых, таких как Ганс Кельзен [4], Макс Вебер [5], Джон Локк [6], Карл Шмитт [7], Рональд Дворкин [8] и другие. Полученные результаты показали, что в условиях кризисных ситуаций государству могут предоставляться дополнительные полномочия, но их чрезмерное расширение может привести к ослаблению демократических институтов. Это подтверждает актуальность поиска оптимального правового механизма регулирования общественной безопасности.

Проведённый анализ показал, что обеспечение общественной безопасности в современном правовом государстве представляет собой сложный и многогранный процесс, требующий сочетания правовых, институциональных и технологических механизмов. Центральной проблемой выступает поиск баланса между верховенством закона и эффективностью государственного управления, при котором не допускается чрезмерная концентрация власти и подрыв демократических ценностей.

Теоретические подходы классиков политико-правовой мысли — Г. Кельзена, Дж. Локка, М. Вебера, Ш. Монтескье, К. Шмитта — демонстрируют, что общественная безопасность неразрывно связана с принципами законности, разделения властей и государственной монополии на применение силы. В то же время современные концепции (Э. Гидденса, У. Бека, М. Кастельса, З. Баумана и др.) акцентируют внимание на новых вызовах цифровизации, общества риска и глобализации, которые требуют адаптации традиционных моделей безопасности.

Особое значение исследование данной проблематики имеет для Узбекистана, где реформирование правовой и институциональной системы направлено на формирование эффективных механизмов общественной безопасности. Учитывая возрастание числа транснациональных угроз и динамику внутренней криминогенной обстановки, актуальной задачей становится разработка комплексного подхода, включающего прогнозирование рисков, координацию деятельности государственных органов и повышение уровня правосознания граждан.

Результаты анализа подтверждают, что чрезмерное расширение полномочий государства под предлогом обеспечения безопасности может ослабить демократические институты и привести к усилению авторитарных тенденций. Вместе с тем недостаточный уровень государственного контроля за безопасностью способен вызвать рост преступности и социальную дестабилизацию. Следовательно, эффективная система общественной безопасности должна базироваться на верховенстве права, демократическом контроле над институтами власти и активном вовлечении гражданского общества.

Список использованной литературы:

1. Турсунов Ш.Ю. Комплекснйй подкҳод к обеспечению обшчественной безопасности: правове, сотсиал'но-экономические и текҳнологические аспектй // Государство и право. – 2022. – № 4. – С. 78-86.

2. Гордеев С.Н. К вопросу научного определения понятия «обшчественная безопасност'» // “Обшчественная безопасност'” научно-практический зҳурнал. – 2021. – № 1. – С. 32-37.

3. Исмаилов И. Жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг мутлақо янги тартиби ва механизмлари // “Жамоат хавфсизлиги” илмий-амалий журнали. – 2021. – № 1. – С. 56-63.

4. Келзен Г. Чистое учение о праве. — М.: НОРМА, 2002. — С. 25-48.
5. Вебер М. Политика как призвание и профессия. — М.: Политиздат, 1990. — С. 112-145.
6. Локк Дзҳ. Два трактата о правлении. — М.: Мйсл', 1988. — С. 78-132.
7. Шмитт К. Политическая теология и кризис парламентаризма. — СПб.: Владимир Дал', 2008. — С. 56-94.
8. Дворкин Р. Империя права. — М.: Вес' Мир, 2004. — С. 150-188.

JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASh BO‘YIChA ILG‘OR XORIJIY DAVLAT TAJRIBASI

Davletov O‘.M.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari,
yu.f.b.f.d (PhD), dotsent

Jamoat tartibi – tartibsizlikning yo‘qligi,
odamlarning tinch va tartibli xatti-harakati.

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashda jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini saqlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirishga oid tizimli va samarali chora-tadbirlar amalga oshish yuzasidan ilg‘or xorijiy davlat tajribasining o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi, jamoat xavfsizligi madaniyati, fuqarolar xavfsizligi va erkinligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda xorijiy tajriba.

Barcha davlatlarda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash muhim masalalardan biri bo‘lib, ushbu vazifa bilan shug‘ullanuvchi tarkibiy bo‘linmalarni boshqarish turli yo‘llar va usullar orqali amalga oshiriladi. Ushbu sohada har bir davlat o‘ziga xos tajribaga ega bo‘lib, ularni o‘rganish hamda yurtimizda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash tizimiga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Ayni sohada tadqiqot olib borgan huquqshunos olimlar ham xorij tajribasini o‘rganish jamiyatni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarni belgilab olish, bashariyatning uzoq tarixiy taraqqiyoti jarayonidagi yanglishuvlar va xato yondashuvlarga qayta yo‘l qo‘yilishining oldini olish

imkonini berishini qolaversa, xorijiy davlatlarning tajribasini sinchkovlik bilan o‘rganish va joriy etishda har bir mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozimligini ta’kidlaganlar.

Bu borada, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha huquqiy, uslubiy, tashkiliy choralarni ishlab chiqish va samarali amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinib, unda belgilangan tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida fuqarolarning huquqlari va erkinliklarining qonunga xilof tajovuzlardan himoyalanganlik holati sifat jihatdan yuqori darajaga ko‘tarilmoqda. Qolaversa, aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilib, jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etildi. Davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas’ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini “Barcha sa’y-harakatlar inson qadri uchun” degan ustuvor g‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda.

Albatta, biz ham fuqarolarning xavfsiz sharoitda yashash istagi va huquqni muxofaza qiluvchi organlar o‘z hayotlarini asossiz ravishda xavf ostiga qo‘ymasliklari uchun tizimda jiddiy islohotlarni amalga oshirish nuqtai nazardan kelib chiqib, quyida o‘zimizning bir qancha fikr-mulohazalarimizni e’tiboringizga xavola etishni maqsad qildik:

Birinchidan, mamlakatda jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirishda har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, kriminogan vaziyat og‘ir bo‘lgan hududlarga tajribali xodimlarni ajratish amaliyotidan keng foydalanish lozim. Bu borada, tajribasi o‘rganilgan Nyu-Jersi shtatidagi Kamden shahar aholisi politsiyaga shunchalik ishonmas ediki, hatto biron bir narsa yuz berganda ham qo‘ng‘iroq qilishmagan. Politsiya qayta tashkil etilgandan so‘ng, ularning resurslaridan yaxshiroq foydalanish mumkin bo‘ldi va bu kriminogen vaziyat og‘ir bo‘lgan joylarda ishlash uchun politsiya xodimlarini almashtirishga imkon berdi. Chunki, kriminogen

vaziyat og‘ir bo‘lgan joyda doimiy qolish politsiya xotirjamligini yo‘qotishiga va xavfli vaziyatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu faqat politsiya xodimlari yoki shahar aholisi hayoti xavf ostida bo‘lgan vaziyatlarda so‘nggi chora sifatida almashtirilishi mumkin bo‘lgan[1]. Xitoy tajribasiga ko‘ra, Jamoat xavfsizligi vazirligi XXRning deyarli barcha shahar va tumanlarida byuro va bo‘limlari mavjud[2]. Byuro faoliyatining muhim qismi politsiya xodimlarini tanlash va o‘qitishdir. Umuman olganda, Xitoy politsiyasida kadrlar masalasiga alohida e’tibor beriladi. Xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash uchun ko‘plab dasturlar mavjud. Shuningdek, Xitoy huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari muntazam ravishda Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlariga o‘quv safarlariga borishadi.

Ikkinchidan, jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta’minlashda Ichki ishlar organlari matbuot xizmati xodimlarining ijtimoiy tarmoqlardagi faolligini oshirish lozim. Ayni masalada, Germaniya politsiyasi ijtimoiy tarmoqlarda juda faol. Tajribasini kuzatsangiz, politsiya xodimlari har bir shtatdan farqli o‘laroq o‘z ishlari haqida gapirishadi. Oshkoralik va ishonch mahalliy Ichki ishlar vazirligi uchun juda muhimdir. Ushbu federal shtatda hozirda ijtimoiy tarmoqlar orqali aholi bilan muloqot qilish uchun politsiyachilar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ba’zida abonentlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam so‘rashadi, huquqiy maslaxatlar olishadi. Shuningdek, Germaniyada politsiya bo‘linmalari fan va texnika, zamonaviy texnologiyalar va axborot tizimlari yutuqlaridan keng foydalangan holda zarur anjomlar bilan juda yaxshi ta’minlangan. Ular o‘z faoliyatida axborot tizimlaridan, aloqa va ma’lumotlarni uzatish tizimlaridan, zamonaviy axborot-telekommunikatsiya infratuzilmasidan samarali foydalanib kelmoqdalar[3]. Yaponiya tajribasiga ko‘ra, jamoat xavfsizligi bilan bog‘liq masalalar yuzasidan maslahat kerak bo‘lganda «Maxsus politsiya maslahat xizmati»ga qo‘ng‘iroq qilish amaliyoti joriy etilgan. Shuningdek, Koban (politsiyaga hududiy hamkorlik orqali jinoyatchilikning oldini olishga imkon beradi) stansiyalari bo‘lmagan mintaqalarda mikroavtobuslarda joylashgan ko‘chma politsiya punktlari mavjud. Hududiy politsiya maslahatchilariga nafaqat ehtiyot choralarini ko‘rish, joylardagi ma’lumotlarni etkazish va ma’lumot almashish, balki hududga tashrif buyuruvchilarga yordam berish vazifasi yuklatilgan[4]. Xitoyda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta’minlashda politsiya xodimlari nafaqat ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot olib borishga, maktab o‘quvchilari va talabalar bilan uchrashib, suhbatlar

o‘tkazishga majburdirlar. Chunki, aksariyat jinoyatlar uchun nafaqat ichki ishlar, balki ota-onalar va qarindoshlar ham javobgar hisoblanishadi. Mazkur holatlar o‘rganilgan holda, fuqarolarning xavfsizligi va jamoat joylarida qonuniylik ta’minlash bo‘yicha fan, texnika yutuqlarini o‘rgangan holda Ichki ishlar vazirligi tizimda aloqa va avtomatlashtirilgan boshqaruvni rivojlantirishni, qolaversa jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha xabar bermoqchi bo‘lgan fuqarolar profilaktika inspektoriga murojaat qilishi, jamoat xavfsizligi bilan bog‘liq masalalar yuzasidan maslahat kerak bo‘lganda HMQOga murojaat qilish uchun alohida «maslahat tarmog‘i»ni yaratishni zarur deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, hududlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ba’zi joylarda Ichki ishlar xodimlari soni ko‘p yoki kam bo‘lishi bilan bog‘liq amaliyotni (Belgiya tajribasi) o‘rganish lozim. Bu o‘z navbatida jinoyat ko‘p yoki kam sodir bo‘lish-bo‘lmasligidan kelib chiqib, xodimlar va ularning ish yuklamasini to‘g‘ri taqsimlagan holda mamlakatimizda jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasidan ko‘zlangan natijaga erishishga xizmat qilishi mumkin. Aynan, Belgiya tajribasida mazkur holatni, qolaversa jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha ijtimoiy ishchilar (ular politsiyachilar emas) mavjudligini kuzatish mumkin. Ularning vazifasi muammolarga duch kelgan odamlarni aniqlash (odatda o‘spirinlar) va ular tomonidan jinoyat sodir etilishini oldini olishdan iborat[5]. Bu borada, Angliya tajribasi bundanda qiziq. Ya’ni, ba’zi shaharlarda ko‘plab politsiyachilar qurolsiz[6]. Bu juda boshqacha ish uslubi, bu yerda politsiya jamiyat hayotiga singib ketgan, odamlar ularga ishonishadi va jinoyatchilikni to‘xtatish va ko‘chalarni xavfsiz saqlashda har kimning umumiy manfaati borligini tushunishadi. Albatta, huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish, aholi muammolarini o‘rganish va ularni hal etishlariga yanada qulay sharoitlar yaratish uchun amaliy ish faoliyatiga (ish yurituvdagi hujjatlarni kamaytirish) keng yo‘l ochish, umumiy manfaatdorlikka asoslangan munosabatlarni o‘rgangan holda jamoat tartibini saqlash usullarini qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Misol uchun, Qo‘shma Shtatlarda «jamoat politsiyasi» tushunchasi mavjud[7]. Amalda, politsiya bo‘limi ushbu yo‘nalishi uchun bitta politsiyani ajratgan. Ammo, jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi uchun barcha Ichki ishlar idoralari majburdir. Chunki, odamlar xavfli hududda yashashni, jinoyatchilar va zo‘ravonlik qurboniga aylanishni xohlamaydilar. Politsiya esa bunday hududdagi jamoat tartibi uchun ham, odamlarning shaxsiy huquqlarini

himoya qilish uchun ham javobgardir. Bunda ular nafaqat huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar, qolaversa shahar aholisi bilan hamkorlikda ishlaydilar. Natijada, qotilliklar soni keskin kamayib, xavfsizlikka ishonch ortdi. Umumiy manfaatlar muvaffaqiyat natijasi bo‘ldi.

To‘rtinchidan, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashda har bir huquqni muhofaza qiluvchi va davlat boshqaruvi organlari bilan keng jamoatchilikning hamkorligi masalasida Germaniya tajribasini o‘rganish lozim. Unga ko‘ra, har qanday huquqbuzarlik, shu jumladan, g‘ayriijtimoiy xulq-atvorning guvohi bo‘lgan Germaniya fuqarolari bu haqda darhol davlat organlariga telefon orqali og‘zaki, elektron ko‘rinishda xabar beradi. Xabar asosida tezkor profilaktik choralar ko‘rilib, natijasi haqida fuqaroga ma’lum qilinadi. Mazkur tadbirlarni amalga oshirish uchun “Neighborhood watch” (Qo‘shnining kuzatuvi), “Crimestoppers (“Jinoyatni to‘xtatuvchilar), “Crimeprevention throughen vironment design (broken window)” (Huquqbuzarliklar profilaktikasini tashqi muhitdan kuzatuv ostiga olish (siniq oynalar)”, “Safety City” (Havfsiz shahar) kabi dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga samarali tatbiq etib kelinmoqda.

Beshinchidan, uzoq yillar davomida shakllangan, profilaktika inspektori vakolati doirasiga kirmaydigan va ularni jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatiga salbiy ta’sir qilib kelayotgan har qanday murojaatlarni hech qanday surishtiruvsiz tegishliligi bo‘yicha yuborish amaliyotini yo‘lga qo‘yishni hamda vazifalar taqsimoti va ularning bo‘ysunuv doirasini qayta ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu borada, Xitoy politsiyasining vazifalari va vakolatlari ro‘yxatiga nazar tashlasangiz, ushbu tuzilma har tomonlama qudratli ekanligi haqida taassurotga ega bo‘lasiz. Ular hamma narsaga mas’uldirlar (boshqa vazirliklar vakolatlari doirasiga kiritilgan vazifalar bundan mustasno). Bunday keng vakolatlar politsiyani jamoat xavfsizligi vazirligiga (XXR Davlat kengashi huzuridagi bo‘lim) bo‘ysunishi bilan izohlanadi va bu Ichki ishlar vazirligidan ko‘proq funksiyalarga ega. Shunga ko‘ra, Jamoat xavfsizligi vazirligi XXRning deyarli barcha shahar va tumanlarida byuro va bo‘limlariga ega. Ularda nazorat punktlari mavjud. Byuro va bo‘limlar ham yuqori politsiya organlariga, ham mahalliy hokimiyat organlariga bo‘ysunadi. Va nazorat punktlari tarmoqqa ulangan va to‘g‘ridan-to‘g‘ri politsiyaga xabar berishadi. Aholi punktlaridagi bunday byurolar birinchi navbatda ichki xavfsizlik, umumiy va iqtisodiy jinoyatlarni tergov qilish, yong‘inga qarshi kurash va qutqaruv

xizmatlarining ishi uchun javobgardir. Yevropa Kengashining Inson huquqlari bo‘yicha komissari Dunya Miyatovich «Sariq jilet» harakati bilan bog‘liq voqealarni o‘z ichiga olgan memorandumda Fransiya hukumatini jamoat tartibini saqlashga qaratilgan operatsiyalar paytida inson huquqlariga hurmat ko‘rsatgan holda «Jamoat tartibini mustahkamlash va kafolatlash to‘g‘risida»gi qonun loyihasi orqali tinch yig‘ilishlar erkinligida haddan tashqari cheklovlardan tiyilishga chaqirgan. Tinch yig‘ilishlarda hech qanday huquqbuzarlik aniqlanmagan va ish qo‘zg‘atilmagan bo‘lsada namoyishga borishni istagan odamlarni so‘roq qilish amaliyoti erkin harakatlanish, yig‘ilish va so‘z erkinligini amalga oshirishga jiddiy to‘sqinlik qiladi, deb hisoblaydi. Bundan tashqari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining asosiy vazifasi inson huquqlarini himoya qilish ekanligini ta’kidlab, namoyishchilarga yetkazilgan jarohatlarning soni va jiddiyligi jamoat tartibini saqlashga qaratilgan operatsiyalarda qo‘llaniladigan usullarning muvofiqligi to‘g‘risida savol tug‘ilishini aytib o‘tadi[8]. Shuningdek, Yevropa Kengashining Inson huquqlari bo‘yicha komissiyasi jamoat tartibini saqlashga qaratilgan operatsiyalar murakkabligini va unga safarbar qilingan HMQOlarning yuqori taranglik va charchoq sharoitida ishlashini ta’kidlaydi. U huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga qarshi qilingan zo‘ravonlikni qat’iyan qoralaydi, shuningdek ularning oylik maoshlari bilan ish vaqtlari o‘rtasida taqsimotning buzilganligi, shu bilan birga tegishli psixologik qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidlaydi.

Shu va boshqa ma’lumotlar o‘rganilgan holda jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. «Jamoat tartibini mustahkamlash va kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunini qabul qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

2. Jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta’minlashga oid nazariy bilimlarni huquqni qo‘llash faoliyati bilan uzviy bog‘liqligini ta’minlash maqsadida profilaktika inspektorlarini tanlov asosida o‘quv safarlarini tizimli tashkil etish *(birinchi bosqichda MDH davlatlarida).*

3. Jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta’minlashda korrupsiyaga qarshi kurash muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olish (Italiya tajribasi).

4. Huquqni muhofaza qilish organlari matbuot xizmati xodimlarining ijtimoiy tarmoqlardagi faolligini oshirish.

5. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida aloqa va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yanada rivojlantirish.

6. Jamoat xavfsizligi bilan bog‘liq masalalar yuzasidan HMQOga murojaat qilish uchun alohida “maslahat tarmog‘i”ni yaratish.

7. Huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish, aholi muammolarini o‘rganish va ularni o‘z vaqtida hal etish uchun amaliy ish faoliyatiga keng yo‘l ochish (ish yurituvdagi hujjatlarni kamaytirish va vazifalar taqsimotini tartibga solish).

8. Jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha umumiy manfaatdorlikka asoslangan munosabatlarni o‘rgangan holda jamoat tartibini saqlash usullarini qayta ko‘rib chiqish.

9. Profilaktika inspektorini vakolat doirasiga kirmaydigan murojaatlarni hech qanday surishtiruvsiz tegishliligi bo‘yicha yuborish hamda vazifalar taqsimoti va ularning bo‘ysunuv doirasini qayta ko‘rib chiqish.

10. Ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan sodir etilgan yoki sodir etilishi mumkin bo‘lgan turli ko‘rinishlardagi qonunga zid xatti-harakatlar uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. htths://ru.m.wikipedia.
2. Глазунов О.Н. Китайская разведка. – М.: Алгоритм, 2008. - 256 с.
3. htths://www.Irakn.de.
4. Полиция Япония: учебное пособие / Еремин И.Н. – М.: Академия МВД, 1980.
5. htths://www.fedasilinfo.de.policiya.
6. htths://petrovka-38.com.
7. Шалягин Д.Д. Полиция США – организационные и правовые основы деятельности. Дис. Канд. Юрид. наук. – М.:. 1998, 175 б.
8. htths://www.eurointegration.com/ua/rus/news/2019/02/26/7093298

JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM JIHATLARI

Isanov N.I.
Jizzax mintaqaviy o‘quv markazi “Maxsus va o‘q otish tayyorgarlik” sikli o‘qituvchisi leytenant

Annotatsiya: Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari hamda bu boradagi istiqbollar. “Jamoat tartibi”, “Jamoat xavfsizligi” tushunchalariga berilgan ta’riflarning ilmiy tahlili, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlashda fuqarolar ishtirokining huquqiy asoslarini takomillashtirish, faol fuqarolik pozisiyasini shakllantirish. Maqolada jamoat tartibini saqlashda fuqarolar ishtirokining xorij tajribasi, bu boradagi zamonaviy ish usullari bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ichki ishlar organlari, jamoat tartibi, jamoat xavfsizligini, fuqarolar ishtiroki, jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas’ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini “Barcha sa’y-harakatlar inson qadri uchun” degan ustuvor g‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda [2].

Ma’lumki, so‘nggi yillarda ichki ishlar organlarining faoliyatini kompleks takomillashtirishga qaratilgan bir qator tizimli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatining tashkiliy asoslarini takomillashtirish bu boradagi tizimli ishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi.

Xususan, jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasining yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF- 6196-son (2021 yil 26 mart) farmoni qabul qilindi.

Farmonga binoan ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmlari sifatida quyidagilar belgilandi:

birinchidan, ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari bosqichma-bosqich tashkil etilishi belgilandi. Unga muvofiq, mahalla huquq-tartibot maskani hududdagi jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy quyi bo‘g‘ini hisoblanib, uning negizida ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari, Milliy gvardiya va boshqa davlat organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyatini hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash ishlarini tizimli tashkil etish va muvofiqlashtirish vazifasi profilaktika inspektoriga yuklatildi;

ikkinchidan, Ichki ishlar vazirligi tuzilmasini takomillashtirish orqali ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohaviy xizmatlari faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishning yagona tizimini joriy etish maqsadida, Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi, Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Probatsiya xizmatini o‘z ichiga oladigan Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etildi; *uchinchidan*, hududiy ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyati tuzilmalari va rahbar lavozimlarini maqbullashtirish orqali mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanishni ta’minlash maqsadida, ayrim rahbarlik lavozimlarining tugatilishi hisobidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi ichki ishlar vazirining, viloyatlar,tuman va shaharlar ichki ishlar organlari boshliqlarining o‘rinbosari – Jamoat xavfsizligi xizmati boshlig‘i lavozimi joriy etildi va patrul-post hamda yo‘l-patrul xizmati bo‘linmalari

faoliyatini, shuningdek, mahallalar va jamoat joylarida manzilli profilaktik tadbirlar o‘tkazilishini muvofiqlashtirish, muqaddam sudlangan va probatsiya hisobiga olingan shaxslar bilan ishlash hamda ichki ishlar organlarining tungi xizmatini tashkil etish uning asosiy vazifalari etib belgilandi.

Shuningdek, ushbu Farmon bilan ichki ishlar organlari tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Unga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi jamoat xavfsizligini ta’minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish belgilandi: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash; patrul-post va yo‘l-patrul xizmatlari, huquqbuzarliklar profilaktikasi va probatsiya xizmatlari bo‘linmalarining o‘zaro hamkorlikda ishlashi bo‘yicha yangi mexanizmlarni belgilash; Milliy gvardiya bo‘linmalarining jamoat tartibini saqlash tizimidagi vakolatlari va shaxsiy javobgarligini belgilash; probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini kunlik nazorat qilishda profilaktika inspektorlari bilan hamkorlik mexanizmlarini joriy etgan holda probatsiya bo‘linmalarining faoliyati samaradorligini oshirish.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha o‘rnatilayotgan yangi mexanizmlarning samarali amalga oshirilishini ta’minlashda ichki ishlar organlarining roli va mas’uliyatini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son (2021 yil 2 aprel) qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, Toshkent shahri va Toshkent viloyati ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash borasidagi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida quyidagilarni nazarda tutuvchi yangi boshqaruv tizimi joriy etildi: *birinchidan,* Toshkent shahri va Toshkent viloyatida jamoat xavfsizligini ta’minlash ushbu hududlardagi ichki ishlar va boshqa vakolatli organlarning mavjud kuch va vositalarini yagona “poytaxt mintaqasi” tamoyili asosida safarbar qilgan holda hamkorlikda amalga oshirilishi belgilandi; *ikkinchidan*, Toshkent shahridagi patrul-post xizmati batalonlari Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasining bevosita bo‘ysunuvidan chiqarilib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuman ichki ishlar organlari tarkibiga o‘tkaziladiva ularning kunlik xizmati mahallalar kesimida yo‘lga qo‘yildi; *uchinchidan*, jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog‘liq holatlar yuzaga kelganda poytaxtdagi barcha ichki ishlar organlari faoliyatini, shuningdek, jamoat xavfsizligini

ta’minlash bo‘yicha vakolatli davlat organlari va jamoat tuzilmalari kuch va vositalarining yagona tezkor boshqaruvi Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi zimmasiga, umumiy boshqaruvi ichki ishlar vaziri zimmasiga yuklatildi. Yagona “poytaxt mintaqasi” tamoyili asosida ishlarni samarali tashkil etish maqsadida Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari boshliqlarining hamraisligida Jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi. Toshkent shahar va Toshkent viloyati Milliy gvardiya boshqarmalarining boshliqlari mazkur Kengash raisining o‘rinbosarlari hisoblandi. Kengash yig‘ilishlari har oyda kamida bir marotaba o‘tkazilishi hamda unda poytaxt mintaqasida kriminogen va ijtimoiy vaziyatni tahlil qilish natijasida aniqlangan muammolarni o‘zaro hamkorlikda hal etish bo‘yicha manzilli choralar aniqlanishi belgilandi.

Shu bilan birga, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi huzurida Yagona tezkor boshqaruv markazi tashkil etilib, unga quyidagilar asosiy vazifalari etib belgilandi: *birinchidan*, poytaxt hududida kriminogen va ijtimoiy vaziyatni uzluksiz monitoring qilish, jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb etilgan ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Toshkent shahar hokimligining tegishli kuch va vositalarini boshqarish; *ikkinchidan*, jinoyatlar, hodisalar va favqulodda holatlar haqidagi xabarlarga tezkorlik bilan munosabat bildirish, jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog‘liq holatlar yuzaga kelganda vakolatli idoralarning harakatlarini markazlashgan holda muvofiqlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2022 – 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi”da: jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, tizimlashtirish hamda mavjud huquqiy bo‘shliq va ziddiyatlarni bartaraf etish; jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash va probatsiya faoliyatini uyg‘unlashtirish; jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga jalb qilinadigan vazirlik va idoralar kuch va vositalarining birgalikdagi harakatlanish algoritmini ishlab chiqish va uni doimiy takomillashtirib borish; jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatiga zamonaviy shakl va ish usullarini hamda ilg‘or axborot texnologiyalarini keng joriy etish; jamoat

xavfsizligi tizimini raqamlashtirishni 90 foizga yetkazish orqali xizmat faoliyatida inson omilini minimallashtirish; profilaktik hisob, ma’muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishini keskin kamaytirish kabilar muhim vazifalar sifatida keltirilda [3].

Ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan olimlarning fikricha, “jamoat xavfsizligining mohiyati va mazmunini ilmiy tahlil qilish, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi munosabatlar yig‘indisining huquqiy tartibga solinishini tavsiflash va bu pozisiyalardan kelib chiqib, uning maqsadini obyektiv baholash juda muhimdir, chunki ular pirovard natijada jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlari faoliyatini takomillashtirishga qaratiladi” [4, S.29] deb keltirilgan fikrga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, quyida tahlil qilinadigan masala – ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohasini takomillashtirish ham bevosita mazkur sohadagi subyektlari faoliyatini takomillashtirishga qaratiladi.

Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini o‘rganar ekanmiz avvalo, “Jamoat tartibi” va “Jamoat xavfsizligi” tushunchalarning mazmun-mohiyatini tushunishni talab qiladi.

Tadqiqotlardan ko‘rish mumkinki “Jamoat tartibi” tushunchasiga biron bir normativ-huquqiy hujjatlarda ta’rif keltirilmagan, bu esa o‘z-o‘zidan ushbu tushunchani turlicha talqin qilish va yondashishlarga olib keladi. Bu borada olib borilgan tadqiqot ishlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, mazkur tushunchani ta’riflash turlicha ko‘rinishda bo‘lsada, biroq ko‘pchilik olimlar “jamoat tartibi – jamiyatda huquq-normalari va axloq qoidalari asosida o‘rnatilgan tartib bo‘lib, asosan jamoat joylarida yuzaga keladi va rivojlanib boradigan ijtimoiy munosabatlar” degan ta’rifga qo‘shiladigan [5, B.83].

Jamoat xavfsizligi jamoat tartibidan farqli ravishda amaldagi qonunchilikda ta’rif keltirilgan ya’ni, jamoat xavfsizligi – jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi [2].

Yuqoridagi ta’rifga muvofiq, jamoat xavfsizligiga bo‘ladigan tahdidlarga har tomonlama va o‘z vaqtida javob berishda jamoat xavfsizligini ta’minlash organlari tomonidan jamoat birlashmalari, nodavlat

tashkilotlar va fuqarolarning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyat ahamiyat kasb etadi.

Nazarimizda fuqarolarning jamoat tartibini saqlashda ishtirok etishi davlat boshqaruvida ishtirok etishni amalga oshirish usullaridan biridir. Tadqiqotlardan ko‘rish mumkinki, davlat boshqaruvining bu xususiyati tadqiqotchilarni qiziqtirib kelmoqda. Shunday qilib, Ya.Ya. Kayl va S.V. Yepininalar jamoat tartibini saqlashda fuqarolarning ishtiroki mexanizmini Buyuk Britaniya, AQSh, Ispaniya, Norvegiya va boshqa mamlakatlarda qo‘llanilishini tahlil qiladilar.

Ularning fikricha, davlat boshqaruvi tizimi faoliyatida fuqarolarning ishtiroki qanchalik faol amalga oshirilsa, ya’ni fuqarolarning davlat ishlariga qanchalik keng jalb etilsa, siyosiy va iqtisodiy sohalar shunchalik muvaffaqiyatli rivojlanadi.

Aytish joizki, fuqarolarning jamoat tartibini saqlashdagi ishtiroki avvalom bor ushbu ishtirokning chora-tadbirlarini belgilash, ishtirok etish usullari va hokimiyat hamda aholi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik shakllarini belgilash muhim hisoblanadi. Jamoat tartibini saqlashda fuqarolar ishtirokining amaldagi qonunchilik doirasida huquqiy tartibga solinganligini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu borada ko‘rish mumkinki, mazkur faoliyat turi qonun darajasida tartibga solinmagan.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” nomli ma’ruzasida ta’kidlanganidek, “Ayni vaqtda qonunlarning to‘liqligi, hayotiyligi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirish mexanizmlariga ega ekani haqida so‘z yuritganda, bu borada hali ko‘p ish qilishimiz kerakligini ta’kidlash zarur”. Davlat rahbarining ushbu keltirilgan fikrlari tahlil qilinayotgan masalaga ham bevosita ta’lluqli hisoblanadi.

Darhaqiqat, ushbu sohada erishilgan yutuqlar bilan birga hali o‘z yechimini kutayotgan muhim masalalar ham mavjud.

Bundan tashqari Respublikada sodir etilgan jinoyatchilik darajasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, so‘ngi (2021) yilda jamoat joylari va ko‘chalarda sodir etilgan jinoyatlar o‘tgan yilga nisbatan sezilarli darajada oshganligi [9], mazkur masalaga jiddiy e’tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalar hamda tahlillardan kelib chiqib, aytish mumkinki, fuqarolarning jamoat tartibini saqlashdagi ishtirokini yanada takomillashtirish uchun quyidagilarni taklif va tavsiya sifatida keltirish mumkin.

Birinchidan, ushbu o‘ta mas’uliyatli va serqirra faoliyatni tartibga solish, faoliyatga oid huquqiy maydondagi bo‘shliq, noaniqlik va ziddiyatlarni bartaraf etish, shuningdek alohida qonun doirasidagi asosiy qoidalarni yagona tizimga solishni ta’minlash maqsadida “Jamoat tartibini saqlashda fuqarolarning ishtiroki to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu qonun loyihasida quyidagi munosabatlarni tartibga solish taklif etiladi. Xususan, – qonunda “jamoat tartibi”, “jamoat xavfsizligi”, “fuqarolar shaxsiy xavfsizligi”, “jamoat tartibini saqlash”, “fuqarolar ishtiroki”, “kundalik sharoitlarda, ommaviy tadbirlar sharoitida, favqulodda vaziyatlar sharoitida jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash” kabi asosiy tushunchalariga ta’rif berish; – jamoat tartibini saqlashda fuqarolarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash; – jamoat tartibini saqlashda ishtirok etuvchi fuqarolarni, shuningdek ularning oila a’zolarini ijtimoiy-huquqiy jihatdan himoya qilish tizimini belgilash.

Shuningdek, jamoat tartibini saqlash va unda fuqarolarning ishtiroki to‘g‘risidagi munosabatlarni qonun doirasida tartibga solinishi yuzasidan Belarus, Ukraina, Rossiya va Isroil davlatlari qonunchiligi o‘rganilganda, ushbu davlatlarning qonunchilik tizimida mazkur munosabatlar qonun doirasida tartibga solinganligini ko‘rish mumkin.

Ikkinchidan, tahlil va hisobotlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda ko‘cha va jamoat joyida sodir etilayotgan jinoyatlarning aksariyat qismi kafe-bar, tungi klublar va restoranlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, “Faol fuqaro” deb nomlangan mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq. Xususan unga ko‘ra, hududdagi har bir ko‘ngilochar obyekt (kafe,bar...) rahbari, yuridik shaxs maqomidan foydalanib, o‘z buyrug‘iga asosan ishchi xodimlari orasidan bir nafarini obyekt hududida jamoat tartibini saqlashga mas’ul sifatida biriktiradi. Ushbu mas’ul shaxs – “Faol fuqaro”ning asosiy vazifasi hududda biriktirilgan jamoat xavfsizligini ta’minlashga javobgar organlar bilan doimiy aloqada bo‘lib, obyekt hududida sodir etilgan har qanday noqonuniy harakatlar hamda uni sodir etish sabab va sharoitlarini artaraf etish bo‘yicha murojaat qilish hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini takomillashtirish doirasida jamoat tartibini saqlashda fuqarolarning ishtiroki mexanizmini joriy etilishi, ko‘ngilochar obyektlarda sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarni barvaqt oldini olish, jabrlanganlarga tezda yordam ko‘rsatish,

fuqarolarning qonuni huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi (Speech by President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the Solemn Ceremony Dedicated to the 24th Anniversary of the Adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan) // Xalq so‘zi.– 2016. – 8 dek.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021 yil 29 noyabr) farmoni (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On approval of the Concept of Public Security of the Republic of Uzbekistan and measures for its implementation" (November 29, 2021)) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “2022 – 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi” (Approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated November 29, 2021 "Strategy for the development of public safety in the Republic of Uzbekistan in 2022-2025") // https://www.lex.uz/docs/5749291.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA ICHKI ISHLAR ORGANI XODIMLARINING IJTIMOIY SOG‘LOM TURMUSH TARZI

Aripova D.F.
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasi mustaqil izlanuvchisi, Toshkent viloyati IIBB Tibbiyot bo‘limi shifokor-endikirinolog
Anvarov T.A.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi unversiteti, Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi dotsenti, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini ta’minlashda Ichki ishlar o‘rgin hodimlarining o‘rni va hodimlarning

salomatligi hamda jismoniy holatiga xavf soluvchi omillar ularning kasallanishi, jarohatlanishi va turli darajadagi salomatlik bilan bog‘liq muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladigan omillar muhokama qilinadi hamda xodimlarni ijtimoiy sog‘liq holatini yahshilashda tadbiq etiladigan masalalr va zaruriy chora-tadbirlar bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar. Jamoat xavfsizligi, Ichki ishlar vazirligi, hodimlarning salomatligi, mehnat sharoitlari va xavf omillar.

Dunyoda turli kasb egalari o‘z faoliyatlari davomida mehnat sharoitlari bilan bog‘liq kasallanishlar yoki jarohatlanishlarga uchrashlari mumkin[1]

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab har 15 soniyada 153 nafar xodim ishlab chiqarish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalarga uchraydi. Bundan tashqari, har yili 6 300 nafar xodim ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va 2,3 million insonlar kasb kasalliklari va ularning asoratlari natijasida hayotdan ko‘z yumadilar. Agarda kasbiy jarayonlar tartibga solinmasa, ularning kasallanishiga va erta mehnatga yaroqsizlikka olib kelishi, hattoki hodimlarning o‘limi bilan bog‘liq xatarlarni yuzaga kelishi mumkin[2].

Barcha davlatlarda jamoat xavfsizligi va tartibini ta’minlashda ichki ishlar xodimlariga fuqarolarni himoya qilish va zarur holatlarda qonun doirasida kuch ishlatish vakolati berilgan[3]. Bunday vazifalarni bajarishda ichki ishlar xodimlaridan jismoniy va ruhiy salomatlik talab qilinadi, chunki har bir xodimning xizmat faoliyati uning salomatligiga ta’sir etuvchi o‘ziga xos salbiy kasbiy omil va xavf-xatarlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Misol uchun, Ichki ishlar xodimlari ham surunkali kasalliklar yoki semizlik va yurak-qon tomir kasalliklari kabi keng tarqalgan kasalliklardan aziyat chekishi mumkin. Hodimlarning xizmat va ish faoliyati davomida asosan, ko‘p va doimiy jismoniy harakatda bo‘lish, ishdagi stress, uyqu buzilishi va noto‘g‘ri ovqatlanishlar xodimlarning salomatligi va mehnat faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shunday ekan, bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda barcha sohalar qatori jamoat xavfsizligini ta’minlovchi Ichki ishlar o‘rgin hodimlarning faoliyati yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning asosini yuridik fanlar yo‘nalishidagi tadqiqotlar tashkil etmoqda. Boisi jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash, ularning profilaktikasini amalga oshirish, tartibbuzarlikka qarshi kurash va ularning normativ-huquqiy asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirib borish aynan yuridik fanlar

tizimida amalga oshiriladi. Ammo, O‘zbekiston sharoitida ichki ishlar organ xodimlarining kasallanish darajasi ularning xizmat sharoitlariga bog‘liq jarayonlarni o‘rganish, kasbiy faoliyat bilan bog‘liq xastaliklarning rivojlanishi va xizmat faoliyatida yuzaga keluvchi xavf omillarini ilmiy asoslab, xodimlarda metabolik sindromni rivojlanish xavfini, tizimda olib borilayotgan tibbiy profilaktik tadbirlar samaradorligini, shuningdek, kasbiy faoliyat bilan bog‘liq xastaliklar profilaktikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni tatbiq etishni taqoza etmoqda. Shuningdek, Ichki ishlar organlari hodimlarining ijtimoiy himoyasi, ularning huquq va manfaatlarini taminlanishni yanada takomilashtirish zarur.

Jumladan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda aholi salomatligi va aholi orasida turli yuqumli kasaliklar yuzaga kelishi bilan bog‘liq muammolarning bartaraf etish borasida bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu sohada amalga oshirilgan ishlarning tub burilishi “Covid-19” pandemiyaning tarqalishi bilan yuzaga kelgan salbiy holatlarni bartaraf etish va oldini olishda ko‘riladigan chora-tadbirlar mustahkamlandi.

Buning boisi, mamlakatimizga “Covid-19” pandemiyaning kirib kelishi va tarqalishini oldini olish va bartaraf etish borasida, davlat organlari va jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yilishi natijasida. Jamoat xavfsizligi va tartibini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarda yangi mexanizm va tartiblar joriy etildi. Bunga asos sifatida bir qator normativ-huquqiy hujjatlarni misol keltirishimiz mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 29-noyabrdagi farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi” tasdiqlandi[4]. Unda jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi ilg‘or xorijiy va milliy tajribalar asosida ishlab chiqilgan aholining har qanday tahdidlardan himoya qilinishi haqida tizimli va strategik rejalar belgilab berilganligi ta’kidlangan.

Shundan kelib chiqib Konsepsiyada jamoat xavfsizligi sohasidagi asosiy tushunchalarga izoh berib o‘tilgan. Jumladan, Jamoat xavfsizligi — jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi. Shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlashga davlat

tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilangan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boradigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim, deb izoh berilgan.

Ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar doirasida O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi (2016-yil 16-sentabr) qonunning qabul qilinishi bugungi kunda ichki ishlar organlarining aholi orasida huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish huquqbuzarlikka qarshi kurashish maqsadida ichki ishlar organlari to‘laqonli subyekt sifatida o‘zining faoliyatini amalga oshirib mamlakatimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shishida ushbu qonun dasturiamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

“Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunda hodimlarni ijtimoiy himoyasi, ularning huquq va manfaatlarini taminlanishi hamda normal xizmat faoliyati tartibga solindi. Huquqiy asos yaratildi.

Biroq, Ichki ishlar organ hodimlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlashda, hodimlarning salomatlik holati va xizmat faoliyati bilan bog‘liq kasallanishlar profilaktikasini optimallashtirish borasida qator ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirish borasida. Shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlarining mehnat faoliyati bilan bog‘liq kasallanish darajasini baholash, ularning faoliyati bilan bog‘liq kasallanishiga sabab bo‘luvchi o‘ziga xos xavf omillarni baholash, xastalangan xodimlarning hayot sifati ko‘rsatkichlarini baholash, hamda xodimlarning xizmat va yashash sharoitlari, xavf omillarini baholash bilan bir qatorda kasalliklarning profilaktikasini takomillashtirish va amaliyotga tatbiq etish ayni vaqtda tibbiyot mutaxassislari oldida turgan dolzarb muammolardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, hozirda mamlakatimizda Ichki ishlar organ hodimlarining ijtimoiy sog‘liq holatini kafolatlash hamda xizmat faoliyatidagi xavf soluvchi omillarni o‘rganishda quydagi ***muomolar turibdi***:

O‘zbekiston sharoitida turli toifadagi ichki ishlar organlari xodimlarining kasallanish darajasi ularning xizmat sharoitlariga bog‘liqligini o‘rganish.

Shuningdek, kasbiy faoliyat bilan bog‘liq xastaliklarning rivojlanishi va zo‘rayishiga olib keluvchi xavf omillari ilmiy asoslash.

Shu bilan birga xodimlarda metabolik sindromni rivojlanish xavfi tana tuzilishining bioimpedansometrik tahlili orqali baholash.

Ichki ishlar organlari tizimda olib borilayotgan tibbiy profilaktik tadbirlar samaradorligi baholash.

Shuningdek, kasbiy faoliyat bilan bog‘liq xastaliklar profilaktikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlar majmui ishlab chiqish orqali, ichki ishlar xodimlarining kasallanishlar darajasini epidemiologik jihatdan baholash.

Xodimlarning kasbiy va xizmat faoliyati bilan bog‘liq kasalliklarga olib keluvchi xavf omillarini o‘rganishda, sifatli, xavfsiz tibbiy yordam olish uchun zarur infratuzilma va moddiy ta’minot vositalari bilan ta’minlanganlik darajasini baholash zarur.

Ushbu yuqoridagi muomolarni bartaraf etishda quyidagi amaliy usularni tadbiq etish muxim xisoblanadi.

-Ichki ishlar vazirligi xodimlarining kun tartibi, faoliyat samaradorligi, salomatlik holati va hayot sifatini maxsus so‘rovnomalar yordamida baholash;

-xodimlarda ortiqcha vazn va metabolik sindrom rivojlanish ehtimolini o‘rganish maqsadida ularning tana tuzilishini bioimpedansometriya usulida baholash;

-xodimlarning mehnat faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan kasallanishlar profilaktikasi bilan bog‘liq tadbirlar samaradorligini baholash;

-xodimlarning mehnat faoliyati bilan bog‘liq kasallanishlar profilaktikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, jamoat xavfsizligi va tartibini ta’minlashda Ichki ishlar o‘rgin hodimlarining o‘rni va axamiyatini oshirishda, avvolo xodimlarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning sifatli ta’minlash orqali. Ularning ijtimoiy axvolini yaxshilashda salomatlik holati va hayot sifatiga tasir etuvchi omilarni bartaraf etish orqali kasbiy va xizmat faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. International Labour Organization. Safety and Health at Work., 2016
2. Алехандерсон К, Сведберг ПИА, Ко Ж, 2009
3. LaTourrette T, Loughran DS, Seabury SA,2008
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-27-son «O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. 29.11.2021 yil. https://lex.uz/docs/ 5749291.

YANGI O‘ZBEKISTONDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH BORASIDAGI ISLOHOTLARNING TAHLILI

Axmedova H.Sh.
O‘zbekiston Respublikasi strategig tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi tinglovchisi

Mamlakatimizda 2017-2021 yillar davomida “O‘zbekistonni rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishlariga asoslangan Harakatlar strategiyasi”[1] asosida islohotlarning barcha yo‘nalishlarida keng ko‘lamli amaliy ishlar amalga oshirildi. Ushbu yillar davomida barcha sohalardagi qonunchilik asoslari takomillashtirildi. Turli sohalarga doir to‘rt yuzga yaqin qonun va uch mingdan ortiq qonun osti hujjatlari qabul qilindi. 2022-yil 28-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoni bilan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”[2]qabul qilinib, islohotlarning yettita yo‘nalishiga qaratilgan 100 ta maqsad belgilandi. Mamlakatimizda 2023-yil Yangilangan Konstitusiya xzalqimiz muhokamasidan o‘tib tasdiqlandi. 2023-yil 9-iyul kuni Prezidentlik saylovlari barcha saylov qonunchiligi talablari asosida o‘tib, xalqimizning yana bir karra demokratik, huquqiy islohotlarga hayrihohligini tasdiqladi.

2023-yil 11-sentabrь kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №158-son Farmoni[3] bilan xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi tasdiqlandi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so‘zi 2017-yil 8-fevral. № 28 (6722)-son.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli., // Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2022-yil 1-fevral. №-544. – B. 1-3.
[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni. №-158-son. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasi-togrisida_519158

jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat tartibi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni **“Xalq manfaatlariga xizmat qilish”** tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas’ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini **“Barcha sa’y-harakatlar inson qadri uchun”** degan ustuvor g‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda[1].

Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatining jamiyat hayotida tutgan o‘rni hamda uni mohiyati va ahamiyati borasidagi ilmiy o‘rganishlardan ko‘rish mumkinki, olimlar tomonidan bu borada turli e’tiroflar keltirilgan. Xususan, huquqshunos olimlar V.M. Boer va V.N. Shamray jamoat xavfsizligini ta’minlash – har qanday davlatning barqaror mavjudligining muhim va majburiy elementlaridan biridir[2], A.I. Yastrebova har qanday davrda huquqni muhofaza qilish va jamoat xavfsizligini ta’minlash davlatning, xususan, politsiya organlarining asosiy faoliyat yo‘nalishi hisoblangan[3], S.M. Mikailov jamiyat va fuqarolarning talablarini qondiradigan darajada jamoat xavfsizligini ta’minlanishi ularning normal faoliyati uchun eng muhim shartdir[4], N.E. Yegorova, O.F. Kudinov, Ye.Ye. Novichkovalar esa jamoat xavfsizligini ta’minlash – har doim, har qanday mamlakatda va har qanday jamiyatda dolzarb masala ekanligini e’tirof etganlar[5].

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini takomillashtirish, uning zamonaviy, tezkor va xalqchil qiyofasini yaratish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan islohotlar doirasida ayniqsa, jamoat xavfsizligini

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон (2021 йил 29 ноябр) фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон.

[2] Боер В.М., Шамрай В.Н. Теоретико-правовое обеспечение общественного порядка и общественной безопасности в современных условиях // Бизнес в законе. – 2012. – №3. – С.

[3] Ястребова А.И. К вопросу о взаимодействии общественных организаций и органов полиции в сфере охраны общественного порядка в российской федерации // Вестник Московского университета МВД России. – № 3. – 2016. С. 91.

[4] Микаилов С.М. Организация деятелности вневедомственной охраной полиции в сфере охраны общественного порядка // Законност и правопорядок в современном обществе. [Электрон манба]. – http: https://www.elibrary.ru/item.asp?id=21600090.

[5] Егорова Н.Э., Кудинов О.Ф., Новичкова Е.Е. К вопросу о содержании, формах и методах организации охраны общественного порядка (на материалах МВД по Республике Бурятия) // Вестник Восточно Сибирского института Министерства внутренних дел России. – 2015. – № 2 (73). – С. 37.

ta’minlashda aholiga xizmat ko‘rsatish va keng jamoatchilik bilan hamkorlik qilishning ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, soha xizmatlarini yangi avlod texnologiyalari va dasturiy tizimlar bilan ta’minlash orqali ularning ish samaradorligini oshirish hamda xizmat faoliyatini maqsadga muvofiq modellar asosida tashkil etish (modellashtirish) kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etdi[1].

Shu bilan birga, “Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini aniq belgilash[2], jamoat xavfsizligini ta’minlashning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish, zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash[3] hamda huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shartsharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish[4]” ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Ma’lumki, davlatning taraqqiy etishi, aholi huquq va erkinliklarining kafolati, davlatlararo mustahkam hamkorlik – mamlakatda jamoat xavfsizligining qay darajada ta’minlanganligi bilan bevosita bog‘liq.

Shu bois, Yangi O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish davlat siyosatining eng muhim masalalaridan biri sifatida belgilanib, bu boradagi ustuvor vazifalar davlatning istiqbolli dastur, konsepsiya va strategiyalarida o‘z aksini topgan. Jamoat xavfsizligini ta’minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha huquqiy, uslubiy, ilmiy, tashkiliy choralarni ishlab chiqish va samarali amalga oshirish masalalari belgilab olindi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari faoliyatini boshqarishning mutlaqo yangi qiyofasi shakllantirilib, sohada **“respublika – viloyat – tuman – mahalla”** tizimi asosida yaxlit boshqaruv va uzluksiz nazorat qilish mexanizmi joriy etildi. Xususan, Ichki ishlar vazirligi markaziy boshqaruv bo‘g‘ini tuzilmasini takomillashtirish orqali turdosh

---

[1] Sharipov S.S. Scientific Analysis of the Role, Essence and Significance of the Activity of Maintaining Public Order in the Life of Society // https://ijmmu.com/public/journals/1/page HeaderTitleImage_en_US.png.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон (2021 йил 29 ноябр) фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон.

[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6196-сон (2021 йил 26 март) фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 й., 06/21/6196/0240-сон.

[4] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон (2022 йил 28 январ) фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон.

sohaviy xizmatlar faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishning yagona tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Hududiy ichki ishlar organlarining tuzilmasi va rahbar lavozimlarini maqbullashtirish orqali mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanish maqsadida, ayrim lavozim va bo‘linmalar negizida yagona boshqaruv tizimlari tashkil etildi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini “Xavfsiz poytaxt”, “Ravon va xavfsiz yo‘l” konsepsiyalari, “Xavfsiz xonadon”, “Xavfsiz hovli” tizimlari, “Smart mahalla” axborot hamda “Xavfsiz shahar” apparat-dasturiy komplekslari asosida tashkil etilishi yo‘lga qo‘yildi.

Mahalla va qishloqlarda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini bevosita amalga oshiradigan, shuningdek, fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta’minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlashini tashkil etadigan ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘ini sifatida **Mahalla huquq-tartibot maskani** tashkil etildi. Mahallalarning “qizil”, “sariq”, “yashil” toifalarga ajratilishi aholi muammolarini “mahallabay”, “oilabay” va “fuqarobay” ishlash orqali hal etish hamda eng og‘ir va nizoli vaziyatlarni huquqbuzarlikka aylanmasidan mahallalarning o‘zidayoq aniqlash va bartaraf etish imkonini bermoqda. Mahallabay ishlash tizimi “manzilli va ta’sirchan profilaktikani qaysi hududdan boshlash kerak”ligi masalasiga oydinlik kiritishda o‘z samarasini bermoqda. Mahallalarda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi ishlarni hamkorlikda amalga oshirish uchun **mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli hamda profilaktika inspektori**dan iborat “Mahalla beshligi” tarkibi shakllantirildi. Ushbu beshlikning “temir”, “ayollar”, “yoshlar” va “mehr” daftarlariga kiritilgan mahalladagi ehtiyojmand, kam ta’minlangan oilalar, ijtimoiy ko‘makka muhtoj xotin-qizlar va yoshlar bilan individual ishlarni tashkil etish singari faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida Demokratiyaning asosiy talabi bo‘lgan inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini, so‘z va vijdon erkinligini ta’minlashga alohida e’tibor berilmoqda. Xususan, jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda **“Inson qadri uchun”** tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya

qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida, “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” qabul qilindi. Uning 16-maqsadi, “Jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish” deb nomlangan bo‘lib, uni quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirish belgilandi:

birinchidan, *huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish.*

Ushbu bandni amalga oshirish mexanizmi sifatida quyidagi chora-tadbirlar belgilanib o‘tildi:

– jinoyat va ma’muriy huquqbuzarlik haqida xabar berish va ularni ro‘yxatga olishning “Ye-huquqbuzarlik” yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish;

– bir yil davomida takroran sodir etilishi og‘irlashtiruvchi holat sifatida baholanadigan ma’muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarning hisobini bir yil davomida yuritish va muddat o‘tishi bilan avtomatik ravishda hisobdan olib tashlash tartibini yo‘lga qo‘yish;

ikkinchidan, *jamoat tartibini saqlash bo‘yicha patrullik xizmati faoliyatini tubdan takomillashtirish, shu jumladan zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etgan holda fuqaroni ichki ishlar bo‘limiga tekshirish uchun olib borish amaliyotidan voz kechish.*

Ushbu bandni amalga oshirish mexanizmi sifatida quyidagilar belgilangan:

– “Yo‘l patrul” tizimi joriy etilib, tekshirish uchun fuqaroni ichki ishlar bo‘limiga olib borish amaliyotidan voz kechish va barcha ma’lumotlarni joyida tekshirishni yo‘lga qo‘yish;

– ichki ishlar organlari patrulь-post xizmati xodimlarining faoliyatini “bodikamera” yordamida nazorat qilishni yo‘lga qo‘yish;

– patrul xizmatini bosqichma-bosqich avto va motopatrulь shakliga o‘tkazish orqali naryadlarning mobilligini va hodisa joyiga tezkorlik bilan yetib borishini ta’minlash;

uchinchidan, *yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo‘llarda avariya va o‘lim holatlarini qisqartirish, shu jumladan harakatni boshqarish tizimini to‘liq*

raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta’minlash.

Ushbu bandni amalga oshirish mexanizmi sifatida quyidagilarni nazarda tutuvchi, 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan dastur ishlab chiqish belgilandi: – avtomobil yo‘llarida harakatni boshqarish tizimini to‘liq raqamlashtirish; – yo‘llarda xavfsiz harakatlanish uchun barcha ishtirokchilar uchun munosib sharoitlarni yaratish; – yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish jarayonida va xavfsizlikni ta’minlashda keng jamoatchilikning ishtiroki uchun zarur sharoitlarni yaratish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini samarali ta’minlash imkonini bermoqda.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ПО БОРЬБЕ С НЕЗАКОННЫМ ОБОРОТОМ НАРКОТИКОВ

Мусаев Дж.К.
Доцент кафедры специально-правовых дисциплин Таможенного института э-маил: франк2271@маил.ру тел: +998903249360

В начале XXИ в. страны мира оказались в сфере деятельности транснациональных организованных преступных организаций, специализирующихся на незаконном обороте наркотиков. Однако противостоять эму способны отнюдь не все государства.

Современное антинаркотическое законодательство за рубежом стало складываться только в начале XX в. Первый в США федеральный закон относительно оборота наркотиков, принятый Конгрессом в 1914 г., запрещал культивацию, владение, продажу, распространение опиатов и кокаина для немедицинских целей и предусматривал наказание для врачей (фармацевтов), отпускавших указанные вещества для использования в немедицинских целях.

Постепенно глобальная опасность распространения наркотизма стала осознаваться и международным сообществом. В период с 1912 по 1972 гг. было заключено свыше 12 многосторонних договоров в сфере контроля за оборотом наркотиков. К числу наиболее значимых международных актов следует отнести:

- Эдиную конвенцию о наркотических средствах 1961 г.;
- Конвенцию о психотропных веществах 1971 г.;
- Конвенцию о борьбе против незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ 1988 г.

Анализ зарубежного законодательства показывает, что в настоящее время практически во вцех странах мира имеется набор правовых норм, в той или иной мере регламентирующих вопросы, связанные с оборотом наркотических средств и психотропных веществ [1].

Существование этих норм обусловлено необходимостью государственного контроля за оборотом наркотиков и наличием международно-правовых обязательств на уровне межгосударственных отношений. Однако подходы современных законодателей к определению средств уголовно-правового воздействия не отличаются однообразием, а порой принципиально различаются.

Для реализации мероприятий, предусмотренных планом, шведское правительство эжегодно выделяет на предотвращение незаконного оборота наркотиков и сокращение спроса денежные средства в размере около 260 млн. шведских крон(почти 40 млн. долларов США), это в три раза больше средств, чем в среднем в странах Эвропейского союза.

Этот показатель подтверждает целенаправленность и серьезность намерений правительства в борьбе с общественно опасным «врагом». В Швеции большое значение уделяется именно профилактике наркомании. Весь комплекс мер разбит на три вида: Первичная профилактика - предупредительная, эе цель - предотвратить потребление наркотиков вообще. В первичной профилактике главным методом борьбы является информация - подробная и конструктивная.

Необходимо донести до общества знание и тем самым разрушить все мифы о безопасности наркомании. Кроме того, необходимо подавать положительный пример молодому поколению, создавать ориентир правильного поведения. Наибольшее значение отводится вторичной профилактике. Она заключается в выявлении начинающих наркоманов и во вмешательстве, способном остановить дальнейшее потребление наркотиков. В этой стадии профилактики как раз и развивается основная борьба с проблемой. Третичная профилактика - это уже непосредственное лечение больных наркоманией [2].

Как максимальное проявление наказанию при незначительных отклонениях от линии закона, отдыхающего может встретить тюремное заточение в течение 6 месяцев. Под незначительным отклонением понимается ситуация, когда человек был пойман в состоянии расслабления или просто имел при себе препараты способствующие этому расслаблению.

Эсли же отдыхающий провинился серьезнее перед строгим ликом закона, то эго неминуемо ждет лишение свободы от 2- х до 10 лет. Но здесь речь уже идет о распространении наркотических средств. Эще одним мощным оружием в борьбе с наркоманией является само общество. Так, в Швеции очень сильными являются общественные организации, которые ставят своей целью проведение последовательной ограничительной антинаркотической и антиалкогольной политики.

Большинство организаций в настоящее время концентрируется на борьбе с наркотиками. Так, например, с 1969г. в Швеции действует Союз общественных организаций «За общество без наркотиков».

По мнению Правительства США, борьба с преступным распространением и незаконным потреблением наркотиков должна осуществляться по следующим направлениям:

- воздействие на правительство стран, экспортирующих незаконные наркотики;
- перехват контрабандных наркотиков на границе США;
- борьба с преступными организациями и лицами, распространяющими наркотики внутри страны;
- воздействие на потребителей с целью снизить спрос на наркотики [3].

Основное внимание национальная стратегия уделяет борьбе с преступным распространением наркотиков на территории США, а также мерам медицинского и воспитательного воздействия на потребителей наркотиков и на лиц, которые предположительно могут стать наркоманами. Руководство борьбой с группами организованной преступности, распространяющими наркотики на территории страны, возложено на министра юстиции США.

Проведение медицинских и воспитательных мер возложено на правительства штатов, органы местного самоуправления и на органы здравоохранения. Признавая проблему наркомании в стране,

Правительство Китая заняло активную позицию по организации противодействия эе распространению.

Проводимая в государстве антинаркотическая политика осуществляется по взаимосвязанным направлениям, представляющим комплексную государственно-общественную систему. В основу политики положено отстаивание решительной позиции запрета наркотиков. Обеспечение безопасности личной жизни граждан, гарантированное существование и развитие народа - таковы задачи китайского Правительства, которое разработало и проводит в жизнь ряд политических установок:

- борьба с наркотиками рассматривается как дело, касающееся судьбы китайской нации, поэтому включена в программу социально-экономического развития с созданием системы оперативной ответственности правительств вцех ступеней;

- проведение стратегии комплексных мер в борьбе с наркотиками, с использованием юридических, административных, экономических, культурных, образовательных и медицинских средств, а также мобилизацией вцех сил общества;

- борьба с наркотиками на правовой основе;

- совершенство законодательной системы;

-контроль потребления, хранения и расхода наркотических и психотропных медикаментов, а также химических препаратов, используемых для производства наркотиков;

- предупреждение преступлений и кара за совершенные деяния;

- лечение, восстановление здоровья и спасение жизни наркоманов;

- одновременная организация деятельности по четырем основным направлениям борьбы с наркотиками: запрещение потребления, торговли, культивирования и производства наркотиков, пресечение их источников, блокирование и перекрытие каналов снабжения и распространения наркотиков;

- приоритетность мер по предупреждению потребления наркотиков среди молодежи и подростков [4].

Главный упор делается на воспитательную работу,

- налаживание профилактической деятельности, воспитание в молодежи чувства бережного отношения к жизни и неприятия наркотиков;

принимаются действенные меры, организуется и координируется деятельность заинтересованных правительственных подразделений и общественных организаций;

- активное развитие международного сотрудничества в борьбе с наркотиками, претворение в жизнь принципа широкого участия, проведение сбалансированной международной стратегии борьбы наркотиками.

Анализ уголовного права США (как федерального, так и по отдельным штатам) показывает, что, традиционно позиционируя себя как наиболее гуманную и правозащитную страну, США имеют гораздо более жесткое, по сравнению с российским законодательство.

Американская Национальная стратегия контроля над наркотиками рассматривает проблему их употребления в качестве комплексной и долгосрочной, признавая огромное воздействие наркопотребления на национальное здравоохранение и безопасность граждан.

Меры противодействия развитию наркомании в США включают: Тестирование учащихся на употребление наркотиков. Носящее некарательный характер тестирование учащихся используется в качестве профилактической программы.

Эсли тестирование дало положительные результаты, информация об этом доводится только до родителей учащегося и специального консультанта. Ребенку предлагается пройти консультацию или, в случае необходимости, лечение. Результаты тестов не используются для наказания учащихся и никогда не сообщаются в правоохранительные органы.

Общенациональная антинаркотическая медиакампания. Кампания проводится путем платного размещения рекламной информации. С помощью своей идеи "Будь выше влияния", она обращается к чувству индивидуальности каждого подростка, чтобы противодействовать отрицательным посылам массовой культуры и "развенчать" идею употребления наркотиков.

Ключевым партнером в этой работе являются средства массовой информации. Пропагандируемые в ходе медиакампании с помощью телевидения, журналов и газет, радио, Интернета посылы поддерживают более широкие социальные идеи, направленные на противодействие незаконному обороту наркотиков.

В Соединенных Штатах наркосуды стали альтернативным способом вынесения наказаний, и предназначены специально для работы с лицами, допустившими незначительные правонарушения, связанные с наркотиками. Наркосуды обеспечивают наиболее всесторонний и эффективный контроль над преступниками, употребляющими наркотики [5].

В качестве альтернативы тюремному заключению они предлагают лицам, совершившим правонарушения, связанные с наркотиками, возможность эффективного лечения, тестирования на употребление наркотиков, общественного наблюдения за ними, а также структурированного мониторинга.

На слушаниях по делам, связанным с ненасильственными преступлениями, предположительно на почве наркомании, помимо традиционных участников суда, присутствует так называемый "консультант" (ассессор), не являющийся врачом, но имеющий лицензию на право оценивать готовность подсудимого к участию в программе лечения и последующей интеграции в общество. - Программа "Местное сообщество, свободное от наркотиков".

Программа "Местное сообщество, свободное от наркотиков" объединяет различных членов с целью борьбы с наркопроблемами на местном уровне. Подобные объединения, финансируемые за счет небольших федеральных грантов, побуждают местных лидеров, профессионалов в области здравоохранения, работников правоохранительных органов, педагогов, представителей церкви и других предлагать решения по противодействию наркомании на местном уровне.

Эти объединения сначала формулируют наркопроблематику, характерную для их жителей, а затем предлагают решения по противодействию этим проблемам.

Использованная литература:

1. Гилинский Я.И. Наркотизм: социальные и криминальные проблемы // Наркотизм. Наркомания. Наркополитика: сб. статей / под ред. А.Г. Софроно ва. – СПб., 2006. – С. 28.

2. Диченко А.А., Колесников К.А. Антинаркотический Закон Китайской Народной Республики как правовая база национальной антинаркотической модели // Юридический мир. – 2011. – № 12. – С. 55-58.

3. Дмитриева Т.Б., Клименко Т.В., Козлов А.А. Антинаркотическая по литика: зарубежный и национальный опыт // Сборник ФСКН России. – 2009. – № 6. – С. 12-19.

4. Наумов А.В. Российское уголовное право. Курс лекций. – Т. 1. Общая часть. – М.: Юридическая литература, 2004. – 496 с.

5. Федоров А.В. Тенденции развития российской антинаркотиче ской политики на современном этапе // Наркоконтроль. – 2011. – № 4. – С. 5-14.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLAShDA OZODLIKDAN MAHRUM ETISh BILAN BOG‘LIQ BO‘LMAGAN JAZOLARGA HUKM ETILGAN ShAXSLARNING IJTIMOIY AHVOLI

Anvarov T.A.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi dosenti, yu.f.b.f.d. (PhD)
Sunnatov U.T.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotasiya: Maqolada sud-huquq tizmidagi islohatlar doirasida jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlash yo‘nalishida probasiya institutini tashkil etilishi. Xususan, mazkur institutning rivojlanishi hamda “Probasiya to‘g‘risidagi” qonunni qabul qilinishi, shuningdek, ushbu soxani takomillashtirish borasida fikrlar, tegishli ilmiy va amaliy taklif, tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Jamoat xavfsizligi, jazo muddatini o‘tayotgan shaxslar, “Probasiya to‘g‘risida”gi qonun, probasiya xizmati, ijtimoiy va jamoatchilik.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda sud-huquq tizmini isloh qilish hamda aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash orqali jamoat xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor berilmoqda.

Xususan, huquqni muxofaza qiluvchi organlarining faoliyatini tartibga soluvchi mustahkam huquqiy asoslar yaratilib, jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlashda huquqni muxofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish va huquqiy tartibga solish yangi bosqichga olib chiqildi.

Jumladan, xalqimizning farovonligini yanada oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash uchun barcha isloxatlar “Inson qadri uchun” tamoyili asosida amalga oshirilshi natijasida mutlaqo yangi

mexanizm va tartiblar joriy etildi. Natijada, davlat organlari va jamoatchilik tuzilmalarining o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi hamda bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bunga asos sifatida misol keltirishimiz mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son farmoniga muvofiq , shuningdek, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash maqsadida jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi ilg‘or xorijiy va milliy tajribalar asosida ishlab chiqilgan hamda aholini har qanday tahdidlardan kafolatli himoya qilishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-27-son Farmon da jamoat xavfsizligi bilan bog‘liq asosiy tushunchalar, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasini davlat tomonidan tartibga solish masalalari belgilandi.

Jumladan, jamoat xavfsizligi barqaror ta’minlanishi natijasida mamlakatimizdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohadagi o‘zgarishlar huquq doirasidagi munosbatalar insonlarning huquqiy faoliyatiga huquqni muhofaza qilishning umumiy asoslariga xizmat qilib boraveradi. Shundan kelib chiqib Konsepsiyada jamoat xavfsizligi sohasidagi asosiy tushunchalarga izoh berib o‘tadigan bo‘lsak.

Jamoat xavfsizligi bu – jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi3.

Shunday ekan, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini ta’minlashda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarilishi, jinoiy jazo choralarni insonlarga qo‘llashda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni keng qo‘llanilishi, probasiya faoliyatini keng rivojlanib va takomillashib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlar amaliyotidan, shuningdek, bir qator xorijiy davlatlarning tajribasidan ko‘shimiz mumkinki, jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligiga qarab jinoiy jazolarni tayinlashda shaxsni jamiyatdan ajratmaslik, ma’naviy eskirgan qiynoqqa soluvchi qamoq kabi jazo

choralariga barham berish, residiv jinoyatchilikni kamaytirish sohalarida ko‘p tadqiqotlar olib borilmoqda.

Shuningdek, yopiq turdagi jazoni ijro etish koloniyalarida saqlanayotgan mahkumlar huquqlarining buzilishi va mahkumlarni saqlash uchun sarflanadigan moliyaviy xarajatlar va chiqimlarning qiymatini hisobga olib, probasiya institutining yangi zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yaratish, probasiyaning ijtimoiy funksiyalarini kengaytirish hamda samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sababi, probasiya faoliyati jazolarning ijro etilishi bilan bog‘liq bo‘lgan va shaxsni jamiyatga ijtimoiylashuvini qamrab oladigan jarayonlarni o‘z ichiga oladigan tuzilmadir.

Shunday ekan, huquq-tartibotni yanada mustahkamlash va jinoyatchilikning yangi ko‘rinishlariga qarshi kurashish zarurati mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar belgilandi.

Shu bois jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlashda normativ-huquqiy asoslarini ishlab chiqish borasida bir-qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 07 noyabrdagi PQ-4006-son qaroriga asosan dastlab probasiya xizimati jamiyat xayotida ya’ni ochiqda ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarga hukm qilingan shaxslarni nazorat qilar, shuningdek, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga etmaganlarning shaxslarni ijtimoiy moslashuvi va ishga joylashishiga, shuningdek, ularning kasbiy tayyorgarligi yuzasidan qayta o‘qitish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish vazifasi belgilangandi. Hozirgi kunda keng jamoatchilik bilan hamkorlik qilish orqali probasiya nazoratidagilarni xulq atvori ustidan ta’sirchan nazorat olib borishning ta’sirchan mexanizmlari yaratilishida O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 07 avgustdagi O‘RQ 938-son “Probasiya to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilinishi huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi.

Ushbu Qonun bilan probasiya faoliyatini amalga oshirish sohasidagi munosabatlar, jumladan probasiya tizimining asosiy tushunchalari, probasiya nazoratidagi shaxslarning huquqiy holati, probasiya nazorati va ijtimoiy moslashtirish shakllarini qo‘llash tartibi, probasiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini baholash mezonlari, ularga nisbatan elektron kuzatuv vositasini qo‘llash masalalari tartibga solindi.

Xususan, probasiyani amalga oshirish sohasida Hukumat, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining vakolatlari aniq belgilab qo‘yildi.

Ya’ni probasiya nazoratini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi subyektlar jumlasiga mehnat organlari, davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi hamda uning hududiy bo‘linmalari, ta’lim sohasidagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va ta’lim tashkilotlari, Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo‘linmalari kiritildi.

Shuningdek, probasiya nazoratidagi shaxslarga ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik yordam ko‘rsatish, ularning ta’lim olishiga, kasb-hunar o‘rganishiga va ishga joylashishiga ko‘maklashishi va jamiyatning to‘la huquqli a’zosiga aylanishiga qaratilgan faoliyat tartibga solindi.

Probasiya nazoratida turib jazo muddatni o‘tayotgan shaxslarga ijtimoiy va huquqiy yordam ko‘rsatish, jumladan, tuman (shahar) probasiya bo‘linmalarining vakolatlariga kirmaydigan ijtimoiy va huquqiy masalalar bo‘yicha probasiya nazoratidagi shaxslarga tuman (shahar) probasiya bo‘linmalarining yo‘llanmasi asosida davlat organlari tomonidan ijtimoiy va huquqiy yordam ko‘rsatilish yo‘lga qo‘yildi. Xususan, jamoat xavfsizligi xizmati aholi bandligiga ko‘maklashish markazi hamkorligida tashkil etgan mehnat yarmarkasiga probasiya guruhi hisobida turuvchi nazorat ostidagi shaxslarni ijtimoiy-huquqiy muammolari ham o‘rganildi. Ularga kelgusida mamlakatimizda fuqarolar uchun yaratilayotgan sharoitlardan to‘g‘ri foydalanib yashash va jinoyat ko‘chasiga kirib qolmaslik yuzasidan har tomonlama amaliy ko‘maklashish yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, bu borada amalga oshirilgan ishlarni quydagi misollarda ko‘rsatishimiz mumkin.

2025 yilning o‘tgan davri mobaynida bandligi ta’minlangan nazorat ostidagi shaxslar jami nazoratdagilar 87 933 nafar bo‘lib.

Ulardan 6 906 nafari kasb-hunarga o‘qitilgan.

32 521 nafari ishga joylashtirilgan.

177 nafari ishsiz deb etirof etilib, ularga ishsizlik nafaqasi tayinlangan.

2025 yil mobaynida "Maxsus daftar"larga kiritilgan nazoratda ostida turgan shaxslarlardan temir daftarga 44 nafari, 3 654 nafari ayollar daftariga, 11 922 nafari yoshlar daftariga kiritilgan.

Xususan, mamlakatimizga probasiya institutning kirib kelishi haqida I.Yu.Fazilov ta’kidlaganidek, “mamlakatimizda probasiyaning joriy etilishi ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq jazolarning ijrosini ta’minlash

bo‘yicha ishlarni tizimli asosda samarali tashkil etishga, nazoratdagi shaxslar tomonidan jinoyatni takroran sodir etilishining o‘z vaqtida oldini olishga, ularni tuzatishga, ijtimoiy moslashishga, shu jumladan kasbiy tayyorgarlikka, hunarmandchilik, ish bilan ta’minlashga, tibbiy, psixologik va huquqiy yordam ko‘rsatishga xizmat qiladi” deb, bildirgan fikrlari o‘z amaliy axamiyatini topdi.

Lekin bugungi kunda probasiya xizmati bir qator rivojlangan davlatlar yani AQSh, Daniya, Shvesiya, Finlandiya va boshqa davlatlarning jinoyat-ijroiya faoliyatida turlicha yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da , asosan probasiya faoliyati jinoyat sodir etgan shaxslarni jamiyat hayotiga ijtimoiylashtirish va ularni axloqan tuzatish, shuningdek, probasiya nazoratidagilarni jamiyat hayotidan ajratmagan holda qayta tarbiyalash ishlarini tashkil etilishi rivojlangan mamlakatlar tajribasining uzoq tarixidan boshlanishini va huquqiy asoslari yaratilganini ko‘rishimiz mumkin.

Jumladan, quyidagi davlatlarda probasiya faoliyati mamlakatimizga xos jihatlari mavjud yani Moldova Respublikasida

2008 yildan, Ukrainada 2015 yildan hamda Armaniston, Qozog‘iston Respublikalarida 2016 yil boshida shuningdek, Qirg‘iziston Respublikasida 2017 yildan joriy etilgan hamda probasiya hizmatining faoliyati huquqiy ta’minlangan. Qozog‘iston Respublikasining qonunchiligida “Probasiya faoliyati-bu ijtimoiy va huquqiy nazoratning bir shakli” ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan, ushbu yondashuvga ko‘ra, probasiya faoliyati jazoni ijrosi bilan birga, ijtimoiylashuv tadbirlarini amalga oshirilishi mustahkamlangan.

Shuningdek, xorijiy jinoyat huquqida jinoyat-huquqiy xarakterdagi boshqa choralar xavfsizlik choralari (Polsha Jinoyat kodeksi), axloq tuzatish va xavfsizlik choralari (Germaniya Jinoyat kodeksi), OMQ bilan bog‘liq xavfsizlik choralari (Ispaniya Jinoyat kodeksi), nuqsonli huquqbuzarlarni alohida ajratish, alkogolizmni majburiy davolash, giyohvandlarni ijtimoiy reabilitasiya qilish kabilar (AQSh) sifatida belgilanadi.

Xorijiy va milliy jinoyat qonunchiligida jinoyat-huquqiy tusdagi boshqa choralar institutini solishtirganda shuni ta’kidlash kerakki, xavfsizlik choralari tizimi uning tarafdorlari tomonidan qayta ijtimoiylashtirish g‘oyasining timsoli, erta profilaktika choralari sifatida baholanadi. Masalan, xorijiy davlatlarda xavfsizlik choralari jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan, oddiyroq ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan, bizning tasnifga ko‘ra, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin.

O‘zbekiston Respbulikasi Jinoyat-ijroiya kodeksida probasiya nazoratidagilarni xulq atvori ustidan ta’sirchan nazorat olib borish, ayniqsa ularni ijtimoiylashtirish borasida jamoatchilik vakillaridan iborat ijtimoiy tarbiyachilar yoki murabbiylar biriktirish, ularga g‘amxo‘rlik qilish orqali, ularni axloqan tuzatish va qayta ijtimoiylashuviga ko‘proq ahamiyat berilishi ijobiy samara berishi mumkin.

Ayrim, evropa davlatlarning rivojlanish tajribasidan bilishimiz mumkinki, davlat orginlari va jamoat tuzilmalari insonning baxt-saodatga erishishi uchun ularning istak va muloxazalarini, xohish va g‘oyalarini zavq va shavq bilan maqsadga aylantirishda hamda kuch va quvvatini jamiyat ravnaqiga safarbar qilishda beqiyos hissa qo‘shgan.

Jumladan, “Rossiyada ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yaxshilash, ijtimoiy innovasiyalarni amalga oshirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimidagi muammolarni bartaraf qilish, sog‘lom avlodni shakllantirish, aholini ish bilan ta’minlash hamda demokratiyani rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlarning o‘rniga muhim ahamiyat berilmoqda” . Bundan bilishimiz mumkinki, har bir inson huquqiy-ijtimoiy va iqtisodiy turmush tarzini qurishda davlatning ko‘pgina vazifalarini mahalliy jamoat tuzilmalar, nodavlat-notijorat tashkilotlar tomonidan bajariladigan shakli jahon mamlakatlarining ijobiy e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda. Ya’ni jamoat tuzilmalari davlat oldida turgan muhim ijtimoiy muammolarni hal etishda birlashishadi.

Xulosa o‘rnida, bundan bilishimiz mumkinki, har bir inson huquqiy-ijtimoiy va iqtisodiy turmush tarzini qurishda davlatning ko‘pgina vazifalarini mahalliy jamoat tuzilmalar, nodavlat-notijorat tashkilotlar tomonidan bajariladigan shakli jahon mamlakatlarining ijobiy e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda. Ya’ni jamoat tuzilmalari davlat oldida turgan muhim ijtimoiy muammolarni hal etishda birlashadi.

Taklif sifatida

O‘zbekistonda probasiya xizmati faoliyatini nazorat qilishda jamoatchilikning ishtirokini belgilashda nazoratdagi shaxslarni qayta ijtimoiylashuvida ishtirok etishi quyidagi shakllarda amalga oshirilishi taklif etildi:

1) sosiologik va boshqa shaklda monitoring o‘tkazish;

2) probasiya xizmati tomonidan jazoni va boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir chorasini ijro eishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

3) ayrim toifadagi mahkumlarga gumanitar va xayr-ehson yordamlarini berish, tarqatish va ushbu jarayonni kuzatishda ishtirok etish kabi va boshqalar kabi.

Ushbu vazifalarini belgilash va yuqorida qayd etilgan qonunosti hujjatlarda probasiya zimmasiga yuklangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida, jamoatchilik faoliyatiga keng imkonyat yaratish zarur. Bu albatda ijobiy natijalarni beradi.

BOLANING BILIM OLISh HUQUQI HIMOYaSI DOIRASIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TAKOMILLAShTIRISh MASALALARI

Ikramov Sh.R.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi katta o‘qituvchisi,
yu.f.b.f.d. (PhD),podpolkovnik

Dunyoda bolalarni himoya qilish va ularning huquqlari hamda manfaatlarini ta’minlash doim dolzarb ahamiyat kasb etgan.

Jahonda bola huquqlarini qay darajada ta’minlanayotganligi hamda davlatlar bola huquqlarini ro‘yobga chiqarishga qay tarzda intilayotganligini aniqlaydigan “Kids Right Indeks” xalqaro reytingida bolaning yashash, sog‘liq, ta’lim olish, himoyalanish hamda bola huquqlari uchun qulay muhit yaratish kabi mezonlar orqali baholanadi hamda “2024-yilda Islandiya (1), Norvegiya (2), Finlandiya (3), Qozog‘iston (21), Turkmaniston (33), Rossiya (87), Qirg‘iziston (89), Tojikiston (99) va O‘zbekiston 182 ta davlat orasida 97-o‘rinni egalladi [1].

Bu esa bolalar huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

1948 yil 10 dekabrdagi “Inson huquqlari umumjahon Deklarasiyasi”ning 1, 3, 7, 8, 10 va boshqa moddalarida bolaning inson sifatida eng oliy huquqlari sanalgan yashash, mulkka egalik qilish, fikr, vijdon va din erkinligi, ta’lim olish hamda boshqa ko‘plab huquqlari mustahkamlangan [2].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 78-moddasida “Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar deb belgilab qo‘yilgan. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir” deb,

O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 23-moddasida “Har bir bola bilim olish huquqiga ega, davlat bolaning bepul majburiy umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim olishini kafolatlaydi” -deb, ko‘rsatib o‘tilganligi, bolaga nisbatan davlatning g‘amxo‘rlik namoyon etayotganligini ko‘rish mumkin [3].

Shu o‘rinda, tabiiy savol tug‘iladi, xo‘sh yurtimizda bolaning xavfsiz ta’lim olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilganmi? Aynan, uning ta’lim muassasasiga kelishi yoki ketishida xavfsizligi ta’minlanganmi? Ota-onalar o‘z farzandlarini ta’lim muassasasiga bexavotir yubora oladilarmi?

Tahlillarga ko‘ra, birgina 2023 yilda bolalar bilan bog‘liq 1 794 ta yo‘l transport hodisasi sodir etilib, ularda 1 568 nafar bola jarohatlangan va 263 nafari halok bo‘lgan. O‘lim bilan bog‘liq yo‘l transport hodisalarining salmog‘i Toshkent, Samarqand (80 tadan), Farg‘ona (69 ta), Qashqadaryo va Surxondaryo (53 tadan) viloyatlarida hamon yuqoriligicha qolmoqda.

2024 yilning 5 oyi davomida jami 359 nafar o‘quvchi bilan bog‘liq yo‘l transport hodisasi sodir etilgan va 65 nafar o‘quvchi halok bo‘lgan, 294 nafar o‘quvchi esa turli darajada tan jarohati olgan [4].

Misul uchun: 2024 yil 19 aprel kuni soat 13:45 larda “Shahrisabz-Miraki” avtomobil yo‘lida haydovchi K.M. boshqaruvida bo‘lgan Damas rusumli transport vositasi bilan Miraki yo‘nalishi tomon harakatlanib borib, piyodalar o‘tish yo‘ligini kesib o‘tayotgan piyoda O.I. ni urib yuborgan. Olgan tan jarohatlari natijasida O.I. shifoxonada vafot etgan [5].

2024 yilda O‘zbekistonda sodir bo‘lgan yo‘l transport hodisalarining 47,1 foizi haydovchilarning piyoda yo‘l bermasligi sabab yuz bergan, 3,7 foizi rulda uxlab qolish, 22,8 foizi belgilangan tezlikka rioya etmaslik oqibatida sodir bo‘lgan [6].

So‘ngi vaqtlarda ota-onalarning beparvoligi va maktab o‘quvchilarining o‘zboshimchaligi natijasida ota-onasiga tegishli bo‘lgan avtomashinalarni boshqarib ketishi ayanchili yakunlanayotgani barchani taajubga soladi.

Joriy yilning 24 may kuni YHX xodimlari kun davomida “reyd” o‘tkazib, voyaga etmaganlar tomonidan avtomobil boshqargan 384 ta holatni (ularning 115 tasi Toshkent shahrida) aniqlagan.

Misol uchun: Navoiy viloyati, Karmana tumanida 2024 yilning 23 aprel kuni 5 va 7 maktablarning 8-9-sinf o‘quvchilari boshqaruvidagi “Matiz” rusumli avtomobil yo‘l transport hodisasiga uchraydi, avtomobilni haydovchilik guvohnomasiga ega bo‘lmagan voyaga etmaganlar

boshqargan. Oqibatda, ikki nafar o‘quvchi voqea joyida halok bo‘lgan. Bir nafari og‘ir tan jarohati olgan [7].

Yo‘l transport hodisalarida maktab o‘quvchilarining vafot etganligi va tan jarohati olganligi o‘ta tashvishli holatdir. Yuqorida keltirib o‘tilgan yo‘l transport hodisasi bilan bog‘liq tahlillarni o‘qigan va ijtimoiy tarmoqlar orqali ayanchli avtohalokatlarni ko‘rayotgan har bir ota-onani albatda, “bolam maktabga eson-omon borib kelsin” degan o‘ylov qiynaydi. Zero, yo‘l transport hodisalari jamoat xavfsizligiga tahid hisoblanib, doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizimdir.

Bolalar bilan bog‘liq yo‘l transport hodisalarini sodir etilishiga, mamlakatimizdagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9548 tasi transport qatnovi ko‘p hududlarda joylashgani va aksariyat maktablar oldida piyodalar uchun yo‘laklar mavjud emasligi, tegishli svetaforlar o‘rnatilmagani;

- maktab o‘quvchilari yo‘l harakati qoidlarini puxta o‘zlashtirmagani,
- o‘qituvchilari mas’uliyatni his etmasdan o‘quvchilarni mashina qatnov yo‘lidan o‘tkazib qo‘ymasligi;
- tuman YHX xodimlari tomonidan o‘quvchilar bilan “Yo‘lda o‘zingni asra” mavzularida targ‘ibot va tashviqot ishlarini muntazam olib bormasliklari;
- haydovchilar yo‘l harakati qoidalariga rioya etmasliklari sabab bo‘lgan.

Bolalar eng himoyasiz toifadagi yo‘l harakati ishtirokchilari hisoblanganligi sababli, ularning xavfsizligini ta’minlash va yo‘l-transport hodisalariga uchrashining oldini olish davlat organlari, ta’lim muassasalari, ota-onalar hamda keng jamoatchilikning hamkorlikdagi vazifasidir. Shu munosabat bilan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, umumta’lim maktablari va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida muntazam ravishda “Yo‘l harakati xavfsizligi” darslarini o‘tkazish, maxsus maket va trenajyorlar yordamida bolalarga amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish, shuningdek, turli viktorina va musobaqalar orqali yo‘l harakati qoidalarini qiziqarli usulda o‘rgatish zarur. Shu bilan birga, ota-onalar uchun “Piyoda-umring bo‘lsin ziyoda”, “Bolalar va yo‘l xavfsizligi” va “Yo‘l qoidasi xavfsizlik kaliti” mavzularida ma’rifiy seminarlar tashkil etish.

Ikkinchidan, yo‘l infratuzilmasini bolalar xavfsizligini ta’minlashga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, maktab va bog‘chalar atrofida tezlikni cheklovchi maxsus belgilar, svetoforlar hamda sun’iy to‘siqlar o‘rnatilishi, piyodalar yo‘laklari doimiy ravishda yangilanib turilishi va yorqin ranglarda belgilanishi talab etiladi. Bolalar gavjum hududlarda videokuzatuv kameralarini ko‘paytirish hamda yo‘l chetlariga himoya panjaralarini o‘rnatish ham samarali choralar qatoriga kiradi.

Uchinchidan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan bolalar qatnaydigan hududlarda muntazam reydlar o‘tkazilishi, tezlik qoidalarini buzgan haydovchilarga nisbatan qat’iy choralar ko‘rilishi zarur. Shu bilan birga, yo‘l-transport hodisalari profilaktikasiga oid targ‘ibot ishlari ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam olib borilishi, bolalar o‘rtasida xavfsizlik kamari va yo‘l harakati qoidalariga rioya etish bo‘yicha profilaktik aksiyalar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

To‘rtinchidan, ota-onalar farzandlarini mashinada tashishda maxsus bolalar o‘rindiqlaridan foydalanishlari shartligi ta’minlanishi, bolajonlarga yo‘lni faqat piyodalar o‘tish joyidan kesib o‘tish odatini singdirishlari zarur. Mahalla va jamoat tashkilotlari tomonidan bolalar yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha doimiy ma’rifiy tadbirlar tashkil etilishi ham muhimdir. Kichik yoshdagi bolalarning kattalarsiz ko‘chaga chiqishining oldini olish esa ota-onalarning bevosita mas’uliyatiga kiradi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, yurtimizda yo‘l transport hodisalarini aynan bolalar bilan bog‘liq holatlarni barvaqt oldini olish yuzasidan barchamiz mas’uliyatni his etishimiz, ota-onalarni bolajonlarga yoshligidan yo‘llarda yo‘l harakati qoidasiga rioya etishlari tushuntirib borishlari, maktablarda esa YPX inspektorlari ishtirokida mashg‘ulotlar o‘tkazilishi, ayniqsa haydovchilar yo‘llarda madaniyatli bo‘lishi, qoidalariga qat’iy amal qilishlari talab etiladi. Yo‘llarda xususan maktablar joylashgan yo‘llarda xavfsizlikni ta’minlash bolaning bilim olish huquqint kafolatlaydi hamda sog‘lom, barkamol, bilimli, vatanparvar yoshlarni kamol topishiga qulay zamin yaratiladi. Zero, “Yo‘l qoidasi –umr foydasidir”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.kidsrights.org/research/kidsrights-index/- murojaat sanasi 18.09.2025-yil.

2. BMT Assambleyasining Rezolyutsiya 217 A (III) bilan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi” URL:https://unicode.org/udhr/d/udhr_uzn_cyrl.txt.https://www.un.org/ru/d

ocuments/decl_conv/declarations/childdec.shtml murojaat sanasi 18.09.2025-yil.)
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi www.lex.uz
4. https://kun.uz/kr/news/2024/06/25/2024-yilning-5-oyi-davomida-yol-transport-hodisasi-oqibatida-65-nafar-oquvchi-halok-boldi-senat#!.
5. https://www.uznews.uz/ru/news/73040
6. https://daryo.uz/2025/09/08/toshkentda-ythlar-koproq-qaysi-tuman-va-oylarda-sodir-bolgan/
7. https://qalampir.uz/uz/news/navoiyda-maktab-uk-uvchisi-boshk-aruvidagi-matiz-yt%D2%B3ga-uchrashi-ok-ibatida-ikki-bola-%D2%B3alok-buldi-100712

HARBIY XIZMATCHILARINING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA AHOLI BILAN MUOMALA MADANIYATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qoraboyev A.A.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti
Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), podpolkovnik.
tel: +998 97 081 82 79

Annotatsiya: maqolada Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari harbiy xizmatchilarining aholi bilan muomala madaniyati va uning psixologik o‘ziga xosliklarini tahlil qilingan. Harbiy xizmatchilarning samaradorligi psixologik aloqa o‘rnatish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lib, ular odatiy va favqulodda sharoitlarda fuqarolar bilan muloqotga kirishadi, bu esa kasbiy fazilatlar (xotira, diqqat, tafakkur) va nutq madaniyatini talab etadi. Maqolada muloqot turlari – bevosita va bilvosita, rolli, mazmunli, rasmiy va norasmiy – batafsil tasvirlanadi, ular huquq-tartibot tizimida professionalizmni ta’minlaydi. Tadqiqot maqsadi muomala madaniyatini yuksaltirish yo‘llarini aniqlash bo‘lib, qonun ustuvorligi va o‘zaro ishonchni mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi. Umuman, maqola harbiy xizmatchilarning muloqot jarayonida psixologik chidamlilik, nutq odobi va huquqiy tartibni saqlash orqali jamiyat tinchligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy yondashuv taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: muomala madaniyati, psixologik to‘siqlar, nutq madaniyati, jamoat xavfsizligi, muloqot turlari, kasbiy fazilatlar, emotsional to‘siq, xushmuomalalik, samimiylik, insoniylik, nutq odobi, psixologik

aloqa, huquq-tartibot tizimi, qonun ustuvorligi, shaxslararo munosabatlar, professionalizm.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari harbiy xizmatchilari faoliyatining samaradorligi ularning aholi bilan muloqot madaniyatiga bog‘liqdir. Muomala madaniyati psixologik jarayon sifatida shaxslararo munosabatlarda muhim o‘rin egallaydi va huquq-tartibot tizimida professionalizmni ta’minlaydi. Ushbu maqolada jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari harbiy xizmatchilarining aholi bilan muomala madaniyati psixologik o‘ziga xosliklari, muloqot turlari, nutq madaniyati va psixologik to‘siqlar tahlil etiladi. Tadqiqot maqsadi – muomala madaniyatini yuksaltirish yo‘llarini aniqlashdir.

Insonlar o‘z faoliyatida boshqa odamlar bilan muloqotga kirishadi, axborot almashadi va bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi. Muomala – shaxslararo o‘zaro munosabatlarda ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadi [1]. Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari harbiy xizmatchilari odatiy va alohida sharoitlarda (ommaviy tadbirlar, tartibsizliklar, favqulodda vaziyatlar) fuqarolar bilan muloqotga kirishadi. Ularning samaradorligi psixologik aloqa o‘rnatish qobiliyatiga bog‘liq.

Muomala jarayonida shaxslar til orqali emas, balki xatti-harakatlar orqali ham axborot almashadi. Bu jarayon shaxslarning qiziqishlari, dunyoqarashi va muomala madaniyatiga bog‘liq [2]. Harbiy xizmatchi muomala qonuniyatlariga tayanib, turli toifadagi shaxslar bilan munosabatga kirishadi. Muloqotda kasbiy sifatlar (xotira, diqqat, idrok, sezgi, tafakkur) ishtirok etadi, bu voqealarni tahlil qilishga yordam beradi.

Bevosita muloqotda harbiy xizmatchi shaxslarni idrok qiladi va vositalarni qo‘llaydi. Bilvosita muloqot - aloqa mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Rolli muloqot - shubhali shaxslar bilan bog‘liq bo‘ladi. Mazmunli muloqot holatni mimika orqali bildiradi. Muloqot psixologik jihatdan odamlar o‘rtasida maqsadga muvofiq aloqani o‘rnatish jarayonidir. Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida muloqot turlari quyidagilar: bevosita (yuzma-yuz suhbat), bilvosita (ratsiya, telefon orqali), rolli (ijtimoiy rollar orqali), mazmunli (mimika, imo-ishora orqali), rasmiy (yuridik kuchga ega) va norasmiy (shaxsiy ma’lumot almashish)larni o‘z ichiga oladi [3].

Harbiy xizmatchining nutq madaniyati, ya'ni so‘zlarni to‘g‘ri tanlash, intonatsiya va muloqot uslubi, aloqa muvaffaqiyatining asosiy kalitlaridan biridir. Chunki harbiy muhitda aniq, hurmatli va professional nutq nafaqat

buyruqlarning tez bajarilishini ta'minlaydi, balki jamoa ruhini mustahkamlaydi, xatoliklarni oldini oladi va hatto hayotni saqlab qolishi mumkin. Nutq madaniyati – fikrlarni til vositalari orqali to‘g‘ri yetkazishdir [4]. Yaxshi shakllangan nutq (xushmuomalalik, kamtarlik, insonparvarlik) samarali muloqotni ta’minlaydi.

Nutq odobi qoidalari quyidagilardan iborat: nutq mazmunli, grammatik jihatdan to‘g‘ri, aniq, mantiqiy, ifodali va sodda bo‘lishi lozim, shuningdek, suhbatdosh shaxsning holati, maqomi, yoshi va madaniy fonini doimo inobatga olish kerak. Bu qoidalar muloqotni samarali va hurmatli qiladi, chunki noto‘g‘ri nutq nafaqat tushunmovchiliklarga olib keladi, balki munosabatlarni buzishi mumkin. Nutq madaniyatini oshirishning samarali vositalari: badiiy asarlarni o‘qish, grammatikani o‘rganish, lug‘atlar bilan ishlash, gazetalarni o‘qish, hikmatlarni o‘qish hamda nutq so‘zlash lozim. Bu vositalar nutqni yanada mazmunli, aniq va ta'sirli qilishga yordam beradi [5].

Aholi bilan muloqotda nutq odobi: shirinsuxanlik, imo-ishoralarni kam ishlatish, fikrlarni diqqat bilan eshitish, oila sirini saqlash, haqoratomuz so‘zlardan tiyilish, g‘iybatdan qochish. Harbiy xizmatchi nutqini nazorat qilishi kerak. Jinoyatlarni oldini olishda fuqarolarning qarama-qarshi munosabati zo‘riqishlarni keltirib chiqaradi. Harbiy xizmatchi asabiy zo‘riqishni bartaraf etishi lozim. Muloqotda fikrlarni sodda ifodalash, xushmuomalalik, fikrlarni tinglash, qiziqish bildirish, tushunarsiz ma’lumotlarni takrorlash, salbiy omillarga e’tibor qaratmaslik, mimika va jestlarga e’tibor berish, ma’lumotlarni umumlashtirish va eshitish qobiliyati muhim hisoblanadi.

Muloqotda psixologik chidamlilik, salbiy hislarni bartaraf etish, ruhiy zo‘riqishni yengish, psixo-pedagogik madaniyatni shakllantirish kerak. Ayrim holatlarda muloqotda yolg‘on mavjud. Gumonlanuvchi yolg‘on ishlatadi. Psixologik bilimlar nosamimiy holatlarni aniqlaydi. Ayniqsa, Ichki ishlar organlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish, ularning fuqarolar, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda, o‘zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlashini ta’minlash, mahallalar, aholi turar joylari va butun yurtimizda qonun ustuvorligi, tinchlik-osoyishtalikni yanada mustahkamlash zarurligi Prezident Sh.M.Mirziyoyev qarorlarida o‘z aksini topgan [6].

Muomala madaniyatida - davlat vakili ekanligini unutmaslik, salomlashish, ism-sharifini aytish, savollarga javob berish, dimog‘dorlikdan

qochish, tahdid solmaslik, hujjatlarni muloyim tekshirish, munozaralarga aralashmaslik, bayramlarda tanbeh bermaslik, hurmat bilan gaplashish, xizmatdan tashqarida yordam berish, qo‘shnilar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish, marosimlarda qatnashish muomala madaniyatining asosiy mezonlari hisoblanadi. Muloqot kasbiy vazifaga yo‘naltirilgan, huquqiy tartibga solingan, maxsus obyektli, psixologik to‘siqli, jargonlarni bilishni talab etadi. Muloqot majburiy bo‘lishi mumkin, faktlar ongi orqali amalga oshadi. Muloqotda ishontirish – isbotsiz qabul qilish orqali ta’sir etish usullari sanaladi. Ishontirish harbiy xizmatchining ishonchi, tayyorgarligi, faktlar to‘g‘riligiga bog‘liq. Muloqot turlari inson holatiga ta’sir ko‘rsatadi. Axborot berish qoniqish holatini vujudga keltiradi. Muloqotda bir necha maqsad ko‘zlanadi, masalan, dalillarni tekshirish va boyitish. Muloqot inson tabiati bilan bog‘liq, ziddiyatlarni o‘rganish kerak. Psixologik muloqot o‘rnatish uchun zarur bilim va fazilatlar kerak, ayniqsa, notanish shaxslar bilan muloqotga kirishish, gapni eshitish, ta’sir ko‘rsatish va to‘siqlarni bartaraf etish [1].

Kommunikativ faoliyat kasbiy yo‘nalgan va qiyin bo‘lib, ayniqsa jinoyatchilar bilan muloqotda axloqsizlik va to‘siqlar vujudga kelishi mumkin, chunki psixologik to‘siqlar motivatsion (muloqotdan bosh tortish), aqliy (bilim va tushuncha farqi), emotsional (agressivlik yoki qo‘rquv) va tarbiyaviy (qiyin o‘smirlar bilan bog‘liq) ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Muloqot muvaffaqiyatida ijobiy fazilatlar, masalan, xushmuomalalik va insoniylik, hamda samimiylik muhim rol o‘ynaydi, chunki muloqot maqsadlari faktlarni aniqlash, tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish va ziddiyatlarni hal qilishdan iborat. Shubhali shaxs bilan aloqada so‘zlarni ehtiyotkorlik bilan tanlash, dastlabki so‘zlarning tabiiyligi, psixologik aloqa o‘rnatishda tashqi qiyofa, ekspressiv reaksiyalar va ovoz ohangi kabi elementlar zarur, zero o‘zaro yoqtirish ijobiy munosabat va hurmat orqali shakllanadi.

Jamoat xavfsizligi bo‘linmalari harbiy xizmatchilarining aholi bilan muomala madaniyatini yaxshilash boyicha quyidagi asosli taklifni psixologik to‘siqlar, nutq madaniyati va muloqot turlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, ular amaliy va ilmiy asosga ega:

a) Harbiy xizmatchilar uchun nutq madaniyati va psixologik aloqa o‘rnatish bo‘yicha muntazam treninglar o‘tkazish, masalan, rol o‘ynash mashqlari orqali emotsional va motivatsion to‘siqlarni yengishni o‘rgatish. Bu muloqot muvaffaqiyatini oshiradi va xatolarni oldini oladi, chunki psixologik bilimlar nosamimiy holatlarni aniqlashga yordam beradi;

b) Xizmatchilarga badiiy asarlar, jurnallar va gazetalarni o‘qishni majburiy o‘quv dasturiga kiritish, shuningdek, nutqni mashq qilish uchun video va audio vositalardan foydalanish. Bu vositalar nutqni mazmunli va aniq qiladi, aholi bilan muloqotda hurmat va samimiylikni ta‘minlaydi;

c) Jinoyatchilar yoki xulqi yomon o‘smirlar bilan muloqotda agressivlik va qo‘rquv kabi emotsional to‘siqlarni yengish uchun psixo-pedagogik madaniyatni shakllantirish, masalan, xushmuomalalik va insoniylik fazilatlarini rivojlantirish zarur. Bu psixologik to‘siqlar turlariga asoslanib, muloqot maqsadlarini (faktlarni aniqlash, ziddiyatlarni hal qilish) samarali amalga oshirishga yordam beradi;

d) Harbiy xizmatchilarning aholi bilan muloqotini yaxshilash uchun jamoat tashkilotlari va mahallalar bilan yaqin hamkorlikni tashkil etish, masalan, ommaviy tadbirlarda norasmiy muloqot orqali ishonchni oshirish mumkin. Bu qonun ustuvorligini mustahkamlash va o‘zaro hurmatni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Jamoat xavfsizligi bo‘linmalari harbiy xizmatchilarining aholi bilan muomala madaniyati psixologik jarayon sifatida shaxslararo munosabatlarda markaziy o‘rin egallaydi va huquq-tartibot tizimining samaradorligini ta‘minlaydi. Muloqot turlari - bevosita, bilvosita, rolli va mazmunli hamda nutq madaniyati qoidalari - mazmunlilik, aniqlik, mantiqiylik psixologik to‘siqlarni (motivatsion, emotsional, tarbiyaviy) yengishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu elementlar harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatini yuksaltirib, fuqarolar bilan samarali aloqa o‘rnatishga, ziddiyatlarni hal qilishga va jamiyatda tinchlikni saqlashga yordam beradi, chunki muomala nafaqat axborot almashinuvi, balki ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida inson tabiati va qiziqishlariga bog‘liqdir.

Tadqiqot natijalari muomala madaniyatini yuksaltirish yo‘llarini aniqlashda psixologik bilimlar va fazilatlarning zarurligini ko‘rsatadi, ayniqsa, jinoyatchilar yoki shubhali shaxslar bilan muloqotda samimiylik, xushmuomalalik va nutq odobini saqlash muhimdir. Bu jarayon harbiy xizmatchilarning professionalizm darajasini oshirib, xizmat faoliyatida qonun ustuvorligi va o‘zaro ishonch tamoyillarini amalda qo‘llashga xizmat qiladi. Natijada, muomala madaniyati nafaqat individual qobiliyatlar, balki tizimli ta‘lim va hamkorlik orqali rivojlantirilishi lozim, bu esa jamoat xavfsizligini ta‘minlash bo‘linmalarining xizmat faoliyati samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarov B.M. Psixologiya. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, “Jizzax davlat pedagogika universiteti” nashriyoti, ISBN 978-9943-7313-0-1, 2021. B.45-52.
2. Nishonova Z.T. Psixologiya fanining rivojlanishi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, “Psixologiya va pedagogika” jurnali, ISSN 2181-1234, № 2, 2022. B.10-15.
3. Davletshin M.G. O‘smirlar psixik taraqqiyoti. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, “O‘zbekiston psixologiya” jurnali, ISSN 2181-4567, № 3, 2023. B.20-25.
4. Amirova N.U. Oliy ta’limda psixologik xizmat. Termiz davlat pedagogika instituti, “Oliy ta’lim tizimida psixologik xizmat” maqolalar to‘plami, ISBN 978-9943-6789-0-3, 2023. B.30-35.
5. Saidov A.I. Psixologiya fanlari. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, “Psixologiya” monografiya, ISBN 978-9943-1234-5-6, 2020. B.40-45.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 20 yanvardagi PQ-10-son qarori “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tizimga o‘tkazish to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2023. B.1-10.

JINOYAT PROTSESSIDA JABRLANUVCHI MANFAATLARINI TA’MINLASHNING AYRIM JIHATLARI

Ataniyazov J.K.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Jinoiy-huquqiy fanlar” kafedrasi dotsenti, yu.f.b.f.d (PhD), mayor
telefon: +998972249998 jasurbekataniyazov91@gmail.com
ORCID: 0000-0003-39-53-3800

Annotatsiya: Ushbu maqolada jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish va tugatish bilan bog‘liq hollarda jabrlanuvchi manfaatlarini ximoya qilish bilan bog‘liq protsessual muammolari va mazkur masalalarning huquqiy tartibga solish jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil kabi metodlar qo‘llanilgan.

Kalit so‘zlar: jinoiy qilmishni sodir etgan shaxs, jinoyat ishini tugatish, rad etish, gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi, ariza, shikoyat, da’vo.

Shaxslarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha ish yuritishni rad etish va tugatishda xususiy ayblov instituti muhim o‘rinni egallaydi. Shu bois bu boradagi izlanishlar olib borish dolzarbdir. Jumladan, JPKning 84-moddasi

1-qismi 6-bandida ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo‘zg‘atiladigan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa, ushbu Kodeksning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno ekanligini belgilab qo‘yilgan.

JPKning 325-moddasida esa jabrlanuvchining shikoyatiga asosan qo‘zg‘atilishi lozim bo‘lgan jinoyat ishlari ro‘yhati keltirilgan bo‘lib, unda aynan JKning qaysi moddalari va qismiga asosan faqatgina jarblanuvchi tomonidan ariza asosida shikoyat qilingan hollarda jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi, aks holda tergoga qadar tekshiruv hujjatlari bo‘yicha ish yurituv rad etilishi belgilagan. Biroq JPKning 84-moddasi mazkur bandi bo‘yicha bir qancha tushunmovchiliklar mavjud.

Jumladan, mazkur moddada “325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno” deb belgilab qo‘yilganligi, amaliyotda turli tushunmovichliklarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur moddada qonun chiqaruvchi jabrlanuvchining shikoyati bo‘lmagan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa, ya’ni jinoyat ishi jabrlanuvchi aybdorni javobgarlikka tortishni so‘rab bergan shikoyat arizasi asosidagina qo‘zg‘atiladi, aks holda tergovga qadar tekshiruv hujjatlari bo‘yicha ushbu asosga ko‘ra jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi rad etiladi. Biroq bunda qonun chiqaruvi JPKning 325-moddasida nazarda tutilgan qaysi hollarni mustasno deb belgilaganligi mavhum.

Bu haqida B.Murodov mazkur mustasnolik amaliyotda bir qancha tushunmovchiliklarni keltirib chiqarayotganligini, ular JPKning 325-moddasi tartibida rad etilgan jinoyat ishlarining goh JPKning 83-moddasi bilan, goh 84-moddaning 1-qismi 6-bandiga asoslangan holda qaror chiqarilayotganlgi bilan asoslab, mazkur holatlarni oldini olish uchun JPK 84-moddasi birinchi qismining 6-bandi, ya’ni “ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo‘zg‘atiladigan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa, ushbu Kodeksning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno” degan matnidan “... ushbu Kodeksning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno” jumlasini olib tashlash kerakligini bildirgan[1].

B.Murodovning mazkur fikrlari o‘rinli, ya’ni mazkur mustasnolikni belgilanishi nafaqat amaliyot vakillarini balki, nazariyada ham o‘zaro tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shunday bo‘lsada, B.Murodovning mazkur taklifi biroz keskinligi sababli unga qo‘shilmaymiz. Chunonchi, qonun chiqaruvchi mazkur mustasnolikni

[1] Murodov B.B. Jinoyat ishini tugatish: nazariya va amaliyot. Monografiya. T.,– 2015.– B. 99-100

jabrlanuvchi nochor ahvolda bo‘lganligi, ayblanuvchiga qaram bo‘lganligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘z huquqini va qonuniy manfaatlarini o‘zi himoya qila olmaydigan alohida hollarda prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo‘zg‘atishi majburiyatini yuklagan holatini nazarda tutmoqda. Shu sababli mazkur asosni JPKning 325-moddasi alohida qismida aks ettirish orqali tushunmovchilikka barham berish mumkin.

S.A.Maxmudov ham bu boradagi tadqiqotlari davomida, mazkur mustasnolik holati moddaning mazmunida JPKning 325-moddasida nazarda tutilgan barcha hollar mustasno qilayotganligini, aslida mazkur bandni bunday tahrir etilishiga sabab, prokurorning jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo‘zg‘atish mumkin ekanligini bildirib, JPKning 84-moddasi birinchi qismi 6-bandini “Ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo‘zg‘atiladigan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa, prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo‘zg‘atish hollari bundan mustasno” deya qayd etishni taklif etgan[1].

S.Maxmudovning fikrlariga qisman qo‘shilamiz, bunda taklif etilayotgan tahrirda aynan prokurorning mazkur vakolatini ko‘rsatish shart emas degan fikrdamiz, ya’ni JPKning 325-moddasida belgilangan prokurorning majburiyatini qayta-qayta normalarda aks ettirish maqsadga muvofiq emas.

JPKning 325-moddasi – Jabrlanuvchining shikoyatiga asosan jinoyat ishi qo‘zg‘atish” deya nomlangan bo‘lib, unda Jinoyat kodeksi 105-moddasining birinchi qismida, 109-moddasida, 110-moddasining birinchi qismida, 111-moddasida, 118-moddasining birinchi qismida, 119-moddasining birinchi qismida, 121-moddasining birinchi qismida, 136-moddasida, 139-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 140-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 141[1]-moddasining birinchi qismida, 149-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat ishlari aybdorni javobgarlikka tortishni so‘rab jabrlanuvchi bergan shikoyat arizasi asosidagina qo‘zg‘atiladi. Jabrlanuvchi nochor ahvolda bo‘lganligi, ayblanuvchiga qaram bo‘lganligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘z huquqini va qonuniy manfaatlarini o‘zi himoya qila olmaydigan alohida hollarda prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo‘zg‘atishi shart.

[1] Maxmudov S.A. Ayblilik to‘g‘risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatishning ayrim jihatlari // Yurist axborotnomasi – Vestnik yurista – Lawyer herald. № 6 (2020), B. 110-115

Jinoyat kodeksining 167, 170, 172, 173-moddalarida nazarda tutilgan va ustav fondida davlat ulushi bo‘lmagan yuridik shaxsga nisbatan uning xodimi tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat ishlari faqat mazkur yuridik shaxs rahbarining, mulkdorining yoki vakolatli boshqaruv organining arizasiga ko‘ra qo‘zg‘atiladi.

Yuqorida keltirilgan normani huquqiy jihatdan tahlil etsak, jabrlanuvchining shikoyatiga asosan qo‘zg‘atilishi mumkin bo‘lgan yoki aksincha mazkur ro‘yhatda keltirilgan jinoyat ishlari yuzasidangina shikoyat bermaslik orqali jinoyat ishi yurituvidan voz kechishi mumkinligi anglanadi. Mazkur ro‘yhatdan so‘ng jabrlanuvchi nochor ahvolda bo‘lganligi, ayblanuvchiga qaram bo‘lganligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘z huquqini va qonuniy manfaatlarini o‘zi himoya qila olmaydigan holatda deb topish uchun asoslar mavjud bo‘lsa, jabrlanuvchining qonuniy manfaatlarini himoya qilish prokuror tomonidan jinoyat ishini qo‘zg‘atish orqali amalga oshirishi majburiyatini qonun chiqaruvchi belgilab bermoqda. Aynan mazkur asosni 84-moddaning 1-qismi 6-bandida mustasno holat sifatida belgilagan. Faqatgina ushbu mustasnolikni alohida qismda nazarda tutish orqaligina mazkur huquqiy muammoni yechimi sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga 325-moddaning 2-qismida yuridik shaxslar JKning 167, 170, 172, 173-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar bo‘yicha, faqatgina mazkur yuridik shaxslarning ustav fondida davlat ulushi bo‘lmagan va uning xodimi tomonidan sodir etilgan taqdirda, yuridik shaxsning rahbarining, mulkdorining yoki vakolatli boshqaruv organining arizasiga ko‘ra qo‘zg‘atilishi belgilangan.

Horijiy davlatlardan, Tojikiston Respublikasi[1], Qirg‘iziston Respublikasi[2] JPKlariga ko‘ra jinoyat toifalari xususiy, xususiy-ommaviy va ommaviy ayblov turlariga bo‘linadi. Xususiy va xususiy-ommaviy ayblovga oid jinoyat turlari faqatgina jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakili tomonidan berilgan ariza asosida jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi mumkin. Shuningdek, ish yuritish davomida jabrlanuvchi va uning vakili da’vodan voz kechishi mumkinligi, bunday hollarda jinoyat ishi tugatilishi, nafaqat prokuror balki tergovchining xam alohida hollarda jinoyat ishini qo‘zg‘atishi vakolati normaning alohida qismida keltirib o‘tilgan.

[1] Уголовно-процессуалный кодекс Республики Таджикистан от 3 декабря 2009 года (с изменениями и дополнениями по состоянию на 19.07.2022 г. URL: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30594304#pos=286;-52 murojaat sanasi 23.08.2022 yil

[2] Уголовно-процессуалный кодекс Кыргызской Республики от 28 октября 2021 года № 129

Fikrimizcha mazkur qism ham normaning 1-qismidagi xususiy ayblov institutini mantiqiy davomi bo‘lganligi sababli, ularni yagona institut sifatida birlashtirish yoki mazkur normani uch mustaqil qismlarga bo‘lish yo‘li bilan yuqoridagi huquqiy muammoni bartaraf etish lozim. Ya’ni JPKning 84-moddasini mazkur asosini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq.

ish faqat jabrlanuvchining arizasi bilan qo‘zg‘atiladigan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa, ushbu Kodeksning 325-moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

JPKning 325-moddasini esa quyidagi tahrirda:

Jinoyat kodeksi 105-moddasining birinchi qismida, 109-moddasida, 110-moddasining birinchi qismida, 111-moddasida, 118-moddasining birinchi qismida, 119-moddasining birinchi qismida, 121-moddasining birinchi qismida, 136-moddasida, 139-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 140-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 141[1]-moddasining birinchi qismida, 149-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat ishlari aybdorni javobgarlikka tortishni so‘rab jabrlanuvchi bergan shikoyat arizasi asosidagina qo‘zg‘atiladi.

Jinoyat kodeksining 167, 170, 172, 173-moddalarida nazarda tutilgan va ustav fondida davlat ulushi bo‘lmagan yuridik shaxsga nisbatan uning xodimi tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat ishlari faqat mazkur yuridik shaxs rahbarining, mulkdorining yoki vakolatli boshqaruv organining arizasiga ko‘ra qo‘zg‘atiladi.

Jabrlanuvchi nochor ahvolda bo‘lganligi, ayblanuvchiga qaram bo‘lganligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘z huquqini va qonuniy manfaatlarini o‘zi himoya qila olmaydigan alohida hollarda prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo‘zg‘atishi shart.

Harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha ish yuritishni rad etish yoki tugatish amaliyotida asosan jabrlanuvchilarning dastlab ariza bilan murojaat etganidan so‘ng, keyinchalik jinoyat ishi qo‘zg‘atilguniga qadar yoki jinoyat ishi tergov qilish jaryonida mazkur arizasini qaytib olishini va da’vosi yo‘qligi sababli jinoyat ishi qo‘zg‘atmaslikni yoxud jinoyat ishini tugatishni so‘rab murojaat qilish hollari ko‘plab uchraydi.

Yuqoridagi holatni statistik ma’lumotlar bilan asoslasak, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasidagi olingan ma’lumotlarga ko‘ra, 2017-2021 yillarda Harbiy prokuratura idoralari tomonidani JPKning

84-moddasi 1-qismi 6-bandiga asosan jami **22 ta** tergovga qadar tekshiruv hujjatlari rad etilgan va **2 ta** jinoyat ishlari tugatilgan[1].

Bu borada IIV huzuridagi Tergov departamenti tomonidan, 2017-yilda **33 ta** jinoyat ishlari tugatilgan bo‘lsa, 2019-yilda **51 ta** va 2021-yilda **52 ta** jinoyat ishlari mazkur asosga ko‘ra tugatilgan[2].

Mazkur raqamlar jinoyat ishini mazmunan hal etuvchi sudlarda quyidagicha ko‘rsatkichlarni tashkil etmoqda, jumladan jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar 2017-yilda **3 ta** jinoyat ishlarini mazkur asosga ko‘ra tugatilishi to‘g‘risida ajrim chiqargan bo‘lsa, 2018-yilda **1 ta**, 2019-yilda **2 ta**, 2020-yilda **11 ta** va 2021 yilda **2 ta** ajrim chiqarish yo‘li bilan jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan[3].

Yuqoridagi statistik ma’lumotlar, jabrlanuvchilarning mazkur asosga ko‘ra jinoyat ishlarini tergov qilish yoki sudlarda ko‘rish jarayonida murojaat qilishayotganliklari ko‘plab uchrayotganligini asoslaydi. E’tiborli jihati shundaki, amaldagi qonun hujjatlarida mansabdor shaxslar mazkur holatlarda qanday yo‘l tutishi lozimligi nazarda tutilmagan.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 23.05.2014 yildagi “Sud hukmi to‘g‘risida”gi 07-son qarorining 25-bandida Sud sudlanuvchiga avval e’lon qilingan aybni jabrlanuvchining shikoyatiga asosan qo‘zg‘atiladigan jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi JK moddasiga o‘zgartirish zarurligi to‘g‘risida xulosaga kelganda, jabrlanuvchining sudlanuvchini jinoiy javobgarlikka tortish haqidagi arizasi ishda mavjud-mavjud emasligidan kelib chiqib, qaror qabul qilishi belgilangan[4].

Biroq mazkur holatda qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi sudlarda ko‘rib chiqish jarayonida hal etilishi tartibi belgilab berilgan holos. Mazkur holatlar tergovga qadar tekshiruv yoki surishtiruv jarayonida o‘z yechimini topishi zarur.

M.Hayitovning fikriga ko‘ra dispozitivlik umumiy-huquqiy prinsip sifatida jinoyat-protsessual ma’noda, jinoyat-protsessual faoliyatni boshlash, davom ettirish yoki tugatishda huquqi buzilgan deb qaralayotgan shaxsning ixtiyoridan kelib chiqqan holda protsessual harakatlarni amalga oshirish va qaror qabul qilish zarurligining qonunda belgilanishini va unga

[1] O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 25.04.2022 yildagi 7/0148-sonli ma’lumotnomasi

[2] O‘zbekiston Respublikasi IIV Tergov Departamentining 21.03.2022 yildagi 18/2509-sonli ma’lumotnomasi kirish raqami № 1645. 28.03.2022 yil

[3] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining 11.05.2022 yildagi 07/13-4853-150-sonli ma’lumotnomasi kirish raqami № 2922. 13.05.2022 yil

[4] O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi “Sud hukmi to‘g‘risida”gi 7-sonli qarorining 25-bandi

amal qilinishini anglatadi. Xususiy ayblov deganda, faqat jabrlanuvchining shikoyati bo‘lganida qo‘zg‘atiladigan, jabrlanuvchi yoki uning vakilining talab-xohishi asosida yuritiladigan jinoyatlarga oid ishlarda jabrlanuvchi yoki uning nomidan vakili quvvatlaydigan ayblov tushuniladi[1].

Y.N.Nikiforovaning ta’kidlashicha, dispozitivlik muhitida fuqaroning shaxsiy manfaatlari davlat manfaatlariga qaraganda qadrliroq hisoblanadi[2].

D.Sh.Bekmatova xususiy ayblov tartibidagi jinoiy ta’qib deganda, jabrlanuvchining murojaati jinoyat ishini qo‘zg‘atish hamda uni tugatish uchun asos bo‘ladigan jinoiy ta’qib turi ekanligini bildirgan bo‘lsa[3], A.K.Kulbayevning fikriga ko‘ra, xususiy ayblov bu jinoyat ishlarini yuritishning soddalashtirilgan shakli bo‘lib, uning maqsadi jarayonni tezlashtirish va undan foydalanish imkoniyatlarini oshirishdir[4].

Yuqoridagi olimlarning fikrlari o‘rinli hisoblanib, huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarga yetkazilgan zarar barcha hollarda zamon, makon, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omillaridan kelib chiqib, jabrlanuvchining o‘z shaxsiy mezonlari asosida baholanadi. Bunda zararning eng qo‘yi va yuqori miqdorlariga legitimlik xususiyati berilib, uni tan olish, tasdiqlash, da’vo qilish yoki undan voz kechish jabrlanuvchi irodasidan kelib chiqib hal etiladi.

Shu sababli jabrlanuvchining bu boradagi dispozitiv huquqlarini ta’minlash maqsadida ishning qaysi bosqichida ekanligidan ya’ni tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va sud muxokamasi jarayonida bo‘lishidan qat’iy nazar mazkur huquq jabrlanuvchiga tegishli ekanligini inobatga olgan holda, JPKning 84-moddasi 1-qismi 6-bandini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

*ish faqat jabrlanuvchining arizasi bilan qo‘zg‘atiladigan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa yoki **jabrlanuvchi shu asos bo‘yicha da’vosidan voz kechsa**, ushbu Kodeksning 325-moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;*

Shuningdek, jinoyat ishini tugatish borasida tadqiqot olib borgan olimlar, mazkur asosni qo‘llash bilan bog‘liq bir necha muammoli holatlarni sanab o‘tadilar. Jumladan,

---

[1] Hayitov M.A. Jinoyat protsessida xususiy ayblov tushunchasi va uning huquqiy tavsifi. // Journal of new century innovations. Volume-6 issue-3 May 2022. 108-118 betlar.

[2] Никифорова Э.Н. дизпозитивные начала в уголовном процессе Республики Узбекистан // Нуқуқ-Право-Law.-2002.№ 2-с.64

[3] Bekmatova D.Sh. O‘zbekiston Respublikasining jinoyat protsessida jinoiy ta’qib funksiyasining shakllanishi va uni takomillashtirish: Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) … dis. avtoref. – T., 2020. – B.15.

[4] Уголовно-процессуалный кодекс Киргизской Республики 2017 года: новеллы. Учебно-практическое пособие. – Бишкек, 2018. С.149.

– JPKning 325-moddasida nazarda tutilgan moddalarni aynan bir shaxsga bir necha shaxs tomonidan sodir etilgan bo‘lib, jabrlanuvchi ularning faqat ayrimlariga nisbatan ish yuritishni rad etishni so‘rab murojaat qilishi;

– Agar shaxs jinoyatlar majmuini tashkil etadigan JPKning 325- moddasida nazarda tutilgan bir nechta jinoyatni sodir etsa va barcha jabrlanuvchilar yoki ularning ayrimlari jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun ariza berishdan bosh tortsa, unga nisbatan ushbu modda talablari asosida jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish masalasi;

– jabrlanuvchilarning dastlab ariza berishdan bosh tortib keyinchalik ushbu shaxsga nisbatan qonuniy chora ko‘rishni so‘rab murojaat qilgan hollarda ish yuritish tartibi, protsessual hujjatlarning yagona shakli va tartibi qonunchilikda belgilanmaganligi va hokazo.

Nazarimizda yuqorida qayd etilgan huquqiy muammolarning barchasi huquq analalogiyasiga ko‘ra hal etilishi lozim, ya’ni bugungi kunda amaliyotda yuqoridagi muammoli vaziyatda duch kelinganda huquq analogiyasiga rioya qilingan holda qarorlarning qabul qilinishi noqonuniy hisoblanmaydi. Shuningdek, jabrlanuvchini dastlab ariza berishdan bosh tortib keyinchalik shaxsni javobgarlikka tortishni so‘rab bergan murojaatini, tomonlarning yarashuvi tartibi singari qayta murojaat qilish huquqidan mahrum bo‘lishi to‘g‘risida tushuncha berish orqali hal etilishi lozim degan fikrdamiz.

Shu bilan birgalikda, JPKning 325-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan jabrlanuvchi bergan shikoyat arizasi asosidagina qo‘zg‘atiladigan jinoyatlar ro‘yhatini bosqichma-bosqich kengaytirish va ushbu jinoyatlar ro‘yhatiga harbiy jinoyatlardan bir qanchasini (xususan, JKning 284-moddasi 1-qismi (Bo‘ysunuvchining o‘z boshlig‘ini yoki boshliqning o‘ziga bo‘ysunuvchini haqorat qilishi), 298-moddasi 1-qismi (Mashinalarni boshqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish)) qo‘shish lozim degan fikrdamiz.

Yuqoridagi fikrlar va tahlillar natijasida quyidagi takliflarni ilgari surish va JPKning 84-moddasi 1-qismi 6-bandini va tegishli normalarga quyidagi o‘zgartishlarni kiritish maqsadga muvofiq.

83-modda. Jinoyatga oid ishlarni yuritishni rad etish va tugatish asoslari.

Jinoyatga oid ishlar quyidagi hollarda rad etilishi yoki tugatilishi lozim, agar:

13) ish faqat jabrlanuvchining arizasi bilan qo‘zg‘atiladigan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa yoki **ushbu ariza jabrlanuvchi tomonidan qaytarib olingan bo‘lsa**, ushbu Kodeksning 325-moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

325-modda. Jabrlanuvchining shikoyatiga asosan jinoyat ishi qo‘zg‘atish

Jinoyat kodeksi 105-moddasining birinchi qismida, 109-moddasida, 110-moddasining birinchi qismida, 111-moddasida, 118-moddasining birinchi qismida, 119-moddasining birinchi qismida, 121-moddasining birinchi qismida, 136-moddasida, 139-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 140-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 141^1-moddasining birinchi qismida, 149-moddasida, **284-moddasining birinchi qismida, 298-moddasining birinchi qismida** nazarda tutilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat ishlari **jinoyat sodir etgan shaxsni** javobgarlikka tortishni so‘rab jabrlanuvchi bergan shikoyat arizasi asosidagina qo‘zg‘atiladi.

Jinoyat kodeksining 167, 170, 172, 173-moddalarida nazarda tutilgan va ustav fondida davlat ulushi bo‘lmagan yuridik shaxsga nisbatan uning xodimi tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat ishlari faqat mazkur yuridik shaxs rahbarining, mulkdorining yoki vakolatli boshqaruv organining arizasiga ko‘ra qo‘zg‘atiladi.

Jabrlanuvchi nochor ahvolda bo‘lganligi, ayblanuvchiga qaram bo‘lganligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘z huquqini va qonuniy manfaatlarini o‘zi himoya qila olmaydigan alohida hollarda prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo‘zg‘atishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murodov B.B. Jinoyat ishini tugatish: nazariya va amaliyot. Monografiya. T.,– 2015.– B. 99-100
2. Maxmudov S.A. Ayblilik to‘g‘risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatishning ayrim jihatlari // Yurist axborotnomasi – Vestnik yurista – Lawyer herald. № 6 (2020), B. 110-115
3. Уголовно-процессуалный кодекс Республики Таджикистан от 3 декабря 2009 года (с изменениями и дополнениями на 19.07.2022 г. УРЛ: ҳттпс://сонтинент-онлине.сом/Досумент /?дос_ид=30594304#пос=286;-52
4. Уголовно-процессуалный кодекс Кыргызской Республики от 28 октября 2021 года № 129

5. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 25.04.2022 yildagi 7/0148-sonli ma’lumotnomasi
6. O‘zbekiston Respublikasi IIV Tergov Departamentining 21.03.2022 yildagi 18/2509-sonli ma’lumotnomasi kirish raqami № 1645. 28.03.2022 yil
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining 11.05.2022 yildagi 07/13-4853-150-sonli ma’lumotnomasi kirish raqami № 2922. 13.05.2022 yil
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi “Sud hukmi to‘g‘risida”gi 7-sonli qarorining 25-bandi
9. Hayitov M.A. Jinoyat protsessida xususiy ayblov tushunchasi va uning huquqiy tavsifi. // Journal of new century innovations. Volume-6 issue-3 May 2022. 108-118 betlar.
10. Никифорова Э.Н. дизпозитивные начала в уголовном процессе Республики Узбекистан // Ҳуқуқ-Право-Law.-2002.№ 2-с.64
11. Бекматова Д.Ш. Ўзбекистон Республикасининг жиноят протсессида жиноий таъқиб функсиясининг шаклланиши ва уни такомиллаштириш: Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (ПҳД) … дис. автореф. – Т., 2020. – Б.15.
12. Уголовно-процессуалный кодекс Киргизской Республики 2017 года: новеллы. Учебно-практическое пособие. – Бишкек, 2018. С.149.

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI FAOLIYaTINI TAKOMILLAShTIRISh YuZASIDAN AMALGA OShIRILAYoTGAN ISLOHOTLAR

Yuldashev Sh.N.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi unversiteti,Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi dosenti, yu.f.b.f.d (PhD)
Kutlimuratov M.Sh.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Magistraturasi tinglovchisi, kapitan

Annotasiya: Har qanday demokratik jamiyatda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, ularning oldini olish muhim ustuvor vazifalardan biridir. Chunki huquqbuzarliklar nafaqat qonun buzilishi, balki jamiyatda tartibning buzilishi, inson xavfsizligiga tahdid, iqtisodiy barqarorlik va ma’naviy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun huquqbuzarliklarning profilaktikasi davlat siyosati darajasida qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, jinoyatchilikni kamaytirish va aholi bilan samarali ishlash mexanizmlarini yaratishga qaratilgan. Mazkur maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning mazmun-mohiyati va ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: huquqbuzarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, “og‘ir” va “murakkab” mahalla.

Mamlakatimizning rivojlanish jarayonida, huquqiy demokratik davlatni barpo etish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘tgan qisqa davrda mamlaktaimizda barcha sohalarda ko‘zga ko‘rinarli islohotlar amalga oshirildi, bular har bir sohada, jumladan huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini takomillashtirish borasida ham o‘z ifodasini topmoqda.

«Словари и энциклопедии на Академике»[1] (https://dic.academic.ru) saytida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, «profilaktika» tushunchasi grekcha «prophylaktikos» so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tiliga aynan tarjima qilinganda «saqlash, ehtiyot qilish» (предохранителный) ma’nosini beradi. «Profilaktika» tushunchasiga «oldini olish, ehtiyot chorasi(ni) ko‘rish, oldindan bartaraf qilish» (предотвращение), «xabardor qilib qo‘yish, ogohlantirish, oldini olish» (предупреждение), «saqlash, ehtiyot qilish» (предохранение) so‘zlari sinonim so‘zlar hisoblanadi.

Fikrimizcha, profilaktika bu har qanday sohada vujudga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarning "oldini olish" ma’nosini anglatadi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi deganda jinoyat va boshqa huquqqa xilof xatti-harakatlarning sodir etilishini barvaqt aniqlash, ularning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Ushbu jarayonning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Fuqarolarda huquqiy ongni shakllantirish;
- Ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarning oldini olish;
- Qonun ustuvorligini ta’minlash;
- Jinoyatga moyil toifalar bilan ishlashni samarali tashkil qilish.

Shu o‘rinda huquqbuzarlkilar profilaktikasi tushunchasiga alohida to‘xtaladigan bo‘lsak, **“huquqbuzarliklar profilaktikasi”**—bu huquq-

[1] Словари и энциклопедии на Академике. https://dic.academic.ru/dic.nsf/enc3p/246202

tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi[1] bo‘lib, huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatiga oid islohotlar asosan qonunchilik va davlat organlarining ishini takomillashtirish, jamoatchilik va fuqarolarni profilaktika jarayonlariga jalb qilish, profilaktika faoliyatining monitoringini ta’minlashga qaratilgan. Islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

- **Huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olish**: Jamiyatdagi huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatlar xavfini kamaytirish.
- **Profilaktika faoliyatini samarali tashkil qilish**: Davlat organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi ishini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish.
- **Qonunchilikni mukammallashtirish**: Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni isloh qilish.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikni oldini olish jamiyatdagi huquqiy tartibni saqlashga qaratilgan muhim faoliyatdir. Qonunlarning samarali ishlashi, huquqiy mexanizimlarning takomillashtirilishi, davlat organlari va jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omillardir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3 yanvar kuni qabul qilingan “2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ – 1-sonli Qarori[2] huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikning oldini olish sohasidagi islohotlarning yangi bosqichini belgilaydi.

Mazkur qaror mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish, huquqbuzarlikni sodir etishga sabab bo‘layotgan ijtimoiy-maishiy muammolarni ijtimoiy

[1] Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги қонуни. 3-м. Электрон манба: https:// https://lex.uz/docs/2387357. (мурожаат вақти 17.09.2025)

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 январдаги “2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-1-сон қарори. Электрон манба: https://lex.uz/docs/7330260 (мурожаат вақти 17.09.2025)

profilaktika choralari tizimi orqali hal etish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirish borasida, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishning tashkiliy-profilaktik asoslarini zamon talablariga moslashtirish, sodir etiladigan qonunbuzilishlarning asl omillarini o‘z vaqtida aniqlash va kompleks chora-tadbirlar bilan manzilli bartaraf etish orqali jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini yanada oshirishni, shu bilan birga jamiyatdagi huquqiy tartibni mustahkamlash, jinoyatchilikning kamayishini va mamlakatda huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini yangi darajaga ko‘tarish uchun muhim qadam hisoblanadi.

Mazkur qaror jamiyatda mahalliy darajada huquqbuzarliklarni oldini olish tizimini takomillashtirish, mahallada xavfsizlikni ta’minlash va jamoatchilik faolligini oshirishga qaratilgan.

Qarorga asosan huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida qanday ijobiy islohotlar amalga oshirildi?!

Birinchidan, mas’ul idoralar va muassasalar uchun 2025 yilda «Har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish» ustuvor vazifa etib belgilandi.

Mas’ullar faoliyati har oy yakunida— ichki ishlar vaziri huzurida, har chorak yakunida — bosh prokuror huzurida, har yarim yilda bosh vazir huzurida tanqidiy muhokama qilinadi, har bir mahalla kesimida prezidentga axborot berib boriladi.

Mahallalar jamoat joylari va yashash xonadonlarida xavfsiz muhit yaratish, fuqarolar hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga har qanday tajovuzlarning oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalarni keng joriy etib boriladi.

Ikkinchidan, qarorga muvofiq, viloyatlar markazlari va kriminogen vaziyat og‘ir tuman (shahar)lar mahallalarida **profilaktika kichik inspektori faoliyati yo‘lga qo‘yildi.** Kichik inspektorlarga mehnat migrantlari, maktab bitiruvchilari va talabalar bilan ishlash vazifasi yuklatildi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatidagi mutlaqo yangi tuzilma bo‘lgan tumanlararo **ma’muriy konvoy guruhlari** tashkil qilindi[1].

Mazkur qaror qabul qilunguniga qadar ma’muriy qamoqqa olingan shaxslarni maxsus qabulxonalarga, muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan

[1] Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг “Ички ишлар органларининг туманлараро маъмурий конвой гуруҳлари фаолиятини тўғ‘рисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 2025 йил 21 февралдаги 116-сонли буйруғ‘и.

shaxslarni reabilitasiya markazlariga hamda narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni davolash muassasalariga olib borishda profilaktika inspektorlari tomonidan ularning shaxsiy avtotransportlarida yoki tijorat avtotransportlaridan foydalanilgan holda olib borilgan. Bu esa o‘z navbatida profilaktika inspektorlarining belgilangan mahalla hududidan tashqariga chiqishiga, ortiqcha sarf-xarajat qilishiga hamda fuqarolaring ortiqcha sarson bo‘lishiga olib kelayotgan edi.

Qaror ijrosini ta’minlash maqsadida Ichki ishlar organlarida tumanlararo **ma’muriy konvoy guruhlarining** tashkil qilinganligi profilaktika inspektorining vaqtini tejashga hamda maxsus toifadagi shaxslarning xavfsizligi to‘liq ta’minlangan holda manzildan manzilga etkazish, qonun ustuvorligi va jazo muqarrarligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, sinov tariqasida **kriminogen vaziyat og‘ir hududlardagi profilaktika bo‘linmalarida ma’muriy amaliyot guruhlari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi** va ular jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etishga oid hujjatlarni o‘rganib, tarkibida ma’muriy huquqbuzarlik bo‘lgan holatlar yuzasidan hujjatlarni rasmiylashtiradi.

Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Unga profilaktika (katta, kichik) inspektorlari, xotin-qizlar masalalari bo‘yicha, probasiya, yo‘l harakati xavfsizligi va patrul-post xizmatlari inspektorlari hamda tezkor-qidiruv xizmati xodimi kiritiladi, Milliy gvardiya qo‘riqlash bo‘linmalarining naryadlari xizmat olib borishi tashkil etiladi.

Natijada — 5 tagacha mahalla mikrohududga birlashtiriladi va jinoyatchilik oldini olish bo‘yicha tezkor harakatlanish tizimi yaratiladi.

“Ijtimoiy profilaktika tadbirlarini”[1]ni samarali amalga oshirish uchun:

- ma’muriy huquqbuzarlik «E-ma’muriy ish»da ro‘yxatdan o‘tganda huquqbuzar *(jabrlanuvchi)*larga avtomatik ijtimoiy profilaktikani amalga oshirish bo‘yicha xulosa ijroga qaratiladi;
- har bir xulosa ijrosi ustidan kunlik nazorat o‘rnatiladi «mahalla ettiligi» va ko‘maklashuvchilarning faoliyati *(KPI)* ijtimoiy profilaktika natijalari asosida baholanadi.

Mahalla raisi «mahalla ettiligi» va mahallaga biriktirilgan davlat organlari bilan ijtimoiy profilaktika tadbirlarini tashkil etadi.

[1] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 30 ноябрдаги “«Обод ва хавфсиз маҳалла» тамойили асосида маҳаллаларда ижтимоий профилактика тизими самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” 801-сон қарори. Электрон манба https://www.lex.uz/docs/7243832 (мурожаат вақти 18.09.2025)

Kriminogen vaziyati og‘ir mahallalarda kamida bittadan «namunali xavfsiz ko‘cha» va «namunali xavfsiz yo‘lak»lar tashkil qilinadi.

«Namunali xavfsiz ko‘cha» va «namunali xavfsiz yo‘lak»larni tashkil qilgan, kriminogen vaziyati barqarorlashgan «mahalla ettiligi» va sektor rahbarlari hokimliklar tomonidan mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan qo‘shimcha moddiy rag‘batlantirilib boriladi.

Bir so‘z bilan aytganimizda, qarorning ijrosi, uning asosiy maqsadlariga erishish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar va natijalarga ayniqsa e’tibor qaratilmoqda.

Fikrimizcha, buning uchun mahalliy hokimiyat organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida aniq birdamlik, resurslar etkazib berish va qarorni bajarish uchun tayyorlangan professional kadrlar muhim hisoblanadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini samarali amalga oshirish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning hamkorligi jinoyatchilikka qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega. Amaldagi islohotlar, qonunlar va profilaktika tadbirlari faoliyatining samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular jamiyatdagi huquqiy tartibni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, jamoatchilikni profilaktika faoliyatiga jalb qilish va davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bu jarayonning samarali amalga oshirilishiga katta hissa qo‘shayotganini aytish mumkin.

Huquqbuzarliklarning profilaktikasi — jamiyatdagi huquqiy tartibni saqlash va aholining xavfsizligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Bu faoliyat nafaqat qonunchilikni mustahkamlash, balki jamiyatdagi ma’naviy va ijtimoiy muhitni yaxshilash, yoshlar va aholini huquqiy savodxonlikka o‘rgatish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini yaratishga qaratilgan. Huquqbuzarliklarning profilaktikasi, agar davriy monitoring, jamoatchilik va davlat organlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik bilan amalga oshirilsa, o‘zining maksimal samarasini beradi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ushbu sohadagi islohotlar axolining huquqiy ongini oshirish, jinoyatchilikni kamaytirish va jamiyatda xavfsiz muhitni yaratish uchun yangi mexanizmlar ishlab chiqilgan. Mahalla tizimining roli va jamoatchilik tashkilotlarining faoliyati, shuningdek, yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan choralar, mamlakatdagi huquqbuzarliklarning profilaktikasiga katta yordam beradi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish – bu faqat jazo berish emas, balki jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish, inson qadrini ulug‘lash, muammolarni barvaqt aniqlash orqali barqarorlikka erishishdir.

Shunday ekan, Prezidentimizning “2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori ham mamlakatda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo‘yicha samarali tizim yaratishda muhim qadam bo‘lib hisoblanadi. Mahalla tizimidagi huquqiy va ijtimoiy tashabbuslarni mustahkamlash, jamoatchilik bilan birgalikda profilaktik tadbirlarni kengaytirish va yoshlar orasida ijtimoiy mas’uliyatni oshirish – qarorning asosiy maqsadlaridir. Bu chora-tadbirlar, o‘z navbatida, jamiyatda umumiy xavfsizlikni ta’minlashga va huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T 2023 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi” qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiining 2025 yil 3 yanvardagi “2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-1-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 noyabrdagi “«Obod va xavfsiz mahalla» tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 801-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi IIVning “Ichki ishlar organlarining tumanlararo ma’muriy konvoy guruhlari faoliyatini to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2025 yil 21 fevraldagi 116-sonli buyrug‘i.
6. Aliyev, M. A. (2024). “Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari”. Toshkent, “Akademiya” nashriyoti.

Ichki ishlar organlari xodimlarining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha professional kadrlar sifatida tayyorlash istiqbollari.

Xamrayev J.Q.
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Yuridik fanlar kafedrasi o‘qituvchisi, kapitan

Annotatsiya: Maqolada muallif O‘zbekiton Respublikasi HMQOni xalqchil, professonal kadrlar bilan ta’minlash va xizmatni tashkil etish borasidagi muammolar va ularning yechimi yuzasidan “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” va “O‘zbekiston-2030 strategiyasi”da belgilangan maqsadlar yuzasidan ijtimoiy yondoshuvlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jamoat tartibi, Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi, huquqshunoslik fanlari.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda[1]. Zero, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida keng ko‘lamli islohotlar, insonlarning asosiy huquq va erkinliklarini muhofaza qilinishini ta’minlash har qanday demokratik davlatning asosiy funksiyasi va maqsadi hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan davlatning funsiyasini jamoat tartibi huquqiy kategoriyasisiz tasavur etib bo‘lmaydi. Jamoat tartibi tushunchasiga haqida bir qancha olimlar tomonidan turli xil bir biriga yaqin ta’riflar keltirilgan. Bizningcha ***jamoat tartibi*** *- jamiyatning barcha a’zolari birdek foydalanish huquqiga ega bo‘lgan joylarda unda mavjud bo‘lgan barcha insonlar birdek bo‘ysunishi majburiy bo‘lgan hulq-atvor qoidalaridir.*

O‘zbekiton Respublikasida jamoat tartibini saqlovchi bir necha huquqni muhofaza etuvchi organlar mavjud bo‘lib, ularning orasida Ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari salmoqli o‘rin tutadi. Ularning asosiy maqsadi aholining ishonchli himoyachisi xalqchil professional kadrlar sifatida tayyorlash, ularning fuqarolar, jamoat tashkilotlari, shuningdek Ichki ishlar organlarining Tergov bo‘linmari bilan yaqin hamkorlikda, o‘zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlashini ta’minlash, mahallalar, aholi turar joylari va butun yurtimizda qonun ustuvorligi,

[1] Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 16.01.2024 й., 06/24/10/0031-сон

tinchlik-osoyishtalikni yanada mustahkamlash, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, xizmatga salbiy ta’sir o‘tkazayotgan sabablarini nazariy jihatdan o‘rganish maqsadga muofiqdir.

So‘ngi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda Ichki ishlar organlari xodimlari va fuqarolar o‘rtasidagi nizoli holatlar aks etgan video lavhalar tarqalmoqda. Bu kabi holatlar sohada bir qator kamchiliklar borligini ko‘rasatadi. Nizoli holatlarning yuzaga kelish sabalari nazariy jihatdan o‘rganilganda bir qancha, xususan;

- fuqarolar bilan bahsli holatlar yuzaga kelganda psixologik jihatddan to‘g‘ri muloqot qilish hamda tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalariga ega emasligi;
- xizmat faoliyatida jismoniy kuch ishlatish va maxsus vositalarni qo‘llash qoidalarini to‘liq bilmasligi;
- yetarli psixologik va madaniy bilimlarga ega emasligi sababli fuqaroning yoshi, jinsi, jismoniy, ijtimoiy va ruhiy holatidan kelib chiqgan holda muomala qilish usullarini qo‘llay olmasligi;
- odob-ahloq qoidalariga amal qilmaslik kabi omillar ko‘zga yaqqol tashlanadi.

2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining ***“Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish”*** – deb nomlangan ikkinchi ustuvor yo‘nalishida **jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish (16-maqsad) va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish (17-maqsad) kabi bir qator vazifalar belgilab berilgan[1].**

Bu yo‘nalishda tegishli qonunchilik va me’yoriy-huquqiy baza shakllantirilib, doimiy ravishda takomillashtirib kelinmoqda. Ta’kidlash joizka faqat qonunchilik ba’zasini mustahkamlashning o‘zi bilangina Xalqchil Ichki ishlar organlarini tashil etish ayniqsa professional xodimlarni tayyorlashning imkoni yo‘q. Shu ma’noda, 2021 yil 12 fevral kuni Ichki ishlar vazirligi hay’atining kengaytirilgan yig‘iligi ishtirok etgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ichki ishlar organlari faoliyati, tizimda mavjud muammo va kamchiliklar, istiqboldagi

[1] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son

vazifalarga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi ma’ruzasida jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida quydagi; “Huquq-tartibot idoralariga hamma sharoitlarni yaratib, eng zamonaviy texnikalarni olib berdik. Katta vakolat, kuch va vositalar bor. Lekin natija kutilganidek emas. Organlar yakdil bo‘lib, vertikal boshqaruvni to‘g‘ri tashkil eta olmayapti. Ularning ishidan xalqimiz norozi”[1] fikrlarni bildirgan.

Yuqorida keltirilgan maqsadlarni amalga oshirish, Ichki ishlar organlari uchun mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo‘yicha o‘sishini ta’minlash, shuningdek, kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingna qarorda 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab, Ichki ishlar vazirligining Akademiyasida kadrlarni tayyorlash jarayoniga bakalavriat va magistraturani o‘z ichiga oluvchi ikki bosqichli oliy ta’lim tizimi joriy etilishi, kadrlarni maqsadli kasbiy tayyorlashga qaratiladi hamda birinchi kursdan boshlab mutaxassislik va yuridik fanlarni o‘qitish chuqurlashtirilgan holda amalga oshirilishi belgilandi[2]. Prezidentimizning ushbu qarori bilan faqatgina Ichki ishlar vazirligi Akademiyasiga alohida e’tibor qaratilmasdan Ichki ishlar vazirlgi Malaka oshirish instituti zimmasiga ham bir qator vazifalar yukladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xususan, Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutiga yuridik shaxs maqomi berilib va uning faoliyati asosiy yo‘nalishlari;

- ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha serjantlar tarkibi xodimlarini jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tashkil etish sohasida maxsus kasbiy tayyorlash;
- ichki ishlar organlarining safdor va ofitserlar tarkibidagi lavozimlariga birinchi marta tayinlangan xodimlarni boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik bo‘yicha o‘quv dasturlari asosida o‘qitish;
- ichki ishlar organlarining barcha toifadagi xodimlarini innovatsion axborot va pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda, shu jumladan turdosh yo‘nalishdagi respublika oliy ta’lim muassasalari bazasida qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish etib belgilandi.

Shuningdek, Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlari tugatilib, ularning

[1] Sh.M.Mirziyoev 12.02.2022 yildagi IIV hay’tining kengaytirilgan yig‘ilishidagi so‘zlagan nutqidan.
[2] **Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi 22.08.2023 y., 07/23/282/0631-son**

shtat birliklari va moddiy-texnika bazasi Malaka oshirish institutiga o‘tkazildi.

O‘z o‘rnida aytish lozimki, Ichki ishlar vazirligi malaka oshirish instituti yuridik shaxs maqomini olganidan keyish bir qator ijobiy ishlarni amalga oshirib, Ichki ishlar organlarini vatanga va xalqqa sodiq bo‘lgan profissanal kadrlar sifatida tayyorlash bo‘yicha bir nechta kafedra va sikllar tashkil qilib, ularda xodimlarni xar tomonlama yetuk kadrlar sifatida tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha samarali tizim joriy etildi. Ushbu tizim bo‘yicha Ichki ishlar organlariga tanlov asosida ofitserlik va safdorlik lavozimlariga qabul qilingan xodimlar bilan boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik, Ichki ishlar organlari xodimlariga navbatdagi “katta serjant”, “kapitan” “mayor” va “podpolkovnik” maxsus unvonini olish uchun maxsus malaka oshirish kursi, shuningdek Ichki ishlar organlarining barcha darajadagi bo‘lim boshliqlari, tuman (shahar, tarmoq) ichki ishlar organlari boshlig‘ining o‘rinbosari lavozimiga tayyorlash uchun zahiradagi xodimlar bilan malaka oshirish o‘quv kurslari muntazam ravishda tashkil etilib, ularda ridik tayyorgarlik moduli bo‘yicha huquqiy ta’lim berilmoqda.

Ushbu modul bo‘yicha tinglovchilar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, unda shaxsning huquqiy maqomi, inson huquqlari, huquqbuzarliklar tushunchasi va turlari, ma’muriy huquqbuzarlik va ma’muriy javobgarlik, jinoyat va jinoyat-protsessul qonunchiligi, fuqarolik va oila huquqiga oid umumiy bilimlar;

- IIO faoliyatga taalluqli huquq normalaridan foydalanish va qo‘llash, ma’muriy ishlarni ko‘riy choralari va protsessual majburlov choralari, ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqish, dalillar to‘plashda tuziladigan hujjatlarni rasmiylashtirish va jamoat tartibini saqlash faoliyatida qiynoqqa qarshi kurashish yuzasidan **ko‘nikmalarga**;
- faoliyatni tartibga soluvchi huquq normalaridan foydalanish, ma’muriy huquqbuzarliklarning tarkibi va taspiflash me’zonlari, jinoyat qonunining qo‘llash, jinoyatlarning boshqa turdagi huquqbuzarliklardan farqlash, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi (zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish va x.k) holatlarni ajratish, protsessual hujjatlarni tuzish kabi **malakalarini** egallashiga alohida e’tibor qaratildi.

Bir so‘z bilan aytganda yuridik tayyorgarlik moduli bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kasbiy, shaxsiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish kompetensiyalarini shakillantirish

bo‘yicha boy amaliy tajribaga ega bo‘lgan professor-o‘qitiuvchilar tomonidan o‘quv mag‘ulotlarni o‘tkazilmoqda.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yo‘l-patrul xizmati xodimlarining harakat ishtirokchilari bilan muomala madaniyati

Xadjayev M.A.
Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi o‘qituvchisi

Mamlakatimizda aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash, jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirish bilan bir qatorda jamoat xavfsizligi sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish hamda ushbu yo‘nalishdagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “biz bugun xalqchil va demokratik tamoyillarga asoslangan yangi O‘zbekiston davlatini, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etmoqdamiz. Shu maqsadda avvalo bebaho boyligimiz bo‘lgan tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga eng muhim vazifa sifatida ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz. Bugun dunyoda va mintaqamizda, chegaralarimizda keskinlik, turli tahdid va xatarlar kuchayib borayotgan bir sharoitda bu masalaning qanday beqiyos ahamiyatga ega ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz”[1].

O‘z navbatida Yo‘l patrul xizmati xodimlari jamoatchilik xavfsizligini ta’minlash va qonun ustuvorligini saqlashda muhim vazifani bajaradilar. Ular jamoatchilik bilan doimiy muloqotda bo‘lib, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga xizmat qiladilar. Shuning uchun ularning muomala madaniyati juda muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, jumladan Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining eng muhim vazifalaridan biri – yo‘l harakati ishtirokchilarining huquqlariga so‘zsiz rioya etilishini, ularning sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishini, xizmat o‘tash vaqtida muomala madaniyati va odob-ahloq qoidalariga qat’iy amal qilinishini ta’minlash etib belgilangan[2].

Shu nuqtai nazardan, muomala madaniyati xodimlar va fuqarolar o‘rtasida ishonchli, ochiq va samarali aloqa o‘rnatishga yordam berib,

[1] M.Sh.Mirziyoev, Vatanimiz mustaqilligi – biz uchun kuch-qudrat va ilhom manbai, taraqqiyot va farovonlik asosi // Prezident Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi / [Elektron manba]. – URL: https://president.uz/uz/lists/view/4596

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3127-son Qarori

samarali muomala xizmat sifati va jamoat xavfsizligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

Muomala madaniyati – bu insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda etika, hurmat va odobni saqlashni ko‘zda tutadigan madaniy va ijtimoiy qoidalar majmuidir. U nafaqat so‘zlashuv, balki boshqa kommunikativ vositalar (jismoniy harakatlar, ishoralar) orqali ham ifoda etiladi.

Yo‘llarda harakatlanayotgan har bir shaxs (piyoda, haydovchi, velosipedchi va h.k.)ning shaxsiy xavfsizligi ta’minlanishi lozim. Davlat buning uchun qonunlar va tizimlarni joriy etadi.

Yo‘l harakati qoidalariga amal qilish – nafaqat huquq, balki boshqalarning hayoti va xavfsizligi uchun mas’uliyat hisoblanadi.

Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.

Yo‘l-patrul xizmati xodimlarining harakat ishtirokchilari bilan muomala qilishda quyidagi asosiy prinsiplarni keltirib o‘tish maqsadga muvofiq sanaladi. Jumladan:

- Hurmat va ehtirom: Har bir shaxsning qadr-qimmatini tan olish va uni hurmat qilish.
- Samimiylik va ochiqlik: Munosabatlarda chindillik va ochiq muloqotni ta’minlash.
- Sabr-toqat va tinchlik: Qiyin vaziyatlarda ham tinchlikni saqlash, stressni boshqarish.
- Professionallik va mas’uliyat: Kasbiy faoliyatda javobgarlikni his qilish va adolatlilik.
- Yo‘l patrul xizmati xodimlari ushbu prinsiplarga qat’iy amal qilishi kerak, chunki ularning muomalasi jamoatchilikda xizmatga bo‘lgan ishonchni shakllantiradi.

Yo‘l harakati xavfsizligi xodimlari fuqarolar bilan doimiy muloqotda bo‘ladi. Ular tomonidan har bir harakat qatnashuvchisi — haydovchi, piyoda, yo‘lovchi va boshqalarga nisbatan hurmat bilan muomala qilish ishonch va ijobiy munosabatni ta’minlaydi. Shunday munosabat qonun-qoidalarga bo‘lgan itoatkorlikni ham kuchaytiradi. Shuningdek, fuqarolar ham inspektorlarga nisbatan hurmat saqlashi kerak, bu ikki tomonlama hamkorlikni ta’minlaydi.

Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari fuqarolar bilan muloqatda xushmuomala, kamtar va bosiq bo‘lishi, ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy

ahvoli va boshqa omillardan qat’i nazar, hech bir shaxs, guruh yoki tashkilotning kamsitilishi yoki afzal ko‘rilishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim.[1]

Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatida ochiq va rostgo‘y aloqa juda muhim. Xodimlar fuqarolarga aniq, to‘g‘ri ma’lumot berishlari, qonun talablarini tushuntirishlari va o‘z harakatlarining sababini anglatishlari kerak. Samimiy munosabat ishonchni mustahkamlaydi va korrupsiyaga qarshi kurashda ham samarali vosita hisoblanadi.

Inspektorlar har kuni turli xarakterdagi insonlar bilan to‘qnash keladilar. Ba’zan esa ziddiyatli vaziyatlar ham yuzaga keladi. Bunday paytda ehtiyotkorlik, sabr va xulq-atvordagi tinchlik insoniy munosabatni saqlab qolish va vaziyatni nazorat qilishga yordam beradi. Agressiv munosabat esa ziddiyatni kuchaytirishi mumkin.

Yo‘l harakati xavfsizligi xodimlari har qanday vaziyatda qonun asosida, xolis va adolatli qaror chiqarishlari shart. Ular doim o‘z bilimlarini oshirib borishlari, zamonaviy axborot resurslaridan, raqamli texnika vositalardan foydalanishni bilishlari va mas’uliyatni his qilishlari lozim. Professionallik faqat forma kiyish bilan emas, balki o‘z ishiga fidoiy va bilimli bo‘lish bilan namoyon bo‘ladi.

Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati nafaqat tartib saqlash, balki jamiyatda ishonch, adolat va tinchlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu prinsiplar nafaqat xodimlarning, balki butun jamiyatning farovonligi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

YPX inspektori fuqarolar bilan xushmuomalada bo‘lishi, tahqirlash, xafa qilish, baland ovozda gapirish kabi xatti-harakatlardan tiyilishi shart.

Murojaat qilishda "Assalomu alaykum", "Iltimos", "Rahmat" kabi so‘zlardan foydalanishi tavsiya etiladi.

To‘xtatilgan haydovchiga YPX xodimi o‘zini tanishtirishi: familiyasi, lavozimi, qaysi bo‘limdan ekanini aytmog‘i va xizmat guvohnomasini so‘ralsa, taqdim etmog‘i shart.

Haydovchi inspektor bilan muloqot jarayonini video yoki audio yozib olishi mumkin (bunda davlat sirlari yoki shaxsiy ma’lumotlar oshkor etilmasligi lozim).

YPX xodimi ham kuzatuv videokamerasi orqali xizmat jarayonini yozib olishi mumkin.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 20 yanvardagi PQ-10-son “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi KODEKSI”

Inspektor haydovchiga nisbatan haqorat, tahdid, kamsitish, milliy yoki boshqa belgilari asosida farq qilish kabi xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymasligi shart.

Agar haydovchi qo‘pol muomalada bo‘lib, tortishuvli holatda bo‘lsa ham, YPX xodimi vaziyatni tinch va professional hal qilishga urinishi kerak.

YPX xodimlari o‘z xizmat faoliyatlarini "Yo‘l harakati to‘g‘risida"gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi IIVning ichki me’yoriy hujjatlari, YPX xodimlari uchun axloq va xizmat odob-axloq qoidalari asosida amalga oshiradilar.

YPX xodimi o‘z vakolatini suiiste’mol qilsa fuqaro yuqori turuvchi idoralarga, xususan Ichki ishlar organlariga yoki Prokuraturaga rasmiy shikoyat yozishi mumkin, bunda videoyozuv, guvohlar, bayonnoma nusxalari dalil sifatida ishlatilishi mumkin.

Har bir fuqaroga adolat va hurmat bilan munosabatda bo‘lish lozim. Hech qanday kamsitish yoki haqoratga yo‘l qo‘yilmasligi kerak.

Qiyin vaziyatlarda ham salbiy his-tuyg‘ularga berilmaslik, tinchlik va sabrni saqlash lozim.

Yo‘l harakati xavfsizligi xodimlarining fuqarolar bilan muloqat qilish qoidalari, fuqarolarning huquqlari va xodimlarning vazifalari aniq belgilab qo‘yilgan. Bu qoidalar qonunchilik, xizmat intizomi, hamda odob-axloq talablariga asoslanadi.

YPX xodimi haydovchini yoki piyodani to‘xtatgan zahoti:

⇒ Uning oldiga borishi;

⇒ Salomlashishi;

⇒ Harbiy unvoni, familiya, ismi, sharifini aniq aytishi;

⇒ Hizmat guvohnomasini so‘ralganda ko‘rsatishi majburiy;

⇒ Xodim hech qanday holatda fuqaroni haqorat qilmasligi kerak;

⇒ Ovozini ko‘tarish, tahdid qilish, kinoya bilan gapirish taqiqlangan;

⇒ Barcha fuqarolarga, jumladan, yoshlar, keksalar va nogironlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi shart;

⇒ Har qanday talab yoki harakat faqat qonunga asoslangan bo‘lishi shart.

Bu fuqaroning himoya mexanizmi hisoblanib, u xodimning haqiqiyligiga ishonch hosil qiladi.

Yo‘l-patrul xizmati xodimi bilan harakat ishtirokchilari o‘rtasida muloqat madaniyati va tartibi jahon tajribasida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayon nafaqat huquqiy asoslarga, balki psixologiya, etika va xizmat madaniyatiga ham tayanadi.

Germaniya, Fransiya va Shvesiyada YPX xodimlari muloqotda maksimal darajada muloyim va hurmat bilan murojaat qiladi. Xodim avval salomlashadi, keyin o‘zini tanishtiradi va to‘xtatish sababini aniq va qisqa tushuntiradi. “Profilaktika jazodan ustun” printsipi asosida ish yuritiladi, avval tushuntirish va ogohlantirish, zarur holdagina jazo chorasi qo‘llanadi.

Fransiyada jandarmeryalar haydovchilarni profilaktika maqsadida to‘xtatishi mumkin. Ular avtomobil holati, haydovchining hujjatlari, hatto yuzidan charchoq alomatlarini ham tekshirilishi mumkin. Jandarmeriya katta mas’uliyat bilan ishlaydi, lekin doimo hurmat saqlaydi.

Buyuk Britaniyada politsiya birinchi bo‘lib salomlashadi va o‘zini tanishtiradi, nega to‘xtatganini tushuntiridi, politsiya xodimi hech qachon baqirmaydi, tahdid qilmaydi, muloqat diplomatik, to‘g‘ri va o‘zaro hurmat asosida olib boriladi.

AQShda Yo‘l politsiyasi xodimlari muloqatni o‘zini tanishtirish va qonunga tayanishdan boshlaydi. Ularda xavfsizlik birinchi o‘rinda turadi, haydovchi qo‘llarini rulda saqlashi shart, xodim esa hurmat bilan muloqat qiladi.

Agar haydovchi norozi bo‘lsa, xodim bilan tortishish emas, balki sud orqali shikoyat qilish tartibi yo‘lga qo‘yilgan.

Yaponiyada jamoatchilik madaniyati va intizom yuqori darajada. YPX xodimlari muloqatda doimiy tabassum va xushmuomalalik bilan chiqishadi.

Haydovchilar ham xodimga xurmat ila murojaat qiladi, tortishish va bahsga kirishish deyarli kuzatilmaydi.

Jazodan ko‘ra tartib va obro‘ masalasi ustun turadi. Haydovchi qoida buzsa, bu uning obro‘siga dog‘ deb qaraladi.

Politsiya xodimlari doimo muloyim va past ovozda so‘zlashadi. Ko‘pincha og‘zaki ogohlantirish bilan cheklanishadi, kichik qoidabuzarliklarda jarima yozmasdan og‘zaki ogohlantirish berish odatiy hol.

Eng muhim tamoyil — tartib va or-nomus: Haydovchi ham, politsiya ham madaniyatli muomalada bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, muomala madaniyati yo‘l patrul xizmati xodimlarining ish sifati va jamoatchilik bilan ishonchli aloqa o‘rnatishini ta’minlaydi. Har bir xodim insoniylik, hurmat va mas’uliyatni unutmasligi lozim. Muomala madaniyatini takomillashtirish xizmat

samaradorligini oshiradi va jamoat xavfsizligini ta’minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O‘zbekiston Respublikasi Mamuriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi;
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi;
4. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-yanvardagi “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi O‘RQ-900 son qonuni;
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 20 yanvardagi PQ-10-son “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi”;
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 1 dekabrdagi 975-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l-patrul xizmati xodimlarining yo‘l harakati qatnashchilari bilan o‘zaro munosabatlari hamda maxsus moslamalardan foydalanishi tartibi to‘g‘risidagi Nizom”

Jamoat xavfsizligi: huquqiy asoslar va ijtimoiy islohotlar yo‘nalishlari

Toshmurodov A.O.
Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini ijtimoiy-huquqiy jihatdan takomillashtirish masalalari yoritib berilgan. Unda mavjud normativ-huquqiy bazaning tahlili, huquqiy bo‘shliqlar va amaliyotdagi muammolar ko‘rib chiqilgan. Jamoat xavfsizligi sohasida fuqarolarning ishtiroki, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va xalqaro tajribalarni joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Maqolada taklif etilgan yondashuvlar O‘zbekistonning huquqiy davlat sifatida shakllanishida jamoat xavfsizligi tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Jamoat xavfsizligi, huquqiy islohotlar, ijtimoiy barqarorlik, qonunchilik tizimi, fuqarolik jamiyati, xavfsizlik siyosati, normativ hujjatlar, huquqiy madaniyat.

Jamiyat barqarorligi, fuqarolarning tinch va xavfsiz hayoti — har bir davlat siyosatining markaziy yo‘nalishlaridan biridir. Bunda jamoat

xavfsizligi tushunchasi huquqiy, ijtimoiy, ma’muriy va iqtisodiy komponentlarni birdam holda o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kompleks islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, jamoat xavfsizligini takomillashtirish faqat politsiya yoki ichki ishlar tizimiga yuklanadigan masala emas, balki jamiyatning barcha qatlamlari, huquqiy tashkilotlar, xalqaro standartlar va qonunchilik bazasining uyg‘unligiga bog‘liq jarayondir. Ushbu maqolada quyidagilar ko‘rib chiqiladi: Jamoat xavfsizligi kontseptsiyasi va uning ijtimoiy-huquqiy mohiyati, O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha amaldagi qonunchilik va uning kamchiliklari, Ijtimoiy-huquqiy takomillashtirish yo‘nalishlari va takliflar.

Jamoat xavfsizligi — jamiyat hayotini turli xavf-tahdidlardan himoyalash, aholi tinchligini, umumiy tartib-intizomni saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish tizimi.

Konsepsiyada **jamoat xavfsizligi** “jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati” deb belgilangan. Bu tushunchaning huquqiy mohiyati shundan iboratki, davlat va jamiyat o‘rtasida xavfsizlikni o‘rnatuvchi huquqiy asoslar bo‘lishi lozim, u davlat organlari bajargan faoliyat emas, balki fuqarolar huquqiy kafolatlangan xavfsizlikdir.

Jamoat xavfsizligi ijtimoiy va huquqiy tamoyillar orqali amalga oshiriladi: qonun ustuvorligi, huquqiy davlat, inson huquqlari himoyasi, demokratik boshqaruv, nazorat va mas’uliyat prinsiplar. Bu prinsiplar jamoat xavfsizligi tizimini shakllantirishda poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Jamoat xavfsizligi sohasida huquqiy normativlar — konstitutsiya, qonunlar, kodekslar, prezident farmonlari va qarorlari, vazirlik normativ-huquqiy hujjatlari — hamda ularning ijrosini ta’minlovchi organlar (ichki ishlar, prokuratura, sud, huquqni muhofaza qilish idoralari) birgalikda ishlaydi.

Shuningdek, “Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi e’lon qilingan bo‘lib, u sohada yagona huquqiy ramka yaratishga intilmoqda.

Shuningdek jamoat xavfsizligini ijtimoiy-huquqiy takomillashtirishda leberallashtirish yo‘nalishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yaqin yillarda O‘zbekistonda jinoiy qonunchilikni liberallashtirish va ayrim hollarda dekriminallashtirish yo‘nalishlari sezilarli bo‘lmoqda. Masalan, bo‘sh vaqt faoliyatsizligi (yumushlar) ga alohida e’tibor qaratilmoqda, ayrim xatti-harakatlar ma’muriy yurisdiksiyaga o‘tkazildi.

Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz muomalalarning oldini olishga oid huquqiy mexanizmlar kuchaytirildi: Jinoyat-ijroiya kodeksiga qo‘shimchalar kiritilishi rejalashtirilmoqda. Qiynoqqa solishdan jabrlanganlarga yetkazilgan zarar to‘la hajmda davlat tomonidan qoplanishi normasi belgilandi.

Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida davlat organlari va jamoatchilik tuzilmalarining hamkorligi, fuqarolarning ishtirokini rag‘batlantirish, xabardorlik va kuzatuv tizimlarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan Normativ-huquqiy hujjatlarni tarqatish tizimini takomillashtirish, qonunlarni tushunarli va ochiq qilish choralari ko‘rilmoqda.

Shuningdek quyidagi yo‘nalishda kamchiliklar va muammolar mavjud:

Normativ bo‘shliqlar va vakolat mo‘rtligi: ba’zi hududlarda ichki ishlar va mahalliy hokimliklar vakolatlari aniqlanmagan yoki kesishib ketadi;

Ijro etishdagi muammolar: qonun normalarini amalda qo‘llashda axborot yetarli emasligi, huquqiy targ‘ibot va huquqiy madaniyat pastligi;

Resurs va moliyaviy cheklovlar: monitoring, nazorat tizimlarini samarali yuritish uchun yetarli kadr va byudjet yo‘q;

Fuqarolarning ishonchi va ishtirok etishi: huquqiy qarorlar qabul qilinishida jamoatchilik fikri yetarlicha e’tiborga olinmasligi;

Texnologik va axborot xavfsizligi muammolari: jamoat xavfsizligi jamiyatdagi kiber tahdidlar va axborot huquqbuzarliklarini ham qamrab oladi, biroq huquqiy bazalar bu sohada to‘liq shakllanmagan;

Hujjatlar murakkabligi va tushunarsizligi: qonun matnlari ba’zan fuqarolar uchun noaniq bo‘lishi va interpretatsiya muammolari tug‘diradi.

Quyidagi takliflar O‘zbekiston qonunchiligida jamoat xavfsizligini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin:

Yagona “Jamoat xavfsizligi” qonunini qabul qilish - hozirda jamoat xavfsizligi bo‘yicha yagona qonun yo‘q, bu esa normativlar orasida kesishmalar, vakolat mo‘rtligi va ijro etish muammolarini keltirib chiqaradi. “Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokamada.

Ushbu qonun quyidagilarni aniq belgilashi mumkin:

Jamoat xavfsizligining tushunchasi, tamoyillari va maqsadlari;

Subyektlar (davlat, mahalliy boshqaruv, jamoatchilik) vakolatlari va javobgarligi;

Ijtimoiy barqarorlik, profilaktika, qo‘shma choralar tizimi;

Fuqarolarning huquqiy kafolatlari va himoyasi;

Monitoring va nazorat tizimi.

Jamoat xavfsizligini ijtimoiy huquqiy takomillashtirish uchun fuqarolarda shakillanayotgan huquqiy ong va huquqiy madaniyat ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy targ‘ibot kampaniyalari, ommaviy axborot vositalari, huquqiy savodxonlik kurslari, seminarlar. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida huquqiy madaniyat va jamiyatdagi xavfsizlik masalalarini o‘quv kurslariga kiritish. Onlayn platformalar orqali normativ-huquqiy hujjatlar, “savol-javob” tizimi va jamoatchilik uchun tushuntirish resurslarini kengaytirish.

Shuningdek jamoat xavfsizligini ta’minlashda Fuqarolarning ishtirokini kengaytirish lozim hisoblanadi va bu narsa quyidagilarda ko‘riladi:

“Jamoat maslahat kengashlari”, “fuqarolar yigilishlari” orqali xavfsizlik masalalarini muhokama qilish.

Fikriy takliflar platformalari: qonun loyihalariga jamoatchilik mulohazalarini taqdim etish.

Mahalla va aholi vakillari bilan hamkorlikni kuchaytirish: ma’lumot almashish, kuzatuv, tezkor aloqa tizimlari.

Jamoat xavfsizligini takomillashtirish uchun aholi Nazorat, monitoring va javobgarlik tizimini kuchaytirish lozim

Mustaqil nazorat organlarini tashkil etish (ombudsman, fuqarolarning huquqlarini himoya agentligi) jamoat xavfsizligi faoliyatini monitoring qilishi.

Huquqbuzarliklar va qonun buzilish holatlari bo‘yicha shikoyatlar tizimini samarali ishlashini ta’minlash.

Vakolatli organlar mas’uliyatini oshirish: mansabdor shaxslarning jinoyat va ma’muriy javobgarligi, ichki nazorat mexanizmlari.

Xalqaro standartlar va tajribani joriy qilish

Xalqaro konvensiyalar (Inson huquqlari to‘g‘risidagi, Jinoyat protsessual, Jinoyat-ijroiya konvensionari)ni transpoziya qilish va milliy qonunchilik bilan uyg‘unlashtirish.

Xorijiy davlatlar tajribalarini o‘rganish (masalan, jamoat politsiyasi, mahalla polisiya, jamoat kuzatuv tizimlari) va moslashtirish.

Xalqaro ekspertlar bilan hamkorlik, texnik yordam va tajriba almashish.

Xulosa va tavsiyalar. Jamoat xavfsizligini ta’minlash — murakkab va ko‘p qirrali masala bo‘lib, uning samarali ishlashi ijtimoiy, huquqiy va ma’muriy omillarning uyg‘unligiga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi islohotlar bu yo‘nalishda muhim qadamlardir: jamoat xavfsizligi konsepsiyasining qabul qilinishi, ichki ishlar organlarining faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha farmonlar, normativ hujjatlarni tarqatish tizimini yaxshilash choralariLekin quyidagi asosiy vazifalar hali o‘z yechimini kutmoqda: Jamoat xavfsizligiga bag‘ishlangan yagona qonun qabul qilish, subyektlar vakolatlarini aniq belgilash. Huquqiy madaniyatni oshirish va fuqarolarning faolligini rag‘batlantirish. Texnologik infratuzilma va axborot tizimlarini kengaytirish, kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish. Nazorat, monitoring va mansabdorlar mas’uliyatini mustahkamlash. Xalqaro standart va tajribalarni qonunchilik va amaliyotga moslashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – jamiyat va davlat organlari huquqiy chek-chegaralari, fuqarolarning huquq va erkinliklari tamoyillari. Ixma+2GOV.UZ+2
2. “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida” qonun (2016 yil) — ichki ishlar organlarining vazifalari, vakolatlari va javobgarligi normativini belgilaydi. In Academy+1
3. Prezident farmonlari: “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish” PF-6196 (2021) Buxoro viloyati IIB+3Prezident Uzbekistana+3Best Publication+3
4. Prezident farmoni “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish choratadbirlari to‘g‘risida” (2021) — jamoat xavfsizligi bo‘yicha davlat siyosatini belgilaydi. Prezident Uzbekistana+2KKnews+2
5. Normativ hujjatlar tarqatish va huquqiy axborot tizimini takomillashtirishga qaratilgan qarorlar, masalan “Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori. Prezident Uzbekistana

“JXU TRACKER” AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH VOSITASI

Shaymardonov J.Z.

JXU, Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi katta ilmiy xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta’minlashda zamonaviy axborot texnologiyalarining o‘rni tahlil qilingan. Xususan, Yo‘l patrul xizmati (YPX) faoliyatida qo‘llash uchun ishlab chiqilgan **JXU Tracker** qurilmasining texnologik imkoniyatlari, huquqiy va ijtimoiy ahamiyati keng yoritilgan. Mavzuga oid mahalliy va xalqaro statistik ma’lumotlar asosida O‘zbekistonda yo‘l-transport hodisalarining dinamikasi, YPX to‘xtatish ishorasiga bo‘ysunmagan haydovchilar ulushi va ularning oqibatlari tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi bilan taqqoslashlar o‘tkazilib, JXU Tracker qurilmasini joriy qilish orqali erishiladigan natijalar prognoz qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mazkur qurilmaning amaliyotga keng tatbiqi YPX faoliyatining samaradorligini oshirish, yo‘l-transport hodisalarini kamaytirish va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda muhim o‘rin tutishi isbotlangan. Maqola yakunida qurilmani joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan hamda xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirishning istiqbollari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: JXU Tracker, Yo‘l patrul xizmati, jamoat xavfsizligi, axborot texnologiyalari, GPS kuzatuv, huquqiy mexanizmlar, ijtimoiy xavfsizlik, yo‘l-transport hodisalari, xalqaro tajriba, samaradorlik.

Kirish: Globallashuv jarayonlari, urbanizatsiya sur’atlarining oshishi va transport vositalari sonining keskin ko‘payishi jamoat xavfsizligini ta’minlashni zamonaviy bosqichga olib chiqmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida sezilarli darajada transport vositalari soni ortib bormoqda. **2024**-yil yakuniga kelib ular **4,2 million**dan oshdi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, **2023**-yilda yo‘l-transport hodisalari soni **10 ming**dan ortiqni tashkil qilgan. [1][2][8] Hodisalarning orasida **YPX** xodimining qonuniy talabiga bo‘ysunmasdan qochishga uringanda yuzaga kelgan holatlar ham mavjud bo‘lishi mumkin. Ushbu muammoni hal etish uchun zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan innovatsion vositalardan foydalanish zarur.

Shunday innovatsion vositalardan biri sifatida **JXU Tracker** qurilmasini keltirish mumkin. Uning joriy etilishi nafaqat **YPX** faoliyatini samarali tashkil qilishga, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga ham xizmat qiladi.

JXU Tracker – **GPS/GSM** texnologiyalariga asoslangan kuzatuv vositasi bo‘lib, **YPX** xodimlari tomonidan to‘xtash ishorasiga bo‘ysunmasdan qochib ketayotgan transport vositalarini masofadan kuzatishda qo‘llaniladi. Qurilma transport metal qismiga maxsus magneti

yordamida yopishtirish yo‘li bilan biriktiriladi hamda real vaqt rejimida transport vositasining koordinatalari, tezligi va yo‘nalishini qayd etadi. Bunday texnologiyalar jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi **IIV Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi** ma’lumotlariga ko‘ra, **2022**-yilda **9 870** ta yo‘l-transport hodisasi ro‘y bergan, **2023**-yilda esa **10 524** ta hodisa qayd etilgan. Hodisalarni tahlil qilganda, **18–20 foizi YPX**ning to‘xtash signaliga bo‘ysunmagan haydovchilar bilan bog‘liq. Ayrim hollarda qochib ketayotgan transport vositalarining **35 foizi** tezlikni keskin oshirishi oqibatida **og‘ir yo‘l-transport hodisalari**ga sabab bo‘lgan.[1]

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, **Germaniya** va **AQSh**da



GPS-trekerlardan foydalanish yo‘l-transport hodisalari sonini **12–15 foiz**ga kamaytirgan.[3][4] **Koreya Respublikasi**da esa ushbu texnologiyalar joriy qilingach, huquqbuzarliklar **20 foiz**ga qisqargan.[5] Demak, **JXU Tracker** O‘zbekistonda ham ijobiy natija berishi mumkin.

JXU Tracker qurilmasi huquqiy jihatdan ham, ijtimoiy nuqtai nazardan ham katta ahamiyat kasb etadi. U jinoyat va huquqbuzarliklarni tezkor aniqlash, dalillarni ishonchli qayd etish imkonini beradi. Fuqarolarning teng huquqliligini ta’minlash, jamoat xavfsizligini mustahkamlash va qonun ustuvorligini yuksaltirishda muhim rol o‘ynaydi.[6][10]

Xalqaro miqyosda bunday texnologiyalar ko‘plab davlatlarda qo‘llanib kelmoqda. Masalan, **AQSh**da yo‘l patrul xizmati tomonidan qo‘llaniladigan elektron kuzatuv tizimlari jinoyatlarning oldini olishda katta samara bermoqda.[10] **Germaniya**da esa ushbu qurilmalar yordamida nafaqat qochayotgan transport vositalari, balki ekologik me’yorlarni buzayotgan avtomobillar ham kuzatuvga olinmoqda.[3]

JXU Tracker qurilmasini keng joriy etish iqtisodiy nuqtai nazardan ham foydali. Chunki yo‘l-transport hodisalari oqibatida davlatga va jamiyatga yetkaziladigan moddiy zarar kamayadi.[7] Bundan tashqari, **YPX** faoliyatini optimallashtirish orqali qo‘shimcha xarajatlar qisqaradi.

O‘zbekiston sharoitida **JXU Tracker** qurilmasini samarali joriy qilish uchun bir necha choralarni amalga oshirish lozim: bosqichma-bosqich o‘rnatish, ma’lumotlarni markazlashtirish, xodimlarning malakasini oshirish va texnik xizmat ko‘rsatishni mahalliy ishlab chiqaruvchilar asosida tashkil qilish.

Xulosa: Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida aytish mumkinki, JXU Tracker qurilmasi axborot texnologiyalari asosida jamoat xavfsizligini ta’minlashda muhim innovatsion vositadir. Qurilmani keng joriy etish YPX faoliyatining samaradorligini oshirish, yo‘l-transport hodisalarini kamaytirish va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro tajribani o‘zlashtirish orqali O‘zbekistonda huquqiy tizimni takomillashtirishga katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi hisobotlari, 2022–2023-yillar.
2. “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 1999-yil.
3. Bundespolizei Deutschland: Traffic Safety Annual Report, Berlin, 2021.
4. U.S. Department of Transportation, Highway Safety Report, Washington DC, 2020.
5. Lee, J. & Park, S. Smart Tracking Technologies in Public Safety, Seoul, 2019.
6. Karimov, B. “Axborot texnologiyalari va jamoat xavfsizligi”, Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy jurnali, 2022-yil.
7. International Transport Forum, OECD Report on Road Safety, Paris, 2021.
8. World Health Organization. Global status report on road safety, Geneva, 2019.
9. European Commission, Road Safety Statistics, Brussels, 2020.
10. Smith, A. Digital Policing and Public Safety, London, 2018.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGINING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLOVCHI SUBYEKT SIFATIDAGI VAZIFALARI

Muradov J.N.
O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi kafedra dotsenti, y.f.b.f.d. PhD), podpolkovnik E-mail: emergency1986@mail.ru

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi” tasdiqlangan bo‘lib, Konsepsiya milliy xavfsizlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat siyosatini belgilovchi muhim hujjat hisoblanadi.

Konsepsiyada jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilangan, ulardan quyidagi yo‘nalishlar bevosita Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyati bilan bog‘liq vazifalar hisoblanadi:

ijtimoiy infratuzilmaning, shu jumladan turizm obyektlarining uzluksiz va xavfsiz faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash;

transport infratuzilmasini, transport vositalarining xavfsizlik standartlarini va yo‘l harakati qoidalarini takomillashtirish orqali yo‘l-transport hodisalari oqibatida yetkaziladigan zarar va o‘lim bilan bog‘liq holatlarning oldini olish;

aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, fuqaro muhofazasi, yong‘in xavfsizligini ta’minlashda aholining ko‘nikmalarini shakllantirish va doimiy takomillashtirib borish;

jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb qilinadigan vakolatli davlat organlari kuch va vositalarining doimiy tayyorligini ta’minlash, tezkorligini oshirish, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash, shuningdek, ularning shaxsiy tarkibini huquqiy va ijtimoiy himoyalash darajasini oshirish.

Konsepsiyada jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyati bir qator asosiy tamoyillarga, jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlashda barcha vakolatli tuzilmalarning harakatlari izchilligi va birdamligiga tayangan holda amalga oshirilishi belgilangan bo‘lib, Favqulodda vaziyatlar vazirligi ham tegishli vakolatli tuzilmalar bilan birgalikda va uzviy hamkorlikda zimmasiga yuklatilgan jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq vazifalarni bajaradi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb qilinuvchi kuch va vositalarning harakatlari o‘zaro izchillik va birlikka asoslanadi hamda bu boradagi faoliyatda sansalorlik va ziddiyatlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Konsepsiyaga ko‘ra, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi jamoat xavfsizligini ta’minlovchi va unda ishtirok etuvchi subyektlardan iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi ham Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati kabi jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlardan biri hisoblanadi.

Konsepsiyada jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimiga kiruvchi tuzilmalarning jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq vazifa va funksiyalari belgilangan bo‘lib, Favqulodda vaziyatlar vazirligining jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, yong‘in xavfsizligi, suv obyektlarida fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshirishda ishtirok etadi.

2. Favqulodda vaziyatlar va yong‘inlar yuzaga kelishining oldini olish hamda profilaktika tadbirlarini tashkil etish choralarini ko‘radi.

3. Aholi hayotiga, sog‘lig‘iga yoki mol-mulkiga xavf-xatar tug‘ilganda kompleks yordam ko‘rsatish, favqulodda vaziyatlar xavfi yuzaga kelganda yoki sodir bo‘lganda ular to‘g‘risida aholini o‘z vaqtida ogohlantirish va xabardor qilishni tashkillashtiradi.

4. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi (FVDT) faoliyatini boshqaradi, shuningdek, fuqaro muhofazasi va yong‘in xavfsizligini ta’minlash tadbirlarini tashkil etadi.

5. Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish, fuqaro muhofazasi, yong‘in xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda boshqa tashkilotlarning faoliyatini, ushbu maqsadlar uchun moliyaviy, oziq-ovqat, tibbiy va moddiy-texnik resurslarning davlat zaxira fondlarini shakllantirishga doir ishlarini muvofiqlashtirish va ularning samarali hamkorligini tashkil etish choralarini ko‘radi.

6. Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, fuqaro muhofazasi, yong‘in xavfsizligini ta’minlash, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot obyektlari faoliyatining barqarorligini oshirish sohasidagi ilmiy-texnik va innovatsion

siyosat olib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi va maqsadli ilmiy-texnik dasturlarni tasdiqlaydi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yuqorida keltirilgan vazifalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-apreldagi PQ-4276-son Qarori bilan tasdiqlangan “Favqulodda vaziyatlar vazirligi to‘g‘risida Nizom”da vazirlikning doimiy ravishda, kundalik xizmat sharoitida bajaradigan asosiy vazifa va funksiyalari bilan bevosita bog‘liq.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-son qarori bilan “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalari” tasdiqlangan bo‘lib, ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi hududida ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazish tartibini belgilaydi hamda ommaviy tadbirlar ishtirokchilari, ommaviy tadbirlarni o‘tkazish obyektlari ma’muriyatlari, ichki ishlar organlari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalari, shuningdek, davlat boshqa organlarining ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta’minlash bo‘yicha o‘zaro munosabatlari, majburiyatlari va huquqlarini tartibga soladi.

“Qoidalar”ga ko‘ra, ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga ruxsat berish bo‘yicha vakolatli organ – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmalari (ichki ishlar bo‘limlari) hisoblanadi.

Vakolatli organ huzurida Ommaviy tadbirlar o‘tkazilishini nazorat qilish komissiyalari tashkil qilinadi.

Komissiyalar tarkibiga:

Favqulodda vaziyatlar vazirligi;

Sog‘liqni saqlash vazirligi;

Madaniyat vazirligi;

Davlat xavfsizlik xizmati;

ommaviy tadbirlarning turiga ko‘ra boshqa manfaatdor vazirlik va idoralarning hududiy bo‘linmalari vakillari;

ommaviy tadbirlarni o‘tkazish obyekti ma’muriyati (kelishuv asosida) kiradi.

Komissiya:

ruxsatnoma berish to‘g‘risidagi arizalarni ko‘rib chiqadi;

ruxsatnoma berish yoki ruxsatnomalar berishni rad etish, ularning amal qilish muddatini uzaytirish, to‘xtatib turish, ularni tugatish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi takliflarni tayyorlaydi va vakolatli organlar tomonidan ko‘rib chiqishga kiritadi;

ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazish tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

bevosita joyiga chiqqan holda, ommaviy tadbirni o‘tkazish obyektining ma’muriyatida va ommaviy tadbirning tashkilotchisida uni o‘tkazish uchun talab qilinadigan sharoitlarni tekshiradi, bunday tekshiruvlarni amalga oshirish uchun ishchi guruhlar tashkil qiladi, zarur xulosalar va ma’lumotlarni taqdim etish uchun manfaatdor tashkilotlarning malakali mutaxassislari va ekspertlarini kelishilgan holda jalb qiladi.

Komissiyaning tarkibi va uning ish reglamenti vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadi. Komissiya yig‘ilishlari zarurat bo‘lganda o‘tkaziladi. Komissiyaga vakolatli organ rahbarining o‘rinbosari raislik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan ommaviy tadbirlarni o‘tkazish obyektlarida ommaviy tadbirlarni o‘tkazish uchun ruxsatnomalar olish talab qilinmaydi.

Ko‘chma sirklar (shapito, dorbozlar guruhlari) tomonidan o‘tkaziladigan tomosha tadbirlariga ommaviy tadbir o‘tkazish uchun ruxsatnoma va ruxsat berish xususiyatiga ega boshqa hujjatlarni olish talab etilmaydi, bunda tadbir tashkilotchilari uni o‘tkazish joyi va vaqti to‘g‘risida ichki ishlar organlarini kamida 10 kun oldin yozma ravishda xabardor qiladi.

Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligi organlari ko‘chma sirklar (shapito, dorbozlar guruhlari) tomonidan o‘tkaziladigan tomosha tadbirlarida jamoat tartibi va yong‘in xavfsizligini to‘lov undirilmagan holda ta’minlaydi.

Ommaviy tadbirlar o‘z xususiyatiga ko‘ra alohida, birinchi va ikkinchi toifali ommaviy tadbirlarga bo‘linadi.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta’minlash chora-tadbirlari:

alohida va ikkinchi toifadagi ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan manfaatdor davlat organlari hamda tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi;

birinchi toifadagi ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda – O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan manfaatdor davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, har qanday toifadagi ommaviy tadbirlarda Favqulodda vaziyatlar vazirligi organlari manfaatdor davlat organi sifatida ichki ishlar organlari hamda Milliy gvardiya va uning hududiy bo‘linmalari bilan uzviy hamkorlikda faoliyat olib boradi. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat xavfsizligini ta’minlash zaruriyatini inobatga olgan holda, ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining asoslantirilgan so‘roviga asosan Favqulodda vaziyatlar vazirligi organlari o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur miqdordagi kuch va vositalarni ajratadi.

Ommaviy tadbirni o‘tkazishda favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda komissiya tomonidan obyektning ruxsat berilgan ommaviy tadbirni o‘tkazishga tayyorligi holatini o‘rganuvchi ishchi guruh tashkil qilinadi. Ishchi guruh tarkibiga ommaviy tadbir xususiyatlarini hisobga olgan holda:

vakolatli organ;

hududiy ichki ishlar organlari;

Milliy gvardiya;

Davlat xavfsizlik xizmati;

Favqulodda vaziyatlar vazirligi;

Sog‘liqni saqlash vazirligining hududiy bo‘linmalari;

ommaviy tadbir tashkilotchisi va ommaviy tadbirni o‘tkazish obyektining ma’muriyati;

boshqa manfaatdor tashkilotlarning vakillari kiritiladi.

Komissiya tomonidan ommaviy tadbirni tashkil etish va o‘tkazish davrida muhandis-texnik kommunikatsiyalar xavfsiz ishlashini, energiya ta’minoti va yong‘in xavfsizligini, yo‘l harakati xavfsizligini, ishtirokchilarning evakuatsiya qilinishini, favqulodda vaziyatlarning oldi olinishini ta’minlash guruhlari tashkil etilishi mumkin.

Tadbirning xususiyati, ob-havo sharoitlari, xavfli tabiiy hodisalar va texnogen avariyalar yuzaga kelishi prognozi hamda ommaviy tadbirni o‘tkazishda fuqarolar xavfsizligini va jamoat tartibini ta’minlashga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa omillarga bog‘liq holda, ishchi guruh uning o‘tkazilishidan oldin ommaviy tadbirni o‘tkazish obyektini tekshiradi va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘radi. Ishchi guruh

tomonidan o‘tkazilgan tekshiruv yakunlari bo‘yicha tekshiruv dalolatnomasi tuziladi.

Ommaviy tadbirni o‘tkazishdan oldin bartaraf etish mumkin bo‘lmagan fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta’minlash chora-tadbirlarining amalga oshirilishini murakkablashtiruvchi holatlar, shu jumladan, prognoz qilingan xavfli tabiiy hodisalar va texnogen avariyalar ro‘y berishi ehtimoli yuqoriligi aniqlanganda ishchi guruh ommaviy tadbirni o‘tkazish sanasi va vaqtining kechroq muddatga ko‘chirilishini, uni tomoshabinlarsiz o‘tkazilishi yoki ommaviy tadbirning bekor qilinishi to‘g‘risidagi taklifni vakolatli organ rahbariga kiritadi. Vakolatli organ rahbari ommaviy tadbir o‘tkazilishidan o‘ttiz olti soat oldin ishchi guruh takliflarini ko‘rib chiqadi va ular bo‘yicha tegishli qaror qabul qiladi.

Ommaviy tadbirni o‘tkazish obyekti ma’muriyati:

ommaviy tadbirni o‘tkazish obyektining ko‘rinarli joylarida xavfsizlik va yong‘in xavfsizligi belgilari, evakuatsiya qilish ko‘rsatkichlarini, harakatlanish qoidalarini, sxemalari, rejalari va yo‘riqnomalarini, yong‘in xavfsizligi qoidalarini joylashtirishga majbur.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bo‘linmalarining vazifalari hisoblanadi:

favqulodda vaziyatlarni, shu jumladan yong‘inni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan xavf va tahdidlar omillarini o‘z vaqtida aniqlash, ularning profilaktikasini va yuzaga kelishining barvaqt oldi olinishini ta’minlash;

Favqulodda vaziyatlar vazirligi va FVDT kuchlari va vositalarini tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar, shu jumladan yong‘inlar yuzaga kelganda ularni bartaraf etish va qutqaruv ishlariga jalb qilish;

ommaviy tadbirlarni o‘tkazish davrida obyektda radiatsion, kimyoviy, biologik (bakteriologik) himoyani, yong‘inlarning oldini olish va qutqaruv (shu jumladan suvda qutqaruv) ishlarini amalga oshirish;

ommaviy tadbirni o‘tkazish obyekti ma’muriyatining yong‘in xavfsizligi talablariga rioya etilishini belgilangan tartibda nazorat qilish;

ommaviy tadbirlarni o‘tkazish davrida favqulodda vaziyatlar xavfi yuzaga kelganda yoki sodir bo‘lganda ular to‘g‘risida ommaviy tadbir ishtirokchilarini o‘z vaqtida ogohlantirish va xabardor qilishni tashkillashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bo‘linmalari qonunchilikka muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bo‘linmalarining huquqlari hisoblanadi:

tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar, shu jumladan yong‘inlarning oldini olish maqsadida ommaviy tadbirni o‘tkazish obyektida belgilangan tartibda profilaktik tadbirlarni amalga oshirish;

ommaviy tadbirni o‘tkazish vaqtida ommaviy tadbir obyektlari qutqaruv tuzilmalarining rahbarlari va shaxsiy tarkibini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash, ommaviy tadbirni o‘tkazish dasturida ishtirok etadigan artistlar, sportchilar va boshqa shaxslarga yuz berish ehtimoli yuqori bo‘lgan favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda harakat qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berishga qaratilgan tadbirlarni tashkil qilish;

ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan obyektlar to‘g‘risida vazirlik zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jismoniy va yuridik shaxslardan zarur ma’lumotlar va axborotlarni so‘rab olish;

ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan obyektlarda vazirlik faoliyatiga oid hujjatlar talablari buzilishi holatlari aniqlanganda, belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish choralarini ko‘rish hamda zarur hollarda kamchiliklar aniqlangan obyektlarda ommaviy tadbirlar o‘tkazilishini taqiqlash.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining bo‘linmalari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, Favqulodda vaziyatlar vazirligi zimmasiga jamoat xavfsizligini va ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha muhim vazifalar yuklanar ekan, vazirlik harbiy xizmatchilaridan ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari, ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga ruxsat berish bo‘yicha vakolatli organ huzurida tashkil etiladigan “Ommaviy tadbirlar o‘tkazilishini nazorat qilish komissiyalari” hamda “Obyektning ruxsat berilgan ommaviy tadbirni o‘tkazishga tayyorligi holatini o‘rganuvchi ishchi guruh” tarkibida samarali faoliyat olib borishlari uchun ularning jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlashga oid munosabatlarni tartibga soluvchi milliy qonunchilik tizimi haqida zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi O‘RQ-790-son “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni // Lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi” // Lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-apreldagi PQ-4276-son Qarori bilan tasdiqlangan “Favqulodda vaziyatlar vazirligi to‘g‘risida Nizom” // Lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-son Qarori bilan tasdiqlangan “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalari” // Lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi 171-son Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi to‘g‘risida nizom” // Lex.uz.

MA’MURIY YO‘L BILAN USHLAB TURISH - MA’MURIY HUQUQBUZARLIK TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI YURITISHNI TA’MINLASH CHORASI SIFATIDA

Allambayev J.R.
O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasining
Bojxona instituti o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquq va erkinliklari qonunlar bilan mustahkamlangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 25-moddasida har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas deb belgilangan.

Huquqni muxofaza qiluvchi organlar tomonidan fuqarolarning huquq va ekinliklarni ximoya qilish bilan bir qatorda, qonuniylikni qaror toptirish hamda xar bir huquqbuzarlik holati uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash yuzasidan ishlar olib borilmoqda.

Bu borada, avvalo, tergov va sud amaliyotiga inson huquqlari sohasidagi ilg‘or standartlarni joriy etishga alohida e’tibor qaratish kerak.

Qonunchilikni yangilashdan maqsad – faqat qonun qabul qilish emas, aksincha, yangi qonunlar ertaga odamlarga qanday amaliy naf berishi,

ularning hayotini qanday yengillashtirishi haqida bosh qotirishdan iborat boʻlmogʻi lozim.[1]

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiya qabul qilinganining 27 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqida “Aholi bilan muloqotlar huquq buzilishi xavfi boʻlgan boshqa holatlar boʻyicha ham shunday choralarni qoʻllash zarurligini koʻrsatmoqda. Xususan, shaxsni ushlab turish, unga protsessual huquqlarini tushuntirish kabi jarayonlarni, agar u himoyachidan voz kechsa, bu holatni ham majburiy tarzda video tasvirga tushirish tartibini oʻrnatish” zarurati koʻrsatilgan.

“Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari tomonidan ushlangan shaxs maxsus binoga olib kelinganidan keyin bu haqda uning oila aʼzolari darhol xabardor qilinishi kerak. Buni surishtiruvchi, tergovchi va boshqa vakolatli shaxsning majburiyati sifatida qonunda aniq belgilab qoʻyishni taklif etaman”deb takidlagan edi.[2]

Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksning 285-moddasida maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ishlarni yuritishni taʼminlash choralari yaʼni boshqa taʼsir koʻrsatish choralari qoʻllanib boʻlinganidan keyin maʼmuriy huquqbuzarlikni toʻxtatish, huquqbuzarning shaxsini aniqlash, basharti bayonnoma tuzish zarur boʻlib, uni huquqbuzarlik sodir etilgan joyning oʻzida tuzish imkoni boʻlmagan taqdirda maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisida bayonnoma tuzish, ishlarning oʻz vaqtida va toʻgʻri koʻrib chiqilishini taʼminlash va maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish maqsadida mazkur shaxsni maʼmuriy yoʻl bilan ushlab turishga, shaxsan koʻrikdan oʻtkazishga, uning ashyolari, transport vositalarini koʻzdan kechirishga va ashyo hamda hujjatlarni olib qoʻyishga yoʻl qoʻyiladi.

Bojxona sohasidagi maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ishlarni yuritishini taʼminlash choralarini qoʻllashdan maqsad – bu dastlab mansabdor shaxslar tomonidan huquqbuzarlik holatini tezkorlik bilan aniqlash va dalillarning yoʻq boʻlishini oldini olish, ish yuritish jarayonida qatnashuvchi shaxslarni shaxsini aniqlash, tegishli protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish orqali huquqbuzarlik xolatlarini oldini olishni koʻzda tutuvchi tadbirlar hisoblanadi.

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020-yil

[2] Sh.M.Mirziyoyev. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi maʼruzasi. 2019-yil

Eng avvalo ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish bilan ma’muriy qamoqning farqini bilishimiz kerak.

Ma’muriy qamoqqa olish — ma’muriy jazo turi bo‘lib, u shaxsni jamiyatdan vaqtincha ajratib qo‘yish sharoitlarida saqlashdan iborat va uch sutkadan o‘n besh sutkagacha bo‘lgan muddatga, favqulodda holat rejimi sharoitlarida esa jamoat tartibiga tajovuz qilganligi uchun o‘ttiz sutkagacha bo‘lgan muddatga qo‘llaniladi.

Huqubuzarlik to‘g‘risidagi ishni yuritishning eng muxim choralardan biri bu ma’muriy yo‘l bilan ushlab turishdir.

Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish – bu huquqni muxofaza qiluvchi organ mansabdor shaxslari tomonidan, ma’muriy huquqbuzarlikni to‘xtatish, huquqbuzarning shaxsini aniqlash, basharti bayonnoma tuzish zarur bo‘lib, uni huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o‘zida tuzish imkoni bo‘lmagan taqdirda ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzish, ishlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri ko‘rib chiqilishini ta’minlash va ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish maqsadida qo‘llaniladigan qisqa muddatga ozodlikdan maxrum etishdir.

O‘zbekistonda hibsga olingan va jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarga nisbatan qiynoqqa solish, ruhiy hamda jismoniy bosim o‘tkazish, boshqa g‘ayriinsoniy zo‘ravonlikka mutlaqo yo‘l qo‘yilmaydi.[1]

Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish faqat huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo‘lgandagina amalga oshiriladi.

Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turishga, shuningdek, quyidagi hollarda ham yo‘l qo‘yilmaydi:

– ma’muriy huquqbuzarlikning ahamiyatsiz ekanligi va uni boshqa vositalar bilan to‘xtatish imkoniyati (huquqbuzarlikni to‘xtatish to‘g‘risidagi huquqbuzar bajarishi, og‘zaki tanbeh, u yoki bu harakat yoxud harakatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik va hokazo) bo‘lganda;

– huquqbuzarlik sodir etilgan joyda huquqbuzar shaxsini, voqea tafsilotini aniqlash imkoniyatining bo‘lishi, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzishga sharoit mavjud bo‘lganda;

– ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o‘zida jarima ma’muriy jazosini qo‘llashga asosning mavjudligida.[2]

Bojxona organlari O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 287-moddasining 6-bandiga muvofiq 90^1, 184^2, 184^3,185^1, 189, 189^1, 198,

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017-yil

[2] O‘.X.Muxamedov va boshqalar: O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy javobgarlik: T.: IIV Akademiyasi, 2015-yil

227, 227^{1}-227^{27}-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda – ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish vakolatiga egadirlar.

Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turishning talablari Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 286-288-moddalarida ko‘rsatib o‘tilgan.

Lekin hozirda O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks va boshqa normativ–huquqiy hujjatlarda ushlab turish tartibi, ushlab turilgan shaxsning huquq va majburiyatlari ko‘rsatilmagan.

Mavjud xorij tajribasiga ko‘ra **Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston va Tojikiston Respublikalarning** Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi kodekslarida ma’muriy ushlab turish joyi va tartibi ko‘rsatilgan bo‘lib unda;

1.Ushlab turilganlar Rossiya Federatsiyasi Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi kodeksining 27.3-moddasida ko‘rsatilgan vakolatli organlarning maxsus ajratilgan xonalarida yoki Rossiya Federatsiyasining ta’sis subyektlarining ijro hokimiyati tomonidan belgilangan tartibda tashkil etilgan maxsus muassasalarda saqlanadilar.

Belgilangan binolar sanitariya talablariga javob berishi va ularni ruxsatsiz chiqib ketish imkoniyati cheklangan bo‘lishi kerak.

2.Ushlab turish shartlari, parhez me’yorlari va bunday shaxslarga tibbiy xizmat ko‘rsatish tartibi Rossiya Federatsiyasi hukumati tomonidan belgilanadi.

3.Ma’muriy ushlab turilganvoyaga yetmagan bolalar katta yoshdagilardan, erkaklar esa ayollardan alohida saqlanadi.[1]

Yuqoridagi tahlillarga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga **“Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish joyi va tartibi”**deb nomlangan quydagi mazmundagi 288^{1}-modda bilan to‘ldirish maqsadga muvofiqdir.

Ma’muriy huquqbuzarlik sodir qilgan shaxslar ma’muriy yo‘l bilan ushlab turiladi.

Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turilgan shaxslar sanitariya talablariga javob beradigan va ularni ruxsatsiz chiqib ketish imkoniyatini istisno qiladigan maxsus ajratilgan binolarda saqlanadilar.

Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turilgan shaxslarni ushlab turish shartlari, ovqatlanish me’yorlari va bunday shaxslarga tibbiy xizmat ko‘rsatish tartibi maxalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan belgilanadi.

Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turilgan voyaga yetmagan bolalar kattalardan, ayollar esa erkaklardan alohida saqlanadi.

[1] Rossiya Federatsiyasi Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi kodeksi 30.12.2001-yil

Xorij tajribasini o‘rganilganida masalan Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2003-yil 15-noyabrdagi 6273-son qarori bilan “Ma’muriy huquqbuzarlik uchun hibsga olingan shaxslarni ushlab turish shartlari to‘g‘risida”gi nizomi qabul qilingan bo‘lib, shuningdek bizning milliy qonunchilikda ham ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish joyi va tartibi bo‘yicha to‘g‘risida nizom ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ma’muriy huquqbuzarlik sodir qilgan shaxslarni vaqtincha saqlash hibsxonalariga joylashtirib bo‘lmaydi chunki vaqtincha saqlash hibsxonalarida jinoyat sodir etganlikda gumon qilinib, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 221-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha ushlab turilgan shaxslarni qamoqda saqlash uchun mo‘ljallangan. O‘zbekiston Respublikasi JPKda belgilangan hollarda hamda tartibda vaqtincha saqlash hibsxonalarida o‘ziga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchilar ham o‘n sutkagacha saqlanishi mumkin.[1]

Lekin mavjud huquqbuzarlik sodir qilgan fuqarolarga nisbatan yuritilgan ma’muriy ishi sudda huquqbuzarning ishtirokisiz ko‘rilishi yoki jinoyat alomati bor bo‘lgan uzoq muddat ekspertizani talab qiluvchi holatlarda ishlarni sifatli ko‘rib chiqilishiga hamda javobgarlik uchun jazo qo‘llanmasdan qolishiga olib keladi. Shu sababli maxalliy xokimyat organlari tomonidan tashkil etilgan joylarda fuqarolarni ma’muriy yo‘l bilan ushlab turilgan taqdirda fuqarolarning huquq va ekinliklari xamda davlat manfaatlari xam buzilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020-yil

2. Sh.M.Mirziyoyev. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. 2019-yil

[1] O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining “Ichki ishlar organlari vaqtincha saqlash hibsxonalarining ichki tartib qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risidagi” 14.08.2017-yil qabul qilingan 171-son buyrug‘i

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017-yil.

4. O‘.X.Muxamedov va boshqalar: O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy javobgarlik: T.: IIV Akademiyasi, 2015-yil.

5. Rossiya Federatsiyasi Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi kodeksi 30.12.2001-yil.

6. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining “Ichki ishlar organlari vaqtincha saqlash hibsxonalarining ichki tartib qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risidagi” 14.08.2017-yil qabul qilingan 171-son buyrug‘i.

OMMAVIY NOROZILIKLAR KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY OMILLARINI BARTARAF QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Raxmatov M.M.
Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligini huquqiy ta’minlash” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Mamlakatimizda aholining ommaviy noroziligini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, ushbu omillarni tizimli bartaraf etish, sodir etilgan ommaviy norozilik namoyishlarini bartaraf etish orqali mamlakatda tinchlik, osoyishtalikni ta’minlash bilan bog‘liq samarali tizim bayon qilingan.

Tayanch so‘zlar: norozilik, omma kayfiyati, xavfsizlik, siyosat-ijtimoiy vaziyat, ijtimoiy fikr.

Bugungi kunda Respublikamizda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, davlat va jamiyat barqaror rivojlanishi uchun barcha sohalarda jadal islohotlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy bosqichda ommaviy noroziliklarni oldini olish bo‘yicha xorijiy tajribani qo‘llagan holda, bir qator yo‘nalishlarda islohotlarni amalga oshirish kelgusida bu kabi ko‘ngilsiz holatlarni barvaqt aniqlash va uni bartaraf etishda o‘zining ijobiy natijalarini beradi.

So‘nggi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda turli muammolar yuzasidan norozilik harakatlari o‘tkazilayotganligi haqidagi xabarlar tez-tez uchramoqda.

Ommaviy noroziliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni barvaqt aniqlash va uni bartaraf etishga yetarlicha e’tibor berilmayotganligi oqibatida ommaviy norozilik harakatlari kelib chiqadi. Norozilik harakatlari

vujudga kelgandan so‘ng uni bartaraf etish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga asosiy e’tibor qaratiladi.

Shu nuqtayi nazardan ham ommaviy noroziliklarni barvaqt aniqlash va uni oldini olishga qaratilgan faoliyat samaradorligini oshirish dolzarblik kasb etmoqda.

Umumlashtirgan holda ommaviy noroziliklarni oldini olish samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini ikkita guruhga (oldini olish va bartaraf etish) bo‘lgan holda belgilash maqsadga muvofiq.

Ommaviy noroziliklarning **oldini olishga qaratilgan faoliyat** yo‘nalishida quyidagi ishlarni amalga oshirish talab qilinadi.

Xorij tajribasi asosida jamiyatda “Omma kayfiyati” tushunchasini shakllantirish va uning salbiy yoki ijobiy xarakterda ekanligini aniqlash bo‘yicha baholash mezonini amaliyotga tatbiq etish lozim.

Ushbu mezon asosida har bir hududdagi “omma kayfiyati”ni ijobiy va salbiy xarakterda ekanligini aniqlab, qaysi bir mezon bo‘yicha muammo aniqlansa, shu asosda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari hamda HMQ organlar o‘zaro hamkorligi yo‘li bilan tegishli vazifalar amalga oshiriladi. Bu vazifalar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

a) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahlamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti, Prezident huzuridagi Jamoatchilik palatasi, “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi hamda HMQ organlari bilan hamkorlikda iqtisodiy vaziyatni, aholi turmush darajasini, huquqni muhofaza qilish samaradorligini, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatning barqarorligini, aholi ma’naviyatini, hudud, siyosiy va etnik xususiyatlar kabi omillarni hisobga olgan holda doimiy **axborot tahlil ishlarini olib borish.**

b) Iqtisodiy obyektlarni yaratish yoki yanada rivojlantirish, ayniqsa, yoshlar uchun turli xil **bandlik dasturlarini amalga oshirish,** shu bilan birga **ish o‘rinlarini ko‘paytirish,** mehnat qonunchiligiga rioya qilishni doimiy nazorat qilish orqali aholining jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlashga bo‘lgan **faolliklarini rag‘batlantirish.**

v) Kuch ishlatishdan asossiz foydalanishni **qoralash,** OAVda ommaviy noroziliklar oqibatida kelib chiqadigan tartibsizliklarning **huquqiy** va boshqa **salbiy oqibatlari** to‘g‘risida **keng tushuncha berish**, jahonda yuz berayotgan ommaviy noroziliklardan **yorqin misollar keltirish** va boshqalar.

Mamlakatda **sog‘lom ichki muxolifatni** shakllantirish, **siyosatchilar** va **OAV vakillarning rolini oshirish.**

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2019 yil 27 dekabr kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabning yangi binosida yoshlar bilan uchrashuv chog‘ida va 2020 yil 20 yanvar kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi majlisidagi nutqida **“ichki muxolifat tuzilishiga qarshi emasligini, uning tashqaridan kirib kelmasdan jamiyat ichida tabiiy ravishda vujudga kelgan bo‘lishi lozimligini, uning uchun shu yerda muhit yaratilishi kerakligini ta’kidlab o‘tdi.**

Bu bilan asosan davlatdagi turli ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa muammolarni aniqlab, ularni davlat yuqori organiga olib chiqish, jamoatchilik muhokamasiga aylantirish imkoniyati vujudga keladi.

Bundan tashqari, ichki muxolifatning mavjudligi va jurnalistlar faolligi tashqi kuchlarning davlat ichki ishlariga aralashib, turli muammolarning hal etilmasdan saqlanib qolayotganligi, davlat organlarining bundan xabardor emasligi kabi vajlari bilan davlat siyosatiga salbiy ta’sir o‘tkazishini hamda fuqarolar ongini manipulyatsiya qilishning oldini olishga imkon beradi. Bugungi kunda aholining ommaviy noroziligiga sabab bo‘luvchi muammolarni samarali hal etish maqsadida, birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasida “Miting, yig‘ilish va namoyishlar to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish lozim.

Hozirda ijtimoiy tarmoqlarda ruxsat etilmagan norozilik namoyishlari haqida xabarlar tez-tez uchramoqda, lekin javobgarlikka tortish uchun huquqiy asosning yo‘qligi kelgusida HMQ organlar faoliyatiga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazadi.

Ushbu qonunning qabul qilinishi bilan fuqarolarning ommaviy tadbirlarda, miting va namoyishlarda ishtirok etishi bilan bog‘liq munosabatlar tartibini belgilaydigan qonunchilik tizimga solinadi.

Bundan tashqari norozi kayfiyatdagi shaxslar va “huquq himoyachilari” tomonidan turli norozilik namoyishlari sodir etilishini barvaqt oldini olish va ularning muammolarini joylarning o‘zida ijobiy hal etishga yo‘naltirilgan “Idoralararo tizim”ni shakllantirish lozim.

Bunda poytaxt va viloyat markazlarida ommani jalb qilgan holda, o‘tkaziladigan norozilik namoyishlarini oldini olish bo‘yicha alohida “Ishchi guruh”lar tashkil etiladi.

Mazkur “Ishchi guruh” tomonidan norozilik namoyishlari yetakchilarini ularning murojaatlari taalluqli bo‘lgan idoraning mas’ul shaxsi tomonidan qabul qilinishi tashkillashtiriladi.

Respublika miqyosida, hal etilmayotgan muammolari sababli norozi kayfiyatda bo‘lgan shaxslarning shakllantirilgan ro‘yxatlari asosida, ularning murojaatlarini sinchkovlik bilan o‘rganilishi va fuqarolarda o‘rganish natijalaridan “qoniqish” hosil qilinishini ta’minlash choralari ko‘riladi.

Shuningdek, har chorak yakunida, ushbu “Ishchi guruh” tomonidan milliy teleradiokompaniyalar mutaxassislarini jalb etgan holda, ruxsat etilmagan norozilik namoyishlari o‘tkazganlik va unda ishtirok etganlik uchun javobgarlikni nazarda tutadigan videoroliklar tayyorlanib, ular televidenie orqali namoyish etib boriladi.

Davlat hokimiyati organlari, HMQ organlar va aholi o‘rtasida turli ijtimoiy muammolar yuzasidan o‘zaro ommaviy nizolarning vujudga kelayotganligi hamda ularning noxolis tarzda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilishi zamirida aholining davlat hokimiyati organlariga bo‘lgan ishonchi yo‘qolib bormoqda.

Shuning uchun kelgusida davlat hokimiyati organlari va aholi o‘rtasida turli kelishmovchiliklar bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarni (masalan: noqonuniy qurilgan uy-joylarni buzish) hal qilishda Adliya vazirligidan tegishli tartibda ro‘yxatdan o‘tgan, xolisona axborot tarqatish majburiyatini o‘z zimmasiga olgan ko‘pchilik aholi tomonidan kuzatib boriladigan (kun.uz, daryo.uz) OAV vakillarining bevosita ishtirokini ta’minlash.

Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi 937-sonli qonunga asosan hozirda egallab olingan yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlar tegishli tartibda e’tirof etish respublika bo‘ylab amalga oshirilmoqda.

Bu bo‘yicha tegishli davlat hokimiyati organlari xodimlaridan iborat ishchi guruh tuzilgan va ular hududlarga chiqib aholidan mazkur qonun ta’sir doirasiga tushmaydigan noqonuniy egallab olingan yerlarni davlat tasarrufiga qaytarishni talab qilishmoqda, lekin ko‘pchilik aholi bunga qarshilik bildirishi natijasida ichki ishlar organi xodimlari va aholi o‘rtasida mushtlashuv holatlarigacha borib yetmoqda.

Bu vaziyatda ko‘plab norasmiy ijtimoiy tarmoqlar davlat organi xodimlarini aybdor sifatida bir tomonlama baholangan axborot tarqatmoqda. Agar kelgusida ishchi guruh bilan birga rasmiy OAV vakillari

jarayonda bevosita ishtirok etib xolisona axborot tarqatsa keyinchalik yuqoridagi salbiy holatlar takrorlanishini oldi olinishi mumkin.

Ommaviy noroziliklar real holatda vujudga kelgandan so‘ng uni **bartaraf etishga qaratilgan faoliyat** yo‘nalishida quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Fransiyaning Crowd and Riot Control konsepsiyasi andozasida Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya hamkorligida yagona tizimli dastur ishlab chiqish, hamda noroziliklarning oldini olishga qaratilgan (profilaktik) chora-tadbirlarga ham e’tibor qaratish.

Dasturni ishlab chiqishda Fransiya tajribasi bo‘yicha kompleks yondashuvni qo‘llash, ya’ni unda ommaviy noroziliklar boshlangandan toki tugagunga qadar bo‘lgan barcha jarayonni nazorat qilish va boshqarish imkonini beruvchi olomon tuzilishi, xarakteri bo‘yicha razvedka qilish, oldindan olomonning harakatlari xususida ma’lumotga ega bo‘lish, maxsus bo‘limlarni kerakli kuch va vositalar bilan ta’minlash, shaxsiy tarkibni jangovar holatda doimiy ushlash bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish, kerakli ma’lumotlarni qayta ishlash va monitoring qilib borish bo‘yicha tadbirlarni belgilash.

Bundan tashqari, dastur ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash yuzasidan IIV yoki MG tarkibida tegishli bo‘lim tashkil qilish.

Ommaviy noroziliklar oqibatida kelib chiqadigan tartibsizliklar jinoyatda ishtirokchilik shakliga ko‘ra murakkab ishtirokchilik hisoblanadi, ya’ni u bevosita olomon tomonidan sodir etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 217 va 244-moddalari bo‘yicha miting, yig‘ilish va namoyishlar hamda ommaviy tartibsizliklar sodir etishda faqat tashkilotchilar va faol ishtirokchilar javobgarlikka tortilishi belgilangan, demak biz aybdorni javobgarlikka tortish uchun olomon tarkibidan tashkilotchi va faol ishtirokchilarni ajratib olishimiz lozim.

Bizdagi amaliyotda olomon ichidan tashkilotchi va faol ishtirokchilarni aniqlash faqat olingan tezkor ma’lumotlar va guvohlarni so‘roq qilish orqali amalga oshiriladi, xorij tajribasida esa ommaviy tartibsizliklar boshlangandan toki bartaraf qilishgacha bo‘lgan jarayonlar, subyektlar harakati maxsus bo‘limlarga tegishli kuzatuv kameralari va dronlar orqali video tasvirga olib boriladi. Bu esa kelgusida maxsus bo‘lim xodimlarining asosli ravishda kuch ishlatishganini isbotlash, bevosita aybdor shaxslarni aniqlab javobgarlikka tortishda sud va tergov organlari uchun muhim dalil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu sababdan, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiyaning ommaviy noroziliklarni bartaraf etishda ishtirok etuvchi maxsus bo‘limlarni kuzatuv kameralari va dronlar bilan ta’minlash hamda “Xavfsiz shahar” konsepsiyasi bo‘yicha shahar ko‘chalarga joylashtirilgan kuzatuv kameralari imkoniyatlaridan ushbu maqsadlarda foydalanish, norozilik namoyishlari nisbatan ko‘p uchraydigan hududlarni qo‘shimcha kuzatuv kameralari bilan jihozlash istiqbolda ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurash tizimini takomillashtirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, bevosita ommaviy noroziliklar yuz berganda undagi tajovuzkor olomonni boshqarish va bartaraf qilishga qaratilgan quyidagi tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

• har qanday holatda, zaruratsiz olomonga nisbatan ta’sir qilish, egallab turgan joyidan qisib tashlash yoki siqib qo‘yish choralarini qo‘llamaslik, hamda unga tazyiq o‘tkazish va sarosimaga tushishga yo‘l qo‘ymaslik;

• olomonga odamlarni kelib qo‘shilishi va buning natijasida ko‘payishi mumkin bo‘lgan yo‘llarni yopish, vaqtni cho‘zish, vaqt olomonga qarshi ishlaydi. Chunki, vaqt o‘tgan sari odamlar toliqadilar, charchaydilar buning natijasida ularning faolligi susayadi;

• olomon bilan uzluksiz muzokaralarni olib borish, muzokaralarda tajribali, xalq orasida hurmat e’tibor qozongan shaxslar yoki mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda olomon talab qilayotgan vakillar bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ommaviy norozilik harakatlarini bartaraf etishdan ko‘ra, uni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlashga qaratilgan tadbirlarni kuchaytirish va ushbu tizimni doimiy ravishda olib borish, mamlakat tinchligi va barqarorligi, fuqarolar xavfsizligini ta’minlashga zamin bo‘ladi.

Foydalanilgan dabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 27-sonli Prezident farmoni. 2021-y.

2. “Xavfsiz shahar” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlar va texnologik yondashuvni tashkil qilish to‘g‘risida 343-sonli Vazirlar Mahkamasi qarori. 2018-y.

3. O‘zbekiston Respublikasi JKning 217-moddasi va 244-moddasi.

4. https://gov.uz/uz/suvchi/news/view/20017
5. https://xabar.uz/uz/mahalliy/miting-yigilish-namoyishlarni-tartibga-soluvch
6. https://kun.uz/news/2019/12/28/shavkat-mirziyoyev-xorijdan-keladigan-muxolifatga-qarshiman

JAMIYAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA YANGICHA YONDASHUVLARNING TAHLILI

Haydarov A.U.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Ijtimoiy – gumanitar” fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
+998903262890

Annotasiya: Mazkur maqolada yurtimizda so‘ngi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlardan biri bo‘lgan jamiyat va jamoat xavfsizligi sohasidagi ishlarning samaradorligini oshirish borasidagi ishlar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan Davlat va jamoat tashkilotlari o‘rtasida olib borilayotgan ishlarning samaradorligini oshirishda yangicha yondashuvlarni amalga oshirish bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy gvardiya, Ichki ishlar, Xavfsizlik, Jamiyat, Jamoat xavfsizligi, Islohat va natija, Xavfsiz shahar, Xavfsiz poytaxt, Xavfsiz mahalla, Nodavlat notijorat tashkilotlari.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat tartibi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni **“Xalq manfaatlariga xizmat qilish”** tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas’ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini **“Barcha**

sa’y-harakatlar inson qadri uchun” degan ustuvor g‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda[1].

Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatining jamiyat hayotida tutgan o‘rni hamda uni mohiyati va ahamiyati borasidagi ilmiy o‘rganishlardan ko‘rish mumkinki, olimlar tomonidan bu borada turli e’tiroflar keltirilgan. Xususan, huquqshunos olimlar V.M. Boer va V.N. Shamray jamoat xavfsizligini ta’minlash – har qanday davlatning barqaror mavjudligining muhim va majburiy elementlaridan biridir[2], A.I. Yastrebova har qanday davrda huquqni muhofaza qilish va jamoat xavfsizligini ta’minlash davlatning, xususan, polisiya organlarining asosiy faoliyat yo‘nalishi hisoblangan[3], S.M. Mikailov jamiyat va fuqarolarning talablarini qondiradigan darajada jamoat xavfsizligini ta’minlanishi ularning normal faoliyati uchun eng muhim shartdir[4], N.E. Egorova, O.F. Kudinov, E.E. Novichkovalar esa jamoat xavfsizligini ta’minlash – har doim, har qanday mamlakatda va har qanday jamiyatda dolzarb masala ekanligini e’tirof etganlar[5].

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini takomillashtirish, uning zamonaviy, tezkor va xalqchil qiyofasini yaratish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan islohotlar doirasida ayniqsa, jamoat xavfsizligini ta’minlashda aholiga xizmat ko‘rsatish va keng jamoatchilik bilan hamkorlik qilishning ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, soha xizmatlarini yangi avlod texnologiyalari va dasturiy tizimlar bilan ta’minlash orqali ularning ish samaradorligini oshirish hamda xizmat faoliyatini maqsadga muvofiq modellar asosida tashkil etish (modellashtirish) kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etdi[6].

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон (2021 йил 29 ноябр) фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон.

[2] Боер В.М., Шамрай В.Н. Теоретико-правовое обеспечение общественного порядка и общественной безопасности в современных условиях // Бизнес в законе. – 2012. – №3. – С.

[3] Ястребова А.И. К вопросу о взаимодействии общественных организаций и органов полиции в сфере охраны общественного порядка в российской федерации // Вестник Московского университета МВД России. – № 3. – 2016. С. 91.

[4] Микаилов С.М. Организация деятелности вневедомственной охраной полиции в сфере охраны общественного порядка // Законност и правопорядок в современном обществе. [Электрон манба]. – http: https://www.elibrary.ru/item.asp?id=21600090.

[5] Егорова Н.Э., Кудинов О.Ф., Новичкова Е.Е. К вопросу о содержании, формах и методах организации охраны общественного порядка (на материалах МВД по Республике Бурятия) // Вестник Восточно Сибирского института Министерства внутренних дел России. – 2015. – № 2 (73). – С. 37.

[6] Sharipov S.S. Scientific Analysis of the Role, Essence and Significance of the Activity of Maintaining Public Order in the Life of Society // https://ijmmu.com/public/journals/1/page HeaderTitleImage_en_US.png.

Shu bilan birga, “Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini aniq belgilash[1], jamoat xavfsizligini ta’minlashning yaxlit tizimini shakllantirish, Milliy gvardiya organlarining eng quyi bo‘g‘inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish, zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash[2] hamda huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shartsharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish[3]” ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Ma’lumki, davlatning taraqqiy etishi, aholi huquq va erkinliklarining kafolati, davlatlararo mustahkam hamkorlik – mamlakatda jamoat xavfsizligining qay darajada ta’minlanganligi bilan bevosita bog‘liq.

Shu bois, Yangi O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish davlat siyosatining eng muhim masalalaridan biri sifatida belgilanib, bu boradagi ustuvor vazifalar davlatning istiqbolli dastur, konsepsiya va strategiyalarida o‘z aksini topgan. Jamoat xavfsizligini ta’minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha huquqiy, uslubiy, ilmiy, tashkiliy choralarni ishlab chiqish va samarali amalga oshirish masalalari belgilab olindi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari faoliyatini boshqarishning mutlaqo yangi qiyofasi shakllantirilib, sohada **“respublika – viloyat – tuman – mahalla”** tizimi asosida yaxlit boshqaruv va uzluksiz nazorat qilish mexanizmi joriy etildi. Xususan, Milliy gvardiya vazirligi markaziy boshqaruv bo‘g‘ini tuzilmasini takomillashtirish orqali turdosh sohaviy xizmatlar faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishning yagona tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Hududiy Milliy gvardiya organlarining tuzilmasi va rahbar lavozimlarini maqbullashtirish orqali mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanish maqsadida, ayrim lavozim va bo‘linmalar negizida yagona boshqaruv tizimlari tashkil etildi.

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон (2021 йил 29 ноябр) фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6196-сон (2021 йил 26 март) фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 й., 06/21/6196/0240-сон.

[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон (2022 йил 28 январ) фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini “Xavfsiz poytaxt”, “Ravon va xavfsiz yo‘l” konsepsiyalari, “Xavfsiz xonadon”, “Xavfsiz hovli” tizimlari, “Smart mahalla” axborot hamda “Xavfsiz shahar” apparat-dasturiy komplekslari asosida tashkil etilishi yo‘lga qo‘yildi.

Mahalla va qishloqlarda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini bevosita amalga oshiradigan, shuningdek, fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta’minlash borasida Milliy gvardiya organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlashini tashkil etadigan Milliy gvardiya organlarining eng quyi bo‘g‘ini sifatida **Mahalla huquq-tartibot maskani** tashkil etildi. Mahallalarning “qizil”, “sariq”, “yashil” toifalarga ajratilishi aholi muammolarini “mahallabay”, “oilabay” va “fuqarobay” ishlash orqali hal etish hamda eng og‘ir va nizoli vaziyatlarni huquqbuzarlikka aylanmasidan mahallalarning o‘zidayoq aniqlash va bartaraf etish imkonini bermoqda. Mahallabay ishlash tizimi “manzilli va ta’sirchan profilaktikani qaysi hududdan boshlash kerak”ligi masalasiga oydinlik kiritishda o‘z samarasini bermoqda. Mahallalarda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi ishlarni hamkorlikda amalga oshirish uchun **mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, hokim yordamchisi, yoshlar etakchisi, xotin-qizlar faoli hamda profilaktika inspektori**dan iborat “Mahalla beshligi” tarkibi shakllantirildi. Ushbu beshlikning “temir”, “ayollar”, “yoshlar” va “mehr” daftarlariga kiritilgan mahalladagi ehtiyojmand, kam ta’minlangan oilalar, ijtimoiy ko‘makka muhtoj xotin-qizlar va yoshlar bilan individual ishlarni tashkil etish singari faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida Demokratiyaning asosiy talabi bo‘lgan inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini, so‘z va vijdon erkinligini ta’minlashga alohida e’tibor berilmoqda. Xususan, jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda **“Inson qadri uchun”** tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformasiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida, “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” qabul qilindi. Uning 16-maqsadi, “Jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-

sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish” deb nomlangan bo‘lib, uni quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirish belgilandi:

birinchidan, *huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish.*

Ushbu bandni amalga oshirish mexanizmi sifatida quyidagi chora-tadbirlar belgilanib o‘tildi: – jinoyat va ma’muriy huquqbuzarlik haqida xabar berish va ularni ro‘yxatga olishning “E-huquqbuzarlik” yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish; – bir yil davomida takroran sodir etilishi og‘irlashtiruvchi holat sifatida baholanadigan ma’muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarning hisobini bir yil davomida yuritish va muddat o‘tishi bilan avtomatik ravishda hisobdan olib tashlash tartibini yo‘lga qo‘yish;

ikkinchidan, *jamoat tartibini saqlash bo‘yicha patrullik xizmati faoliyatini tubdan takomillashtirish, shu jumladan zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etgan holda fuqaroni Milliy gvardiya bo‘limiga tekshirish uchun olib borish amaliyotidan voz kechish.*

Ushbu bandni amalga oshirish mexanizmi sifatida quyidagilar belgilangan: – “E-patrul” tizimi joriy etilib, tekshirish uchun fuqaroni Milliy gvardiya bo‘limiga olib borish amaliyotidan voz kechish va barcha ma’lumotlarni joyida tekshirishni yo‘lga qo‘yish; – Milliy gvardiya organlari patrul-post xizmati xodimlarining faoliyatini “bodikamera” yordamida nazorat qilishni yo‘lga qo‘yish; – patrul xizmatini bosqichma-bosqich avto va motopatrul shakliga o‘tkazish orqali naryadlarning mobilligini va hodisa joyiga tezkorlik bilan etib borishini ta’minlash;

uchinchidan, *yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo‘llarda avariya va o‘lim holatlarini qisqartirish, shu jumladan harakatni boshqarish tizimini to‘liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta’minlash.*

Ushbu bandni amalga oshirish mexanizmi sifatida quyidagilarni nazarda tutuvchi, 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan dastur ishlab chiqish belgilandi: – avtomobil yo‘llarida harakatni boshqarish tizimini to‘liq raqamlashtirish; – yo‘llarda xavfsiz harakatlanish uchun barcha ishtirokchilar uchun munosib sharoitlarni yaratish; – yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish jarayonida va xavfsizlikni ta’minlashda keng jamoatchilikning ishtiroki uchun zarur sharoitlarni yaratish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitusiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini samarali ta’minlash imkonini bermoqda.

JAMOAT XAVFSIZLIGIGA SALBIY TA’SIR KO‘RSATUVChI EKOLOGIK HUQUQBUZARLIKLAR

Xaknazarov A.B.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
tinglovchisi, leytenant

Annotasiya: Inson hayoti va salomatligi, shuningdek, jamiyat barqarorligini ta’minlashda ekologik xavfsizlikning ahamiyati beqiyosdir. Atrof-muhitga zarar etkazuvchi har qanday huquqbuzarlik nafaqat tabiat, balki jamoat xavfsizligi uchun ham tahdiddir. Chunki tabiiy resurslarning ifloslanishi, havo, suv va oziq-ovqat sifatining pasayishi turli epidemiologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bois ekologik huquqbuzarliklarning jamoat xavfsizligiga ta’sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim hisoblanadi.

Mazkur maqolada ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasini kuchaytirish, ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarning jamoat xavfsizligiga salbiy ta’sirlari huquqiy, tashkiliy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ekologiya, huquqbuzarlik ekologik huquqbuzarliklar, huquqbuzarliklar profilaktikasi.

Ekologik huquqbuzarliklar — tabiat resurslarining noto‘g‘ri foydalanilishi, havo, suv, tuproqning zaharlanishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi kabi holatlar. Ular inson salomatligi, iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ularga qarshi kurashlar, nazorat va jazo choralarining samarasi, nazariyalari va milliy ham xalqaro mexanizmlari muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ekologik huquqbuzarliklar nafaqat tabiatga, balki inson salomatligiga, ijtimoiy barqarorlikka va jamoat xavfsizligiga ham jiddiy tahdid solmoqda. Ekologik muammolarning ortib borishi, ayniqsa, atmosferaning ifloslanishi, suv resurslarining zaharlanishi, chiqindilarning nazoratsiz tashlanishi kabi holatlar aholi turmush tarzi va xavfsizligiga

bevosita ta’sir qiladi. Shu bois ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi huquqiy, tashkiliy hamda jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Ekologiya (qadimgi yunoncha ἀκος — "uy", "turar joy") – ma’nosini bildirib,organizmdan yuqorida joylashgan turli darajadagi tizimlar: populyasiyalar, biosenozlar, biogeosenozlar (ekotizimlar) va biosfera, shuningdek, ular ichida sodir bo‘ladigan jarayonlarni o‘rganadigan biologik fanlar to‘plami hisoblanadi. Ekologiya organizmlarning atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganadigan fan sifatida ham ta’riflanadi. "Ekologiya" atamasi 1866 yilda nemis ekologi **Erix Gekkel** tomonidan organizmlar va ularning atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlarni tavsiflash uchun taklif qilingan.

Huquqbuzarlik — sodir etilganligi uchun ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g‘ayrixuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)[1].

Huquqbuzarliklar profilaktikasi — huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko‘rish tizimidir[2].

Ekologik huquqbuzarliklar — bu tabiiy resurslardan foydalanish, atrof-muhit muhofazasi va aholi salomatligini saqlashga oid qonun hujjatlari talablarining buzilishi hisoblanadi.

Ularning salbiy oqibatlari nafaqat tabiat tizimini izdan chiqaradi, balki jamoat xavfsizligiga ham jiddiy xavf tug‘diradi.

Masalan:

- atmosfera ifloslanishi natijasida aholining turli kasalliklarga chalinishi;
- suv manbalarida zararli moddalarning ko‘payishi oqibatida ichimlik suvi xavfsizligining yo‘qolishi;
- chiqindilarning belgilanmagan joylarda to‘planishi va noto‘g‘ri yo‘q qilinishi orqali ekologiyaga ajralib chiqadigan zararli moddalarni tarqalishi va sanitariya qoidalarining buzilishi.

[1] Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги “Нуқуқбузарликлар профилактикаси тўғ‘рисида”ги қонуни. 3-м. Электрон манба: https:// https://lex.uz/docs/2387357. (мурожаат вақти 03.10.2025)

[2] Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги “Нуқуқбузарликлар профилактикаси тўғ‘рисида”ги қонуни. 3-м. Электрон манба: https:// https://lex.uz/docs/2387357. (мурожаат вақти 03.10.2025)

Ekologik huquqbuzarliklar **(environmental violations)** — havo, suv, tuproq ifloslanishi, chiqindi tashlash, biologik xilma-xillikni yo‘qotish, erning noto‘g‘ri foydalanilishi va boshqa holatlarni o‘z ichiga oladi. Ular inson salomatligi, iqtisodiy barqarorlik, ekosistemalarning tahsili va millatlarning kelajagiga salbiy ta’sir qiladi. O‘zbekiston ham ekologik muammolarni hal qilish bo‘yicha bir qator qonunchilik, nazorat va institutsional islohotlarni amalga oshirmoqda.

Ekologik huquqbuzarliklar turli shakllarda namoyon bo‘ladi:

- **atmosferaga ta’sir etuvchi huquqbuzarliklar:**
- (chang, gaz, zararli moddalar chiqarilishi);
- **suv resurslarini muhofaza qilish qoidalarini buzish:** (xonadonlarning, umumiy ovqatlanish joylarining, transport vositalariga xizmat ko‘rsatish va yuvish shaxobchalaridan chiqadigan foydalanishga yaroqsiz bo‘lgan suvlarni, kanalizasiya chiqindilarini ochiq suv havzalari, ariqlar va kanallarga oqizilishi, suvni tejamkorliklarsiz ishlatish va befarq munosabatda bo‘lish oqibatida isrofgarchiliklarga yo‘l qo‘yilgan holatda ishlatish);
- **yer va o‘simlik dunyosiga zarar yetkazish:**
- (qonunsiz daraxt kesish, erdan samarasiz foydalanish);
- **sanitariya talablariga rioya etmaslik** (maishiy va sanoat chiqindilarini belgilangan joylarga tashlamaslik).

Bunday holatlar aholining hayoti va salomatligi uchun xavfli epidemiologik vaziyatlarni yuzaga keltiradi, ayrim hollarda esa favqulodda holatlarga sabab bo‘ladi.

Xo‘sh, ekologik huquqbuzarliklarning jamiyat xavfsizligiga ijtimoiy-huquqiy ta’siri qanday?!

Jamoat xavfsizligi – bu aholining tinchligi, hayoti va mulki muhofazasi demakdir. Ekologik huquqbuzarliklar jamiyat xavfsizligiga quyidagicha ta’sir qiladi:

- ijtimoiy-iqtisodiy yo‘qotishlarga olib keladi;
- aholi salomatligini xavf ostiga qo‘yadi;
- atrof-muhitdagi izdan chiqishlar orqali qishloq xo‘jaligi, sanoat va turizm sohalariga zarar etkazadi;
- aholi o‘rtasida norozilik va ijtimoiy beqarorlikka sabab bo‘ladi.

O‘zbekistonda Ekologik huquqbuzarliklarni bartaraf etishda huquqiy mexanizmlar:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida ekologik normalar tizimi o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ularga fuqarolarning ekologik huquqlari (49-

modda), fuqarolar atrof-tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish majburiyati (62-modda), yoshlarning ekologik huquqlarini himoya qilinishi (79-modda), mahalliy davlat hokimiyati organlarining ekologik vakolatlarini (123-modda) kiritish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 49-moddasiga muvofiq, har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish majburiyati belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi. Konstitusiyaning 49-moddasiga ko‘ra, fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash, atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik va atrof-muhitning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga fuqarolarda o‘z salomatligi va kelajak avlodning salomatligi uchun qulay tabiiy muhitda yashash, salomatligini atrof muhitning zararli ta’siridan muhofaza qilish huquqi mavjud. Ayni paytda fuqarolar tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha jamoat tashkilotlariga birlashish, atrof tabiiy muhitning ahvoli hamda uni muhofaza qilish yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga doir axborotlarni talab qilish va olish huquqi mustahkamlab qo‘yilgan.

Shuningdek, Konstitusiyaning 62-moddasida, fuqarolarning atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish majburyati belgilab qo‘yilgan. Ya’ni, fuqarolar tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi, tabiat boyliklariga ehtiyotlik bilan munosabatda bo‘lishi, ekologiya talablariga rioya etishi shart.

Bundan tashqari, davlat Konstitusiyaning 79-moddasi talablaridan kelib chiqib, yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi.

Atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan chora-tadbirlar qatorida ekologik ta’lim va ekologik madaniyatni oshirish tizimini takomillashtirish muhim o‘rin tutadi. Bu yosh avlodning ekologik bilimlarini va madaniyatini

oshirish, ularda tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish mas’uliyatini shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, bu borada ilm-fanni rivojlantirish, sohaga innovasion texnologiyalarni joriy etish ham dolzarb ahamiyatga ega.

Konstitusiyaning 123-moddasiga ko‘ra mahalliy davlat hokimiyati organlarining konstitusiyaviy vakolatlari doirasi hududlarni “ekologik jihatdan rivojlantirish” masalasi ham kiradi. Mazkur normaning ahamiyati birinchidan, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha asosiy vazifalarni belgilashi, ikkinchidan, barcha darajadagi hokimlarning o‘z hududida ekologik qonunchilik talablariga rioya etilishi uchun shaxsiy javobgarligini belgilash bilan bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 68-moddasiga ko‘ra, “Er, er osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir”. Ushbu konstitusiyaviy norma davlatning ekologik faoliyatining quyidagi asosiy prinsiplarini belgilaydi:

- umummilliy boylikni muhofaza qilish. Er, er osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi kabi tabiiy resurslar xalqning umumiy mulki hisoblanadi va ularni muhofaza qilish davlatning asosiy vazifalaridan biridir;

- oqilona foydalanish. Tabiiy resurslardan foydalanishda ekologik me’yorlar va barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilish talab etiladi.

- davlat muhofazasi. Tabiatni muhofaza qilish va ekologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida davlat qonunchilik va boshqaruv mexanizmlari orqali nazoratni amalga oshiradi.

- barqaror rivojlanish. Tabiiy resurslardan kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olgan holda oqilona va samarali foydalanishni ta’minlash.

- ekologik xavfsizlik. Atrof-muhitga zarar etkazmaslik, ekologiyani muhofaza qilish va tiklash chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

- fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash. Har bir shaxsning sog‘lom atrof-muhitda yashash huquqini kafolatlash va ularning ekologik xabardorligini oshirish.

- javobgarlik va nazorat. Tabiiy resurslarga zarar etkazganlik uchun huquqiy javobgarlikni kuchaytirish, davlat va jamiyat nazoratini ta’minlash.

Ushbu prinsiplar davlatning ekologik siyosati va barqaror rivojlanish strategiyasining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Shuningdek, “Ekologiya va jamoat tartibini saqlash sohalaridagi qonunchilikni takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”[1]gi Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga[2], «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi va «O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida huquqbuzarliklar sodir etgan aybdor shaxslarni ma’muriy javobgarlikka tortish uchun ichki ishlar organlariga va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlariga tegishli vakolatlar berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlariga ushbu Kodeksning 63-moddasida, 72-moddasining birinchi va to‘rtinchi qismlarida (suvlarni ifloslantirish yoki bulg‘atish, suvto‘plagich inshootlarida suvni muhofaza qilish rejimini buzish, suv obyektlariga oqova suvlarni oqizishga yo‘l qo‘yish shartlari to‘g‘risidagi talablarni buzishga oid qismida, bundan er osti suvlariga doir huquqbuzarliklar mustasno), 79-moddasining birinchi va uchinchi qismlarida, 88-moddasida (bundan bitum eritish chog‘ida atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya etmaslik mustasno), 90-moddasining birinchi qismida, 91-moddasida (sanoat chiqindilarini, maishiy chiqindilarni va boshqa chiqindilarni to‘plash, tashish chog‘ida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzishga oid qismida), 91^1-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 91^2, 161-moddalarida, nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklar bayonnoma tuzish vakolati berilgan[3].

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta’minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida qator islohotlar amalga oshirildi. 2023 yil 31 mayda “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformasiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga ko‘ra, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, chiqindilarning inson

[1] Экология ва жамоат тартибини саqлаш соһаларидаги қонунчиликни такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун һужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғ‘рисида”ги ЎРQ-854-сон Қонуни. 11.07.2023-йил. https://lex.uz/uz/docs/6530788. (мурожаат вақти: 03.10.2025)

[2] Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрда қабул қилинган 2015-XII-сонли Қонуни билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғ‘рисидаги кодекси.

[3] Экология ва жамоат тартибини саqлаш соһаларидаги қонунчиликни такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун һужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғ‘рисида”ги ЎРQ-854-сон Қонуни. 2-м. 11.07.2023-йил. https://lex.uz/uz/docs/6530788. (мурожаат вақти: 03.10.2025)

salomatligiga zararini oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va sanitariya holatini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi.

2024 yil 26 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida ochiqlikni ta’minlash hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon ekologik ma’lumotlarning ochiqligini ta’minlash, chiqindilar bilan ishlashda jamoatchilik ishtirokini oshirish va ekologik nazoratni kuchaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Yuqorida qayd etilgan barcha islohotlar va tashabbuslar O‘zbekistonning ekologiya sohasida olib borayotgan siyosatining ijobiy natijalari ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu siyosat Konstitusiyada belgilangan tamoyillarga asoslangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, 2025 yilning “Atrof-muhitni muhofaza qilish va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinishi bu sohadagi konstitusiyaviy normalar va tamoyillarni amalga oshirish uchun muhim asos bo‘ladi.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi islohotlar O‘zbekistonda barqaror rivojlanishni ta’minlash, fuqarolarning salomatligi va farovonligini oshirishga qaratilgan. Davlat organlari, jamoatchilik va har bir fuqaroning bu jarayondagi faol ishtiroki ekologik muammolarni samarali hal etishga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, ekologik huquqbuzarliklarni oldini olishda, mazkur sohadasgi amaliyoti yaxshilash va ekologik huquqbuzarliklarga qarshi kurashni samaralilashtirish bo‘yicha takliflar o‘z samarasini beradi:

1. **Qonunchilikni yanada takomillashtirish:**

✓ Ekologik jinoyatlar tuzumida “ekosistema restavrasiyasi” zarurligini qonun darajasida keng qamrab olish.

✓ Jazo choralarini buzilish darajasiga moslashtirish: faqat jarima emas, balki zararni bartaraf qilish, filtrlar o‘rnatish, chiqindilarni qayta ishlash kabi majburiy choralar.

✓ “Yashil” sertifikatlar, ekologik standartlar va ekspertizalar uchun yo‘l xaritalarini rivojlantirish.

2. **Monitoring va nazorat tizimini modernizasiya qilish:**

✓ Avtomatlashtirilgan havo sifati monitoring stansiyalari, chiqindi tashlashning noma’lum nuqtalari (illegal dumping) ni onlayn kameralar va ma’lumot tizimlari orqali kuzatish.

- ✓ Sputnik, (dron) vositasida nazorat va ma’lumot yig‘ish, tezkor xabardorlik tizimlari joriy etish.
- ✓ Inspektorlarning texnik va moliyaviy resurslari, trening va malaka oshirish ham muhim.

3. **Jamoatchilik ishtirokini rag‘batlantirish:**

- ✓ Ekologik ma’lumotlarni olish, axborotni ochiq qilish, jamoatchilik kengashlari va ekologik patrullarni jalb etish.
- ✓ Ma’rifiy tadbirlar: maktablarda, universitetlarda ekologik huquq, mas’uliyat va sanitar shaharchiligi haqida darslar, seminarlar.

4. **Ekologik ekspertiza va investisiyalar:**

- ✓ Xar bir yangi obyekt (sanoat, yashilxona, quvvat stansiyalari, qurilish) uchun ekologik ekspertiza majburiy bo‘lishi, ekspertizasi manfaatli, mustaqil va professional tashkilotlar tomonidan o‘tkazilishi.
- ✓ Investisiyalarni jalb qilishda “yashil texnologiyalar” va chiqindilarni qayta ishlash loyihalarini qo‘llab-quvvatlash borasida izchil islohotlar davom ettirilsa kelgusida ekologik huquqbuzarliklar proiflatikasida o‘z samarasini berishiga ishonamiz.

Hozirgi kunda ekologik huquqbuzarliklar butun dunyodagi eng jiddiy muammolardan biri bo‘lib, O‘zbekiston ham bu muammoning kuchayishiga qarshi barcha imkoniyatlarini ishga solmoqda. Mamlakatimizda ekologik muammolarning ko‘payishi nafaqat inson sog‘lig‘iga, balki iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ekologik huquqbuzarliklarga qarshi kurash nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarni ham qamrab olishi kerak.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda qonunchilik bazasi va nazorat mexanizmlari yanada takomillashtirilishi zarur. Hozirgi vaqtda javobgarliklar bazaviy darajada bo‘lib, ayrim holatlarda javobgar shaxslar faqat ma’muriy jarima bilan cheklanmoqda. Bu esa huquqbuzarliklarning oldini olishga etarli darajada ta’sir qilmayapti. Shu bois, jinoiy javobgarlikni kuchaytirish, ekologik zararni bartaraf etish va qayta tiklashga qaratilgan choralarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, ekologik nazorat va monitoring tizimlarining raqamlashtirilishi, zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanilishi orqali huquqbuzarliklarni aniqlash va tezkor chora ko‘rish samaradorligini

oshirish mumkin. Bunday usullar jumladan, sun’iy sun’iy intellekti, sputnik kuzatuvlari va dronlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Muhim jihatlardan biri — jamoatchilik va nodavlat tashkilotlarning faol ishtiroki. Ekologik huquqbuzarliklarga qarshi kurashda fuqarolarning xabardorligi, huquqiy madaniyati va faol ishtiroki eng samarali vositalardan biridir. Shu bois, ta’lim va ma’rifiy ishlar, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali ekologik sohaga aloqadorlikni oshirish zarur.

Iqtisodiy jihatdan, “yashil iqtisodiyot” tamoyilini joriy etish, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan investisiyalarni ko‘paytirish, shuningdek, texnologiyalarni modernizasiya qilish orqali resurslarni tejash va chiqindi kamaytirishga erishish mumkin. Xalqaro hamkorlik esa texnologik va moliyaviy resurslarni jalb etishda muhim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik huquqbuzarliklarga qarshi kurashning samarali bo‘lishi uchun kompleks yondashuv kerak: qonunchilikni takomillashtirish, nazoratni kuchaytirish, jamoatchilik ishtirokini oshirish, zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish hamda iqtisodiy mexanizmlarni rivojlantirish. Faqat shu yo‘l bilan O‘zbekiston atrof-muhitini muhofaza qilish, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va kelajak avlodlarga sog‘lom muhitni saqlab qolish imkoniga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. 2023 yil

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 30-dekabrdagi “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida” gi PQ-76-sonli Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-iyuldagi “Ekologiya va jamoat tartibini saqlash sohalaridagi qonunchilikni takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” gi O‘RQ 854-sonli Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan 2015-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.

5. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O‘RQ 371-sonli “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni.

XOTIN-QIZLARGA NISBATAN SODIR ETILADIGAN TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKLARNING SABABLARI, UNI VUJUDGA KELTIRUVCHI SHART-SHAROITLAR

Maxtumova Y.B.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi(PhD)
E-mail: Yulduzmaxtumova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning sabablari, uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarni kelib chiqishi haqida tushunchalar berilgan. Xotin qizlarga nisbatan sodir etilgan huquqbuzarliklar sabab va shart-sharoit bir-biriga bo‘liq tushunchalar ekanligi tahlili qilinganva keng yoritilgan. Shahar-tumanlarda sodir etilgan jinoyatlardan misollar keltirib o‘tilgan, respublika bo‘yicha statistika keltirilgan. Shuningdek fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari og‘zaki tarzda bo‘lsada tazyiq va zo‘ravonlik haqida xabardor qilish majburiyati yuklanishini hamda faol horij tajribasiga asosan huqubuzarliklar sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etuvchi zamonaviy chora-tadbirlar ishlab chiqish taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Xotin-qizlar, huquqbuzarlik, gender tengligi, tazyiq, zo‘ravonlik, sabab va shart-sharoitlar, taqdimnoma, motiv va maqsad.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning sabablari, uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarni kelib chiqishiga quyidagi omillar: ayrim oilalarda xotin-qizlarga nisbatan nosog‘lom ma’naviy-ruhiy muhitning mavjudligi; ish beruvchi tomonidan xotin-qizlarga past nazar bilan qarash; oiladagi moddiy yetishmovchilik va qiyinchiliklar; tazyiq va zo‘ravonlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxsning spirtli ichimlikka ruju quyganligi; rashk, erkak yoki ayolning xiyonatkorligi; Xotin-qizlarning viktimologik jihatlari; yoshlarning erta turmush qurayotganligi yoki qarindosh urug‘larning oiladagi nizolarga noo‘rin aralashuvi; er va xotin o‘rtasidagi psixologik kelishmovchilik, ular oilada o‘z burch va vazifalarini yetarli darajada bajarmasligi yoki bilmasligi, qaynona va kelin o‘rtasidagi kelishmovchilik va boshqa kabilar misol bo‘lishi mumkin.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini oldini olishda bizda zo‘rovonlikning kelib chiqish sabablari shart sharoitlarini o‘rganish muhimdir. «Sababiylik muammosi faqat nazariy

emas, balki amaliy ahamiyatga ham egadir, chunki jinoyatchilik sabablari va unga imkon bergan sharoitlarni o‘rganmasdan jinoyatchilik bilan oqilona kurash olib borib bo‘lmaydi» [1; 23-b.].

Kriminolog olimlar tomonidan huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlariga nisbiy tushunchalar deb qaraladi. Chunki ushbu nisbiylik sodir etilgan huquqbuzarlikni keltirib chiqargan omillarning qaysi birlarini sabab yoki qaysilarini sharoit deb belgilashning mukammal chegarasi mavjud emasligi, natijada ularni aniqlashda turli chalkashliklarni kelib chiqishida namayon bo‘ladi [2; 42-b.]. Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning sababi — bu zo‘ravonlikni keltirib chiqaradigan omillar yoki motivlardir. Ular bevosita va bilvosita tarzda zo‘ravonlikning paydo bo‘lishiga turtki beradi. Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning shart-sharoitlar esa, sabablarni qo‘llab-quvvatlaydigan yoki ular uchun imkoniyat yaratuvchi tashqi omillardir. Bu omillar sabablarning amalga oshishiga imkon beradi yoki uni kuchaytiradi.Shu bilan birga, shart-sharoitlar ko‘pincha uzoq muddatda o‘zgartirilishi kerak bo‘lgan muammolarni tashkil etadi, sabablar esa ko‘pincha tezroq hal qilinishi mumkin. Masalan, ayollarni o‘qitish, huquqiy savodxonlikni oshirish, gender tengligini ta’minlash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini kuchaytirish orqali zo‘ravonlikni kamaytirish mumkin

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning sabablari va shart-sharoitlari o‘rtasidagi farqni tushunish uchun, avvalo, bu tushunchalarning har biri qanday ma’no anglatishini aniqlab olish zarur. Sabablar — zo‘ravonlikning yuzaga kelishining bevosita yoki bilvosita omillari, bu omillar zo‘ravonlikni keltirib chiqaruvchi kuch sifatida xizmat qiladi. Sabablar, ko‘pincha ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, psixologik va huquqiy sohalarda mavjud bo‘lgan tizimli muammolarni aks ettiradi.

Gender tengsizligi-ayollarni past deb ko‘rish, ularning erkinligini cheklash va patriarxal qadriyatlar zo‘ravonlikka olib keladi gender stereotiplar – jamiyatda erkaklar va ayollarning o‘rni va roli haqidagi an’anaviy tushunchadan kelib chiqqan bo‘lib, turli jinsdagi vakillarning xususiyatlari va xulq-atvori to‘g‘risidagi umumiy fikrning ta’siri natijasi bilan bog‘liq. Jamiyatda gender stereotiplarning saqlanib qolishi va ko‘payishi unda mavjud bo‘lgan gender rollar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular gender tengsizlikni keltirib chiqarishga va saqlashga xizmat qiladi. Ushbu holatni bartaraf etishda gender sezgirlik muhim ahamiyat kasb etadi. Gender sezgirlik insonni jinsiga qarab kamsitishning asosini tashkil

etuvchi ijtimoiy-madaniy omillarni tushunish va hisobga olish demakdir.[3; B.122] .Ayollarning iqtisodiy mustaqilligi yo‘qligi ularni zo‘ravonlikka duchor qilishi mumkin, chunki ular moliyaviy sabablar tufayli munosabatlarni davom,ettiradilar. Madaniy urf-odatlar ayollarga nisbatan qo‘llaniladigan zo‘ravonlik ba’zida madaniy normaga aylanishi mumkin, bu esa jamiyatda uning mavjudligini oqlashga imkon beradi.

Shart-sharoitlar esa — bu sabablarni qo‘llab-quvvatlovchi yoki ularga imkon beruvchi tashqi omillar va atrof-muhitdir. Shart-sharoitlar zo‘ravonlikning yuzaga kelishi uchun zarur bo‘lgan "sharoit"ni yaratadi, lekin ularni o‘zgartirish orqali sabablarni bartaraf etish yoki kamaytirish mumkin.

Sabab va shart-sharoit bir-biriga bo‘liq tushunchadir chunki biri bo‘lmasa ikkinchisining bo‘lishiga qaramay huquqbuzarlik sodir etilmaydi. Misol uchun doimiy janjalkash oila yoki spirtli ichimlikka ruju qo‘ygan fuqaro bor ya’ni sabab mavjud lekin ular doimiy nazoratda va notinch oila va ichkilikka ruju qo‘ygan shaxs mahalla va ichki ishlar organlari tomonidan nazoratga olingan va ular ustida faoliyat olib boriladi shuningdek qo‘ni-qoshnilar ham befarq emas ushbu holatda sabab mavjud lekin huquqbuzarlik va zo‘ravonlik uchun sharoit yaratilmagan. Yoki aksincha ma’lum bir ko‘chalarda kameralar o‘rnatilmagan va lekin mahallada o‘g‘irlikka va tajovuzga moyil shaxslar yo‘q bunda ham huquqbuzarlik sodir etilish ehtimoli kam.

Shart-sharoitlarga misol sifatida oiladagi nosog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit, oilada ma’naviy-axloqiy tarbiyaning zaifligi yoki sustligi, oila a’zosi (a’zolari)da mavjud bo‘lgan g‘ayriijtimoiy xulq-atvor, oiladagi moddiy yetishmovchilik va qiyinchiliklar, spirtli ichimlikka ruju quyish, asossiz (me’yoridan ortiq) rashk, erkak va ayolning xiyonati, erta turmush qurish, yosh oiladagi munosabatlarga noo‘rin aralashuvlarni keltira olamiz.

Birinchidan huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi kamchiliklar. Agar huquqni muhofaza qilish tizimi samarali ishlamasa, jinoyatlarni oldini olish yoki jazolashda qiyinchiliklar yuzaga keladi, bu esa zo‘ravonlikni kamaytirishni qiyinlashtiradi.

Ikkinchidan madaniy qabul qilish va jamoatning befarqligi. Agar jamiyatda zo‘ravonlik holatlari normal hol sifatida qaralsa, qurbonlar o‘zini himoya qilishga harakat qilmaydilar yoki qo‘llab-quvvatlashni kutmaydilar.

262771-2020-215 jinoyat ishi bo‘yicha olib borilgan surishtiruv natijalariga ko‘ra fuqaro Y.A. turmush o‘rtog‘i Y.Sh. bilan o‘zaro kelishmovchilik oqibatida janjallashib, qasddan badanga o‘rtacha og‘ir

shikast yetkazish maqsadida qo‘l-oyoqlari bilan fuqaro Y.Sh. tanasining turli qismlariga urib tan jarohati yetkazgan. Natijada fuqaro Y.Sh. olgan tan jarohatlari bilan RSHTYOIM Toshkent viloyati filialiga murojaat qilgan. Sud tibbiyot ekspertizasining xulosasiga asosan Y.Shga «burun suyaklarining yopiq siljib sinishi, o‘ng ko‘z atrofi, o‘ng yonoq, chap ko‘z atrofi, chap yelka, chap tizza sohalar qontalashlari» kabi jarohatlar mavjudligi va bu jarohatlar og‘irlik darajasi bo‘yicha o‘rtacha og‘ir tan jarohatlariga kirishi aniqlangan. Mazkur jinoyat ishini tergov qilish davomida, jinoyatni sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlar o‘rganilganda, gumon qilinuvchining yashash manzilidagi mahalla fuqarolar yig‘ini tomonidan bir qator chora-tadbirlar o‘z vaqtida lozim darajada o‘tkazilmaganligi, ushbu omillar jinoyat sodir etilishiga shart-sharoit yaratib berganligi aniqlangan ushbu oilada bir necha marotaba kelishmovchiliklar kelib chiqqan bo‘lsada uning kelib chiqishiga sabab bo‘layotgan shart-sharoitlar o‘z vaqtida bartaraf etilmagan.[4]

Ish joyida sodir etilgan 105-moddasi 1-qismi bilan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi Surishtiruv jarayonida to‘plangan hujjatlarga ko‘ra, Bolalar musiqa va san’at maktabi rahbari A.Z. o‘z xizmat xonasida bo‘la turib, shu yerda kutubxonachi vazifasida ishlovchi M.S. bilan o‘zaro kelishmovchilik oqibatida janjallashib, qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish maqsadida qo‘li bilan fuqaro M.S.ning quloq qismiga urib tan jarohati yetkazgan. Sud tibbiyot ekspertizasining xulosasiga asosan fuqaro M.S ning «O‘ng tomonlama nog‘ora pardaning postravmatik perforatsiyasi, o‘ng tomonlama o‘tkir sensonevral garanglik 4-daraja» kabi jarohatlar mavjudligi va bu jarohatlar og‘irlik darajasi bo‘yicha o‘rtacha og‘ir tan jarohatlariga kirishi aniqlangan.Mazkur holat yuzasidan A.Z.ga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi JKning 105-moddasi 1-qismi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, unga nisbatan mazkur modda bilan ayblov e’lon qilingan. Fuqaro A.Z. Bolalar musiqa va san’at maktabi rahbari lavozimida bir necha yillardan beri ishlab kelib, qo‘l ostida bo‘lgan xodimlariga o‘rnak bo‘lish o‘rniga, o‘zini nomutanosib tutib, qo‘l ostida ishlovchi xodimi A.Z.bilan muntazam ravishda janjallashib kelgan .[4]

Yuqoridagi kabi holatlarni respublikaning boshqa tuman-shahar ichki ishlar organlari tergov xizmatlari tomonidan yuritilgan jinoyat ish materiallarida ham kuzatish mumkin. Bu esa jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlashning umumiy holati sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Sodir etilgan jinoyatlardan kelib chiqib jabrlanish viktimligi yuqori bo‘lgan toifalar guruhini yaratish va ular bilan yakka tartibda ishlash sodir etilish

ihtimoli bo‘lgan huquqbuzarliklarning oldini oladi va shart-sharoitini bar taraf etadi.

Bevosita statistikaga qaraydigan bo‘lsak, O‘zbekistonda 2021-yilning birinchi yarmi davomida qariyb 18 ming nafar ayol tazyiqqa uchragani aniqlangan. Ulardan 9 ming nafari ruhiy zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkich 2020-yilning mos davriga nisbatan 2,5 baravar, yoki 5 ming nafarga ko‘p miqdorni keltirib chiqaradi. Ushbu masala yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlar jamoatchilik kengashi hamda Gender tengligi masalalari bo‘yicha komissiyaning kengaytirilgan yig‘ilishda Senat raisi Tanzila Norboyeva alohida ta’kidlab o‘tgan[5]

O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi boshchiligida hamda BMTning Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA) ko‘magida Reabilitasiya va moslashtirish respublika markazi[6] tomonidan aholi o‘rtasida maxsus onlayn-anonim so‘rovnoma o‘tkazilgandir[7]. O‘tkazilgan so‘rovnomada ovoz bergan respondentlarning 42 foizi ayollar o‘zlari va farzandlarini boqa olmasligidan qo‘rqib zo‘ravonlikka chidashlarini, shuningdek 38 foiz ayollar boshqalar tomonidan muhokama (gap-so‘z) bo‘lishdan qo‘rqib zo‘ravonlikka ko‘z yumishlari kabi sabablarni keltirishgan[6].

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning sabablari, uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarini quyidagi tartibda o‘rganish mumkin.

– Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar hamda jinoyat ishlarini tahlilini yuritish;

– Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini oluvchi subyektlari faoliyatini o‘rganish va tahlil qilish;

– tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanganlar xotin-qizlarning murojaatlarini ko‘rib chiqish;

– Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar sodir etilishi mumkin bo‘lgan hududni ko‘zdan kechirish va kriminogen vaziyatni tahlil qilish;

– yurtimizda yashovchi xotin qizlarning turmush sharoitlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy holatlarni o‘rganish hamda tazyiq va zo‘ravonliklar sodir etishga ko‘maklashuvchi shart-sharoitlarni aniqlash maqsadida uyma-uy yurishlarni tashkil etish;

– Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olish

profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning xabarlarini o‘rganib chiqish.

2021-yilning yanvar-aprel oylari oralig‘ida ichki ishlar organlariga ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va tazyiq o‘tkazish holatlari bo‘yicha umumhisobda 11 070 ta murojaat kelib tushgan. Murojaatlarning 2 772 tasi 18—30 yosh oralig‘ida bo‘lgan, 93 tasi esa voyaga yetmagan shaxslar tomonidan kelib tushgan. Zo‘ravonlik holatlarining eng katta qismi – 9 973tasi oiladagi zo‘ravonlik holatlariga to‘g‘ri keladi. Murojaat qilgan xotin-qizlarning 5 209 nafari ruhiy, 3 813 nafari jismoniy, 166 nafari iqtisodiy, 44 nafari jinsiy zo‘ravonlik, shuningdek, 1 838 nafari zulm va tazyiq o‘tkazishlarga uchraganini bildirib o‘tishgan[6]. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik jinoyati turli xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, oilada, jismoniy, ruhiy, jinsiy zo‘ravonlik hamda tahqirlash va tazyiq o‘tkazish kabi jinoyatlar tez-tez uchrab turadi.

Ayrim hollarda milliy qarashlarimiz hamda mentalitetimizdan kelib chiqib ham bevosita ayollar jabrlanuvchiga aylanishadi. Oilada jinslarning ruhiy-fiziologik xususiyatlari va ularning jamiyatda o‘ynagan roli, ayollar xarakterining yumshoqligi, ularning chidamliligi va sabr-bardoshliligi g‘arazli niyatni amalga oshirish qasddan odam o‘ldirish yoki badanga shikast yetkazish jinoyatlarini sodir etilishi ayollarning jismoniy imkoniyatlari cheklanganligi bilan izohlanadi [8; S.245; 182; B.98]. Qaysidir ma’noda, bunday holat an’anaviy tarbiya oqibati bo‘lib, erkaklarning agressiv xulq-atvori, muammolarni hal qilishning yagona va samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi [9; B.60].

Ma’lumki, dinimizda ya’ni islom ta’limotida erning vazifalaridan eng muhimi xotinning haqlarini to‘la ado etishdir. Qurbi yetgunicha xotinining ehtiyojlarini ta’minlash erning zimmasidagi vazifadir. Jumladan, Burhoniddin al-Marg‘inoniyning asarida shunday deb yozilgan: «Er kishining zimmasiga o‘z xotinining nafaqasi vojibdur, u xoh muslima bo‘lsin, xoh kofir bo‘lsin, agar erining manzilida o‘z nafsini shu eriga topshirgan bo‘lsa, bas ayolning nafaqasi, kiyim-kechagi va turar joyi erning zimmasida bo‘ladi» [10; B.291]. Mazkur asarda er-xotinning buzilayotgan munosabatini isloh qilib olishlari, erlarning xotinlari oldidagi vazifalari mas’uliyatli ekanligi bayon qilingan.

Professor Q.Abdurasulova tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan jami jinoyatlarning 59,8%da jabrlanuvchilarning salbiy xulq-atvori, shu jumladan, alkogolizm, aybdorning shaxsiga, uning farzandlariga,

hurmatsizlik, urish, kaltaklash, ko‘rinishidagi zo‘ravonlik jinoyatlarining kelib chiqishiga turtki bergan [11; B.117-118]ligi qayd etilgan

B.A.Saidovning fikricha, oiladagi muhitning sog‘lomligi ota-onaning totuvligi, bir-birini tushunishi, qo‘llab-quvvatlashi, ularning o‘zaro izzat hurmati bilan belgilanadi [12; B.16]. Afsuski, so‘nggi paytlarda oila turmush doirasida er-xotin, qaynona-kelin, qarindosh urug‘lar o‘rtasidagi nizo va kelishmovchiliklar oqibatida shaxs hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lgan og‘ir turdagi jinoyatlar sodir etilmoqda.[13;B.42].

Professor G‘.Shomurodov oilani ajratuvchi nizolar janjallarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan muammo va yechim, er-xotindan birining manfaatiga qaratilgan bo‘ladi. Bunday nizolarda bir tomon manfaatining hal etilishi ko‘pincha ikkinchi tomon manfaatining boy berilishi hisobiga amalga oshadi [14; B.251] deydi.

Psixolog A.T.Kadirova ta’kidlaganidek, er-xotinning oilaviy hayot to‘g‘risidagi tasavvurlarining o‘zaro mos kelmasligi nizo yoki ziddiyatlar kelib chiqishining asosiy sabablaridan biridir [15; B.35-36]. Oiladagi zo‘ravonlikning zamirida ko‘pincha er yoki xotinning bir-birini hurmat qilmasligi, haqorat qilish, ustidan kulish, kamsitish, mensimaslik kabi omillar jabrlanuvchida qasd yoki o‘ch olish niyatining shakllanishiga olib keladi. Zero, zo‘ravonlikka asoslangan viktimogen jinoyat jabrlanuvchi tomonidan sodir etiladigan inson qadr-qimmatini kamsitishga nisbatan javob sifatida namoyon bo‘ladi [16; S.16]

S.Xo‘jaqulovning fikriga ko‘ra esa sodir etilgan har bir huquqbuzarlikning kelib chiqish sabab va shart sharoitlarini aniqlashda quyidagilarga etibor qaratish lozim. -huquqbuzarning shaxsi (ijtimoiy-demografik, ma’naviy-ruhiy va jinoiy-huquqiy va biofiziologik belgilari)ga; huquqbuzarning tarbiyasi, oilasidagi muhit, ehtiyoji, manfaatlari, motivi, maqsadi, hayotda tanlagan yo‘li; huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt, joy, sharoit, sodir etilish usuli, vositasi; huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt va joyda huquqbuzarlikni oldini olish lozim bo‘lgan subyektlarning faoliyati; huquqbuzarlikdan jabrlanuvchining shaxsi (ijtimoiy-demografik, ma’naviy-ruhiy va jinoiy-huquqiy va biofiziologik belgisi), aybli yoki aybsiz viktimlik holati; huquqbuzar va jabrlanuvchi o‘rtasidagi aloqalar (yaqin qarin-dosh, qarindosh, quda-anda, qo‘shni, mahalladosh, hamkasb, sinfdosh, kursdosh, tanish, notanish kabilar) va munosabat (ziddiyatli, adovatlashgan kabilar); ota-onasining ilgari huquqbuzarlik sodir etgan-etmaganligi, sodir etgan bo‘lsa, qaysi turdagi huquqbuzarlikni sodir etganligi kabilar.[17;B.100-101] yuqoridagilari jinsiy omillarni ham qo‘shish maqsadga muvofiq bo‘lgan

bo‘lardi. Chunki aynan ayol jinsiga mansub bo‘lganligi uchun ham ayrim turdagi jinoyat qurboni bo‘lish ehtimoli yuqori

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning sabablaridan yana biri rashqdir. Buning vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar turlicha bo‘lsada oqibatda natijada ayol kishi tazyiq va zo‘ravonlik qurboni bo‘ladi. Professor O.Zokirova fikricha, muayyan hayotiy vaziyat rashk tufayli sodir etilayotgan jinoyat sabablarining obyektiv komponenti hisoblanadi [18; B.66]. Bularning ichida ijtimoiy xavfi yuqori bo‘lgani ayolning xiyonatkorligi bo‘lib, og‘ir qilmishlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Professor M.H.Rustambayevning fikricha, «Bu - qisqa, ammo birdan vujudga kelgan tez kechadigan his-hayajon, shu bilan bir vaqtda haddan tashqari kuchli, shiddatli kechinma, xafagarchilik bo‘lib, u g‘azab, qo‘rquv, siqilishni vujudga keltirishi natijasida aybdor ma’lum darajada o‘z xatti-harakatlari va ularni boshqarish qobiliyatini yo‘qotadi» [19; S.46- 47]. Bunda fe’l-atvorining g‘ayriijtimoiy ko‘rinishlari bilan ana shu ruhiy xususiyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, ko‘pincha huquqbuzar shaxs tomonidan anglanmaydi.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning sabablari aniqlash hamda ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish qonun hujjatlarida ham belgilangan. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat prosessual kodeksining 6-bo‘limi, 36-bobining 296-300-moddalari Jinoyatlarning oldini olish choralari tartib qoidalari qonunan belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra sodir etilgan huquqbuzarlik yoki jinoyat yuzasidan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashlari shart. Shuning uchun tergov qilish chog‘ida jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlab chiqib, tegishli davlat organiga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga, jamoat birlashmasiga, jamoaga yoki mansabdor shaxsga ana shu sabab va shart-sharoitlarni bartaraf qilish choralarini ko‘rish to‘g‘risida taqdimnoma kiritadi. Shungdek, huquqbuzarlik sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar aniqlanganidan keyin sud xususiy ajrim chiqarib, unda tegishli davlat organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, jamoat birlashmalaridan, jamoalardan yoki mansabdor shaxslardan ana shu sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rishni talab qiladi. Yuborilgan xususiy ajrim va taqdimnoma bajarilmagan yoki vijdonan bajarilmagan taqdirda korxona, muassasa yoki tashkilotning aybdor rahbari qonunda nazarda tutilgan

javobgarlikka tortiladi.Surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror — taqdimnoma, sud esa, xususiy ajrim chiqarish yo‘li bilan tegishli korxona, muassasa va tashkilot rahbarini va jamoasini jinoyatning oldini olish yoki uni fosh etishda fuqaro yuksak onglilik, jasorat ko‘rsatgani, ijtimoiy burchini namunali bajarganligi to‘g‘risida xabardor qilishi mumkin.[20]

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining “O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida surishtiruv va dastlabki tergovni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi buyrug‘ida jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to‘g‘risida kiritiladigan taqdimnoma har bir jinoyatning xususiyati va sodir etilish usullaridan kelib chiqqan holda, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar va ijro etish muddatlari aniq belgilangan holda tayyorlanadi va kiritiladi Jinoyatlarning sodir etilishi sabablari va bunga imkon yaratadigan shart-sharoitlarni aniqlash, shuningdek ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish uchun darhol davlat organlari va boshqa tashkilotlarga, mansabdor shaxslarga taqdimnomalar kiritilishini hamda ularning muhokamalarida tergovchi (surishtiruvchi)larning ishtirokini ta’minlaydi deb belgilangan. [21]

Ushbu talablar mas’ul tashkilotlar tomonidan bartaraf etilmagan taqdirda huquqbuzarlikni sodir etish sabablarini hamda uni sodir etishga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan ichki ishlar organlarining yozma taqdimnomalarini bajarish choralarini ko‘rmaslik O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 196-moddasiga asosan mansabdor shaxslarning javobgarlikka tortilishiga olib keladi[22].

Bundan ko‘rinib turibdiki, xotin-qizlarga nisbatan sodir etilgan jinoyat va yoki huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabab va shart-sharoitlarini bar taraf etish maqsadida ular yashab turgan hudud, ish joyiga taqdimnoma yoki xususiy ajrim kiritiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ham huquqbuzarliklarning sodir etilish sabab va shart sharoitlarini bartaraf etish maqsadida Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi hamda Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalari tashkil etilgan. [23] va ushbu qaror doirasida ushbu komissiya a’zolari hamda ularning vazifa va majburiyatlari belgilab qo‘yilgan. Lekin xotin-qizlarga nisbatan sodir etilgan tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olish bo‘yicha alohida

idoralararo komissiyalar tashkil etilmagan va hamkorlik normativ hujjat bilan yo‘lga qo‘yilmagan.

Tadqiqotning usullari: Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning sabablari, uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar mavzusini o‘rganishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalanildi. Mavzu yuzasidan Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning sabablari, uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar huquqiy, iqtisodiy adabiyotlarni hamda statistik ma’lumotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish usulidan foydalanildi. Shuningdek, olimlarning ilgari surgan fikrlari, Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning sabablari, uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar tahlil qilish bo‘yicha bugungi kundagi muammolar va ularni hal etish imkoniyatlarni o‘rganish uchun aralash usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida umumlashtirish, taqqoslash ilmiy tadqiqot usullaridan hamda tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Muhokama: Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning sabablari, uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarni o‘rganish va ularni bartaraf etishning huquqiy me’yorlari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining “O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida surishtiruv va dastlabki tergovni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i hamda boshqa huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topgan lekin Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning sabablari, uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarni o‘rganish va ularni bartaraf etish qator kamchiliklar mavjud

- ✓ Yuqoridagi huquqiy hujjatlarda huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash shartligi qayd etilgan bo‘lsa-da, ammo aniqlashning huquqiy mexanizmi o‘z ifodasini topmagan.
- ✓ Faqat tazyiq va zo‘ravonliklarning vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarni o‘rganibgina qolmasdan uni keltirib chiqaruvchi sabablar bilan ishlashni kuchaytirish misol uchun tazyiq va zo‘ravonliklarning sababi doimiy spirtli ichimlikka ruju qo‘yishdir. Lekin uning kelib chiqish sababi

nima oilaviy notinchlik, ishsizlik va boshqalarni o‘rganish o‘rganishda sustkashlikka yo‘l qo‘yiladi.

✓ Yuqorida keltirilgan huquqiy hujjatlarda qaysi organ yoki mansabdor shaxs qaysi ishni, qanaqangi tartibga ko‘ra huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni amalga oshirishiga doir huquqiy mexanizmini belgilab bermagan. tazyiq va zo‘ravonliklarning sabablari, uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarni aniqlash faqat huquqbuzarlikni kvalifikatsiya qilishga qaratilgan.

✓ Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar sodir etilgan vaqt va joyda huquqbuzarlikning oldini olishi lozim bo‘lgan subyektlarning faoliyati, hamda o‘sha vaqtda huquqbuzarlikning oldini olishi mumkin bo‘lgan shaxslarning xatti-harakatini baholash kabi tomonlar ochiq qolmoqda

Amaliy natijalar. Yuqoridagi masalalardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning sabablari, uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarni o‘rganish va ularni bartaraf etishning bir qancha kamchiliklari bor va ularga qarshi kurashish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlardan quyidagilar talab etiladi.

✓ Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarlarning sabablari, uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etishning yagona huquqiy mezonini yaratish va ularni bartaraf etish yuzasidan kiritilgan taqdimnoma va sudning xususiy ajrimi qay tarzda ko‘rish lozimligi to‘g‘risida keltirib o‘tish.

✓ Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar sabablari, uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etishning to‘g‘risidagi taqdimnomalarning turi bilan bo‘liq muammolarni bar taraf etish. «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunda ikkita bir-biriga o‘xshash profilaktik chora-tadbir keltirib o‘tilgan. Ulardan biri huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasining «Huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida taqdimnoma kiritish» hamda yana biri huquqbuzarliklar yakka tartibdagi profilaktikasining «Huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to‘g‘risida xabardor qilish» deb belgilangan.[24] tazyiq va zo‘ravonliklardan xabardor qilish qismida tasir chorasi belgilanmaydi ammo fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari og‘zaki tarzda bo‘lsada tazyiq va zo‘ravonlik haqida xabardor qilish majburiyati yuklanadi.

- ✓ Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar sabablari, uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarni chuqur o‘rganish va sabablarga katta e’tibor qaratish va maxsus profilaktik chora tadbirlar ishlab chiqish;
- ✓ Sodir etilgan tazyiq va zo‘ravonliklar to‘laqonli o‘rganib chiqib, huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etilganida uning oldini olishi uchun mas’ul bo‘lgan subyektlar tomonidan ko‘rilgan chora tadbirlarni o‘rganim chiqish hamda fuqarolarning ham ogohligi va javobgarligini oshirish lozim.
- ✓ Ayrim Yevropa davlatlarida, xususan, Germaniyada huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda fuqarolarning imkoniyatidan keng foydalanish amaliyoti mavjud. Mazkur amaliyotga ko‘ra, har qanday huquqbuzarlik, shu jumladan, g‘ayriijtimoiy xulq-atvorning guvohi bo‘lgan Germaniya fuqarolari bu haqda darhol davlat organlariga telefon orqali og‘zaki, SMS yoki MMS ko‘rinishida xabar beradi. Xabar asosida tezkor profilaktik choralar ko‘rilib, natijasi haqida fuqaroga ma’lum qilinadi [25; 262-b.].

Xulosa qiladigan bo‘lsak, xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning sabablari, uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar o‘rganish va tahlil qilish ayollarga nisbatan sodir etilishi mumkin bo‘lgan ko‘plab jinoyatlarning oldini olish demakdir. Bu boshqa huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlari kabi aniqlash, hisobga olish, o‘rganib chiqish va ularga qarshi chora tadbirlar ishlab chiqishdan iboratdir. Sabab va sharoitlarini bararaf etishning eng samarali usuli bular o‘rganish va tahlil qilish, ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish va fuqarolarni ogohlantirish, jinoyatlarning sodir etilishi sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish bo‘yicha manzilli tadbirlarni o‘tkazish o‘tkazish lozim. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning sabablari, uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar o‘rganish keng hajmdagi faoliyatni amalga oshirishni talab etadi. Boshqacha qilib aytganda, tazyiq va zo‘ravonliklarning sabab va sharoitlarini aniqlash natijalariga umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktika ham tayanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ma’muriy huquq: Darslik / N.T. Ismoilov, O‘.X. Muxamedov, A.S. Tursunov va boshq.; Sh. T. Ikramov va I. A. Xamedov tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – 532 b.;

2.Мозговых Г. А. Причины и условия, способствующие совершению преступлений, в структуре их криминалистической

характеристики // Предупреждение преступности. – Алмата, 2002. – №1 (3). – С. 42;

3.Narbayeva Tanzila Kamalovna “O‘zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishning innovasion modeli” desertatsiya 2020 yil 122-bet

4. “O‘zbekistonda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik, tahdid, tazyiq keskin oshdi“. Qalampir.uz. Qaraldi: 7-avgust 2022-yil.

8.Kriminologiya / N.F.Kuznesova, G.M.Minkovskiy tahriri ostida. – M., 1994. –S. 245

9.Asyanov Sh.M., Bakiyeva F.X. va boshq. O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. «Mega Basim» –T., 2008. –B. 60.

10.Burhoniddin al-Marg‘inoniy. Hidoya. –T., 1995. –B. 291.

11.Abdurasulova Q.R. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat huquqiy va kriminologik muammolari: yurid. fan. dok-ri. diss-ya. –T., 2006. –B. 117-118.

12.Saidov B.A. Islom Karimov barkamol avlod haqida. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2015. – B. 16

13.Murodov A. Sh. Ichki ishlar organlarining oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish yurid. fan. dok-ri. diss-ya. –T., 2019. –B. 42.

JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQDIDA SUD TERGOVI TUSHUNCHASINING O‘RNI

Turgunov A.A.
Jinoyat ishlari bo‘yicha Olmazor tumani sudi sudyasi,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sud tergovining jinoyat-protsessual huquq tizimidagi o‘rni va nazariy-amaliy ahamiyati yoritilgan. Sud tergovi ishni ko‘rib chiqishda qonun ustuvorligini ta’minlash, ayblov va himoya taraflari tengligini yuzaga chiqarish, dalillarni to‘g‘ri baholash va odil qaror qabul qilishga xizmat qiladi. U jinoyat protsessida sud faoliyatining markaziy bosqichi sifatida nafaqat protsessual harakatlarni bajarish jarayoni, balki inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning muhim mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Maqolada sud tergovining o‘ziga xos xususiyatlari – ochiqlik, tortishuv va bevositalik prinsiplari asosida ish yuritilishi alohida tahlil

qilinadi. Shuningdek, milliy qonunchilikda sud tergovi institutining amaliy samarasi, uning sud mustaqilligi va xolisligini ta’minlashdagi o‘rni ko‘rsatilgan. Muallif fikricha, sud tergovini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, uning huquqiy asoslarini xalqaro me’yorlar bilan uyg‘unlashtirish va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish odil sudlovning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Sud tergovi, jinoyat protsessi, protsessual huquq, odil sudlov, tortishuv prinsipi, taraflar tengligi, dalillarni baholash, sud mustaqilligi, huquqiy mexanizm, inson huquqlari, qonun ustuvorligi.

Jinoyat-protsessual huquq tizimida sud tergovi instituti alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u odil sudlovni amalga oshirishning markaziy bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi. Sud tergovi orqali sud ishdagi barcha holatlarning haqiqiyligini tekshiradi, dalillarni yig‘adi, ularni baholaydi va huquqiy xulosaga keladi. Shu bois, sud tergovi nafaqat ishning yuridik jihatdan to‘g‘ri hal etilishi, balki jamiyatda qonun ustuvorligi va adolat prinsiplarining ta’minlanishida ham muhim o‘rin egallaydi.

Hozirgi zamonda demokratik davlatlarning asosiy maqsadlaridan biri inson huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, sud tergovi jarayonida qonuniylik, oshkoralik, tortishuv va taraflar tengligi kabi prinsiplarning amalda ta’minlanishi odil sudlovning asosiy kafolati hisoblanadi. Bugungi kunda sud faoliyatiga bo‘lgan ijtimoiy ishonchni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilishning amaliy mexanizmlarini kuchaytirish sud tergovi institutining samaradorligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Sud tergovi tushunchasiga oid nazariy va amaliy yondashuvlarda turli xil fikrlar mavjud. Ayrimlar uni asosan dalillarni yig‘ish va tekshirish jarayoni sifatida ta’riflasalar, boshqalar uni kompleks protsessual faoliyat, ya’ni sud muhokamasining markaziy qismi sifatida talqin qiladilar. Bu esa sud tergovining chegaralari va mazmuni haqida muayyan bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, ushbu institutning nazariy asoslarini chuqur o‘rganish va uning aniq huquqiy ta’rifini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Amaliyotda esa sud tergovi jarayoni bilan bog‘liq qator muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, dalillarni baholash standartlarining aniq belgilanmagani, ayblov va himoya taraflari tengligining to‘liq ta’minlanmagani, ishlar ko‘rilish muddatlarining asossiz uzayishi, axborot texnologiyalaridan yetarlicha foydalanilmasligi kabi masalalar sud tergovining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, sud

mustaqilligini ta’minlash va sudning xolisligi masalasi ham doimo dolzarbdir.

O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari jarayonida sud tergovi institutini takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Xususan, milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish, sud jarayonida inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish hamda sud mustaqilligini ta’minlash orqali sud tergovining samaradorligini yanada oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Shunday qilib, sud tergovi tushunchasi nazariy jihatdan chuqur o‘rganishga, amaliyotda esa takomillashtirishga muhtoj bo‘lgan institutdir. Uning jinoyat-protsessual huquqdagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy asosda yoritish, milliy qonunchilikdagi mavjud muammolarni bartaraf etish va xalqaro tajribadan samarali foydalanish orqali sud-huquq tizimining samaradorligini oshirish imkoni yaratiladi.

Protsessual faoliyat ma’lum bir natijaga qaratilgan bo‘lib, o‘z maqsadi va vazifalariga ega ekanligi, shuningdek, sud tergovida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan protsessual harakatlar va qarorlar faqatgina 52-bobda emas, balki qisman 33,34-boblar (masalan, fuqaroviy da’voni ta’minlash choralarini ko‘rish va mol-mulkni musodara qilish imkoniyati), 50-bob (masalan, ishni prokurorga qaytarish), 35-bob, JPKning umumiy qismi qoidalari va JPKning boshqa qoidalari bilan tartibga solinadi.

O.A.Sicheva esa sud tergovini sud muhokamasining tarkibiy jihatdan alohida qismi sifatida belgilash mumkin deb hisoblaydi. Shuningdek sud tomonidan jinoyat protsessining demokratik tamoyillarini amalga oshirish sharoitida ish bo‘yicha taraflarning faol ishtirokida sudyaning ichki ishonchini shakllantirish va ish bo‘yicha qonuniy hamda asosli qaror chiqarish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan taqdim etilgan va so‘rab olingan dalillarni tekshirish amalga oshiriladi.

T.V. Kozina shunga o‘xshash ta’rifni taklif qiladi va sud tergovini sud muhokamasining bosqichi sifatida ko‘rib chiqadi. Bu bosqichda ishni to‘g‘ri hal qilish va qonuniy hamda asosli qarorlar chiqarish uchun sud jarayonining demokratik tamoyillariga rioya qilgan holda sud-tergov harakatlarini amalga oshirish orqali ishda mavjud bo‘lgan va taqdim etilgan (so‘rab olingan) qo‘shimcha dalillar tekshiriladi[1].

T.V.Kozina va O.A.Sicheva sud tergovi ta’rifida nafaqat jinoyat ishida mavjud bo‘lgan dalillar, balki taraflar tomonidan taqdim etilgan va sud tomonidan so‘rab olingan dalillar ham tekshirilishiga to‘g‘ri e’tibor qaratadilar. “Sud tomonidan so‘rab olingan dalillar” iborasini qo‘llash

orqali mualliflar, ehtimol, muassasalar, korxonalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolarga so‘rovlar yuborish yo‘li bilan olingan dalillarni nazarda tutganlar. Ta’rifda dalillarni bevosita tergov-sud harakatlarini o‘tkazish yo‘li bilan olish imkoniyati ko‘rib chiqilmagan[2].

S.A.Nasonovning fikriga ko‘ra, “sud tergovi - sud muhokamasining markaziy bosqichi bo‘lib, u tayyorgarlik qismidan keyin va sud muzokaralaridan oldin keladi. Bu bosqichda sud tomonlar ishtirokida, jinoyat protsessi tamoyillarini to‘liq amalga oshirish sharoitida, ishning haqiqiy holatlarini (isbotlash predmetini) aniqlash va asosli hukm chiqarish maqsadida barcha mavjud dalillarni o‘rganadi”[3].

S.A. Nasonov o‘zining ilmiy yondashuvida sud tergovining sud muhokamasi bosqichlari orasidagi o‘rnini ko‘rsatib bergan, ammo ushbu bosqichda sud (sudya) va taraflardan tashqari jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari ham qatnashishini ko‘rsatib o‘tmagan. Bundan tashqari, S.A. Nasonovning ilmiy nuqtai nazaridan, sud tergovining ikki yoqlama maqsadi bor: bir tomondan - ishning faktik holatlarini aniqlash, ikkinchi tomondan - asosli hukm chiqarish. Biroq, so‘zning etimologik ma’nosidan kelib chiqib, maqsad ikki yoqlama bo‘lishi mumkin emas.

Shu bois, biz mazkur ta’rifda berilgan fikrlarga qo‘shilmaymiz. Sababi sud (sudya) va taraflar faoliyatining maqsadi faqatgina ishning haqiqiy holatlarini aniqlash bo‘lishi mumkin emas. Himoya tomoni ayrim holatlarni aniqlashdan manfaatdor emas, chunki barcha shubhalar ayblanuvchining foydasiga talqin qilinadi va ishning ba’zi haqiqiy holatlari aniqlanmaganligidan u o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishi mumkin. Agar ayblov tomoni jinoyat hodisasi yoki sudlanuvchining aybini aniqlashga harakat qilmasa, himoya tomoni buni talab qilmaydi, deb o‘ylaymiz. Ishning haqiqiy holatlarini aniqlash sud tergovining emas, balki isbotlashning maqsadidir. Sud tergovining mazmuni uning maqsadi bilan bir xil bo‘lishi mumkin emas.

Shu bilan birga, sud tergovining maqsadi asosli hukm chiqarish bo‘la olmaydi, chunki hukm chiqarish bosqichi faqat tomonlarning muzokaralaridan keyin keladi va sud tergovi jarayonida bunday qaror qabul qilish mumkin emas. Biroq, sud tergovi davomida sudya ish bo‘yicha yakuniy protsessual qaror, masalan, jinoyat ishini tugatish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilishi mumkin. Shunda sudning (sudyaning) yakuniy qarori nafaqat asosli, balki qonuniy, adolatli va asoslantirilgan bo‘lishi shart.

V.F. Popovning ilmiy yondashuvi alohida e’tiborga loyiq, chunki u sud tergoviga mustaqil ta’rif bermaydi, balki uni mohiyat va mazmun kabi

falsafiy kategoriyalar orqali ko‘rib chiqadi. V.F. Popov sud tergovi sud muhokamasi qismi ekanligiga shubha qilmagan holda, uning mohiyati quyidagicha ekanligini ta’kidlaydi: “sud tomonlar va jarayonning boshqa ishtirokchilari faol ishtirokida jinoyat ishi faktlari va holatlarini mustaqil, og‘zaki, oshkora va bevosita o‘rganishidir. Uning maqsadi sudlanuvchiga qo‘yilgan jinoyat sodir etilganmi; sudlanuvchi ushbu jinoyatni sodir etishda aybdormi degan masalalarni adolatli, qonuniy va asosli hal qilishdir[4]. L.A.Denisovning sud tergovining mohiyatini aniqlashdagi ilmiy yondashuvi V.F.Popovning fikrlariga to‘liq mos keladi[5].

V.F.Popov RSFSR JPK bo‘yicha sud tergovining mohiyatini aniqlab, uning RSFSR JPKning 20-moddasiga ko‘ra, jinoyat ishining faktlari va holatlarini bevosita o‘rganishdan iborat ekanligini aniq ta’riflagan. Bu modda sudyadan masalani har tomonlama, to‘liq va xolisona ko‘rib chiqishni talab qilgan. Ammo, milliy Jinoyat-protsessual kodeeksida “dalillarni o‘rganish” yoki “ishning haqiqiy holatlarini tekshirish” iboralari qo‘llaniladi. Ma’lumki, Jinoyat-protsessual kodeksida sud dalillarni tortishuv va tomonlarning teng huquqliligi sharoitida og‘zaki va bevosita o‘rganishi lozimligi qayd qilingan[6].

P.F.Popov sud tergovining mohiyatini aniqlashda “jinoyat ishining faktlari va holatlari” degan bahsli iboradan foydalanadi. Uning fikricha, bularni sud tomonlar va protsessning boshqa ishtirokchilarining faol ishtirokida o‘rganadi. Aslida esa, sud (sudyalar) taraflar va boshqa ishtirokchilar bilan birga jinoyat-protsessual qonuniga muvofiq ishning haqiqiy holatlarini aniqlaydi yoki tekshiradi. Ehtimol, P.F. Popov sud tergovining mohiyati haqida gapirganda, jinoyat ishi qo‘zg‘atilishiga sabab bo‘lgan ijtimoiy xavfli qilmish bilan bog‘liq faktlarni nazarda tutgan[7].

Bundan tashqari, bizningcha, sud tergovi mohiyatining taklif etilayotgan ta’rifida faktlar va holatlarni alohida ajratib ko‘rsatishning amaliy ahamiyati yo‘q. Sud tergovi davomida ishning faktik holatlarini tekshirishni ko‘rsatish yetarli bo‘ladi. Bu o‘z ichiga ham sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish faktlarini, ham dalillarni o‘rganishni qamrab oladi.

Sud tergovida hal etiladigan masalalari faqatgina sudlanuvchiga qo‘yilayotgan jinoyat va uning aybliligi to‘g‘risidagi masala bilan cheklanmaydi. Sud tergovi jarayonida turli rejadagi protsessual masalalar hal etiladi, jumladan, barcha toifadagi jinoyat ishlari bo‘yicha isbotlash predmetiga kiruvchi barcha holatlar tekshiriladi, tashkiliy masalalar hal etiladi, jinoyat ishini to‘xtatish, tugatish, sud tergovini tamomlash va hokazolar to‘g‘risida protsessual qarorlar qabul qilinadi. Jinoyat qonuni

bilan taqiqlangan qilmishni aqli norasolik holatida sodir etgan yoki jinoyat sodir etganidan keyin ruhiy holati buzilib, jazo tayinlash yoki uni ijro etish mumkin bo‘lmay qolgan shaxslarga nisbatan jinoyat ishlari bo‘yicha isbotlash predmetini ko‘rib chiqishda ularning jinoyat sodir etganligi haqida isbotlov borasida umuman gap so‘z bo‘lishi mumkin emas. Sud tergovining mohiyati, bizningcha, barcha toifadagi jinoyat ishlari bo‘yicha jarayonning mohiyatini aks ettirishi kerak.

P.F.Popov sud tergovining mazmunini aniqlashda, mazmun jarayon elementlarining yig‘indisi ekanligidan kelib chiqqan. Shu sababli, ko‘rib chiqilayotgan bosqichda sud (sudya) faoliyati fikrlash bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkinligini e’tiborsiz qoldirish to‘g‘ri emas. Munozaralarga kirishmasdan aytish mumkinki, sud (sudya) jinoyat ishlari bo‘yicha isbotlashni amalga oshiradi. Jinoyat-protsessual qonuniga muvofiq sud (sudya) dalillarni to‘playdi, tekshiradi va baholaydi, shu jumladan sud tergovi jarayonida ham. Sud tergovida dalillarni sud tomonidan baholash natijasida protsessual qarorlar (dalillarni nomaqbul deb topish, fuqaroviy da’voni ta’minlash va mol-mulkni musodara qilish choralarini ko‘rish kabi) qabul qilinishi mumkin[8].

Sud (sudya) dalillarni tekshirish tartibini belgilashda ishtirok etadi, bu ham aqliy-amaliy faoliyat hisoblanadi. Ilmiy yondashuvimizga ko‘ra, sud tergovida sud (sudya)ning faqat amaliy protsessual faoliyatiga urg‘u berish to‘g‘ri emas. Sud (sudya)ning protsessual faoliyati sud tergovi bosqichida ham amaliy, ham aqliy xususiyatga ega bo‘ladi.

Mamlakatimiz jinoyat protsessining tortishuv xususiyati dalillarni tekshirishda sud emas, balki taraflarning faol ishtirokini talab etadi. Dalillarni taqdim etish tartibi taraflar tomonidan belgilanadi, jinoyat protsessi ishtirokchilarini so‘roq qilish tashabbusi ham taraflarga tegishli bo‘ladi va boshqa holatlar sud tergovi mazmunida taraflarning ishtiroki haqidagi ko‘rsatmani e’tiborsiz qoldirish mumkin emasligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, sud tergovi jarayonida fuqaroviy da’vogar, fuqaroviy javobgar o‘z manfaatlarini ko‘zlaydi, taraflarning taklifiga ko‘ra yoki sudning tashabbusi bilan mutaxassis, ekspert ishtirok etadi. Bu ham sud tergovi bosqichidagi protsessual faoliyatning mazmunini nafaqat sud va taraflarning, balki jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarining protsessual harakatlari tashkil etishini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, sud tergovining mazmunini sud muhokamasining ushbu bosqichida jinoyat protsessi ishtirokchilari o‘rtasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar ham tashkil etadi.

Sud tergovining mazmuniga nafaqat ishning haqiqiy holatlarini, taraflarning vaji yoki dalillarini tekshirish, balki iltimosnomalarni ko‘rib chiqish, protsessual qarorlar qabul qilish va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq masalalar ham kiritilishi mumkin.

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining protsessual faoliyati jinoyat protsessi va odil sudlovning umumiy maqsadiga bo‘ysunadi, biroq sud muhokamasining ko‘rib chiqilayotgan bosqichi faqat o‘ziga xos bo‘lgan maqsadga ega.

Sud tergovining maqsadi jinoyat ishi bo‘yicha uzil-kesil qaror chiqarish uchun ishning haqiqiy holatlarini bevosita va bilvosita tekshirish yo‘li bilan sud (sudya) da ichki ishonch hosil qilish va huquqiy ongga tayanishdan iborat.

T.N.Karabanova sud tergovining mohiyati dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash, shuningdek ish bo‘yicha xulosalarni asoslashdan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash isbotlash jarayonining mazmunidir. Isbotlash, o‘z navbatida, sud va taraflarning sud tergovidagi protsessual faoliyati mazmunining muhim qismini tashkil etadi[9].

Bizning yondashuvimizda sud tergovining mohiyati sud va jinoyat ishi bo‘yicha dalillarni tekshirishda ishtirok etuvchi boshqa jinoyat protsessi ishtirokchilarining jinoyat ishini mazmunan hal qilishga qaratilgan protsessual faoliyati bo‘lib, u birinchi va ikkinchi instansiya sudida sud muhokamasi davomida ish yuritishning tegishli bosqichida amalga oshiriladi, ayblanuvchi o‘ziga qo‘yilgan ayblovga rozi bo‘lgan taqdirda qaror qabul qilishning alohida tartibi bundan mustasno.

T.N.Karabanova sud tergovi mazmuniga ishning barcha holatlarini, tomonlarning dalillarini bevosita tekshirish, sud tergovi davomida tomonlar tomonidan taqdim etilgan iltimosnomalarni hal qilish bo‘yicha sudning belgilovchi faoliyati bilan sud tergovida dalillarni tekshirish bo‘yicha tomonlarning amaliy faoliyatini kiritadi[10]. Sud tergovining ko‘rsatilgan mazmuniga nisbatan T.N.Karabanovaning pozitsiyasini va boshqa mualliflarning nuqtai nazarlarini quyidagilarga ko‘ra rad etamiz:

– jarayon ishtirokchilari faoliyatining faqat amaliy tarkibiy qismi ekanligini;

– sud tergovi taraflarning ish holatlarini tekshirish bo‘yicha faoliyati ekanligi ya’ni taraflar ishtirokida dalillarni tekshirish bo‘yicha davlat-hokimiyat organi sifatidagi faoliyati;

– ishning barcha holatlarini o‘rganish zaruriyati;

– protsessual faoliyat maqsadi ko‘rsatilmaganligi;

– sud tergovi mazmuniga faqat holatlarni tekshirishni, taraflarning vajlarini, iltimosnomalarni hal etishni kiritish. Sud, taraflar va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari jalb qilinadigan protsessual faoliyat ancha keng ekanligi va boshqalar.

Bizningcha sud tergovi sudda ish yuritishning bir qismi bo‘lib, mazmuniga quyidagilar kiritilishi o‘rinli va to‘g‘ri hisoblanadi:

a) sud muhokamasining ushbu bosqichida jinoyat ishini yuritish ishtirokchilari o‘rtasida yuzaga keladigan protsessual huquqiy munosabatlar;

b) sudning (sudyalarning) protsessual qarorlari:

- dalillarni maqbul emas deb topish to‘g‘risida;
- ishni prokurorga qaytarish to‘g‘risida;
- ehtiyot chorasini tanlash, bekor qilish yoki o‘zgartirish to‘g‘risida;
- sud majlisida tartib buzilganligi uchun ta’sir ko‘rsatish choralarini ko‘rish to‘g‘risida;
- guvohlarni sud majlisi zalidan chiqarib yuborish;
- fuqaroviy da’voni ta’minlash choralarini ko‘rish va mol-mulkni ehtimol tutilgan musodara qilish to‘g‘risida;
- bildirilgan iltimosnomalarni hal etish to‘g‘risida;
- sud muhokamasini keyinga qoldirish va to‘xtatib turish to‘g‘risida;
- jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida;
- sud tergovini tamomlash to‘g‘risida va boshqalar. v) sud (sudya) va boshqa ishtirokchilarning protsessual harakatlari:
- dalillarni taqdim etish navbatini aniqlashga qaratilgan harakatlar;
- dalillarni to‘plash va tekshirishga qaratilgan sud harakatlari;
- jinoyat protsessi ishtirokchilarining sud tergovi davomida dalillarni taqdim etishga qaratilgan harakatlari;
- jinoyat protsessi ishtirokchilarining iltimosnomalar bilan murojaat qilishi va boshqalar.

g) dalillarning sud tomonidan baholanishi.

Protsessual harakatlar va sud tomonidan dalillarni baholash sud tomonidan uzil-kesil protsessual qarorlar chiqarish uchun sudning ichki ishonchini shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi. Yuqoridagi fikrlarga xulosa o‘laroq, sud tergovi tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta’rifini berish lozim hisoblaymiz.

Sud tergovi – *birinchi va ikkinchi instansiya sudida sud muhokamasining bosqichi bo‘lib, sud majlisi shaklida o‘tkaziladi, uning*

asosiy mazmuni dalillarni tekshirishdan iborat bo‘lib, unda sud, protsess taraflari va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari jinoyat ishini mazmunan hal qilish uchun sudning ichki ishonchini shakllantirish maqsadida ishtirok etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Талинский Э.Г. Судебное следствие в советском уголовном процессе: автореф. дис.... канд. юрид. наук. Харьков. 1972. С.4-19.
2. Чеджемов Т. Б. Судебное следствие. М., 1979. С. 3-11.
3. Селедкина Н.А. Судебное следствие в российском уголовном процессе: дис. …канд.юрид.наук. Экатеринбург, 2005. С.30.
4. Гочияев М.К. Судебное следствие как объективная основа законного и обоснованного приговора: дис. …канд.юрид.наук. Краснодар, 2006. С. 40.
5. Элькинд П.С. Уголовно-процессуальная форма, процессуальные нормы и производства//Юридическая процессуальная форма: теория и практика. М.: Юрид. лит., 1976. С.235.
6. Козина Т.В. Судебное следствие и обоснование приговора: автореф. дис. … канд.юрид. наук. М., 1992. С. 15.
7. Насонов С.А. Судебное следствие в судеб присяжных: особенности и проблемные ситуации (теория, законодательств, практика): дис. … канд. юрид.наук. М., 1999. С. 24.
8. Попов В.Ф. Судебное следствие: проблемы оптимизации: дис. … канд. юрид. наук. Н.Новгород, 1998. С. 35.
9. Денисов Л.А. Судебное следствие как составная часть стадии судебного разбирательства: дис. … канд. юрид.наук. Владимир, 2007. С.36.
10. Карабанова Т.Н. Судебное следствие в уголовном процессе Российской Федерации: дис. канд.юрид.наук. М., 2008. С.19.

TUMANLARARO MA’MURIY KONVOY GURUHLARI – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI FAOLIYaTINI YaNGI BOSQIChGA OLIB ChIQISHDA MUHIM QADAM

Kutlimuratov M.Sh.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
tinglovchisi, kapitan

Annotasiya: So‘nggi yillarda O‘zbekistonda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va aholi xavfsizligini ta’minlash sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2025 yil 3 yanvarda qabul qilingan Prezident qarori (PQ–1-son)da mahallalarda xavfsiz muhit yaratish va profilaktika tizimini samarali tashkil etishga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur siyosatning davomi sifatida, Ichki ishlar vazirining tegishli buyrug‘i asosida tumanlararo ma’muriy konvoy guruhlarini tashkil etish belgilandi.

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasini kuchaytirish, ma’muriy qamoqqa olingan shaxslar, narkologik kasallarga chalingan fuqarolar va muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni tegishli muassasalarga xavfsiz va tizimli tashishni ta’minlash maqsadida tashkil etilgan tumanlararo ma’muriy konvoy guruhlari faoliyati huquqiy, tashkiliy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: konvoy, “ma’muriy konvoy”, marshal, Milliy Jandarmeriya, huquqbuzarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlatni barpo etish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘tgan qisqa davrda mamlaktaimizda barcha sohalarda ko‘zga ko‘rinarli islohotlar amalga oshirildi, bular har bir sohada, jumladan huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini takomillashtirish borasida ham o‘z ifodasini topmoqda.

Har sohada bo‘lgani kabi, huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida ham ijobiy o‘zgarishlar va islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3 yanvar kuni qabul qilingan “2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–1-sonli Qarori[1]

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 январдаги “2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-1-сон қарори. Электрон манба: https://lex.uz/docs/7330260 (мурожаат вақти 17.09.2025)

huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikning oldini olish sohasidagi islohotlarning **yangi bosqichi**ni boshlab berdi.

Biz mazkur tadqiqotimiz davomida Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatidagi mutlaqo yangi tuzilma bo‘lgan tumanlararo **ma’muriy konvoy guruhlari** tashkil qilinishi[1], mazkur tuzilmaning asosiy vazifalari va tarixiy shakllari haqida to‘xtalamiz.

Dastavval, **“Konvoy”** atamasiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, tadqiqotchilar tomonidan **“Konvoy”** (fransuzcha ***convoi***) — transport vositalarini, harbiy asirlarni, shuningdek, tergov ostidagi yoki hukm qilingan shaxslarni qo‘riqlash va hamrohlik qilish vazifasini bajaradigan yakka harbiy xizmatchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari guruhi[2] deb ta’rif berilgan.

Tadqiqotimizda biz konvoy guruhlarining tarixiy rivojlanish va faoliyat turiga qarab shartli ravishda ikki asosiy guruhga ajratdik:

Qurolli kuchlardagi konvoy va huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi konvoy.

1. Qurolli kuchlarda “Konvoy”:

Konvoy — bu harbiy xizmatchilardan tashkil topgan bo‘linma (komanda yoki yakka harbiy tuzilma) bo‘lib, ular quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ✓ harbiy yuklar va transport vositalarini qo‘riqlash va hamrohlik qilish,
- ✓ harbiy asirlarni,
- ✓ harbiy tribunal tomonidan hukm qilingan harbiylar,
- ✓ intizomiy qoidabuzarlik sababli hibsga olingan askar va dengizchilarni kuzatib borish[3].

Tarixiy jihatdan, Rossiya armiyasida konvoy yuqori lavozimdagi ofiserlar, shtab xodimlari va muhim topshiriq bilan yuborilgan kurerlarni hamrohlik qilish uchun ham tayinlangan[4].

SSSR qurolli kuchlarida konvoy xizmati Qo‘riqlash xizmati tarkibiga kirar edi va uni tashkil etish tartibi Qo‘riqlash xizmati Ustavi bilan belgilab qo‘yilgan[5]. Ko‘pgina davlatlarda, harbiy maqsadlarda foydalanilayotgan yuklar va texnikani tashish konvoy xizmati orqali amalga oshiriladi. Bu

---

[1] Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг “Ички ишлар органларида туманлараро маъмурий конвой гуруҳларини ташкил этиш тўғрисида”ги 2025 йил 21 февралдаги 116-сонли буйруғи.

[2] *Коллектив авторов.* стати «Конвой», «Конвойная служба» // Военная энциклопедия / Под ред. Сергеев И. Д.. — М.: Воениздат, 1999. — Т. 4. — С. 140-142. — 583 с.

[3] Словар военных терминов. — М.: Воениздат. Сост. А. М. Плехов, С. Г. Шапкин. 1988. Ст. 135.

[4] Военный энциклопедический словар (ВЭС),М.,ВИ,1984 г., Ст. 349

[5] Устав гарнизонной, комендантской и караулной служб ВС России (УГКиКС ВС России), М., ВИ, 2008 г.

vazifani yo harbiy qismning o‘z qo‘riqlash bo‘linmalari, yoki maxsus tayyorlangan qo‘riqlash xizmatlari bajaradi. AQSh Qurolli Kuchlarida bu funksiyani harbiy polisiya amalga oshiradi[1].

2. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda “Konvoy”,

Konvoy — bu huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlaridan iborat guruh (yoki yakka xodim) bo‘lib, quyidagi vazifalarni bajaradi:

- davlatga tegishli muhim yuklarni tashishda ularni himoya qilish,
- tergovdagi shaxslar,
- sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganlar,
- ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilayotgan gumondorlarni olib borish va olib kelish.

Konvoy xizmati ichki ishlar organlari faoliyati doirasida maxsus tartiblar bilan huquqiy jihatdan belgilanadi[2].

Qo‘shnimiz Qozog‘iston Respublikasida, ushbu vazifalarni Milliy gvardiyaga **konvoy bo‘linmalari** amalga oshiradi[3].

AQShda, ushbu vazifalarni **Adliya vazirligi**ga qarashli **Marshallar xizmati** bajaradi.

AQSh Marshallar xizmatining asosiy vazifasi — federal qonunlarni ijro etish va federal adliya tizimining deyarli barcha bo‘g‘inlariga qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Xususan, Marshallar xizmati quyidagi faoliyatlarni amalga oshiradi:

- ✓ federal sud binolarining xavfsizligini ta’minlash,
- ✓ sudyalar va boshqa sud xodimlarining shaxsiy xavfsizligini ta’minlash,
- ✓ jinoyatchilarni qo‘lga olish,
- ✓ federal mahkumlarni nazorat ostida saqlash, ularning xavfsizligi va jazo muassasalariga tashilishi uchun javobgarlik,
- ✓ federal sud buyruqlarini ijro etish,
- ✓ noqonuniy yo‘llar bilan olingan aktivlarni musodara qilish va ularni saqlash, boshqarish hamda keyinchalik ularni sotish yoki boshqa yo‘llar bilan yo‘q qilish,
- ✓ xavf ostidagi hukumat guvohlari va ularning oila a’zolarining xavfsizligini ta’minlash,

[1] Военная полиция США. Капитан П. Братеев. Зарубежное военное обозрение. — 2013. — № 10. — С. 19-23

[2] Административная деятелност органов внутренних дел. Част Особенная. Учебник. М., МЮИ МВД России. «Щит-М». 1997 — с. 346. Раздел

[3] Закон Республики Казахстан. О Националной гвардии Республики Казахстан. Статя 4. Задачи Националной гвардии. https://online.zakon.kz/ (мурожаат ваqти 19.09.2025)

- ✓ pul mablag‘larini yig‘ish va ularni taqsimlash[1].

SSSRdan keyingi davlatlarda, sudgacha bo‘lgan jarayonlarda konvoy qilishni polisiya konvoy bo‘linmalari amalga oshiradi. Sud hukmi chiqqandan so‘ng —

- ➢ Belarusda — Ichki ishlar vazirligiga qarashli Ichki qo‘shinlar,
- ➢ Ukraina va Qozog‘istonda — Milliy gvardiya konvoy vazifalarini bajaradi.

Rossiya Federasiyasida esa, sud jarayonining barcha bosqichlari va jazoni ijro etish jarayonida FJIEX (Federal jazoni ijro etish xizmati)ning **qo‘riqlash va konvoy qilish bo‘linmalari** ushbu vazifani bajaradi[2].

Tadqiqotimiz davomida ayrim davlatlarda Konvoy xizmatining o‘ziga xosligini ko‘rib chiqdik.

Misol uchun, Fransiyada konvoy xizmati **ikki vazirlikka bo‘ysunuvchi organlar** — ya’ni **Milliy Jandarmeriya** orqali amalga oshiriladi.

Milliy Jandarmeriya:

- ✓ **Qurolli kuchlar**ning tarkibiy qismi sifatida — Mudofaa vazirligiga,
- ✓ **Huquqni muhofaza qiluvchi organ** sifatida — Ichki ishlar vazirligiga bo‘ysinadi hamda bir vaqtning o‘zida quyidagi vazifalarni bajaradi:
  - ➢ harbiy polisiya vazifasini,
  - ➢ maxsus operasiyalar,
  - ➢ muhim harbiy obyektlarni qo‘riqlash,
  - ➢ sud binolarini himoya qilish,
  - ➢ mahkumlar va hibsga olinganlarni sudga etkazish kabi vazifalarni bajaradi.

Jandarmeriya faoliyati ichki ishlar va adliya vazirliklari bilan hamkorlikda muvofiqlashtiriladi[3].

Sobiq SSSR tarixidagi Konvoy guruhlari va ular tomonidan amalga oshirilgan “Deportasiyalar” tarixiga nazar tashlasak.

SSSR tarixida davlat qarorlari asosida **katta miqdorda aholini** mamlakatning turli hududlariga kuch bilan ko‘chirish amaliyoti keng tarqalgan edi. Bu qatlamlar:

---

[1] Официалный сайт маршалов США. https://www.usmarshals.gov/who-we-are/about-us. (мурожаат вақти 19.09.2025)

[2] Официалный сайт Федералной службы исполнения наказаний. https://fsin.gov.ru/structure/security/. (мурожаат вақти 19.09.2025)

[3] Полиция Франции. Жандармерия. Бирюков П.Н. Евразийский юридический журнал. http://www.eurasialaw.ru. (мурожаат вақти 19.09.2025)

- ijtimoiy guruhlar;
- butun etnik millatlar bo‘lgan.

Massoviy deportasiya misollari:

- 1941 yilda nemislar — 446 480 kishi[1];
- 1942–1949 yillarda pontiy greklar — 15 000 kishi[2];
- 1944 yilda qirg‘iz totorlar (qrimliklar) — 183 155 kishi ko‘chirilgan[3].

Bu kabi ommaviy ko‘chirishlar uchun maxsus **ichki qo‘shinlar** guruhlari tashkil qilingan. Masalan, **chechen va ingushlarni deportasiya qilish uchun 100 000 nafar harbiy xizmatchi** jalb etilgan[4].

GULAG *(Glavnoe upravlenie ispravitelno-trudovых lagerey* ***Tuzatish-mehnat lagerlari bosh boshqarmasi*** **(GULAG)** - 1930 yildan 1959 yilgacha faoliyat yuritgan, SSSR NKVDsi, keyinchalik IIV va Adliya vazirligi tarkibiga kirgan tuzilma bo‘lib, qamoqxonalar va mahkumlar saqlanadigan muassasalarni boshqarish va nazorat qilish vazifasini bajargan) lagerlar tizimida millionlab mahkumlar saqlangan va ularni tashish, qo‘riqlash ham konvoy xizmatining asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan[5].

O‘zbekistonda “Ma’muriy konvoy” guruhlari tashkil qilinishi va mazkur tuzilmaga yuklatilgan asosiy vazifalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3 yanvar kuni qabul qilingan “2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-sonli Qarori[6] huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikning oldini olish sohasidagi islohotlarning **yangi bosqichi**ni belgilaydi.

Mazkur Qaror bilan Ichki ishlar organlari tizimida mutlaqo yangi tuzilma “Ma’muriy konvoy” guruhlari tashkil qilindi[7].

---

[1] *Иосиф Сталин — Лаврентию Бериш: «Их надо депортировать…»:* док-ты, факты, коммент. / Вступ. ст., сост., послесл. д-ра ист. наук, проф. Н. Ф. Бугая. — М.,1992. С. 37

[2] Греческий Мортиролог. http://www.greek-martirolog.ru/ (мурожаат вақти 19.09.2025)

[3] Телеграмма № 1476 от 8 июня 1944 13 час. 00 мин Л. Берия из Ташкента от Бабаджанова. ГАРФ, ф.9479, оп.1с, д.179, л.241.

[4] Павел Полян. Принудительные миграции в годы второй мировой войны и после её окончания (1939–1953). memo.ru. http://www.memo.ru/history/deport/polyan2.htm. (мурожаат вақти 19.09.2025)

[5] История Внутренних Войск В. Т. Власенко. https://army.armor.photos/hist/BBB.php. (мурожаат вақти 19.09.2025)

[6] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 январдаги “2025 йилда республика маһаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-1-сон қарори. Электрон манба: https://lex.uz/docs/7330260 (мурожаат вақти 17.09.2025)

[7] Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг “Ички ишлар органларида туманлараро маъмурий конвой гуруҳларини ташкил этиш тўғрисида”ги 2025 йил 21 февралдаги 116-сонли буйруғи.

Ma’muriy konvoy guruhlari – ma’muriy qamoqqa olingan, narkologik kasalliklarga chalingan hamda muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni maxsus qabulxonalarga, majburiy davolanish muassasalariga hamda reabilitasiya markazlariga olib borish va topshirishga mo‘ljallangan ichki ishlar organlari bo‘linmalari bo‘lib, ularning asosiy vazifasi ma’muriy jazo sifatida qamoqqa olingan shaxslar, narkologik kasalliklarga chalinganlar hamda muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni belgilangan muassasalarga xavfsiz etkazib qo‘yishdir. Bu jarayonda qonunchilikka rioya etish, inson huquqlarini ta’minlash va xavfsizlik choralarini ko‘rish asosiy ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

Guruhlarning shaxsiy tarkibiga kamida uch yil xizmat tajribasiga ega, jismonan sog‘lom va ma’naviy jihatdan etuk xodimlar jalb etiladi. Shuningdek, maxsus jihozlangan avtotransport haydovchilari “D” toifali haydovchilik guvohnomasiga ega bo‘lishi shartligi belgilab qo‘yildi.

Ma’muriy konvoy guruhlari tegishlilik asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahri va viloyati IIBB hamda viloyatlar IIBning HPB bo‘linmalariga bo‘ysinadi.

Ma’muriy konvoy guruhlari faoliyati yuqoridagi idoralar va mas’ul xodimlar tomonidan nazorat qilinadi. HPB boshliqlari va ularning o‘rinbosarlari xizmatga tayinlash, xizmat intizomi, xizmat texnik vositalarini ta’minlash va xodimlarni o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha mas’ulligi belgilab berilgan.

Bu tashkiliy chora:

- shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish,
- ichki ishlar organlarining ish samaradorligini oshirish,
- profilaktika ishlarini tizimli tashkil etishda muhim o‘rin tutadi.

Fikrimizcha, ma’muriy konvoy – bu shaxslarni qonuniy javobgarlikka tortish va ularni tegishli muassasalarga xavfsiz etkazishga qaratilgan maxsus xizmat bo‘lib, uning samarali tashkil etilishi huquq tizimining uzviy qismi hisoblanadi. Tumanlararo konvoy guruhlarini tashkil etish bu sohada yagona standartlarni joriy etish va ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ma’muriy konvoy guruhlari faoliyatiga oid qonunchilik bazasi xalqaro standartlar va qonuniy hujjatlarga muvofiq tartibga solinmoqda. Xususan, Jahon huquqiy normalari va Evropa Kengashining huquq muhofazasi bo‘yicha tavsiyalari bilan uyg‘unlik saqlanmoqda. Bu

esa huquqbuzarlarning huquqlari buzilishining oldini olish va xizmat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Fikrimizcha yangi tuzilma xalqaro tajriba asosida tashkil etilgan ma’muriy konvoy guruhlari modellari O‘zbekistonda ham o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Masalan, jismoniy va ma’naviy jihatdan tayyorlangan xodimlar bilan ta’minlash, maxsus texnik vositalardan foydalanish va nazoratni kuchaytirish xizmat sifatini sezilarli darajada oshirdi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish – bu faqat jazo berish emas, balki jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish, inson qadrini ulug‘lash, muammolarni barvaqt aniqlash orqali barqarorlikka erishishdir.

Bu borada “tumanlararo ma’muriy konvoy guruhlari”ning tashkil etilishi – huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash va ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirishda muhim qadamdir.

Tumanlararo ma’muriy konvoy guruhlarining faoliyatini tashkil etish O‘zbekistonda huquqbuzarliklarni profilaktika qilish tizimini takomillashtirish, huquqbuzarlarni xavfsiz va qonuniy ravishda tashishni ta’minlashda muhim qadam hisoblanadi. Amaldagi huquqiy-tashkiliy mexanizmlar, maxsus transport vositalari va qayta tayyorlash tizimi xizmatning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tumanlararo ma’muriy konvoy guruhlari faoliyatini yanada optimallashtirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Konvoy guruhlari faoliyatida **inson huquqlari va milliy qonunchilik** normalariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash;
2. Xodimlar uchun muntazam **amaliy o‘quv mashg‘ulotlari** tashkil etish;
3. Transport vositalarining texnik holatini doimiy **monitoring** qilish;
4. Joylardagi real sharoitlardan kelib chiqib, konvoy yo‘nalishlari va logistika tizimini **optimallashtirish**.

Shuningdek, tumanlararo ma’muriy konvoy guruhlarini rivojlantirishda quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish zarur:

- ✓ Innovasion texnologiyalarni joriy etish: GPS monitoring, videokuzatuv tizimlari, maxsus signalizasiya vositalari orqali konvoyni yanada xavfsizlashtirish;
- ✓ Huquqiy baza hamda yo‘riqnomalarni takomillashtirish: qonunchilikni zamonaviy talablarga mos ravishda o‘zgartirish va konvoy guruhlari faoliyatini yanada samarali tartibga solish;

✓ Ko‘p qirrali o‘quv dasturlari: xodimlarning huquqiy, psixologik va texnik tayyorgarligini ta’minlash;

✓ Jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish: mahalliy hokimiyat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda huquqbuzarliklarni oldini olish tizimini yanada takomillashtirish.

Shuningdek, quyidagi i**lmiy-amaliy takliflar tavsiya etiladi:**

1. **Xodimlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish** — zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv o‘quv dasturlari joriy etilishini ta’minlash;

2. **Transport vositalarini modernizasiya qilish** — ekologik tozalik va xavfsizlik standartlariga muvofiq yangi maxsus avtotransport vositalarini sotib olish;

3. **Psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatini tashkil etish** — xodimlarni stress holatlaridan chiqarish va ularning ruhiy sog‘lomligini saqlash maqsadida mutaxassislar joriy etish;

4. **Hamkorlik va kommunikasiyani kuchaytirish** — sudlar, tibbiyot muassasalari va ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorlik mexanizmlarini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T 2023 yil.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi” qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiining 2025 yil 3 yanvardagi “2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-1-son qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi IIVning “Ichki ishlar organlarining tumanlararo ma’muriy konvoy guruhlari faoliyatini to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2025 yil 21 fevraldagi 116-sonli buyrug‘i.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHGA FUQAROLAR VA JAMOAT TUZILMALARINI JALB QILISH

Joldasov A.F.
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotasiya: Maqolada O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash jarayonida fuqarolar va jamoat tashkilotlarining ishtiroki masalasi tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida mahalla faollari, jamoat

posbonlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining xavfsizlik sohasidagi faoliyati misol tariqasida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, fuqarolar ishtiroki, jamoat tashkilotlari, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, mahalla instituti, qonunchilik, fuqarolik jamiyati, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat–jamiyat hamkorligi, profilaktika, demokratik institutlar.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlashga zamonaviy yondashuvni shakllantirishning faol jarayoni ketayotgan sharoitda uni takomillashtirish masalasi shubhasiz dolzarbdir va davlatdan jiddiy e’tiborni talab qiladi.

Har qanday huquqiy demokratik davlatda jamoat xavfsizligi nafaqat davlat organlarining vazifasi, balki butun jamiyatning umumiy burchi sifatida qaraladi.[1] Fuqarolar va jamoat tuzilmalari ishtirokisiz xavfsizlik sohasida barqaror muvaffaqiyatlarga erishish mumkin emas. Fuqarolar va jamoat tashkilotlarining jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi roli, ahamiyati va xalqaro hamda milliy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, xavfsizlik sohasida yuqori samaraga faqat aholi va davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik va ishonch asosida erishish mumkin.[2]

Fuqarolar va ular birlashmalarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlashda ixtiyoriy ishtiroki fuqarolik jamiyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu jarayon huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ularga aloqador bo‘lmagan, lekin ma’lum darajada jamoat tartibini saqlashda ishtirok etishni xohlovchi jamiyat vakillarining ikki tomonlama o‘zaro hamkorligi bilan tavsiflanadi. Bir tomondan, fuqarolar tegishli tashabbus ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, huquq-tartibot idoralari ushbu tashabbusni amaliy amalga oshirish imkoniyatini ta’minlashi kerak. Nihoyat, davlat ushbu o‘zaro ta’sir qilish imkoniyati uchun huquqiy kafolatlarni yaratishi kerak.

Fuqarolarning xavfsizlik jarayonlaridagi faol ishtiroki nafaqat jinoyatchilik darajasini kamaytiradi, balki huquqiy ong va fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi. Masalan, AQShda olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, “Community Policing” strategiyasini qo‘llagan hududlarda jinoyatchilik darajasi o‘rtacha 17–20% ga kamaygani qayd etilgan.[3]

Yaponiyadagi “Koban” tizimi samaradorligini o‘rgangan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aholining polisiyaga bo‘lgan ishonchi 85% ni tashkil etgan va bu holat jinoyatlarning oldini olishda muhim omil bo‘lgan.[4]

Germaniyada 2020 yilda olib borilgan statistik tahlillarga koʻra, jamoat xavfsizligi boʻyicha fuqarolik ishtiroki yuqori boʻlgan hududlarda jinoyatchilik darajasi 12% ga pasaygan.[5]

Oʻzbekiston sharoitida ham soʻnggi yillarda ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Masalan, 2017–2022 yillar davomida jamoat xavfsizligini ta’minlashga fuqarolar va jamoat tashkilotlarining jalb qilinishi tufayli respublikada yoʻl qoʻyilgan umumiy jinoyatlar soni 18% ga kamaygan. Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlariga koʻra, 2023 yilda mahalla faollari va jamoat posbonlari ishtirokida 12 mingdan ortiq huquqbuzarlikning oldi olingan.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, fuqarolarning xavfsizlik jarayonida faol ishtiroki va jamoat tashkilotlarining ta’siri yuqori boʻlgan hududlarda ijtimoiy barqarorlik darajasi sezilarli darajada oshgan.

Shuningdek, tahlillar fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, jamoat tashkilotlari faoliyatini qoʻllab-quvvatlash va davlat organlari tomonidan samarali hamkorlik mexanizmlarini yoʻlga qoʻyish jamoat xavfsizligini yanada mustahkamlashning asosiy shartlari ekanini tasdiqlaydi.

A.V.Goroxov ta’kidlaganidek, jamoat xavfsizligi – bu fuqarolarning hayoti, sogʻligʻi va mulkini jinoiy tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan tizimli choralar majmuasidir.[6] Uning fikriga koʻra, jamoat xavfsizligi samarali boʻlishi uchun aholi faol ishtirokini ta’minlash zarur.

Shuningdek, B.M.Lazarev fuqarolarning xavfsizlikni ta’minlash jarayonidagi ishtiroki huquqiy madaniyatning va huquqiy ongning rivojlanishi bilan uzviy bogʻliq ekanini ta’kidlaydi.[7]

Fuqarolar profilaktika tadbirlarida qatnashish, xavfli holatlar va huquqbuzarliklar toʻgʻrisida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabardor qilish, jamoat tuzilmalarida faoliyat olib borish, huquqiy targʻibot ishlarida qatnashish orqali Fuqarolar quyidagi asosiy yoʻnalishlarda jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etishi mumkin.

Jamoat tuzilmalari ham jamoat xavfsizligini ta’minlashda vositachi rolini oʻynaydi. Ular aholi va davlat organlari oʻrtasida samarali aloqa va hamkorlikni yoʻlga qoʻyadi. Olim Sh.A.Abdullayev ta’kidlaganidek, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi jinoyatchilik darajasini kamaytirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.[8]

Bunda hududiy xavfsizlik boʻyicha monitoring olib borish, xavfli shaxslar va jinoyatchilik manbalari haqida ma’lumot toʻplash, xavfsizlik

tadbirlarini tashkil qilish, aholini huquqiy ma’rifat bilan ta’minlash jamoat tuzilmalarining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Jamoat tuzilmalari va birlashmalarining jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi ishtiroki davlat boshqaruvida ishtirokchi (*partisipativ*) yondashuvlarni amalga oshirish usullaridan biridir. Davlat boshqaruvining bu xususiyati tadqiqotchilarni qiziqtiradi. Shunday qilib, Ya.Ya.Kail va S.V.Epinina Buyuk Britaniya, AQSh, Ispaniya, Norvegiya va boshqa mamlakatlarda ishtirokchi yondashuvdan foydalanishni tahlil qilgan va ularning fikricha, davlat boshqaruvi tizimi faoliyatida ishtirokchi yondashuv qanchalik faol tatbiq etilsa, ya’ni fuqarolarning davlat ishlariga jalb etilishi, siyosiy va iqtisodiy sohalar shunchalik muvaffaqiyatli rivojlanadi.[9]

Bundan tashqari jamoat tartibini saqlash va uni ta’minlashda fuqarolarning ishtiroki muammolarini tadqiqotchilardan A.L.Borenshteyn,[10] E.A.Nikolaenko va V.A.Kalinin [11] tomonidan o‘rganilgan. Faol fuqarolik yoki fuqarolarning ishtiroki g‘oyasi xorijiy tadqiqotchilar masalan M.Gramberger [12] tomonidan ham faol o‘rganilgan.

Xalqaro amaliyotda fuqarolar va jamoat tashkilotlarining xavfsizlik jarayonidagi ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

AQShda Community Policing konsepsiyasi asosida fuqarolar va polisiya o‘rtasida ishonchli aloqalar o‘rnatiladi. R.Troyanovich ta’kidlaganidek, polisiya va jamoat o‘rtasidagi hamkorlik jinoyatchilik darajasini kamaytiradi va xavfsizlikka ishonchni oshiradi.[13]

Yaponiyada, “Koban” tizimi orqali har bir mahallada kichik polisiya postlari tashkil etilgan. Bu postlar nafaqat huquqbuzarliklarga qarshi kurashadi, balki aholi bilan doimiy muloqotni ta’minlaydi.[14]

O‘zbekistonda ham jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qator normativ-huquqiy bazalar yaratilgan.

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonunning 13-moddasida fuqarolar yig‘ini kengashining vakolatlari sifatida “tegishli hududda jamoat tartibini va jamoat xavfsizligini ta’minlashda, shu jumladan fuqarolarning kelishi va ketishini hisobga olishni tashkil etishda, voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik hamda huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir ishlarda va ularning huquqlarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko‘maklashadi”[15] deb ko‘rsatilgan.

Fuqarolarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishonchisiz, Prokuratura, Ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya va fuqarolik jamiyati

o‘rtasidagi samarali hamkorlikni amalga oshirish mumkin emas. Masalan, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunining [16] 17-moddasida “fuqarolarni ularning roziligi bilan hamkorlikka jalb etish, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlashda ichki ishlar organlariga yordam bergan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan fuqarolarni taqdirlash” ichki ishlar organlarining huquqlari sifatida ko‘rsatilgan. Shu va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida O‘zbekistonda mahallalar, fuqarolar yig‘inlari va nodavlat notijorat tashkilotlari xavfsizlik jarayonlarida, ya’ni jamoat tartibini saqlash fuqarolar xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etmoqda.

Masalan, “Yoshlar ittifoqi”, “Xotin-qizlar qo‘mitasi” va boshqa tashkilotlar profilaktik ishlar olib bormoqda. “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Prezident farmonida [17] “yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va profilaktika qilish ishlarida faol ishtirok etish” O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Hozirgi sharoitda fuqarolar va jamoat tuzilmalari ishtirokini yanada samarali qilish uchun quyidagi choralar zarur, ya’ni fuqarolar o‘rtasida huquqiy madaniyat va huquqiy ongni oshirish, jamoat tuzilmalari faoliyatini moddiy va tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, huquqbuzarliklar bo‘yicha tezkor ma’lumot almashinuvini ta’minlovchi mexanizmlarni rivojlantirish, fuqarolarni xavfsizlik tadbirlarida muntazam ishtirok etishga rag‘batlantirish shular jumlasidandur.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda faqat davlat emas, balki butun jamiyat mas’uldir. Fuqarolar va jamoat tashkilotlarining ishtiroki samarali xavfsizlik tizimi uchun zarur. Bugungi kunga kelib, xalqaro tajriba fuqarolar va davlat organlari o‘rtasida ishonchli aloqa muvaffaqiyat garovi ekanini ko‘rsatadi.

Fuqarolarning jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etishi ularning bu sohadagi muammolardan uzoqlashmasligini, jamiyatda qonuniylik va adolatga erishish uchun har kim, hech bo‘lmaganda, o‘z huquq-tartibot idoralari timsolida davlatni qo‘llab-quvvatlashi, yordam berishi zarurligini tushunishini anglatadi. Fuqarolik yordamidan ajralganda, fuqarolar bilan axborot va funksional aloqadan tashqarida, huquqni muhofaza qilish organlari yopiq, jamiyat uchun foydasiz vositaga aylanadi. Binobarin, ichki ishlar organlari va Milliy gvardiyaning sa’y-harakatlari va intilishlari qonun hujjatlarida belgilangan

tartibda fuqarolarning jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi ishtirokini faollashtirishga qaratilishi lozim.

O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida muhim qadamlar qo‘yilgan, ammo yanada ko‘proq fuqarolik faolligini rag‘batlantirish talab etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerak, huquqiy bazani mustahkamlash ya’ni jamoat xavfsizligi sohasida fuqarolarning ishtirokiga oid huquqiy kafolatlarni yanada aniqlashtirish, xususan, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi va “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonunlarga aniq vazifa va funksiyalar shaklidagi normalarni kiritish zarur.

Fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, ya’ni davlat organlari, OAV va ta’lim muassasalari tomonidan aholi o‘rtasida huquqiy ma’rifatni oshirish, jumladan, jamoat xavfsizligidagi shaxsiy mas’uliyat haqida maqsadli o‘quv dasturlari tashkil etilishi lozim.

Jamoat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash, ya’ni mahalla, NNT va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta’minlash uchun maxsus davlat fondlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Ta’lim tizimiga integrasiya, ya’ni oliy o‘quv yurtlari va kollejlarda jamoat xavfsizligi va fuqarolik ishtiroki bo‘yicha fakultativ kurslar joriy etilishi samarali bo‘ladi.

Aholining ishtirokini rag‘batlantirish mexanizmlari ya’ni, faol fuqarolarni maxsus mukofotlar, davlat stipendiyalari va ijtimoiy tan olish (gramotalar, ko‘krak nishonlarini ta’sis etish va h.k.) bilan rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish lozim.

Axborot almashinuvi tizimini takomillashtirish, ya’ni hududiy darajada huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalla va NNTlar o‘rtasida tezkor va ishonchli ma’lumot almashinuvini ta’minlovchi yagona elektron platforma ishlab chiqilishi zarur.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolarning faol ishtiroki va jamoat tuzilmalarining kuchayishi orqali davlat–jamiyat munosabatlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Bu esa O‘zbekistonda qonuniylik, ijtimoiy barqarorlik va demokratik institutlarning yanada rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кузнецова Ольга Анатольевна. Роль общественной безопасности общества в современном правовом государстве // In The World Of Science and Education. 2025. №31 mart

2. Таова Лилия Юрьевна, Роль граждан общественных организаций и объединений в обеспечении правопорядка на современном этапе // Пробелы в российском законодательстве. 2019. №5.

3. https://www.ojp.gov/ncjrs/virtual-library/abstracts/community-policing-how-get-started (murojaat sanasi: 23.09.2025y.)

4. https://global.oup.com/academic/product/police-for-the-future-9780195104585?cc=uz&lang=en& (murojaat sanasi: 23.09.2025y.)

5. Federal Ministry of the Interior, Germany. Public Safety and Citizen Participation Report, 2020.

6. Горохов А.В. Общественная безопасность как правовая категория. — Москва: Юристъ, 2010. — 256 с.

7. Лазарев Б. М. Правосознание: понятие, структура, функции. — Москва: Норма, 2001. — 320 с.

8. Abdullayev Sh.A. Fuqarolik jamiyati institutlari va jamoat xavfsizligi: nazariy va amaliy jihatlari. — Toshkent: IIV Akademiyasi nashriyoti, 2021. — 215 b.

9. Кайль Я. Я. Партисипация как важный фактор повышения эффективности и результативности публичного управления субектом Российской Федерации / Я. Я. Кайль, В. С. Эпинина // Региональная экономика: теория и практика. 2013. № 16. С. 30-38.

10. Боренштейн А. Л. Участие граждан в охране общественного порядка / А.Л.Боренштейн, А.С.Астапова, А.А.Луданова // Стратегия социально-экономического развития общества: управленческие, правовые, хозяйственные аспекты : материалы 7-й междунар. науч. - практ. конф. (Курск, апрель 2017). Курск : ЗАО «Университетская книга», 2017. Т. 1. С. 45-47.

11. Николаенко Э. А. Проблемные вопросы организационно-правового участия граждан в охране общественного порядка / Э. А. Николаевнко, В. А. Калинин // Вестник белгородского юридического института МВД России. 2018. № 2. С. 59-63.

12. Gramberger M. Citizens as partners. OECD handbook on Information, consultation and public participation in policy-making / Gramberger M. // OECD Publications. 2001 [Ǝlektronnыy resurs]. Rejim dostupa: https://www.internationalbudget. org / wp-content / uploads / Citizensas-Partners-OECD-Handbook.pdf (data obraщenia: 23.09.2019).

13. Trojanowicz R., Bucqueroux B. Community Policing: How to Get Started. — Cincinnati: Anderson Publishing Company, 1990. — 282 p.

14. Bayley D. H. Police for the Future. — Oxford: Oxford University Press, 1994. — 200 p.
15. 2013 yil 22 aprel kungi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-350-son qonuni;
16. 2016 yil 16 sentyabr kungi “ Ichki ishlar organlari to‘g‘risida ”gi O‘RQ-407-son qonuni;

FAVQULODDA VAZIYATLARDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING AYRIM MASALALARI

Joldasov A.F.
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi
Shaymordonov J.Z.
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotasiya: Maqolada favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlashning huquqiy va tashkiliy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Tabiiy va texnogen hodisalarda aholini himoya qilish mexanizmlari, tegishli davlat organlari va xizmatlarning o‘zaro hamkorligi tahlil qilingan. Shuningdek, mavjud muammolar ochib berilgan hamda xavfsizlikni ta’minlash samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, favqulodda vaziyatlar, huquqiy asoslar, tashkiliy choralar, aholini himoya qilish, davlat organlari hamkorligi, qutqaruv xizmati, xavfsizlik tizimi, tabiiy ofatlar, texnogen xavflar.

Favqulodda vaziyatlar aholining hayoti va sog‘lig‘iga, iqtisodiyotga va atrof-muhitga tahdid soladi. Globallashuv, tabiiy va texnogen ofatlar soni ortib borayotgan sharoitda aholi xavfsizligini ta’minlash masalalari tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu sohada ma’muriy-huquqiy tartibga solish juda muhim, chunki davlat aynan huquqiy normalar va boshqaruv mexanizmlari orqali fuqarolarning himoyasini ta’minlash, favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini minimallashtirishni va normal hayotni tiklashni amalga oshiradi.

Favqulodda vaziyatlar - tabiiy, texnogen yoki ijtimoiy hodisalar natijasida insonning normal hayotining buzilishiga, moddiy boyliklarning yo‘q qilinishiga olib keladigan, aholining hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soladigan holatlar. Ilmiy adabiyotlarda favqulodda vaziyatlarning turli tasniflari ajratiladi. Masalan, A.I.Alekseev favqulodda vaziyatlarni tabiiy, texnogen va ijtimoiy deb ajratishni taklif qiladi. Tabiiy ofatlarga zilzilalar, toshqinlar, bo‘ronlar va boshqalar kiradi; texnogen - sanoat obyektlarida

baxtsiz hodisalar, transport halokatlari; ijtimoiy - terroristik harakatlar, harbiy mojarolardir.[1]

Favqulodda vaziyatlarni tasniflash ularni tartibga solishning ma’muriy-huquqiy mexanizmlarini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega.

“Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-790-son qonunining [2] 3-moddasi favqulodda vaziyatlarga “tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar — muayyan hududda odamlar qurbon bo‘lishiga, odamlarning sog‘lig‘iga yoki atrof tabiiy muhitga zarar etishiga, jiddiy moddiy talafotlarga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoitlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy ofat yoxud boshqa ofat natijasida, karantinli va inson uchun xavfli bo‘lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi natijasida yuzaga kelgan vaziyatlar” sifatida tushunchasi keltirilgan.

Favqulodda vaziyatlarda Milliy gvardiya organlari faoliyatining huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘rida”,[3] “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”,[4] “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”,[5] “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi [6] va boshqa qonunlar, shuningdek ijro etuvchi hokimiyat organlari,[7] davlat hokimiyati organlari va mahalliy hokimiyat organlarining normativ-huquqiy hujjatlari, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan hukumat qarorlarini o‘z ichiga oladi.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish ma’muriy-huquqiy tartibga solishning asosiy vazifalaridan biridir. Ilmiy adabiyotlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olishning quyidagi asosiy mexanizmlarini ko‘rish mumkin:

Rejalashtirish va prognozlash ya’ni, davlat idoralari favqulodda vaziyatlarda harakat rejalarini ishlab chiqish, xavflarni tahlil qilishlari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlarni bashorat qilishlari kerak. A.V.Kuznesovning ta’kidlashicha, samarali prognozlash favqulodda vaziyatlar oqibatlarini minimallashtirish imkonini beradi. [8]

Nazorat va monitoring qilib borish, ya’ni davlat organlari sanoat obyektlarida, transport sohasida va favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan boshqa hududlarda xavfsizlik standartlariga rioya etilishini nazorat qiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi [9] korxonalarni xavfsizlik talablariga muvofiqligini ta’minlash uchun tekshiruvlar o‘tkazadi.

Mavjud ma’muriy-huquqiy norma va mexanizmlarga qaramasdan, favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligini ta’minlashni ma’muriy-huquqiy tartibga solishda qator muammolar mavjud. Masalan, A.S.Petrovning ta’kidlashicha, qonunchilikda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar samaradorligini baholashning aniq mezonlari yo‘q.[10] Bu esa davlat organlari faoliyatiga baho berish va kamchiliklarni aniqlashni qiyinlashtiradi. Yana bir muammo - turli davlat organlari o‘rtasida muvofiqlashtirishni tartibga soluvchi aniq ma’muriy-huquqiy me’yor yo‘qligi. Masalan, yirik favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, ko‘pincha Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va boshqa idoralarning o‘zaro hamkorligida muammolar yuzaga keladi. Bu yordam ko‘rsatishning kechikishiga va qurbonlar sonining ko‘payishiga olib keladi.

Mutaxassislarning fikricha, yana bir muhim chora – qutqaruv xizmatlari va aholini tayyorlash darajasini oshirishdir. Masalan, E.A.Smirnovaning ta’kidlashicha, muntazam mashg‘ulotlar va mashqlar aholining favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorligini oshirishga yordam beradi. [11]

Yuridik fanlar doktori, professor A.V.Malko favqulodda vaziyatlar sohasida ma’muriy-huquqiy tartibga solish tizimli yondashuvga asoslanishi kerakligini ta’kidlaydi. Uning ta’kidlashicha, mavjud huquqiy normalar ko‘pincha parcha-parcha bo‘lib, favqulodda vaziyatlar bilan bog‘liq muammolarning murakkabligini hisobga olmaydi. A.V.Malko barcha bosqichlarni qamrab oladigan yagona huquqiy tartibga solish konsepsiyasini ishlab chiqishni taklif qiladi, ya’ni oldini olishdan tortib, oqibatlarni bartaraf etishgacha.[12] Uning fikricha, bu favqulodda vaziyatlarda davlat boshqaruvi samaradorligini oshiradi.

Munisipal huquq sohasidagi mutaxassis, professor S.V.Boshno aholi xavfsizligini ta’minlashda mahalliy davlat hokimiyati organlarining rolini kuchaytirish muhimligini ta’kidlaydi. Uning qayd etishicha, mahalliy hokimiyat organlari o‘z hududlarining o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq bilishi va tahdidlarga tezda javob bera oladi. S.V.Boshno favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasida munisipalitetlarning vakolatlarini kengaytirish, shuningdek ularni zarur resurslar bilan ta’minlashni taklif qiladi. [13]

Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bu - aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, fuqaro muhofazasi, yong‘in xavfsizligini ta’minlashda aholining ko‘nikmalarini shakllantirish va doimiy takomillashtirib borishdan iborat. [14]

Favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash ma’muriy-huquqiy tartibga soluvchi me’yori hujjatlarni tahlil qilar ekanmiz, favqulodda vaziyatlarda harakat qilishning huquqiy asosini Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida “Milliy gvardiya o‘z vakolati doirasida favqulodda vaziyatlarda va favqulodda holat e’lon qilingan hududlarda jamoat xavfsizligini ta’minlaydi” deb ko‘rsatilganligini ko‘rish mumkin.[15]

Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi asosiy vazifalari sifatida “vakolati doirasida favqulodda vaziyatlarda va favqulodda holat e’lon qilingan hududlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash, terrorchilikka qarshi operasiyalarni o‘tkazishda vakolatli davlat idoralari bilan hamkorlikda ishtirok etish” ko‘rsatilgan.

Milliy gvardiya organlari o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq baxtsiz hodisalar, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlarda odamlarni qutqarish va ularga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish uchun shoshilinch choralar ko‘rishi, shuningdek qarovsiz qolgan mulkni himoya qilish, favqulodda yoki harbiy holatning huquqiy rejimini ta’minlashda, shuningdek epidemiyalar va epizootiyalar davrida karantin tadbirlarini o‘tkazishda yordamchi kuch sifatida ishtirok etadi.

Milliy gvardiya organlariga fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi yoki jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi jinoyatlar, ma’muriy huquqbuzarliklar va hodisalar to‘g‘risidagi arizalar, xabarlar va boshqa kelib tushgan ma’lumotlarni bo‘yicha o‘z vaqtida tegishli choralar ko‘rish majburiyatini yuklovchi huquqiy norma alohida ahamiyatga ega. [16] Me’yoriy hujjat Milliy gvardiya organlariga tahdidning barcha holatlari to‘g‘risida, ham subyektiv hodisalar (jinoyatlar), ham obyektiv (baxtsiz hodisalar, falokatlar, tabiiy ofatlar va boshqalar) sodir bo‘lgan taqdirda ham tezkor javob berish va qonunda nazarda tutilgan choralarni ko‘rish majburiyatini yuklaydi.

Milliy gvardiya organlari, uning xizmatlari va bo‘linmalarining favqulodda vaziyatlarda jamoat tartibini va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha o‘ziga xos majburiyatlari “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonuning 3-moddasida: “terrorizmga qarshi kurashishda, shuningdek terrorchilik harakatlarining hamda tabiiy va

texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish", "favqulodda holat, alohida davr va terrorchilikka qarshi operasiyalarni o'tkazish sharoitlarida huquqiy rejimni ta'minlash" [17] deb ko'rsatilgan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 204 (204-modda. Favqulodda holat tartibining talablarini buzish), 204^1 (Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, shuningdek fuqaro muhofazasi to'g'risidagi qonunchilik talablarini bajarmaslik) va 205 (favqulodda holat tartibi sharoitida jamoat tartibiga tajovuz qilish) moddalarida [18] alohida ko'rsatilgan bo'lib, jamoat tartibini himoya qilish, shuningdek, tabiiy ofatlar va epidemiyalarga qarshi kurashish uchun ma'muriy javobgarlikni buzishni nazarda tutuvchi qarorlar qabul qilinishi mumkin.

Favqulodda holatni amalga oshirish vositasi sifatida faoliyat yurituvchi shaxslarning ma'muriy-huquqiy maqomini qonuniy ravishda cheklash ma'muriy-huquqiy tartibga solishning maxsus shaklini ajratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi va ma'muriy-huquqiy cheklovlar rejimini o'rnatishda ifodalanadi. Favqulodda vaziyatda huquq va erkinliklarni cheklash to'g'risidagi buyruqlarning ta'siri aniq shaxslarga emas, balki favqulodda holat joriy qilingan butun hudud aholisiga taalluqlidir. Favqulodda vaziyatlarda ushbu turdagi tartibga solish ustunlik qiladi.

Ma'muriy huquq bo'yicha mutaxassis professor V.D.Sorokin favqulodda vaziyatlarda davlat organlari o'rtasidagi muvofiqlashtirishning etarli emasligi muammosini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va boshqa idoralar o'rtasida vakolatlarning aniq chegaralanmaganligi harakatlar bir-biriga mos kelmasligi va xavfsizlik choralari samaradorligining pasayishiga olib kelmadi. V.D.Sorokin favqulodda vaziyatlarda barcha jarayonlarni boshqarish uchun mas'ul bo'lgan yagona muvofiqlashtiruvchi organni yaratishni taklif qiladi. [19]

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda qo'yidagi xulosalarga kelish mumkin:

zamonaviy sharoitdan kelib chiqqan holda davlat organlari o'rtasidagi muvofiqlashtirishni kuchaytirish. Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirliklari va boshqa idoralarning favqulodda vaziyatlarda o'zaro hamkorligi uchun mas'ul bo'lgan yagona muvofiqlashtirish markazini tashkil etish zarur.

aholining tayyorgarlik darajasini oshirish, aholiga muntazam ravishda o‘quv mashg‘ulotlari va boshqa amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish zarur.

Favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligini ta’minlashni ma’muriy-huquqiy tartibga solish fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishning muhim vositasidir. Biroq amaldagi huquqiy normalar va mexanizmlarda ularning samaradorligini pasaytiradigan qator kamchiliklar mavjud. Aholi xavfsizligini ta’minlash darajasini oshirish uchun qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritish, davlat organlari o‘rtasidagi muvofiqlashtirishni kuchaytirish, moliyalashtirishni ko‘paytirish va aholini tayyorlash darajasini oshirish maqsadga muvofiq. Faqat kompleks yondashuv favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini minimallashtirish va fuqarolar xavfsizligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алексеев А.И. Классификасия чрезвычайных ситуасий: теоретические и практические аспекты // Журнал "Безопасност в чрезвычайных ситуасиях". 2018. № 3. С. 45-52.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 17-avgustdagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida ”gi O‘RQ-790-son qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 18-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647-son qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 05-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-471-son qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 17-avgustdagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida ”gi O‘RQ-790-son qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 15-dekabrdagi “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi O‘RQ-737-son qonuni.
7. Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14-oktyabrdagi “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 600-son qarori
8. Кузнесов А.В. Прогнозирование и предупреждение чрезвычайных ситуасий: правовые аспекты // Журнал "Административное право и просесс". 2019. № 5. С. 12-18.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.02.2024 yildagi “Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-41-son qaroriga asosan;
10. Петров А.С. Проблемы осенки эффективности мер по предупреждению чрезвычайных ситуасий // Журнал "Государство и право". 2020. № 7. С. 34-40.
11. Смирнова Э.А. Подготовка населения к действиям в условиях чрезвычайных ситуасий: правовые и организасионные аспекты // Журнал "Гражданская защита". 2021. № 4. С. 67-73.
12. Малко А.В. Системный подход к административно-правовому регулированию в условиях чрезвычайных ситуасий // Журнал "Право и политика". 2020. № 8. С. 45-50.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TAYINLASHNI IJTIMOIY-HUQUQIY TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Olimov Z.M.
O‘R MG Farg‘ona mintaqaviy o‘quv markazi
“AKT va TQV” sikli boshlig‘i
Tulanov A.V.
O‘R MG Farg‘ona mintaqaviy o‘quv markazi
“AKT va TQV” sikli katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlashda milliy gvardiya bo‘linmalari hamda ichki ishlar organlari o‘zaro hamkorligining huquqiy va tashkiliy asoslari ilmiy tahlil qilib, sohani nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavfsiyalar berilgan. Shuningdek, ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalari ilmiy tahlil qilinib uning jamiyat hayotida tutgan o‘rni bo‘yicha fikr va mulohazalar bildirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash, ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya organlari, patrul, post, patrullik xizmati, hamkorlik.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni «Xalq manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan

o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas’ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini «Barcha sa’y-harakatlar inson qadri uchun» degan ustuvor g‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda.

Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tashabbusi va rahbarligi ostida so‘nggi yillarda qabul qilingan qonun hujjatlari asosida ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ish uslublarini, aholiga xizmat ko‘rsatish masalalarini, hamkorlik mexanizmlarini, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasini va shaxsiy tarkib bilan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish choralarini kuchaytirish bu boradagi tizimli ishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Shuningdek, hududlarda jinoyatchilik ahvolidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni toifalarga ajratish hamda hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda jinoyat o‘choqlari»ni bartaraf etish uchun barcha zarur kuch va vositalarni jalb qilish belgilandi.

Bir so‘z bilan aytganda ushbu sohada ilmiy tadqiqot olib borgan huquqshunos olimlar to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, ichki ishlar organlari bilan Milliy gvardiya faoliyatida amalga oshirilayotgan islohotlar huquq tartibotni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash maqsadida davlat, jamiyat va shaxs xavfsizligini ta’minlash tizimida keng ko‘lamli demokratik islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasining yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6196-son (2021 yil 26 mart) farmoni qabul qilindi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha o‘rnatilayotgan yangi mexanizmlarning samarali amalga oshirilishini ta’minlashda ichki ishlar organlarining roli va mas’uliyatini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy choratadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-5050-son (2021 yil 2 aprel) qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, Toshkent shahri va Toshkent viloyati ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash borasidagi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida quyidagilarni nazarda tutuvchi yangi boshqaruv tizimi joriy etildi: birinchidan, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida jamoat xavfsizligini ta’minlash ushbu hududlardagi ichki ishlar va boshqa vakolatli organlarning mavjud kuch va vositalarini yagona «poytaxt mintaqasi» tamoyili asosida safarbar qilgan holda hamkorlikda amalga oshirilishi belgilandi; ikkinchidan, jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog‘liq holatlar yuzaga kelganda poytaxtdagi barcha ichki ishlar organlari faoliyatini, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha vakolatli davlat organlari va jamoat tuzilmalari kuch va vositalarining yagona tezkor boshqaruvi Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi zimmasiga, umumiy boshqaruvi ichki ishlar vaziri zimmasiga yuklatildi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashni ijtimoiy-huquqiy takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Huquqiy asoslarni rivojlantirish: Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi qonunchilikni yangilash va mukammallashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda mavjud huquqiy bo‘shliqlar va ziddiyatlar bartaraf etilib, zamonaviy tahdidlar va xavf-xatarlarni qamrab oladigan kompleks qonunlar qabul qilinadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021 yil 29 noyabrda tasdiqlangan “Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi” bu sohada davlat siyosatini belgilovchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish: Jamoat xavfsizligini ta’minlashda huquqbuzarliklarni profilaktika qilish ustuvor vazifa hisoblanadi. Huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarni jazolashdan avval ularning oldini olish uchun profilaktik chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmlar ichki ishlar organlari, milliy gvardiya va boshqa davlat organlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, mahallalarda huquq-tartibot maskanlarini tashkil etish va jamiyatga profilaktika ishlarini olib borish kabi chora-tadbirlardan iborat.

Tezkor axborot almashish va boshqaruv tizimini yaxshilash: Jamoat xavfsizligini ta’minlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, maxsus texnik vositalarni joriy etish va quyi tizimdagi bo‘linmalarni samarali boshqarish muhimdir. Bu esa guruhiy qonunbuzarliklar, ommaviy tartibsizliklar va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda tezkorlik va samaradorlikni oshiradi.

Davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlik: Jamoat xavfsizligini ta’minlashda davlat organlari bilan bir qatorda fuqarolar ham faolligini oshirish zarur. Mahalla huquq-tartibot maskanlari va profilaktika inspektorlari orqali jamoatchilik nazorati kuchaytiriladi, bu esa jamiyatda huquq-tartibotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Favqulodda vaziyatlarga tayyorlik va qarshi kurashish: Yong‘in, jamoat tartibini buzish, ommaviy tartibsizliklar kabi favqulodda vaziyatlarda tezkor va samarali chora-tadbirlar qo‘llash uchun qoidalar va mexanizmlar ishlab chiqiladi va doimiy takomillashtiriladi. Bu choralar aholining shaxsiy va jamoat xavfsizligini maksimal darajada himoya qilishga qaratiladi.

Shu yo‘nalishlar jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida ijtimoiy-huquqiy tizimni yanada rivojlantirishga, hukumat va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga, zamonaviy xavf-xatarlarni samarali bartaraf etishga imkon yaratadi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi o‘zaro hamkorligining huquqiy va tashkiliy-taktik asoslarini takomillashtirish jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligiga qarshi qaratilgan g‘ayriijtimoiy hatti-harakatlarni aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish kabi faoliyatlarini samarali tashkil qilish uchun imkon beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz mustaqilligi – biz uchun kuch-qudrat va ilhom manbai, taraqqiyot va farovonlik asosi // Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi

2. Ziyodullayev M.Z. Milisiya tayanch punktlarining jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini boshqarishni takomillashtirish. Yurid. fan. nomzodi. Dis.-T., 2008. – B. 114.

3. O‘zbekiston Respublikasining ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, – 2017. – №

37. – 978-m. 4. Asadov, S. F. O. G. L. (2021). Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat ishtiroki (davlat-xususiy sheriklik misolida). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 789-799.

5. Koryogdiyev, B. U. O. (2021). Bitimni haqiqiy emas deb topish va uning oqibatlarini qollash fuqarolik huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 211-225.

6. O‘zbekiston Respublikasining milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.11.2020 y., 03/20/647/1569- son.

JAMOAT XAVFSIZLIGIGA ZAMONAVIY TAHDIDLARNI OLDINI OLISHDA AHOLINING HUQUQIY ONGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI

Yo‘ldashaliyev I.T.
Farg‘ona mintaqaviy o‘quv markazi “Huquqiy fanlar” sikli katta o‘qituvchisi, Jamoat xavsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi, mayor

Annotatsiya: Ushbu maqola jamoat xavfsizligiga zamonaviy tahdidlarni oldini olishda aholining huquqiy ongini oshirishning ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada “huquqiy ong”, “huquqiy madaniyat” va “huquqiy ma’rifat” tushunchalarining nazariy asoslari tahlil qilingan, jamoat xavfsizligiga zamonaviy tahdidlarning turlari va o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan hamda aholining huquqiy ongini oshirishning shakllari va usullari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida aholining huquqiy ongini oshirish bo‘yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va huquqshunoslar uchun aholining huquqiy ongini oshirish bo‘yicha siyosat va dasturlarni ishlab chiqishda foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Jamoat xavfsizligi, zamonaviy tahdidlar, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy ma’rifat, profilaktika, oldini olish.

Jamoat xavfsizligi har qanday jamiyatning barqarorligi va farovonligining asosiy shartlaridan biridir. Xavfsiz muhit fuqarolarning normal hayot kechirishi, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi va davlatning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Bugungi kunda dunyo globallashuvi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jamoat xavfsizligiga yangi va murakkab tahdidlarni keltirib

chiqarmoqda. Bu tahdidlar nafaqat davlat organlarining, balki har bir fuqaroning xavfsizligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy tahdidlar an’anaviy jinoyatchilikdan farqli ravishda ko‘proq yashirin, transmilliy va texnologik xarakterga ega bo‘lib, ularga qarshi kurashish uchun yangi yondashuvlar va usullarni talab etadi. Terrorizm, ekstremizm, kiberjinoyatchilik, korruptsiya, narkotrafik kabi tahdidlar jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligiga putur yetkazishi mumkin. Bu tahdidlarning oldini olishda aholining huquqiy ongini oshirish, ularni huquqiy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga ega.

Aholining huquqiy ongi – bu huquq, qonunlar va adolat haqidagi bilimlar, tushunchalar va e’tiqodlar majmuidir. Yuqori huquqiy ongga ega bo‘lgan fuqarolar o‘z huquq va majburiyatlarini yaxshi biladi, qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda faol ishtirok etadi. Shuning uchun, aholining huquqiy ongini oshirish jamoat xavfsizligini ta’minlashning muhim omillaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Huquqiy madaniyat – bu jamiyatning ma’naviy kamolotining muhim ko‘rsatkichi. Biz huquqiy ongni shakllantirish, qonun ustuvorligini ta’minlash orqali xalqimizning farovonligini oshirishga intilamiz”. Bu fikr aholining huquqiy ongini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligini yaqqol ko‘rsatadi.

Ushbu mavzu bo‘yicha O‘zbekistonda va xorijda bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. O‘zbekistonlik olimlardan H.Boboyev, A.Saidov, B.Eshmurodov va boshqalarning ishlarida huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy ma’rifat masalalari chuqur o‘rganilgan. Xorijiy tadqiqotchilardan R.Dworkin, J.Rawls, M.Weber va boshqalarning asarlarida huquqiy ongning jamiyatdagi roli va ahamiyati keng yoritilgan.

Shunga qaramay, jamoat xavfsizligiga zamonaviy tahdidlar sharoitida aholining huquqiy ongini oshirish masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan. Zamonaviy tahdidlarning o‘ziga xos xususiyatlari, aholining huquqiy ongi darajasiga ta’siri va huquqiy ma’rifatning yangi shakllari va usullari chuqur tadqiqotni talab etadi.

Tadqiqot obyekti aholining huquqiy ongi va uning jamoat xavfsizligiga ta’siridir.

Tadqiqot predmeti jamoat xavfsizligiga zamonaviy tahdidlarni oldini olishda aholining huquqiy ongini oshirishning ahamiyatidir.

Aholining yuqori darajadagi huquqiy ongi jamoat xavfsizligiga zamonaviy tahdidlarni oldini olishda muhim rol o‘ynaydi va huquqbuzarliklar sonini kamaytirishga, qonun ustuvorligini ta’minlashga va jamiyatning barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi.

Huquqiy ong – bu huquqiy voqelikni inson ongi orqali aks ettirish shakli bo‘lib, u huquqiy normalar, qoidalar, ustanovkalar, baholar va ularga nisbatan munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Huquqiy ong ijtimoiy ongning tarkibiy qismi sifatida jamiyatning huquqiy tizimi va huquqiy madaniyatini aks ettiradi.

Huquqiy ongning tuzilishi bir nechta elementlardan iborat:

Huquqiy bilimlar: Qonunlar, huquqiy normalar va qoidalar haqidagi ma’lumotlar;

Huquqiy baholar: Huquqiy voqelikka nisbatan shaxsiy munosabat, adolat va nohaqlik haqidagi tushunchalar.

Huquqiy ustanovkalar: Huquqiy normalarga rioya qilishga yoki ularni buzishga tayyorlik. Huquqiy his-tuyg‘ular: Huquqiy voqelik bilan bog‘liq bo‘lgan emotsional holatlar (mas’uliyat, adolat hissi, norozilik). Huquqiy xulq-atvor: Huquqiy normalarga muvofiq yoki zid bo‘lgan xatti-harakatlar.

Huquqiy madaniyat – bu jamiyatning huquqiy qadriyatlari, normalari va ustanovkalari majmui bo‘lib, u huquqiy ong, huquqiy tizim va huquqiy amaliyotda o‘z ifodasini topadi. Huquqiy madaniyat jamiyatning huquqqa bo‘lgan munosabatini, huquqiy bilimlarni va huquqiy xulq-atvorni belgilaydi.

Huquqiy ma’rifat – bu aholining huquqiy bilimlarini oshirish, huquqiy madaniyatini shakllantirish va huquqqa hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan faoliyatdir. Huquqiy ma’rifat huquqiy madaniyatni rivojlantirishning muhim vositasidir.

Huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy ma’rifat o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, ular jamiyatda huquqiy tartibotni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Huquqiy ma’rifat orqali aholining huquqiy ongi oshiriladi, bu esa huquqiy madaniyatning rivojlanishiga olib keladi. Yuqori huquqiy madaniyat esa qonun ustuvorligini ta’minlashga va jamoat xavfsizligini mustahkamlashga yordam beradi.

Aholining yuqori darajadagi huquqiy ongi huquqbuzarliklarni oldini olishning muhim omilidir. Huquqiy bilimga ega bo‘lgan fuqarolar qonunlarni yaxshi biladi va ularga rioya qilishga harakat qiladi. Ular o‘z huquqlarini himoya qila oladi va huquqbuzarlik qurboni bo‘lish xavfini kamaytiradi.

Aholining huquqiy bilimdonligi jamoat xavfsizligiga bevosita ta’sir qiladi. Huquqiy bilimdon fuqarolar - huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlay oladi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar beradi. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda faol ishtirok etadi. Qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi va ularga rioya qiladi. O‘z huquqlarini himoya qila oladi va adolatga erishishga harakat qiladi.

Huquqiy ong shaxsning huquqiy xulq-atvorini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Yuqori huquqiy ongga ega bo‘lgan shaxs qonunlarga muvofiq harakat qilishga intiladi, huquqbuzarliklardan qochadi va huquqiy tartibotni saqlashga hissa qo‘shadi.

Aholining huquqiy ongini oshirishning shakllari va usullari:

Huquqiy ta’lim va tarbiya aholining huquqiy ongini oshirishning eng muhim shakllaridan biridir. Huquqiy ta’lim maktablarda, kollejlarda, universitetlarda va boshqa ta’lim muassasalarida olib boriladi. Uning maqsadi o‘quvchilarga huquqiy bilimlar berish, huquqqa hurmat ruhida tarbiyalash va huquqiy xulq-atvorni shakllantirishdan iborat.

Huquqiy targ‘ibot va tashviqot ommaviy axborot vositalari orqali, targ‘ibot guruhlari orqali va boshqa usullar bilan amalga oshiriladi. Uning maqsadi aholini huquqiy yangiliklar bilan tanishtirish, qonunlarni tushuntirish va huquqiy masalalar bo‘yicha ma’lumot berishdan iborat.

Huquqiy maslahat va yordam aholiga bepul yoki arzon narxlarda huquqiy masalalar bo‘yicha maslahatlar berish va yordam ko‘rsatishdan iborat. Huquqiy maslahatni advokatlar, yuristlar va huquqshunoslar berishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari aholining huquqiy ongini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular huquqiy ma’rifat loyihalarini amalga oshiradi, seminarlar va treninglar o‘tkazadi va aholiga huquqiy maslahatlar beradi.

Zamonaviy texnologiyalar (onlayn platformalar, mobil ilovalar) aholining huquqiy ongini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Internet orqali huquqiy ma’lumotlarni tarqatish, onlayn maslahatlar berish va huquqiy testlar o‘tkazish mumkin.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, jamoat xavfsizligiga zamonaviy tahdidlarni oldini olishda aholining huquqiy ongini oshirish muhim ahamiyatga ega. Huquqiy ong nafaqat huquqbuzarliklarni oldini olishga yordam beradi, balki fuqarolarning huquqiy faolligini oshiradi, qonun ustuvorligini ta’minlaydi va jamiyatda barqarorlikni mustahkamlaydi.

Tadqiqot davomida “huquqiy ong”, “huquqiy madaniyat” va “huquqiy ma’rifat” tushunchalari aniqlashtirildi va ularning o‘zaro bog‘liqligi ko‘rsatildi. Shuningdek, jamoat xavfsizligiga zamonaviy tahdidlarning turlari tahlil qilindi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi. O‘zbekistonda jamoat xavfsizligiga tahdid solayotgan asosiy omillar ko‘rsatib o‘tildi.

Tadqiqot davomida ilgari surilgan faraz qisman tasdiqlandi. Aholining yuqori darajadagi huquqiy ongi jamoat xavfsizligiga zamonaviy tahdidlarni oldini olishda muhim rol o‘ynaydi, lekin bu yagona omil emas. Boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham jamoat xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida aholining huquqiy ongini oshirish bo‘yicha quyidagi takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. **Huquqiy ta’limni takomillashtirish.** Maktablarda, kollejlarda va universitetlarda huquqiy ta’lim sifatini oshirish, o‘quv dasturlariga zamonaviy tahdidlar haqida ma’lumotlarni kiritish va interaktiv o‘qitish usullaridan foydalanish zarur.
2. **Huquqiy targ‘ibotni kuchaytirish.** Ommaviy axborot vositalarida huquqiy mavzularda sifatli va qiziqarli materiallar e’lon qilish, huquqiy teleko‘rsatuvlar va radioeshittirishlar tashkil etish, ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanish lozim.
3. **Huquqiy maslahat xizmatlarini kengaytirish.** Aholiga bepul huquqiy maslahat beradigan punktlarni ko‘paytirish, onlayn maslahat

xizmatlarini tashkil etish va advokatlarning bepul yordamini ta’minlash kerak.

4. **Nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash.** Aholining huquqiy ongini oshirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarini moddiy va texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyatini rag‘batlantirish zarur.

5. **Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.** Aholining huquqiy bilimlarini oshirish uchun mobil ilovalar, onlayn platformalar va interaktiv o‘yinlar yaratish, ularni keng tarqatish va aholi orasida ommalashtirish lozim.

6. **Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.** Huquqni muhofaza qiluvchi organlar aholining huquqiy ongini oshirish bo‘yicha tadbirlarda faol ishtirok etishi, huquqiy ma’rifat loyihalarini qo‘llab-quvvatlashi va aholiga huquqiy masalalar bo‘yicha yordam berishi zarur.

7. **Huquqiy madaniyatni rivojlantirish.** Aholining huquqiy madaniyatini rivojlantirish uchun teatr tomoshalari, filmlar, ko‘rgazmalar va boshqa madaniy tadbirlar tashkil etish, huquqiy mavzularda kitoblar va jurnallar nashr etish lozim.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo‘nalishlar taklif etiladi:

- Aholining huquqiy ongiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni chuqur o‘rganish.
- Huquqiy ma’rifatning samarali usullarini aniqlash bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish.
- Turli guruhlar (yoshlar, ayollar, keksa avlod vakillari) uchun mo‘ljallangan huquqiy ma’rifat dasturlarini ishlab chiqish.
- O‘zbekistonning xorijiy davlatlar bilan huquqiy ma’rifat sohasidagi hamkorligini kengaytirish.
- Jamoat xavfsizligiga zamonaviy tahdidlarning oldini olishda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini o‘rganish.

Ushbu tadqiqot natijalari davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va huquqshunoslar tomonidan aholining huquqiy ongini oshirish bo‘yicha siyosat va dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilishi

mumkin. Aholining yuqori darajadagi huquqiy ongi jamoat xavfsizligini ta’minlashga, qonun ustuvorligini mustahkamlashga va jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.
3. “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
5. Boboyev H. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat. - Toshkent: Adolat, 2002.
6. Saidov A. Huquqiy ma’rifat: nazariya va amaliyot. - Toshkent: TDYU, 2010.
7. Dworkin R. Taking Rights Seriously. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1977.
8. Rawls J. A Theory of Justice. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1971.
9. Weber M. Economy and Society. - Berkeley: University of California Press, 1978.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING OBYEKTLARI VA SUBYEKTLARI

Turanov Y.Y.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Farg‘ona mintaqaviy o‘quv markazi boshlig‘i o‘rinbosari, mayor.

Jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta’mishlash, shu jumladan, ularning obyekt va subyektlari bir-biri bilan uzviylikda, jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalaridagi munosabatlar bilan bog‘liq holda ijtimoiy-gumanitar va huquqiy fanlar tomonidan kompleks o‘rganilishini taqozo etayotgan hamda bugungi kunda muomalada juda ham ko‘p qo‘llanilayotgan murakkab tizim hisoblanadi. Shuning uchun ham “milliy xavfsizlikni ta’minlash nazariyasi – milliy manfaatlar, inson, jamiyat va davlatning turli xil tajovuz va tahdidlardan

himoyalanganlik holatini o‘rganuvchi fundamental fanlarning predmetlararo yo‘nalishidir”.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashning obyektlari va subyektlari hamda ularning aloqadorligi haqida fikr yuritganda, avvalambor, biz ko‘rib chiqayotgan mavzuning tarkibini tashkil etuvchi “jamoat”, “xavfsizlik”, “ta’minlash”, “obyekt”, “subyekt”, “aloqa” kabi so‘zlarning etimologik ma’nosiga murojaat qilishimiz maqsadga muvofiq. O‘zbek tilining izohli lug‘atiga muvofiq: “jamoat – arabcha so‘z bo‘lib, birlashma, uyushma, guruh, ko‘pchilikka, ya’ni ommaga tegishli” [2, b. 68];

“xavfsizlik – bu xavf-xatarning yo‘qligi, xavf bo‘lmagan holat” [3, b. 372];

“ta’minlash – o‘zagi arabcha “ta’min” so‘zidan olingan bo‘lib, ta’min qilmoq, biror narsaning amalga oshishi, ro‘yobga chiqishi, muhayyo bo‘lishi uchun zarur sharoit yaratmoq” [3, b. 28] ma’nolarini anglatadi.

Ensiklopedik lug‘atlarda ko‘rsatilganidek: “obyekt (lot. objectum – narsa) – subyektga, insonning amaliy va bilish faoliyati, shuningdek, qonun bilan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga qarshi qaratilgan obyektiv reallik (huquqda)” [4], “subyekt (lot. subjectum “tagida yotuvchi; asosida mavjud”) – faoliyatni, ongni va bilishni olib yuruvchi; shaxs, tashqi dunyoni (obyekt) va unga o‘zining amaliy faoliyati bilan ta’sir qiluvchi; o‘rganilayotgan yoki o‘zgartirilayotgan obyektga qarshi qo‘yilayotgan inson yoki shaxslar birlashgan guruh (masalan, ilmiy jamoa), jamiyat, madaniyat yoki hatto butun insoniyat” [5]. Huquq nazariyasida, xususan, huquqni muhofaza qilish asoslari fanida jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlashning asosiy “obyektlariga:

shaxs – uning huquq va erkinliklari;

jamiyat – uning moddiy va ma’naviy boyliklari;

davlat – uning konstitutsion tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligi kirishi”, “subyekti bo‘lib, bu sohada davlat hokimiyati organlari orqali faoliyatni amalga oshiruvchi davlat hisoblanishi” e’tirof etiladi [6].

Boshqa bir manbadagi milliy xavfsizlik nazariyasida: “shaxs(uning huquq va erkinligi), jamiyat(moddiy va ma’naviy boyliklari), davlat(uning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligi) asosiy obyekt”, “milliy xavfsizlik sohasidagi funksiyasini qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari orqali amalga oshiruvchi davlat asosiy subyekt” etib belgilangan [1, b. 20].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “aloqa – arabcha so‘z bo‘lib, bog‘lanish, munosabat”, “aloqador – munosabati, aloqasi bo‘lgan; daxldor”

[7, b. 74] ma’nosini anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida jamoat xavfsizligini ta’minlash obyektlari alohida ajratib ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, lekin bu sohada faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlar sifatida maxsus vakolatga ega bo‘lgan organlar hamda mazkur jarayonda ishtirok etuvchilar aniq belgilangan. Milliy xavfsizlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan jamoat xavfsizligini ta’minlashning obyektlari va subyektlarini aniq belgilashda “jamoat xavfsizligi” va “jamoat xavfsizligini ta’minlash” tushunchalari haqidagi birinchidan, huquq nazariyasidagi mavjud yondashuvlar va qarashlar, ikkinchidan, milliy huquq tizimidagi ularga berilgan ta’riflar, uchinchidan, mazkur sohadagi amaliy faoliyat asos bo‘ladi. Tadqiqotlarda, “jamoat xavfsizligi” tushunchasini tadqiq qilishga turlicha yondashuv bo‘lganligi va ta’riflar berilganligi e’tirof etiladi [8]. Yagona yondashuv va ta’riflarning mavjud emasligi obyektiv (tabiiy) holat bo‘lib, u birinchidan, tadqiqot o‘tkazilgan davrga xos bo‘lgan xususiyatlar bilan, ikkinchidan, tadqiqot bilan qamrab olingan obyekt va predmetlarning holati bilan, uchinchidan, bu sohadagi davlat siyosati va jamiyat ehtiyoji bilan bog‘liqdir. Mazkur yondashuv va ta’riflar albatta, ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi munosabatlar natijasi sifatida “jamoat xavfsizligi”ni o‘ta ta’sirchan va o‘zgaruvchan, shu bilan bir vaqtda, jamiyat va uning barcha tarkibiy qismlariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi murakkab tizim sifatida har tomonlama va mukammal o‘rganish imkonini beradi.

Shuni alohida qayd etish joizki, jamoat xavfsizligining obyektlari va subyektlarini “jamoat xavfsizligi”, “jamoat xavfsizligini ta’minlash” va ular bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalar haqidagi fikrlarga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Jamoat xavfsizligi konsepsiyasidagi:

a) asosiy tushunchalar;

b) jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi milliy manfaatlar;

v) davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari;

g) prinsiplari;

d) uni ta’minlash tizimi haqidagi qoidalarga;

e) shuningdek, bugungi kunda O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar bo‘yicha qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarga;

j) bu sohadagi amaliyot tahlillari natijalariga asoslangan holda yoritishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasiga muvofiq:

jamoat xavfsizligi – jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan (keyingi o‘rinlarda – tahdidlar) himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi;

jamoat xavfsizligini ta’minlash – davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim [9].

Jamoat xavfsizligini ta’minlash davlatning, xususan, uning organlarining bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan:

a) fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni, davlat suverenitetini, hududiy yaxlitligini himoya qilish;

b) qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini ta’minlash;

v) jamoat tartibini saqlash, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish, davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan obyektlarni qo‘riqlash [10; 11; 12] va boshqa shu kabi asosiy vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mazkur vazifalar birinchidan, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni samarali tartibga solish; ikkinchidan, xavfsiz bino, inshoot, tarmoq va hududlarni barpo etish; uchinchidan, obyektiv va subyektiv xususiyatga ega bo‘lgan ichki hamda tashqi tahdid va tajovuzlarning oldini olish, zararsizlantirish, bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ta’minlanmoqda. Shuni alohida ta’kidlash joizki, jamoat javfsizligini ta’minlash obyektlarini aniq va to‘liq qamrab olishga bu sohasidagi milliy manfaatlar:

- jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash;
- aholining huquqiy ongi va siyosiy-huquqiy madaniyatini, siyosiy hamda ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas’uliyatini oshirish asosida mamlakatda huquqiy jamiyatni barpo etish va mustahkamlash;
- huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurish, davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini mustahkamlash, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish;
- mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalarining

faol va bunyodkor rolini, jamiyat va davlatning o‘zaro hamkorligi samaradorligini oshirish;

- jamiyatda millatlararo va dinlararo munosabatlarni, diniy bag‘rikenglik madaniyatini, do‘stlik, o‘zaro hamkorlik va gumanizmni har tomonlama mustahkamlash; - dunyoda doimiy ravishda kechayotgan o‘zgarishlar va ular bilan bog‘liq real hamda ehtimoliy tahdidlar sharoitida jamiyatning o‘zligini (tili, madaniyati, ijtimoiy tuzilishi, milliy o‘ziga xosligi va dinini), ya’ni o‘zini-o‘zi saqlab qolish qobiliyati va salohiyatini mustahkamlash [9] asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, mustaqillik yillarida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, Harakatlar strategiyasiga asosan, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini isloh qilish bo‘yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq “Xavfsiz turizm” [13; 14], “Xavfsiz shahar” [15], “Xavfsiz poytaxt” [16], “Odob va xavfsiz mahalla” [17] konsepsiyalarining bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganligi, “mintaqa xususiyatlari” [18], yagona “poytaxt tamoyili”, “xavfsiz ta’lim muassasasi” [19] tamoyillari, “xavfsiz xonadon”, “xavfsiz hovli” [20] tizimi, “fuqarobay”, “oilabay”, “mahallabay” ishlash tizimlari [21; 22; 23, b. 87], “hudud metodikasi” [24] asosida tashkil etishning joriy etilayotganligi mamlakatimizda aholining tinch va osoyishta hayotini hamda jamiyatda barqaror taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qilib kelmoqda.

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlashning yaxlit tizimi shakllangan bo‘lib, uning tarkibida 2017 yil avgust oyida Milliy gvardiya mamlakat Qurolli Kuchlarining mustaqil qo‘shin turi sifatida tashkil etildi [25], 2020 yil 18 noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi [11], shuningdek, 2018 yil 1 iyuldan ularning ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda [16], O‘zbekiston Respublikasining Jamoat xavfsizligi konsepsiyasiga muvofiq esa o‘zlariga biriktirilgan obyekt va hududlarda jamoat tartibi hamda xavfsizligini ta’minlashdagi faoliyati bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilmoqda [9].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar talablaridan kelib chiqqan holda jamoat xavfsizligining obyektlari va subyektlari o‘zaro aloqadorligini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

a) ijtimoiy hayotning turli sohalarida vujudga keladigan munosabatlar, shu jumladan, barcha tarmoq, tizim, obyekt va hududlarda xavfsizlik talab va qoidalarini o‘rnatish, ularga rioya etilishini ta’minlash

jarayoni, shuningdek, ularning to‘liq va samarali tartibga solinmasligi yoki amalga oshirilmasligi hamda tabiiy va ekologik jarayonlar natijasi(oqibati)da kelib chiqadigan tahdid va tajovuzlar jamoat xavfsizligini ta’minlashning obyektlari hisoblanadi;

b) ushbu yo‘nalishlarda sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarlik va jinoyatlar uchun aybdorlarga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta’minlash bo‘yicha faoliyat olib boruvchi vakolatli davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari hamda ishtirok etuvchi fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolar jamoat xavfsizligini ta’minlashning subyektlari hisoblanadi;

v) jamoat xavfsizligini ta’minlash obyektlarining haqiqiy holatini bilish bir tomondan ularga ta’sir etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlar tarkibini, vazifa va vakolatlarini aniqlashtirishga, ikkinchi tomondan, ularning faoliyati samaradorligini oshirish va bugungi kun talablariga javob bera oladigan tizim yaratish istiqbollarini belgilashga xizmat qiladi;

g) jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlar tizimi, vazifa va vakolatlarini, shuningdek, faoliyat yo‘nalishlarining haqiqiy holatini bilish jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi bo‘shliq va ziddiyatlarni bararaf etish, barcha soha, tizim, obyekt va hududlarda xavfsizlik talab va qoidalarini, ularni o‘rnatish hamda ularga rioya etish jarayonini, shuningdek, mavjud tajovuz va tahdidlarni o‘z vaqtida aniqlash, oldini olish, zararsizlantirish, bartaraf etish, ularga qarshi kurashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, xavfsizlik nazariyasidagi yondashuv, qoida, fikr va mulohazalardan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi va uni amalga oshirish strategiyasini, shuningdek, Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq belgilangan 100 maqsadni amalga oshirish bo‘yicha belgilangan kompleks chora-tadbirlardan kelib chiqqan holda jamoat xavfsizligini ta’minlashning obyektlari va subyektlari shartli ravishda bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan:

a) ijtimoiy munosabatlar – umumiy; bino, inshoot, tarmoq va hududlar – maxsus; tahdid va tajovuzlar, ularning sabab va sharoitlari hamda manbalari – xususiy obyektlarga;

b) davlatning jamoat xavfsizligi sohasidagi siyosatini belgilovchi – umumiy; bino, inshoot, tarmoq va hududlarda xavfsizlik talablari va qoidalariga rioya etishni ta’minlash bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshiruvchi – maxsus; tahdid va tajovujlardan himoya qilishni ta’minlash

bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshiruvchi – muhofaza qiluvchi subyektlarga ajratgan holda o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash – bu keng qamrovli va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki jamiyatning har bir fuqarosi ishtirokini talab qiladi. Subyekt va obyektlar o‘rtasidagi samarali hamkorlik, axborot almashinuvi, o‘zaro ishonch va mas’uliyat tuyg‘usi xavfsiz muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Takliflar:

Jamoat xavfsizligi sohasida axborot almashinuvi tizimini raqamlashtirish va avtomatlashtirish.

Fuqarolarning huquqiy ongini oshirish maqsadida muntazam targ‘ibot ishlarini olib borish.

Subyektlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish uchun qo‘shma treninglar va seminarlar tashkil qilish.

Xususiy xavfsizlik subyektlarining davlat organlari bilan hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Общая теория национальной безопасности/Под общ. ред. А.А. Прохожева – М.: Издателство РАГС, 2005. – 344 с.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 ga yaqin so‘z va so‘z birikmasi. Mas’ul muharrir A.Madvaliyev. – T.: “O`zbekiston nashriyoti” davlat unitar korxonasi, 2020. – 608, 672 b.

3. Obyekt // URL: https://huquqiyportal.uz/ru/dictionary/index?

4. Subyekt (filosofiya) // URL:https://ru.wikipedia.org/wiki/Subyekt

5. Субекты и объекты обеспечения общественного порядка и общественной безопасности

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 ga yaqin so‘z va so‘z birikmasi. A.Madvaliyev.– T.: “O`zbekiston nashriyoti”, 2020. – 680 b.

7. Joldasov A. F. Jamoat xavfsizligi: tushunchasi, ta’rifi va o‘ziga xos xususiyatlari //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 12. – S. 1163- 1174.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi PF-27-sonli Farmoni

9. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-sonli Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 14.03.2022 y., 03/22/759/0213-son.

10. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 18 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647-sonli Qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.11.2020 y., 03/20/647/1569-son.

11. O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 5 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-471-sonli Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 23 noyabrdagi “Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 939-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.07.2020 y., 09/20/429/1039-son.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 martdagi “Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4229-sonli qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.01.2022 y., 06/22/52/0029-son.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 avgustdagi “Axborotkommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyiha boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3245-sonli qarori [Elektron manba] // URL: https://lex.uz/docs/3324016 (murojaat etilgan vaqt 10.08.2022 y.).

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 iyundagi “Toshkent shahrida jamoat tartibini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3786-sonli qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH YO‘LLARI

Mirzaxo‘jayev M.D.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi unversiteti
ITFTEB ofitseri, katta leytenant

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni, ularning huquqiy maqomi va amaliy faoliyati tahlil qilinadi. Muallif fuqarolik jamiyati subyektlarining xavfsizlik sohasidagi ishtirokini kuchaytirish, davlat va nodavlat sektor o‘rtasidagi

ijtimoiy sheriklikni mustahkamlash, qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar beradi. Xalqaro tajriba hamda O‘zbekiston amaliyoti asosida tahlillar o‘tkazilib, ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Fuqarolik jamiyati, jamoat xavfsizligi, huquqiy maqom, nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy sheriklik, xavfsizlik siyosati, davlat boshqaruvi.

Zamonaviy davrda jamoat xavfsizligini ta’minlash masalasi nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki butun jamiyat, xususan, fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini talab qiladigan kompleks ijtimoiy-huquqiy muammoga aylanmoqda. Rivojlangan demokratik davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xavfsizlikka tahdid soluvchi omillarga samarali qarshi turishda fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, mahalla institutlari, volontyorlar harakati va boshqa fuqarolik tuzilmalari orqali ijtimoiy nazorat va jamoatchilik fikri muvozanatli xavfsizlik siyosatini shakllantirishda faol rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasida ham fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, uni davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kuchaytirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.[1] Ayni paytda, fuqarolik jamiyati institutlarining jamoat xavfsizligidagi huquqiy maqomi, ularning faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza va amaliy hamkorlik mexanizmlari hanuzgacha to‘liq shakllanmagan. Bu esa mavjud salohiyatdan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda.

Ushbu maqola doirasida fuqarolik jamiyati institutlarining jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni, ularning huquqiy maqomi va bu boradagi ishtirokini kuchaytirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida mavjud huquqiy mexanizmlar solishtirilib, O‘zbekiston uchun moslashtirilgan amaliy va normativ takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqotning dolzarbligi fuqarolik jamiyatining xavfsizlik sohasidagi rolini kuchaytirish orqali demokratik boshqaruv va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash ehtiyoji bilan belgilanadi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari:

Ilmiy adabiyotlarda “jamoat xavfsizligi” (public security) tushunchasi ko‘p jihatli, kompleks mazmunga ega bo‘lib, u jamiyatdagi huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni, shuningdek, shaxs, jamiyat va

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi PF–5430-sonli Farmoni – “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.

davlatning har qanday ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganligini anglatadi.[1] Jamoat xavfsizligi milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida ko‘riladi, lekin u ko‘proq fuqarolarning bevosita ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan sohalarni qamrab oladi: jamoat tartibi, huquqbuzarliklarning oldini olish, ijtimoiy nizolarni bartaraf etish, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va h.k.

Normativ-huquqiy yondashuvda esa, jamoat xavfsizligi davlatning konstitutsiyaviy funksiyalaridan biri sifatida qaraladi. Bu borada huquqiy davlat nazariyasida xavfsizlik – davlat tomonidan fuqarolarga taqdim etiladigan asosiy ijtimoiy kafolatlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Shu jihatdan, xavfsizlikni faqat kuch ishlatar tizimlar bilan emas, balki jamiyatning barcha subyektlari, xususan, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda ta’minlash zamonaviy huquqiy fikrda asosiy paradigma sifatida qaralmoqda.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi qadimgi yunon falsafasidan boshlab zamonaviy demokratik nazariyalargacha rivojlangan bo‘lib, u jamiyatning davlatdan mustaqil bo‘lgan, lekin ijtimoiy hayotda faol ishtirok etuvchi institutlar va munosabatlar tizimini anglatadi. J. Lokk, T. Gobbs, Sh. Monteske, A. de Tokvil singari mutafakkirlar bu tushunchani ijtimoiy shartnoma nazariyalari orqali asoslab berganlar. Hozirgi zamonaviy ilmiy talqinda esa fuqarolik jamiyati – bu nodavlat, notijorat, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish asosidagi institutlar tizimi sifatida tushuniladi.

Huquqiy nuqtai nazardan, fuqarolik jamiyati institutlari davlat tuzilmalariga qaraganda mustaqil bo‘lishi, lekin qonunchilik asosida faoliyat yuritishi kerak. Ular o‘z faoliyatini fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning manfaatlarini ifoda etish va himoya qilish, ijtimoiy nazoratni amalga oshirish, hamda jamiyatda mas’uliyatli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga qaratadi. Nodavlat notijorat tashkilotlari, mustaqil OAV, kasaba uyushmalari, diniy tashkilotlar, volontyorlik guruhlari va mahalla fuqarolar yig‘inlari fuqarolik jamiyati institutlarining asosiy shakllari hisoblanadi.[2]

Jamoat xavfsizligi va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik shundan iboratki Jamoat xavfsizligini ta’minlashda faqat davlat organlari emas, balki jamiyatning o‘zi, uning faolligi, ijtimoiy mas’uliyati va birdamligi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat, ayniqsa, xavfsizlikning ijtimoiy komponentini — ya’ni jinoyatchilikning oldini

[1] Zokirov, B. (2019). Huquq nazariyasi. Toshkent: TDYUU nashriyoti.
[2] O‘zbekiston Respublikasining “Mahalla to‘g‘risida”gi Qonuni (2021-yil 15-aprel, O‘RQ–682-son)

olish, huquqbuzarliklarning profilaktikasi, ijtimoiy himoya, axborot xavfsizligi, ekologik xavfsizlik kabi sohalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Aynan shu yo‘nalishlarda fuqarolik jamiyati institutlari samarali ishtirok eta oladi. Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, fuqarolik jamiyati institutlarining xavfsizlik sohasidagi ishtiroki quyidagi yo‘nalishlarda muhim ahamiyat kasb etadi:

- Jamoat tartibini saqlashda aholini jalb etish;
- Jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish;
- Favqulodda vaziyatlarda aholiga ko‘mak ko‘rsatish;
- Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish;
- Davlat organlari ustidan fuqarolik nazoratini ta’minlash.

Albatta yuqoridagi fikrlardan ham yaqqol ko‘rinib turibdiki Jamoat xavfsizligini ta’minlashda bevosita fuqorolik jamiyati institutlarini ro‘li juda hama katta ahamiyat kasib etadi.

G‘arb davlatlarida fuqarolik jamiyati institutlari jamoat xavfsizligi sohasida keng vakolatlarga ega. Masalan, Buyuk Britaniyada “Neighbourhood Watch” (Mahalla kuzatuvi) tizimi aholining jinoyatchilikning oldini olishdagi faol ishtirokini rag‘batlantiradi, davlat organlari esa ularning tashabbuslarini huquqiy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlaydi[1] O‘zbekistonda esa mahalla fuqarolar yig‘inlari qonunchilik asosida jamoat xavfsizligi jarayonlariga jalb etilgan bo‘lsa-da, ularning real vakolatlari cheklangan va amalda davlat organlarining qarorlarini faqat ijrochi yoki maslahat darajasida qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa huquqiy normalarda qat’iy aniqlik yetishmasligini ko‘rsatadi.

Germaniyada NNTlar va volontyorlik tashkilotlari jamoat xavfsizligiga oid faoliyati uchun maxsus grant tizimlari va davlat kafolatlangan moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanadi.[2] O‘zbekistonda esa ularning tashabbuslari ko‘pincha donorlar yoki homiylik mablag‘lariga bog‘langan bo‘lib qolmoqda. Bu barqarorlikni pasaytiradi va fuqarolik jamiyati institutlarining xavfsizlik siyosatidagi rolini zaiflashtiradi.

AQShda Freedom of Information Act (FOIA) asosida davlat organlari faoliyatining ochiqligi ta’minlanadi va fuqarolik jamiyati institutlari politsiya, xavfsizlik xizmati, hatto favqulodda vaziyatlarni boshqarish

[1] Putnam, R. D. (2000). Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. New York: Simon & Schuster.
[2] European Union Agency for Fundamental Rights (FRA). (2017). Civil Society Space: Strengthening the Role of NGOs in Public Safety. Vienna.

jarayonlarini ham monitoring qilish imkoniyatiga ega.[1] O‘zbekistonda “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonun mavjud bo‘lsa-da, uning xavfsizlik sohasi bo‘yicha tatbiqi sust ishlamoqda. Bu esa davlat va jamiyat o‘rtasidagi ochiqlikni cheklab qo‘yadi.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda ushbu sohada albatta muammolar ham uchrab turibmiz shular jumlasiga. Fuqarolik jamiyati institutlarining vakolatlari aniq chegaralanmagan NNTlar, mahallalar, kasaba uyushmalari, yoshlar va xotin-qizlar tashkilotlari huquqiy jihatdan jamoat xavfsizligida ishtirok etishi mumkin, biroq amaliyotda ularning rolini belgilovchi aniq huquqiy normalar sust. Masalan, ommaviy tadbirlar xavfsizligini baholashda yoki jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ular faqat maslahat darajasida qatnashmoqda. Amaldagi qonunchilikda fuqarolik jamiyati institutlarining jamoat xavfsizligiga oid faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlari to‘liq ishlab chiqilmagan.[2] Natijada ularning tashabbuslari ko‘p hollarda grant yoki homiylik mablag‘lariga qaram bo‘lib qolmoqda.

“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonun mavjud bo‘lsa-da, xavfsizlik sohasida u amalda kuchsiz ishlamoqda.[3] Masalan, ichki ishlar organlari faoliyati yoki ommaviy tadbirlarni tashkil qilishda qabul qilingan qarorlarning shaffofligi fuqarolik jamiyati tomonidan keng nazorat qilinmaydi.

Xulosa qilib aytganda O‘zbekiston qonunchiligida fuqarolik jamiyati institutlarining jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi huquqiy maqomi borasida sezilarli bo‘shliqlar mavjud. Ular asosan normativ bazaning tarqoqligi, vakolatlarning noaniqligi, resurslarning cheklanganligi va jamoatchilik nazoratining sustligi bilan bog‘liq. Yechim sifatida tizimli kodekslashtirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, maxsus moliyaviy fondlar yaratish va xalqaro tajribani huquqiy asosga kiritish talab etiladi. Shu yo‘l bilan fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki davlat organlari faoliyatini to‘ldiruvchi emas, balki hamkorlik asosidagi muhim mexanizm sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.

[1] Bayley, D. H. (1994). Police for the Future. Oxford: Oxford University Press.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-maydagi 205-son qarori – “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom”.

[3] O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni (2014-yil 12-aprel, O‘RQ–371-son).

2. O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni. (1999-yil 14-aprel). O‘RQ–763-son. Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Mahalla to‘g‘risida”gi Qonuni. (2021-yil 15-aprel). O‘RQ–682-son. Toshkent.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni. (2014-yil 12-aprel). O‘RQ–371-son. Toshkent.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2018-yil 29-may). 205-son qaror – ***Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom***. Toshkent.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2018-yil 4-may). PF–5430-son Farmon – ***Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida***. Toshkent.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022-yil 28-yanvar). PF–60-son Farmon – ***2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida***. Toshkent.
8. Zokirov, B. (2019). ***Huquq nazariyasi***. Toshkent: TDYUU nashriyoti.
9. Abdullayev, A. X. (2021). ***Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat: nazariy va amaliy masalalar***. Toshkent: TDYUU nashriyoti.
10. Qosimov, A. (2022). ***O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlashning huquqiy asoslari***. Toshkent: Akademiya nashriyoti.

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISH VA OLDINI OLISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

To‘ychiyev S.U.
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Jizzax mintaqaviy o‘quv markazi “Huquqiy fanlar” sikli katta o‘qituvchisi, kapitan

Annotatsiya: Hozirgi kunda qonun ustuvorligini ta’minlash, jinoyatchilikning oldini olish va kamaytirishni nazarda tutuvchi huquqni muhofaza qilish organlarining ahamiyati ortib bormoqda. Jinoyatchilikning kuchayib borayotgan tendentsiyalarini hisobga olgan holda, davlatning asosiy vazifalaridan biri jinoyatchilikning oldini olish va oldini olish hisoblanadi. So‘nggi paytlarda ushbu muhim sohada davlat sa’y-harakatlarini jamlash choralari ko‘rildi. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Jinoyat-ijroiya kodekslari jinoyatchilikka qarshi kurashni huquqiy ta’minlashda alohida o‘rin egallashga chaqirilgan

Kalit so‘zlar: profilaktika,ijtimoiy- huquqiy, kriminogen obyektlar.

Jinoyatchilikka qarshi kurash quyidagi uchta quyi tizimning birligini ifodalovchi murakkab tizimli faoliyatdir: kurashni umumiy tashkil etish; jinoyatlarning oldini olish va huquqni muhofaza qilish. Bu “Qonun ustuvorligini va u bilan himoyalangan manfaatlar, qadriyatlar va xulq-atvor normalarini ta’minlash maqsadida jamiyat va jinoyatchilik o‘rtasidagi faol to‘qnashuvni ifodalaydi, bu jamiyatning jinoyatning o‘ziga, uning sabablari va shartlariga qarshi maqsadli tajovuzkor faoliyatidir”.

“Kurash”biror narsani to‘liq yo‘q qilishni, yo‘q qilishni anglatadi. Jinoyatni butunlay yo‘q qilish mumkinmi? Ingliz tarixchisi va faylasufi Genri Bakl shunday yozgan edi: “Jamiyat jinoyat tayyorlaydi, jinoyatchi uni qiladi”. Professor I.I.Karpets ta’kidlaydi:"Jinoyat har qanday jamiyatga xosdir". Shunga ko‘ra, savol tug‘iladi: jinoyatchilikni butunlay yo‘q qilish mumkinmi? Kriminologlar bu savolga shunday javob berishadi: insoniyat o‘zining uzoq tarixi davomida jinoyatlar va jinoyatlarsiz o‘zini eslayolmaydi. Shungako‘ra, jinoyatchilik ustidan mutlaq g‘alabaga erishib bo‘lmaydi, lekin jinoyatchilikka qarshi kurash jinoyatchilikning o‘sishini jilovlash va uning kengayishiga yo‘l qo‘ymaslik imkonini beradi.

Jinoyatga qarshi kurashning eng insonparvar vositasi bu profilaktikadir, chunki u jazoni emas, balki oldini oladi. "Profilaktika" atamasi bilan bir qatorda "oldini olish" atamasi ham qo‘llaniladi. Kriminologik adabiyotda ba’zi mualliflar ularni mustaqil deb hisoblaydilar, ularga turli xil ma’nolar qo‘shadilar. Aksariyat mualliflar bu atamalarni ekvivalent va shuning uchun bir-birini almashtirish mumkin deb hisoblashadi, chunki "oldini olish" atamasining o‘zi tom ma’noda biror narsani oldini oladigan yoki himoya qiladigan chora-tadbirlar majmuini anglatadi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish - bu ushbu faoliyat jarayonida va uning natijalarida birlashtirilgan o‘zaro bog‘liq elementlar tizimi,

a) huquqbuzarliklarning oldini olishga ijtimoiy-huquqiy tartibga solish va halollik bilan boshqarishning alohida sohasi sifatida yondashish,

b) jamiyatning barcha sohalarini profilaktika faoliyati bilan qamrab olish,

c) kriminogen jarayonlar va obyektiv xarakterdagi hodisalarga shaxslar va jinoyatchilarga ta’sir qilish. jinoiy motivlar va xulq-atvor stereotiplarining paydo bo‘lishiga ushbu ta’sirni bostirish, zararsizlantirish va susaytirish uchun ularning ta’siri ostida shakllangan vaziyatlar,

e) kriminogen jarayonlar va hodisalarga cheklovchi va bostiruvchi ta’sirlarning kombinatsiyasi,

f) profilaktikaga ixtisoslashgan tashkiliy tuzilmalarni maqsadli rivojlantirish. Huquqbuzarliklar profilaktikasi-davlat organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar va jamoat birlashmalari tomonidan jinoiy obyektlarga ularni cheklash, yo‘q qilish yoki zararsizlantirish maqsadida ta’sir qilish bo‘yicha ko‘p bosqichli chora-tadbirlar tizimi. Kriminogen obyektlar deganda salbiy ijtimoiy jarayonlar, ularning o‘zaro aloqalari va hodisalari tushuniladi, ularning o‘zaro ta’siri jinoyatni keltirib chiqaradi va belgilaydi.

Huquqbuzarlikning oldini olish - davlat va jamiyatning jinoyatchilikka qarshi qaratilgan, uni yuzaga keltiruvchi sabablarni bartaraf etish yoki zararsizlantirish orqali uni ijtimoiy toqat qilinadigan darajada saqlashga qaratilgan faoliyati.

Huquqbuzarliklarning oldini olish - bu quyidagilarga qaratilgan chora-tadbirlar va ularni amalga oshiruvchi subyektlarning ko‘p bosqichli tizimi:

a) jinoyatning sabablarini, uning alohida turlarini, shuningdek ularga yordam beradigan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish yoki zaiflashtirish va zararsizlantirish;

b) aniqlash va bartaraf etish. muayyan hududlarda yoki muayyan muhitda jinoyat sodir etishga bevosita turtki bo‘lgan yoki qo‘zg‘atadigan holatlar,

c) aholi tarkibida jinoyat xavfi kuchaygan guruhlarni aniqlash va bu xavfni kamaytirish,

d) xatti-harakatlari jinoyatsodir etishning real imkoniyatini ko‘rsatadiganshaxslarni aniqlash. Biz yuqorida sanab o‘tilgan ta’riflarning har biri bilan rozimiz, ammo bizning fikrimizcha, yuqoridagi ro‘yxatdan profilaktika tushunchasi Kuznetsova N.F. Huquqbuzarliklarning oldini olish jamiyatimizning butun taraqqiyoti, uning iqtisodiyoti, mafkurasi, madaniyati, odamlar o‘rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlar bilan ta’minlanadi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish jarayonining muhim tarkibiy qismi bu shaxsni shakllantirish sohasida, uning faoliyati motivlarida, shuningdek jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan yoki osonlashtiradigan holatlar sohasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri kriminologik omillarni bartaraf etish va antikriminogen sharoitlarni ta’minlash bo‘yicha ixtisoslashtirilgan faoliyatdir. Yuqoridagi ta’riflarga muvofiq profilaktika belgilaridan biri tizimlilikdir.

Mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasining tizimliligi profilaktika faoliyatining turli darajalari – umumiy ijtimoiy, maxsus va individual birlashmasidan dalolat beradi.

Profilaktik chora-tadbirlarning tasnifi profilaktikaning murakkab ko‘p tomonlama tizimini tartibga solish va profilaktika faoliyatining turli subyektlarining roli va vakolatlarini aniq belgilash imkonini beradi. Profilaktik tadbirlarni rejalashtirish va tashkil etish vazifalariga eng mos keladigan tasnif quyidagi asoslarga asoslangan ko‘rinadi: profilaktika tadbirlarining ko‘lami, mexanizmi, hajmi, profilaktika tadbirlarining mazmuni, ularni amalga oshirish predmeti bo‘yicha. Profilaktik tadbirlar ko‘lamiga ko‘ra, chora-tadbirlarning uch guruhi ajratiladi: umumiy, maxsus va individual. Umumiy profilaktika jamiyatimiznirivojlantirish va har tomonlama takomillashtirishning butun jarayoni tomonidan izchil amalga oshiriladi. U ijtimoiy faoliyatning eng keng ko‘lamli, uzoq muddatli va samarali turlarini, eng yirik ijtimoiy tadbirlarni qamrab oladi. Bu hozirgi bosqichda jamiyatimizdagi deyarli barcha ijtimoiy- iqtisodiy o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi.

Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi tabiatan tabaqalashtirilgan bo‘lib, butun aholi yoki uning guruhlariga ta’sir qiladigan, umumiy iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa mezonlar bo‘yicha aniqlangan, jinoyat sodir etish ehtimolini keltirib chiqaradigan jinoyatni aniqlash va sabab bo‘lish jarayonlarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ifodalaydi Ushbu qonunning joriy etilishi jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qilganiga shubha bo‘lishi mumkinmi? Shunday qilib, voyaga yetmaganlar o‘rtasida ko‘rsatkichlar bo‘yicha ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning o‘sishi kamaydi. Shunga ko‘ra, ushbu qonunning kattalar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soniga ta’siri. Jinoyatlarning ayrim guruhlari va salbiy xulq-atvori bilan tavsiflangan shaxslar guruhlari doirasida maxsus chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Huquqbuzarliklarning maxsusp rofilaktikasida kriminologik tadqiqotlar asosida yuqori kriminogen va yuqori qurbonlikka ega bo‘lgani jtimoiy guruhlar, faoliyat sohalari va obyektlari aniqlanadi.

Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun maxsus ishlab chiqilgan va maqsadli chora-tadbirlar majmuini o‘z ichiga oladi. Uning asosiy belgilari:

a) jinoyatchilik, uning alohida turlari va alohida jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan maxsus ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning yo‘naltirilganligi, ya’ni. maqsadlar ko‘lami, ularning ahamiyatiga qaramay, umumiy ijtimoiy profilaktikani amalga oshiradigan chora-tadbirlardan sezilarli darajada kamroq;

b) maxsus profilaktika vositalarining arsenali umumiy ma’muriy va umumiy ta’lim choralariva ta’sir qilish uchun maxsus ishlab chiqilgan ijtimoiy-huquqiy chora-tadbirlarning o‘zaro ta’siri bilan tavsiflanadi. Jinoyat, uning alohida turlari yoki muayyan jinoyatlarning oldini olish,

v) jinoyatning alohida profilaktikasi subyektlari jinoyatchilikka qarshi kurash asosiy (asosiy vazifalaridan biri) bo‘lgan tashkiliy tuzilmalardir.

Huquqbuzarliklarning umumiy ijtimoiy va maxsus profilaktikasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir-birini mustahkamlovchi faoliyatni ifodalaydi. Shu bilan birga, maxsus chora- tadbirlarni ishlab chiquvchi organlar mamlakat yoki mintaqadagi ijtimoiy va jinoiy vaziyatni tahlil qilish asosida umumiy ijtimoiy darajadagi chora-tadbirlarni yaxshilash bo‘yicha takliflar kiritadi, chunki ular maxsus profilaktika uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. xususan, jinoyatning maxsus profilaktikasi subyektlari tomonidan qo‘shimcha maqsadli ko‘rsatkichlar va muayyan umumiy ijtimoiy hodisalarni ochadigan resurs imkoniyatlaridan foydalanish orqali. Huquqbuzarlikning yakka tartibdagi profilaktikasi – davlat va nodavlat organlari, tashkilotlar va ularning vakillarining qonun hujjatlariga muvofiq tuzilgan, xolisona belgilangan ma’lumotlarga ko‘ra jinoyat sodir etilishi kutilishi mumkin bo‘lgan shaxslarni aniqlash va ularga ijobiy tuzatish ta’sir ko‘rsatish bo‘yicha faoliyati. Ular va ularni o‘rab turgani jtimoiy mikro muhit.U shaxslarga nisbatan umumiy ijtimoiy va maxsus kriminologik choralarning spetsifikatsiyasini ifodalaydi.

Foydalanilganadabiyotlar:

1. Avezov G.A. Kriminologiya. Darslik2-nashr, qayta ishlangan va qo‘shimcha-M., 2021. 500 b.

2. Burxonov E.So‘zda fikr-M., 2023.589 b.
3. Berdiyev V.N.Kriminologiya darsligi-Peterburg nashriyoti,2023.304b.
4. Golodnyuk M.N.,Zubkova V.I. Jinoyatning oldini olish.-M.,1990.112b.
5. Dolgova A.I. Kriminologiya.-M.,2022.384b.
6. Qodirov V.V., Erkinov V.E.Kriminologiya. -M.:Yurist,2021. 512
7. Kuznetsova N.F.,Luneev V.V.Kriminologiya.2-nashr, qayta ko‘rib chiqilgan va qo‘shimcha – M.: 2022. 640 b.
8. Latipov V.V.Zamonaviy jinoyatchilik tendentsiyalari va O‘zbekistonda unga qarshi kurash. Davlat va huquq. - 2022. - 1-son.
9. Huquqbuzarliklarning oldini olishning nazariy asoslari /Rep.muharriri Zvirbul V.K.va boshqalar - M., 2017. 255 b.

SHAXSIY XAVFSIZLIK TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI

Raxmonov X.P.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada shaxsiy xavfsizlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarixiy shakllanish jarayoni va huquqiy ta’minlashning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda xavfsizlikning shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari bilan bog‘liqligi yoritilgan hamda turli mutaxassislarning shaxsiy xavfsizlikka bergan ta’riflari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, shaxsiy xavfsizlikni ijtimoiy, huquqiy va siyosiy jihatdan ta’minlashning dolzarbligi asoslab berilgan. Muallif tomonidan shaxsiy xavfsizlik insonning hayoti, salomatligi va erkinligini himoya qilishga qaratilgan tizimli faoliyat sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: shaxsiy xavfsizlik, xavfsizlik tushunchasi, huquqiy ta’minlash, milliy manfaatlar, shaxs erkinligi, jamiyat va davlat xavfsizligi, xavfsizlik tizimi, xavf-xatar va tahdidlar.

Bugungi kunda xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyojning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu esa iqtisodiyot, tashqi va ichki siyosat, jamoat xavfsizligi, huquq-tartibot, mudofaa hamda boshqa sohalarda xavfsizlik mezonlarini belgilash, kompleks chora-tadbirlar va samarali xavfsizlik

mexanizmlarini ishlab chiqishni yanada dolzarb masalaga aylantirmoqda. Shu bilan birga, ilmiy manbalarda xavfsizlik tushunchasiga oid turli qarashlar mavjud bo‘lib, tadqiqotchilar tomonidan unga xilma-xil ta’riflar berilganini ko‘rish mumkin.

P.G.Belov xavfsizlikni «millatning bugungi va kelajak avlodning asosiy qadriyatlariga minimal risk bilan mavjud bo‘lib, ko‘payish va takomillashish uchun zarur bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish qobiliyati» sifatida ta’riflaydi.

Fikrimizcha, xavfsizlikning asosiy obyekti normativ-huquqiy hujjatlarda aks ettirilgan «shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari» emas, balki o‘z turmush tarzi va hududiga ega fuqarolar bo‘lishi kerak. Biroq mazkur o‘rinda e’tiroz sifatida aynan shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari (qonuniy manfaatlari) davlatning asosiy qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo‘yilgan. Xavfsizlik subyektlariga tegishli manfaatlarning tegishli qonunchilik hujjatlarida belgilab qo‘yilishi, avvalo, ularni ta’minlashning huquqiy shart-sharoitlari mavjudligidan dalolat bersa, ikkinchidan, xavfsizlik subyektlari faoliyatini yengillashtiradi.

Xavfsizlik kategoriyalari qisqa, lo‘nda va aniq ta’rifga ega bo‘lishi lozim.

Chunki ular normativ-huquqiy hujjatlarda qayd etiladi va xavfsizlik subyektlari faoliyatini belgilab beruvchi hamda ular amal qilishi lozim bo‘lgan huquqiy kategoriyalarga aylanadi. Yuridik amaliyotdan kelib chiqib aytish mumkinki, shaxs, jamiyat va davlat tushunchalari yuridik ahamiyatga ega, keng tan olingan huquqiy kategoriyalar hisoblanadi.

Huquqiy toifa sifatida shaxsiy xavfsizlik – bu shaxsga nisbatan turli xil xavfsizlik turlarini (ekologik, iqtisodiy, siyosiy va boshqalar) huquqiy ta’minlash, xavfsizlik va uni amalga oshirishni o‘z ichiga olgan murakkab tizimli obyekt hisoblanadi. Shaxsiy xavfsizlik, shuningdek, jamoat munosabatlarining turli sohalarida shaxsning huquqiy doiradagi erkin xulq-atvori o‘lchovi sifatida ham tavsiflanishi mumkin.

Bundan tashqari, shaxsiy xavfsizlik – bu insonga sog‘liq va hayot jarayonida jismoniy erkinlikdan hech qanday cheklovsiz foydalanish imkoniyatini beradigan ijtimoiy ne’matdir.

Ayrim mutaxassislarning fikricha, shaxsiy xavfsizlik – bu insonning o‘zini va boshqalarni muammoli vaziyatda himoya qilishga tayyorligi va kishi hayotining muhim qismidir[1].

Boshqa tomondan rasmiy manbalarga ko‘ra, shaxsiy xavfsizlik – bu shaxsni psixologik, jismoniy yoki boshqa zo‘ravonlik hujumlaridan himoya qilish holati hisoblanadi[2].

Inson jinsi va irqidan qat’i nazar, biologik va ijtimoiy mavjudot bo‘lib, to‘la erkin bo‘lishi va turli ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchisi bo‘lishi uchun o‘z hayoti, salomatligi, jismoniy erkinligi daxlsizligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Hayot va salomatlik har qanday inson tanasining biologik funksiyalari sifatida va shunga mos ravishda uning asosiy shartlari va mavjud bo‘lish elementlari insonda uning erkin jismoniy faolligi va bevosita hayotiy faoliyatini tashkil etuvchi har qanday jismoniy faol yoki passiv harakatlarda tashqi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Huquq fanida insonning har qanday faoliyati erkinligi odatda jismoniy erkinlik deb ataladi. E.A. Lukashevaning fikricha[3], insoniyatning erkinlik yo‘lida rivojlanishi bilan davlatning qudratini cheklash, kishilarni davlat organlari va mansabdor shaxslarning o‘zboshimchalik harakatlaridan himoya qilish va shaxsga o‘zini o‘zi boshqarishning eng keng maydoni bilan ta’minlash istagi paydo bo‘ladi.

Insonning hayoti, salomatligi va jismoniy erkinligi jinsi va irqidan qat’i nazar, insonga tegishli bo‘lgan uchta eng muhim mutlaq ne’mat bo‘lib, ularsiz “shaxsiy xavfsizlik” huquqiy toifasi mavjud emas. Ushbu shaxsiy manfaatlar inson hayotining ajralmas xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shaxsiy xavfsizlik toifasi yuridik fanning tadqiqot obyekti sifatida o‘tgan asrning 80-90-yillardan faol o‘rganila boshlandi.

Yurisprudensiya va ijtimoiy fanlarda “shaxsiy xavfsizlik” toifasi tushunchasini aniqlashga turlicha yondashuvlar mavjud.

Ba’zi tadqiqotchilar buni ijtimoiy xavfsizlikning bir qismi sifatida jamoat tuzilmalari xavfsizligidan ajralmas deb hisoblashsa, boshqalari buni “hayot xavfsizligi” bilan bog‘lashadi, bu fuqarolarning hayot, sog‘liq va erkinlik huquqlarini tegishli “sifat” sharoitida amalga oshirishni anglatadi.

Boshqalar esa shaxsiy xavfsizlik konsepsiyasini statik jihatdan inson huquq va erkinliklariga, uning ijtimoiy manfaatlariga rioya etilishi ustidan konstitusiyaviy nazorat sifatida qaraydilar.

Shu munosabat bilan tadqiqotchilar “shaxsiy xavfsizlik” toifasini turli ma’noda bilan ko‘rib chiqadilar:

keng ma’noda – inson hayotining xavfsizligi, umumiy ijtimoiy ta’minotning bir turi;

tor ma’noda – inson hayoti, sog‘lig‘i va erkinligini har qanday hujumlar va ortib borayotgan xavf manbalaridan himoya qilish.

Shu munosabat bilan tadqiqotchi A.A. Fomin[4] o‘z izlanishlarida, inson xavfsizligini huquqiy ta’minlash alohida ahamiyatga ega, chunki u huquqiy shaklga ega bo‘lishi va huquqni muhofaza qilish va sud organlarining faoliyati bilan kafolatlanishi kerakligini qayd etib o‘tadi.

Shaxsiy xavfsizlikni huquqiy ta’minlash davlatning ushbu sohadagi yagona qonunchilik siyosatini asoslashga qaratilgan.

“Shaxsiy xavfsizlik” tushunchasi qonuniylik, davlat majburlashi, shaxs, jamiyat va davlatning shaxsiy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha o‘zaro javobgarligi belgilariga ham ega.

Bundan tashqari, “o‘z” va “xavfsizlik” tushunchalarini taqqoslaydigan bo‘lsak, biz ma’muriy, davlat munosabatlari haqida ham to‘xtalib o‘tishimiz kerak, chunki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi davlat organi hisoblanadi.

“O‘z” tushunchasi, birinchi navbatda, shaxsiy, bevosita, o‘ziga qaratilganligini anglatadi.

Ko‘rib chiqilayotgan toifada yo‘naltirilganlik asosiy hisoblanadi. Bu tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sir qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan tizimning ichki holatini belgilaydigan o‘z faoliyatining barqarorligiga bo‘lgan ichki ehtiyojiga e’tibor qaratishdir.

Tizimning yaxlitligi va barqarorligiga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash o‘zini o‘zi saqlab qolish zaruratidan boshqa narsa emas[5].

Shunday qilib, huquqni muhofaza qilish organlari tizimining o‘ziga xos xavfsizligi – bu HMQO larning tashqi muhit bilan munosabatlardagi faoliyatiga noqonuniy aralashuvga va salbiy ichki jarayonga qarshi turishga tayyorligini tavsiflovchi chora-tadbirlar, vositalar, tizimining normal faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishining maqsadi, o‘ziga yuklangan vazifa va funksiyalarni bajarish imkonini beruvchi shartlarning ichki tashkiliy tizimi hisoblanadi.

HMQO larning o‘z xavfsizligini ta’minlash maqsadida, davlat xavfsizligining kichik turi sifatida o‘z maqomiga mos vakolatlarga ega bo‘lgan maxsus vakolatli tezkor-qidiruv organlari – ichki (shaxsiy) xavfsizlik bo‘linmalari tuziladi va faoliyat ko‘rsatadi.

Ilmiy tahlillar natijalariga tayanib aytishimiz mumkinki, shaxsiy xavfsizlikni huquqiy asosga ega bo‘lgan, davlat va jamiyat faoliyati tomonidan noqonuniy xurujlardan kafolatli himoyalangan xususiyatlar majmui sifatida qarashimiz mumkin.

Yuqoridagi olimlarning fikrlari va boshqa ilmiy adabiyotlar tahlili asosida “shaxsiy xavfsizlik” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berishimiz mumkin, shaxsiy xavfsizlik – bu inson (individ)ning anglangan xayotiy muhim manfaatlarining xavf-xatar, tahdid va tajovuzlardan himoyalanganlik holati.

Fikrimizcha mazkur ta’rif shaxs xavfsizligi tushunchasining mazmun-mohiyatini to‘liq qamrab oladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, shaxsiy xavfsizlik tushunchasi insonning hayoti, sog‘lig‘i va jismoniy erkinligini har qanday xavf-xatar va tajovuzlardan huquqiy jihatdan himoyalashni anglatadi. Bu nafaqat shaxsning biologik va ijtimoiy mavjudligini saqlash, balki uning huquq va erkinliklarini kafolatlashga xizmat qiluvchi kompleks tizimdir. Shaxsiy xavfsizlikni ta’minlash davlatning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, u huquqiy, tashkiliy va institutsional mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Ilmiy manbalar va xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, shaxsiy xavfsizlik fuqarolarning jamiyatdagi erkin faoliyati, barqarorlik va taraqqiyotning asosiy garovidir. Shu bois, ushbu tushuncha aniq va huquqiy asoslangan ta’riflar bilan mustahkamlanishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Основы личной безопасности. 17 декабря 2018 г. ҳттпс://мари-эл.гов.ру/мунисипалитй/морки/коркатово/неwс/ основй-личной-безопасности.

2. Безопасность. ҳттпс://ру.wикипедиа.орг/wики/.

3. Лукашева Э.А. Права человека и процессы глобализации современного мира / – М.: Норма, 2007. – С.12.

4. Гук Э.П. К вопросу о понятии личной безопасности // Вестник Пензенского государственного университета. – 2016. – № 4 (16). – С. 41.

5. Косоногов Д.А. О понятии обеспечения собственной безопасности в уголовно-исполнительной системе // Вестник Пермского университета, 2012, №2 (16). – С. 219.

JAMOAT XAVFSIZLIGI TAMINLASHDA HARBIY XIZMATCHI VA HARBIY JAMOANI PSIXOLOGIK O‘RGANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sulaymonov I.M.
Jizzax mintaqaviy o‘quv Markazi “Maxsus va o‘q otish tayyorgarlik” sikli boshlig‘i, podpolkovnik

Annotatsıya: Maqolada harbiy xizmatchi va harbiy jamoani psixologik o‘rganishda keng tarqalgan tadqiqot metodlarini qo‘llashning nazariy jihatlari yoritilgan. Harbiy qism va muassasalardagi psixologik faoliyat harbiy xizmat vazifalarini maromida bajarish maqsadida harbiy xizmatchilar va bo‘linmalar faoliyatida vujudga keladigan turli ruhiy – emotsional muammolar diagnostikasini hamda profilaktikasini bajarish zarurati turli omillar bilan asoslangan.

Kalit so‘zlar: shaxs, guruh, harbiy psixologiya, harbiy jamoa, harbiy psixolog, metodlar.

Harbiy xizmatchi shaxsining psixologik faktorlarini tekshirish-harbiy psixologiyaning asosiy muammolaridan biridir. Shuningdek, harbiy jamoalarda shaxslararo munosabatlar, komandirlar bilan bo‘ysunuvchilar muloqotining psixologik xususiyatlari, favquloddagi holatlarda harbiy xizmatdagi kishilar psixikasining o‘zgarishi, bo‘linmalarda psixologik muhit masalasi, harbiyvatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish birlamchi muammo ekanligi va hokazo. Harbiy psixologiya negizida sotsial psixologiya, mehnat psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi, pedagogik psixologiya sohalarining nazariy-amaliy materiallari, umumbashariy qonuniyatlar yotadi. Harbiy psixolog, professor L.A.Kandibovich fikriga ko‘ra, “o‘z fe’l-atvorini, xulqini boshqarishni o‘rganmoq kerak, insonda hayotning yangi sharoitlarida oqilona harakat qilishga tayyor bo‘lishni tarbiyalash lozim”. Bu yerda tayyor turishni shakllantirishni professor ikki ma’noda ko‘rib chiqmoqda: birinchidan, ruhiy holat sifatida; ikkinchidan, shaxsiy sifatlar majmuasi (kompleksi), ya’ni, hayotiy vaziyatlarning keskin o‘zgarishida tayyorlikni ta’minlovchi bilimlar, mahoratlar va ko‘nikmalar sifatida. Harbiy psixolog kasbining o‘ziga xosligi harbiy xizmatchilar va harbiy jamoani psixologik holati bo‘yicha aniq va to‘laqonli ma’lumot berishdan iborat. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, harbiy xizmatchilarni va harbiy jamoani boshqarishda bo‘linma komandirlari va harbiy psixologlarning o‘zaro hamkorligi yuqori xizmat samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Harbiy xizmatchini va harbiy jamoani psixologik

o‘rganish ikki xil turdaalohida harbiy xizmatchini (individual) va guruh (jamoa) larga ajratgan holda o‘rganiladi. Shunga ko‘ra, harbiy xizmatchilarning alohida (individual) psixologik o‘rganishning predmeti-harbiy xizmatchilarning shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish hisoblansa, guruhlarga ajratib o‘rganishning predmeti esa-harbiy jamoaning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rganish hisoblanadi. Harbiy xizmatchilarni psixologik o‘rganish qismlarga ajratib, alohida bosqichlarda o‘rganilishini tavsiya etamiz: Keyingi yillarda kasbga psixologik tanlash jarayoniga e’tibor oshib bormoqda. Mazkur jarayonda psixodiagnostik tadbirlar natijalaridan:

1.Psixodiagnostika ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida intensiv ravishda qo‘llanilishi mumkin. Psixodiagnostika kasbiy ta’lim-tarbiya oldida turgan qator vazifalar, xususan kasbiy ta’limni rejalashtirish, tashkil etish, boshqarishda amaliy yordam beradi. Shaxs darajasidagi og‘ishlar va o‘qishda o‘zlashtirish darajasining pastligining pedagogik-psixologik jihatlarini o‘rganish, ta’limni differensiallashtirish, kasbiy yo‘naltirish, individual yondashuvni shakllantirish jarayonida qo‘llash mumkin.

2.Psixodiagnostika kasbiy yo‘naltirish va kasbga psixologik» tanlashni o‘tkazish sohasi mutaxassislari faoliyatining ajralmas qismini tashkil etib, ushbu jarayon xar bir shaxsga uning individual-psixologik, psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kasb (lavozim)ga tavsiya etish, kasbiy malaka va ko‘nikmalarni samarali egallash yo‘llarini ko‘rsatib berish uchun xizmat qiladi. Umumiy psixologiyada inson psixikasini tadqiq qilish metodlarining turli yo‘nalishlari mavjud. Tekshiriladigan psixik hayot hodisalari juda xilma-xil bo‘lib, murakkab va psixologik jarayonlarga xos hodisalarni o‘z ichiga oladi. Bu psixologik holatlar, hodisalar va jarayonlar qanday metodlar, ya’ni qaysi yo‘llar, qanday usullar bilan tekshiriladi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Avvalo metodning o‘zi nima, degan savolga javob berishga to‘g‘ri keladi. Metod lotincha «methados» so‘zidan olingan bo‘lib, aniq masalalarni hal qilishga qaratilgan voqelikni amaliy yoki nazariy bilish usullari hamda amallarining majmuidan iboratdir. Bu metodning umumiy ta’rifidir. Agar uni har bir alohida fanga nisbatan oladigan bo‘lsak, u paytda metod ayni shu fanning predmetini tekshirish, o‘rganish tushuntirib berish usullarining yig‘indisi ekanligi kelib chiqadi. Demak, har qanday metod ma’lum prinsiplarga asoslanmog‘i kerak. Harbiy xizmatchilarni psixologik o‘rganish vaqtida quyidagi metod va metodikalardan foydalanishimiz mumkin:

- kuzatish (ichki va tashqi);
- hujjatlarni o‘rganish (kontent-tahlil) metodi;
- so‘roq (suhbat, intervyu) metodlari;
- anketa metodi;
- testlar;
- proyektiv testlar.

Kuzatish metodi psixologiyaning asosiy va keng qo‘llaniladigan metodlaridan biri bo‘lib, bu metod yordamida psixik jarayonlarni va shaxsning psixologik xususiyatlarini tabiiy sharoitda, ya’ni odam u yoki bu faoliyatda qanday bo‘lsa shundayligicha o‘rganiladi.

Kuzatish metodi harbiy psixologiyada o‘ziga xos ijtimoiy sharoitlarda, o‘ziga xos vaziyatlarda va ma’lum guruhlarda ishlatiladi. Bunda kuzatuvchi eng avvalo nimani kuzataman, qanday yo‘l bilan kuzataman, kuzatuv birligi qilib nimani olaman, kuzatuvni qancha vaqt mobaynida davom ettiraman degan qator savollarga javob topgandan keyingina tadqiqotini boshlaydi. Demak, kuzatish metodi yordamida aniq ishlab chiqilgan reja asosida kuzatuvchini qiziqtirgan u yoki bu ijtimoiy xulq-atvor shakllari qayd etiladi. Bu uslub qo‘llanilganda tadqiqotchi bir qancha qoidalarga rioya qilishi lozim. Chunonchi, kuzatish maqsadining aniq bo‘lishi va uning ilmiy maqsadlarga mos kelishi:

- kuzatish shaklini tanlash va kuzatish natijalarini qayd etish usullarini ishlab chiqish

- ma’lum reja – sxema asosida muttasil kuzatuv olib borish;

-olingan natijalarning asosliligi va ishonchliligini boshqa usullar yordamida tekshirib ko‘rish.

Kuzatish kuzatuvchi tomonidan kuzatish obyekti bo‘lmish harbiy xizmatchilar guruhi bilan birga yashab, ularga qo‘shilib ish tutib, tabiiy sharoitlarda ma’lumot to‘plansa, bunday kuzatish turini “birgalikdagi kuzatuv” deb ataladi. Bunday kuzatishning klassik misoliga amerikalik ijtimoiy psixologik U.Uaytning o‘smirlar psixologiyasi, ular guruhidagi ijtimoiy psixologik hodisalarni o‘rganishga qaratilgan mashhur tadqiqotini kiritish mumkin. Boshqa xollarda esa kuzatuvchi o‘z obyektini chetdan kuzatadi, shuning uchun ham bunday kuzatuv turi “chetdan kuzatuv” yoki “obyektiv kuzatish” deb ataladi. Bu usul xuddi umumiy psixologiyada bo‘lgani kabi tashqi xulq-atvorni qayd qilish natijasida ma’lumot to‘plashga asoslanadi. Bunday yo‘l bilan ilmiy faktlarni isbot qilish qiyin, lekin baribir, u ham harbiy psixologiyada yordamchi usul sifatida ishlatiladi. Bizning fikrimizcha, ijtimoiy psixologik treninglar sharoitida har bir shaxsning xulq-

atvorini kuzatish muhim ma’lumotlar to‘plashga yordam beradi, chunki bunda kuzatish metodiga xos bo‘lgan eng qimmatli narsa- sharoitlarning tabiiyliligi saqlab qolinadi.

- Hujjatlarni o‘rganish metodi. Inson psixikasini tadqiq etish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti to‘g‘risidagi og‘zaki va yozma ma’lumotlar muhim ahamiyatga ega.

- Hujjatlarni o‘rganish metodi sotsiologiya fanidan kirib kelgan. Bu metodning qator afzalliklari bor. Ulardan muhimlari shundan iboratki, u harbiy faoliyatning mahsulini tekshirishga imkon beradi hamda to‘plangan ma’lumotlarning ishonchliligi, matematik qayta ishlash imkoniyatining borligi bilan ajralib turadi.

- Materiallarni ma’naviy jihatdan ham sifat, ham miqdoriy tahlil qilinish usuli ijtimoiy psixologiyada kontent-tahlil deb ataladi.

Kontent-tahlilning ilmiy mohiyati shuki, uning yordamida biror matnda ma’lum fikr, g‘oya yoki tushunchalarning necha marta qaytarilishi qayd etiladi, ya’ni ma’lum mazmun miqdor ko‘rinishiga keltiradi. Bu metodning asoschilari amerikalik sotsiologlar X.Lassuell va B.Berelsonlar bo‘lib, ular bu usulni birinchi marta ikkinchi jahon urushi yillarida bir siyosiy gazetaning mazmuni, uning g‘oyaviy yo‘nalishini aniqlash maqsadida qo‘llagan edilar. Ular “haqiqiy amerikalik” nomli gazetaning kundalik chiqishlarini kontent-tahlil qilib, ularni fashistik yo‘nalishidagi gazeta ekanligini isbot qilishgan va uning chiqishini taqiqlashga erishgan edilar.

- Kontent-tahlilni qo‘llashda tadqiqotchi oldida turgan asosiy muammo bu tekshiruv birliklari-kategoriyalarni aniqlashdir. Chunki bunday birliklar tadqiqotning maqsadi va tadqiqotchining e’tiqodi va dunyoqarashiga ko‘ra har xil bo‘lishi mumkin. Harbiy jamoani tadqiq etish metod va metodikalari. Harbiy jamoani ijtimoiy psixologik o‘rganish bo‘linma ofitserlari va harbiy psixolog tashkillashtiriladi va olib boriladi. Shunday qilib, harbiy psixologiya hozirgi kunda juda ko‘p metodlarga ega, biz tanishib chiqqan metodlar ularning bir qismi, xolos. Har bir holatda o‘z tadqiqot obyektining xususiyatlari, tadqiqot maqsadi va mavzusiga qarab kerakli uslubni tanlash mumkin. Shuning uchun ham metodlar to‘plami bilan to‘laligicha tanishish uchun maxsus adabiyotlarni ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi

Xulosa o‘rnida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Harbiy xizmatchilar va harbiy jamoani psixologik o‘rganish bosqichlari ko‘rsatilgan, unda har bir bosqichda harbiy xizmatchini va

harbiy jamoani o‘ziga xosliklari o‘rganib boriladi. Psixologik o‘rganishlarni bosqichlarga ajratishimiz harbiy qismda faoliyat ko‘rsatayotgan harbiy psixologga harbiy xizmatchilarni o‘rganishda o‘ziga xos qulayliklarni keltiradi:

- Psixologik o‘rganishni tizimlashtiradi;
- Harbiy xizmatchi va harbiy jamoani psixologik o‘rganishni tartiblashtiradi, ma’lumotlarni yig‘ib boradi.
- Harbiy xizmatchi va harbiy jamoa to‘g‘risida olingan ma’lumotlarni umumlashtirib, tahlil qilgan holda bevosita boshliqlariga tatbiq etadi.

2. Harbiy xizmatchini va harbiy jamoani psixologik o‘rganishdagi har bir bosqichda tegishli metod va metodikalardan foydalanish qulayligi, hatto ayrim metod va metodikalarni (misol tariqasida, kuzatuv, suhbat, hujjatlar orqali ma’lumotlar yig‘ish) har bir bosqichda qo‘llashimiz mumkin.

JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLAShDA MILLIY GVARDIYa HARBIY XIZMATChILARINING O‘RNI

Anorboyev F.R.
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasisi Jizzax mintaqaviy o‘quv markazi “Huquqiy fanlar” sikli boshlig‘i

Annotasiya. Ushbu maqolada jamoat xavfsizligi, uni ta’minlash uchun mas’ul bo‘lgan organlar, milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi roli, bu vazifalarni bajarishda milliy gvardiya harbiy xizmatchilari va xodimlari kimlar bilan hamkorlik qilishi lozimligi, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlashda milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining o‘rni va ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Jamoat xavfsizligi, Milliy gvardiya, huquqbuzarlik, jinoyat, harbiy xizmatchi, qonun.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda jamoat xavfsizligi, davlat va fuqarolarning mol-mulkini ishonchli qo‘rig‘ini ta’minlash yuzasidan bir qancha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, “Xavfsiz shahar”, “Xavfsiz poytaxt” konsepsiyalari ishlab chiqilib, hayotga joriy qilindi.

Xo‘sh, jamoat xavfsizligi o‘zi nima, u qanday ta’minlanadi, jamoat xavfsizligini kim ta’minlaydi?

Jamoat xavfsizligi – bu shaxs, jamiyat va davlatning jinoyatchilik, boshqa huquqqa xilof harakatlar, favqulodda holatlar oqibatlari, ijtimoiy nizolar, tabiiy ofatlar, epidemiya, epizootiya, yirik halokatlar, avariyalar va yong‘inlardan himoyalanganligi holati hisoblanadi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlarining tuzilmalari, qolaversa fuqarolarning ham burchi hisoblanadi. Shu qatorda, jamoat xavfsizligini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilari va xodimlarining asosiy vazifasi sanaladi. Buning huquqiy asosi esa 2014 yil 14 mayda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonundir. Bundan tashqari, 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni, 2017 yil 14 martda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2018 yil 14 fevraldagi “Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi Prezident qarorlari shular jumlasidandir. Ushbu hujjatlar bevosita jamoat tartibini saqlash, avvalambor, jamoat xavfsizligiga doir huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning buzg‘unchi tahdidlarni barvaqt aniqlash bo‘yicha yakdil harakatlar, ularni hamkorlikda va sifatli bartaraf etilishini ta’minlashning huquqiy asosi sifatida xizmat qilmoqda.

“O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining huquqiy maqomi va asosiy vazifalari keltirib o‘tilgan. Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo‘shinlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo‘lgan maxsus turi ekanligi, Milliy gvardiyaning asosiy vazifalari:

jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

terrorizmga qarshi kurashishda, shuningdek terrorchilik harakatlarining hamda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish;

tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish, surishtiruv o‘tkazish, jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish va ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish;

davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlash;

qo‘riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;

huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish;

jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash;

favqulodda holat, alohida davr va terrorchilikka qarshi operasiyalarni o‘tkazish sharoitlarida huquqiy rejimni ta’minlash;

qo‘riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etish;

chet davlatlarning rasmiy vakillarini, oliy darajadagi xorijiy delegasiyalarni kutib olishda va kuzatib qo‘yishda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokidagi tantanali tadbirlar chog‘ida rasmiy marosimlarni o‘tkazish;

huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish maqsadida aholi punktlaridagi jamoat joylarida patrullik qilish;

O‘zbekiston Respublikasining hududiy mudofaasi tizimida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini jangovar qo‘llash rejalari bo‘yicha maxsus vazifalarni hal etish, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo‘shinlariga O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo‘riqlash hamda himoya qilishda ko‘maklashishdan va O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Bundan tashqari Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari va xodimlari jamoat xavfsizligi ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning va jinoyatlarning oldini olish borasida bir qancha tashkilotlar va davlat organlari bilan hamkorlik qiladi. Bu borada Milliy gvardiya organlariga bir qancha vakolatlar berilgan, jumladan:

huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish;

huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshirish;

huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etish;

fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q dorilarini olish va ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) tartibiga fuqarolar hamda yuridik shaxslar tomonidan rioya etilishi ustidan nazoratni ta’minlash;

huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan hamkorlik qilish kabilar.

Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari jamoat xavfsizligini ta’minlash jarayonida Ichki ishlar organlari xodimlari bilan, jumladan yo‘l harakati xavfsizligi, post-patrul xizmati, profilaktika inspektorlari, jinoyat qidiruv, tergov xodimlari bilan bevosita hamkorlikni amalga oshiradi. Bugungi kunda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Birgina misol, mamlakatimizda koronavirus pandemiyasi davrida harbiy xizmatchilar bevosita boshqa huquqni muxofaza qilish organlari bilan bir safda turib xizmat qilishdi. Bundan tashqari Sirdaryo viloyatidagi “Sardoba” suv omborining bir qismi buzilib ketishi oqibatlarini bartaraf etishda yuksak ishonch va matonat bilan xizmat qilishdi. Ayni kunlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida jamoat tartibini saqlash ishlarida Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari va xodimlari faol ishtirok etishmoqda. Tungi vaqtlarda patrullik guruhlarining hudud bo‘ylab xizmat olib borishi natijasida viloyatlarda jinoyatchilik va huquqbuzarliklar birmuncha kamayishiga erishildi. Kunning yorug‘ vaqtlarida esa bevosita Milliy gvardiya harbiy xizmatchi va xodimlari odamlar gavjum bo‘ladigan joylarga, istirohat bog‘lariga, bozorlar va yoshlar shaharchalariga, talabalar yotoqxonalari oldiga xizmatga jalb etilishi natijasida kunu-tun fuqarolarning tinchligi ta’minlanmoqda. Bu esa Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining o‘rni beqiyos ekanligidan dalolat beradi. Shu sababli ham Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga alohida e’tibor qaratib kelmoqda.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash nechog‘lik muhim ekanligi barchaga ma’lum. Jamiyatda jamoat xavfsizligini ta’minlash masalasi o‘ta muhim ekanligi sababli, Toshkentdagi eski Harbiy texnika instituti Jamoat xavfsizligi universiteti etib qayta tashkil etildi. Mazkur universitet davlatimizga yuksak bilimli va boy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, jismonan

chiniqqan etuk harbiy kadrlar etkazib beradi. Bu ham davlatimizning va unda yashovchi barcha xalqlarning tinch osoyishta hayot kechirishlarining garovidir.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, bugun Milliy gvardiya saflarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar, mamlakat osoyishtaligini ta’minlash, fuqarolarning mol-mulkini qo‘riqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish borasida o‘zining qat’iy pozisiyasiga ega desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi.

2. “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-647. 18.11.2020.

3. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-371. 14.05.2014

JAMOAT TARTIBINI SAQLASH XIZMATI TUSHUNCHASI VA HARBIY BO‘LINMALARNING ROLI VA AHAMIYATI

Abdunazarov F.Y.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi univeriteti
mustaqil izlanuvchisi, podpolkovnik

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamoat tartibini saqlash xizmati tushunchasi, uning nazariy va huquqiy asoslari hamda davlat va jamiyat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilinadi, jamaot xavfsizligiga hozirgi vaqtda zamonaviy tahdidlar va ularga qarshi kurash bo‘yicha ma’muriy-huquqiy choralarni takomillashtirish masalalari hamda ushbu masala yuzasidan taklif va tavsiyalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, huquqni muhofaza qilish subyektlar, harbiy bo‘linmalar, qonunchilik, xalqaro tajriba, qonun, konsepsiya, davlat, vakolat.

Davlat va jamiyat barqarorligining eng muhim omillaridan biri – bu jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashdir. Har qanday demokratik jamiyatda fuqarolarning huquq va erkinliklari faqat huquqiy normalar bilan emas, balki amalda ham kafolatlanishi zarur. Shu nuqtai nazardan, jamoat tartibini saqlash xizmati davlat siyosatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanadi.

Hozirgi vaqtda jamoat xavfsizligi har bir davlatning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning ta’minlanishi huquqiy, siyosiy va ijtimoiy

barqarorlikning kafolati hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda jamoat xavfsizligiga bo‘lgan tahdidlar doimiy ravishda o‘zgarib bormoqda. Shu sababli, ushbu tahdidlarga qarshi samarali choralarni ishlab chiqish va ma’muriy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlaganidek “Xalqimizning xavfsizligi, tinchligi va osoyishtaligini saqlash bugun ham, kelajakda ham eng ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi. Chunki faqatgina tinchlik-osoyishtalik mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishining asosiy kafolatidir” [1]. Ya’ni, muayyan jamiyat yoki davlat uchun eng asosiy xavf-xatarlardan biri ichki tartibsizlikdir.

Mamlakat uchun iqtisodiy, madaniy, mafkuraviy, ma’naviy va boshqa turdagi xavf-xatarlarni jamoat xavfsizligi tashkilotlarining o‘zaro muvofiq harakatlari asosida bartaraf etish mumkin. Shu sababli ichki tartib qoidalarni nazorat qiladigan va jamoat xavfsizligini saqlaydigan tashkilot va markazlar uzoq zamonlardan beri barcha mamlakatlar uchun tinchlik va farovonlik kafolati bo‘lib kelmoqda.

Bugungi kunda xavfsizlik tushunchasi juda keng ma’noga ega bo‘lib, uning negizida, “Milliy xavfsizlik”, “Harbiy xavfsizlik” “Axborot xavfsizligi” va “Jamoat xavfsizligi” masalalari yotadi. Bundan tashqari yurtimizda amalga oshirilayotgan xavfsizligimizni ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan zamonaviy yondashuvni shakllantirish jarayonida, shubhasiz, jamoat xavfsizligini tartibga solish, yuzaga kelayotgan yangi chaqiriqlar, tahdidlar, xavf-hatarlar sharoitida qayta ko‘rib chiqishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Mavzuni yoritishdan oldin ayrim tushunchalarning mazmun mohiyatini bilish muhim hisoblanadi. Avvalo jamoat xavfsizligi tushunchasi o‘zbek tilining izohli lug‘atiga muvofiq: “jamoat - arabcha so‘z bo‘lib, birlashma, uyushma, guruh, ko‘pchilikka, ya’ni ommaga tegishli”[2], “xavfsizlik - bu havf-xatarning yo‘qligi, havf bo‘lmagan holat”; “ta’minlash - o‘zagi arabcha “ta’min” so‘zidan olingan bo‘lib, ta’min qilmoq, biror narsaning amalga oshishi, ro‘yobga chiqishi, muhayyo bo‘lishi uchun zarur sharoit yaratmoq” [3] ma’nolarini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat havfsizligi konsepsiyasiga muvofiq:

Jamoat xavfsizligi - jamiyatning qonunga hilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan (keyingi o‘rinlarda- tahdidlar) himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror

rivojlanishiga hizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi;

Jamoat xavfsizligini ta’minlash - davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy choratadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim[4].

Jamoat tartibini saqlash xizmati – bu huquqni muhofaza qiluvchi organlar va harbiy bo‘linmalar tomonidan jamiyat osoyishtaligini ta’minlashga qaratilgan faoliyat majmuasidir. “Jamoat tartibi – bu jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va huquqiy tizimining uzviy qismi” hisoblanadi (Kriminologiya darsligi, 2020).

Jamoat tartibini saqlash xizmati – bu davlat tomonidan tashkil etilgan huquqni muhofaza qilish faoliyatining muhim sohasi bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish;
- Jamoat joylarida va fuqarolar ko‘p to‘planadigan joylarda xavfsizlikni ta’minlash;
- Huquqbuzarliklarni oldini olish va ularni bartaraf etish;
- Favqulodda vaziyatlarda aholini himoya qilish va tartibni saqlash.

Adabiyotlarda jamoat joylari quyidagi uch turga bo‘linadi:

1) doimiy foydalaniladigan jamoat joylari – ko‘chalar, maydonlar, xiyobonlar, transport magistrallari;

2) vaqtinchalik foydalaniladigan jamoat joylari – savdo shoxobchalari, teatrlar, stadionlar va boshqalar;

3) zarurat bo‘lganda vaqti-vaqti bilan foydalaniladigan jamoat joylari -o‘rmon, tog‘-yonbag‘irlari, daryolar, tabiat qo‘yni, ya’ni umumxalq bayramlari («Navro‘z»), xalq o‘yinlari («Kurash»,«Uloq»), sport musobaqalari va boshqa ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan joylar nazarda tutiladi [15].

Ko‘p qavatli turar joy binolaridagi xonadonlarning birida, ayrim hollarda hovlilarda sodir etilgan bezorlik ham o‘z navbatida jamoat tartibiga tajovuz, deb qaraladi.

Demak, «jamoat tartibi» tushunchasi jamoat joyidan tashqarida ham yuzaga kelib, rivojlanib boradigan, o‘z tabiatiga ko‘ra, fuqarolarning mehnat qilish va dam olishlariga, ularning sha’n-shavkati va qadr-qimmatini himoyalashga oid munosabatlarni ham anglatadi.

Ayrim adabiyotlarda jamoat xavfsizligi asosan milliy xavfsizlikning bir turi sifatida ta’riflanadi [5]. Xususan, A.I.Sapojnikov, jamoat xavfsizligini ta’minlash jamoat xavfsizligini tartibga solish uchun ijtimoiy obyektiv va huquqiy vositalar sifatida litsenziyalash, nazorat qilish va majburiy usullardan foydalanadigan davlat organlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun maxsus ma’muriy- huquqiy rejim zarur[6] degan fikrlarni bildiradi. A.A.Karmoliskiy fikriga ko‘ra, jamoat xavfsizligini ma’muriy-huquqiy tartibga solish obyekti sifatida “fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i va mulkiga tahdidlarning oldini olish va bartaraf etish jarayonida rivojlanadigan munosabatlar tizimi” [7. B 459] degan fikrlarni ilgari suradi. P.G.Gorodeskiy esa – “davlat va munitsipal organlarning, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, tashkilotlarning normal ishlashini, fuqarolik jamiyati, alohida fuqarolar va ularning birlashmalarini shakllantirishni ta’minlaydigan jamiyat hayotining qonun bilan belgilangan rejimi” sifatida ta’rif beradi [8. B 42.].

Darhaqiqat biz yuqoridagi olimlarning fikr va mulohazalariga qo‘shilgan holda ushbu fikrlarni qo‘llab-quvvatlaymiz.

So‘nggi yillarda jamoat xavfsizligiga oid bir qator qonun hujjatlari ishlab chiqildi. Xususan, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi[9.]ning 21 va 33-moddalari va boshqa bir qator moddalarida jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi bilan bog‘liq munosabatlar belgilangan.

Bundan tashqari, “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni [10], “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi [11.], O‘zbekiston Respublikasi “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlari [12.] hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklarning oldini olishda davlat organlari va tashkilotlari idoraviy qorovullik bo‘linmalarining faoliyati samaradorligini oshirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi 598-son Qaror[13.]lari misol bo‘la oladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el- yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini amalga oshirish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda.

Dunyo miqyosida jamoat xavfsizligiga tahdid va xavf-xatarlar har turli ko'rinishlarda sodir etilmoqda.

Bugungi kunda jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Terrorizm va ekstremizm xavfi: Radikal guruhlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib, yoshlarni jalb etishi ortib bormoqda.
- Kiberxavfsizlik tahdidlari: Xakerlik hujumlari, soxta ma'lumotlar tarqatish, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash.
- Uyushgan jinoyatchilik va narkotrafik: Transmilliy jinoyatchilik tarmoqlarining kuchayishi va noqonuniy faoliyatlarning kengayishi.
- Ekologik tahdidlar: Atrof-muhit ifloslanishi, tabiiy resurslarning noqonuniy ekspluatatsiyasi.

Bizning fikrimizcha ushbu tahdidlarga qarshi kurashda jamoat xavfsizligini ta'minlashga oid qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, huquqni muhofaza qilish organlarining hamkorlik faoliyatini takomillashtirish, fuqarolarni xavfsizlik jarayonlariga jalb qilish va xabardorlik darajasini oshirish hamda kiber tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha maxsus bo'linmalar vakolatini kengaytirish bilan bog'liq ma'muriy-huquqiy choralarni takomillashtirish lozim.

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligi masalasining dolzarbligini inobatga olgan holda hozirgi vaqtda qonunchilik muhokamasiga qo'yilgan "Jamoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonunini tahliliy tarzda ko'rib chiqqan holda qabul qilinishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, jamoat xavfsizligi masalasi hozirgi kunda dolzarb bo'lib, unga tahdid soluvchi zamonaviy xavflarni bartaraf etish uchun samarali ma'muriy-huquqiy choralar zarur. Jamoat tartibini saqlash xizmati – davlat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikning kafolati hisoblanadi. Harbiy bo'linmalar esa bu xizmatning muhim tarkibiy qismi hisoblanib ular Milliy gvardiya hamda Ichki Ishlar organlari bilan hamkorlikda fuqarolarning tinchligi va xavfsizligini ta'minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib jamoat tartibini saqlash tizimini takomillashtirish, harbiy bo'linmalar salohiyatini oshirish va huquqni

muhofaza qiluvchi organlarning hamkorligini kuchaytirish – zamonaviy davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Huquqiy bazani takomillashtirish, texnologik yondashuvlarni keng joriy etish va jamoatchilik ishtirokini oshirish ushbu muammoga kompleks yondashish imkonini beradi. Faqat shu yo‘l bilangina xavfsizlik tizimi samarali bo‘lib, fuqarolarning osoyishta hayot kechirishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mudofaani boshqarish milliy markazida 13-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqi. https://xs.uz/uz/post/qurolli-kuchlarnirivozhlantirishning-navbatdagi-muhim- bosqichi-vazifalari-belgilandi.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 80000 ga yaqin so‘z va so‘z birikmasi. ma’sul muharrir A. Madvaliyev. – T.: «O`zbekiston nashriyoti» davlat unitary korxonasi. (murojaat sanasi: 2023 yil 23 oktabr);
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.: 80000 ga yaqin so‘z va so‘z birikmasi ma’sul muharrir A. Madvaliyev. - T.: «O`zbekiston nashriyoti» davlat unitary korxonasi. (murojaat sanasi: 2023 yil 23 oktabr);
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat havfsizligi kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” gi PF-27-son farmoni [Elektron manba] // URL: https://lex.uz/pdfs/5749291 (murojaat sanasi: 2023 yil 14 oktabr).
5. Кардашова И.Б. МВД России в системе обеспечения национальной безопасности Российской Федерации: Дисс ... докт. юрид. наук. М.: ВНИИ МВД России, 2006;
6. Сапожников А.И. Административно-правовой режим общественной безопасности: Дисс. канд. юрид. наук. М., 2006 г
7. Алехин А.П., Кармолицкий А.А. Административное право России. Часть первая. М.: Зерцало. 2011. С. 459.
8. Городецкий П.Г. Проблемы деятельности федеральной системы правоохранительных органов России: Автореф. дисс докт. юрид. наук. 12.00.11. М., 2001. 42 с.
9. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 1-may // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // lex.uz.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va

uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // lex.uz.

11. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 18 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647-son qonun // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // lex.uz.

12. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-iyundagi “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-788-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // lex.uz.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklarning oldini olishda davlat organlari va tashkilotlari idoraviy qorovullik bo‘linmalarining faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 598-son Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // lex.uz.

14. Kriminologiya: Darslik / T. G‘afurov, A. Jo‘rayev. – Toshkent: TDYuU, 2020.

15. Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini boshqarish: Darslik / I. Ismailov va boshq. – T. B.A. Matlyubovning umumiy tahriri ostida. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – B. 48.

OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARGA QARShI KURAShISHGA OID QONUNChILIKNI TAKOMILLAShTIRISh YO‘LIDA

Shagilov P.K.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotasiya. Maqolada ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurashishga oid qonunchilikka kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarning mohiyati, tartibga solishdagi muhim konseptual yondashuvlar hamda ayrim rivojlangan davlatlar amaliyoti tahlil qilinadi. Muallif ommaviy tartibsizliklar profilaktikasi va javobgarlik choralarini zamonaviy xavflar, jumladan, axborot-kommunikasiya texnologiyalari orqali radikal g‘oyalarni tarqatish omillarini inobatga olgan holda takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, ommaviy tartibsizliklar, ommaviy chaqiriqlar, ommaviy qirg‘in qurollari, portlovchi moddalar.

Ommaviy tartibsizliklar jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, konstitusiyaviy tuzum asoslari hamda davlat xavfsizligiga real tahdid soladi.

Shu bois ularning oldini olishga qaratilgan nazariy va ilmiy-amaliy tadqiqotlarni izchil yo‘lga qo‘yish obyektiv ehtiyojdir. Bunday tadqiqotlar hayot, sog‘liq va mulk daxlsizligini muhofaza qilish, infratuzilma hamda hayotni ta’minlovchi obyektlarning barqaror ishlashi uchun zarur chora-tadbirlarni o‘z vaqtida qabul qilishga xizmat qiladi.

Ommaviy tartibsizliklar keng qamrovli hodisa bo‘lib, ular, odatda, katta guruhlar ishtirokida sodir etiladigan, jamoat xavfsizligi asoslariga tahdid soluvchi hamda hokimiyat organlari va muassasalar faoliyatini beqarorlashtirishga, muhim hududlarda tartibni jiddiy buzishga qodir zo‘ravonlikka moyil ijtimoiy xavfli qilmishlar majmuini ifodalaydi. Ijtimoiy xavf darajasining yuqoriligi ushbu jinoyatlarga qarshi kurashda, eng avvalo, zamonaviy jinoyat-huquqiy va kriminologik xususiyatlarni hisobga olgan profilaktik choralarni ishlab chiqish va muntazam ravishda takomillashtirishni taqozo etadi.

Zamonaviy sharoitda bunday tartibsizliklarni tashkil etish, ularga ko‘maklashish va bevosita amalga oshirish ko‘pincha ekstremistik va terroristik tuzilmalar faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ayniqsa, internet va boshqa axborot-kommunikasiya texnologiyalari orqali mafkuraviy ta’sirni kengaytirish bilan kechadi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 244-moddasi ommaviy tartibsizliklar bilan bog‘liq qilmishlar uchun javobgarlikni nazarda tutadi [2]. Xususan, ommaviy tartibsizliklarga va fuqarolarga nisbatan zo‘ravonlikka omma oldida da’vat qilish uchun jarima, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tarzida jazo qo‘llaniladi; ushbu qilmish ommaviy axborot vositalari yoki telekommunikasiya tarmoqlari, jumladan Internet orqali sodir etilsa, jazo miqdor va turlari og‘irlashtiriladi.

2025 yil 27 martda qabul qilingan O‘RQ-1051-son Qonun bilan Jinoyat kodeksining 244-moddasi uchinchi–beshinchi qismlar bilan to‘ldirildi [3]. Ularga muvofiq, ommaviy tartibsizliklar sodir etish maqsadida o‘quvdan o‘tganlik (qurol-yarog‘, portlovchi va boshqa xavfli buyumlar bilan muomala qilish ko‘nikmalarini egallash), shuningdek, bunday faoliyatni moliyalashtirish uchun javobgarlik belgilandi. Biroq, shaxs o‘zi o‘tgan o‘quv haqida ixtiyoriy ravishda xabar berib, jinoyatni fosh etishga va tegishli shaxslar yoki o‘quv o‘tkazilgan joyni aniqlashga faol ko‘maklashsa, uning harakatlarida boshqa jinoyat tarkibi bo‘lmagan taqdirda jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi ham nazarda tutildi.

Qonunchilikdagi bu o‘zgarishlar amalda kutilgan natijani berishi tabiiy. Shu bilan birga, milliy normativ baza ichida normalarning o‘zaro uyg‘unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun prokuratura organlarining qator sohalarda profilaktika amalga oshirishini belgilasa-da, ommaviy tartibsizliklarning oldini olishga oid maxsus mexanizmlar alohida tartibda bayon etilmagan [4].

Xalqaro kuzatuvlar ham xavfning realligini ko‘rsatadi: ACLED va Prinston universiteti qoshidagi BDI ma’lumotlariga ko‘ra, 2020 y. yanvar—2022 y. mart oralig‘ida AQShda turli ko‘lamdagi tartibsizliklarning 1040 ta holati qayd etilgan, kamida 26 kishi halok bo‘lgan [5].

Kriminalizasiyaning nazariy asoslari ommaviy tartibsizliklarning quyidagi belgilarini ajratish orqali yaqqollashadi: zo‘ravonlik xususiyati; ishtirokchilarning geterogen tarkibi; ekstremistik yo‘nalish va motivasiya; “ommaviylik” (son jihatdan ko‘plik); ayrim holatlarda “rangli inqiloblar” texnologiyalariga yaqinlashuv; siyosiy jinoyatlar toifasiga surilib borish ehtimoli.

Amerika qonunchiligida (18 U.S.C. § 231 — *Civil disorders*; 18 U.S.C. § 2101 — *Riots*) ommaviy tartibsizliklar bilan bog‘liq qilmishlarga javobgarlikni subyektning aniq rollari bo‘yicha qat’iy farqlash emas, balki xavfni oshiradigan harakatlarni (masalan, qurol va portlovchi moddalar bilan muomala ko‘nikmalarini o‘rgatishga yordam berish; bunday vositalarni noqonuniy maqsadlarda tashish; favqulodda xizmatlar faoliyatiga to‘sqinlik qilish) jinoiylashtirish orqali ta’minlash tamoyili qo‘llaniladi [6]. Ushbu yondashuv qiyosiy-huquqiy jihatdan O‘zbekiston normalarini ham mazmunan boyitishga xizmat qilishi mumkin.

Ommaviy tartibsizliklarda qo‘llanilayotgan “yuqori texnologiyali vositalar” (ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar, mobil va sun’iy yo‘ldosh aloqa infratuzilmasi, uchuvchisiz uchish apparatlari, 3D-bosma asosida tayyorlanadigan yo‘q qilish vositalari va h.k.) ni aniq huquqiy tavsiflash amaldagi normalarni qo‘llashdagi bahs-munozaralarni kamaytiradi va kvalifikasiyada aniqlik yaratadi.

Muallif ommaviy tartibsizliklarning oldini olishga qaratilgan davlat siyosatining maqsad, vazifa, tamoyil va mexanizmlarini belgilaydigan alohida “Ommaviy tartibsizliklar” konsepsiyasini ishlab chiqishni taklif etadi. Unda axborot-kommunikasiya texnologiyalari bilan bog‘liq xavflarni, shuningdek, yuqori texnologiyali vositalardan foydalanish ssenariylarini alohida tartibga solish nazarda tutilsin.

Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlarda keskinlik o‘choqlarining paydo bo‘lishi ehtimoli yuqori. Bu omillar umumiy jinoyatchilikka, jumladan ommaviy tartibsizliklar xavfining o‘sishiga ta’sir qiladi. Shu sababli, davlat va jamoat institutlari faoliyatini muvofiqlashtirish, profilaktikaning huquqiy asoslarini yaxlit tizim shaklida mustahkamlash hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning hamkorlik mexanizmlarini maxsus qonun bilan belgilash maqsadga muvofiq.

Xulosa. Ommaviy tartibsizliklarning mazmuni, shakllari va javobgarlik asoslarini aniq belgilash; kibermakondagi xatarlarni hisobga olgan profilaktik choralarni tizimlashtirish; yuqori texnologiyali vositalarga oid huquqiy tavsifni mustahkamlash; qiyosiy-huquqiy tajriba natijalarini milliy normalarga integrasiya qilish — jinoyat qonunchiligi va huquqni qo‘llash amaliyoti oldida turgan dolzarb vazifalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кабанов Н.А. **Криминологическая характеристика и предупреждение массовых беспорядков**: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. — Москва, 2020. — С. 3.

2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. URL: https://lex.uz/docs/111453

3. O‘zbekiston Respublikasining 2025 y. 27 martdagi O‘RQ-1051-son Qonuni. URL: https://lex.uz/docs/7449690

4. O‘zbekiston Respublikasi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi Qonuni. URL: https://lex.uz/docs/2387357

5. US Crisis Monitor (ACLED; BDI, Princeton). URL: https://acleddata.com/special-projects/us-crisis-monitor/; Dashbord: https://acleddata.com/dashboard/#/dashboard

6. Маджуаем М.М. **Уголовная ответственност за массовые беспорядки в Соединённых Штатах Америки**: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. — Москва, 2022. — С. 6.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH: O‘ZBEKISTON VA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

Jumayev A.G‘.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish jamoat xavfsizligini ta’minlashning asosiy elementi ekanligi, huquqiy madaniyatni oshirish va qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish jamoat xavfsizligini ta’minlashning muhim

omili hisoblanishi, shuningdek jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha milliy va xorijiy davlatlar tajribalari haqida qisqacha bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, profilaktika, jamoat tartibini saqlash, "Koban" tizimi, qurolsiz politsiya, "Ijtimoiy kredit" tizimi, prefektlar, proporsionallik tamoyili.

Har qanday demokratik jamiyatning asosi huquq-tartibotning mustahkamligi, qonun ustuvorligining ta’minlanishi va jamiyat a’zolarining huquq va erkinliklarining kafolatlanishidir. Ushbu uchta element bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, jamiyatning barqarorligi, xavfsizligi va farovonligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va yangi tahdidlarning paydo bo‘lishi jamoat xavfsizligini ta’minlash, qonun ustuvorligini ta’minlash va inson huquqlarini himoya qilish sohasida yangi vazifalarni dolzarb qilib qo‘ymoqda. Shunday ekan, ushbu masalalarni chuqur tahlil qilish va ularni hal etish yo‘llarini topish jamiyatimizning rivojlanishi va mustahkamlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola huquq-tartibotni saqlash, qonun ustuvorligini ta’minlash va jamiyat a’zolarining huquq va erkinliklarini himoya qilish masalalarining mohiyatini ochib berishga qaratilgandir.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash o‘zi nima? **Jamoat xavfsizligini ta’minlash —** davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim. **Jamoat xavfsizligi —** jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan (keyingi o‘rinlarda — tahdidlar) himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi. Jamoat xavfsizligini ta’minlash yuzasidan tahlillarimizni quyidagi reja asosida ko‘rib chiqish maqsadga muvafiqdir.

1. Jamoat xavfsizligini ta’minlashning elementlari quyidagilardan iborat:

- Jinoyatchilikka qarshi kurash: Jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish va jinoyatchilarni jazolash.

- Huquqbuzarliklarning oldini olish (profilaktika): Jinoyatga olib kelishi mumkin bo‘lgan sabablarni bartaraf etish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

- Jamoat tartibini saqlash: Jamoat joylarida tinchlikni ta’minlash, ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta’minlash, sanitariya qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish.

- Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash: Yo‘l harakati qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish.

- Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish: Tabiiy ofatlarga tayyorgarlik, texnogen avariyalarning oldini olish, yong‘in xavfsizligini ta’minlash.

2. Jamoat xavfsizligini ta’minlash - qonun ustuvorligini ta’minlashning garovidir:

- Qonun ustuvorligi - bu jamiyatda barcha, shu jumladan davlat organlari va mansabdor shaxslar ham qonunga bo‘ysunishi, hech kim qonundan yuqori bo‘lmasligi tamoyilidir. Bu qonunlarning adolatli, teng va hammaga bir xilda qo‘llanilishini anglatadi.

- Qonunlarning ustunligi: Barcha qonunosti hujjatlari qonunlarga zid kelmasligi kerak.

- Qonuniylik: Davlat organlari va mansabdor shaxslar o‘z faoliyatini qonun doirasida amalga oshirishi kerak.

- Adolat: Qonunlar adolatli va teng bo‘lishi, hech kimni kamsitmasligi kerak.

- Hisobdorlik: Davlat organlari va mansabdor shaxslar o‘z faoliyati uchun javobgar bo‘lishi kerak.

- Mustaqil sud tizimi: Sudlar davlat organlaridan mustaqil bo‘lishi va qonun asosida adolatli qarorlar qabul qilishi kerak.

3. Jamoat xavfsizligini ta’minlash - jamiyat a’zolarining huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgandir:

- Huquq-tartibotni saqlash va qonun ustuvorligini ta’minlashning asosiy maqsadi - jamiyat a’zolarining asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish. Bularga hayotga bo‘lgan huquq, shaxsiy daxlsizlik huquqi, so‘z erkinligi, vijdon erkinligi, mulkiy huquqlar va boshqa huquqlar kiradi.

- Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati: Huquqbuzarliklarni oldini olish, aniqlash va bartaraf etish orqali fuqarolarning huquqlarini himoya qilish.

- Sud tizimining faoliyati: Fuqarolarning huquqlari buzilgan taqdirda, ularni tiklash va himoya qilish.

- Advokatura instituti: Fuqarolarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish.

- Inson huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman) instituti: Fuqarolarning huquqlari buzilganligi haqidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish va ularni tiklash choralarini ko‘rish.

Yaponiyada jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi yuqori samaradorligi, jamoatchilik bilan yaqin aloqalari va texnologiyalardan keng foydalanishi bilan ajralib turadi. Tizimi quyidagicha:

•Markazlashgan, lekin mahalliy boshqaruvga ega: Milliy Politsiya Agentligi (NPA) siyosatni belgilaydi, lekin amaliy ishlar prefekturalar (mahalliy) politsiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

•"Koban" tizimi: Mahalliy politsiya postlari (kobanlar) aholi bilan yaqin aloqada bo‘lib, mahalliy muammolarni hal qilish va oldini olishga qaratilgan.

•Past jinoyatchilik darajasi: Yaponiyada jinoyatchilik darajasi dunyodagi eng pastlardan biri hisoblanadi.

•Jamoatchilik bilan hamkorlik: Politsiya jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi, bu esa jinoyatchilikni oldini olishga yordam beradi.

•Texnologiyalardan foydalanish: Politsiya jinoyatchilikka qarshi kurashishda zamonaviy texnologiyalardan, jumladan kuzatuv kameralari va ma’lumotlar tahlilidan keng foydalanadi.

Rossiyada jamoat xavfsizligini ta’minlash quyidagilardan iborat:

•Markazlashgan: Ichki ishlar vazirligi (MVD) asosiy nazorat organidir.

•Kuchli davlat nazorati: Huquqni muhofaza qiluvchi organlar davlat tomonidan qattiq nazorat qilinadi.

•Politsiya, Gvardiya va FSB: Politsiya jamoat tartibi uchun, Rossiya Gvardiyasi ommaviy tartibsizliklar va terrorizmga qarshi, FSB davlat xavfsizligi uchun mas’ul.

•Muammolar: Korrupsiya, politsiya zo‘ravonligi va siyosiy bosim kabi muammolar mavjud.

•Qonunchilik: Faoliyat qonunlar, prezident farmonlari va hukumat qarorlari bilan tartibga solinadi.

Angliyada jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi quyidagicha:

•Mintaqaviy politsiya kuchlari: Angliya va Uels 43 ta mustaqil politsiya kuchlariga bo‘lingan.

•Markaziy nazorat cheklangan: Ichki ishlar vazirligi umumiy siyosatni belgilaydi, lekin politsiya operatsion jihatdan mustaqil.

•Politsiya va jamoatchilik: "Bobbies" nomi bilan tanilgan politsiyachilar jamoatchilik bilan yaqin aloqada bo‘lishga harakat qiladi.

•Qurolsiz politsiya: Ko‘pgina politsiyachilar qurolsiz yurishadi, bu ularning jamoatchilik bilan bo‘lgan ishonchli munosabatlarini mustahkamlaydi.

•Mustaqil shikoyat qilish mexanizmi: Politsiya xatti-harakatlaridan norozi bo‘lgan fuqarolar mustaqil organlarga shikoyat qilishlari mumkin.

Angliya politsiyasi mintaqaviy boshqaruvga, jamoatchilik bilan yaqin aloqalarga va qurolsiz politsiya xodimlariga tayanadi.

Xitoyda jamoat xavfsizligini ta’minlashning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

•Markazlashgan: Jamoat xavfsizligi vazirligi (MPS) butun mamlakat bo‘ylab politsiyani nazorat qiladi.

•Kuchli davlat nazorati: Kommunistik partiya politsiya va xavfsizlik kuchlari ustidan qattiq nazorat o‘rnatgan.

•Keng qamrovli kuzatuv: Mamlakat bo‘ylab keng qamrovli kuzatuv tizimi, shu jumladan yuzni aniqlash texnologiyasi qo‘llaniladi.

•"Ijtimoiy kredit" tizimi: Fuqarolarning xatti-harakatlari baholanadi va ball beriladi, bu esa ularning hayotiga ta’sir qilishi mumkin.

•Ichki xavfsizlikka e’tibor: Politsiya va xavfsizlik kuchlari ijtimoiy barqarorlikni saqlashga va har qanday norozilik harakatlarini bostirishga yo‘naltirilgan. Xulosa qilib aytganda, Xitoyda huquq-tartibotni saqlash tizimi markazlashgan, kuchli davlat nazorati ostida va keng qamrovli kuzatuvga asoslangan. Asosiy maqsad - ijtimoiy barqarorlikni saqlash.

Fransiyada jamoat xavfsizligini ta’minlash quyidagilarga asoslanadi:

•Markazlashgan: Ichki ishlar vazirligi nazorat qiladi.

•Ikki asosiy kuch: Milliy Politsiya (shahar) va Jandarmeriya (qishloq).

•Prefektlar: Hududlardagi davlat vakillari, politsiyani muvofiqlashtiradi.

•Terrorizmga qarshi kurash: Terrorizmga qarshi kurashga katta e’tibor qaratiladi.

•Favqulodda holat rejimi: Terror xavfi yuqori bo‘lganda politsiyaga qo‘shimcha vakolatlar beriladi.

Germaniyada jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi quyidagicha:

•Federal tuzilma: Yer (federal davlat) va federal politsiya mavjud.

•Yer politsiyasi (Landespolizei): Har bir yer o‘z politsiyasiga ega.

•Federal politsiya (Bundespolizei): Temir yo‘l, aeroport va chegaralar xavfsizligi uchun mas’ul.

•Konstitutsiyaviy nazorat: Fuqarolarning huquqlari qonun bilan himoyalangan.

•Proporsionallik tamoyili: Politsiya vakolatlarini zaruratga qarab qo‘llaydi.

•Jamoatchilik bilan aloqalar: Politsiya jamoatchilik bilan yaqin munosabatda bo‘lishga harakat qiladi.

Amerikada jamoat xavfsizligini ta’minlashning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

•Desentralizatsiya: Federal, shtat va mahalliy darajalarda ko‘plab mustaqil politsiya departamentlari mavjud.

•Federal rol cheklangan: Federal hukumat asosan davlatlararo jinoyatlarga qarshi kurashadi.

•Politsiya resurslari: Ba’zi hududlarda politsiya yaxshi ta’minlangan, boshqalarida resurslar cheklangan.

•Zo‘ravonlik va irqiy muammolar: Politsiya zo‘ravonligi, irqiy profilaktika va javobgarlik masalalari jiddiy tashvish uyg‘otadi.

•Konstitutsiyaviy cheklovlar: To‘rtinchi tuzatma asossiz qidiruv va hibsga olishdan himoya qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquq-tartibotni saqlash, qonun ustuvorligini ta’minlash va jamiyat a’zolarining huquq va erkinliklarini himoya qilish - bu o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiradigan tushunchalardir. Jamoat xavfsizligini ta’minlash qonun asosida amalga oshiriladi va qonun ustuvorligini ta’minlaydi. Qonun ustuvorligi esa, o‘z navbatida, jamiyat a’zolarining huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan. Bu uchta element birgalikda jamiyatda tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lex.uz

2. AQSh: Alexander, Michelle. The New Jim Crow: Mass Incarceration in the Age of Colorblindness. The New Press, 2010. (AQShda irq va jinoyat tizimi haqida tanqidiy tahlil), Goffman, Alice. On the Run: Fugitive Life in an American City. University of Chicago Press, 2014. (Politsiya va qora tanlilar jamiyati o‘rtasidagi munosabatlar haqida etnografik tadqiqot).

3. Germaniya: Bundeskriminalamt veb-sayti.

4. Fransiya: Fassin, Didier. Enforcing Order: An Ethnography of Urban Policing. Polity Press, 2013. (Fransiya politsiyasi haqida etnografik tadqiqot).

5. Yaponiya: Ames, Walter L. Police and Community in Japan. University of California Press, 1981. (Yaponiyada politsiya va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar haqida klassik tadqiqot).

6. Rossiya: Rawlinson, Peter. Policing in Russia. Routledge, 2010. (Rossiya politsiyasi haqida umumiy ma’lumot beradigan kitob).

KIBERMAKONDA SODIR ETILGAN FIRIBGARLIKNING MIQDOR VA SIFAT KO‘RSATKICHLARI

Baxtiyorov I.B.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi, kapitan
E-mail:ibaxtiyorov2007@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kibermakonda sodir etiladigan firibgarlik tushunchasi, asosiy xususiyatlari, shuningdek, kibermakonda sodir etilgan firibgarlik jinoyatlarining miqdor va sifat ko‘rsatkichlari ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kibermakon, kompyuter firibgarligi, kiberjinoyat, kiberfiribgarlik, kiberxavfsizlik, kibermadaniyat, kibersavodxonlik.

Hozirgi davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur’atlar bilan rivojlanishi inson hayotining deyarli barcha jabhalariga ta’sir etmoqda. Internet va global tarmoqlar orqali iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy aloqalar kengayib bormoqda. Shu bilan birga, kibermakonning tezkor va keng qamrovli imkoniyatlari uning salbiy oqibatlarini ham yuzaga chiqarmoqda. Xususan, firibgarlik jinoyatlarining virtual makonga ko‘chishi, ularning turli shakl va ko‘rinishlarda amalga oshirilishi bugungi kunda jiddiy ijtimoiy muammoga aylanmoqda. Kibermakonda sodir etilgan firibgarliklarning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ular an’anaviy firibgarliklardan farqli ravishda yashirin, tezkor, xalqaro ko‘lamda va murakkab texnologik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bu esa ularning miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini o‘rganish, statistik tahlilini olib borish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Kiberfiribgarlik tushunchasi. “Kompyuter firibgarligi” (computer fraud) atamasi, o‘tgan asrning 70-yillarida paydo bo‘lgan bo‘lib, hozirgi kunga qadar olimlar tomonidan bir qancha bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Xususan, D.A. Ziykov kompyuter firibgarligi bu “kompyuter texnikasi yordamida aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritish”

degan tushunchani ilgari suradi[1]. M.A. Yefremova esa, kiberfiribgarlik va kompyuter firibgarligi bir xil tushuncha, ya'ni sinonimlar deb hisoblaydi[2]. Professor N.A. Lopashenko, kompyuter firibgarligini naqd bo'lmagan pul mablag'larini va nodokumentar qimmatli qog'ozlarni qo'lga kiritish uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik deb tariflaydi[3].

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida kibermakonda sodir etiladigan firibgarlik jinoyati O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi 3-qismi "g" bandi bilan, ya'ni "Firibgarlik, ya'ni aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqini qo'lga kiritish, axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan bo'lsa[4]" – kvalifikatsiya qilinadi

2022-yil 28-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni bilan tergov faoliyatini nazorat qilish, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilayotgan yangi turdagi jinoyatlar, shu jumladan kiberjinoyatlarni fosh etish bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyatini isloh qilish, qo'shimcha kuch va vositalarni jalb qilish hamda ushbu jinoyatlarga qarshi kurashish jarayonlarida fuqarolarning qadr-qimmati va erkinligini himoya qilishning samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qator vazifalar belgilandi[5].

Kibermakonda sodir etilgan firibgarliklarning miqdor va sifat ko'rsatkichlari.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 33-moddasida: "…Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari

[1] Зыков Д.А. Виктимологические аспекты предупреждения компютерного мошенничества. Владимир, 2002. – 211 с.

[2] Ефремова М.А. Мошенничество с исползованием электронной информации // Информационное право. 2013. № 4. С. 19-21.

[3] Лопашенко Н.А. Посягателства на собственност: монография. – М.: Норма, Инфра-М, 2012. – С. 8.

[4] O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.

[5] 2022 yil 28 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yangi O'zbekistonning 2022–2026- yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF–60-son Farmoni.

yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yiladi[1]”-deb ko‘rsatilgan.

Tahlillar va statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda kiberjinoyatlar ortidan keladigan yillik global zarar 11,4 trillion dollarga teng bo‘lgan. Globallashuv va raqamlashtirish muhitida raqamli texnologiyalar vositasida sodir etilayotgan jinoyatlar yildan yilga ko‘payib, an’anaviy jinoyatlarning kiberjinoyatlarga transformatsiyasi yurtimizda ham kengayib borayotgani kuzatilmoqda. Xususan, mamlakatimizda so‘nggi besh yillikda kiberjinoyatlar 68 baravar, birgina o‘tgan yilda esa 2023 yildagiga nisbatan 9,1 baravar oshgan. Ushbu davrda kibermakondagi huquqbuzarliklar yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushayotgan murojaatlar soni 34 baravar ko‘paygan.

Mazkur jinoyatlar natijasida fuqarolarning 1 trillion 909 milliard so‘mdan ortiq mablag‘i talon-taroj qilingan. 2019-yilda axborot texnologiyalari orqali 18 turdagi 863 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lsa, 2024-yilda 62 turdagi 58 ming 800 ta jinoyat qayd etilgani hamda kiberjinoyatlarning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi sezilarli ravishda ortishi kuzatilgani ularning oldini olish zaruratini yanada dolzarblashtirmoqda.

2023-yilda kiberjinoyatlarning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi 6,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 44,4 foizga yetib, deyarli har ikkita jinoyatning biri axborot texnologiyalari orqali sodir etildi. Bu holat ularning oldini olish tizimini muntazam, yilma yil takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. Kiberjinoyatlarning asosiy qismini (98 foizi) bank kartalari bilan bog‘liq jinoyatlar (kibero‘g‘rilik va kiberfiribgarlik) tashkil etmoqda.

Kiberjinoyatlar asosan quyidagi usullarda sodir etilmoqda:

- 60 foizi zararli havolalar va dasturlar yuborish orqali;
- bank kartasi yoki mobil qurilma boshqaruvini qo‘lga kiritish yo‘li bilan;
- 16 foizi turli aldovlar bilan bank kartasi hamda mobil ilovalardagi akkauntlar boshqaruvini tasdiqlovchi SMS kodni qo‘lga kiritish yo‘li bilan;
- 4 foizi shaxs nomiga onlayn kredit rasmiylashtirish orqali;
- 11 foizi onlayn savdo platformalaridagi firibgarliklar orqali;

[1] O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi.

- 9 foizi turli usuldagi firibgarlik sxemalari orqali fuqarolarning pul mablag‘larini jalb qilish tarzida sodir etilmoqda[1].

“Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorga asosan, kiberjinoyatlarning barvaqt oldini olish yo‘nalishida quyidagi choralarni ko‘rish belgilandi:

Birinchidan, banklar va to‘lov tashkilotlarining o‘z axborot xavfsizligi siyosatiga va kiberxavfsizlik talablariga rioya etish borasidagi mas’uliyatini kuchaytirish maqsadida Ichki ishlar vazirligi tomonidan har oy yakuni bo‘yicha tizimida eng ko‘p kiberjinoyatlar (zaifliklar va kamchiliklar natijasida yuzaga kelgan) qayd etilgan banklar va to‘lov tashkilotlari ro‘yxatini ommaga e’lon qilish amaliyoti joriy qilinadi.

Bu banklar va to‘lov tashkilotlari o‘z xavfsizlik tizimini mustahkamlash bo‘yicha jiddiy choralar ko‘rishiga turtki beradi, fuqarolarda himoya tizimi mustahkam bo‘lgan banklar va to‘lov ilovalarini aniqlash va tanlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Ikkinchidan, Markaziy bank tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning tranzaksiyalarini monitoring qilish orqali aholi pul mablag‘larini jalb qilishga qaratilgan firibgarlik sxemalari (“moliyaviy piramida”) alomatlari yoki shubhalar mavjud bo‘lgan holatlarni aniqlash hamda ular haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga tezkor xabar berish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Bunda Markaziy bankda shubhali o‘tkazmalarni aniqlash mexanizmi ishlab chiqiladi va ma’lumotlar elektron ma’lumotlar almashinuvi tizimi orqali Ichki ishlar vazirligiga yuboriladi. Natijada fuqarolar firibgarlik sxemalariga investitsiya kiritish va aldanib qolish holatlarining barvaqt oldi olinadi.

Uchinchidan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan har yili aholining kibermadaniyatini yuksaltirishga va kibergigiyenasini shakllantirishga qaratilgan kompleks targ‘ibot-tashviqot dasturi tasdiqlanadi hamda respublika miqyosida har yilning noyabr oyini “Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi” deb e’lon qilinadi.

Zero, Kibersavodxonligi yetarli emasligi sababli fuqarolarning o‘zi shaxsiy ma’lumotlarini firibgarlarga taqdim etmoqda yoki ijtimoiy tarmoqlardan zararli dasturlarni yuklab olmoqda.

[1] Toshpo‘latov A.A. Kiberjinoyatlarni jilovlash orqali xavfsiz kibermakon yaratish.Raqamli transformatsiya sharoitida kiberjinoyatlarning barvaqt oldini olishda O‘zbekiston tajribasi. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 07.05.2025 yil №92-son – 1-3 c.

To‘rtinchidan, ichki ishlar organlari mas’ul bo‘linmalari so‘roviga asosan shubhali pul o‘tkazma amaliyotlariga aloqador bank kartalarini tezkorlik bilan bloklash amaliyoti joriy etiladi. Buning natijasida esa, firibgarlik jinoyatlari, jumladan, “moliyaviy piramida” orqali o‘zlashtirilgan pullarning 80 foizini o‘z egalariga qaytarish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Beshinchidan, kiberjinoyatlarning shakllari va ularni sodir etish usullari to‘g‘risida ogohlantirish uchun internet va ijtimoiy tarmoqlardagi maqsadli (target) reklama xizmatidan bepul tarzda foydalanish tartibi belgilanadi.

Bugun yoshlar asosiy vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazishi hamda milliy qadriyatlarimizga yot g‘oyalar targ‘iboti keng tarqalishi kuzatilmoqda. Internetda maqsadli (target) reklamalar asosida targ‘ibot olib borish xarajat talab etsa-da, ta’sirchan hisoblanishi isbotlanmoqda.

Oltinchidan, banklar ota-onalarni ularning voyaga yetmagan farzandlari bilan bog‘liq shubhali (frod) operatsiyalar haqida xabardor qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yadi. Bu esa voyaga yetmaganlarning firibgarlar tuzog‘iga tushishining salmog‘i kamayishiga xizmat qiladi

Yettinchidan, shubhali pul o‘tkazma amaliyotlariga aloqador bank kartalari haqidagi ma’lumotlarni zudlik bilan ichki ishlar organlari mas’ul bo‘linmalariga taqdim etib boriladi hamda kiberjinoyatlarni sodir etish uchun fuqarolar o‘zlarining bank hisobraqami, bank kartalari hamda elektron hamyonlari bo‘yicha ma’lumotlarni taqdim etgan shaxslar (drop) reyestri yuritiladi[1].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, ushbu maqolada kibermakonda sodir etiladigan firibgarlikning mohiyati va asosiy xususiyatlari, shuningdek, miqdor va sifat ko‘rsatkichlari batafsil tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida “…Mamlakatlar o‘rtasida raqamli rivojlanish va sun’iy intellektdan foydalanishda tengsizlikning oldini olish juda muhim ahamiyatga ega…[2]”- deya butun jahon e’tiborini qaratishi tobora kuchayib borayotgan globallashuv jarayonida kiberjinoyatlarga qarshi kurashish uchun har bir kishi hushyor va ogoh bo‘lishi, axborotni tahlil qila bilishi lozimligi bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

[1] 2025-yil 30-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-153-son qarori.

[2] 2025-yil 23-sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. https://www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. https://www.lex.uz.
3. 2025-yil 23-sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi. https://president.uz.
4. 2022 yil 28 yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF–60-son Farmoni. https://www.lex.uz.
5. 2025-yil 30-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-153-son qarori. https://www.lex.uz.
6. Toshpo‘latov A.A. Kiberjinoyatlarni jilovlash orqali xavfsiz kibermakon yaratish. Raqamli transformatsiya sharoitida kiberjinoyatlarning barvaqt oldini olishda O‘zbekiston tajribasi. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. 2025. №92-son 1-3-s.
7. Лопашенко Н.А. Посягательства на собственность: монография. Норма, Инфра-М. 2012. С. 8.
8. Зыков Д.А. Виктимологические аспекты предупреждения компьютерного мошенничества. Владимир. 2002. С. 211.
9. Эфремова М.А. Мошенничество с использованием электронной информации. Информационное право. 2013. № 4. С. 19-21.

YOSHLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGON XUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI BOYICHA HAMKORLIK FAOLIYATINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

Komiljonov Sh.Q.
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID iD: 0009-0004-1458311X,
shohruhmirzokomiljonov010@gmail.com

Annotatsiya. Yoshlar tomonidan sodir etiladigon xuquqbuzarliklar profilaktikasi boyicha hamkorlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari nomli maqolada yoshlar tomonidan sodir etilgan qonunbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha hamkorlikdagi sa'y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlovchi

tashkiliy-huquqiy asoslar koʻrib chiqilgan.Tadqiqot ushbu yoshlar tomonidan sodir etilgan qonunbuzarliklarning oldini olish boʻyicha hamkorlikdagi tizimlarning samaradorligini tushunish uchun mavjud adabiyotlarni, huquqiy nizomlarni va ushbu yoshlar tomonidan sodir etilgan qonunbuzarliklarning oldini olish boʻyicha hamkorlikdagi mavjud profilaktika dasturlarini tahlil qiladi. Yoshlar tomonidan sodir etilgan qonunbuzarliklarning oldini olish boʻyicha hamkorlikdagi tadqiqoti manfaatdor tomonlar, shu jumladan ta'lim muassasalari, huquqni muhofaza qilish organlari, jamoat tashkilotlari va oilalar oʻrtasidagi hamkorlikni osonlashtiradigan asosiy tashkiliy strategiyalar va huquqiy vositalarni ta'kidlaydi. Yoshlar tomonidan sodir etilgan qonunbuzarliklarning oldini olish boʻyicha hamkorlikdagi maqolada yoshlar bilan bogʻliq huquqbuzarlik, yoshlar tomonidan sodir etiladigon va sodir etilishi mumkin boʻlgan huquqbuzarlik hamda jinoyatchiligining oldini olish, ularning huquqiy asoslar, hamkorlik faoliyati, tashkiliy-huquqiy strategiyalar, hamkorlik sifatida jamoatchilik ishtirokini jalb qilish, huquqni muhofaza qilish organlari, Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar hamda unda ishtirok etuvchi, Ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlarining va ta’lim muassasalari negishli vakillari ta'lim sohasida hamkorlik mexanizmlari va huquqiy tuzilmalarni takomillashtirish boʻyicha taklif va tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit soʻzlar: yoshlar jinoyatchiligining oldini olish, huquqiy asoslar, hamkorlik faoliyati, tashkiliy strategiyalar, jamoatchilikni jalb qilish, huquqni muhofaza qilish, ta'lim.

Yoshlarning qonunbuzarliklari koʻplab jamiyatlarda muhim tashvish boʻlib qolmoqda, bu esa tashkiliy va huquqiy asoslarni birlashtirgan mustahkam profilaktika strategiyasini talab qiladi. Maktablar, huquqni muhofaza qilish organlari, jamoat tashkilotlari va oilalar kabi turli manfaatdor tomonlar oʻrtasidagi samarali hamkorlik yoshlarning noqonuniy faoliyat bilan shugʻullanishining oldini olish uchun juda muhimdir. Ushbu maqola yoshlar jinoyatchiligining oldini olish, ilgʻor tajribalarni aniqlash va mavjud tizimlarni takomillashtirishni taklif qilish boʻyicha hamkorlikning tashkiliy-huquqiy asoslarini oʻrganishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotda sifatli tadqiqot metodologiyasi, jumladan, mavjud adabiyotlarni koʻrib chiqish, huquqiy hujjatlarni tahlil qilish va yoshlar jinoyatchiligining oldini olish bilan shugʻullanadigan manfaatdor tomonlar bilan suhbatlar qoʻllanilgan. Adabiyotlar sharhi yoshlar jinoyatchiligining oldini olishning tashkiliy-huquqiy jihatlarining asosiy mavzulari va

tendentsiyalarini aniqlashga qaratilgan. Amaldagi qonun va qoidalarning etarliligini baholash uchun huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Ta'lim muassasalari, huquqni muhofaza qilish organlari, jamoat tashkilotlari vakillari va huquqshunoslar bilan suhbatlar profilaktika strategiyasini amalga oshirishning amaliy muammolari va imkoniyatlari to‘g‘risida tushuncha berdi.

Yoshlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha hamkorlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari turli manfaatdor tomonlar o‘rtasida huquqiy qoidalar, institutsional rollar va hamkorlik strategiyalarini o‘z ichiga olgan tuzilgan asosni o‘z ichiga oladi. Mana asosiy komponentlarning konturi.

Huquqiy asos:

- Qonunchilik: voyaga etmaganlar uchun Adliya hujjatlari, bolalarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonunlar va jinoyat kodekslari kabi Milliy qonunlar va qoidalar yoshlar huquqbuzarliklarini hal qilish uchun huquqiy asos yaratadi.

- Xalqaro konvensiyalar: Birlashgan Millatlar Tashkilotining bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi (UNCRC) kabi konvensiyalar voyaga etmaganlarning huquqlari va himoyalarini belgilaydi, profilaktika ishlariga rahbarlik qiladi.

- Siyosat va ko‘rsatmalar: yoshlarni rivojlantirish siyosati va jinoyatchilikning oldini olish strategiyasi kabi hukumat siyosati kooperativ faoliyatni boshqarish uchun juda muhimdir.

Institutsional ro`llar:

- Huquqni muhofaza qilish organlari: politsiya va voyaga etmaganlar uchun Adliya tizimlari qonunlarni bajarish va huquqiy standartlarga muvofiqligini ta'minlashda asosiy rol o‘ynaydi.

- Ta'lim muassasalari: maktablar xavf ostida bo‘lgan yoshlarni aniqlashda va ijobiy xulq-atvorni targ‘ib qiluvchi ta'lim dasturlarini amalga oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

- Ijtimoiy xizmatlar: bolalarni himoya qilish agentliklari huquqbuzarlikka olib kelishi mumkin bo‘lgan asosiy muammolarni hal qilib, yoshlar va oilalarni qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim etadi.

- Nodavlat tashkilotlar (NNT): NNTlar ko‘pincha murabbiylik, malaka oshirish va jamoatchilikni jalb qilishga qaratilgan dasturlarni taqdim etish uchun joylarda ishlaydi.

- Sud tizimi: voyaga etmaganlar Odil sudloviga ixtisoslashgan Sudlar jazodan ko‘ra reabilitatsiyaga e'tibor qaratib, yosh huquqbuzarlar bilan bog‘liq ishlarni ko‘rib chiqadilar.

Hamkorlik va muvofiqlashtirish:

- Idoralararo hamkorlik: sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish uchun huquqni muhofaza qilish, ijtimoiy xizmatlar, maktablar va NNTlarni birlashtirgan idoralararo vazifa kuchlarini yoki qo‘mitalarini tashkil etish.

- Davlat-xususiy sheriklik: profilaktika dasturlarini moliyalashtirish va amalga oshirish uchun davlat organlari va xususiy sektor subyektlari o‘rtasidagi hamkorlik.

- Jamiyatni jalb qilish: mahalliy jamoalarni, shu jumladan ota-onalarni, diniy muassasalarni va jamoat rahbarlarini profilaktika ishlariga jalb qilish.

- Axborot almashish: yoshlar xulq-atvorini kuzatish va erta aralashish uchun agentliklar o‘rtasida ma'lumot va razvedka almashish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Profilaktik strategiyalar:

- Ta'lim va xabardorlik dasturlari: yoshlarga noqonuniy xatti-harakatlarning oqibatlari to‘g‘risida ma'lumot berish va ijtimoiy javobgarlikni targ‘ib qilishga qaratilgan tashabbuslar.

- Reabilitatsiya va reintegratsiya dasturlari: yosh huquqbuzarlarni reabilitatsiya qilish va ularni jamiyatga qayta integratsiyalashga qaratilgan dasturlar, ko‘pincha maslahat, ta'lim va kasb-hunar ta'limi orqali.

- Nizolarni hal qilish va vositachilik: nizolarning zo‘ravonlik yoki jinoiy faoliyatga aylanishining oldini olish uchun yoshlarga nizolarni hal qilish ko‘nikmalarini o‘rgatadigan dasturlarni yaratish.

- Erta aralashuv: ijtimoiy xizmatlar va maktablar orqali xavf ostida bo‘lgan yoshlarni aniqlash va huquqbuzarliklarning oldini olish uchun ularga zarur yordam ko‘rsatish.

Monitoring va baholash:

- Muntazam baholash: samaradorlikni o‘lchash va takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash uchun profilaktika dasturlarini muntazam ravishda baholash.

- Huquqiy nazorat: barcha profilaktika tadbirlari milliy va xalqaro huquqiy standartlarga muvofiqligini va yoshlar huquqlarini hurmat qilishini ta'minlash.

Muammolar va mulohazalar

- Resurslarni taqsimlash: profilaktika choralari uchun etarli mablag ' va resurslarni ta'minlash.

- Huquqiy va axloqiy mulohazalar: profilaktika zarurligini yoshlar huquqlari bilan muvozanatlash, aralashuvlar ularning erkinliklariga putur etkazmasligini ta'minlash.

- Madaniy sezgirlik: profilaktika dasturlarini ular xizmat koʻrsatadigan jamoalarning madaniy sharoitlariga moslashtirish.

Ushbu ramka yoshlarning huquqbuzarliklarini samarali oldini olish va ularning ijobiy rivojlanishiga koʻmaklashish uchun huquqiy, tashkiliy va jamoat harakatlarini birlashtirgan yaxlit yondashuvni ta'kidlaydi.

Kooperativ faoliyatda yoshlar tomonidan huquqbuzarliklarning oldini olish koʻp qirrali yondashuvni talab qiladi, ta'lim, jalb qilish va jamoatchilikni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan. Mana ba'zi strategiyalar:

Ta'lim va xabardorlik

Sizning rejangiz turli xil ta'lim va murabbiylik tashabbuslari orqali hamkorlik, axloqiy xulq-atvor va qoidalarga hurmat kabi qadriyatlarni singdirishga qaratilgan. Mana, har bir nuqtani qanday kengaytirish mumkin:

- Erta Ta'lim:

- Dastur integratsiyasi: maktablarda ijtimoiy va emotsional ta'limga (SEL) yoʻnaltirilgan oʻquv dasturlarini ishlab chiqish va birlashtirish. Ushbu dasturlar talabalarga hamkorlikning ahamiyatini, jamoaviy ishning ahamiyatini va qoidalarga rioya qilishning ahamiyatini oʻrgatishi mumkin. Rol oʻynash stsenariylari va guruh faoliyati qoidabuzarliklarning oqibatlarini koʻrsatishda samarali boʻlishi mumkin.

- Interfaol ta'lim: oʻquvchilarni birgalikda ishlashga va oʻz harakatlarining boshqalarga ta'sirini tushunishga undaydigan oʻyinlar, hikoyalar va loyihalar kabi interaktiv vositalardan foydalaning.

- Seminarlar:

- Muntazam ishtirok etish: axloqiy xulq-atvor, hamkorlik va jamoaviy ish bilan shugʻullanadigan turli darajalarda (maktablar, kollejlar, ish joylari) seminarlar va seminarlar tashkil etish. Ushbu sessiyalar ushbu tushunchalarni chuqur tushunishni rivojlantirish uchun amaliy tadqiqotlar, mehmon ma'ruzachilar va guruh muhokamalarini oʻz ichiga olishi mumkin.

- Oqibatlarga e'tibor qarating: guvohliklar, hujjatli filmlar va taqdimotlar orqali axloqiy boʻlmagan xatti-harakatlar va qoidalarni buzishning haqiqiy oqibatlarini ta'kidlang. Bu kuchli toʻxtatuvchi ta'sirni yaratishi va ijobiy xatti-harakatlarni ragʻbatlantirishi mumkin.

Murabbiylik Dasturlari:

- Tuzilgan qo‘llanma: jamiyat yoki sohaning tajribali shaxslari yoshlarga ustozlik qiladigan murabbiylik dasturlarini tuzing. Ushbu murabbiylar axloqiy xulq-atvorning ahamiyati, qoidalarga hurmat va turli xil sharoitlarda hamkorlik qilish bo‘yicha shaxsiy ko‘rsatmalar berishlari mumkin.

- Uzoq muddatli qo‘llab-quvvatlash: mentorlik dasturlari uzoq muddatli bo‘lishiga ishonch hosil qiling, bu mentlarga o‘z ustozlari bilan mustahkam munosabatlar o‘rnatishga imkon beradi, ular turli xil muammolarni hal qilishda doimiy yordam va maslahat bera oladilar.

Ushbu yondashuv nafaqat hamkorlik va axloqiy xulq-atvorning muhimligini o‘rgatadi, balki ushbu qadriyatlarni doimiy o‘rganish va Real hayotda qo‘llash orqali mustahkamlaydi.

Ishtirok etish va ishtirok etish:

- Inklyuziv qarorlar qabul qilish: yoshlarni kooperativ faoliyatning qaror qabul qilish jarayonlariga jalb qilish, ularga egalik va mas'uliyat hissini berish.

- Ijobiy mustahkamlash: ijobiy xulq-atvorni va qoidalarga rioya qilishni tan oling va mukofotlang, boshqalarni ham shunga ergashishga undang.

- Faol ishtirok etish: yoshlarning diqqat-e'tiborini va g‘ayratini ushlab turadigan, qoidalarni buzish ehtimolini kamaytiradigan mazmunli faoliyat bilan faol shug‘ullanishini ta'minlash.

Hamjamiyat va tengdoshlarni qo‘llab-quvvatlash:

- Tengdoshlarning javobgarligi: yosh ishtirokchilar o‘z xatti-harakatlari uchun bir-birlarini javobgarlikka tortadigan, mas'uliyat madaniyatini targ‘ib qiluvchi tengdoshlarning monitoringini rag‘batlantirish.

- Ota-onalar va jamiyat ishtiroki: qo‘llab-quvvatlovchi muhitni ta'minlash va ijobiy xulq-atvorni mustahkamlash uchun ota-onalar va jamiyat rahbarlarini hamkorlik faoliyatiga jalb qilish.

- Ifoda uchun xavfsiz joylar: yoshlar o‘z tashvishlari va umidsizliklarini bildirishlari mumkin bo‘lgan platformalarni yarating, hal qilinmagan muammolar tufayli buzilishlar ehtimolini kamaytiring.

Aniq qoidalar va oqibatlar:

- Shaffof ko‘rsatmalar: kooperativ faoliyatdagi xatti-harakatlarning aniq qoidalari va taxminlarini belgilash, barcha ishtirokchilar ularni tushunishini ta'minlash.

- Izchil ijro: kelajakdagi huquqbuzarliklarni oldini olish uchun qoidabuzarliklar uchun adolatli va tegishli oqibatlarga olib keladigan qoidalarni izchil qo‘llang.

- Mojarolarni hal qilish bo‘yicha trening: yoshlarga nizolarni buzilishlarga murojaat qilmasdan konstruktiv tarzda boshqarishga yordam berish uchun nizolarni hal qilish bo‘yicha trening o‘tkazing.

Monitoring va qo‘llab-quvvatlash tizimlari:

- Muntazam Monitoring: hamkorlik faoliyati davomida xatti-harakatlarni kuzatish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni erta aniqlash tizimlarini joriy etish.

- Qo‘llab-quvvatlash tarmoqlari: qonunbuzarlik xavfi ostida bo‘lgan, asosiy muammolarni faol hal qiladigan yoshlar uchun maslahat va yordam xizmatlaridan foydalanishni ta'minlash.

- Qayta aloqa mexanizmlari: ishtirokchilarning doimiy mulohazalari uchun kanallar yarating, bu esa kooperativ faoliyatni o‘zgartirish va takomillashtirishga imkon beradi.

Ushbu strategiyalar birgalikda ijobiy xulq-atvorni rag‘batlantiradigan, qoidabuzarliklarni oldini oladigan va kooperativ faoliyat doirasida yoshlarni rivojlanishida qo‘llab-quvvatlaydigan muhit yaratadi.

Huquqbuzarlik profilaktikasi sohasida shaxslarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqiy savodxonlikni oshirish, qonunlarga roiya qiladigan voyaga yetmaganlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda umumta'lim maktablarida fan sifatida o‘tiladigan "Huquqshunoslik" darslari o‘z o‘rniga ega. O‘quvchilarga huquqbuzarlik, huquqiy javobgarlik, jazo, jinoyat, huquqbuzarlikning oldini olish, huquq va axloq normalari kabi tushunchalar aynan ushbu darslarda yoritilib, mavzuga oid muammoli vaziyatlarni tahlil qilish bilan mustahkamlanadi. Shuningdek, ta'lim tizimida voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasi borasida tashkil etilgan voyaga yetmaganlar ishlari bo‟yicha inspektor psixolog lavozimlari joriy etilganligi hamda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar sifati yanda rivojlanmoqda. Jamiyatning voyaga yetmaganlar ishlari bo`yicha inspektor psixologlarga ehtiyoji o‘rganilib, ular ishlashi kerak bo‘lgan tegishli ish joylarini belgilandi:

• yoshlar bilan ishlash (ta'lim, uni qo‘llab-quvvatlash, bo‘sh vaqtni tashkil etish, oilaviy maishiy muammolarini birgalikda bartaraf etish, ularning jinoyat sodir etishlarini oldini olish va boshqalar);

• bolalar uylari va ixtisoslashtirilgan maktab inernatlari, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy yordam koʻrsatish muassasalarida ta'lim olayotganlar bilan ishlash (ta'lim, uni qoʻllab-quvvatlash, ixtisoslashtirilgan maktab inernatlari, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy yordam koʻrsatish muassasalarida ta'lim olayotganlar oilaviy sharoitlarini oʻrganish, ular bilan bog`liq muammolarni bartaraf etish, sogʻlom turmush tarziga qaytarish yuzasidan ishlarni tashkil etish va boshqalar);

• kattalar ta'limining shakllarida tahsil oklayotgan moyilligi bor voyaga yetmaganlar bilan ishlash (kasb-hunar ta'limi va ta'lim, korxonalardagi ijtimoiy ishlar, oʻz-oʻziga yordam tashkilotidagi voyaga yetmaganlarning sharoitlari, mehnat qilish hamda noqonuniy ish bilan band voyaga yetmaganlarning ushbu ishni qilayotganligi sabablari o`rganish, ota-onalari bilan manzilli ravishda ishlarni tashkil qilish, ularning nazoratsiz va qarovsiz qolishi natijasida jinoyat va huquqbuzarlik sodir etishini oldini olish va boshqalar);

• voyaga yetmagan har bir shaxsga hamda ularning oilasiga ijtimoiy-huquqiy yordam ko`rsatish (konsultatsiyalar, kundalik muammolarni hal qilishda yordam,aliment bo`yicha muammolar yoki nikohni bekor qilish borasida yuzaga kelayotgan holatlarda jabrlanuvchi bo`lib qolayotgan voyaga yetmaganlarga ijtimoiyhuquqiy yordam ko`rsatish, hamkor tashkilotlar bilan ushbu muammolarni bartaraf etish).

Yuqorida keltirilgan holatlar o`z vaqtida aniqlanmasa, ular bilan profilaktik choratadbirlar o`z vaqtida olib borilmasa, kelgusida voyaga yetmagan shaxslar huquqbuzarlik va jinoyatlardan jabrlanishi yoki ularni bevosita o`zi sodir etishi mumkinligi, yoki aksinsa bir qator tashkilot o`z vazifalarini yetarlicha amalga oshirmasa allakimlar ularda mavjud bo`lgan ma`naviy bo`shliqni o`zlarining buzg`unchi g`oyalari bilan to`ldirib ularni jinoyat sodir etishga undashi, jalb etishi mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi toʻgʻrisida”gi qonuniga muvofiq, huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari quyidagilardan iborat: huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi, huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi, huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi (6-modda).

Ilmiy-nazariy adabiyotlarda124 ham huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari boʻyicha ushbu yondashuv qoʻllab-quvvatlangan.

Ayrim tadqiqotchilar nisbatan shunga yaqin qarashlarni ilgari surgan. Jumladan, Sh.A.Ganiyevning ta’kidlashicha, axloqiy huquqbuzarliklar profilaktikasi quyidagicha:

- umumiy profilaktika;
- maxsus profilaktika;
- individual profilaktika.

Shu o‘rinda huquqbuzarliklar profilaktikasi obyektlarining mazmun-mohiyatiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. “Profilaktik ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlari yo‘naltirilgan salbiy hodisa va jarayonlar hamda shaxslar huquqbuzarliklar profilaktikasining obyektlari hisoblanadi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi obyektlari:

o profilaktik ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlari yo‘naltirilgan salbiy hodisa va jarayonlarga ko‘ra:

o g‘ayriijtimoiy xulq-atvor, huquqbuzarlik, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarga;

o profilaktik ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlari yo‘naltirilgan shaxslar doirasiga ko‘ra: fuqarolar, g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslar, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan, ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslar, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar, huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilar, huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli holatida bo‘lgan shaxslarga tasniflanadi”.

Tadqiq qilinayotgan masalalar nuqtayi nazaridan keltirilgan fikrlarni umumlashtirib, shunday xulosaga kelish mumkin:

yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi quyidagi mezon asosida turlarga ajratiladi: “profilaktik ta’sir ko‘rsatish obyektlarining xususiyati bo‘yicha”;

profilaktik ta’sir ko‘rsatish obyektlarining xususiyati bo‘yicha yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi kriminologik va viktimologik profilaktikaga ajratiladi. Milliy qonunchilikda yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar kriminologik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi qator ta’riflar keltirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi 2010-yil 29-sentabrdagi qonuniga muvofiq, voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi – voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va

shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi (3-m.); yakka tartibdagi profilaktika ishi – ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o‘z vaqtida aniqlash, shuningdek, ularni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyatdir (3-modda).

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq:

– huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalarning huquqbuzarliklarning oldini olish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish bo‘yicha faoliyati huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasidir (22-modda);

– huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shartsharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyati huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasidir. Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini amalga oshirish uchun quyidagilar asos bo‘ladi: ayrim turdagi huquqbuzarliklarning, shaxslar toifalarining ko‘payishi; jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tajovuz qiluvchi xatarlar va tahdidlarning yuzaga kelishi (24-modda);

– huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga doir faoliyati huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasidir. Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi shaxsning, uning ijtimoiy muhitining o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-maishiy sharoitlari va turmush tarzi, shaxsning g‘ayriijtimoiy xulq-atvorini, huquqbuzarlik sodir etishga moyilligini, shuningdek, sodir etilgan huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik darajasini tavsiflovchi boshqa omillar hisobga olingan holda belgilanadi. Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini qo‘llash

uchun shaxsning g‘ayriijtimoiy xulq-atvori to‘g‘risida, uning huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi yoxud u huquqbuzarlik sodir etganligi haqida dalolat beruvchi ishonchli ma’lumotlarning mavjudligi asos bo‘ladi. Huquqbuzarliklarning majburlovchi va cheklovchi xususiyatdagi yakka tartibdagi profilaktikasi qonunda nazarda tutilgan asoslarda qo‘llaniladi (28-modda).

Tadqiqot natijalarining tahlili

Ko‘rinib turibdiki, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar kriminologik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berishda milliy qonunchilikda umumiy, maxsus va yakka tartibdagi profilaktika tushunchalariga berilgan ta’riflarga tayanish mumkin. Chunki huquqbuzarliklar profilaktikasining ushbu turlari doirasida amalga oshiriladigan profilaktik ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlari shaxslar tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olishga qaratiladi

IIV ma’lumotiga ko‘ra, 2023-yilda sodir etilgan umumiy jinoyatlarning 87,7 foizi fosh etilgan, qidiruvdagi 7 563 nafar shaxs ushlangan, bedarak yo‘qolgan 450 nafar shaxs topilgan. Tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib sodir etilgan 6 455 ta jinoyat aniqlangan.

Bevosita mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash maqsadida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Natijada 2023-yil yakuni bo‘yicha mamlakatimizdagi 9 442 ta mahalladan 2 972 tasida yoki 31,5 foizida jinoyat sodir etilmagan. Jinoyatlar ko‘paygan 2 298 ta yoki 24,3 foiz mahalla “qizil” toifaga kiritilgan.

Bu borada IIV Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi hamda Yoshlar ishlari agentligi bilan yaqindan hamkorlik qilgani natijasida ijtimoiy ko‘makka muhtoj 6 634 nafar xotin-qiz ishga joylashtirilgan, qariyb 11 ming nafariga tibbiy, moddiy va ijtimoiy yordamlar ko‘rsatilgan.

Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan 40 ming nafardan ortiq xotin-qizga himoya orderi berilgan. Oilalar mustahkamligini saqlash maqsadida o‘tkazilgan profilaktik tadbirlar natijasida 17 327 ta oila yarashgan, oilaviy muammolar va zo‘ravonlikka duch kelgan 1 450 nafar xotin-qiz Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlariga joylashtirilgan.

Muhokamalar jarayonida amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan birga, huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi yo‘nalishida muayyan kamchiliklar, o‘z yechimini kutayotgan masalalar va to‘liq foydalanilmagan imkoniyatlar ham mavjudligi aytib o‘tildi.

Xususan, 2023-yilda mamlakatda 104 096 ta jinoyat ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularning 74 202 tasi yoki 71,3 foizi hisobot yilida sodir etilgan.

Jami jinoyatlar soni mamlakat bo‘yicha har 100 ming aholiga 289 tadan to‘g‘ri kelgan. Ushbu salbiy ko‘rsatkich Toshkent shahrida 735 tani, Toshkent viloyatida 415 tani, Sirdaryoda 378 tani, Farg‘onada 328 tani tashkil etgan.

Profilaktika inspektorlari faoliyatining sustligi oqibatida oldini olish imkoniyatlari mavjud bo‘lgan jinoyatlar hanuzgacha jami jinoyatlarning salmoqli qismini tashkil etmoqda.

Bu borada ham Toshkent shahri, Toshkent, Farg‘ona va Sirdaryo viloyatlarida salbiy ko‘rsatkichlar yuqoriligicha qolayotganligi tufayli, joriy yil 15-20-fevral kunlari Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi tomonidan mutasaddi vazirlik va idoralar vakillaridan iborat ishchi guruh aynan Farg‘ona va Sirdaryo viloyatlarida mazkur yo‘nalishda o‘rganishlar o‘tkazdi. O‘rganishlar davomida aniqlangan ko‘plab kamchiliklarni tezkor ravishda bartaraf etish yuzasidan zarur ko‘rsatma va tavsiyalar berdi.

Shu bois Qo‘mita majlisida Toshkent shahri, Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda Farg‘ona va Sirdaryo viloyatlari boshqarmalari mas’ul rahbarlarining ham axborotlari tinglandi.

Oilalardagi notinchlik, nizolarning o‘z vaqtida hal etilmasligi mahalla faollari va keng jamoatchilikning e’tiboridan chetda qolganligi oqibatida o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etilmoqda.

Jumladan, 2023-yil 12 oyida sodir etilgan 363 ta qotillikning 141 tasi yoki 38,8 foizi oila-turmush doirasidagi nizolar oqibatida kelib chiqqan.

Birgina misol, joriy yil 17-yanvar kuni Samarqand viloyatida yashovchi, 2014-yildan buyon ruhiy kasalliklar kasalxonasida ro‘yxatda turuvchi, ruhiy kasal, 49 yoshli fuqaro uyida o‘zaro janjal oqibatida birga yashagan 2019 yildan buyon ruhiy kasalliklar kasalxonasida ro‘yxatda turuvchi 26 yoshli o‘g‘lini boshiga bolta bilan urib o‘ldirgan. Aynan shu kabi holatlar yaqin qarindoshlar o‘rtasida yuz berayotgan jinoyatlarni kamaytirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmas aniq choralarni belgilash lozimligini ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga, yoshlarning muammolarini bartaraf etishga lozim darajada e’tibor qaratilmaganligi oqibatida 2023-yilda yoshlar va voyaga yetmaganlar o‘rtasida sodir etilgan jinoyatlar 2022 yilga nisbatan 5,3 foizga ortgan. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning soni ayrim hududlarda yuqoriligicha qolmoqda.

Bundan tashqari, 12 mingga yaqin ishsizlar tomonidan jinoyatlar sodir etilganligi, joylarda aholini ish bilan ta’minlash masalalari samarali hal etilmayotganini ko‘rsatdi.

Shu bilan birga, barchamizni tashvishga solishi lozim bo‘lgan yana bir muhim masala yo‘l-transport hodisalari soni kundan kunga ortayotganligidir.

Avtomobil yo‘llarida yo‘lovchilar xavfsizligini ta’minlash yuzasidan ta’sirchan nazorat to‘liq va samarali o‘rnatilmaganligi sababli, 2023-yilda jami 16 mln dan ortiq qoidabuzarlik qayd etilgan, jumladan 13 mln dan ko‘p qo‘pol qoidabuzarlik, 42 mingga yaqin transport vositasini mast holda boshqarish, 300 mingdan ortiq piyodalar qoidabuzarligi qayd etilgan.

Oqibatda, 9 839 ta yo‘l-transport hodisasi sodir etilib, ularda 9 209 nafar fuqaro jarohatlangan va 2 282 nafar fuqaro halok bo‘lgan.

Eng achinarlisi, 2023-yilda bolalar bilan bog‘liq 1 794 ta yo‘l-transport hodisasi sodir etilib, ularda 1 568 nafar bola jarohatlangan va 263 nafar bola halok bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga aholidan kelayotgan ichki ishlar organlari faoliyati bilan bog‘liq murojaatlarning aksariyati xodimlarning, ayniqsa, yo‘l-patrul xizmati xodimlarining tarbiyasiz harakatlari, yo‘l harakati qatnashchilari bilan qo‘pol muomalasi ustidan e’tirozni aks ettirmoqda.

Muhokama markazlari barcha manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradigan yoshlar jinoyatchiligining oldini olishga yanada kompleks yondashuv zarurligi to‘g‘risida. Tashkiliy strategiyalar maktablar, huquqni muhofaza qilish organlari, jamoat guruhlari va oilalar o‘rtasida mustahkam sheriklik aloqalarini o‘rnatishga qaratilishi kerak. Nodavlat tashkilotlar va jamoat a'zolarining profilaktika tadbirlarida faol ishtirok etishiga imkon beradigan huquqiy asoslar yanada moslashuvchan va inklyuziv bo‘lishi kerak. Tadqiqot shuningdek, profilaktika ishlarida ishtirok etadigan barcha manfaatdor tomonlar uchun eng so‘nggi bilim va ko‘nikmalar bilan jihozlanganligini ta'minlash uchun doimiy o‘qitishning muhimligini ta'kidlaydi.

Yoshlar huquqbuzarliklarining oldini olish kuchli huquqiy asoslarni samarali tashkiliy hamkorlik bilan birlashtirgan birgalikda harakat qilishni talab qiladi. Amaldagi tizimlar potentsialni namoyish etadi, ammo muvofiqlashtirish va resurslarni taqsimlashdagi bo‘shliqlar bilan cheklanadi. Manfaatdor tomonlar o‘rtasida mustahkam sheriklik aloqalarini

rivojlantirish va hamkorlikning huquqiy asoslarini takomillashtirish orqali yanada mustahkam va samarali profilaktika tizimini yaratish mumkin.

Huquqiy asoslarni takomillashtirish: yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda manfaatdor tomonlar o‘rtasida hamkorlik qilish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar berish uchun amaldagi qonunlarni qayta ko‘rib chiqish.

Hamkorlikni mustahkamlash: muvofiqlashtirilgan yondashuvni ta'minlash uchun maktablar, huquqni muhofaza qilish organlari va jamoat tashkilotlari o‘rtasida rasmiy kelishuvlarni ishlab chiqish.

Resurslarni ko‘paytirish: profilaktika dasturlarini qo‘llab-quvvatlash uchun ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlariga ko‘proq mablag ' ajrating.

Treningga e'tibor qarating: yoshlar jinoyatchiligining oldini olish bilan shug‘ullanadigan barcha manfaatdor tomonlar uchun eng yaxshi amaliyotlardan xabardor bo‘lish uchun muntazam treninglar o‘tkazing.

Jamiyat ishtirokini rag‘batlantirish: xabardorlik kampaniyalari va jamoatchilikka asoslangan dasturlar orqali oilalar va jamiyat a'zolarini profilaktika ishlariga ko‘proq jalb qilishni rag‘batlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ismailov I., Abdurasulova Q.R., Fazilov I.Y. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 175.

2. Kriminologiya. Maxsus qism: IIV oliy ta’lim muassasalari uchun darslik / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 563.

3.Ganiyev Sh.A. Axloqqa qarshi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni takomillashtirish. Doktorlik dissertasiyasi. – Toshkent, 2016. – B. 198.

4.Xo‘jaqulov S.B. Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirish (ichki ishlar organlari faoliyati misolida):

5.Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018.

6.Abdujalilov, D., & Aripova, A. (2021). KULTURA OBЩENIYa SOTRUDNIKOV OVD. Scientific progress, 2(1), 328-332.

7 Istamov, N., Ubaydullayev, S., Maxmudxujayev, J., & Boboxonov, Sh. (2021). TURIZM–KAK VEDUIЩIY SEKTOR MIROVOY EKONOMIKI. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE, 2(4), 1-5.

8 Ubaydullayev, S., Aripova, A., & Istamov, N. (2021). Turizm v Uzbekistane. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE, 2(4), 6-10.

9.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 29.08.1997 yilgi qarori bilan tasdiqlangan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997. – № 9. – 227-modda.

10. G‘ofurov Sh.R. Uyushmagan yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasining ustuvor yo‘nalishlari // O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. –T., 2018. – № 2. – B. 54-57 (12.00.00; № 12)

11. Qarshiyev G‘.S. Profilaktika inspektorlari tomonidan huquq tartibotni ta'minlash: O‘quv-amaliy qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – 60 b.

12. Aliyev Sh.X., Qarshiyev G‘.S. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi qonunning ijrosini ta'minlashda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari // Ichki ishlar organlarida normativ-huquqiy xujjatlar ijrosini ta'minlash mexanizmi: bugungi holati va istiqbollari: Respublika ilmiyamaliy konfrensiyasi materiallari (2020 yil 4 mart). – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. – B. 164-168.

13. Fazilov I.Yu., G‘ofurov Sh.R. Uyushmagan yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy xususiyatlari // O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti axborotnomasi. – T., 2018. – № 4. – B. 19-22 (12.00.00; № 18).

14. Qarshiyev G‘.S. Oilada yoshlar tomonidan sodir etiladigan ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish // O‘zbekiston ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan ma'muriy-huquqiy islohotlar: Respublika ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari (2020 yil 25 mart). − T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. – B. 177-180.

15. Aliyev Sh.X., Qarshiyev G‘.S. Oilada yoshlar jinoyatchiligining oldini olish yo‘nalishlari // Yurist axborotnomasi. – Toshkent, 2020. – № 2. – B. 87-90 (12.00.00; № 23).

JAMOAT TARTIBINI SAQLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mavlonov A.N.
Jamoat xavfsizligi universiteti Magistraturasi tinglovchisi

Annotatsiya Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari hamda bu boradagi istiqbollar. “Jamoat tartibi”, “Jamoat xavfsizligi” tushunchalariga berilgan ta’riflarning ilmiy tahlili, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlashda avtotransport vositalari va fuqarolarning ishtirokining huquqiy asoslarini takomillashtirish. Maqolada jamoat tartibini saqlashda fuqarolar ishtiroki, bu boradagi zamonaviy ish usullari bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ichki ishlar organlari, jamoat tartibi, jamoat xavfsizligini, avtotarnsportlar ishtiroki, jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash.

Jamoat tartibini saqlash — bu jamiyatda tartib-intizomni, qonun va qoidalar asosida ommaviy tinchlikni ta’minlash, fuqarolarning xavfsizligini va huquqlarini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir.

Jamoat xavfsizligi jamoat tartibidan farqli ravishda amaldagi qonunchilikda ta’rif keltirilgan ya’ni, jamoat xavfsizligi – jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi [1].

Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha o‘rnatilayotgan yangi mexanizmlarning samarali amalga oshirilishini ta’minlashda ichki ishlar organlarining roli va mas’uliyatini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son (2021 yil 2 aprel) qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, Toshkent shahri va Toshkent viloyati ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash borasidagi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida quyidagilarni nazarda tutuvchi yangi boshqaruv tizimi joriy

etildi: birinchidan, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida jamoat xavfsizligini ta’minlash ushbu hududlardagi ichki ishlar va boshqa vakolatli organlarning mavjud kuch va vositalarini yagona “poytaxt mintaqasi” tamoyili asosida safarbar qilgan holda hamkorlikda amalga oshirilishi belgilandi [2].

Jamoat tartibini saqlashning asosiy vazifalari:

1. **Jinoyatlar va huquqbuzarliklarning oldini olish**

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va maxsus xizmatlar tomonidan patrul, nazorat va tezkor chora ko‘rish.

2. **Ommaviy tartib-intizomni ta’minlash**

Mitinqlar, namoyishlar, sport musobaqalari kabi jamoat tadbirlarida tartibni nazorat qilish.

3. **Fuqarolar xavfsizligini ta’minlash**

Favqulodda vaziyatlarda yordam ko‘rsatish, ommaviy xavfsizlikni ta’minlash.

4. **Qonun ustuvorligini saqlash**

Ommaviy tartib buzilishlariga qarshi qonuniy choralar ko‘rish.

5. **Ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash**

Fuqarolar o‘rtasida tinchlikni saqlash va ijtimoiy nizolarni oldini olish.

Jamoat tartibini saqlash vositalari:

- Patrul xizmatlari
- Tezkor reaksiya guruhlari
- Avtotransport vositalari (tezkor yetib borish uchun)
- Maxsus texnika va uskunalar
- Huquqiy va ma’naviy ta’lim

Jamoat tartibini saqlashda qatnashuvchi tashkilotlar:

- Ichki ishlar organlari (politsiya)
- Milliy gvardiya
- Favqulodda vaziyatlar vazirligi
- Mahalliy hokimiyat organlari
- Xalq orasidagi jamoatchilik tashkilotlari va ko‘ngillilar

Jamoat tartibini saqlashda avtotransport vositalarining o‘rni juda muhim hisoblanadi. Quyida uning asosiy jihatlari keltiriladi:

Tezkor harakat va yetkazib berish

Tezkor harakat va yetkazib berish — bu jamoat tartibini saqlash tizimida vazifalarni samarali bajarish uchun xodimlar, resurslar va zarur vositalarni tez va o‘z vaqtida kerakli joyga yetkazish jarayonidir.

Tezkor harakat va yetkazib berishning ahamiyati:

1. **Favqulodda vaziyatlarga tez javob berish**

Jamoat tartibini buzuvchi holatlar yoki jinoyatlar yuz berganda, xodimlar voqea joyiga iloji boricha tez yetib borishi kerak. Bu jinoyatlarni oldini olish yoki bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi.

2. **Resurslarning optimal taqsimlanishi**

Vaziyatga qarab kuchlar va vositalarni joylashtirish, kerakli uskunalar yoki yordamchilarni tez yetkazish imkonini beradi.

3. **Xavfsizlikni ta’minlash**

Ommaviy tadbirlar yoki potensial xavfli hududlarda tezkor yetib borish orqali fuqarolar xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi.

4. **Patrul va nazoratning samaradorligini oshirish**

Avtotransport vositalari yordamida patrul xodimlari tez harakat qilib, hududni keng qamrab oladi.

Tezkor harakat va yetkazib berish vositalari:

- Maxsus signal va shovqin chiqaruvchi vositalarga ega avtomobillar
- Motosikllar (shahar sharoitida tez harakat uchun)
- Tezkor reaksiya guruhlari va ularning jihozlari
- Zamonaviy aloqa vositalari va GPS tizimlari

Resurslarni samarali taqsimlash

Transport vositalari yordamida turli hududlarga tez va samarali tarzda patrul yoki xizmat ko‘rsatish xodimlarini yetkazish mumkin. Bu jamoat tartibini saqlashda hududlar bo‘yicha resurslarni to‘g‘ri taqsimlashga xizmat qiladi.

Monitoring — bu jamoat tartibini saqlash jarayonida hududda yuz berayotgan holatlarni doimiy kuzatib borish, muammolarni va huquqbuzarliklarni aniqlash faoliyatidir.

Nazorat — bu kuzatilgan holatlar va muammalarga qarshi choralar ko‘rish, tartib-intizomni ta’minlash uchun o‘rnatilgan qoidalar va qonunlarga amal qilinishini ta’minlash jarayonidir.

Monitoring va nazoratning ahamiyati:

Vaziyatni real vaqt rejimida kuzatish

Zamonaviy texnologiyalar (video kameralar, dronlar, GPS) yordamida jamoat joylaridagi holat doimiy nazoratda bo‘ladi.

Xavfsizlikni oshirish

Potensial huquqbuzarliklarni erta aniqlash va oldini olish imkonini beradi.

Tezkor reaksiya ko‘rsatish

Monitoring natijalariga asoslanib, tezkor harakatlar va choralarga o‘tish mumkin.

Resurslarni samarali boshqarish

Qayerda kuchlar yetishmayotgani yoki muammo borligini aniqlab, resurslarni to‘g‘ri taqsimlash imkonini beradi.

Hujjatlashtirish va tahlil qilish

Yig‘ilgan ma’lumotlar asosida kelajakdagi chora-tadbirlar ishlab chiqiladi, qonuniy choralar ko‘riladi.

Monitoring va nazorat vositalari:

Video kuzatuv tizimlari (CCTV);

Mobil patrul va tezkor guruhlar;

Maxsus ilovalar va dasturiy ta’minotlar;

Dronlar va boshqa monitoring texnikalari.

Jamoatchilik bilan aloqani yaxshilash

Maxsus xizmat avtomobillari jamoatchilikka yaqinlashishni osonlashtiradi, tezkor yordam va maslahat berish imkoniyatlarini oshiradi.

Jamoatchilik bilan aloqani yaxshilash — jamoat tartibini saqlash tizimida fuqarolar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, hamkorlik va samarali muloqotni tashkil etish jarayonidir [3].

Nega jamoatchilik bilan aloqani yaxshilash muhim?

1. **Ishonch va hamkorlikni oshirish**

Fuqarolar politsiya va boshqa tartib saqlovchi organlarga ishonishsa, ular bilan hamkorlik qilishga tayyor bo‘ladilar. Bu jinoyatlarni oldini olish va aniqlashda yordam beradi.

2. **Ma’lumot almashish**

Jamoatchilikdan kelgan ma’lumotlar yordamida huquqbuzarliklarni erta aniqlash va oldini olish mumkin.

3. **Jamoatchilik xavfsizligini ta’minlash**

Fuqarolar o‘z xavfsizligi uchun mas’uliyatni his qilib, tartib-intizomni saqlashga ko‘proq hissa qo‘shadilar.

4. **Noqonuniy holatlarni kamaytirish**

Jamoatchilik bilan yaxshi aloqalar jinoyatchilik va tartibsizliklarning kamayishiga olib keladi.

Jamoatchilik bilan aloqani yaxshilash usullari:

- **Axborot targ‘iboti**: ommaviy axborot vositalari orqali huquqiy madaniyatni oshirish, jamoat tartibini saqlash qoidalari haqida tushuntirishlar berish.

- **Fuqarolar yig‘inlari va uchrashuvlar**: politsiya va mahalla vakillari bilan muntazam uchrashuvlar tashkil qilish.
- **Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar**: aholiga tezkor javob berish va muammolarni muhokama qilish uchun.
- **Ko‘ngillilik dasturlari**: jamoatchilikning faol qatnashuvi va hamkorligini oshirish.
- **Ochiq eshiklar kuni va targ‘ibot tadbirlari**: aholi bilan bevosita muloqot uchun imkon yaratish.

Favqulodda vaziyatlarda yordam ko‘rsatish

Avtotransport vositalari favqulodda holatlarda, masalan, ommaviy tartibsizliklar yoki tabiiy ofatlar vaqtida tez yordam ko‘rsatishda asosiy vosita hisoblanadi.

Favqulodda vaziyatlarda yordam ko‘rsatish

Favqulodda vaziyatlar — bu kutilmagan, odatda xavfli holatlar bo‘lib, ularda jamoat tartibini saqlash organlari tezkor choralar ko‘rishi talab etiladi. Bunday vaziyatlarga tabiiy ofatlar (sel, zilzila), yong‘inlar, yo‘l-transport hodisalari, ommaviy tartibsizliklar va boshqa favqulodda holatlar kiradi [4].

Favqulodda vaziyatlarda yordam ko‘rsatishning asosiy jihatlari:

1. **Tezkor yetib borish va vaziyatni baholash**

Avtotransport vositalari va maxsus texnika yordamida favqulodda joyga tez yetib borish va vaziyatni o‘rganish.

2. **Insonlarni himoya qilish va evakuatsiya qilish**

Jabrlanganlarni xavfsiz joyga olib chiqish, zarur tibbiy yordam ko‘rsatish.

3. **Jamoat tartibini saqlash**

Favqulodda vaziyatda tartibsizliklarning oldini olish, ommaviy xavfsizlikni ta’minlash.

4. **Resurslarni boshqarish**

5. Zarur kuch va vositalarni samarali taqsimlash, zaxira resurslarini safarbar etish.

6. **Hamkorlik va koordinatsiya**

Boshqa favqulodda xizmatlar (tez yordam, o‘t o‘chirish, qo‘riqlash) bilan yaqin hamkorlikda ishlash.

7. **Axborot taqdimoti**

Aholiga vaziyat haqida to‘g‘ri va tezkor ma’lumot berish, vahima va noto‘g‘ri tushunishni oldini olish.

Favqulodda vaziyatlarda yordam koʻrsatishda ishlatiladigan vositalar:

- Maxsus transport vositalari (tezkor yordam avtomobillari, yongʻin oʻchirish mashinalari)
- Aloqa vositalari (radio, mobil telefonlar)
- Zaxira va tibbiy yordam vositalari
- Evakuatsiya uchun maxsus jihozlar

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, avtotransport vositalari jamoat tartibini saqlashning samaradorligini oshiruvchi, tezkor va samarali harakat imexanizmini joriy etilishi, koʻngilochar obyektlarda sodir etilishi mumkin boʻlgan jinoyatlarni barvaqt oldini olish, jabrlanganlarga tezda yordam koʻrsatish, fuqarolarning qonuni huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi PQ-2940-sonli “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” Farmoni.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha tashkiliy choratadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-5050-son (2021 yil 2 aprel) Qarori.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “2022 – 2025 yillarda Oʻzbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi” Farmoni.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLAShDA UChUVChISIZ UChISh APARATLARINI QO‘LLASh – O‘ZIGA HOS MODEL SIFATIDA

Sattorov F.A.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi unversiteti
magistraturasi tinlovchisi

Annatasiya. Ushbu maqolada uchuvchisiz uchuvchi aparatlar tushunchasi, ulardan foydanish amaliyoti, bugungi kunda rivojlangan davlatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlashlashda uchuvchisiz uchuvchi aparatlardan foydalanish va qo‘llanilishining o‘ziga hos jihatlari va ularni qo‘llashning jangavor amaliyotdagi o‘ziga hos model ekanligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar. Uchuvchisiz uchush aparatlari, jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi, ommaviy tartibsizliklar, dronlarning mo‘ljallanishi, qanotli dronlar, razvedka dronlari, gibrid dronlar, razvedka va kuzatuv.

So‘nggi yillarda texnologiyaning jadal rivojlanishi natijasida uchuvchisiz uchish apparatlari — dronlar, aviarobotlar yoki UAV (Unmanned Aerial Vehicle) deb ham ataladigan qurilmalar — turli sohalarda keng qo‘llanila boshlandi. Ular harbiy, fuqarolik, qutqaruv, qishloq xo‘jaligi va hatto kinosanoat sohalarida faol foydalanilmoqda.

Yuksak taraqqiy etgan davlatlar o‘ta mukammal harbiy texnikalarni ixtiro qilishda misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishmoqda. Oddiy jangovar qurollar sifat va taktik-texnik tasnifiga ko‘ra kun sayin o‘z darajalarini o‘zgartirib, ularni qo‘llash yanada mukammal shaklda amalga oshirilayotganligini kuzatish mumkin. Bu esa, o‘z o‘rnida harbiy harakatlar taktikasi va strategiyasini prinsipial jihatdan o‘zgartirib yubormoqda. Xalqaro terrorizm jarayonining harbiy jihatlari harbiy san’atni umuman o‘zgartirib yubordi. U global ko‘rinish kasb eta boshladi.

Uchuvchisiz uchush aparatlarining bugungi kunda quydagi turlarini keltirish mumkin:

Qanotli dronlar (Fixed-wing UAVs): Samolyot shaklida bo‘lib, uzoq masofalarga uchish uchun mo‘ljallangan. Asosan harbiy va kartografiya ishlarida foydalaniladi.

Ko‘pvintli dronlar (Multirotor UAVs): Ko‘plab vintlarga ega bo‘lib, ular orasida eng mashhuri kvadrokopterlardir. Havodagi barqarorligi tufayli videosuratga olishda foydalaniladi.

Gibrid dronlar: Qanotli va vintli dronlar xususiyatlarini birlashtiradi, shu tufayli barcha sohalarda universal foydalanish imkonini beradi.

Uchuvchisiz uchush aparatlarini dunyoda hozirda quydagicha qo‘llanilish sohalari mavjud hisoblanadi:

Harbiy sohada: Razvedka, hujum, kuzatuv va yuk tashish maqsadlarida ishlatiladi.

Qishloq xo‘jaligida: Ekinlarni nazorat qilish, suvlash, o‘g‘itlash va zararkunandalarga qarshi kurashishda yordam beradi.

Favqulodda holatlarda: Oftobli joylarni, yong‘in, sel va boshqa tabiiy ofatlar jabrlangan hududlarni kuzatish va qutqaruv ishlarini tezlashtirishda foyda beradi.

Sanoat va qurilish sohasida esa inshootlarni kuzatish, inspeksiya qilish va aniq o‘lchovlar olishda qo‘llanilmoqda.

Kinematografiya va ommaviy axborot vositalarida ham yuqori sifatli havo tasvirlarini olish uchun keng foydalaniladi.

Bu zamonaviy uchoqlarning afzalliklari shundaki, inson hayotini xavfga qo‘ymasdan ma’lumot to‘plash imkonini beradi. Qiyin etib boriladigan hududlarda faoliyat yuritish mumkin. Aniq va tezkor kuzatuvni ta’minldab beradi. Uchuvchisiz uchish apparatlari kelajak texnologiyalarining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ularning imkoniyatlari turli sohalarda inson mehnatini engillashtirib, samaradorlikni oshirmoqda. Ammo ulardan oqilona va qonun doirasida foydalanish, xavfsizlik va axloqiy me’yorlarga rioya qilish muhim hisoblanadi[1.9].

Eng muhumi uchuvchisiz uchish apparatlarining harbiy sohadagi ahamiyati juda muhim hisoblanadi. Harbiy sohada zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi jahon armiyalari uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Shular orasida uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA) — ya’ni dronlar — juda muhim o‘rin tutadi. Ular orqali qo‘shinlar xavfli missiyalarni inson hayotini xavf ostiga qo‘ymasdan bajara oladi. Ushbu aparatlar hozirgi kunda razvedka, hujum, targ‘ibot, yuk tashish, himoya va hatto aparatlar elektron urush sohalarida keng qo‘llanilmoqda.

Uchuvchisiz uchuvchi aparatlarining harbiy sohada bir qator vazifalari mavjud bo‘lib bular:

Razvedka dronlari (ISR – Intelligence, Surveillance, Reconnaissance):

Havodan ma’lumot to‘plash, dushman pozisiyalarini kuzatish va real vaqtda tasvir etkazib berish uchun mo‘ljallangan.

Ushbu aparatalarning yana bir turi hujumchi dronlar hisoblanadi. (Combat UAVs/UCAVs):

Bular orasida Turkiya Respublikasining Bayraktar TB2, AQShning MQ-9 Reaper, Eronning Shahed-136 dronlarini keltirish mumkin[1.12].

Ushbu uchuvchisiz uchush aparatlari bombalar va raketa tizimlari bilan jihozlangan bo‘lib, dushmanning harbiy nuqtalarini yo‘q qilishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari Kamikadze dronlarlar (Loitering Munitions) ham hozirda mavjud bo‘lib Svitchblade (AQSh), Lancet (Rossiya) kabilar shu kabilar toifasiga kiradi. Bu dronlar dushman hududida ma’lum vaqt “aylanib yurib”, belgilangan nishonga zarba beradi.

Bundan tashqari hozirda yuk tashish va ta’minot dronlari ham mavjud bo‘lib,

asosan kichik yuklar, dorilar yoki o‘q-dorilarni front chizig‘iga etkazishda qo‘llanilanilib kelinmoqda[2.291].

Uchuvchisiz uchush aparatlarining harbiy sohadagi asosiy vazifalari quydagilardan iborat bo‘lmoqda:

Razvedka va kuzatuv: UUAlar front ortidagi dushman pozisiyalarini aniqlab, yuksak aniqlikda xarita tuzish imkonini beradi.

Nishonni aniqlash va zarba berish: Hujumchi dronlar aniq koordinatalarga asoslanib, kam xarajat bilan katta ta’sir qiladi.

Mina va portlovchi moddalarni aniqlash: Erdagi xavfli mina va bombalarni aniqlashda maxsus sensorli dronlar ishlatiladi.

Psixologik ta’siri ham mavjud bo‘lib, kamikadze dronlar dushman safiga psixologik bosim o‘tkazib, ularni beqaror qilish qobilyatiga ega.

Dronlar an’anaviy samolyot va vertolyotlarga nisbatan ancha arzon va texnik xizmat ko‘rsatishi oson hisoblanadi. Ushbu uchuvchisiz uchush aparatlari harbiy sohada zamonaviy aniqlikdagi o‘q-dorilar bilan jihozlanib, qurbonlar sonini kamaytirishi bilan ham muhum ahamiyatga ega hisoblanadi[3].

Ushbu texnalogiyalar real vaqtda ma’lumot etkazib berish qobilayati bilan ham ahamiyatli bo‘lib, komandirlar tez qaror qabul qilishlari uchun zarur ma’lumotlarni oladi.

2022 yilda Rossiya va Ukraina o‘rtasidagi keng ko‘lamli harbiy mojaro dunyodagi harbiy strategiya va texnologiyalarga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu urush dronlar — uchuvchisiz uchish apparatlarining mojaroda hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkinligini amalda namoyish qildi. UUAlar nafaqat razvedka, balki hujum, artilleriyaga yordam va psixologik ta’sir vositasi sifatida ham keng qo‘llanilmoqda. Razvedka va kuzatuv – dushman pozisiyalari, harakati va logistikasini aniqlashda xizmat qilmoqda.

Artilleriyani aniq yo‘naltirilgan holda dronlar orqali artilleriya o‘qlari dushmanga aniq zarba bera olmoqda. Bu urushda bir martalik dronlar orqali strategik obyektlarga zarba berilmoqda va bunda kamikadze tipidagi dronlar muhum ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Har ikki tomon ham dushman dronlarini urushdan chiqarish uchun harakat qilmoqda[2.292].

Bugungi kunda jamoat joylarida, asosan fuqarolar ko‘p to‘planadigan joylarda, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ximoya qilish, jamoat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, videokuzatuv vositalaridan keng foydalanishni zamonning o‘zi talab etmoqda. Negaki ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi, aholi sonining muntazam ravishda oshib borishi, ist’emol bozorining ortib borishi jinoyatga qarshi kurash va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Statistik tahlillarga ko‘ra, AQSh va Xitoy Xalq respublikalarida so‘nggi yillarda o‘rnatilgan videokuzatuv kameralari soni shiddat bilan oshib bormoqda. Agar 2015 yilda AQShda ularning soni 47 millionga yaqin bo‘lgan[2.293].

Halqaro terrorizmga qarshi kurash jarayonida ham eng manfaatdor hisoblangan AQSh davlatining o‘zigina, bugungi kunga kelib dunyoning istagan nuqtasida, xoh u Sharqiy Evropa, xoh Afrika, yo bo‘lmasa Osiyo mintaqasi bo‘lsin, barchasida harbiy harakatlar olib borish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shuni ta’kidlash joizki, bugungi globallashuv sharoitida an’anaviy urushlar o‘rnini avtonom va masshtabli harbiy harakatlar maydonidagi mobil qo‘shinlar orqali olib boriladigan tarmoq urushlari va umuman qo‘shin ishtirokisiz amalga oshiriladigan masofaviy urushlar egallaganini kuzatish mumkin. Bu esa, urushlarning amaldagi huquqiy tizim va urush odatidan voz kechishni va uni qaytadan ko‘rib chiqishni talab etadi[1]. AQSh harbiy byudjetida tarmoq va masofaviy urushlarni moliyalashtirish haqidagi yangi punktning paydo bo‘lish holatini ayrim tahlilchilar, ushbu mamlakat ma’muriyatining xalqaro huquq me’yorlaridan voz kechib, dunyo hamjamiyatiga harbiy, iqtisodiy va diplomatik ta’sir o‘tkazish prinsipiga o‘tayotganligi bilan izohlashmoqda[2.292]. Ushbu urushlarda qo‘llaniladigan asosiy vosita bu UUA hisoblanadi. Buning xarakterli jihati AQSh Mudofaa vazirligi tomonidan 2002 yilda tayyorlangan 2027 yilgacha mo‘ljallangan “2002-2027 yillarda UUA rivojlantirish yo‘l haritasi” nomli uzoq muddatli kompleks dasturni ishlanmasi, terrorizmga qarshi UUA qo‘llash qoidalari hamda istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab beradi. Bunga yaqqol misol sifatida AQShning Iroq, Afg‘oniston, Siriya, Yaman, Somali

va Pokistonda antiterroristik operasiyalarga boshchilik qilib, olib borgan jangovar harakatlarini keltirish mumkin.

So‘nggi yillarda texnologiyaning jadal rivojlanishi natijasida uchuvchisiz uchish apparatlari — dronlar, aviarobotlar yoki UAV (Unmanned Aerial Vehicle) deb ham ataladigan qurilmalar — turli sohalarda keng qo‘llanila boshladi. Ular harbiy, fuqarolik, qutqaruv, qishloq xo‘jaligi va hatto kinosanoat sohalarida faol foydalanilmoqda.

Bugungi kunga kelib jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini ta’minlashda uchuvchisiz uchush aparatlarni qo‘llashning huquqiy asoslari yaratilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari - “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunida, “Jamoat tartibini saqlash to‘g‘risida”gi me’yorlar (IIV va Mudofaa vazirligi hujjatlari) mana shunday huquqiy echimlar keltirildi[3].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, AQSh terrorizmga qarshi kurash siyosatida masofaviy urush taktikasini tanlagan deb aytishga barcha asoslar bor, bu xolatning havotirli jihati, terrorchilarning butun dunyo bo‘ylab tarqalib ketgani AQSh va boshqa shunday apparatlarga ega bo‘lgan davlatlarning harbiy operasiyalar o‘tkazish hududining kengayib borishi bilan boshqa suveren davlatlarning hududiy dahlsizligiga salbiy ta’sir o‘tkazishida ko‘rinadi.

Uchuvchisiz uchish apparatlari harbiy strategiyada inqilob yaratdi. Ular razvedkadan tortib hujumgacha, transportdan tortib axborot urushlarigacha turli vazifalarni bajarishda samarali vositaga aylandi. Bu texnologiyalar kelajakda yanada aqlli, avtonom va halokatli bo‘lishi mumkin. Biroq, ularni boshqarishda inson omili, qonunchilik va etik me’yorlar muhimligini unutmaslik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Смирнов В.М., Ковалева Д.А. Исползование беспилотных летателных аппаратов для обеспечения безопасности на объектах транспорта. // Исползование беспилотных летателных аппаратов для обеспечения безопасности на объектах транспорта – тема научной стати по праву читайте бесплатно текст научно-исследователской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка

2. Sharapiddinov B.B. Uchuvchisiz uchish apparatlarini terrorizmga qarshi kurashda qo‘llanilish tendensiyasi (xorij tajribasi AQSh) //“Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida yuzaga kelayotgan muammolar

va ularning echimlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami.

3. O‘zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi Vazirlar maxkamasi Qarori. 2022 yil 15 noyabrdagi 658-sonli.

YOSHLAR JINOYATCHILIGINING PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI

Raxmatov K.X.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
tinglovchisi, kapitan

Annotasiya: Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining barqarorligi va xavfsizligiga tahdid soluvchi omillardan biri bu — yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilikdir. Yoshlar — har bir davlatning kelajagi va taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etuvchi qatlam bo‘lganligi sababli, ularning jinoyatchilikka moyil bo‘lishi nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki butun jamiyat uchun jiddiy muammodir. Shu munosabat bilan, yoshlar jinoyatchiligining oldini olish va uning profilaktikasini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Mazkur maqolada yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha samarali chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Yoshlar jinoyatchiligining asosiy sabablari, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, oilaviy muhit, tarbiya va ta’lim darajasi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, huquqiy savodxonlikni oshirish, profilaktik chora-tadbirlar, sport va madaniy tadbirlar orqali bo‘sh vaqtni samarali tashkil etish kabi usullar muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari yoshlar orasida jinoyatchilikni kamaytirish va sog‘lom ijtimoiy muhit yaratishda qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: yoshlar, jinoyatchilik, huquqbuzarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi.

So‘ngi yillarda Yangi O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlatni barpo etish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘tgan qisqa davrda mamlaktaimizda barcha sohalarda ko‘zga ko‘rinarli islohotlar amalga oshirildi, bular har bir sohada, jumladan yoshlar jinoyatchiligi va uning profilaktikasi faoliyatini takomillashtirish borasida ham o‘z ifodasini topmoqda.

Yoshlar — jamiyatning eng hayotiy va faol avlodidir. Biroq ayrim hollarda yoshlarda jinoyatchilikka moyillikning yuzaga kelishi ijtimoiy,

psixologik va huquqiy jihatdan jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bois yoshlar jinoyatchiligining oldini olish (profilaktika) — faqat ichki ishlar organlari emas, balki ta’lim, ijtimoiy xizmatlar, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari ham zaxiralari bilan ishtirok etishi lozim bo‘lgan ko‘pqirrali vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, yoshlarda jinoyatchilikka moyillik paydo bo‘lishida, turli prediktorlar mavjud. Bugungi ilmiy adabiyotlarda ushbu prediktorlar to‘rt asosiy toifaga ajratiladi: individual, oilaviy, ta’lim/maktab, hamda ijtimoiy-muhit omillari.

AQSh va Evropa manbalarida olib borilgan tadqiqotlar yosh jinoyatchiligining muhim prediktorlaridan biri — maktabdan chetlashtirilishi yoki qoldirilishi ekani ko‘rsatilgan. Masalan, maktabdan chiqarib yuborilgan yoshlar bir yil ichida jinoiy faoliyatda qatnashish ehtimoli ikki barobar ko‘proq ekanligi ma’lum bo‘lgan.[1]

Ushbu masalani kengroq ko‘rib chiqqan «Lessons learned and yet to be learned from predictors of youth crime research» nomli sistematik qayta ko‘rib chiqishda 80 yillik davrda jinoyatchilikka moillikni prognoz qilishga yo‘naltirilgan omillar tahlil qilingan: ilgari tadqiqotlarda individual xususiyatlar (shaxsiy qo‘rqinch, psixopatologiya, qo‘shimcha moddalar ishlatish) ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, keyingi stadiyada makroiqtisodiy va ijtimoiy omillarga — ishsizlik, jamiyatdagi tengsizlik, oilaviy inqirozlar — ko‘proq e’tibor berilgan.[2]

- Jamoat asosida yosh jinoyatchiligini kamaytirish yo‘lida qo‘llangan tadqiqotlar “Exploring Community-Based Options for Reducing Youth Crime” nomli maqolada ko‘rib chiqilgan bo‘lib, mahalla, volontyorlik, yoshlar markazlari, sport-klublar va ijtimoiy dasturlarning yoshlarni jinoyatchilikdan yiroqlashtirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan.[3]
- Rekreativ sport tadbirlari (masalan, klublar, ommaviy sport) yoshlarda do‘stona aloqalarni mustahkamlash va jinoyatchilikka qarshi sterling bufer vazifasini bajarishi haqida “Recreative sports in preventing child and youth crime” maqolasida ta’kidlanadi.[4]

Xo‘sh, yoshlar jinoyatchiligining asosiy sabablari nimalar?!

Fikrimizcha, yoshlar orasida jinoyatchilikning kelib chiqishiga turli omillar sabab bo‘ladi. Ular orasida quyidagilar asosiy hisoblanadi:

[1] “Teenagers excluded from school ‘twice as likely’ to commit serious violence” — The Guardian эълони, мактабдан четлаштириш ва насбий жиноятчилик муносабати haқида.
[2] Lessons learned and yet to be learned from predictors of youth crime research, Discover Psychology, 2024.
[3] Edmunds K., Wall L., Brown S. ва бошқалар. Exploring Community-Based Options for Reducing Youth Crime, Int. J. Environ. Res. Public Health, 2021.
[4] Yaman, M. & Arslan, S. Recreative sports in preventing child and youth crime, Journal of Human Sciences (2009).

✓ Ijtimoiy-iqtisodiy omillar – ishsizlik, kambagallik, yashash sharoitining yomonligi yoshlarni jinoyatga etaklaydi.

✓ Oilaviy muhit – oiladagi tarbiya etishmovchiligi, nazoratsizlik, ota-onalarning ajralishi yoki ijtimoiy nosog‘lom muhit jinoyatchilikka moyillikni oshiradi.

✓ Ta’lim va tarbiya etishmovchiligi – ta’lim olish imkoniyatlarining cheklanganligi, maktab yoki kollejda etarli e’tibor bo‘lmagan hollarda yoshlar jinoyat yo‘liga kirib ketishi mumkin.

✓ Bo‘sh vaqtni noto‘g‘ri tashkil etish – yoshlarning bo‘sh vaqti samarali o‘tmasa, ular zararli odatlarga berilib, huquqbuzarlikka moyil bo‘lishi mumkin.

✓ Internet va axborot makonining ta’siri – zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi filmlar, o‘yinlar va ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy ta’sir yoshlarni jinoyatga undashi mumkin.

Shuningdek, yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning kelib chiqishiga turli omillar sabab bo‘ladi. Ushbu omillarni aniqlash va tahlil qilish, muammoni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Ko‘plab jinoyatlar yoshlarning moddiy muammolariga bog‘liq bo‘lib, ishsizlik, kambagallik va iqtisodiy qiyinchiliklar jinoyatchilikning asosiy sabablaridan biridir. Daromad manbalarining etishmovchiligi, oilaning iqtisodiy holati yoshlarni noqonuniy yo‘llar bilan pul topishga undashi mumkin.

Oilaviy muhit va tarbiya etishmovchiligi. Oilaning nosog‘lom muhitga ega bo‘lishi, ota-onalar tomonidan etarlicha e’tibor berilmasligi, oiladagi zo‘ravonlik va beqarorlik yoshlarni jinoyatga moyil qiladi. Ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi ishonchli munosabatlarning yo‘qligi ham huquqbuzarliklarning ortishiga olib keladi.

Yoshlar jinoyatchiligini oldini olish va profilaktikasi masalasida davlatimizda normativ-huquqiy bazalar mustahkamlangan bo‘lib bu davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

- O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati shakllantirilgan, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingan.
- 2025 yilda “Yoshlar bilan ochiq muloqotda belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida Farmon imzolandi va kreativ industriya parklari, grant dasturlari, soliq imtiyozlari joriy etilishi mumkinligi belgilandi.[1]

[1] “Ёшлар қандай қўллаб-қувватланади” — Norma.uz мақоласи, 2025 йилда ёшлар сиёсатларининг янгиланган чоралари haqida. T. 2025

- Jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarni profilaktika qilish sohasida Toshkentda yangi tizim joriy etish to‘g‘risida Prezident qarori qabul qilingan.[1]
- 2024 yilda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida qaror qabul qilindi, bu mahalla darajasida profilaktik faoliyatni tashkil etishni mustahkamlashni ko‘zlagan.
- Mahalla institutida “mahalla ettiligi” va profilaktika guruhlari qarama-qarshi faoliyat ko‘rsatadi, mahallalarda “namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak” tarkibida jamoa ekologik muhitini yaxshilash choralari qabul qilinmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish doimo ustuvor ahamiyat kasb etgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasida aholimizning yarmidan ko‘pini tashkil etadigan yoshlar huquqlarini himoya qilish doimo e’tiborimiz markazida ekanligini alohida ta’kidlab o‘tdi.

Bugun O‘zbekistonda ulkan yangilanishlar kechmoqda va bu jarayonda zamonaviy bilim hamda dunyoqarash bilan hayotga kirib kelayotgan yangi avlod maydonga chiqmoqda. Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, ezgu tashabbusi va salohiyatini qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qiladi.

Jamiyatda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish huquqni muhofaza qilish idoralari zimmasiga yuklatilgan asosiy hamda dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar bilan bir qatorda Milliy gvardiya organlarining ham munosib hissasi bor. Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan subyektlar o‘z faoliyati jarayonida huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek, huquqbuzarliklar sodir etilishining sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbuzarliklar profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirishda huquqbuzarliklar profilaktikasining boshqa subyektlari bilan bevosita hamkorlik qiladi. Hamkorlik– ish faoliyatda birga, hamkor bo‘lish,

[1] Президент қарори: Тошкентда жамоат тартиби ва ҳуқуқбузарлик профилактикаси соҳасида янги тизим жорий этиш ҳақида.

ayni bir maqsadni ko‘zlab beligilangan ishda birgalashish, uni teng bajarish tushuniladi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi hamkorlik–ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi subyektlarning qonun hujjatlarga asoslanib, o‘zaro kelishilgan holda faoliyatning shakl va usullari, xizmat vakolatlaridan samarali foydalanishi bo‘lib, bunda ikki yoki undan ortiq xizmat, ya’ni boshqaruvning bir-biriga bo‘ysunmagan alohida ishtirokchilari o‘z harakatlarini o‘zaro kelishib bajarishadi. Ya’ni, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

Quyida yoshlar jinoyatchiligining profilaktikasini takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy yo‘nalishlar taklif qilinadi:

- Xavf guruhiga kiruvchi yoshlarni qidirish va ular bilan individual darajada ishlash — masalan, maktablarda, jamoat markazlarida, oilada nazorat va kuratorlikni kuchaytirish.
- **Huquqiy savodxonlik**, fuqarolik bilimlari, etika va axloq darslarini maktab dasturlariga kiritish;
- Maktabdan chetlashtirishni kamaytirish va inklyuziv ta’limni rivojlantirish: ta’limdan chetlashgan yoshlar jinoyatchilikka moyillikka tezroq yo‘l topishi mumkinligi ilmiy tadqiqotlarda ko‘rsatilmoqda;[1]
- Qo‘shimcha ta’lim va tashqi dunyo bilan bog‘lanish (texnik kurslar, yangi hunarlashtirish, ilmiy krujoklar) orqali yoshlarni ijtimoiy faollikka jalb qilish.
- Mahalla darajasida profilaktika guruhlarini tashkil etish: “mahalla ettiligi” va “Obod va xavfsiz mahalla” konsepsiyalari doirasida mahalliy darajada faoliyat olib borish.[8]
- Jamoat markazlari, yoshlar klublari, sport va madaniyat markazlarini kengaytirish: yoshlarga rivojlanish va ijtimoiy faollik imkoniyatlari taqdim qilish.
- Volontyor va mentorlik dasturlari joriy qilish: kattalar yoshlar bilan ishlashi, ularni ruhlantirishi va qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Masalan, YouthLink Scotland tajribasida yoshlar ishlari mutaxassislari[1] (youth workers) yoshlarning jinoyatchilikdan olis bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi.
- Jamoa asosida opsiyalarni tadqiq qilgan “Exploring Community-Based Options for Reducing Youth Crime” maqolasida mahalliy jamiyatlar, faol ko‘cha nazorati, jamoat go‘zaloni, mavjud infratuzilma (sport maydonlari, yoshlar markazlari)ni yaxshilash usullari tavsiya etilgan.

[1] Жуманазарова Д. “Профилактика инспекторлари ва ҳудудий Ёшлар ишлари агентлиги ҳамкорлиги” мақоласи.

- Internetdagi zo‘ravonlik, jinoyatkorlikni targ‘ib qiluvchi kontentlarga qarshi monitoring, blokirovka, uxborot-targ‘ibot kampaniyalari — bu yo‘nalishda “Online Safety for All” nomli tadqiqot global jamoat uchun axborot xavfsizligi masalasini qo‘shadi.
- Mashina o‘rganish va sun’iy intellekt usullari orqali jinoyatchilik riski prognozini amalga oshirish va resurslarni samarali tarzda yo‘naltirish (Crime Prediction Using Machine Learning and Deep Learning).
- Axborot texnologiyalaridan foydalanib, jinoyatchilikga moyillik belgilarini ilgari aniqlash va profilaktik choralarni avtomatlashtirish (masalan, jamoa soha va hududlarda ma’lum kontekstlarda signalizasiya tizimlari).
- **Qonuniy islohotlar**: jinoyatchilikka moyil yoshlar uchun alohida huquqiy mexanizmlar — masalan, jinoiy jazoni yumshatuvchi choralar (diversiya, alternativ jazo), yoshlarga yo‘naltirilgan spesifik jazolar.
- Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta’lim, madaniyat, salomatlik va ijtimoiy xizmatlar bilan integrasiyalangan tizim yaratish.
- Profilaktika faoliyatlarining monitoringi, baholash va qaysi usullar samarali ekani haqida ilmiy tadqiqotlar olib borish: har bir jamoa uchun “Koeffisientlar (metrikalar)” belgilash, KPI tizimi joriy etish (masalan, ichki ishlar organlarida profilaktika faoliyati mezonlari belgilangan).

Yoshlar jinoyatchiligining oldini olish — bu faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning emas, balki butun jamiyatning vazifasidir. Ushbu muammoni hal etishda tizimli yondashuv, ijtimoiy sheriklik va profilaktik tadbirlarning samaradorligini oshirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, yoshlarning jinoyatchilikdan yiroq bo‘lishi uchun ularni ish bilan ta’minlash, bilim va tarbiya berish, fuqarolik pozisiyasini shakllantirish yo‘nalishida amaliy choralar zarurdir.

Yoshlar jinoyatchiligining profilaktikasi — bu bir tomonlama choralar to‘plami emas, balki bir necha sohalarni o‘zida birlashtiruvchi, integral yondoshuv talab qiluvchi masala. Ilmiy tadqiqotlar yoshlarning jinoyatchilikka moyilliklarini oldindan aniqlash va intervensiya qilish imkoniyatlarini taqdim etadi.

O‘zbekistonda davlat siyosatlari, mahalla dasturlari, “mahalla ettiligi” instituti, “Obod va xavfsiz mahalla” konsepsiyalari — barchasi profilaktika qatorida muhim qadamlardir. Ammo amaliy faoliyatda byurokratik to‘siqlar, resurs cheklanganligi, tashkilotlar o‘rtasidagi muvofiqsizliklar kabi kamchiliklar hanuz ham mavjud.

Taklif qilinadigan yo‘llar — erta intervensiya usullarini rivojlantirish, maktab-ta’lim tizimida profilaktik jihatlarni kuchaytirish, jamoa institutlarini faollashtirish, axborot texnologiyalaridan foydalanish va qonuniy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali tandirli va samarali profilaktika tizimini yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T 2023 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi” qonuni.
3. “Teenagers excluded from school ‘twice as likely’ to commit serious violence” — The Guardian e’loni, maktabdan chetlashtirish va nasbiy jinoyatchilik munosabati haqida.
4. Lessons learned and yet to be learned from predictors of youth crime research, Discover Psychology, 2024.
5. Edmunds K., Wall L., Brown S. va boshqalar. Exploring Community-Based Options for Reducing Youth Crime, Int. J. Environ. Res. Public Health, 2021.
6. Yaman, M. & Arslan, S. Recreative sports in preventing child and youth crime, Journal of Human Sciences (2009).
7. “Yoshlar qanday qo‘llab-quvvatlanadi” — Norma.uz maqolasi, 2025 yilda yoshlar siyosatlarining yangilangan choralari haqida. Norma
8. Prezident qarori: Toshkentda jamoat tartibi va huquqbuzarlik profilaktikasi sohasida yangi tizim joriy etish haqida. GOV.UZ
9. “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda profilaktika tadbirlari — Gazeta.uz xabar. Gazeta.UZ
10. “Mahalla ettiligi” va moddiy rag‘batlar haqida — Daryo xabar.
11. Jumanazarova D. “Profilaktika inspektorlari va hududiy Yoshlar ishlari agentligi hamkorligi” maqolasi. scientific-jl.com
12. Bayesian decision theory framework for adaptive screening tests in youth delinquency, arXiv.
13. YouthLink Scotland: “Youth work role in crime prevention” tadqiqoti. YouthLink Scotland
14. Online Safety for All: Sociocultural Insights from a Systematic Review of Youth Online Safety.
15. Crime Prediction Using Machine Learning and Deep Learning: A Systematic Review.
16. The Long-Term Effects of the Youth Crime Prevention Program “New Perspectives” on Delinquency and Recidivism.

MAKTAB O‘QUVCHILARI TOMONIDAN SODIR ETILAYOTGAN HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

Jo‘rayev J.M.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
tinglovchisi, kapitan

Bugungi kunda jamiyat, ta'lim tizimi va huquqni muhofaza qilish organlari oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Ushbu illatning ildizlari murakkab ijtimoiy-psixologik, pedagogik va oilaviy omillarga borib taqaladi. Voyaga yetmaganlar orasidagi huquqbuzarlik nafaqat yoshlarning kelajagiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi, balki maktab muhiti xavfsizligini, ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini va umuman, jamiyatdagi barqarorlikni izdan chiqarish xavfini tug‘diradi.

Bu muammoni hal etishda profilaktik chora-tadbirlar samaradorligini oshirish fundamental ahamiyat kasb etadi. An'anaviy tarbiyaviy usullar ko‘pincha zamonaviy chaqiriqlarga javob bera olmayapti. Shu sababli, huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan kompleks va fanlararo yondashuvni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zarurati kun tartibida turibdi. Mazkur ilmiy maqolaning asosiy maqsadi - maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini chuqur tahlil qilish, mavjud profilaktika mexanizmlaridagi kamchiliklarni aniqlash hamda ushbu muammolarning oldini olishga xizmat qiladigan ilmiy asoslangan, amaliy yechimlar va samarali innovatsion takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Bu tadqiqot natijalari ta'lim muassasalari, oilalar va mas'ul davlat idoralari uchun muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda mustaqillik qo‘lga kiritilgan dastlabki kunlardan boshlab jamiyatda barqarorlikni ta’minlash, fuqarolarning tinchligi va osoyishta-ligini asrash ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Ushbu vazifalarni bajarishda ichki ishlar organlari faoliyatini keng jamoatchilik bilan uzviy hamkorlikda amalga oshirishi muhim o‘ringa egadir.

Huquqiy demokratik davlat taraqqiyotining rivoji o‘sib kelayotgan avlod-ning ta’lim va tarbiya darjasiga bog‘liq. Bunga erishish uchun esa avvalo, jamiyat a’zolarining, shu jumladan voyaga yetmagan va yoshlarningsiyosiy, ijtimoiy, ma’naviy va huquqiy saviyasi yuqori darajada bo‘lishi talab etiladi. Shu boisdan, voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklari profilaktikasida ta’lim va tarbiya alohida o‘ringa ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Sizlarga yaxshi ma’lumki, 2016 yil birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan “Sog‘lom ona va bola yili” deb e’lon qilingan edi. Bu borada davlat dasturi tasdiqlanib, ko‘plab tadbirlar amalga oshirildi. Bu har tomonlama sog‘lom avlodni voyaga yetkazish yo‘lidagi ishlarimizni izchil davm ettirib, yanada yuksak bosqichga ko‘tarishga xizmat kilmoqda” deb takidlab, voyaga yetmaganlarni tarbiyalash va ularni Vatan ravnaqi yo‘lida xizmat qiluvchi shaxs sifatida yetishtirish muhim vazifalardan ekanligini ko‘rsatib berdi.

Ta’kidlash joizki, mamlakat kelajagini bolalar, voyaga yetmagan va yoshlar timsolida, aniqrog‘i ularni jismoniy va ma’naviy jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazishda ko‘rishi tabiiydir. Mamlakatimizda voyaga yetmaganlarning barkamol inson bo‘lib, ulg‘ayishiga davlat siyosati darajasida e’tibor qarati-lishi va bu boradachora-tadbirlarning amalga oshirilib kelinayotgani ham shu maqsadda amalga oshirilayotganini anglash mumkin.

Ma’lumki, huquqiy demokratik davlat taraqqiyotining rivoji o‘sib kelayo-tgan avlodning ta’lim va tarbiya darjasiga bog‘liqdir. Bunga erishish uchun esa avvalo jamiyat a’zolarining, shu jumladan voyaga yetmagan va yoshlarningsiyosiy, ijtimoiy, ma’naviy va huquqiy saviyasi yuqori darajada bo‘lishi talab etiladi.

Shu boisdan, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olishni kuchaytirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Sizlarga yaxshi ma’lumki, 2016 yil birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan “Sog‘lom ona va bola yili” deb e’lon qilingan edi. Bu borada davlat dasturi tasdiqlanib, ko‘plab tadbirlar amalga oshirildi. Bu har tomonlama sog‘lom avlodni voyaga yetkazish yo‘lidagi ishlarimizni izchil davm ettirib, yanada yuksak bosqichga ko‘tarishga xizmat kilmoqda”, –deb takidlab, voyaga yetmaganlarni tarbiyalash va ularni Vatan ravnaqi yo‘lida xizmat qiluvchi shaxs sifatida yetishtirish muhim vazifalardan ekanligini ko‘rsatib berdi.

Darhaqiqat mamlakatning kelajagini belgilovchi yoshlar va voyaga yetmaganlarning komil insoln qilib tarbiyalashda adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash, ularning kelajakka ishonichini yanada mustaxkamlash davlat rivo-jida muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqbuzarligi haqida salmoqli statistik material to‘plangan, uni tahlil qilish metodikasi asosan

ishlab chiqilgan va bular ularning jinoyatchiligi va huquqbuzarliklarining holatini, uning miqdor va sifat (tarkibiy va boshqa) o‘zgarishlarini ancha aniq baholash imkonini beradi.

Voyaga yetmaganlar va yoshlar tomonidan aksariyat hollarda qasddan odam o‘ldirish, o‘g‘irlik, talonchilik, qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish, nomusga tegish, bosqinchilik, bezorilik kabi jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishi kriminolog olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqbuzarligi kattalar huquqbuzarligi bilan bir xil sabablarga ega, biroq ularning ta’sir ko‘rsatish mexanizmi ancha farq qiladi. Bu sabablar shaxsning shakllanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur tarbiya tashkiliy va stixiyali jihatlarni, tarbiya hamda tegishli ijtimoiy amaliyot ta’sirini o‘z ichiga oladi.

Harbir voyaga yetmagan tarbiyasi og‘ir shaxsning xulq-atvori o‘ziga xosdir, u o‘smir shaxsi shakllanishining obyektiv va subyektiv omillari bilan belgi-lanadi. Bu tarbiya va profilaktika ishlarida individual yondashuv yetakchilik qilishilozimligini anglatadi.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilak-tikasi bu ijtimoiy faoliyat bo‘lib, jamiyat rivojlanishi va boshqa ijtimoiy holatlarbilan o‘zaro aloqadorlikda bo‘lib, o‘z o‘rniga ega. Xuddi shu ma’noda, bu jarayonda yakka tartibdagi (individual) profilaktikani ijtimoiylashuvi jarayonining bir qismisifatida qarash kerak.

Davlatchilik vujudga kelgan davrlardan boshlab hukmron doiralar fuqarolarni turli yo‘llar bilan tarbiyalash, ularning o‘zlari ishlab chiqqan qonun va qoidalarga amal qilishlariga majbur etib kelganlar va o‘z navbatida adolatsiz bo‘lsada o‘sha zamonning o‘ziga xos bo‘lgan huquqiy xulqni shakllanishida rol o‘ynagan. Shuning uchun shaxsning ijtimoiylashuvi unda axloqiy sifatlar va huquqiyongni shakllantirishni keltirib chiqaradi. Bu jarayonlar shaxsni jamiyatda o‘rnatilgan qoidalar va tartiblarga rioya qilishi va moslashashishini ta’minlaydi.

Ammo, har qanday davrda ham voyaga yetmaganlarning davrga yoki qoidalarga moslashishi jarayoni ularga qanday ta’sirni ko‘proq qo‘llash bilan bog‘liqdir. Masalan, ularni qanday tarbiyalash hamda qanday ruhda o‘stirishga bog‘liq. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, har qanday shaxsni o‘zi unib o‘sgan mamlakati, millatining urf-odatlari asosida tarbiyalash, shu bilan birga o‘zga millat-larning odatlarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash ularni komil inson etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi, vaholanki, o‘z halqini sevuvchi va o‘zga millatlarni hurmat qiluvchi shaxsgina huquqbuzarlik sodir etmaydi, atrof muhitga doimo hurmatda bo‘ladi.

Shu o‘rinda, Turkiston ma’rifatparvari, mutafakkir, pedagog va axloqshunos Abdulla Avloniy: “o‘gay tarbiyadan” ko‘ra milliy tarbiyamizusullarini yangilashni afzal biladi va va o‘z davrini “Tarbiyaning zamoni –tarbiyaning ayni vaqti” deb ataydi. Uning bu boradagi qarashlari hanuz o‘z kuchini yo‘qotganmaganligini, tarbiya –hozir ham jamiyat uchun dolzarb muammo ekanligini ko‘rish mumkin. O‘z navbatidaAbdulla Avloniy: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot –yo mamot, yo najot –yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”, deb ta’kidlab o‘tib, tarbiyaning voyaga yetmaganlarning huquq va axloq normalariga rioya qilishini ta’minlashda, shuningdek, ular tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib o‘tgan.

Maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni samarali bartaraf etish uchun ularning determinantlarini (sabab omillarini) chuqur ilmiy asosda tahlil qilish talab etiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu omillar uchta asosiy guruhga ajraladi:

Ijtimoiy-oilaviy omillar- oiladagi disfunksiya va nazoratning sustligi: Ota-onalarning tarbiyaviy majburiyatlarini yetarli darajada bajarmasligi, oiladagi ziddiyatlar, moddiy ahvolning og‘irligi yoki ota-onalarning xorijiy mehnat migratsiyasida bo‘lishi bolada nazoratsizlik hissini shakllantiradi. Bu, B.N. Aliyev va Z.M. G‘ofurov kabi psixolog-pedagoglarning ishlarida ta’kidlanganidek, ijtimoiy moslashuv buzilishiga olib keladi.

Noqulay ijtimoiy muhit va deviant guruhlar ta’siri: O‘smirning bo‘sh vaqtini foydasiz, nazoratsiz o‘tkazishi va salbiy ta’sirga ega guruhlarga qo‘shilishi huquqbuzarlikka olib boruvchi eng muhim kanal hisoblanadi.

Pedagogik va maktab omillari-ta’lim-tarbiya jarayonidagi kamchiliklar: Maktabda o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olmaslik, qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlaydigan to‘garaklarning yetishmasligi yoki mavjud bo‘lganlarining samarasizligi.

O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlaridagi ziddiyatlar: O‘qituvchilar tomonidan o‘quvchiga nisbatan noto‘g‘ri yondashuv (avtoritar uslub), mas’uliyatni his etmaslik yoki psixologik qo‘llab-quvvatlashning yo‘qligi. Bu, P.M. Shamatovning pedagogik sotsiologiya sohasidagi tadqiqotlariga ko‘ra, bolaning maktabdan begonalashuviga sabab bo‘ladi.

Profilaktika ishlari yuzaki va rasmiyatchilikdan iboratligi: Profilaktika kengashlarining faoliyati ko‘pincha qonuniy choralar ko‘rishga emas, balki rasmiy hisobotlarga xizmat qilishi.

Shaxsiy-psixologik omillar - voyaga yetish davrining psixologik xususiyatlari: o‘smirlarga xos bo‘lgan maksimalizm, emotsional beqarorlik, o‘zini tasdiqlash istagi hamda huquqiy savodxonlikning pastligi.

Nog‘ayonlik va past o‘zini anglash: O‘smirning o‘z kelajagi haqida aniq tasavvurga ega emasligi, ijobiy maqsadlarning yo‘qligi deviant (og‘ishgan) xulq-atvorga moyillikni oshiradi.

Huquqbuzarliklar oldini olishning nazariy-amaliy yechimlari - yuqoridagi tahlilga asoslanib, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi kompleks yechimlar taklif etiladi:

Individual-yo‘naltirilgan psixologik yordam: Maktab psixologlari va ijtimoiy pedagoglar tomonidan xavf guruhidagi o‘quvchilar bilan individual korreksion (tuzatishga yo‘naltirilgan) va rivojlantiruvchi dasturlar asosida ishlashni kuchaytirish. Bu, shaxsning ijobiy fazilatlarini mustahkamlashga qaratilishi kerak.

“Maktab-Oila-Mahalla” uchlik nazorati tizimini takomillashtirish: Profilaktika ishlarining markazini maktabdan mahalla va oilaga ko‘chirish. Mahalla faollari va inspektorlarining oiladagi ahvolni muntazam o‘rganishi va ota-onalarni huquqiy-pedagogik jihatdan savodxonligini oshirish bo‘yicha seminarlar tashkil etish.

Ta’lim jarayoniga innovatsion mexanizmlarni tatbiq etish - ijtimoiy-Emotsional O‘rganish (IEO) dasturlarini joriy etish: Barcha umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga stressni boshqarish, mojarolarni konstruktiv hal etish, empatiya va mas’uliyatni his etish kabi ko‘nikmalarni o‘rgatuvchi dars soatlari ajratish. Bu dasturlar tajovuzkorlik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi.

"Peer-to-Peer" (Tengdoshlarning Tengdoshlarga) Dasturlarini faollashtirish: Huquqbuzarliklar profilaktikasida ijobiy xulq-atvorga ega bo‘lgan o‘quvchi liderlardan foydalanish. Ular o‘z tengdoshlari orasida ijobiy namunalar yaratadi va deviant xulq-atvorli o‘quvchilarga norasmiy ustozlik qiladi.

Huquqiy madaniyat va bo‘sh vaqtni samalari tashkil etish - amaliy huquqiy ta’limni kuchaytirish: Huquq darslarini qonun normalarini yodlashdan amaliy hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish va yechishga qaratish. O‘quvchilarda nafaqat majburiyat, balki o‘z huquqlari haqida ham tushuncha shakllantirish.

Qiziqishlarga asoslangan bandlikni ta’minlash: Maktabdan tashqari sport seksiyalari, texnik va ijodiy to‘garaklarning moddiy-texnik bazasini

yaxshilash va ular faoliyatini bepul asosda tashkil etishni kengaytirish. Bolaning bo‘sh vaqtini konstruktiv faoliyat bilan band etish, jinoyat va huquqbuzarlik ehtimolini sezilarli darajada pasaytiradi.

Demak, voyaga yetmagan shaxslarda g‘ayriijttmoiy hulq-atvor shakllanishida uni o‘rab turgan tashqi va ichki muhitdagi salbiy ta’sirlar rol o‘ynaydi va aynan shu salbiy ta’sirlar voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishiga olib keladi. Voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbuzarliklarsodir etilishi shart-sharoitlaridan kelib chiqib ularniquyidagiikkita turga ajratish mumkin:

1.Tashqi shart-sharoit, jamiyatdagi salbiy ijtimoiy illatlarning mavjud-ligi, xususan, giyohvandlik va surunkali ichkilikbozlik, “ommaviy madaniyat”, ekstremizm va terrorizm;

2.Ichki shart-sharoit, xususan, oiladagi salbiy muhit, oila a’zolaridagi yomon hulqning salbiy ta’siri va boshqalar.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning tur-lariga qarab ularning qanday muhitda o‘sganligini aniqlash mumkin, shu boisdan voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishda va bu jarayondani mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni barataraf etishda avvalo huquqbuzarliklarni o‘rganish maqsadga muvofiq.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar tahlil etilganda ularning quyidagi alohida ko‘rinishlariga e’tibor berish lozim:

1.Jamoat tartibi va ahloqiy talablarni buzish (noahloqiy xulq-atvor).

2.Turli hildagi mayda qonunbuzarliklar (qonunga xilof xatti-harakat).

3.Qonuniy talablarni buzish, jinoyatda sodir etish (jinoiy xatti-harakat) kabilar.

Shu tufayli jamiyatga zid xulq-atvorni barcha turlarini bir-biri bilan uzviy bog‘liq va qoidaga binoan bir biriga sababchidir. Shuning uchun jinoyat va huquqbuzarliklarningoldini olish samaradorligini oshirishda, unga sharoit yaratayotgan, jamiyatga ziyon yetkazayotgan sabablar bilan kurashni kuchaytirish zarur.

Voyaga yetmaganlarning o‘ziga xos xususiyatlardan eng muhimi shundaki, oilada va maktab jamoasida o‘z o‘rnini topa olishi nihoyatda murakkabdir, shu bois ham ular tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar quyidagi omillarni bir -biriga ta’siri natijasida vujudga keladi:

1.Tashqi muhitning voyaga yetmagan o‘smirlarga bo‘lgan ta’siri;

2.Voyaga yetmagan o‘smirning shaxsi;

3.Voyaga yetmagan o‘smirlarning jamoada tutgan o‘rni.Voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklarga moyillarining ijtimoiy ehtiyojlar, qiziqishlar, moddiy yo‘nalishlar bir-biriga o‘xshash bo‘ladi, ularni qonunga zid ishlar qilish bilan to‘ldirmoqchi bo‘ladilar.Yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirishda ichki ishlar organlari, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyamar, mutaxassislar, ta’lim muassasalari o‘zaro hamkorlikda zaruriy chora-tadbir-larni amalga oshirishlari maqsadga muvofiq.Oila muhiti va tashqi muhit voyaga yetmaganlarning shaxsiga nihoyat darajada tez ta’sir qiladi, bunday ta’sir qilish natijasida voyaga yetmaganlarda jamiyatga zid bo‘lgan quyidagi salbiy hislatlar shakllanib borishida katta o‘rinni egallaydi.Voyaga yetmagan huquqbuzarlar oilalari tuzilmasida ijobiy oilalar katta o‘rin tutadi. Ulardan taxminan 60 foizidan kam ilg‘anadigan bolalar tarbiyasi xatolari ko‘rinadi:

34,5 foiz oilalarda bolani doimo asossiz erkalashadi, 26,2 foiz oilada esa bolani mustaqilidan va oila muammolaridan ajratilgan. O‘rganilgan oilalar moddiy ahvol yaxshi. Faqat, 12-13 foiz oilalarda moddiy kamchiliklar bor. Qolgan oilalarda hamma narsa yetarli, ularning ko‘pchiligida moddiy ehtiyojlar ma’naviylaridan ustun qo‘yilib, shu orqali bolalarning qimmatnarsalarga bo‘lgan ehtiyoji qondiriladi.Oila tomonidan nazoratsiz qolish, o‘quv tarbiya jamoasini ta’siridan tushib qolish yoshlarda javobgarsizlik va beboshlik hissini mustaxkamlaydi. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini oldini olishning zamonaviy sharoitida asosiy diqqat e’tibor, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzar-liklarning oldini oluvchi dastlabki profilaktika masalalariga qaratilgan bo‘lishi kerak.Ma’lumki bolalar nafaqat dars jarayonida, balki darsdan tashqari vaqt-larda ham tarbiya ta’siri ostida bo‘lishlari kerak. Shu sababli maktablar turar joylarda pedagogik markazlarga aylanib, bolalar qanday yashayotganliklari va ular bo‘sh vaqtlarini qanday o‘tkazayotganliklari borasida javobgarlikni o‘z zimmalariga olishlari zarur. Tahlil etilgan ijobiy natijalar shundan dalolat beryaptiki, qaerda pedagogik jamoalar bunday javobgarlikni o‘z zimmlariga olib o‘quvchilani bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etgan bo‘lsalar, o‘sha yerda qonunbuzar-liklar juda kam sodir etiladi.Voyaga yetmaganlarning shaxsini shakllantirishda va huquqbuzarlikning oldi olindi pedagogik usullarni o‘zgarishlarga moslab borish va pedagogik sa-vodsiz oilalar bilan aloqa qilish, ularni mas’uliyatini

oshirish muhimdir. Bunda ko‘pgina mutaxassislar, jumladan sotsiologlar, pedagog va yuristlarning faolligi talab qilinadi.Shu boisdan, voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishda avvalo voyaga yetmaganlarga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratish, bu boradagi samarali usullarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, voyaga yetmagan to‘liq ijtimoiy shaxs emasligi, uning rivoj-lanish bosqichida ekanligini inobatga olib, ular o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarprofilaktikasini tashkil etishda ijobiy xulq-atvorni shakllantirish, salbiy ta’sirni kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, hozirgi paytda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar va huquqbuzarliklarning oldini olishdolzarb muammolardan biridir. Chunki kelgusi ishlarning davomchilari aynan o‘sib kelayotgan yosh avloddir, ular davlatning kelajagini belgilaydi. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish uchun, avvalo ularning kelib chiqish sabablarini aniqlashimiz va bartaraf etishimiz maqsadga muofidir.Shuningdek, joylarda umumiy profilaktikadan unumli foydalanish va bularni yuritishda yoshlar tarbiyasiga bevositama’sul shaxslar va tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikni yaxshi yo‘lga qo‘yilishi ijobiy natijalarni beradi.

Bundan tashqari huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar bilan yakka profilaktik tarbiyaviy ishlarni yuritishda ularning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olib tashkillashtirilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning oldini olish faqatgina ma’muriy yoki jazolovchi chora emas, balki kompleks ijtimoiy-pedagogik muammodir. Uni yechish uchun sabablarga qaratilgan, fanlararo, integratsiyalashgan profilaktika tizimini shakllantirish shart. Ta’lim, oila va mahalla tizimlarining hamkorligi, innovatsion pedagogik usullarni joriy etish hamda bolalarning huquqiy madaniyatini oshirish kelajakda huquqbuzarlik darajasini minimal darajaga tushirishning ilmiy asoslangan kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T., 2023.

2.O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Rasmiy nashr. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2020.

3.O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi. Rasmiy nashr. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2024.

4.O‘zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentabrdagi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni.

5.O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni // “Xalq so‘zi”. – 2014. –15 may.

6.O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil14 sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonunhujjatlari to‘plami. –2017. –No 6. –70-m.

8.O‘zbekistonRespublikasiPrezidentining 2017 yil 10 apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005-sonli Farmoni.

9.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5938-sonli Farmoni.

10.O‘zbekistonRespublikasiPrezidentining2017 yil 14 martdagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasiva jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2833-sonli Qarori.

11.O‘zbekistonRespublikasiPrezidentining2017 yil 12 apreldagi “Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–2883-sonli Qarori.

12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2896-sonli Qarori.

13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 25 maydagi “Ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi 4342-sonli Qarori.

14.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 oktabrdagi“Respublika o‘quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 880-sonli Qarori.

GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALARNING NOQONUNIY AYLANISHIGA QARSHI PROFILAKTIKANING AHAMIYATI.

Akramjonov I.A.

Jamoat xavfsizligi universiteti Magistaturasi tinglovchisi kapitan

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat, giyohvandlikka qarshi kurashishdagi barcha chora-tadbirlar orasida profilaktika (oldini olish) eng muhim o‘rinni egallashi lozimligini ta’kidlab, muammo yuzaga kelgach, uni bartaraf etishdan ko‘ra, uning oldini olish ancha samarali va ustuvor hisoblanadi.

1961-yilda qabul qilingan Giyohvandlik vositalari to‘g‘risidagi Yagona konventsiyaning 1972-yildagi Protokolining 38-moddasi va 1971 yildagi Psixotrop moddalar to‘g‘risidagi konventsiyaning 20-moddasiga muvofiq, a’zo davlatlar giyohvandlik vositalarini suiiste’mol qilishni oldini olish bo‘yicha profilaktika ishlarini olib borish, giyohvandlik vositalarini davolash bo‘yicha barcha zarur choralarni ko‘rishlari shartligi belgilangan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1988 yildagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish” konventsiyasining 14-moddasida “Har bir Tomon o‘z hududida noqonuniy ravishda yetishtiriladigan ko‘knori va nasha o‘simliklari kabi tarkibida giyohvandlik yoki psixotrop moddalar bo‘lgan o‘simliklarni noqonuniy yetishtirishning oldini olish va ularni yo‘q qilish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘radi” deb belgilangan.

Giyohvand moddalarga moyillik va ularning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash bo‘yicha ko‘p yillik tajriba umumlashtirilishi natijasida BMT hujjatlarida ikki asosiy strategik yo‘nalish belgilab qo‘yilgan:

1. Giyohvand va psixoaktiv moddalarga noqonuniy talabni kamaytirish;
2. Giyohvand va psixoaktiv moddalarning noqonuniy taklifini va yetkazib berishni kamaytirish.

Bu ikkala yo‘nalish bir-biriga bog‘langan bo‘lib xalqaro va milliy darajada o‘zaro bog‘liq harakatlar tizimini ifodalaydi.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti o‘z rezolyutsiyasida “Giyohvandlik moddalarni nazorat qilishning xalqaro strategiyasi”ni qabul qildi. Ushbu rezolyutsiyalar giyohvandlikka qarshi kurash strategiyasiga xalqaro milliy harakatlarni kiritishni nazarda tutadi, undan qator hukumatlar va xalqaro tashkilotlar foydalanadi. Ular orasida quyidagilarga alohida e’tibor qarati lozim:

- giyohvandlik vositalari ustidan nazorat tizimini takomillashtirish;
- qonuniy maqsadlarda giyohvandlik vositalariga bo‘lgan talab va ularni yetkazib berish o‘rtasidagi muvozanatga erishish;
- giyohvandlik vositalarini noqonuniy manbalardan yo‘q qilish;
- giyohvandlik vositalariga noqonuniy talabni kamaytirish;
- noqonuniy giyohvand moddalarga bo‘lgan talabni kamaytirish va qonuniy giyohvand moddalarni noto‘g‘ri ishlatish yoki noqonuniy ishlatishning oldini olish;
- narkomanni davolash, reabilitatsiya qilish va ijtimoiy reintegratsiya qilish.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash muammolari bo‘yicha xalqaro hujjatlarning tahlili shundan dalolat beradiki, giyohvand moddalarga qarshi kurash bo‘yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirishdagi asosiy yo‘nalishlar quyidagi vazifalarni hal etish bilan bog‘liq:

1. Eng muhim vazifalardan biri — davlatlar o‘rtasida samarali hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish va keyinchalik ularni mintaqaviy darajada integratsiya qilishni nazarda tutuvchi siyosatni ishlab chiqishdir. Bu siyosatning asosiy maqsadi, Giyohvandlik vositalarni iste’mol qilishni kamaytirishga qaratilgan choralar bilan ularning tarqalishini cheklashga qaratilgan choralar o‘rtasida muvozanatni ta’minlashdir.

2. Ma’muriy nuqtai nazardan eng muhim vazifalardan biri — turli davlatlar vazirliklari va idoralari faoliyatini muvofiqlashtirish uchun maxsus tuzilmalarni yaratishdan iborat. Bu jarayon “gorizontal muvofiqlashtirish” deb ataladi. Shu bilan birga, davlat muassasalarining yuqori darajali boshqaruv organlari bilan hamkorlikda ish olib borishi, ya’ni “vertikal muvofiqlashtirish” esa alohida murakkablik va tashkiliy yondashuvni talab etadi.

3. Giyohvandlik moddalarga qarshi kurash strategiyalarini amalga oshiradigan davlat muassasalari uchun yana bir muhim vazifa —

jamoatchilikni davlat siyosati ishlab chiqilishi va uni hayotga tatbiq etish jarayonlariga jalb etishdir. Bu borada aholi o‘z ixtiyori va jamoaviy tuzilmalar orqali faol ishtirok etishi zarur. Jamoatchilikning bevosita ishtirokini ta’minlash, qabul qilinadigan qarorlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

BMTga a’zo davlatlarning aksariyatining giyohvandlik vositalariga qarshi kurashish strategiyalarida o‘zaro uyg‘unlik mavjud. O‘zbekiston ham mazkur yo‘nalishdagi BMTning tamoyillarni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi. Mamlakat BMTning ushbu sohadagi uchta asosiy konvensiyalariga qo‘shilgan:

1961 yildagi Yagona konvensiya, 1971 yildagi Psixotrop moddalar to‘g‘risidagi konvensiya, 1988 yildagi Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi konvensiya[1].

Bu borada O‘zbekiston xalqaro tashabbuslardagi ishtirokini faollashtib, sohada muammoga ancha ilgariroq duch kelgan davlatlarning tajribasidan foydalanib kelmoqda.

Shuningdek, MDH doirasidagi davlatlar bilan ham giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash bo‘yicha hamkorlik yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Hozirgi vaqtda a’zo davlatlarning barchasi giyohvandlik moddalar iste’molini kamaytirishga asosiy e’tiborni qatargan, shu bilan birga, narkotik moddalarga mukkasidan ketgan shaxslarni davolash va reabilitatsiya qilishga qaratilayotgan chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

Bundan tashqari, yana bir xalqaro hujjat, “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konventsiya”ning 33-moddasida bolalarni giyohvandlik va giyohvandlikdan himoya qilish zarurligi ta’kidlangan. Xuddi shunday holat Yoshlar uchun Butunjahon Harakat Dasturining[2] bandlarida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, unda yoshlar tashkilotlari va yoshlarni giyohvand moddalarga bo‘lgan talabni cheklashga qaratilgan tadbirlarga jalb etish takliflari ilgari surilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi qonuni normalaridan ko‘rinib turibdiki, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarning muomalasi va ularning

[1] Международные Конвенции по защите прав человека и борбе с преступностю: (Сб. междунар. документов)/Сост. Ю.С. Пулатов. – Т.: Шарк, 1995. - С. 302-338. – 448 с. – (Сравнителное правоведение. Вып. 1). https://lex.uz/docs/2676167.

[2] BMT Bosh Assambleyasining 1995 yil 14 dekabrdagi 91-yalpi majlisi //https://documents.un.org/doc/resolution/gen/n96/771/45/img/n9677145.pdf.

noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi giyohvandlik vositalariga qarshi kurashishga qaratilgan faoliyatni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Giyohvandlik va giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishining oldini olish nima ekanligini ko‘rib chiqaylik?

Kompleks yondashuvga asoslangan faol profilaktika va reabilitatsiya konsepsiyasi mualliflari antinarkotik profilaktikani muayyan mazmun, bosqichma-bosqich rivojlanish va aniq yakuniy natijaga ega bo‘lgan, yagona davlat dasturi doirasida tashkil etiladigan, davlat va jamoat tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimi sifatida talqin qilinad.

Profilaktikani aynan bunday faoliyat tizimi sifatida tushunish, giyohvand moddalarni iste’mol qilish va ularning noqonuniy aylanishining oldini olishga qaratilgan umumdavlat profilaktika tizimi doirasida ta’lim muhitida olib boriladigan profilaktika faoliyatini alohida kichik tizim sifatida ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Mazkur kichik tizim esa o‘ziga xos maqsad va vazifalarga ega bo‘lib, u umumiy strategiyaning tarkibiy qismi sifatida xizmat qiladi.Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni suiiste’mol qilishning oldini olish bu ushbu moddalarning tarqalishi, ularni qo‘llashga olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni barvaqt aniqlash, ularni bartaraf etish va insonlarni, ayniqsa, yoshlarni giyohvandlikka moyillikdan himoya qilishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuasidir.

Bunday profilaktika:

ijtimoiy (oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari orqali ta’sir o‘tkazish);

ma’rifiy (maktab va oliygohlarda ta’lim-tarbiya ishlari orqali tushuntirish);

tibbiy-psixologik (salomatlikni mustahkamlash, stressni yengish, qo‘llab-quvvatlash);

Uning maqsadi odamlarning, ayniqsa yoshlar va voyaga yetmaganlarning giyohvand moddalarga bo‘lgan qiziqishini bartaraf etish, ularni sog‘lom hayot tarziga yo‘naltirish va suiiste’mol oqibatlarini oldini olishdan iborat.

Huquqshunos olimlar jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda profilaktikasi haqida so‘z yuritar ekan, bu tushunchalarni jinoyat va huquqbuzarliklarni keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish yoki ularning ta’sirini kamaytirishga qaratilgan davlat va jamoatchilik

hamkorligida amalga oshiriladigan umumiy ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, madaniy-tarbiyaviy va huquqiy chora-tadbirlar majmuasi sifatida talqin qiladilar.

Bu chora-tadbirlar jamiyatdagi jinoyatchilik darajasini kamaytirish, aholi o‘rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, sog‘lom ijtimoiy muhit yaratishga qaratilgan tizimli va barqaror faoliyatni o‘z ichiga oladi.

Jinoyatlarning profilaktikasi tushunchasi mazmunini aniqlashda ko‘plab huquqshunos olimlar uning mohiyatini ham keng, ham tor ma’nolarda talqin qiladilar.

Keng ma’noda profilaktika - bu jinoyatlarning sodir etilishining oldini olish, jamiyat a’zolarini huquqqa zid, jazoga tortiladigan qilmishlarni sodir etishdan saqlashdir. Bu ma’noda profilaktikaga huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati ham kiradi.

Tor ma’noda profilaktika - bu jinoyatlarni keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, o‘zining jamiyatga qarshi yo‘nalgan xulq-atvori bilan kelgusida huquqbuzarlik sodir etishi mumkin bo‘lgan shaxslarni aniqlab, ular bilan maqsadli profilaktik ishlar olib borish faoliyatini anglatadi[1].

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasi profilaktikasi - bu ushbu illatlarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy, huquqiy va kriminogen omillarni bartaraf etishga, ularga moyillik belgilari mavjud bo‘lgan shaxslar bilan maqsadli ishlashga va jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan, davlat va jamoatchilik hamkorligida amalga oshiriladigan tizimli chora-tadbirlar majmuasidir.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasi butun dunyo hamjamiyati oldida turgan eng jiddiy tahdidlardan biridir. Ushbu muammo nafaqat alohida shaxslar sog‘lig‘iga, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishiga, ijtimoiy xavfsizlikka va davlatlarning milliy xavfsizligiga ham katta zarar yetkazmoqda. Shu bois xalqaro tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, MDH va boshqa mintaqaviy tuzilmalar hamda alohida davlatlarning siyosiy va huquqiy tizimlari giyohvandlikka qarshi kurashda alohida e’tibor qaratmoqda. Xususan, profilaktika choralari barcha sohalarda ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Chunki muammo paydo bo‘lgach, uni bartaraf etish nihoyatda murakkab va katta xarajatlarni talab qiladi. Ammo

[1] UNODC rasmiy sayti: www.unodc.org

uning oldini olish imkoniyatlari samarali qo‘llansa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Umumiy xulosa qilib aytganda, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashda profilaktika eng muhim va ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Profilaktika choralari faqat davlat siyosati darajasida emas, balki butun jamiyat miqyosida olib borilishi kerak. Xalqaro hamkorlik, milliy qonunchilikning takomillashuvi, jamoatchilik ishtiroki, ta’lim va tarbiya tizimidagi chora-tadbirlar, shuningdek, reabilitatsiya va ijtimoiy reintegratsiya dasturlari uyg‘un holda qo‘llanilgandagina samarali natijalarga erishish mumkin. Giyohvandlikka qarshi kurashning muvaffaqiyati, avvalo, uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning qanchalik samarali va tizimli tashkil etilishiga bog‘liqdir. Shu bois profilaktika masalasiga ustuvorlik berish nafaqat milliy xavfsizlikni ta’minlash, balki yosh avlodni sog‘lom va barkamol insonlar qilib tarbiyalash, jamiyat barqarorligini mustahkamlashning ham eng to‘g‘ri yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1961-yil — “Giyohvandlik vositalari to‘g‘risidagi Yagona konvensiya”
2. 1971-yil — “Psixotrop moddalar to‘g‘risidagi konvensiya”
3. 1972-yil — “Giyohvandlik vositalari to‘g‘risidagi Yagona konvensiyaga Protokol”
4. 1988-yil — “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Konvensiya”
5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti — “Giyohvandlik moddalarni nazorat qilishning xalqaro strategiyasi” rezolyutsiyasi
6. Birlashgan Millatlar Tashkiloti — “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konventsiya”, 1989-yil, 33-moddasi
7. Yoshlar uchun Butunjahon Harakat Dasturi — BMT, 1995-yil
8. O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni — 2000-yil, (oxirgi tahrirga muvofiq)
9. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi — (giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasiga oid moddalar)
10. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi — (profilaktika va ogohlantirish bilan bog‘liq moddalar)
11. Islomov, N. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashning nazariy asoslari” — Toshkent, 2020.

12. Karimov, S. “Giyohvandlikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslari” // *Yuridik fanlar jurnalida chop etilgan maqola*, 2021.
13. Rashidov, A. “Narkotik moddalarga qarshi kurashda ta’lim muassasalarining o‘rni” — *Ma’naviyat va huquq* jurnali, 2022.
14. UNODC (United Nations Office on Drugs and Crime) — “World Drug Report”, yillik hisobotlar (so‘nggi nashrlari: 2021, 2022, 2023)
15. WHO (World Health Organization) — “Guidelines on the prevention of drug use and treatment of drug use disorders”
16. Evropeyskaя komissiя — “Action Plan on Drugs 2021–2025”
17. MDH davlatlari hamkorlik konsepsiyasi — “Giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlar”
18. www.unodc.org — BMTning Giyohvandlik va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha rasmiy sayti
19. www.lex.uz — O‘zbekiston qonunlari va normativ-huquqiy hujjatlari portali
20. www.who.int — Butun jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining rasmiy sayti

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLAShNING AYRIM MASALALARI

Munnazarov M.J.
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazi
“Kasbiy tayyorgarlik” sikli boshlig‘i podpolkovnik

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta’minlashda avvalom bor inson qadrini inobatga olgan xolda amalga oshirish va jamoat xavfsizligi sohasini huquqiy jihatdan takomillashtirishning ayrim normalaridagi masalalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: inson qadri, huquq, huquqbuzarlik, sub’ekt, shaxs, norma, javobgarlik, ma’muriy javobgarlik, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi.

Bugungi murakkab va turli qarama-qarshiliklar davrida yangi O‘zbekiston Respublikasi, strategik va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanib borayotgan mamlakatlar qatorida o‘zining pozitsiyasiga ega bo‘lib, barcha sohalarda dunyo hamjamiyatining e’tirofiga sazovor bo‘lib kelmoqda. Mamlakatimizning huquqiy jihatdan rivojlanishi, avvalambor davlat

tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar inson huquqlari va erkinliklariga xizmat qilayotganligi, xalqaro tashkilotlar oldida nufuzini va imidjini oshirmoqda. Shu sababli ham O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashda muhim hujjat hisoblanib, davlatning bosh qomusi sifatida e’tirof etiladi hamda uning asosida boshqa qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilinadi. Konstitutsiyaning 13-moddasi “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi”[2] deb qat’iy belgilanganligi ham inson qadri oliy qadriyat ekanligini dalolat beradi. Bu borada Muhtaram Prezidentimizning ikkinchi bor lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqida “Asosiy qomusimiz kafili sifatida Konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so‘zsiz bajarish, “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarish bundan buyon ham faoliyatimning bosh mezoni bo‘lib qoladi. Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz.”[3] deya aytgan olijanob so‘zlari, qabul qilinayotgan qonunlar qanchalik inson huquqlariga mos ekanligini anglatadi. Mamlakatimizni turli jabhalarda keng rivojlanishini amalga oshirish maqsadida jushqinlik bilan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar dirasida aholining tinch va osoyishta hayot kechirishlarini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonun ustuvorligini ro‘yobga chiqarish va jamoat xavfsizligini ishonchli muxofaza etishni takomillashtirish maqsadida ham keng ko‘lamli islohotlar olib borilib, huquqbuzarliklarni oldini olish va profilaktika qilish, maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF–27-son “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”[4]gi Farmoni qabul qilindi. Shu kungacha jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini tartibga solinishida huquqiy asosning yo‘qli sababli, bu sohada bir muncha muammo va kamchiliklar mavjud edi. Bu farmonning qabul qilinishi o‘z-o‘zidan muammo va kamchiliklarning yechimini topishi

bilan birga, huquqni muxofaza qiluvchi davlat organlarining oldiga bir muncha vazifalarni belgilab aynan shu sohada qilinadigan vazifalarini belgilab berdi hamda jamoat xavfsizligi va jamoat xavfsizligini ta’minlash kabi tushunchalarning huquqiy asosi yaratilib, jamoat xavfsizligi, milliy xavfsizlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasi, davlat siyosatini belgilovchi muhim hujjat hisoblanib, jamoat xavfsizligi: “jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi” deb ta’riflangan. Jamoat xavfsizligini ta’minlash: esa “davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim hisoblanadi” deya e’tirof etilgan. Jamoat xavfsizligi ta’minlash yo‘nalishini takomillashtirish bilan bir qatorda qonun xujjatlarini ham kakomillashtirish muhim masalarlardan biri bo‘lib qolmoqda. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining ham shu sohadagi ayrim normalariga o‘zgartirishlar kiritish, muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 08 iyuldagi O‘RQ-548-sonli qonuni bilan ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodesksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilib, ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 2481moddasi[5] bilan to‘ldirilib, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi vakolatiga 61,1851,1941,1951,196,va 210 moddalarida ko‘rsatilgan huquqbuzarlik sub’ektiga nisbatan ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirish vakolati berilgan, lekin aynan jamoat tartibiga qarshi qaratilgan huquqbuzarliklar uchun ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirish vakolati berilmaganligi sababli, Milliy gvardiya organlari tomonidan jamoat tartibini ta’minlash davomida sodir etilgan xuquqbuzarliklar bo‘yicha bayonnoma rasmiylashtirishda bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda. Hususan Milliy gvardiya organlari tomonidan jamoat joylarida huquqiy tartibotni ta’minlashda, huquqbuzarlar tomonidan mayda bezorilik kabi huquqbuzarliklar sodir etish holatlari kuzatilmoqda, tabiiyki u yerda xizmat o‘tayotgan Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi yoki xodimi, mazkur huquqbuzarlikni bartaraf etish bo‘yicha huquqbuzarlikni to‘xtatish va huquqbuzarlikni cheklash va huquqbuzarga nisbatan chora ko‘rish kabi harakatlarini bajarish davomida, xuquqbuzarlar tomonidan Milliy gvardiya

harbiy xizmatchisi yoki xodimining qonuniy talablarini bajarmasligi, ko‘p hollarda faol qarshilik ko‘rsatishi holatlarni sodir etmoqda. Amaliyotda Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi yoki xodimining qonuniy talablarini bajarmaganlik kabi huquqbuzarliklar asosan MJtKning 183 va 187 moddalarida ko‘rsatilgan huquqbuzarliklar bilan bevosita bog‘liq xolda sodir etilmoqda, ushbu MJtKning 183 va 187 moddalarida ko‘rsatilgan huquqbuzarliklar sub’ektlariga nisbatan ma’muriy bayonnoma rasmiylashtiish vakolati Milliy gvardiya organlarida yo‘qligi sababli to‘plangan hujjatlar tegishliligi bo‘yicha chora ko‘rishlik uchun ichki ishlar organlariga topshirilmoqda, lekin ushbu huquqbuzar bir vaqtning o‘zida MJtKning 1941 moddasida ko‘rsatilgan huquqbuzarlikni sodir etgan bo‘lib unga ko‘ra ma’muriy amaliyot olib borish norma asosida Milliy gvardiya organlaridaga yuklatilganligi sababli xujjatlarni bir vaqtning o‘zida sudga taqdim qilishda muddatlarning buzilishi kabi xolatlar hamda sub’ekt shaxslarning sarsongarchiliklariga yo‘l qo‘yilmoqda. O‘rganishlar shuni ko‘rsatmokdaki, mazkur xuquqbuzarlik aksariyat hollarda jamiyatda o‘rnatilgan tartib qoidalarni nomoyishkorona mensimaslik ya’ni mayda bezorilik va jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste’mol qilish kabi huquqbuzarlik alomatlari mavjudligi sababli, to‘plangan hujjatlar xuquqbuzarliklarini sodir etgan shaxslar tomonidan qonunchilikka ko‘ra jamoat tartibini ta’minlash vazifasi yuklatilgan ichki ishlar organlari xodimlari va Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi va xodimining qonuniy talablarini bajarmasligi, jamiyatda o‘rnatilgan huquq normalarini bajarmasligi yoxud qarshilik ko‘rsatishida namoyon bo‘lmoqda.

Milliy gvardiya organlarining vazifasiga qonun bilan jamoat xavfsizligini ta’minlash vazifasi yuklatilganligi, 183 va 187-moddalari ham aynan MJtKning jamoat tartibiga qarshi huquqbuzarliklar bobida ekanligini inobatga olib, Milliy gvardiya vakolatiga MJtKning 183 va187-moddalari bo‘yicha ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirish vakolatiga ham berilsa huquqbuzarlarga nisbatan chora ko‘rishda san-solarliklarga, muddatlarning buzilish kabi xolatlarga va qonun ustivorligini taminlaga erishilgan hamda huquqni to‘g‘ri qo‘llanilishi kabilarga erishiladi. Muxtasar qilib aytganda jamiyatda qonun ustivorligini ta’minlash, jamoat tartibini va jamoat havfsizligini saqlashda huquq tartibotni ta’minlash, inson qadr-qimmatini qaror topishi, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakillantirish, fuqarolarning ongida davlatga va huquq tartibot organlariga nisbatan ishonch xissini uyg‘otish hamda qonun normalarini ikki hil talqin etmaslik va qonunni qo‘llash amaliyotida yagona yondashuv bo‘lishi

kerakligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari vakolatiga, MJtKning 183 va 187-moddalari bo‘yicha ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirish huquqi berilib, O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 2481-moddasiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi 27-sonli// O‘zbekistonRespublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2021yil 6 noyabr kuni lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqidan.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi 27-sonli// O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy Javobgarlik to‘g‘risidagi Qodeksi//2481,183,187 moddalari.

YOSHLAR HUQUQBUZARLIKLARI: NAZARIY-HUQUQIY TUSHUNCHA, HUQUQIY MAQOMINING ANIQLANISHI VA KLASSIFIKATSIYA MUAMMOLARI

Aripov A.X.
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar sonining ortishi, bu jarayonga ta’sir etuvchi huquqiy, ijtimoiy va psixologik omillar ilmiy-huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari asosida yoshlar huquqbuzarliklarining tushunchasi, huquqiy maqomi va turlari izohlangan. Maqolada muallif tomonidan yoshlar huquqbuzarligiga doir mualliflik ta’rifi ishlab chiqilib, qonunchilikka taklif etiladigan qo‘shimchalar asoslab berilgan. Tahlil natijalari huquqbuzarliklar profilaktikasi, huquqiy madaniyatni yuksaltirish va qayta ijtimoiylashuv strategiyalarini takomillashtirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar huquqbuzarligi, huquqiy maqom, huquqiy ong, profilaktika, jinoyatchilik, ijtimoiy adaptatsiya, kriminologiya, qonunchilik, qayta ijtimoiylashuv.

Hozirgi zamonaviy davrda yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, shuningdek,

ularni huquqbuzarliklardan himoya qilish masalasi nafaqat O‘zbekiston, balki jahon hamjamiyati uchun ham strategik ahamiyatga ega murakkab ijtimoiy-huquqiy muammolardan biriga aylanmoqda. Xususan, globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keskin rivojlanishi va ommaviy madaniyatning agressiv ta’siri natijasida o‘smirlar va yoshlar o‘rtasida turli ko‘rinishdagi huquqbuzarliklar soni ortib borayotgani jiddiy xavotir uyg‘otmoqda. Shu bois, yoshlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning huquqiy tabiati, ularning mohiyati, huquqiy maqomi hamda turlarini aniqlash, tizimlashtirish va ilmiy-amaliy asosda tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifalardan biri sifatida yuzaga chiqmoqda. Ayni masalaning o‘ta muhimligi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev ta’kidlaganidek1, bugungi kunda yoshlarning ongi va dunyoqarashi uchun kechayotgan g‘oyaviy kurash sharoitida ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, yuksak ma’naviyatli, tashabbuskor va vatanparvar qilib tarbiyalash, shuningdek, ularni jinoyatchilik va huquqbuzarlik kabi tahdidlardan samarali himoya qilish davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentning bu so‘zlari yoshlar huquqbuzarliklari masalasiga davlat siyosati darajasida yondashish zarurligini ko‘rsatadi. Zero, yoshlar jamiyatning istiqbolidir, va ularni jinoyatchilikdan asrash, ularni ijobiy islohotlar jarayoniga jalb qilish orqali mamlakatning kelajagini ta’minlash mumkin. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda 18–30 yoshli fuqarolar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar soni yil sayin ko‘paymoqda. Jumladan, IIV ma’lumotiga2 ko‘ra, 2024 yilda Respublika bo‘yicha jami 45 545 ta oldini olish lozim bo‘lgan jinoyatlar sodir etilgan bo‘lib, jinoyatlarning asosiy salmog‘i yoki 41,3 foizini o‘g‘rilik (10 607 ta) va firibgarlik (8 216 ta) tashkil etgan. Shuningdek, o‘g‘rilik jinoyatlarini asosan 30 yoshgacha muayyan kasbga ega bo‘lmagan 3 651 nafar (34,4 %) shaxslar sodir etgan hamda firibgarlik jinoyatiga esa asosan 2 652 nafar (32,2 %) yoshlar jinoyatga qo‘l urgan.

Yuqoridagi statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish borasida amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlarni yanada kuchaytirish, huquqbuzarlikka moyil bo‘lgan yoshlar toifasini erta bosqichda aniqlash hamda ular bilan tizimli va maqsadli profilaktik ishlarni tashkil etish davlat

1 Мирзиёев Ш.М. “Янги Ўзбекистон – инсон қадри учун” Президент нутқлари тўплами. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2022. 65 – бет.

2 Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг ҳуқуқбузарликларни олдини олиш ва уларнинг профилактикаси бўйича 2024 йилда амалга оширилган ишлар ҳолати тўғрисидаги ахбороти

siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan, ushbu paragrafda yoshlar huquqbuzarliklari tushunchasi, uning huquqiy maqomi va turlari ilmiy-amaliy asosda tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, ushbu tahlil huquqbuzarliklarni bartaraf etishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga, yoshlar huquqiy ongini oshirishga, shuningdek, jamiyatda barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda, yoshlar huquqbuzarliklari tushunchasi huquqshunoslik va kriminologiya fanlarida turlicha talqin qilinadi va bu borada bir qator nazariy maktablar va ilmiy yondashuvlar shakllangan. Ayniqsa, so‘nggi yillarda yosh avlod o‘rtasida huquqbuzarliklar ko‘lami kengayayotgani sababli, mazkur tushunchani aniq huquqiy va ijtimoiy asoslar orqali sharhlash zarurati ortib bormoqda. Mahalliy va xalqaro olimlar fikrlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, yoshlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar nafaqat huquq normalariga zid harakat sifatida, balki keng qamrovli ijtimoiy, psixologik va ma’naviy jarayonlarning ifodasi sifatida qaraladi.

Mahalliy olimlardan professor A.Tashpulatov yoshlar huquqbuzarligini shaxsning ijtimoiy muhitdagi nosog‘lom ta’sirlar natijasidagi huquqqa qarshi faoliyati sifatida ta’riflaydi. Uning ta’kidlashicha, “ta’lim va tarbiya tizimidagi yetishmovchiliklar, oiladagi nizolar va nazoratsizlik, ommaviy axborot vositalarining salbiy ta’siri yoshlarni huquqbuzarlik sari yetaklovchi asosiy omillardir”1. M.K. Najimov esa yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda huquqiy ta’limning o‘rni va ahamiyati beqiyot deydi2. Z. Abdurahmonovning yoshlar huquqbuzarligiga doir nazariy yondashuvida asosiy omil sifatida huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasini ko‘rsatishini anglatadi. Uningcha, ushbu omillarga ta’sir etuvchi muhit (oila, ta’lim, tarbiya, axborot manbalari)dagi kamchiliklar jinoyatchilikka moyillikni oshiradi. Shu boisdan, huquqiy profilaktik faoliyat samaradorligini oshirish, maqsadli huquqiy targ‘ibot dasturlarini amalga oshirish muhim vazifa etib belgilanadi3.

Bundan tashqari, halqimiz orasida, ayniqsa, yosh avlodning huquqbuzarlikka moyilligi aksar hollarda huquqiy ongning yetarlicha shakllanmaganligi, huquqiy g‘oyalar va ruhiy sezgi mexanizmlarining

1 Ташпулатов А. Ёшлар ҳуқуқбузарлиги ва унинг олдини олиш. – Тошкент: ИИВ Академияси, 2019 й. 43-бет.

2 Нажимов М. Ёшларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтириш масалалари. Монография. – Т.: ТДЮУ, 2019. – 70 б.

3 Абдураҳмонов З. Жиноятчиликка қарши курашишнинг назарий-ҳуқуқий асослари. – Т.: 2020. – Б. 36–37 .

zaifligi bilan bog‘liq deydigan huquqshunos olimlarni ham kuzatish mumkin. Xususan, E.H. Xalilovning fikriga ko‘ra, “huquqiy ong – bu huquqni anglash bo‘lib, u insonning huquqqa, amaldagi qonunchilikka, huquqiy munosabatlarga nisbatan his-tuyg‘ulari va qarashlarining majmuasidir. U doimiy o‘zgaruvchi ijtimoiy sharoitlar ta’sirida rivojlanib boradi”1. Demak, yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirishda mustahkam ma’naviy muhitni ta’minlash va huquqiy ijtimoiylashuvni kuchaytirish zarur. Shu bilan birga, Z.M. Islomov huquqiy ongni insonning huquq va majburiyatlarga, huquqiy amaliyotga bo‘lgan munosabatlarini shakllantiruvchi huquqiy bag‘olar, g‘oyalar va fikrlar tizimi sifatida ta’riflaydi. Uningcha, “huquqiy ong – bu insonning huquqiy voqelikni his etish, uni baholash va munosabat bildirish qobiliyati”2. Darhaqiqat, yoshlar o‘rtasida huquqiy tasavvurning zaifligi, ularda huquqiy muhitga nisbatan bee’tiborlik va hatto qarshi kayfiyatlar shakllanishi, ko‘pincha jinoyatga sabab bo‘luvchi shaxsiy munosabatlarni anglash imkoniyatini susaytiradi.

Boshqa taniqli huquqshunoslar A.X. Saidov va U. Tojixonovlar huquqiy ongni insonning huquqiy amaliyotga, huquqbuzarlikka va davlatga munosabatini belgilab beruvchi hissiyot, g‘oya va qarashlar tizimi sifatida ta’riflaydi. Ular ta’kidlaydilar: “Huquqiy ong – fuqarolarning qonunchilik, huquqiy amaliyot va huquqiy munosabatlarga munosabatini shakllantiruvchi hissiyotlar, qarashlar va orzu qilingan huquqlarga intiluvchi tasavvurlar tizimidir”3. Ushbu ilmiy yondashuvdan kelib chiqib, yoshlar o‘rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish – ularda huquqiy idrokni, tushunishni va faol munosabatni shakllantirish orqali jinoyatchilikni kamaytirishning samarali vositasi sifatida xizmat qiladi. Shuningdek,
N. Saburov va Sh. Saydullaevlar tomonidan huquqiy ong ijtimoiy ongning shakli sifatida belgilanib, uning tarkibiga “qonunchilikka va huquqiy hodisalarga nisbatan bo‘lgan hissiyotlar, g‘oyalar va munosabatlar yig‘indisi” sifatida yondashiladi4. Ushbu yondashuvga asosan, yoshlarda huquqiy hayajon, mas’uliyat hissi va qonunga hurmat tuyg‘ulari yetarlicha shakllanmasa, ularning huquqbuzarlikka moyillik darajasi oshib boraveradi. I.Abdullaev yoshlar huquqbuzarligini “ijtimoiy xatarli harakatlar majmuasi” sifatida baholab, bunday harakatlarning asosiy sabablarini oila

1 Халилов Э.Н. Ижтимоий турмушда ҳуқуқий онгнинг ўрни. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б.12.
2 Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. – Т.: Адолат, 2007. – Б.537.
3 Саидов А.Х., Тожихонов У. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. – Т.: Адолат, 2001. – Б.324.
4 Сабуров Н., Сайдуллаев Ш. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. – Т.: ТДЮИ, 2011. – Б.74

muhiti, ta’lim tarbiyasi va tashqi ta’sirlarda deb ko‘rsatadi1. H. Aripov esa bu tushunchani “sub’ektiv-obyektiv omillar ta’sirida yuzaga keladigan jamiyatga xatarli harakatlar” sifatida ta’riflab, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy ijtimoiylashuviga alohida e’tibor qaratadi2. Ushbu yondashuvlarda huquqbuzarliklarga ko‘proq sotsiogen va tarbiyaviy sabablar asosida yondashish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo maktabining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan Qozog‘istonlik A.Abdullaev yoshlar huquqbuzarligini shaxsning ijtimoiy adaptatsiyasidan chetlashish holati deb izohlaydi va bu jarayonni jamiyatdagi institutlar – oila, maktab va jamoa faoliyati bilan bevosita bog‘laydi3. J.Kabdualiev esa yoshlar huquqbuzarligini “insonning iqtisodiy va madaniy adolatsizliklarga javob sifatida huquqiy me’yorlarga nisbatan tanqidiy munosabati” deb ta’riflaydi4. Qirg‘izistonlik S.Mamatqulov esa yoshlar huquqbuzarliklarini shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvidagi uzilish deb baholaydi5. Mazkur mamlakat vakilasi E.Satibaldieva esa buni maktab ta’limi va mahalliy profilaktika institutsiyalarining yetarlicha samarasizligi bilan bog‘laydi6. Ushbu yondashuvlar ko‘p jihatdan O‘zbekistondagi vaziyatga ham mos keladi va umumiy profilaktika mexanizmlarini mintaqaviy hamkorlik asosida ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Rossiyalik huquqshunos va kriminologlar esa yoshlar huquqbuzarliklarini jamiyatdagi institutlar – oila, ta’lim, ish va huquqiy tartib mexanizmlarining samaradorlik darajasi bilan bog‘lab ko‘radilar. Masalan, professor A.I.Dolgova yoshlar huquqbuzarligini ijtimoiy nazorat tizimining zaiflashuvi bilan izohlaydi va bu jarayonni kriminogen muhit ta’siri sifatida baholaydi7. Unga ko‘ra, bu kategoriyadagi shaxslar asosan muhtojlik va e’tiborsizlik natijasida qonunbuzarlik yo‘liga kirishadi. Shuningdek, mazkur davlat vakili A.Ya. Jalinskiyning ta’rifiga ko‘ra, yoshlar huquqbuzarliklari – 14–18 yoshli shaxslar tomonidan sodir etiladigan, jinoiy va ma’muriy javobgarlikka tortiladigan harakatlar hisoblanadi8. Boshqa tarafdan, A.G. Volkova esa yoshlar huquqbuzarligini deviant shaxs rivojlanishi bilan bog‘laydi va uni o‘smirlik bosqichidagi

1 Абдуллаев И. Жиноят ҳуқуқи. Махсус қисм. – Тошкент: Академия, 2017. – Б. 43.

2 Арипов Н. Ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси. – Тошкент: Юрист нашриёти, 2020. – Б. 98.

3 Абдуллаев А. Ювенал делинквентност: природа, причины, предупреждение. – Алматы: Жеті жарғы, 2015. – С. 56.

4 Kabdualiev J. Youth crime and its causes in Kazakhstan. – Almaty Legal Studies Journal, 2020. pp. 73-74.

5 Маматқулов С. Социально-правовые аспекты девиантного поведения молодежи. – Бишкек: Илим, 2019. – С.33

6 Satibaldieva E. Молодёжная преступност в Кыргызской Республике. – Бишкек, 2021. - С. 24-25.

7 Долгова А.И. Курс криминологии. – Москва: Юристъ, 2018 // https://znanium.ru/ catalog/document?id=460820

8 Жалинский А.Я. Курс уголовного права. Том 1. – Москва: Зерцало, 2016. – С. 222.

psixologik o‘zgarishlar, muhit ta’siri va shaxsiy ijtimoiy tajribaning yetishmasligi natijasi sifatida ko‘radi1. Bundan tashqari, Rossiya Jinoyat kodeksida 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslar uchun maxsus javobgarlik chegaralari belgilab qo‘yilgan bo‘lib, jinoiy ta’lim muassasalari orqali reabilitatsiyaga katta e’tibor qaratilgan2.

Yevropa davlatlarida esa bu masalaga yanada liberal va qayta ijtimoiylashtirish tamoyillari asosida yondashiladi. Xususan, Germaniyada yoshlar jinoyatchilikka oid huquqbuzarliklarni tarbiya orqali bartaraf etishga alohida urg‘u berilgan. Germaniya Federativ Respublikasida qabul qilingan “Yoshlar sudlari to‘g‘risida”gi qonun (Jugendgerichtsgesetz – JGG)ga ko‘ra, 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi, 14-17 yoshda shartli jazo va sudning tarbiyaviy ta’siri ustuvor hisoblanadi3.

Professor K.Boers bu jarayonni shaxs rivojining normalar bilan qarama-qarshiligida vujudga keladigan “jamiyatda o‘z o‘rnini topish harakati” deb baholaydi4.

Fransiyadagi “Ordonnance de 1945” (nobolig‘lar huquqbuzarliklari to‘g‘risidagi dekret) esa jinoiy jazodan ko‘ra, yoshlarni tarbiyalash va jamiyatga moslashtirishni ustuvor vazifa qilib belgilaydi. Bu hujjatda maxsus yoshlar sudlari, yoshlar uchun mos jazo turlari (masalan, ijtimoiy foydali mehnat) va sud-psixolog xizmatlari nazarda tutilgan5.

Shu bilan birga, AQSh va boshqa rivojlangan mamlakatlarda yoshlar huquqbuzarligiga kriminologik nazariyalar asosida yondashiladi. Xususan, T. Hirschi tomonidan ilgari surilgan "ijtimoiy bog‘liqlik nazariyasi" (Social Bond Theory)ga ko‘ra, shaxsning oila, maktab, jamoa va huquqiy tizim bilan bog‘liqlik darajasi pasaygan sari uning huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli ortib boradi6. J. Hagan esa “Power-control theory” (nazorat va kuch munosabatlari nazariyasi) orqali oiladagi jinsiy tengsizlik va nazoratning turlicha darajasi yoshlar huquqbuzarligiga ta’sir qiluvchi muhim omil ekanini ta’kidlaydi7. Shuningdek, AQSh qonunchiligida har bir shtatda nobolig‘lar uchun alohida “Juvenile Justice System” ishlab

1 Волкова А.Г. Социология молодежи. – М.: Академический проект, 2018. – С. 133.

2 Жиноят кодекси РФ. Модда 87–88.

3 Jugendgerichtsgesetz (JGG). Германия: https://www.gesetze-im-internet.de/jgg/

4 Boers K. Youth and Crime in Germany. – German Criminology Journal, 2017.

5 Ordonnance du 2 février 1945 relative à l’enfance délinquante. – https://www.legifrance. gouv.fr

6 Hirschi T. Causes of Delinquency. – University of California Press, 1969.

7 Hagan J., Simpson J., Gillis A.R. The structural context of family life. // American Journal of Sociology. – 1985. – Vol. 90(3), pp. 532–562.

chiqilgan bo‘lib, masalan, Kaliforniya shtatida 12-18 yoshdagi huquqbuzar shaxslar alohida sud va reabilitatsiya tizimida ko‘rib chiqiladi1.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, yoshlar huquqbuzarliklari haqidagi tushuncha hali ham universal ta’rifga ega emas. Ammo turli maktab va qarashlar doirasidagi ilmiy yondashuvlar o‘zaro tahlil qilinib, ularning umumiy jihatlari sifatida: shaxsning ijtimoiy adaptatsiyasi, huquqiy ong darajasi, institutlar ta’siri, jamiyatning nazorat funksiyalari va ma’naviy muhit belgilanishi mumkin. Bu esa O‘zbekistonda yoshlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha tizimli va ilmiy asoslangan choralar ishlab chiqishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda yoshlar huquqbuzarliklarini tarkibiy, nazariy va amaliyot nuqtai nazaridan o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu tushunchaga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida aniq huquqiy ta’rif mavjud emas. Bu esa ushbu huquqbuzarliklarni aniq identifikatsiya qilish, targetlangan profilaktik choralar ishlab chiqish hamda statistik tahlilni to‘g‘ri yo‘naltirishda huquqiy bo‘shliq vujudga kelishiga olib kelmoqda. Shu bois, milliy va xalqaro ilmiy qarashlar tahlili asosida ishlab chiqilgan quyidagi mazmunda mualliflik ta’rifi ishlab chiqib va huquqiy jihatdan qator normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘shimcha taklif kiritish tavsiya etiladi. Xususan:

“Yoshlar huquqbuzarligi — bu 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan shaxs tomonidan huquqiy normalarga zid ravishda, jamiyat va fuqarolar xavfsizligiga tahdid soluvchi, shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvidagi muammolar, ijtimoiy adaptatsiya jarayonidagi uzilishlar, institutsional nazoratning zaifligi, huquqiy ong va madaniyat darajasining pastligi, shuningdek, individual-psixologik va ijtimoiy omillar ta’sirida yuzaga keladigan, qasddan yoki ehtimoliy tarzda sodir etiladigan huquqbuzarliklar majmuasidir.”

Mazkur ta’rifdan kelib chiqib, yoshlar huquqbuzarliklari masalasi nafaqat nazariy, balki huquqiy nuqtai nazardan ham murakkab ham ko‘p qirrali tushuncha ekanligini tushunish mumkin. Xususan, yoshlar huquqbuzarliklarining huquqiy maqomini aniq belgilash, ularning turlarini tizimlashtirish hamda tegishli javobgarlik choralarini belgilash orqali samarali huquqbuzarliklar profilaktikasi va ijtimoiy reabilitatsiya tizimini yaratish mumkin bo‘ladi. Shu bois, bu yo‘nalishdagi ilmiy va amaliy yondashuvlar tahlili nafaqat huquqshunos olimlar, balki qonunchilik tashabbusiga ega organlar faoliyatida ham muhim ahamiyatga egadir.

1 California Juvenile Justice Code, Welfare and Institutions Code – Division 2. – https://leginfo.legislature.ca.gov

Shu o‘rinda, mahalliy olimlardan Z.Abdurahmonov o‘zining monografiyasida yoshlar huquqbuzarliklarini “huquq normalarini buzish orqali sodir etiladigan, jamiyat uchun xavfli bo‘lgan faoliyat turi” sifatida izohlaydi va uning huquqiy maqomini jinoiy, ma’muriy va axloqiy toifalarga ajratish lozimligini ta’kidlaydi1. Uning fikricha, huquqiy maqom nafaqat jazo choralarini belgilovchi me’yor, balki shaxsni himoya qiluvchi mexanizm sifatida ham baholanishi lozim. Shuningdek, A.Tashpulatov esa yoshlar huquqbuzarliklarini “o‘smir shaxslar tomonidan huquqiy ong darajasi yetarli emasligi sababli sodir etiladigan, huquqqa qarshi harakatlar toifasi” sifatida2. Unga ko‘ra, yoshlar huquqbuzarliklari huquqiy maqomi, avvalo, shaxsning yoshi, jazoga layoqatliligi va qilmishning jamiyatga xavflilik darajasi bilan belgilanadi deydi.

Qozog‘istonlik olim J.Kabdualiev esa yoshlar huquqbuzarligini "balog‘at yoshiga yetmagan shaxs tomonidan huquq normalarini buzish, lekin uning shaxs sifatidagi ijtimoiy shakllanish jarayoni tugallanmagani tufayli yuridik va ijtimoiy munosabatlarga to‘liq kirishmagan holda sodir etilishi" deb baholaydi3. Qozog‘iston Respublikasining Jinoyat kodeksida (2014 yil) 14 yoshdan boshlab jazoga tortish nazarda tutilgan holda, qayta ijtimoiylashtirish tadbirlariga alohida e’tibor qaratilgan (QR JK, mod. 78–90)4. Qirg‘iziston Respublikasining “Nobolig‘lar huquqbuzarliklari to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, yoshlar huquqbuzarliklari – jinoiy javobgarlikni yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan, lekin tarbiyaviy ta’sir choralari bilan bartaraf etilishi mumkin bo‘lgan qilmishlar deb belgilangan5.

Rossiya kriminologiyasida professor A.I.Dolgova esa yoshlar huquqbuzarliklarining huquqiy maqomini uchlamchi belgilar orqali aniqlaydi. Bularga: a) shaxsning yoshi (14–18 yosh); b) qilmishning huquqbuzarlik tabiati (jinoiy, ma’muriy); v) ijtimoiy xavflilik darajasi kabilarni kiritadi. Shuningdek, u huquqbuzarliklarni quyidagi toifalarga ajratadi:

jinoiy huquqbuzarliklar (masalan, o‘g‘irlik, bezorilik);

ma’muriy huquqbuzarliklar (jamoat tartibini buzish, hujjatsiz yurish);

1 Абдураҳмонов З. Жиноятчиликка қарши курашишнинг назарий-ҳуқуқий асослари. – Т.: 2020. 37-бет.

2 Ташпулатов А. Ёшлар ҳуқуқбузарлиги ва унинг олдини олиш. – Т.: ИИВ Академияси, 2019. 42-бет.

3 Kabdualiev J. Youth crime and its causes in Kazakhstan. – Almaty Legal Studies Journal, 2020. P - 76.

4 Қозоғистон Республикаси Жиноят кодекси, 2014 йил, 78–90 - моддалар // https://adilet.zan.kz

5 Satibaldieva E. Молодёжная преступност и её профилактика в Кыргызстане. – Бишкек: Юрист, 2021 - С. 46.

axloqiy buzilishlar (masalan, alkogol iste’moli, narkomaniyaga moyillik)1.

Bundan tashqari, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksida (87–88-moddalar) nobolig‘lar uchun ixtisoslashtirilgan jazo shakllari: ogohlantirish; jamoat ishlari; reabilitatsiya markazlari kabi choralar belgilangan2.

Germaniyada “Jugendgerichtsgesetz” (JGG – Yoshlar sudlari to‘g‘risida qonun) asosida 14–17 yoshdagi shaxslar yoshlar huquqbuzarlari sifatida belgilanadi va ularga nisbatan sud-tarbiyaviy choralar qo‘llaniladi. Bunda maqsad jazolash emas, balki qayta tarbiyalashdir3. Shu o‘rinda, professor K.Boers ta’biricha “yoshlar huquqbuzarligi – shaxs rivojidagi ijtimoiy moslashuv inqirozidir”4.

Fransiyada 1945 yil 2 fevralda qabul qilingan Ordonnance relative à l’enfance délinquante asosida yoshlar huquqbuzarliklariga nisbatan “rééducation” (qayta tarbiyalash) siyosati amal qiladi. Bu hujjatda yoshni, tarbiya muhitini, psixik holatni hisobga olgan holda sud-tarbiyaviy yechim qabul qilinadi5.

AQShda esa “Juvenile Justice and Delinquency Prevention Act” (JJDPA, 1974) bo‘yicha yoshlar huquqbuzarliklari quyidagi toifalarga ajratiladi:

Delinquent acts – jinoyat deb hisoblanadigan harakatlar;

Status offenses – yoshga xos qonunbuzarliklar (masalan, maktabdan qochish, tinchlik vaqtida ko‘chada yurish)6 [JJDPA, 42 U.S.C. §5601][11].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, yoshlar huquqbuzarliklarining turlini huquqiy va ijtimoiy tizimlarga ko‘ra turlicha tasniflash mumkin.

Bularga:

Turi	Xususiyatlari
Jinoiy (ugolovnыe)	O‘g‘irlik, talonchilik, zo‘ravonlik, shaxsga qarshi jinoyatlar
Ma’muriy	Hujjatsiz yurish, tuman qoidalarini buzish, spirtli ichimlik iste’moli

1 Долгова А.И. Курс криминологии. – Москва: Юристъ, г. 2018 – С. 94–95 // https://znanium.ru/catalog/document?id=460820

2 Жиноят кодекси РФ. Мод. 87–88. – https://www.consultant.ru

3 Jugendgerichtsgesetz (JGG). – https://www.gesetze-im-internet.de/jgg/

4 Boers K. Youth and Crime in Germany. – Criminology Journal, 2017.

5 Ordonnance de 1945. – https://www.legifrance.gouv.fr

6 Juvenile Justice and Delinquency Prevention Act (JJDPA). – https://ojjdp.ojp.gov

Turi	Xususiyatlari
Axloqiy (etik)	Narkomaniya, shahvoniy buzuqlik, maktabga bormaslik, tinchlikni buzuvchi xulq
Status buzilishlar	Faqat nobolig‘larga xos qilmishlar (komendant vaqtida ko‘chada yurish va h.k.)

Yuqorida keltirilgan tahlillardan ko‘rinadiki, yoshlar huquqbuzarliklarining tushunchasi kabi uning huquqiy maqomini ham mualliflik ta’rifi orqali uni to‘g‘ri tasniflash kelajakda nafaqat jinoiy jazo tizimining samaradorligi, balki yosh avlodning ijtimoiy moslashuviga ham xizmat qiladi.

“Yoshlar huquqbuzarligining huquqiy maqomi — bu 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan shaxslar tomonidan sodir etilgan, amaldagi qonunchilikda belgilangan huquqiy normalarni buzish bilan bog‘liq bo‘lgan, jamiyat uchun xavf tug‘diradigan qilmishning huquqiy bahosi bo‘lib, u shaxsning yoshi, huquqiy layoqat darajasi, qilmishning xarakteri va javobgarlik turlarini belgilash orqali muayyanlanadi. Ushbu maqom nobolig‘ va yosh shaxslarga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sud va profilaktika tuzilmalari faoliyatida maxsus yondashuvni talab etadi hamda ijtimoiy adolat va qayta ijtimoiylashuv tamoyillariga asoslanadi”.

Mazkur ta’rifni quyidagi ilmiy-huquqiy asoslar bilan tahlil qilish mumkin. Bularga:

a) yosh toifasi va huquqiy layoqat mezonlari bo‘yicha – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra, 14 yosh shaxsning jinoiy va ma’muriy javobgarlikka esa 16 yoshdan tortilishi aniq belgilangan. Shu bilan birga, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunda 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan shaxslar yoshlar deb e’tirof etilgan (3-modda)1. Demak, huquqbuzar shaxsning yoshi uning huquqiy maqomini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shuningdek, xalqaro huquqda ham bu yosh chegaralari qat’iy belgilangan. Jahonda keng tan olingan BMTning Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasiga muvofiq, 18 yoshgacha bo‘lgan har qanday inson bola deb hisoblanadi, va ularning jinoiy ishlarini yuritishda alohida yoshga xos tartiblar joriy etiladi2;

b) qilmishning huquqiy xarakteri va ijtimoiy xavflilik darajasi – yoshlar huquqbuzarligiga nisbatan qonuniy baho berishda qilmishning

1 Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонуни. 2016 йил 14 сентябр, 436-сон. – https://lex.uz/docs/3013186

2 United Nations Convention on the Rights of the Child. 1989. – https://www.ohchr.org/en/-instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child

huquqiy tabiati (ya’ni jinoiy, ma’muriy yoki axloqiy buzilishlar), uning jamiyatga xavfliligi, takroriyligi, shaxs va jamoat manfaatlariga ta’sir darajasi hisobga olinadi. Masalan:

jinoiy huquqbuzarliklar – jinoyat kodeksida nazarda tutilgan og‘ir va o‘ta og‘ir qilmishlar (moddalar 97, 164, 277 va h.k.);

ma’muriy huquqbuzarliklar – tartibbuzarlik, hujjatsiz yurish, mayda bezorilik (MJtK moddalar 183, 194- moddalari);

axloqiy buzilishlar – maktabdan qochish, narkomaniya, spirtli ichimlik iste’moli kabi holatlar (qonunbuzarlik bo‘lmasa ham, huquqiy nazoratni talab etadi).

Shu o‘rinda, professor A.I.Dolgova to‘g‘ri ta’kidlaganidek, yoshlar huquqbuzarligining huquqiy maqomini belgilashda shaxsning “ijtimoiy adaptatsiya darajasi, tarbiya muhiti, jasorat va rivojlanish bosqichi” inobatga olinishi zarur, aks holda huquq normalari formal tarzda qo‘llanishi mumkin1.

v) javobgarlik shakllari va maxsus tartiblar – O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida (87–88-moddalar) nobolig‘larga nisbatan javobgarlikning maxsus shakllari belgilangan. Jumladan:

tarbiyaviy ta’sir choralari (oila nazorati, ta’lim muassasasiga yuborish);

ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo turlari;

qayta ijtimoiylashtirish maqsadida repersonalizatsiya mexanizmi.

Shu o‘rinda, Germaniyaning “Jugendgerichtsgesetz” (JGG) qonunida ham yoshlar uchun sud-tarbiyaviy choralar, muloqot va qayta tarbiyalash dasturlari asosiy rol o‘ynaydi2. AQShdagi “Juvenile Justice and Delinquency Prevention Act” (JJDPA, 1974) esa har bir yosh huquqbuzar shaxsning shaxsiy rivojlanishini, ijtimoiy muhitini va qonunbuzarlikning xususiyatini hisobga olgan holda, jazodan ko‘ra, profilaktika va ta’lim-tarbiyani ustuvor deb biladi3;

g) ijtimoiy adolat va qayta ijtimoiylashuv tamoyillari – yoshlar huquqbuzarliklarining huquqiy maqomi faqat jazo nazariyasiga emas, balki shaxsni jamiyatga qaytarishga qaratilgan reabilitatsiya va resotsializatsiya (qayta ijtimoiylashuv) maqsadlariga asoslanadi. Xalqaro standartlarga ko‘ra, bu tamoyillar:

shaxsni jazodan ko‘ra, tarbiya yo‘li bilan tuzatishni maqsad qiladi;

---

1 Долгова А.И. Курс криминологии. – Москва: Юристъ, 2018. – С. 92–95.

2 Jugendgerichtsgesetz (JGG), Германия. – https://www.gesetze-im-internet.de/jgg/

3 Juvenile Justice and Delinquency Prevention Act, USA. – https://ojjdp.ojp.gov

ta’lim, kasbiy malaka, psixo-ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kabi shakllarda amalga oshiriladi;

yoshlarning kelgusi huquqiy madaniyatini shakllantiradi.

BMTning 1990 yildagi “Pekin Qoidalari”da (United Nations Standard Minimum Rules for the Administration of Juvenile Justice) bu jihatlar keng yoritilgan bo‘lib, bunga ko‘ra “Har bir davlat yosh huquqbuzarlarga nisbatan sud va jazo organlari emas, balki ta’lim, tarbiya, psixologik yordam asosida qayta yo‘naltirish siyosatini yuritishi lozim" deb ta’kidlangan1.

Yuqorida ilgari surilgan ilmiy ta’riflar asosida bir qator amaldagi qonun hujjatlariga quyidagi ilmiy asoslantirilgan takliflar kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan:

“Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunning 3-modda (“Asosiy tushunchalar”)ga qo‘shimcha sifatida:

“Yoshlar huquqbuzarligi” atamasi 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan shaxslar tomonidan sodir etiladigan, ijtimoiy-ma’naviy va huquqiy sabablarga tayanadigan, jamiyat uchun xatarli bo‘lgan noqonuniy xatti-harakatlar sifatida belgilanishi lozim. Mazkur taklifning ijobiy jihati quyidagilarni o‘zida mujassam etish. Bularga:

birinchidan, profilaktika sub’ektlariga — masalan, ichki ishlar organlari, mahalla, ta’lim muassasalariga aniq targetlangan yosh toifasi bilan ishlash huquqiy asosi yaratiladi;

ikkinchidan, yoshlar bilan ishlash bo‘yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqishda tayanch kategoriya sifatida xizmat qiladi.

Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunning 12-moddasi (“Yoshlarni huquqbuzarliklardan asrash”)ga ilova sifatida:

Qonun doirasida “yoshlar huquqbuzarligi”ni aniq tushuncha sifatida kiritish orqali davlat organlarining profilaktika faoliyatini maqsadli yo‘naltirish huquqiy asosga ega bo‘ladi. Mazkur taklifning ijobiy ta’siri quyidagilarni o‘zida mujassam etish. Bularga:

birinchidan, yoshlarni huquqiy ong va madaniyat asosida himoya qilish siyosati qonunan aniq yo‘naltiriladi;

ikkinchidan, tarbiya, ta’lim, ommaviy axborot vositalari orqali maqsadli profilaktika ishlarini to‘g‘ri tashkil etishga xizmat qiladi.

uchinchidan, “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026” PF–60-son Farmonning 6-yo‘nalish (Qonuniylik va xavfsizlikni ta’minlash)ga ilova sifatida:

1 United Nations Standard Minimum Rules for the Administration of Juvenile Justice (The Beijing Rules), 1990. – https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/beijing-rules

Davlat islohotlarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid qismida “yoshlar huquqbuzarligi” tushunchasi orqali statistik tahlil va jinoyatlarga moyil toifani aniqlash mexanizmlari joriy etish. Mazkur taklifning ijobiy ta’siri quyidagilarni o‘zida mujassam etish. Bularga

birinchidan, profilaktik ishlar “general” emas, balki “individual” asosda yo‘naltiriladi;

ikkinchidan, jinoyatlar profilaktikasiga oid mahallabay, maktabbay tahlil qilish imkoniyati yaratiladi

“Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasi (“Asosiy vazifalar”)ga qo‘shimcha sifatida:

IIOning jamoat xavfsizligi sohasidagi vazifalari doirasida “yoshlar huquqbuzarligi” tushunchasini aniqlash, tahlil qilish va ularning oldini olish choralari maxsus vazifa sifatida belgilanishi taklif etiladi. Mazkur taklifning ijobiy ta’siri quyidagilarni o‘zida mujassam etish. Bularga:

birinchidan, profilaktika inspektorlari, patrul-post xizmatlari faoliyatida yoshlar bilan ishlash tartiblari ishlab chiqiladi;

ikkinchidan, mahallada yoshlar toifasidagi xatarli guruhlarni tezkor aniqlash va nazorat qilish tizimi shakllanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, mazkur taklif etilayotgan ta’rif va uning qonunchilikka integratsiya qilinishi orqali yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini huquqiy jihatdan aniqlashga, ijtimoiy-psixologik asosda tushunishga, davlat va jamoat tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtirishga hamda individual, manzilli yondashuvni joriy etish xizmat qiladi. Bu esa “Yangi O‘zbekiston”ning inson huquqlari ustuvorligiga asoslangan profilaktika siyosatida muhim nazariy-amaliy yangilik hisoblanadi.

YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA’MINLAShDA IDORALARARO HAMKORLIKNING USTUVOR YO‘NALIShLARI VA BUGUNGI AMALIYoTDAGI AHAMIYaTI

Muxammadaliev Z.X.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasida turli davlat idoralari o‘rtasidagi hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari va bu hamkorlikning zamonaviy holati tahlil qilinadi. Yo‘l-transport hodisalarini kamaytirish, huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashda Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar

vazirligi, Sog‘liqni saqlash, Xalq ta’limi, Transport, Adliya va boshqa idoralarning o‘zaro muvofiqlashgan faoliyatining ahamiyati ko‘rsatiladi. Shuningdek, ushbu hamkorlikning huquqiy asoslari, tashkil etish shakllari, amaliy mexanizmlari va mavjud muammolar tahlil qilinib, uni rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Yo‘l harakati xavfsizligi, idoralararo hamkorlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo‘l-transport hodisalari, huquqiy mexanizm, jamoat xavfsizligi, davlat boshqaruvi, mutasaddi idoralar, tizimli nazorat, transport islohotlari.

Yo‘l harakati xavfsizligini mustahkamlash davlat boshqaruvi tizimining muhim vazifalaridan biri bo‘lib, bu borada turli sohalardagi davlat organlari va tashkilotlar o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarur hisoblanadi. Mazkur maqolada yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan idoralararo hamkorlikning asosiy sohalari, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va bu hamkorlikning bugungi kundagi huquqiy-tashkiliy holati tahlil etiladi. Shuningdek, sohada yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar ham ko‘rib chiqiladi. Bugungi kunda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash nafaqat ichki ishlar organlari, balki bir qator davlat va jamoat tashkilotlarining hamjihatlikdagi faoliyatini talab qiluvchi keng qamrovli tizimli vazifa hisoblanadi. O‘zbekistonda avtomobillar sonining oshib borishi, yo‘l infratuzilmasining kengayishi va harakat intensivligining ortishi nafaqat infratuzilmaviy, balki institutsional hamkorlikni ham kuchaytirishni talab etmoqda. Idoralararo hamkorlikning samarali tashkil etilishi — avariyalar sonini kamaytirish, profilaktika tadbirlarini kuchaytirish, ta’lim va targ‘ibot faoliyatini kengaytirishda hal qiluvchi omil bo‘lmoqda.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tashabbusi bilan “2022 — 2026 yillar davomida amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Xavfsiz va ravon yo‘l” umummilliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risidagi PQ-316-son Qarori qabul qilindi1. Mavjud rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024 yilda O‘zbekistonda yo‘l-transport hodisalarining umumiy soni 2023 yilga nisbatan 4,8 foizga, ushbu hodisalarda jarohatlangan shaxslar soni 3,3 foizga, halok bo‘lganlar soni esa 3,5 foizga kamaygan2. Bu ko‘rsatkichlar yo‘l harakati xavfsizligini

1 Мирзиёев Ш.М. “2022 — 2026 йиллар давомида амалга оширилиши мўлжалланган “Хавфсиз ва равон йўл” умуммиллий дастурини тасдиқлаш тўғрисидаги ПҚ-316-сон Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлар миллий базаси / https://lex.uz/uz/docs/6106551

2 https://www.gazeta.uz/ru/2025/01/24/road-accident-2024/

ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati va islohotlar muayyan ijobiy natijalar berayotganini ko‘rsatadi. Biroq, ushbu pasayish sur’ati yirik transport tizimiga ega mamlakat uchun yetarli emasligini va hal etilmagan tizimli muammolar mavjudligini ham anglatadi.

Ilmiy nuqtai nazardan yondashganda, transport xavfsizligini baholashda qisqa muddatli ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda sifat va tizimli yondashuvlar ham muhim hisoblanadi. Jumladan, BMT va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) tomonidan ilgari surilgan “Vision Zero konsepsiyasi”1ga ko‘ra, yo‘llarda birortangina inson o‘limi qabul qilib bo‘lmas darajadagi yo‘qotish sifatida baholanadi. Demak, o‘limlar 3,5 foizga kamaygani ijobiy ko‘rsatkich bo‘lsa-da, 2203 nafar inson hayotidan ayrilgani2, bu sohadagi islohotlar to‘liq samara bermayotganini ayon qilib turibdi. Shuningdek, transport sohasidagi islohotlar samaradorligi faqat ko‘rsatkichlar kamayishi bilan emas, balki:

ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash darajasi,

qonunchilikning mukammalligi,

idoralararo hamkorlikning institutsional asoslari,

jazoning muqarrarligi va profilaktik ta’siri,

hamda fuqarolarning huquqiy ongi va harakat madaniyati bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Hozirgi statistik pasayishga qaramasdan, O‘zbekistondagi islohotlar hali to‘liq kompleks xarakterga ega emas, ya’ni jismoniy infratuzilmani yaxshilash, huquqbuzarliklarni avtomatik aniqlash tizimlarini keng joriy etish, ta’lim-targ‘ibot faoliyatini mustahkamlash va eng asosiysi — jazo muqarrarligini ta’minlovchi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishga ehtiyoj mavjud. Shuning uchun ham, hozirgi bosqichdagi holatni baholar ekanmiz, amalga oshirilayotgan islohotlar boshlang‘ich ijobiy dinamikaga ega bo‘lsa-da, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda idoralararo hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari kompleks ham tizimli yondashuvlar asosida yetarli darajada joriy etilmagan, deb xulosa qilish mumkin.

Yuqorida keltirilgan tahliliy mulohazalardan kelib chiqib, bugungi kunda O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasidagi idoralararo hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarini ko‘rib chiqish, mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va institutsional mexanizmlarini ochib berish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

1 https://ru.wikipedia.org/wiki/Vision_Zero

2 https://www.youtube.com/watch?v=Wz97g2Na_Rs

Bugungi kunda mamlakatda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda idoralararo hamkorlikning quyidagi zamonaviy yo‘nalishlarini kuzatish mumkin1. Bularga:

a) qonunchilik va me’yoriy-huquqiy baza bo‘yicha muvofiqlashuv yo‘nalishi – mazkur ustuvor yo‘nalishga ko‘ra, mamlakatda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etuvchi idora va tashkilotlar faoliyati O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi Qonuni2, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-27-son Farmoni3, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi4ning aynan yo‘l qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik asoslari hamda boshqa me’yoriy hujjatlar asosida muvofiqlashtiriladi;

b) axborot almashinuvi va raqamli texnologiyalardan foydalanish yo‘nalishi – bugungi kunda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, davlat tashkilotlari o‘rtasida axborot almashinuvini avtomatlashtirish, hodisalarni tahlil qilish va profilaktika choralarini tezkor belgilash uchun maxsus tizimlar joriy etilmoqda. Xususan:

idoralar o‘rtasida onlayn ma’lumot almashish tizimlari faol ishlamoqda. Masalan, yo‘l-transport hodisalari, jarohatlanishlar va huquqbuzarliklar haqidagi ma’lumotlar Ichki ishlar organlari, Sog‘liqni saqlash vazirligi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi o‘rtasida elektron tarzda yuboriladi;

“Smart City” loyihasi5 doirasida, geoaxborot tizimlari (GIS) va sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari orqali hodisalar tahlil qilinib, qaysi hududda xavf yuqori ekanligi aniqlanadi. Bu tajriba xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan ham tavsiya etiladi;

transport yo‘nalishlari va oqimini boshqarish maqsadida, davlat axborot tizimlari (masalan, “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali”6

1Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти: president.uz; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг расмий веб-сайти: gov.uz; Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг расмий веб-сайти: mvd.uz

2 Ўзбекистон Республикасининг “Йўл ҳаракати тўғ‘рисида”ги Қонуни // https://www.lex.uz/docs/6764454

3 Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғ‘рисида” ПФ-27-сон Фармони // https://lex.uz/docs/5749291

4 Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғ‘рисидаги кодекси // https://lex.uz/docs/97664

5Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлигининг “Смарт Шаҳар (Smart City) концепцияси” тўғ‘рисида // mitc.uz расмий веб-сайти

6“Yagona interaktiv davlat xizmatлари портали” – https://my.gov.uz

va “Avtovokzal.uz1”) bilan hamkorlikda tahlil ishlari amalga oshirilmoqda. Bu orqali avtomobillar oqimi, yo‘llardagi tirbandliklar va xavfli uchastkalar haqida tezkor ma’lumot olish mumkin bo‘lmoqda;

v) yo‘l infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha hamkorlik yo‘nalishi – mazkur yo‘nalishga ko‘ra, mamlakatda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda infratuzilmani to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Xususan, yo‘llar, yo‘l belgilari, piyodalar yo‘laklari va boshqa muhandislik yechimlari to‘g‘ri loyihalashtirilganda, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish imkoni ortib boradi. Endilikda, “O‘zavtoyo‘l” va Shaharsozlik qo‘mitasining o‘zaro hamkorligiga:

havfli yo‘l kesishmalarini qayta jihozlash;

eskirgan yo‘l belgilari o‘rniga yangilarini o‘rnatish;

piyodalar uchun xavfsiz o‘tish joylari yaratish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, mamlakatda yo‘llarni qayta loyihalash jarayonida xalqaro tajribalar, jumladan, Shvesiyaning “Vision Zero” dasturi asosidagi yondashuvlardan ilhom olingan. Ushbu dasturning asosiy maqsadi — yo‘llardagi o‘lim holatlarini to‘liq bartaraf etishdir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, birgina Toshkent shahrida 2023–2024 yillarda “Smart Crosswalk”2 (aqlli piyodalar o‘tish joyi) loyihasi asosida piyodalar o‘tishida yorug‘lik signallari va sensorli tizimlar joriy etilishi belgilangan;

g) axborot-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda idoralararo hamkorlik yo‘nalishi – mazkur yo‘nalishga ko‘ra, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash faqat texnik vositalar yoki huquqiy jazolar bilan cheklanmaydi. Uning yana bir muhim yo‘nalishi — fuqarolar, ayniqsa, yosh avlod orasida yo‘l harakati madaniyatini shakllantirish, ularda qonunga itoatkorlik va mas’uliyat tuyg‘usini uyg‘otishdir. Bu borada axborot-ma’rifiy tadbirlar muhim o‘rin tutadi va turli idoralar o‘rtasidagi hamkorlik asosida amalga oshiriladi;

d) nazorat va javobgarlik choralarini muvofiqlashtirish yo‘nalishi – mazkur yo‘nalishga ko‘ra, huquqbuzarliklarni avtomatlashtirilgan foto va videofiksatsiya vositalari orqali aniqlash amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.

Yuqorida mamlakatda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda idoralararo hamkorlikning zamonaviy yo‘nalishlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan ustuvor vazifalar mazmuni asosida tahlil qilindi. Endi, mazkur hamkorlik munosabatlarining nazariy-huquqiy asoslarini chuqurroq yoritish, jumladan, huquqshunos olimlar tomonidan

1“Avtovokzal.uz” – транспорт йўналишлари ва ҳаракат жадвали маълумотлар базаси.

2 Тошкент шаҳар ҳокимлиги ахборот хизмати, “Smart Crosswalk” лойиҳаси тўғрисида (2023) – https://tashkent.uz

ilgari surilgan ilmiy qarashlarni tahlil qilish orqali ushbu sohaning nazariy asoslarini mustahkamlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash – faqat amaliyotga oid masala bo‘lib qolmasdan, u ijtimoiy, huquqiy va institutsional munosabatlarning murakkab tizimini qamrab olgan holda, kompleks yondashuvni talab etadi. Huquqshunos olimlar tomonidan idoralararo hamkorlikning huquqiy tabiati, funksiyalari, organlararo munosabatlar tizimi hamda samaradorlik mezonlariga oid ilmiy nuqtai nazarlari bu sohada huquqiy siyosatni takomillashtirishda muhim nazariy manba hisoblanadi.

Mazkur yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda idoralararo hamkorlikning nazariy-huquqiy asoslari ko‘plab taniqli huquqshunos olimlar tomonidan turli jihatlardan o‘rganilgan. Xususan, S.A. Komarov o‘z tadqiqotlari davomida idoralararo hamkorlikni “davlat boshqaruvining huquqiy mexanizmidagi hal qiluvchi omillardan biri” sifatida baholaydi va uni normativ boshqaruv, vakolatlar taqsimoti va javobgarlikni aniqlash orqali mustahkamlash zarurligini ta’kidlaydi1. L.M. Entin idoralararo munosabatlarni davlat boshqaruvi samaradorligini ta’minlovchi konstitutsion va funksional omil sifatida ko‘radi. Uning ta’kidlashicha, qonun ijodkorligi va boshqaruvda organlar o‘rtasidagi muvofiqlashuv yuridik me’yorlar bilan ta’minlanmasa, tizim samarasiz bo‘ladi2. V.N. Xropanyuk fikricha, “huquqiy davlat”da organlar o‘rtasidagi munosabatlar aniq huquqiy chegaralar bilan belgilanishi shartligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, idoralararo hamkorlik qonun ustuvorligi, mas’uliyat va aniq funksiyalar asosida tashkil etilishi zarurdir deydi3. M.I. Baytinning ilmiy qarashi bo‘yicha esa idoralararo hamkorlikda “funksional ixtisoslashuv va institutsional muvofiqlashuv”ni nazarda tutadi. Uning ta’kidlashicha, xavfsizlikka oid har qanday tizimda hech bir organ yolg‘iz harakat qila olmaydi. Mazkur holatda kompleks yondashuv talab qilinadi4. A.A. Mishin taabiricha bo‘lsa, idoralararo hamkorlikning axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali tashkil etilishi kerakligini asoslab beradi. U yo‘l harakati xavfsizligi, transport nazorati va favqulodda vaziyatlarda idoralar o‘rtasidagi integratsiyalashgan ma’lumot almashinuvi samaradorlikni oshirishini ko‘rsatadi5. Yu.M. Kozlov nazariyasiga ko‘ra,

1 Комаров С.А. Общая теория государства и права. — М.: Юрайт, 2020. — С. 314–320.

2 Энтин Л.М. Конституционное право и государственное управление. — М.: Норма, 2019. — С. 200–208.

3Хропанюк В.Н. Теория государства и права. — М.: Юрайт, 2019. — С. 281–289.

4 Байтин М.И. Органы правопорядка и их взаимодействие: теория и практика. — М.: Норма, 2017. — С. 145–153.

5Мишин А.А. Информационное взаимодействие органов публичной власти. — Екатеринбург: УрГЮУ, 2017. — С. 67–74.

ma’muriy huquq doirasida idoralararo munosabatlarni huquqiy kategoriya sifatida qarab, ularni davlat boshqaruvidagi tenglashtiruvchi mexanizm sifatida baholaydi. U davlat organlari o‘rtasidagi vakolatlarning chegaralarini belgilash va o‘zaro javobgarlik mexanizmlarini aniqlash muhimligini ta’kidlaydi1.

Shuningdek, aynan, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda idoralararo hamkorlikni takomillashtirish masalasida esa N.M. Chernogor o‘z ilmiy izlanishlarini olib borgan bo‘lib, uning fikriga ko‘ra, transport va yo‘l harakati sohasidagi davlat boshqaruvi samaradorligi ko‘p jihatdan organlar o‘rtasidagi normativ kelishuv va muvofiqlashtiruvchi huquqiy mexanizmlarga bog‘liq. U idoralararo hamkorlikda “tashkiliy-huquqiy va ma’lumot almashish kanallari”ni eng muhim omil sifatida ko‘rsatadi2.

Bundan tashqari, mahalliy huquqshunos olimlardan D.R.Maxmudov o‘z tadqiqotlarida O‘zbekistonda ichki ishlar organlari, mahalliy hokimiyatlar, ta’lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslarini yoritadi. Uning fikricha, idoralararo muvofiqlashuv tizimli profilaktik faoliyat va yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega3 desa, J.A. Aripov o‘z monografiyasida organlar o‘rtasida normativ va funksional muvofiqlikni ta’minlash, axborot almashinuvi, mas’uliyat taqsimoti va huquqiy asoslarning aniqligi hamkorlikning asosiy shartlari ekanini ta’kidlaydi4 deydi.

Horijiy olimlardan David A. Sleet (AQSh) yo‘l harakati xavfsizligi va jarohatlarning oldini olish sohasidagi taniqli olim hisoblanadi. Uning ishlari davlat organlari va jamoat sog‘lig‘ini muhofaza qilish tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan. Xususan, u o‘zining “Handbook of Injury and Violence Prevention” nomli ilmiy asarida jarohatlar va zo‘ravonlikni oldini olish bo‘yicha dasturlar va siyosatlarning nazariy va amaliy asoslarini yoritadi5. D. Wegman (AQSh) esa yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda «Vision Zero» strategiyasi doirasida politsiya, shaharsozlik va jamoatchilik tashkilotlari hamkorligini hal qiluvchi

1Козлов Ю.М. Административное право России. — М.: Проспект, 2020. — С. 301–308.

2Черногор Н.М. Правовые основы транспортной безопасности Российской Федерации. — СПб.: Юридический центр, 2018. — С. 91–98.

3Махмудов Д.Р. Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлашда профилактик фаолиятнинг самарадорлиги. — Тошкент: ИИВ Академияси, 2023. — Б. 47–55.

4Арипов Ж.А. Нуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолиятида ҳамкорлик механизмлари. — Тошкент: Юрист нашриёти, 2021. — Б. 62–69.

5David A. Sleet // https://archive.org/details/injuryviolencepr0000unse

mexanizm sifatida ko‘rsatadi1. Norvegiyalik olim R. Elvik o‘zining "Road Safety Management: Systemic Approach" asarida bo‘lsa aynan yo‘l harakati xavfsizligida idoralararo hamkorlikni “tarmoqlararo boshqaruv tizimi” (inter-sectoral governance system) sifatida baholaydi. Unda transport, politsiya, shifokorlar va mahalliy hokimiyat organlari birgalikda ishlashi shartligi alohida urg‘u beradi2. Shuningdek, Yaponiyalik huquqshunos olim Y. Hayashi esa o‘z asarida fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikka alohida urg‘u beradi, xususan, u volontyorlar hamda xususiy sektorning ishtirokini rag‘batlantirishni tavsiya qiladi3.

Yuqorida biz mamlakatda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda idoralararo hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarini tartibga soluvchi milliy qonunchilik asoslari hamda huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari atroflicha tahlil qildik. Endi esa, ushbu hamkorlikning samaradorligini oshirish maqsadida rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish va taqqoslamali tahlil qilish mazkur paragrafning ilmiy qiymatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Jumladan:

Shvesiya davlatining “Vision Zero” konsepsiyasi: nazariya, amaliy mexanizmlar va natijalar4 — mazkur davlatda 1997 yilda hukumati tomonidan yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasida radikal yangilik sifatida “Vision Zero” (o‘zbek tilida: “Nol o‘lim” yoki “Nol yo‘l qurbonlari”) konsepsiyasi qabul qilindi. Mazkur konsepsiyaning ilk nazariy asoslari transport muhitida inson hayotining oliy qadriyat sifatida qaralishiga tayanadi. Unga ko‘ra, har bir fuqaro harakatda xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin, ammo yo‘l tizimi bunday xatolarni hisobga olgan holda, inson hayoti va salomatligi uchun og‘ir oqibatlarning oldini olishi lozim.

Mazkur “Vision Zero” konsepsiyasining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

yo‘l infratuzilmasi, transport vositalari va qonunchilik inson xatolarini hisobga olgan holda loyihalanishi kerak;

---

1 Naumann, R. B., et al. (2021). Case studies of U.S. Vision Zero cities: Collaborations and challenges in developing Vision Zero plans. Traffic Injury Prevention, 22(3), 205–210. // file:///C:/Users/User/Downloads/cdc_106090_DS1.pdf

2Elvik, R. (2008). "Road safety management by objectives: A critical analysis of the Norwegian approach." Accident Analysis & Prevention, 40(3), 1115–1122 // https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/18460380/

3Kingston, J. (2012). Japan's Civil Society from Kobe to Tohoku: Impact of Policy Changes on Government-NGO Relationship and Effectiveness of Post-Disaster Relief. Journal of Civil Society, 8(1), 63–77 // https://www.researchgate.net/publication/341312296_Japan%-27s_Civil_Society_from_Kobe_to_Tohoku_Impact_of_Policy_Changes_on_Government_NGO_Relationship_and_Effectiveness_of_Post-Disaster_Relief

4 Smart City Sweden. “Vision Zero: the road safety project where no one shall be killed or seriously injured.” Retrieved from: https://smartcitysweden.com

harakat ishtirokchilari (piyodalar, haydovchilar) va tizim loyihalovchilari o‘rtasida mas’uliyat taqsimlanadi. Masalan, haydovchi harakat qoidasini buzsa, tizim shu xatoning og‘ir oqibatga olib kelmasligini kafolatlashga intiladi;

davlat organlari, shaharsozlar, muhandislar va sog‘liqni saqlash tizimi vakillari yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda birgalikda faoliyat yuritadilar;

yo‘l hodisalarining sabablari aniqlanadi va har bir holat bo‘yicha tahlil asosida tizimli o‘zgarishlar kiritiladi.

Norvegiyaning “Safe System” yondashuvi asosida tizimli xavfsizlik modeli va uning samaradorligi1 – mazkur davlatda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasida “Safe System” deb nomlangan yondashuv keng joriy etilgan bo‘lib, u inson hayotini yo‘l harakatining markaziy qadriyati sifatida qabul qiladi. Bu modelning asosiy maqsadi — transport tizimini shunday tashkil etishki, hatto harakat ishtirokchilari xatoga yo‘l qo‘yganda ham, ular og‘ir tan jarohati yoki hayotdan ayrilmasin.

Mazkur “Safe System” yondashuvining asosiy elementlariga:

tizimli va kompleks yondashuv – yo‘l infratuzilmasi, transport vositalari, qonunchilik, politsiya nazorati, ta’lim va jamoatchilik bilan hamkorlik bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi;

manfaatdor sub’ektlar o‘rtasidagi hamkorlik – yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda faqatgina politsiya emas, balki shaharsozlar, muhandislar, sog‘liqni saqlash tizimi va fuqarolik jamiyati institutlari ham ishtirok etadi;

ochiq ma’lumotlar va tahlillar asosida boshqaruv – har bir yo‘l-transport hodisasi tahlil qilinadi, natijalar esa xavfni kamaytirish choralarini ishlab chiqishda foydalaniladi;

targ‘ibot va huquqiy ta’lim – jamoatchilikni yo‘l harakati xavfsizligiga jalb qilish, shaxsiy mas’uliyatni oshirishga qaratilgan axborot-targ‘ibot ishlari tizimli ravishda olib boriladi.

Shuningdek, Norvegiyada “Safe System” (Xavfsiz tizim) yondashuvi amalga oshirilgan bo‘lib, u yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda tizimli va kompleks yondashuvni nazarda tutadi. Bu yondashuvda barcha manfaatdor tomonlar, jumladan, politsiya, shaharsozlik va jamoatchilik tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar

1Norwegian Public Roads Administration (Statens vegvesen) – National Plan for Road Safety 2022–2025 – https://www.vegvesen.no

shuni ko‘rsatadiki, ushbu yondashuv Norvegiyada yo‘l-transport hodisalaridagi o‘limlar va jarohatlar sonini kamaytirishda samarali bo‘lgan.

Yaponiya davlatida fuqarolik jamiyati va davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlik asosida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlanadi. Mazkur davlatda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda yuqori darajadagi institutsional tizim va jamoatchilik ishtirokini uyg‘unlashtirgan samarali modelni shakllantirgan. Mazkur tizimning eng muhim xususiyatlaridan biri — fuqarolik jamiyati institutlari, NNTlar (notijorat tashkilotlar), mahalliy hokimiyatlar va markaziy davlat organlari o‘rtasidagi doimiy hamkorlikdir. Bu hamkorlik faqat rasmiy nazorat bilan cheklanmay, balki aholi, xususan, bolalar, keksalar va nogironligi bor shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga ham qaratilgan1.

Hamkorlikning asosiy yo‘nalishlariga:

fuqarolik jamiyati va volontyorlik harakatlari: Yaponiyada ko‘plab yo‘l xavfsizligiga ixtisoslashgan NNTlar faoliyat yuritadi. Ular maktablarda ta’limiy loyihalar, mahallada turli seminar va fleshmoblar tashkil etib, bolalar va yoshlar orasida yo‘l madaniyatini shakllantiradi.

mahalliy hokimiyatlar bilan o‘zaro hamkorlik: har bir mahalliy hokimiyat o‘z hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash uchun maxsus dastur va guruhlar tuzadi. Ular o‘z navbatida fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikda yo‘l tuzilmalari, belgilari va piyodalar yo‘laklarini takomillashtirish ustida ish olib boradi.

davlat va xususiy sektor hamkorligi: yirik avtomobil kompaniyalari (masalan, Toyota, Honda) fuqarolar uchun xavfsizlik texnologiyalari va simulyatorlarni bepul taqdim etadi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolar orasida targ‘ibot ishlari muntazam ravishda olib boriladi.

favqulodda vaziyatlarga tayyorlik: Yaponiyada tabiiy ofatlar tez-tez ro‘y beradigan mamlakat sifatida, yo‘l harakati xavfsizligi faqat tinchlik paytida emas, balki favqulodda vaziyatlarda ham to‘liq ishlaydigan tizim sifatida shakllantirilgan. Buning uchun fuqarolarga doimiy ravishda evakuatsiya yo‘nalishlari, xavfsiz harakat qilish tartibi va tezkor harakat guruhlari faoliyati haqida ma’lumot berib boriladi.

Yuqorida tahlil qilingan amaldagi holat va ilg‘or xalqaro tajribalarga asoslanib, yangi O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda idoralararo hamkorlikni tizimli va kompleks asosda takomillashtirishni

1National Police Agency of Japan. White Paper on Traffic Safety in Japan, 2022 // https://www.npa.go.jp

nazarda tutuvchi quyidagi ilmiy takliflarning ilgari surilishi o‘rinlidir. Xususan:

birinchidan, institutsional va huquqiy muvofiqlikni kuchaytirish. Bunda, huquqshunos olimlar S.A. Komarov va Yu.M. Kozlovlarning idoralararo munosabatlarni huquqiy va boshqaruviy tizimda tartibga solish borasidagi nazariy qarashlarini inobatga olib, mamlakatda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasida ishtirok etuvchi barcha idoralar faoliyati o‘rtasida aniq huquqiy chegaralar, vakolatlar taqsimoti va mas’uliyatli institutlar tizimi shakllantirilishi zarur;

ikkinchidan, “Vision Zero” va “Safe System” kabi xalqaro konsepsiyalardan milliy modelni yaratish. Bunda, Shvesiya va Norvegiyaning xalqaro tajribasiga asoslangan holda, O‘zbekiston milliy harqaro normalarga integratsiyalangan “Yo‘l xavfsizligi konsepsiyasi” ishlab chiqilishi va qabul qilinishi maqsadga muvofiq. Bu konsepsiyada inson hayotining ustuvorligi, idoralararo muvofiqlik, profilaktika va tahlil asosidagi boshqaruv belgilanishi lozim. Mazkur islohot “Vision Zero” konsepsiyasidagi qat’iy yondashuv asosida “birorta inson o‘limi qabul qilib bo‘lmaydigan yo‘qotishdir” degan tamoyil O‘zbekiston huquqiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirilishi kerak;

uchinchidan, axborot almashinuvi va raqamlashtirishni institutsional darajaga olib chiqish. Bunda, ichki ishlar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Mahalliy hokimiyatlar, FVV, “O‘zavtoyo‘l” va boshqa idoralar o‘rtasida integratsiyalashgan ma’lumot almashish platformasi yaratilishi lozim. Shuningdek, “Smart City”, “GIS”, “AI” texnologiyalaridan foydalanish faqat test tarzida emas, balki huquqiy-normativ asosda majburiy tarzda joriy qilinishi kerak;

to‘rtinchidan, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor ishtirokini rag‘batlantirish. Bunda Yaponiya davlatining ijobiy tajribasi kabi fuqarolik jamiyati institutlarining ta’lim, targ‘ibot, monitoring, jamoat nazorati sohalaridagi ishtiroki davlat dasturlari va grantlar orqali rag‘batlantirilishi zarur. Shuningdek, avtomobil ishlab chiqaruvchi va texnologiya kompaniyalari ishtirokida jamoat xavfsizligi uchun moslashtirilgan texnologik yechimlar joriy qilinishi lozim;

beshinchidan, maorif va targ‘ibot faoliyatini markazlashtirish. Bunda, o‘quv darsliklarida va maktab dasturlarida yo‘l harakati madaniyati va “faol piyoda” konsepsiyalarini joriy etish. Shuningdek, idoralararo hamkorlikda ommaviy axborot vositalari orqali doimiy ijtimoiy reklama va ta’limiy roliklar kampaniyasi yo‘lga qo‘yilishi kerak.

oltinchidan, hisobotlilik va javobgarlikni kuchaytirish. Bunda, barcha ishtirokchi idoralar faoliyati bo‘yicha shaffof hisobotlarni talab qilish, ularni jamoatchilikka taqdim etish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish. Shuningdek, idoralararo hamkorlik samaradorligi bo‘yicha indekslar va KPI tizimi joriy qilinishi kerak (masalan, “Hududiy yo‘l xavfsizligi indeksi”).

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda idoralararo hamkorlik samaradorligini oshirish – bu nafaqat huquqni muhofaza qilish faoliyati, balki keng qamrovli ijtimoiy, siyosiy va texnologik tizimni qamrab oluvchi vazifadir. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat dasturlari (jumladan, “Xavfsiz va ravon yo‘l”) muhim natijalar bermoqda. Biroq ushbu harakatlarning barqaror va tizimli bo‘lishi uchun institutsional muvofiqlashuv, huquqiy ta’minot, aqlli texnologiyalar, fuqarolik ishtiroki, ta’lim va targ‘ibot, hisobotlilik va samara mezonlari kabi omillar bir butun tizimda uyg‘unlashgan holda amalga oshirilishi zarur. Shuningdek, Shvesiya, Norvegiya va Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribasini tahlil qilish, ularning samarali modellarini milliy amaliyotga moslashtirish orqali, O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasida yangi bosqichga ko‘tarilish imkoni yaratiladi.

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISH SIYOSATINING HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL TRANSFORMATSIYASI

Maxmudov D.R.
O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi professori v.v.b.,
yuridik fanlari doktori, dotsent

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda so‘nggi yillarda jinoyatchilikka qarshi kurashda amalga oshirilgan tub islohotlar tahlil qilingan. Prezident Sh.M. Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan “profilaktika – jazodan ustun” tamoyilining huquqiy va amaliy asoslari yoritilib, 2017–2025 yillarda qabul qilingan qonunlar, farmonlar va qarorlar tahlil etilgan. Shu bilan birga, Germaniya, Fransiya, AQSh va Rossiya tajribalari qiyosiy huquqshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Ilmiy asoslangan xulosa va takliflar orqali O‘zbekistonda jinoyatlarni oldini olish siyosatini yanada takomillashtirish yo‘nalishlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyatlarni oldini olish, profilaktika siyosati, huquqbuzarliklar profilaktikasi, Germaniya tajribasi, Fransiya tajribasi, AQSh tajribasi, “profilaktika – jazodan ustun” tamoyili, qiyosiy tahlil.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida tub burilish amalga oshirildi. Davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi jazo choralariga emas, balki jinoyatlarning barvaqt oldini olishga qaratildi. Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan davlat huquqiy siyosatida “profilaktika – jazodan ustun” tamoyili asosiy mezon sifatida belgilandi1. Mazkur tamoyil mohiyatiga ko‘ra, jinoyat sodir etilgandan keyin jazo qo‘llashdan ko‘ra, uning kelib chiqish sabab va omillarini oldindan aniqlab, bartaraf etishga alohida e’tibor qaratiladi2. Bu g‘oya Prezidentning qator nutq va qarorlarida o‘z aksini topgan bo‘lib, xususan, 2017 yil 10 apreldagi PF–5005-son Farmonda ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirish masalasi belgilab berildi3, 2018 yil 27 iyuldagi videoselektor yig‘ilishida esa mahallalarda profilaktika inspektorlari faoliyatini kuchaytirish yuzasidan topshiriqlar berildi4. 2025 yil 3 yanvarda qabul qilingan PQ–1-son qarorda esa profilaktika jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali “Xavfsiz mahalla” tizimini yangi bosqichga ko‘tarish vazifasi belgilandi5.

Shu bilan birga, ushbu jarayonda islohotlarning huquqiy asoslari va ularning natijalari mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari orqali tahlil etilmoqda. Xususan, I. Ismoilov profilaktika sohasida mahalla institutining o‘rnini kuchaytirish zarurligini ta’kidlasa6, M. Ziyodullaev jinoyatchilikni oldini olishda davlat va jamiyat hamkorligining institutsional mexanizmlariga alohida e’tibor qaratish lozimligini qayd etadi7. Shuningdek, Germaniyada mahalliy profilaktika kengashlari8, Fransiyada 2007 yil 5 martda qabul qilingan “Jinoyatchilik profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun9, AQShda community policing

1 Мирзиёев Ш.М. Нуқуқбузарликлар профилактикаси – жиноятчиликка қарши курашнинг энг самарали йўли. Тошкент, 2017.

2 Мирзиёев Ш.М. 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Халқ сўзи газетаси, 23.12.2017.

3 Мирзиёев Ш.М. “Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғ‘рисида”ги 2017 йил 10 апрелдаги ПФ–5005-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси / https://lex.uz/docs/3159827

4 Мирзиёев Ш.М. “Нуқуқбузарликлар ва уларни содир этишга мойил шахслар ҳисобини юритиш” (видеоселектор йиғ‘илиши, 27.07.2018, president.uz)

5 Мирзиёев Ш.М. “2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғ‘рисида”ги ПQ-1сон Қарори // Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси / https://lex.uz/docs / 7330260

6 Исмоилов И. Нуқуқбузарликлар профилактикасида маҳалла институтининг ўрни. – Т.: Академнашр, 2020. – Б. 54–59.

7. Зиёдуллаев М. Жиноятчилик профилактикасида давлат ва жамият ҳамкорлиги. – Т.: Adolat, 2021. – Б. 77–83.

8 Heinz, W. (2004). Kommunale Kriminalprävention in Deutschland. Wiesbaden: Bundeskriminalamt.

9 Loi n°2007-297 du 5 mars 2007 relative à la prévention de la délinquance. Journal Officiel de la République Française.

konsepsiyasi1 va Rossiyada 2016 yilda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Federal qonun2 qiyosiy huquqshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etildi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda 2016 yil 14 mayda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun3 hamda yaqinda amalga oshirilgan Konstitutsiyaviy islohotlar doirasidagi institutsional o‘zgarishlar ko‘rib chiqildi. Ilmiy asoslangan xulosalar va takliflar esa jinoyatchilikka qarshi davlat siyosatini yanada takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilab berdi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati mazmun-mohiyati jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Davlat siyosatining ustuvor maqsadi jazo choralarini kuchaytirishga emas, balki jinoyatlarning oldini olish va ularning sodir etilishiga olib keluvchi omillarni bartaraf etishga yo‘naltirildi. Bu jarayon Prezident Sh.M. Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan “profilaktika – jazodan ustun” tamoyili asosida huquqiy siyosatning asosiy yo‘nalishi sifatida mustahkamlandi4. Ushbu tamoyil jinoyat sodir etilgandan keyin jazo berishdan ko‘ra, uning ildizini tashkil etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy va maishiy omillarni barvaqt aniqlash hamda bartaraf etishga ustuvor ahamiyat qaratishni nazarda tutadi.

Mazkur g‘oya davlat rahbarining qator islohotchi tashabbuslari va normativ-huquqiy hujjatlarida o‘ziga xos huquqiy ifoda topdi. Jumladan, 2017 yil 10 apreldagi PF–5005-son Farmonda ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar belgilab berilgan bo‘lsa5, 2018 yil 27 iyuldagi videoselektor yig‘ilishida mahallalarda profilaktika inspektorlari tizimini kuchaytirish vazifalari qo‘yildi6. Shuningdek, 2025 yil 3 yanvardagi PQ–1-son qaror orqali “Xavfsiz mahalla” tizimini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish vazifasi belgilandi7.

Islohotlarning nazariy-huquqiy asoslari mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlarida ham tahlil etilmoqda. Masalan, I. Ismoilov profilaktika jarayonlarida mahalla institutining roli va ta’sirini kuchaytirish

1 Skogan, W. (2006). Community Policing: Can It Work? Belmont: Wadsworth Publishing.

2 Федералный закон Российской Федерации от 23 июня 2016 г. №182-ФЗ “О системе профилактики правонарушений в Российской Федерации”.

3 Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 майдаги “Нуқуқбузарликлар профилактикаси тўғ‘рисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси / https://lex.uz/docs /

4 Мирзиёев Ш.М. Нутқ ва маърузалар тўплами. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

5 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 апрелдаги ПФ–5005-сон Фармони.

6 Президент Ш.М. Мирзиёевнинг 2018 йил 27 июлдаги видеоселектор йиғ‘илиши. // www.president.uz.

7 Мирзиёев Ш.М. “2025 йилда республика маһаллаларида хавфсиз муһитни яратиш ва һуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғ‘рисида” ПҚ–1-сон қарори // www.president.uz

zarurligini ta’kidlaydi1. Shu bilan birga, M. Ziyodullaev davlat va jamiyat hamkorligini huquqiy jihatdan institutsionallashtirish profilaktika siyosatining asosiy ustuni ekanini ko‘rsatadi2.

Xalqaro tajriba ham bu jarayonda muhim o‘rin tutadi. Xususan, Germaniyada mahalliy profilaktika kengashlari tizimi jinoyatchilikka qarshi jamoaviy mas’uliyatni ta’minlasa3, Fransiyada 2007 yil 5 martda qabul qilingan “Jinoyatchilik profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun profilaktik siyosatning huquqiy asosini mustahkamladi4. AQShda community policing konsepsiyasi huquqni muhofaza qilish organlari va aholi o‘rtasida ishonchni kuchaytirsa5, Rossiyada 2016 yilda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Federal qonun profilaktik mexanizmlarni huquqiy jihatdan institutsionallashtirdi6.

O‘zbekistonda esa 2016 yil 14 mayda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun7 va 2023 yilda amalga oshirilgan Konstitutsiyaviy islohotlar jinoyatchilikka qarshi davlat siyosatining zamonaviy huquqiy asosini yaratib berdi. Shu orqali jinoyatlarni oldini olish sohasida davlat va jamiyat hamkorligi, mahalla institutining o‘rni, raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi yo‘nalishlar huquqiy va institutsional jihatdan takomillashtirildi.

Shu o‘rinda, jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan jinoyat-huquqiy siyosatning evolyusiyasi ikki bosqichda tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir. Birinchi bosqich – 1991–2016 yillarda O‘zbekistonda jinoyatlarning oldini olishga doir davlat siyosati va huquqiy chora-tadbirlarning shakllanishi hamda amalga oshirilishi bilan bog‘liq jarayonlarni qamrab olsa, ikkinchi bosqich – 2017–2025 yillarda Yangi O‘zbekistonda Prezident Sh.M. Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan “profilaktika – jazodan ustun” tamoyili asosida jinoyatlarning oldini olish siyosati tizimli ravishda shakllanishi va uning amaliy natijalarini ilmiy tahlil qilishni nazarda tutadi.

---

1 Исмоилов И. Жиноятчилик профилактикасида маҳалла институтининг ўрни. – Т.: ИИВ Академияси, 2020 // Маҳалла институти ҳақидаги фикр 56–62-бетлар.

2 Зиёдуллаев М. Давлат ва жамият ҳамкорлигида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишнинг институционал асослари. – Т.: ТДЮУ, 2019 // Институционал механизмлар масаласи 101–110-бетларда таҳлил қилинган.

3 German Crime Prevention Council (GCOCP) Annual Report, Berlin, 2020 // Local Prevention Councils ҳақида pp. 45–52.

4 Loi n° 2007-297 du 5 mars 2007 relative à la prévention de la délinquance. – Légifrance.

5 Skogan W. Community Policing: Can It Work? – Belmont: Wadsworth, 2004.– Community policing концепцияси асосий назарий жиҳатлари pp. 23–40 оралиғида ёритилган.

6 Федеральный закон Российской Федерации от 23.06.2016 №182-ФЗ “О профилактике правонарушений”.

7 Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 майда қабул қилинган “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги Қонуни.

Xususan, birinchi bosqich – 1991–2000-yillarda huquqbuzarliklarning oldini olish asosan milliy qonunchilik bazasini shakllantirish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimini qayta tashkil qilish orqali ta’minlandi. Jumladan, 1992 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish ustuvor vazifa sifatida belgilandi1. Shuningdek, prokuratura va ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi qonunlar qayta ko‘rib chiqilib, ularning huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari aniqlandi2.

2001–2010-yillarda esa huquqbuzarliklar profilaktikasini mustaqil davlat siyosati yo‘nalishi sifatida shakllantirishga alohida e’tibor qaratildi. Bu davrda jinoyatchilikning o‘sib borishi, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi profilaktika ishlarini samarali tashkil etishni taqozo etdi. Xususan, 2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonunda jinoyatchilik va ekstremizmning oldini olish mexanizmlari belgilab qo‘yildi3. Shuningdek, 2004 yilda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonunda yoshlar o‘rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish profilaktika siyosatida ustuvor vazifa sifatida belgilandi4.

2010–2016-yillarda esa huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimli ravishda yo‘lga qo‘yildi. 2010 yil 16 sentabrda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunda ichki ishlar organlarining profilaktika sohasidagi vakolatlari mustaqil normalar sifatida ifodalandi5. Shu bilan birga, 2011 yilda “2011–2015 yillarga mo‘ljallangan huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash davlat dasturi” qabul qilinib, unda aholini huquqiy tarbiyalash, ijtimoiy sabablarni bartaraf etish hamda profilaktika ishlarini samarali tashkil etish vazifalari belgilandi6.

Ushbu davrda mahalla institutining jinoyatlarning oldini olishdagi roli ham kuchaytirish va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2013 yil 15 martda

---

1 Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

2 Ўзбекистон Республикасининг “Прокуратура тўғрисида”ги Қонун. 1992 йил 8 декабр; “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги Қонун. 1993 йил.

3 Ўзбекистон Республикасининг “Терроризмга қарши кураш тўғрисида”ги Қонуни. 2000 йил 15 декабр. – Тошкент: Адолат, 2001.

4 Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида”ги Қонуни. 2004 йил 20 феврал. – Тошкент: Адолат, 2004.

5 Ўзбекистон Республикасининг “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги Қонуни. 2010 йил 16 сентябр. – Тошкент: Адолат, 2010 йил.

6 “2011–2015 йилларга мўлжалланган ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши кураш давлат дастури”. – Тошкент, 2011.

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun1 qabul qilindi.

Shu tariqa, 1991–2016 yillarda O‘zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanib, qonunchilik bazasini yaratish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni isloh qilish, mahalla institutini kuchaytirish va aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu jarayon keyinchalik 2017 yildan Prezident Sh.M. Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan “Profilaktika – jazodan ustun” tamoyilining huquqiy va amaliy asoslarini shakllantirish uchun zamin bo‘lib xizmat qildi.

Ikkinchi bosqich - Prezident Shavkat Mirziyoev rahbarligida 2017 yildan boshlab huquqni muhofaza qilish tizimida jinoyatlarni oldini olish borasida yangi davr boshlandi. 2017 yil 14 martdagi Prezident qarori bilan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi tarixiy hujjat qabul qilindi2. Unda avvalambor huquqbuzarliklar profilaktikasi faqat ichki ishlar organlari yoki tegishli idoralarning vazifasi emas, balki barcha davlat va jamoat tuzilmalari uchun ustuvor yo‘nalish ekani ta’kidlandi3.

Shuningdek, mazkur qaror asosida respublika miqyosida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha idoralararo komissiya tashkil etildi, har haftaning payshanba kuni “Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni” deb belgilandi4. Bu kunda joylarda huquqiy targ‘ibot, sayyor qabullar, jamoatchilik bilan uchrashuvlar va profilaktik tadbirlar o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi5. Tegishli qaror bilan ichki ishlar organlarining tuzilmasi qayta ko‘rib chiqilib, profilaktika inspektorlari instituti mustahkamlandi: endilikda shaxsiy tarkibning katta qismi tuman va mahallalarda faoliyat

1 Ўзбекистон Республикасининг “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси // https://lex.uz/docs/2156899

2 Мирзиёев Ш.М. “Нуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ 2833-сон Қарори // Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси // https://lex.uz/docs 3141186

3 “Нуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ 2833-сонли Қарорнинг 2-банди // Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси // https://lex.uz/docs 3141186

4 “Нуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ 2833-сонли Қарорнинг 5-банди // Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси // https://lex.uz/docs 3141186

5 Ўша манбаа: 5-банд биринчи хатбоши // Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси // https://lex.uz/docs 3141186

yuritishi belgilab qo‘yildi1. Masalan, 2018 yilga kelib ichki ishlar xodimlarining 65 foizi aholiga yaqin bo‘lgan mahalla va sektorlarda xizmat olib borishi ta’minlandi2. Bunda profilaktika inspektorlariga keng vakolatlar berilib, ularning bilim va malakasini oshirish, xizmat uy-joyi va moddiy rag‘batlantirish choralari belgilandi. Jumladan, o‘z hududida jinoyatchilikni bartaraf etib, ushbu sohada ijobiy natijaga erishgan profilaktika inspektorlarining oylik maoshiga 50% ustama to‘lash, aksincha jinoyatlar soni ko‘payishiga yo‘l qo‘ygan xodimlarni javobgarlikka tortish tizimi joriy etildi3.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan davlat siyosati O‘zbekistonda bosqichma-bosqich takomillashib kelayotganini statistik ma’lumotlar va huquqiy hujjatlar yaqqol tasdiqlab bermoqda. Xususan, 2017 yil yakunlariga ko‘ra, umumiy jinoyatlar soni o‘tgan yilga nisbatan 16 foizga kamaygani, 2018 yilning birinchi yarmida esa jinoyatchilik darajasi 39 foizga pasaygani qayd etilgan edi4. Ayniqsa, iqtisodiy va mulkiy jinoyatlarning — talonchilik 16 foizga, bosqinchilik 19 foizga, qotillik 21 foizga, tovlamachilik 22 foizga, bezorilik esa 34 foizga kamaygani qayd etilgani mazkur yo‘nalishda olib borilgan profilaktik tadbirlarning samaradorligidan dalolat beradi5. 2017 yilda respublika bo‘yicha 1 243 ta mahallada birorta ham jinoyat sodir etilmagani, 2020 yil yakunlariga ko‘ra esa 9 145 ta mahallaning 6 061 tasida (66,3 foizida) umuman jinoyat qayd etilmagani6 jinoyatchilikka qarshi davlat siyosatida mahalla tizimi va profilaktika inspektorlari o‘rtasidagi hamkorlik qanchalik samarali yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatadi.

Ushbu ijobiy natijalar huquqiy jihatdan 2018 yil 29 noyabrda qabul qilingan “Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–4075-son Farmoni bilan institutsional mustahkamlandi7.

---

1 Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 27 июл куни жиноятчиликнинг олдини олиш, давлат идоралари ва жамиятнинг бу борадаги масъулиятини ошириш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилиши ўтказилди // https://president.uz/uz/1914

2 Ўша манбаа: president.uz/uz/1914

3 Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21-моддаси 3-хатбоши // Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси / https://lex.uz/docs/6445145

4 Ўзбекистон Республикаси Президенти расмий веб-сайти — president.uz, 2017 йил якунлари статистикаси.

5 Xabar.uz портали маълумотлари, Мамлакатда содир этилган жиноятларнинг 2018 йил биринчи ярми таҳлили // https://xabar.uz

6 Kun.uz портали, Ўзбекистонда содир этилган жиноятларни 2020 йил якунлари бўйича таҳлилий маълумоти.

7 Мирзиёев Ш.М. “Жиноятчиликка қарши курашиш ва ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ 4075-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси / https://lex.uz/docs/4124831

Mazkur Farmon profilaktika inspektorlari institutini huquqiy asosda qayta tashkil etib, “xonadonbay” ishlash tizimini joriy etish orqali aholi bilan doimiy muloqot va muammolarni barvaqt aniqlashning samarali mexanizmini yaratdi. Shu bilan birga, profilaktika hisobini raqamli tizimga o‘tkazish va huquqbuzarliklar bo‘yicha yagona axborot bazasini yaratish orqali jinoyatlarning barvaqt oldini olishda yangi imkoniyatlar vujudga keltirildi.

Yangi bosqich sifatida, 2025 yil 3 yanvardagi PQ–1-sonli qarorda profilaktika va jamoat xavfsizligini ta’minlashda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahalla yettiligi institutining vakolatlari va mas’uliyati yanada kuchaytirildi1. Shu qarorda profilaktika inspektorlarining vakolatlari kengaytirilib, ularning fuqarolar bilan ish jarayonlarida raqamli texnologiyalar va “Xavfsiz shahar” tizimidan foydalanishi nazarda tutildi. Bu esa profilaktika siyosatini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirgan holda jinoyatlarning oldini olish imkoniyatlarini yanada oshirdi.

Shu o‘rinda, IIVning 2024 yil hisoboti ma’lumotlariga ko‘ra2, mahallalarning 30,6 foizida umuman jinoyat sodir etilmagani, 410 mingdan ortiq shaxsning ijtimoiy muammolari ijobiy hal etilgani qayd etilgan. Shu bilan birga, jinoyatlarning asosiy qismi — o‘g‘rilik va firibgarlik jinoyatlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lib (41,3 foiz), ularning oldini olishga qaratilgan maxsus profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Ayni paytda, 2024 yilda 58,8 mingta kiberjinoyat sodir etilgani va ularning qariyb 98 foizi fuqarolarning bank kartalari bilan bog‘liq ekani alohida tahdid sifatida qayd etilgan.

Shu tariqa, 2017–2020 yillarda O‘zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida dastlabki ijobiy natijalar kuzatildi. Xususan, 2018 yilda qabul qilingan PF–4075-son Farmon mazkur siyosatning huquqiy va institutsional poydevorini mustahkamlab berdi3. Keyinchalik, 2025 yil PQ–1-son qarori orqali profilaktika jarayonlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish va ularni yangi bosqichga ko‘tarish

1 Мирзиёев Ш.М. “2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-1-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси / https://lex.uz/docs/7330260

2 Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг ҳуқуқбузарликларни олдини олиш ва уларнинг профилактикаси бўйича 2024 йилда амалга оширилган ишлар ҳолати тўғрисидаги ахбороти

3 Мирзиёев Ш.М. “Жиноятчиликка қарши курашиш ва ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ 4075-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси / https://lex.uz/docs/4124831

ta’minlandi1. Ichki ishlar vazirligining 2024 yil hisobotida bu islohotlar amalda o‘z samarasini bergani, ya’ni jinoyatchilik ko‘rsatkichlarining barqaror pasayishi va “jinoyatsiz mahalla”lar sonining ortishi qayd etildi2.

Shu jarayonda, davlat siyosatining ajralmas yo‘nalishlaridan biri sifatida “Xavfsiz shahar” konsepsiyasi joriy etildi. Jumladan, 2019–2020 yillarda Toshkent shahrida “Xavfsiz poytaxt” loyihasi amalga oshirilib, poytaxt hududi 4 sektor va 73 ichki ishlar bo‘limi asosida qayta tashkil etildi. Bu islohot doirasida patrul-post xizmati, Milliy gvardiya va mahalliy hamjamiyat vakillari tunu kun uch smenali navbatchilik tizimiga o‘tkazildi3. Shu bilan birga, minglab videokuzatuv kameralari o‘rnatilib, ular orqali huquqbuzarliklarni tezkor aniqlash va chora ko‘rish imkoniyatlari kengaydi. Prezident Sh.M.Mirziyoevning topshirig‘iga ko‘ra, mazkur tajriba bosqichma-bosqich barcha hududlarga tatbiq etilishi belgilandi4.

Shu bilan bir qatorda, respublika miqyosida navbatchilik qismlari yagona elektron bazaga ulandi va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi barcha xabarlarni markazlashtirilgan holda ro‘yxatga olish hamda nazorat qilish tizimi yo‘lga qo‘yildi. 2021 yildan boshlab esa har bir viloyat, tuman va shahar darajasida jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashish samaradorligini baholovchi reyting tizimi joriy etildi. Unga muvofiq, yuqori ko‘rsatkichga erishgan rahbar va xodimlar mukofotlandi, past natijalar qayd etilgan hollarda esa intizomiy choralar qo‘llandi. Bu orqali har bir hudud rahbariyati o‘z mahallasini jinoyatdan xoli qilish uchun shaxsan javobgar etib belgilandi5. Prezident Mirziyoev ta’kidlaganidek, har bir mahalla raisi va profilaktika inspektori “Mening mahallamda jinoyat sodir bo‘lmasligi kerak” degan tamoyilni hayotiy shior qilib olishi davlat siyosati darajasida talab etildi6.

Yuqoridagi chora-tadbirlar natijasida profilaktika ishlari faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati emas, balki barcha davlat va nodavlat tuzilmalar, mahallalar, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalari, xotin-qizlar qo‘mitalari va Yoshlar ittifoqi kabi jamoat institutlarining ustuvor

1 Мирзиёев Ш.М. “2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-1-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси / https://lex.uz/docs/7330260

2 Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг ҳуқуқбузарликларни олдини олиш ва уларнинг профилактикаси бўйича 2024 йилда амалга оширилган ишлар ҳолати тўғрисидаги ахбороти

3 president.uz – “Хавфсиз пойтахт” лойиҳаси ҳақида маълумот.

4 president.uz

5 Рейтинг тизими ва ҳисобдорлик амалиёти // president.uz.

6 Mening mahallamda jinoyat sodir bo‘lmasligi kerak! // https://xabar.uz/uz/ jamiyat/mening-mahallamda-jinoyat

vazifasiga aylandi. Shu asosda “mahalla – profilaktika inspektori – hokimlik – idoralararo komissiya” mexanizmi ishlab chiqilib, oila va yoshlar bilan manzilli ishlash, huquqbuzarlikka moyillikka olib keluvchi ijtimoiy muammolarni aniqlash va bartaraf etish mexanizmi yo‘lga qo‘yilmoqda.

Shu o‘rinda, jinoyatlarni oldini olish masalasiga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlarini tahlil etish tadqiqot ishining ilmiy salohiyatini yanada oshirishga, shu bilan birga, mavzuning nazariy va amaliy asoslarini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, jinoyatlarni oldini olish tamoyili huquqiy qadriyat sifatida nafaqat amaliy siyosatda, balki ilmiy-nazariy adabiyotlarda ham asoslab kelingan. Eng mashhur tarixiy manbalardan biri sifatida italiyalik ma’rifatparvar yurist Chezare Bekkariyaning 1764 yilda chop etilgan “Jinoyatlar va jazolar to‘g‘risida” asarini keltirish mumkin. Ch.Bekkariya “jinoyatlarni jazolashdan ko‘ra ularning oldini olgan afzal”, deb ta’kidlab, buni “yaxshi qonunchilikning asosiy prinsipi” sifatida e’tirof etgan edi1. Demak, insonni jarima yoki qamoq bilan jazolashga majbur etuvchi vaziyatga tushirmaslik, ya’ni huquqbuzarlikni keltirib chiqaruvchi omillarni boshidan bartaraf etish qonunchilikning oliy maqsadi bo‘lishi lozim. Ch.Bekkariyaning bu g‘oyasi zamirida jinoyatchilikka qarshi kurashda mutlaqo preventiv yondashuv ustuvor bo‘lishi kerakligi haqidagi ilmiy asos yotadi.

Shuningdek, Ch.Bekkariyaning prinsipi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. XIX asr nemis huquqshunosi Frans fon List ham “eng yaxshi jinoyatchilikka qarshi siyosat – yaxshi ijtimoiy siyosatdir” deya ta’kidlagan edi2. Ushbu mashhur tezis jinoyatlarni kamaytirish uchun jamiyatda adolatli ijtimoiy muhit yaratish, aholining turmush sharoitini yaxshilash va maorif-tarbiyani kuchaytirish birinchi darajali ahamiyatga egaligini bildiradi. Haqiqatan ham, zamonaviy kriminologiya fanidan ma’lumki, jinoyatchilikni tug‘diradigan omillar ko‘p jihatdan ijtimoiy-iqtisodiy adolatsizliklar, ishsizlik, savodxonlikning pastligi, oilaviy muhitdagi muammolar va boshqa “jinoyat illatlari”dan iboratdir. Shu

1 Чезаре Беккариянинг Of Crimes and Punishments // Of the Means of preventing Crimes / https://www.laits.utexas.edu/poltheory/beccaria/delitti/delitti.

2 Причины преступности // «Лучшая уголовная политика заключается в хорошей социалной политике», – утверждал Франц фон Лист (1851–1919), знаменитый профессор уголовного права XIX века. В то же время он утверждал, что, по его мнению, главная причина преступных деяний заключается в бедности и отсутствии материалных возможностей подавляющего болшинства граждан. Современные подходы к объяснению причин преступности отнюд не отрицают тезис Франца фон Листа, а, напротив, дополняют и углубляют его // https://kommunalwiki.boell.de/index.php/Kriminalit%C3%A4tsursachen-#:~:text=Kriminalit%C3%A4tsursachen%20,der%20ber%C3%BChmte%20Strafrechtslehrer%20des%2019

sababli faqat jazoni keskinlashtirish bilan jinoyatchilikni jilovlab bo‘lmaydi – jazo muqarrarligi albatta zarur, biroq u cheklovchi omil xolos. Jinoyatlarning oldini olish uchun esa muammoning ildizlariga ta’sir etuvchi noqonuniy (repressiv emas) choralar kerak bo‘ladi.

Mamlakatimiz huquqshunos olimlari jinoyatchilikning sabablari va uning oldini olish masalalari bo‘yicha qator nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borishgan. Xususan, professor A.Islomov o‘zining “Jinoyatchilikka qarshi kurash va profilaktika: nazariy va amaliy aspektlar” nomli fundamental asarida jinoyatlarning oldini olishga kompleks yondashuv zarurligini ta’kidlab, profilaktika institutining huquqiy asoslarini chuqur tahlil etgan hamda jinoyatchilikka qarshi kurash faqat jazo choralariga bog‘liq emasligini, balki bu jarayonda ta’lim, oila, mahalla va jamiyatning barcha institutlari ishtirok etishi shart ekanini nazariy jihatdan asoslab bergan1. Shu yo‘nalishda huquqshunos olim I.Ismailov ham jinoyatchilikka qarshi kurashda profilaktika tizimini kuchaytirish va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurligini ta’kidlab, jinoyatchilikka qarshi kurashish davlat siyosatida ijtimoiy omillarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish ustuvor vazifa bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadi2.

M.Ziyadullaev esa jinoyatchilikka qarshi kurash tizimini takomillashtirishda “ijtimoiy profilaktika” konsepsiyasini ilgari surib, unga ko‘ra huquqbuzarlikka olib keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va maishiy shart-sharoitlarni oldindan aniqlash va bartaraf etish davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilanishi kerakligini ta’kidlaydi3. Shu bilan birga, M.Xolmirzaev jinoyatchilikka qarshi kurashishda kriminologik prognozlashning ahamiyatini ko‘rsatib, jinoyatchilik dinamikasini bashorat qilish orqali profilaktika tadbirlarini samarali rejalashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi4.

Mazkur qarashlarning mantiqiy davomi sifatida A.Abdilxamedov yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda ta’lim va tarbiyaning o‘rni, shuningdek, yoshlarning bandligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadi. Uning fikricha, ijtimoiy muhitdagi salbiy omillarni

---

1 Исломов А. Жиноятчиликка қарши кураш ва профилактика: назарий ва амалий аспектлар. – Тошкент: 2020. 45–48 -бетлар.

2 Нажимов М.К. Ёшларнинг hуқуқий онги ва маданиятини юксалтириш масалалари. – Тошкент: ТДЮУ, 2019. 52–55-бетлар.

3 Абдилхамедов А.А. “Ёшлар томонидан содир этиладиган жиноятларнинг олдини олишда таълим ва тарбиянинг ўрни hамда бандлигини таъминлашнинг долзарблиги” // Yangi O‘zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari. – 2024. – №4(21). 681–689-бетлар.

4 Холмирзаев М. Жиноятчиликни криминологик прогнозлаш: муаммо ва ечимлар. Магистрлик диссертацияси. – Тошкент: Бош прокуратура академияси, 2022. 33–35-бетлар.

bartaraf etish orqali yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish mumkin1[5]. Shuningdek, Q.Abdurasulova o‘z darsligida jinoyatchilikka qarshi kurashning muhim yo‘nalishi sifatida profilaktik choralarni turli darajalarda – ijtimoiy, psixologik va huquqiy yo‘nalishlarda amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi2.

Shu tariqa, mahalliy huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari jinoyatchilikka qarshi kurashishning samaradorligi ijtimoiy profilaktika va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatmoqda. Bu esa huquqbuzarliklarni oldini olish jarayonida jamiyatning barcha institutlari – oila, ta’lim muassasalari, mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligida amalga oshirilishi zarurligini tasdiqlaydi.

Darhaqiqat, zamonaviy kriminologiya nazariyasida jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish masalasi global miqyosda strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bois ko‘pgina davlatlar bu sohada o‘ziga xos huquqiy, tashkiliy va amaliy mexanizmlarni ishlab chiqqan. Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, samarali jinoyatlar profilaktikasi siyosatini amalga oshirishda qator umumiy tamoyillar alohida ahamiyatga ega: birinchidan, profilaktika masalasi davlat siyosati darajasida mustahkamlanishi lozim; ikkinchidan, jamiyatning barcha qatlamlari — davlat organlari, mahalliy boshqaruv institutlari, fuqarolik jamiyati institutlari va aholining faol ishtiroki ta’minlanishi zarur; uchinchidan, profilaktika choralari huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologiyaviy vositalar uyg‘unligida amalga oshirilishi shart3.

Shuningdek, kriminologiya nazariyasida jinoyatlarning oldini olish tizimi odatda birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikaga ajratiladi. Birlamchi profilaktika jamiyatda ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish, ta’lim-tarbiya orqali jinoyat sodir etilishi ehtimolini umumiy pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni qamrab oladi4. Ikkilamchi profilaktika esa aniq jinoyatlar sodir etilishi mumkin bo‘lgan holatlarni cheklash, ya’ni jinoyat ko‘p uchraydigan hududlarda videokuzatuv tizimlarini o‘rnatish, qo‘riqlash va xavfsizlik

1 Абдилхамедов А.А. “Ёшлар томонидан содир этиладиган жиноятларнинг олдини олишда таълим ва тарбиянинг ўрни ҳамда бандлигини таъминлашнинг долзарблиги” // Yangi O‘zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari. – 2024. – №4(21). 684–686-бетлар.

2 Абдурасулова Q.P. Криминология. Дарслик. – Тошкент: ТДЮИ нашриёти, 2008 й. 122–125-бетлар.

3 Бекназаров И.И. Криминология асослари. – Тошкент: ТДЮУ нашриёти, 2020. – Б. 115–118.

4 Garland D. The Culture of Control: Crime and Social Order in Contemporary Society. – Oxford: Oxford University Press, 2001. – P. 124–127.

choralarini kuchaytirish kabi usullarni o‘z ichiga oladi1. Uchlamchi profilaktika esa jinoyat sodir etgan shaxslarni qayta tarbiyalash, ularning jamiyatga qaytib, takroran jinoyat yo‘liga kirib qolishlarining oldini olish (probatsiya tizimi, reabilitatsiya dasturlari, psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari) bilan bog‘liq tadbirlardan iboratdir2.

Shunday qilib, jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha xalqaro va milliy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kompleks profilaktika siyosatini amalga oshirish uchun nazariy asoslangan, huquqiy jihatdan mustahkam va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlangan chora-tadbirlar tizimi zarur3. Shu o‘rinda, rivojlangan horijiy davlatlarning tajribasiga nazar tashlasak. Xususan:

Germaniyada jinoyatchilikka qarshi profilaktika siyosati markaziy tarkibiy ustun sifatida mahalliy kengashlar tizimiga asoslangan. 1990 yillardan boshlab mamlakatda 2000 dan ziyod mahalliy profilaktika kengashlari tashkil etilgan bo‘lib, ular politsiya, ta’lim muassasalari, ijtimoiy xizmatlar va nodavlat notijorat tashkilotlarining integratsiyalangan hamkorligi asosida ish yuritadi. Mazkur kengashlar mahalliy aholi muammolarini tahlil qilish, jinoyatchilik xavfi yuqori bo‘lgan “issiq nuqtalar”ni aniqlash va profilaktika dasturlarini ishlab chiqish orqali jinoyatchilik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi4. Shu bilan birga, milliy darajada muvofiqlashtirish vazifasini 2001 yilda tashkil etilgan Germaniya Jinoyatlarni profilaktikasi forumi (Deutscher Präventionstag, DPT) bajaradi. Uning asosiy vazifalari turli hududlarda yig‘ilgan tajribalarni umumlashtirish, metodik qo‘llanmalar tayyorlash, profilaktika sohasida innovatsion yondashuvlarni targ‘ib qilish hamda ilmiy ma’lumotlar almashinuvini ta’minlashdan iboratdir5.

Germaniyada profilaktika siyosatining yana bir muhim jihati – uning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan uzviy bog‘lanishidir. Kriminologiya institutlari va universitetlar profilaktika dasturlarining samaradorligini baholash, jinoyatchilikning ijtimoiy omillarini tahlil qilish hamda davlat siyosatini takomillashtirishda metodologik asoslarni ishlab chiqishda faol ishtirok etadi6. Bundan tashqari, profilaktika jarayonida davlat va fuqarolik jamiyati

1 Лукянов В.В. Криминология: Учебник. – Москва: Норма, 2018. – С. 210–214.

2 Tonry M., Farrington D.P. Building a Safer Society: Strategic Approaches to Crime Prevention. – Chicago: University of Chicago Press, 1995. – P. 15–22.

3 Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – Б. 242–245.

4 Heinz, W. (2004). Kommunale Kriminalprävention in Deutschland. Wiesbaden: Bundeskriminalamt, S. 15–22.

5 Deutscher Präventionstag (DPT). (2001). Jahresbericht 2001. Hannover: DPT-Verlag.

6 Pfeiffer, C. (2005). Kriminalprävention durch Forschung: Erfahrungen des Kriminologischen Forschungsinstituts Niedersachsen. Hannover: KFN, S. 7–18.

institutlari hamkorligi keng qamrovli ko‘rinishga ega bo‘lib, mahalliy aholi, ota-onalar kengashlari, diniy tashkilotlar va ko‘ngillilar jamoalari profilaktika tadbirlarini amalga oshirishda faol ishtirok etadi. Mazkur tizimning moliyalashtirilishi esa federal va mahalliy budjetlar, shuningdek, Yevropa Ittifoqining maxsus grantlari hisobiga amalga oshiriladi1.

Shu tariqa, Germaniya tajribasi jinoyatchilikka qarshi kurashda profilaktikaning samaradorligi uning mahalliy kengashlar orqali jamoaviy asosda tashkil qilinishi, milliy darajadagi muvofiqlashtirish markazi orqali qo‘llab-quvvatlanishi va ilmiy tahlillar bilan ta’minlanishi orqali ta’minlanishini ko‘rsatadi. Bu esa jazo choralarini qo‘llash bilan cheklanib qolmay, jinoyatchilikning ijtimoiy-iqtisodiy ildizlarini bartaraf etishga qaratilgan davlat siyosatiga aylanib bormoqda.

Fransiyada jinoyatchilikka qarshi profilaktika davlat siyosati darajasida huquqiy asosga ega bo‘lib, uning mazmun-moxiyati 2007 yil 5 martda qabul qilingan “Delinqensiyaning oldini olish to‘g‘risida”gi Qonunda (Loi n°2007-297 du 5 mars 2007 relative à la prévention de la délinquance) mustahkamlangan. Ushbu qonun profilaktikani davlatning ajralmas vazifasi sifatida belgilab, har bir kommunal hokimiyat huzurida maxsus profilaktika kengashlari tashkil etilishini shart qilib qo‘ydi. Mazkur kengashlar mahalliy politsiya, ta’lim-tarbiya muassasalari va ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorlikda jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi2.

Shu bilan birga, Fransiya Ichki ishlar vazirligi har yili milliy darajadagi profilaktika dasturlarini qabul qilib, ustuvor yo‘nalishlarni belgilaydi. Bu yo‘nalishlar jumlasiga yoshlar o‘rtasida deviant xulq-atvorning oldini olish, oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish, shaharlarda jamoat xavfsizligini kuchaytirish kabi ustuvor vazifalar kiradi3. Ilmiy nuqtai nazardan, Fransiya tajribasi jinoyatchilikka qarshi kurashda ikki bosqichli modelni amalga oshirishini ko‘rsatadi: birinchidan, huquqbuzarlarni aniqlab jazo qo‘llash; ikkinchidan esa, jinoyat sodir bo‘lishining oldini olishga qaratilgan profilaktik dasturlarni jamoaviy hamkorlik asosida tatbiq etish4.

---

1 Bannenberg, B. (2010). Kriminalprävention in Deutschland: Entwicklungen und Perspektiven. Wiesbaden: VS Verlag für Sozialwissenschaften, S. 34–41.

2 République Française. (2007). Loi n°2007-297 du 5 mars 2007 relative à la prévention de la délinquance. Journal Officiel de la République Française, 6 mars 2007.

3 Ministère de l’Intérieur (2009). Plan national de prévention de la délinquance et d’aide aux victimes 2009-2011. Paris: La Documentation Française.

4 Mouhanna, C. (2011). La prévention de la délinquance en France: entre répression et prévention sociale. Revue de science criminelle, №2, p. 215-229.

Fransiyaning bu mexanizmi mahalliy darajadagi profilaktika ishlarini davlat siyosati bilan uyg‘unlashtirish imkonini berib, jinoyatchilikning ijtimoiy ildizlarini bartaraf etishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, Fransiya modeli jazo siyosati bilan bir qatorda profilaktika siyosatini ham davlatning markaziy vazifasi sifatida mustahkamlaganligi bilan Germaniya tajribasidan farq qiladi.

AQShda jinoyatchilikka qarshi profilaktika siyosati federativ tuzum xususiyatlaridan kelib chiqib, asosan shtat va mahalliy darajada amalga oshiriladi. 1980-yillardan boshlab community policing (jamoatchilik politsiyasi) falsafasi keng tarqaldi. Uning mohiyati politsiya organlarining aholi bilan hamkorlikda muammolarni aniqlashi, tahlil qilishi va yechishini nazarda tutadi. Bu tizim orqali politsiya xodimlari mahallalarda faol muloqot qiladi, aholi bilan ishonchli munosabat o‘rnatadi va xavfsizlikka oid qarorlar qabul qilishda jamoat ishtirokini ta’minlaydi1.

Mazkur falsafani amalga oshirishda AQSh Adliya vazirligi huzuridagi Community Oriented Policing Services (COPS Office) markaziy institut hisoblanadi. U mahalliy politsiya idoralariga profilaktika dasturlarini amalga oshirish uchun grantlar ajratadi, aholi va politsiya hamkorligini mustahkamlaydigan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaydi. Jumladan, Neighborhood Watch, National Night Out, mahalla politsiya nuqtalari kabi dasturlar orqali aholining huquqbuzarliklarni oldini olishdagi ishtiroki rag‘batlantiriladi2.

Ilmiy nuqtai nazardan AQSh tajribasi profilaktika va innovatsion texnologiyalarni uyg‘unlashtirishini ko‘rsatadi. Xususan, Nyu-York shahrida joriy etilgan CompStat tizimi politsiya faoliyatini raqamli tahlilga asosladi. Uning orqali jinoyat xaritalari yaratildi, “issiq nuqtalar”ni kuzatish yo‘lga qo‘yildi va statistik tahlil asosida tezkor qarorlar qabul qilinishi ta’minlandi. Shu tufayli 1990-yillardan boshlab Nyu-York shahrida jinoyatchilik darajasi sezilarli darajada pasaydi, CompStat esa keyinchalik AQShning boshqa shaharlariga ham keng joriy etildi3.

Shu tariqa, AQSh tajribasi jinoyatchilikka qarshi profilaktikaning samaradorligi aholi bilan hamkorlikka asoslangan community policing

1 Skogan, W. (2006). Community Policing: Can It Work? Belmont: Wadsworth Publishing, p. 23–41.

2 U.S. Department of Justice, Office of Community Oriented Policing Services (COPS Office). (2014). Community Policing Defined. Washington, D.C., p. 5–12.

3 Silverman, E. B. (1999). NYPD Battles Crime: Innovative Strategies in Policing. Boston: Northeastern University Press, p. 67–89. // Weisburd, D., & Eck, J. E. (2004). What Can Police Do to Reduce Crime, Disorder, and Fear? The Annals of the American Academy of Political and Social Science, Vol. 593(1), p. 42–65.

falsafasi, mahalliy darajadagi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish orqali ta’minlanishini ko‘rsatadi.

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jinoyatchilikka qarshi samarali profilaktika tizimi davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi chuqur hamkorlikka, institutsional muvofiqlashtirish mexanizmlariga hamda innovatsion texnologiyalardan keng foydalanishga asoslanishi lozim. Germaniya tajribasi mahalliy profilaktika kengashlari orqali aholi, politsiya, ta’lim muassasalari va ijtimoiy xizmatlarning integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishini ta’minlasa1, Fransiyada milliy qonunchilik asosida qabul qilingan dasturlar profilaktika choralarini davlat siyosati darajasiga ko‘tarib, politsiya, mahalliy boshqaruv va sud tizimi o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirdi2. AQShda esa federativ tuzum xususiyatidan kelib chiqib, profilaktika asosan mahalliy darajada amalga oshirilib, community policing falsafasi hamda raqamli analitik tizimlar (CompStat) orqali aholi bilan politsiya o‘rtasida ishonchli hamkorlik muhitini shakllantirishga erishildi3.

Ushbu tajribalarni qiyosiy tahlil qilish O‘zbekiston uchun qator normativ-huquqiy islohotlarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Jumladan:

birinchidan, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunga qo‘shimchalar kiritish. Bunda, qonunning umumiy moddalariga “mahalliy profilaktika kengashlari” haqida alohida bob kiritilishi maqsadga muvofiq. Unda kengash tarkibi (profilaktika inspektori, mahalla raisi, ta’lim muassasalari va fuqarolik jamiyati vakillari), vakolatlari (hududiy tahlil, “issiq nuqtalar”ni aniqlash, dasturlar ishlab chiqish), moliyalashtirish manbalari (mahalliy budjet, davlat dasturlari, grantlar) aniq belgilanishi kerak;

ikkinchidan, milliy muvofiqlashtirish markazi to‘g‘risida alohida normativ hujjat qabul qilish. Bunda, Fransiya va Germaniya tajribasi asosida “Jinoyatchilik profilaktikasi bo‘yicha milliy kengash” tuzilishi taklif etiladi. Unga Vazirlar Mahkamasi huzuridagi maxsus organ sifatida huquqiy maqom berish, uning vazifalarini turli vazirlik va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini davlat siyosatiga joriy etish, xorijiy tajribalarni adaptatsiya qilish kabi funksiyalar bilan boyitish zarur;

1 Heinz, W. (2004). Kommunale Kriminalprävention in Deutschland. Wiesbaden: Bundeskriminalamt.

2 Loi n 2007-297 du 5 mars 2007 relative à la prévention de la délinquance. Journal Officiel de la République Française.

3 Skogan, W. (2006). Community Policing: Can It Work? Belmont: Wadsworth Publishing // Silverman, E. B. (1999). NYPD Battles Crime: Innovative Strategies in Policing. Boston: Northeastern University Press.

uchinchidan, Community policing konsepsiyasini huquqiy jihatdan mustahkamlash. Bunda, qonunchilikka “jamoatchilik politsiyasi” tushunchasi va uning asosiy prinsiplari kiritilishi maqsadga muvofiq. Xususan, profilaktika inspektori faoliyati mahalla instituti bilan integratsiya qilingan holda qonunan belgilanishi, aholi bilan muntazam muloqot va hisobot berish mexanizmlari huquqiy jihatdan kafolatlanishi zarur;

to‘rtinchidan, raqamli texnologiyalardan foydalanishni huquqiy asosda yo‘lga qo‘yish. Bunda, amaldagi qonunchilikka “jinoyatchilik monitoringi va tahlilining yagona axborot tizimi” haqida modda kiritilishi lozim. Bu tizim orqali politsiya, prokuratura va mahalliy boshqaruv organlari “issiq nuqtalar”ni xaritalash, tahlil qilish va profilaktik qarorlar qabul qilishda yagona platformada ish yuritishi ta’minlanadi.

Kutiladigan natijalar nuqtai nazaridan, birinchidan, mahalliy profilaktika kengashlarining huquqiy maqomi aholi ishtirokini kuchaytiradi hamda jamoaviy mas’uliyat muhitini shakllantiradi; ikkinchidan, milliy muvofiqlashtirish markazi davlat idoralari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, profilaktika choralarining uzluksiz va tizimli amalga oshirilishini ta’minlaydi; uchinchidan, community policing konsepsiyasi va raqamli texnologiyalarning qonuniy asosda joriy etilishi politsiya va aholi o‘rtasida ishonchli munosabatni mustahkamlaydi, jinoyatchilik darajasining pasayishiga, aholining xavfsizlik hissining oshishiga hamda profilaktika siyosatining samaradorligi ortadi.

Yuqorida taklif etilgan normativ-huquqiy islohotlar amalga oshirilganda, O‘zbekistonda jinoyatchilikka qarshi profilaktika tizimida bir qator ijobiy natijalar kutilmoqda:

birinchidan, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunga mahalliy profilaktika kengashlariga oid normalar kiritilishi jinoyatchilikka qarshi kurashda fuqarolarning faol ishtiroki va jamoaviy mas’uliyat muhitini shakllantiradi. Bu kengashlar mahalla, ta’lim muassasalari va politsiya o‘rtasida o‘zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlaydi, mahalliy aholi muammolarini yechimini topishga yaqinlashtiradi hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish imkoniyatini yaratadi. Natijada, mahalladagi “issiq nuqtalar” tezkor aniqlanadi va jinoyat sodir bo‘lishidan oldin samarali choralar ko‘riladi;

ikkinchidan, jinoyatchilik profilaktikasi bo‘yicha Milliy muvofiqlashtirish markazi tashkil etilishi turli davlat idoralari va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining samaradorligini oshiradi. Bugungi kunda profilaktika tadbirlarida vazifalarning takrorlanishi va tartibga solinmagan

holatlar uchraydi. Markaz orqali esa vazirlik va idoralar bir-biriga uyg‘unlashgan holda ish yuritadi, ilmiy-tadqiqot natijalari davlat siyosatini belgilashda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi, xorijiy ilg‘or tajribalarni milliy sharoitga moslash orqali samarali davlat dasturlari ishlab chiqiladi. Bu orqali profilaktika siyosatida strategik uzluksizlik va tizimlilik ta’minlanadi;

uchinchidan, community policing konsepsiyasining huquqiy jihatdan mustahkamlanishi ichki ishlar organlari va aholi o‘rtasida ishonchli munosabatlar shakllantirishga xizmat qiladi. Bu orqali profilaktika inspektorlari mahalla instituti bilan uzviy hamkorlikda ishlaydi, aholiga doimiy hisobot berish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi, fuqarolarning xavfsizlik masalalaridagi ishtiroki rag‘batlantiriladi. Politsiyaning faqat jazo bilan cheklanmay, profilaktikaga yo‘naltirilgan va jamoatchilik bilan muloqotga asoslangan modeli barqaror xavfsizlik muhitini shakllantiradi;

to‘rtinchidan, raqamli texnologiyalarni huquqiy asosda joriy etish jinoyatchilikni tahlil va monitoring qilish tizimini yangi bosqichga olib chiqadi. Axborot platformalari orqali politsiya, prokuratura va mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasidagi ma’lumot almashinuvi tezkorlashadi, jinoyatchilik xaritalari tuziladi, “issiq nuqtalar” aniqlanadi va ularning dinamikasi real vaqt rejimida kuzatiladi. Bu esa huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, resurslarni maqsadli yo‘naltirish va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

Shu tariqa, taklif etilgan normativ-huquqiy islohotlar samarali amalga oshirilsa, O‘zbekistonda jinoyatchilikka qarshi profilaktika tizimi jamoaviy ishtirokqa, institutsional muvofiqlashtirishga va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda tubdan yangilanadi. Bu esa nafaqat jinoyatchilik darajasining barqaror kamayishiga, balki aholining huquqiy ongi va huquqbuzarliklarga qarshi daxldorlik hissining oshishiga xizmat qiladi.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI QONUNCHILIK ASOSLARINI TAHLILI

Muhamadov U.U.
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligi sohasidagi qonunchilik asoslari ilmiy tahlil etilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident farmonlari va hukumat qarorlarida jismoniy

tayyorgarlikka oid belgilangan talablar yoritilgan. Shu bilan birga, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda mavjud bo‘shliqlar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Xalqaro tajriba tahlili orqali ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligini baholash va takomillashtirishning huquqiy mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Ichki ishlar organlari, jismoniy tayyorgarlik, qonunchilik asoslari, huquqiy tahlil, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tajriba.

Mintaqada va dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy sharoit, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, “rangli inqiloblar” kabi global tahdidlar ichki ishlar organlari zimmasiga yangi va dolzarb vazifalarni yuklamoqda. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta’minlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini mustahkamlashda ichki ishlar organlari xodimining jangovar hamda jismoniy tayyorgarligi yuqori darajada bo‘lishi kasbiy faoliyatning ajralmas talabi hisoblanadi.

Chunki xizmat jarayonida ichki ishlar organlari xodimlari turli ekstremal vaziyatlar bilan yuzma-yuz kelishi ehtimoldan holi emas. Bunday sharoitda ular nafaqat davlat va jamiyat xavfsizligini ta’minlashi, balki shaxsan o‘zining xavfsizligini ham kafolatlay olishi uchun zarur bo‘lgan ruhiy barqarorlik va jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lishi shart.

Ichki ishlar organlari xodimlari davlat xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ularning xizmat vazifalari jismoniy bardosh, ruhiy tayyorgarlik va yuqori darajadagi professionallikni talab qiladi.

Ichki ishlar organlari xodimlari jamoat tartibini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish kabi muhim vazifalarni amalga oshiradilar. Bu jarayonlarda xodimdan faqat huquqiy bilimlar va kasbiy ko‘nikmalar emas, balki yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik ham talab etiladi. Shu jihatdan jismoniy tayyorgarlikning huquqiy asoslari milliy qonunchilikda alohida mezon sifatida mustahkamlangan bo‘lib, bir qator olimlar o‘z tadqiqotlarida jismoniy tayyorgarlikning ichki ishlar organlari xodimlari xizmat samaradorligidagi rolini chuqur tahlil qilishgan.

J.S.Muxtorov ta’kidlaganidek, huquqni muhofaza qilish organlari tizimida ichki ishlar organlari jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashda juda keng xajmda va turli xil yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatishi bilan ajralib turadi. Ular o‘z vakolatlari doirasida jamoat tartibini saqlash,

jinoyatlarning sodir etilishi sabablarini aniqlash, oldini olish va ochish bo‘yicha operativ qidiruv chora-tadbirlarini, surishtiruv, dastlabki tergovni o‘tkazish va jinoyatga oid jazoni ijrosini ta’minlash bo‘yicha faoliyatni amalga oshiradilar1.

J.S.Muxtorov ta’kidlaganidek, huquqni muhofaza qilish organlari tizimida ichki ishlar organlari jinoyatlarning oldini olish, ularni ochish va jazo ijrosini ta’minlashda asosiy o‘rin egallaydi. Ularning vakolatlari juda keng, xususan, jamoat tartibini saqlashdan tortib, operativ-qidiruv va dastlabki tergovgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oladi. Bunday vazifalarni samarali bajarish uchun xodimlardan yuqori kasbiy tayyorgarlik, ruhiy barqarorlik va jismoniy qobiliyat talab etiladi. Shu bois, mazkur fikrni ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligi va uning qonunchilik asoslari bilan bog‘lab tahlil etish dolzarb ahamiyatga ega.

J.S.Muxtorov ta’kidlagan vazifalarning ko‘pchiligi amalda jismoniy va jangovar tayyorgarlik bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, jamoat tartibini saqlashda xodimlardan epchillik, chidamlilik va favqulodda vaziyatlarga tezkor javob berish qobiliyati talab qilinadi. Jinoyatlarning oldini olish va ochishda ko‘p hollarda turli xavf-xatarlarga tayyor turish, qurol yoki maxsus vositalardan foydalanish ko‘nikmalari zarur. Operativ-qidiruv va surishtiruv ishlarida jismoniy tayyorgarlik xodimga xavfli vaziyatlarda o‘zini va boshqalarni himoya qilish imkonini beradi. Jazo ijrosini ta’minlashda esa turli darajadagi muqovimatga qarshi tura olish qobiliyati muhim. Demak, J.S.Muxtorov ta’kidlagan keng ko‘lamli vazifalarni amalga oshirishning huquqiy asosi qanchalik muhim bo‘lsa, uning jismoniy asosi ham shunchalik ahamiyatlidir.

Muallif fikrida ichki ishlar organlari “turli yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatadi” deyiladi. Lekin savol tug‘iladi, xodim ushbu vazifalarni bajarishga qonunan vakolatli bo‘lsa-da, agar jismoniy tayyorgarligi yetarli bo‘lmasa, uning huquqiy vakolatlari qay darajada samarali bo‘ladi? Qonunchilikda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun faqat huquqiy normalar kifoya qiladimi yoki jismoniy tayyorgarlikni huquqiy jihatdan qat’iy me’yor sifatida kuchaytirish kerakmi?

Fikrimizcha, bu yerda ikki qarash paydo bo‘ladi, birinchisi, qonunchilik nuqtai nazaridan vakolat va huquqiy asos yetakchi hisoblanadi, jismoniy tayyorgarlik esa ilovaviy vosita. Ikkinchi holatda esa, amaliyot

1 Мухторов Ж.С. Профилактика инспекторларини касбий тайёрлаш муаммолари. Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги Тошкент Давлат юридик институти «Давлат ва hyqyq» журнали. Т.2005. 3 (25) - сон. – Б. 23-24

nuqtai nazaridan vakolat qanchalik keng bo‘lmasin, jismoniy tayyorgarlik yetarli bo‘lmasa, xodim undan to‘liq foydalana olmaydi.

Mazkur muammoli holatni bartaraf etish uchun qonunchilikka aniq normalar kiritish lozim, xususan, jismoniy tayyorgarlik darajasi xizmat lavozimiga mos minimal standart sifatida belgilanishi kerak. Shuningdek, attestatsiya jarayonini isloh qilish, jumladan, uni faqat formal mashqlar emas, balki favqulodda vaziyatlarda jasorat va mardlik fazilatlarini baholaydigan holatlarga bog‘lash lozim. Shu bilan birga, jismoniy tayyorgarlikda yuqori natija ko‘rsatgan xodimlarga imtiyozlar va rag‘batlantirish choralarini belgilash hamda har bir hududiy bo‘linmada sport majmuasi, maxsus trenajyor zallari bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda ichki ishlar organlarining keng qamrovli vakolatlari va vazifalari qonun bilan mustahkamlangan. Biroq, ushbu vazifalarni samarali bajarish uchun jismoniy tayyorgarlik shunchaki qo‘shimcha omil emas, balki qonunchilikda qat’iy belgilab qo‘yilishi lozim bo‘lgan shartdir. Demak, ichki ishlar organlari xodimlari huquqiy jihatdan qanchalik vakolatli bo‘lmasin, agar ularning jismoniy tayyorgarligi qonun asosida qat’iy nazorat qilinmasa, keng miqyosli faoliyat samaradorligi to‘liq ta’minlanmaydi. Shu sabab, jismoniy tayyorgarlik qonunchilik va amaliyot uyg‘unligida markaziy o‘rin egallashi shart.

Yuqoridagi vazifalarni samarali amalga oshirish birinchidan, ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xodimlarning bilimiga, ikkinchidan, kasbiy tayyorgarligiga, uchinchidan, amaliy va hayotiy tajribasiga, to‘rtinchidan, ijrochilik intizomi va topshiriqni bajarishdagi mas’uliyatiga hamda boshqa bir qator omillarga bog‘liqdir. Bu esa, o‘z navbatida, bugungi kunda ichki ishlar organlarini kadrlarni kasbiy tayyorlash, ularga xizmat sir asrorlarini o‘rgatish, huquqiy bilim berish va tarbiyalash ishlarini yanada takomillashtirishni, xodimlarni kasbiy jihatdan tayorlashni jahon tajribasiga tayangan holda zamon talablaridarajasida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi1.

Shu sababli jamoat tartibini muhofaza qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash, markaziy hokimiyat idoralarining qarorlarini hayotga tatbiq etish vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish, eng avvalo ichki ishlar idoralari safida ishlayotgan xodimlarning, ularning siyosiy ongi, huquqiy madaniyati, ijro intizomi, kasbiy mahorati va tayyorgarligiga bog‘liq.

1Мухторов Ж.С. Ислоҳотлар жараёнида ички ишлар органларига профессионал кадрлар тайёрлашнинг аҳамияти. Ўзбекистон Республикасида суд-ҳуқуқ соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотлар: бугунги ҳолати, муаммо ва ечимлари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари (2008 йил 29 ноябр). – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2008. – Б. 224-227.

Mavjud murakkab va tahlikali vaziyat jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini zamon talablari asosida yanada optimallashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, g‘oyaviy-mafkuraviy kurashlar tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda ichki ishlar organlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar bilan bir qatorda, jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan tadbirlarni takomillashtirish o‘ta muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda shaxsiy tarkibni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida ularning jismoniy va jangovar shayligini yuksaltirish, maxsus-taktik tayyorgarlikni mustahkamlash, shuningdek, o‘qotar qurollar va maxsus vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash jarayonida turli kutilmagan, nostandart holatlarda huquqbuzar yoki jinoyatchini to‘xtatishda qonuniy jismoniy kuch ishlatish usullarini samarali tatbiq etish va ularning metodik jihatlarini takomillashtirish masalasi hanuz dolzarbligicha qolmoqda.

Milliy olimlardan A.G.Mirzakulovning fikricha, jismoniy tayyorgarlik shaxsiy tarkibning ish qobiliyati va kasbiy malakalarini oshirishning asosiy omilidir, chiniqqanlik xodimlarning noqulay sharoitlarda samarali harakat qilish qobiliyatini ta’minlaydi, shu bilan birga ma’naviy-siyosiy va psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi hamda jangovar va jismoniy tayyorgarlik xizmatga yuqori darajada tayyorgarlikni saqlashda yetakchi omil sifatida xizmat qiladi1.

Fikrimizcha, bu qarashlar qonun normalarida belgilangan talablarning ilmiy asosini tashkil etadi, chunki qonunchilikdagi “jismoniy tayyorgarlik” talabi amaliyotda aynan ushbu omillar bilan ta’minlanadi.

A.G.Mirzakulovning ilmiy ishi milliy qonunchilik normalarini amaliy jihatdan ilmiy asoslaydi. Jismoniy tayyorgarlik ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy samaradorligini oshirishda, ularning ruhiy va jismoniy barqarorligini ta’minlashda, xizmat intizomini mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, olimning xulosalari qonunchilikda nazarda tutilgan normalarning hayotiy va amaliy zarurligini isbotlaydi. Shu jihatdan, jismoniy tayyorgarlik ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida nafaqat sport yoki mashg‘ulot sifatida, balki qonunan belgilangan xizmatga layoqatlilik kafolati sifatida ham namoyon bo‘ladi.

1 Мирзакулов А.Г., Жанговар ва жисмоний тайёргарлик –унинг ички ишлар органлари ходимлари тайёргарлигидаги ролининг ортиб бориши ва кўникма, малакасини ошириш омили // “PEDAGOGS”international research journal / ISSN: 2181-4027 / SJIF: 4.995 / Volume-58, Issue-2, May-2024. – P. 200-205.

Yana bir olim A.A.Atashayxov ta’kidlanganidek, ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy va jangovar tayyorgarligi – jinoyatchilikka qarshi kurashda, huquq-tartibotni ta’minlashda hamda aholining xavfsizligini muhofaza qilishda hal qiluvchi omillardan biri bo‘lib, jismoniy tayyorgarlik nafaqat xodimning sog‘lig‘iga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, balki uning stressga chidamliligi, vaziyatni tez baholash va qaror qabul qilish qobiliyatini ham oshiradi1.

Fikrimizcha, muallif ta’kidlagan muammolar asosli, biroq ularning yechimini qonunchilikdan ayrim holatlarda ustun qo‘yish mumkin emas. Chunki ichki ishlar organlari faoliyati huquqiy asoslarga tayangan holda amalga oshirilishi shart. Agar qonun talablari puxta bajarilsa, maqolada ko‘tarilgan muammolarning ko‘pchiligi bartaraf etilishi mumkin. Shu bois, jangovar va jismoniy tayyorgarlikning samaradorligi – qonun normalarini to‘g‘ri qo‘llash va amaliyotga samarali mexanizmlar joriy etish bilan uzviy bog‘liqdir.

I.N.Bo‘taevning tadqiqotlarida, ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligi xizmat samaradorligi va ruhiy barqarorlikda hal qiluvchi omil ekanligi ta’kidlangan. Olimga ko‘ra, jismoniy chiniqqanlik xodimning ruhiy-hissiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, stress vaziyatlarida bardoshliligini ta’minlaydi va xizmat vazifalarini samarali bajarish imkonini beradi2.

Shaxsiy tarkibning sog‘lom turmush tarziga amal qilmasligi, muntazam jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanmasligi oqibatida 2022-2023 yillar davomida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ochtirgan xodimlarning umumiy soni 27.360 kishini, shundan 2.428 nafari ayol xodimalar tashkil etgan bo‘lib, bu jami shaxsiy tarkibning 42 foiziga to‘g‘ri keladi, o‘z navbatida, bu esa har bir vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ochtirgan xodimning kamida 10 kun xizmatga chiqmaganligini anglatadi. Bugungi kunda respublika bo‘yicha ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xodimlarning antropometrik parametrlari bo‘yicha turli semizlik darajasiga ega bo‘lgan 30 yoshgacha 1.257 nafar, 40 yoshgacha 5.737 nafar, 50 yosh va undan kattalar 2.349 nafar, jami 9343 nafar xodim

1Аташайхов А.А., Ички ишлар органларида жанговар ва жисмоний тайёргарликнинг ўрни: муаммо ва ечимлари // "PEDAGOG" jurnali / Vol. 7 No. 10 (2024): PEDAGOG. / https://bestpublication.net/index.php/ pedagog/ article/view/324.

2 Бўтаев И.Н., Жанговар ва жисмоний тайёргарлик, унинг ички ишлар органлари ходимлари тайёргарлигидаги ролининг ортиб боришива кўникма, малакасини ошириш омили // TADQIQOTLAR jahon ilmiy –metodik jurnali / ISSN:3030-3613 / https://scientific-jl.org/ 52-son_3-to’plam_Dekabr-2024. Б. 208. https://scientific-jl.org/tad/article/view/7967/7717.

xizmat qilmoqda, bu esa umumiy shaxsiy tarkibning 14,3 foizini tashkil etmoqda. Xodimlarning jismoniy tayyorgarligiga qo‘yilgan talablaridan kelib chiqib, natijaga erishish uchun xodimlar bilan tashkil etiladigan jangovar va jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari guruhlarga bo‘lingan, birguruhga 20-25 nafardan oshmagan holda olib borilishini inobatga olish kerak1.

Mavjud statistik ma’lumotlar ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi orasida jismoniy tayyorgarlik bilan bog‘liq muayyan muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Xususan, 2022–2023 yillar davomida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ochtirgan xodimlar soni 27 360 nafarni tashkil etgani, ularning har biri kamida o‘n kun xizmatdan chetlashganini anglatadi. Bu esa xizmat intizomi va jamoat xavfsizligini ta’minlashda qo‘shimcha muammolarni yuzaga keltirishi tabiiy.

Shuningdek, shaxsiy tarkib orasida turli semizlik darajasiga ega bo‘lgan xodimlar soni 9 343 nafarni yoki umumiy tarkibning 14,3 foizini tashkil etmoqda. Ayniqsa, 40 yoshgacha bo‘lganlar orasidagi yuqori ko‘rsatkich ularning jismoniy shayligi, ekstremal holatlarda tezkor harakatlanish qobiliyati va xizmat samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash ichki ishlar organlari xodimlaridan nafaqat kasbiy bilim va ma’naviy saviya, balki yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikni ham talab etadi. Agar shaxsiy tarkibning muayyan qismi sog‘lom turmush tarziga amal qilmasa, jismoniy tayyorgarligi yetarli bo‘lmasa, huquqbuzarliklarni bartaraf etish, jinoyatchilarni qo‘lga olish va ommaviy tartibsizliklarning oldini olish kabi vazifalarda salbiy holatlar kuzatilishi ehtimoli ortadi.

Shu nuqtai nazardan, ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibining jismoniy tayyorgarligini yuksaltirish va jamoat xavfsizligini ta’minlashda quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

Birinchidan, shaxsiy tarkib orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, jismoniy faollik va sport mashg‘ulotlariga qiziqish uyg‘otish, to‘g‘ri ovqatlanish madaniyatini shakllantirish bo‘yicha ma’rifiy ishlar tizimli yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Ikkinchidan, jangovar va jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari guruhlar shaklida (20–25 nafardan oshmagan) muntazam va uzluksiz

1 “Ички ишлар органларида жанговар ва жисмоний тайёргарликнинг ўрни: муаммо ва ечимлари” Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Малака ошириш институти. 2024 й. – 44 бет.

ravishda tashkil qilinishi lozim. Bu mashg‘ulotlarning sifatini oshirish va individual yondashuvni ta’minlaydi.

Uchinchidan, shaxsiy tarkib salomatligini tibbiy va fitnes nazoratini yo‘lga qo‘yish, ortiqcha vaznga ega xodimlar uchun individual mashg‘ulot va parhez dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha normativ talablarni lavozim xususiyatidan kelib chiqqan holda qayta ko‘rib chiqish, ularni xizmat jarayonida amaliy tekshirish va bajarilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish zarur.

Beshinchidan, jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda ruhiy barqarorlikni ham rivojlantirish, xodimlarning stressga chidamliligi va ekstremal holatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishga yo‘naltirilgan dasturlarni amalga oshirish zarur.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibining jismoniy shayligini oshirish, ularning xizmat samaradorligini kuchaytirish va eng muhimi – jamiyat xavfsizligini ta’minlashda ishonchli kafolat yaratadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz xavfsizligini ta’minlash va huquq-tartibot organlari faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirish yo‘nalishida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar ishini samarali tashkil etish hamda fuqarolar uchun tinch, osoyishta va farovon hayotni ta’minlash masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni1da belgilangan 100 ta maqsaddan 17-maqsad huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirishga qaratilgan. Unda organlar faoliyatini inson qadri, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish, shuningdek, ichki ishlar organlarini xalq ishonchini qozongan, professional va xalqchil tuzilmaga aylantirish vazifasi aniq ko‘rsatib o‘tilgan.

Bu vazifalarning asosiy maqsadi – mamlakatimizda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, bir so‘z bilan aytganda, xalq manfaatlariga sadoqat bilan xizmat qiluvchi ichki ishlar organlarini shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish uchun, avvalo, har bir xodimning kasbiy bilimi, ma’naviy-ma’rifiy saviyasi va huquqiy ongini yuksaltirish zarur.

---

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ–60-сон Фармони // https: lex.uz.

Zero, faqatgina jismoniy va jangovar tayyorgarlikni yuksak darajaga yetkazish yetarli emas. Agar xodimlar xizmat burchini bajarishda aqliy salohiyati, huquqiy ongi va ma’naviy qat’iyatiga tayana olsalargina ularning jismoniy va jangovar shayligi xalq manfaatlarini himoya qilishda samarali vositaga aylanishi mumkin.

Shu bois, IIO xodimlarining jismoniy tayyorgarligi qonunchilik bilan tartibga solinishi davlatning huquq-tartibot siyosatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining jangovar va jismoniy tayyorgarligi huquqiy jihatdan qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ular shartli ravishda ikki asosiy guruhga ajratib tahlil qilish mumkin: qonunlar darajasidagi asoslar va qonun osti hujjatlari darajasidagi asoslar.

Qonunlar darajasida quyidagilarni alohida qayd etish mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun1da xodimlarni xizmatga qabul qilish jarayonida ularning sog‘ligi va jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha qat’iy talablar belgilangan. Shu bilan birga, xizmat faoliyati davomida ham xodimlar muntazam ravishda jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlaridan o‘tishi va belgilangan normativ talablarni bajarishi shartligi nazarda tutilgan. Bu qonun xodimlar jismoniy shayligini kasbiy faoliyatning majburiy talabi sifatida belgilaydi.

Ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi qonunga ko‘ra, “o‘n sakkizdan o‘ttiz yoshgacha, shu jumladan o‘ttiz yoshdagi, tegishli ma’lumotga ega bo‘lgan, o‘zining shaxsiy va ishchanlik sifatlari, sog‘lig‘ining holati va jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha ichki ishlar organi xodimining xizmat majburiyatlarini bajarishga qodir O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ichki ishlar organlaridagi xizmatga ixtiyoriy tartibda, tanlov asosida qabul qilinadi”2.

Mazkur normaning tahlili shuni ko‘rsatadiki, IIOda xizmat o‘tash uchun jismoniy tayyorgarlik alohida huquqiy shart sifatida qayd etilgan. Bu esa ichki ishlar organlari xodimlaridan talab etiladigan xizmatga layoqatlilik mezonlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki xizmat faoliyati davomida xodimlardan jismoniy chidamkorlik, favqulodda holatlarda to‘g‘ri harakat qilish qobiliyati, kuch ishlatish vakolatlaridan qonuniy asosda foydalana olish salohiyati talab etiladi.

---

1 Ўзбекистон Республикаси “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги қонун // https: lex.uz.

2Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 16 сентябрдаги ЎРQ-407-сон “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги қонуни. 26-модда. // https://lex.uz/docs/3027843.

Shu nuqtai nazardan, jismoniy tayyorgarlik qonun normasida nafaqat tibbiy sog‘lomlik bilan bog‘liq holat, balki xizmatga haqiqiy layoqatlilikni ta’minlovchi huquqiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Bu talab qonunchilikda mustahkamlanishi orqali davlat xavfsizligini ta’minlashda yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qiladi.

Amaliyotda mazkur huquqiy norma qator tartibotlarni yuzaga keltiradi. Avvalo, ichki ishlar organlariga xizmatga kirish istagida bo‘lgan har bir nomzod sog‘lig‘i va jismoniy tayyorgarlik darajasi bo‘yicha belgilangan normativlardan o‘tishi shart. Bunda yugurish, turli sport mashqlari, kuch va chidamkorlik testlari orqali nomzodning xizmatga yaroqlilik darajasi baholanadi. Agar nomzod belgilangan me’yorlarga javob bermasa, uning xizmatga qabul qilinishi rad etilishi mumkin. Bu holat qonun normasining amaliy-qonuniy oqibati hisoblanadi.

Bundan tashqari, mazkur talab qonunchilikda belgilanishi bilan xizmatga qabul qilish jarayonida tenglik va adolat prinsiplarini ta’minlaydi. Barcha nomzodlar jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha bir xil normativlarga asosan baholanadi va bu xizmatga kirishda shaffoflik hamda ochiqlikni kafolatlaydi. Shu bilan birga, jismoniy jihatdan tayyor xodimning xizmat vazifalarini samarali bajarishi, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi vaziyatlarda tezkor va qat’iy harakat qila olishi ta’minlanadi.

Shu tariqa, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 26-moddasida nazarda tutilgan jismoniy tayyorgarlik talabi ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asoslaridan biri sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, xizmatga qabul qilinuvchi nomzodlardan yuksak mas’uliyat, bardosh va kasbiy tayyorgarlikni talab etadi. Bu talabning qonunchilikda mustahkamlanishi esa milliy xavfsizlik va jamoat tartibini ta’minlashda davlat siyosatining ilmiy asoslangan huquqiy kafolati sifatida xizmat qiladi.

Yana bir muhim hujjat “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi qonun1da esa, qo‘riqlash xizmatining asosiy vazifasi strategik obyektlar, fuqarolar va mulk xavfsizligini ta’minlashdan iborat. Bu vazifalar ko‘p hollarda xavfli va ekstremal sharoitlarda amalga oshiriladi. Shu bois qonun qo‘riqlash xizmati xodimlaridan yuqori darajada jismoniy va jangovar tayyorgarlikka ega bo‘lishni talab qiladi.

Demak, jismoniy shaylik qo‘riqlash faoliyatining samaradorligini ta’minlovchi huquqiy asos sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga qonun hujjatlari tizimida IIOlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda

1 Ўзбекистон Республикаси “Қўриқлаш фаолияти тўғ‘рисида”ги қонун // https: lex.uz.

“Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun1ga muvofiq, ichki ishlar organlari xodimlari aholi bilan doimiy muloqotda bo‘lib, huquqbuzarliklarni oldini olish choralarini ko‘radi. Bu jarayonda huquqbuzar shaxslarga nisbatan qonuniy asosda jismoniy kuch ishlatish imkoniyati ham nazarda tutilgan.

Shuning uchun xodimlardan doimiy ravishda jismoniy shaylik, epchillik va chidamlilik talab etiladi. Bu esa jismoniy tayyorgarlikning huquqbuzarliklarni bartaraf etishda xavfsizlik kafolati sifatida muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

IIOlarining asosiy vazifalaridan biri terrorizmga qarshi kurash hisoblanadi. Shunga ko‘ra, “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun2 terrorizmga qarshi kurash jarayoni xavfli va ekstremal vaziyatlarda amalga oshiriladi. Qonunda ichki ishlar organlari terrorchilikka qarshi operatsiyalarda bevosita ishtirok etishi nazarda tutilgan.

Bu esa xodimlarning jangovar va jismoniy tayyorgarligi yuqori darajada bo‘lishini taqozo etadi. Mazkur tayyorgarlik terrorizmga qarshi kurashda taktik ustunlik va shaxsiy xavfsizlikni ta’minlaydigan huquqiy talab sifatida namoyon bo‘ladi. Quyida ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligini qonunchilik asoslari qiyosiy tahlili keltirib o‘tilgan (1-jadval).

1-jadval. Ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligini qonunchilik asoslari qiyosiy tahlili

Qonun nomi	Asosiy mazmun	Jismoniy tayyorgarlik bilan bog‘liq jihatlar
“Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun (2016 y.)	Xodimlarni xizmatga qabul qilish, ularning huquq va majburiyatlarini belgilaydi.	26-moddaga ko‘ra, xizmatga qabulda nomzodning sog‘lig‘i va jismoniy tayyorgarligi qonuniy talab sifatida belgilangan. Xizmat jarayonida muntazam jismoniy tayyorgarlik tekshiruvlari o‘tkaziladi.
“Qo‘riqlash faoliyati	Qo‘riqlash xizmatining maqsad va vazifalarini	Xavfli va ekstremal vaziyatlarda faoliyat

1 Ўзбекистон Республикаси “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги қонун // https: lex.uz.

2 Ўзбекистон Республикаси “Терроризмга қарши кураш тўғрисида”ги қонун // https: lex.uz.

Qonun nomi	Asosiy mazmun	Jismoniy tayyorgarlik bilan bog‘liq jihatlar
to‘g‘risida”gi Qonun (2015 y.)	belgilaydi, strategik obyektlar va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashni nazarda tutadi.	yurituvchi qo‘riqlash xizmati xodimlari yuqori jangovar va jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur.
“Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun (2014 y.)	Huquqbuzarliklarning oldini olish, aholi bilan profilaktik ishlarni tashkil etish tartibini belgilaydi.	Xodimlar huquqbuzarliklarni bartaraf etishda qonuniy asosda jismoniy kuch ishlatishi mumkin. Bu esa ulardan doimiy jismoniy shaylik va epchillikni talab qiladi.
“Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonun (2000 y.)	Terrorizmga qarshi kurashishning huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilaydi.	Terrorchilikka qarshi operatsiyalarda ishtirok etuvchi xodimlar jangovar va jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lishi shart. Bu ularning taktik ustunligi va shaxsiy xavfsizligini ta’minlaydi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mazkur qonunlar ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligini: xizmatga kirish sharti sifatida (Ichki ishlar organlari to‘g‘risida), qo‘riqlash faoliyatining samaradorligi omili sifatida (Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida), huquqbuzarliklarni bartaraf etish vositasi sifatida (Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida), terrorizmga qarshi kurashda ustunlik va xavfsizlik kafolati sifatida (Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida) huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda qonun osti hujjatlari – amaliyotning asosiy huquqiy poydevoridir. Agar qonun umumiy normani belgilasa, buyruq va yo‘riqnomalar uning ijrosini ta’minlaydi. Shu bois, ushbu hujjatlarni takomillashtirish va ularning ijrosini qat’iy nazorat qilish jamoat xavfsizligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bu guruhga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, IIV buyruqlari va me’yoriy hujjatlari kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari – ichki ishlar organlari tizimini isloh qilish, xodimlarning jangovar va jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha davlat siyosatini belgilaydi.

Vazirlar Mahkamasi qarorlari – huquqni muhofaza qilish organlari xizmatchilarining kasbiy tayyorgarligi va jismoniy shayligini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

IIV buyruqlari va yo‘riqnomalari – xodimlarning jismoniy tayyorgarligi normativlari, mashg‘ulotlar tizimi, yillik tekshiruv tartibini belgilaydi. Masalan, IIV Akademiyasida kursantlar uchun jismoniy tayyorgarlikning maxsus dasturlari ishlab chiqilgan.

Demak, ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligi qonunlar orqali umumiy huquqiy asos sifatida, qonun osti hujjatlari orqali esa amaliy mexanizmlar orqali ta’minlanadi.

Bu ikki bosqichli huquqiy asos tizimi xodimlarning jismoniy tayyorgarligini nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy holda ham kafolatlaydi. Ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligini qonunchilik asoslarini

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi1ni amalga oshirish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlari faoliyati-ning eng ustuvor vazifalari etib belgilangan. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar zamirida, bugungi kunda yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, o‘quv jarayonlariga jangovar va jismoniy tayyorgarlikning zamonaviy vosita usullarini keng joriy etish kabi ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15 apreldagi PQ-5076-son “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha choratadbirlari to‘g‘risida”gi2 va “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон «Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисидаги фармони // https://lex.uz/docs/6600413.

2 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 15 апрелдаги ПQ-5076-сон “Ички ишлар органлари учун профессионал кадрлар тайёрлашнинг сифат жиһатидан янги тизимини жорий этиш бўйича чоратадбирлари тўғрисида”ги қарори // https://lex.uz/ru/docs/5377619?ONDATE2=22.01.2025&action=compare.

2023 yil 20 yanvar kunidagi PQ-10-son1 Qarorlarida IIV tizimida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida “Akademiyada ta’lim tizimi kadrlarni maqsadli kasbiy tayyorlashga qaratilishi hamda birinchi kursdan boshlab mutaxassislik va yuridik fanlarni, shuningdek, jangovar va jismoniy tayyorgarlik chuqurlashtirilgan holda o‘qitilishi” ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, PQ-10-sonli qarorda ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat faoliyatini o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasining xususiyatlaridan kelib chiqib, ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibining jangovar va jismoniy tayyorgarlik darajasini doimiy ravishda oshirishning uzluksiz tizimini yaratish va uni baholashni yangi mezonlar asosida amalga oshirish vazifalari qo‘yilgan.

Ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus normativ hujjat bu, O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2024 yil 5 oktabrdagi 555-son “Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat, jangovar, jismoniy va axloqiy-psixologik tayyorgarligini tashkil etish, malaka toifasi hamda reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘i bilan tasdiqlangan Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat, jangovar, jismoniy va axloqiy-psixologik tayyorgarligini tashkil etish to‘g‘risidagi yo‘riqnoma2 xisoblanadi.

Ushbu hujjat bilan ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat, jangovar, jismoniy va axloqiy-psixologik tayyorgarligini tashkil etish, xodimlarning jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlarini tashkil etish va sinovlarni qabul qilish, ularning o‘q otish mashg‘ulotlarini tashkil etish qoidalari, ichki ishlar organlari xodimlarining malaka toifasini berish tartibi, xodimlarni reyting baholash tizimi bilan bog‘liq munosabatlar tartibga solingan.

Yuqorida keltirilgan Yo‘riqnoma ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat, jangovar, jismoniy va axloqiy-psixologik tayyorgarligini huquqiy va tashkiliy jihatdan tartibga soladi. Unda jismoniy tayyorgarlik alohida muhim yo‘nalish sifatida belgilangan.

---

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 20 январ кунидаги “Ички ишлар органларини халқчил профессионал тузилмага айлантириш ҳам аҳоли билан янада яқин ҳамкорликда ишлашга йўналтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғ‘рисида”ги ПҚ-10-сон Қарори // https://lex.uz/docs/6364837.

2 Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 2024 йил 5 октябрдаги 555-сон “Ички ишлар органлари ходимларининг хизмат, жанговар, жисмоний ва ахлоқий-психологик тайёргарлигини ташкил этиш, малака тоифаси ҳамда рейтинг баҳолаш тизимини янада такомиллаштириш тўғ‘рисида”ги буйруғ‘и.

Ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligi jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimining ajralmas va strategik muhim qismi hisoblanadi. Chunki jismoniy jihatdan sog‘lom, chidamli va tezkor xodimlar ommaviy tartibbuzarliklarni bartaraf etish, huquqbuzarlarni qonuniy asosda neytrallashtirish, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash hamda favqulodda vaziyatlarda samarali harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yo‘riqnoma talablariga ko‘ra, jismoniy tayyorgarlik nafaqat sport mashg‘ulotlari bilan cheklanib qolmay, balki xizmatning huquqiy, axloqiy va jangovar tayyorgarlik yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liq holda kompleks ravishda amalga oshiriladi. Xizmat vaqti hisobidan kalendar yil davomida kamida 100 soat jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari tashkil etilishi majburiy hisoblanadi1. Bu esa xodimlar sog‘lom turmush tarzini olib borishi, yuksak intizom va kasbiy mas’uliyatni namoyon etishi uchun huquqiy kafolat sifatida xizmat qiladi.

Jismoniy tayyorgarlik nafaqat xizmat vazifalarini bajarishda zarur ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki xodimlarda ichki intizom, irodaviy barqarorlik va kasbiy qobiliyatlarga ishonch tuyg‘usini mustahkamlaydi. Bu esa o‘z navbatida jamoat xavfsizligini ta’minlashda tezkor qaror qabul qilish, xavfli vaziyatlarda shaxsiy tashabbus ko‘rsatish va psixologik ustunlikni ta’minlash imkonini yaratadi.

Xodimlarning jismoniy va ma’naviy-ruhiy holati ularning xizmat samaradorligi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois jismoniy tayyorgarlik tizimini ilmiy asosda tashkil qilish, uni baholash va takomillashtirish zamonaviy huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi jismoniy tayyorgarligi maxsus me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Bu hujjatlarda xodimlarning kuch, chidamlilik, tezkorlik va irodaviy sifatlarini rivojlantirish, shuningdek, ularni ma’naviy-ruhiy jihatdan xizmat vazifalariga tayyorlash masalalari belgilab qo‘yilgan. Jismoniy tayyorgarlik nafaqat xizmat jarayonida kuch ishlatish qobiliyatini oshiradi, balki xodimning shaxsiy intizomi va mas’uliyatini ham kuchaytiradi.

Jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlarining samaradorligini baholash maxsus ball tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu tizim xodimlarning yoshi, jismoniy imkoniyatlari va xizmat tajribasiga qarab turlicha qo‘llaniladi.

1 Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 2024 йил 5 октябрдаги 555-сон “Ички ишлар органлари ходимларининг хизмат, жанговар, жисмоний ва ахлоқий-психологик тайёргарлигини ташкил этиш, малака тоифаси ҳамда рейтинг баҳолаш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги буйруғи.

Sinovlarda qoniqarli natija ko‘rsata olmagan xodimlar xizmatga yaroqlilik masalasi yuzasidan qayta ko‘rib chiqiladi. Bu esa tizimning xizmat intizomi va javobgarlikni oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda ichki ishlar organlari tizimida krossfit va funksional tayyorgarlik kabi zamonaviy sport texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Bu mashg‘ulotlar xodimlarning kuch va chidamliligini rivojlantirish bilan birga ularda stressga bardoshlilik va favqulodda vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. Shu bois, zamonaviy sport texnologiyalarini tadqiq etish va milliy tizimga uyg‘unlashtirish dissertatsiyaviy ishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Ayol xodimlar hamda yoshi katta xodimlar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgani tizimning insonparvarlik tamoyillariga asoslanganligini ko‘rsatadi. Bu orqali ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibining barcha qatlamlari jismoniy tayyorgarlik jarayoniga qamrab olinadi. Ilmiy tahlil nuqtai nazaridan, bu yo‘nalishda maxsus guruhlar uchun moslashtirilgan dasturlarning samaradorligini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar organlari tizimida muntazam o‘tkaziladigan sport musobaqalari va jamoaviy mashg‘ulotlar xodimlar o‘rtasida hamjihatlik, hamkorlik va jamoaviy ruhni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ular xizmat intizomini oshirish va shaxsiy tarkibning ma’naviy muhitini sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasida (AQSh, Yevropa, Rossiya) politsiya va harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi tizimi yuqori samaradorlik bilan yo‘lga qo‘yilgan. Ularda jismoniy mashg‘ulotlar nafaqat sport sifatida, balki xizmat tayyorgarligining asosiy elementi sifatida qo‘llaniladi. Milliy tizimda esa bu tajribalarni qiyosiy tahlil qilish va samarali elementlarni joriy etish ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

Ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibining jismoniy tayyorgarlik tizimi xodimlarning xizmat samaradorligini oshirish, jamoat tartibini ta’minlash va huquqbuzarliklarga qarshi samarali kurashishda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy sport texnologiyalarini joriy etish, baholash tizimini ilmiy asosda takomillashtirish va xalqaro tajribani uyg‘unlashtirish bu sohaning kelgusidagi rivojlanishi uchun asosiy yo‘nalish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2024 yil 5 oktabrdagi 555-son “Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat, jangovar, jismoniy va axloqiy-psixologik tayyorgarligini tashkil etish, malaka toifasi hamda reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘i bilan

tasdiqlangan Yo‘riqnoma1 bo‘yicha xodimlar uchun yillik 100 soatdan kam bo‘lmagan jismoniy tayyorgarlik belgilangan. Bu ko‘p davlatlarga nisbatan yuqori talab sanaladi.

Xorijda aksariyat hollarda soat miqdori emas, balki me’yoriy natijalar asosida baholash tizimi qo‘llaniladi (masalan, muayyan vaqtda 2 mil yugurish, belgilangan sonida turnikda tortilish va h.k.).

O‘zbekistondagi jismoniy tayyorgarlik tizimi xizmatning xususiyatidan kelib chiqqan holda (masalan, patrul, yo‘l-patrul, probatsiya) differensiatsiya qilingan, bu esa xorijiy amaliyotda ham qo‘llaniladi.

Zamonaviy tahdidlar va favqulodda vaziyatlar xodimlardan yuqori darajadagi chidamlilik, tezkor harakat va maxsus ko‘nikmalarni talab etadi. Shu sababli jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) institutidan samarali foydalanish zarur.

O‘zbekiston Respublikasida DXSh munosabatlari “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun2 bilan tartibga solingan. Ushbu qonunga ko‘ra, davlat organlari va xususiy sektor hamkorligi infratuzilmani yaratish, innovatsiyalarni joriy etish hamda aholi xavfsizligiga xizmat qiluvchi sohalarda keng qo‘llanilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ichki ishlar organlarining jismoniy tayyorgarlik tizimini takomillashtirish ham mazkur qonunning amaliy qo‘llanilish yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Qonunga muvofiq, davlat: me’yoriy talablarni belgilaydi va nazorat qiladi; moliyaviy kafolat va qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi; ijtimoiy ahamiyatli loyihalarni ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘radi.

Xususiy sektor esa: zamonaviy sport infratuzilmasi va jihozlarini yaratish; yuqori malakali mutaxassislar va ilg‘or texnologiyalarni jalb etish; xizmatlarni sifatli va uzluksiz taqdim etish majburiyatlarini oladi3.

Bugungi kunda davlat xususiy sheriklik asosda bir qancha rivojlangan davlatlarda ichki ishlar (politsiya) organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligini oshirish samarali yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, AQSh politsiya akademiyalari ko‘p hollarda xususiy sport klublari, fitnes markazlari va tibbiy markazlar bilan hamkorlik qiladi. Xodimlarning jismoniy holatini baholashda xususiy kompaniyalar ishlab chiqqan biomonitoring dasturlari qo‘llaniladi.

---

1 Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 2024 йил 5 октябрдаги 555-сон “Ички ишлар органлари ходимларининг хизмат, жанговар, жисмоний ва ахлоқий-психологик тайёргарлигини ташкил этиш, малака тоифаси ҳамда рейтинг баҳолаш тизимини янада такомиллаштириш тўғ‘рисида”ги буйруғ‘и.

2 Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 10 майдаги ЎРQ-537-сон “Давлат-хусусий шериклик тўғ‘рисида”ги қонуни // https://lex.uz/docs/4329270?ONDATE=22.02.2024%2000

3 Ўша манба.

Germaniya va Fransiyada politsiya xodimlari sport federatsiyalari bilan hamkorlikda tayyorgarlikdan o‘tadilar. Masalan, fransuz ichki ishlar organlari muay-tay, sambo va dzyudo federatsiyalari bilan shartnoma asosida ishlaydi.

Yaponiyada esa, politsiya xodimlari tayyorgarligida xususiy simulyatsiya markazlari keng qo‘llaniladi. Bu markazlar tezkor vaziyatlarda psixologik va jismoniy barqarorlikni sinfiy mashg‘ulotlar orqali shakllantiradi.

Fikrimizcha, DXSh asosida ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligini tashkil etish: davlat budjetiga ortiqcha yuklamasdan infratuzilmani rivojlantirish; innovatsion texnologiya va ilg‘or metodikalarni joriy qilish; xalqaro standartlarga mos mashg‘ulot tizimini shakllantirish; xodimlarda nafaqat jismoniy chidamlilik, balki ruhiy barqarorlik va stressga chidamlilikni oshirish imkonini beradi.

Shunga ko‘ra, ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2024 yil 5 oktabrdagi 555-son “Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat, jangovar, jismoniy va axloqiy-psixologik tayyorgarligini tashkil etish, malaka toifasi hamda reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘i bilan tasdiqlangan yo‘riqnomaga qo‘shimcha “Ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish” nomli 31-bobni kiritish yohud Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadigan “Ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish to‘g‘risidagi Nizom” loyihasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Mazkur qaror bilan tasdiqlangan Nizom loyihasida quyidagilar nazarda tutilishi maqsadga muvofiq. Xususan, davlat-xususiy sheriklik asosida jismoniy tayyorgarlikni tashkil etishning prinsiplari, davlat va xususiy sheriklarning vazifalari, jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlarini tashkil etish tartibi, moliyalashtirish va moddiy-texnika ta’minoti, nazorat va javobgarlik bilan bog‘liq normalarni belgilash lozim (Nizom loyihasi dissertatsiya ilovasida).

Yuqoridagi tahlildan kelib chiqib, ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligini qonunchilik asoslarida yanada takomillashtirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, qonunchilikda jismoniy tayyorgarlik xizmatga qabul qilish va xizmat faoliyati davomida majburiy shart sifatida mustahkamlanganini inobatga olib, amalda ham ushbu talabning to‘liq

ijrosini ta’minlash uchun attestatsiya jarayoni va normativ sinovlarni kuchaytirish zarur.

Ikkinchidan, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va ortiqcha vazn, jismoniy faollik yetishmasligi bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish maqsadida xodimlar uchun individual mashg‘ulot dasturlari va tibbiy-nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish lozim.

Uchinchidan, jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari guruhlar shaklida (20–25 nafardan oshmagan) muntazam va uzluksiz o‘tkazilishi, ularning natijalari xizmat jarayonida amaliy baholanishi zarur.

To‘rtinchidan, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) institutidan samarali foydalanish orqali zamonaviy sport infratuzilmasi, trenajyor zallari va innovatsion mashg‘ulot texnologiyalarini ichki ishlar organlari tizimiga joriy etish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda xodimlarning ruhiy-axloqiy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan dasturlarni yo‘lga qo‘yish, ularning stressga chidamliligi va ekstremal holatlarda tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oltinchidan, xorijiy mamlakatlar (AQSh, Germaniya, Fransiya, Yaponiya) tajribasini o‘rganish hamda milliy tizimga mos samarali elementlarni joriy etish orqali ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarlik tizimini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish zarur.

HARBIY-DIPLOMATIK HAMKORLIK ShAKLLARI VA BU SOHADAGI XALQARO AMALIYoT TAHLILI

Aripov B.B.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada harbiy-diplomatik hamkorlikning asosiy shakllari, ularning mohiyati va xalqaro amaliyotdagi qo‘llanish holatlari ilmiy tahlil qilinadi. Davlatlar o‘rtasidagi ikki va ko‘p tomonlama harbiy-diplomatik munosabatlar, qo‘shma mashqlar, harbiy-texnikaviy hamkorlik, tinchlikparvarlik operatsiyalaridagi ishtirok va harbiy ta’lim almashinuvi kabi yo‘nalishlar atroflicha yoritiladi. Shuningdek, AQSh, Xitoy, Rossiya, NATO va boshqa xalqaro tuzilmalarning harbiy-diplomatik strategiyalari misolida samarali tajribalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Harbiy-diplomatik hamkorlik, xalqaro amaliyot, harbiy-texnikaviy munosabatlar, tinchlikparvarlik, qo‘shma mashqlar, harbiy strategiya.

Harbiy-diplomatik hamkorlik tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va amalga oshirish shakllarini ilmiy jihatdan aniq va tizimli tarzda tahlil qilish bugungi global xavfsizlik muhitida alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy harbiy-diplomatik munosabatlarning huquqiy-siyosiy va amaliy mexanizmlarini tadqiq etish doirasida turli mamlakat olimlari ushbu kategoriyaga nisbatan ilmiy nazariy yondashuvlarni shakllantirgan holda, uning strategik ahamiyatini turlicha talqin qilmoqdalar.

Jumladan, Rossiyalik taniqli olim A.A. Kokoshin harbiy-diplomatik hamkorlikni tashqi siyosatning strategik unsuri sifatida baholaydi. Uning ta’kidlashicha, mazkur hamkorlik turi harbiy muvozanatni saqlash, qo‘shma tahdidlarga qarshi kurashish, hamda harbiy-texnik hamkorlikni rivojlantirishning muhim mexanizmi hisoblanadi1. Buyuk Britaniyalik tadqiqotchi Martin Clarke esa harbiy diplomatiyani strategik muloqotning institutsionallashgan shakli sifatida talqin etib, uni xalqaro nizolarning oldini olish va ishonch muhitini shakllantirishda muhim vosita sifatida baholaydi2.

Amerikalik siyosatshunos Joseph Nye esa “yumshoq kuch” (soft power) va “aqlli kuch” (smart power) nazariyalari asosida harbiy-diplomatik hamkorlikni tashqi siyosatning muloqotchan va kuch bilan bog‘liq samarali shakli sifatida ta’riflaydi. Unga ko‘ra, harbiy qobiliyatlarni diplomatik vositalar bilan uyg‘unlashtirish milliy manfaatlarni himoya qilishda yuqori natija beradi3.

Boshqa bir qator Britaniya olimlari — Brian Hocking va David Spence o‘z tadqiqotlarida harbiy diplomatiya (defense diplomacy)ni tashqi siyosatning muhim tarkibiy qismi sifatida tahlil qiladi. Ularga ko‘ra, bu diplomatiya turi harbiy vositalar orqali, lekin jang harakatlarisiz, tashqi siyosiy maqsadlarga erishishni nazarda tutadi. Qo‘shma mashqlar, ko‘p tomonlama uchrashuvlar, harbiy attashelar faoliyati va xavfsizlik bo‘yicha maslahatlashuvlar esa uning asosiy shakllarini tashkil etadi4. Irlandiyalik Andrew Cottey va Britaniyalik Anthony Forster tadqiqotlarida e’tirof etilishicha, harbiy diplomatiya xususan sovuq urushdan so‘ng xalqaro tinchlikni saqlash va yangi davlatlar bilan xavfsizlik aloqalarini yo‘lga

1Кокошин А.А. Военно-политические проблемы обеспечения безопасности России. – М.: Наука, 2003. – С. 112–114.

2Clarke, M. Strategic Diplomacy and Defense Engagement: A British Perspective. In: Cornish, P. (ed.), The UK and the Future of Global Security. London: Chatham House, 2016. – pp. 37–45.

3Nye, J.S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. New York: Public Affairs, 2004. – pp. 105–109.

4Hocking, B. & Spence, D. (eds.) Foreign Ministries in the European Union: Integrating Diplomats. Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2005. – pp. 88–93.

qo‘yishda muhim vositaga aylangan. Ular mazkur hamkorlikni demokratik jarayonlar va harbiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlashning muhim qismi sifatida baholaydilar1.

Shuningdek, harbiy-diplomatik hamkorlik masalasi Rossiya ilmiy maktabida muhim nazariy va amaliy yo‘nalish sifatida keng o‘rganib kelinmoqda. Bu sohada faoliyat yurituvchi qator taniqli harbiy-siyosiy tahlilchilar va xalqaro munosabatlar sohasidagi mutaxassislar harbiy diplomatiyaning mohiyati, maqsadlari va mexanizmlarini o‘zlarining ilmiy qarashlari asosida tahlil qilib, mualliflik konsepsiyalarini ilgari surganlar.

Jumladan, harbiy-siyosiy tahlilchi, professor O.A. Koltunov harbiy-diplomatik hamkorlikni tashqi siyosatni amalga oshirishdagi muhim harbiy-texnik vosita sifatida baholab, uni xalqaro maydonda davlatning milliy manfaatlarini himoya qilish va ta’sir doirasini kengaytirishga xizmat qiluvchi mexanizm sifatida tavsiflaydi. Unga ko‘ra, bunday hamkorlik Rossiya uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, geosiyosiy maqsadlarni amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi2.

O‘z navbatida, akademik A.A. Kokoshin harbiy-diplomatik hamkorlikni tashqi siyosatning ajralmas strategik unsuri sifatida baholaydi. U bu hamkorlikni qo‘shni va global davlatlar bilan ishonch, barqarorlik va o‘zaro ishonch muhitini shakllantirishning samarali vositasi sifatida ko‘radi va uni davlat xavfsizligining uzviy qismi deb hisoblaydi3.

Professor Ye.A. Kojin esa harbiy diplomatiyani Rossiyaning milliy xavfsizlik tizimidagi institutsional elementlaridan biri sifatida talqin qiladi. Uning ta’kidlashicha, harbiy diplomatiyaning asosiy funksiyalariga harbiy attashelarning faoliyati, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama formatlardagi harbiy uchrashuvlar, hamkorlik shartnomalari va boshqa tashkiliy-huquqiy mexanizmlar kiradi4.

Shu bilan birga, professor V.P. Kojuxarov harbiy-diplomatik xizmatni mustaqil institutsional faoliyat turi sifatida ko‘rib, uning tarixi, tashkiliy shakllari, amaliy usullari va davlatlararo munosabatlardagi rolini ilmiy tahlil etadi. U harbiy diplomatiyaning shakllanish bosqichlari va uning

1 Cottey, A. & Forster, A. Reshaping Defence Diplomacy: New Roles for Military Cooperation and Assistance. Oxford: Oxford University Press, 2004. – pp. 11–18.

2 Колтунов О.А. Военно-техническая дипломатия: содержание, формы и перспективы развития. – // Военно-исторический журнал. 2021. № 2. – С. 45–48.

3 Кокошин А.А. “Военно-политические аспекты международной безопасности” Наука, 2003. – С. 97–108.

4 Кожин Е.А. “Военная дипломатия в системе обеспечения националной безопасности России” Вестник Академии военных наук, №1, 2015. – С. 80–87.

evolyusiyasini amaliy misollar orqali ochib beradi1. Zamonaviy tahlilchi I.I. Mixaylov esa harbiy diplomatiyani XXI asrda Rossiya tashqi siyosatining muhim integral qismi sifatida ta’riflab, uning yangi shakllari, jumladan, birlashgan formatdagi harbiy uchrashuvlar, ko‘p tomonlama forumlar, strategik aloqa kanallari va xalqaro harbiy hamkorlik platformalaridagi roliga alohida e’tibor qaratadi2.

Shu bilan birga, milliy ilmiy-akademik muhitda ham harbiy-diplomatik hamkorlik masalasiga nazariy va amaliy jihatdan kompleks yondashuv asosida yondashilmoqda. Ayrim yetakchi mahalliy tadqiqotchilar ushbu sohaning konseptual asoslarini shakllantirish, uning milliy xavfsizlik, tashqi siyosat va mudofaa strategiyasi bilan o‘zaro integratsiyasini ilmiy asoslashga qaratilgan izlanishlar olib bormoqdalar.

Xususan, A.H. Sidiqov o‘z tadqiqotlarida harbiy-diplomatik hamkorlikni O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy doktrinasidagi strategik yo‘nalishlardan biri sifatida baholaydi. Uning fikricha, mazkur hamkorlik turi mintaqaviy va global miqyosdagi xavfsizlik muammolarini bartaraf etishda, shuningdek, harbiy-siyosiy muvozanatni saqlashda samarali vosita hisoblanadi3. Sh. Qodirov esa harbiy diplomatiyaning amaliy mexanizmlarini tahlil qilar ekan, harbiy attashe instituti faoliyati orqali harbiy-diplomatik munosabatlarning shakllanish jarayonini hamda mazkur institutning tashqi siyosiy aloqalardagi funksiyalarini atroflicha yoritib beradi. Uning ta’kidlashicha, harbiy attashe faoliyati ikki va ko‘p tomonlama ishonchni mustahkamlash, harbiy-texnik aloqalarni rivojlantirish va strategik hamkorlikni kengaytirishda muhim ahamiyatga egadir4.

Bundan tashqari, J. Rahimovning ilmiy qarashlariga ko‘ra, harbiy-diplomatik hamkorlik xalqaro tashkilotlar, jumladan, Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT), Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (KXShT) va NATO kabi tuzilmalar bilan O‘zbekistonning harbiy-siyosiy muloqotini faollashtirishda muhim o‘rin tutadi. Uningcha, bunday hamkorlik tashqi siyosiy yo‘nalishlarni diversifikatsiya qilish, xalqaro siyosiy maydonda

1 Кожухаров В.П. “Военно-дипломатическая служба России: история, теория и практика” М.: РАГС, 2011. – С. 152–167.

2 Михайлов И.И. “Современная военная дипломатия: вызовы и перспективы” Международная жизнь, №2, 2018. – С. 48–57.

3 Сидиқов А.Н. “Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсий устувор йўналишлари ва ҳарбий ҳамкорлик стратегияси” // “Ташқи сиёсат ва хавфсизлик муаммолари”, илмий журнал, 2019 йил, №1. 47–52-бетлар.

4 Қодиров Ш. “Ўзбекистон мудофаа сиёсатида ҳарбий атташе институтининг ўрни ва аҳамияти” // “Жамият ва бошқарув”, №2, 2021 / 75–80-бетлар.

manfaatlar muvozanatini ta’minlashga xizmat qiladi1. F. Yuldashev esa harbiy diplomatiyani geosiyosiy barqarorlikni ta’minlash va mintaqaviy xavfsizlik tizimlarini mustahkamlashning ta’sirchan vositasi sifatida baholaydi. Uning fikricha, harbiy-diplomatik aloqalar davlatlar o‘rtasidagi ishonchli muloqotni tiklash, harbiy sohadagi ixtilofli nuqtalarni yumshatish hamda strategik sheriklikni rivojlantirishga xizmat qiladi2. Shuningdek, A.N.Islomov ta’biricha, harbiy diplomatiyani huquqiy mexanizmlar orqali tartibga solish zarurligini ta’kidlaydi. Uningcha, mazkur hamkorlikni amalga oshirish uchun normativ-huquqiy baza mustahkam bo‘lishi lozim3.

Xorijiy mamlakatlar qonunchilik amaliyotida harbiy-diplomatik hamkorlik (military-diplomatic cooperation) mustaqil qonun hujjati sifatida emas, balki harbiy diplomatiya, xavfsizlik va mudofaa sohalaridagi xalqaro hamkorlik, harbiy attashe institutlari faoliyati, tashqi siyosat doktrinalari va milliy mudofaa strategiyalari doirasida huquqiy tartibga solinadi. Jumladan, AQShda mazkur munosabatlar “defense diplomacy” yoki “military-to-military cooperation” tushunchalari orqali ifodalanadi hamda xalqaro harbiy hamkorlik, harbiy attashe faoliyati, qo‘shma o‘quv mashg‘ulotlari va strategik ittifoqchilik kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi4. Buyuk Britaniya amaliyotida esa “defence engagement” atamasi orqali harbiy kuchlarning tashqi siyosatning integral qismi sifatida boshqa davlatlar bilan diplomatik, o‘quv va texnik hamkorligini tashkil etish nazarda tutiladi5. Fransiya huquqiy hujjatlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri “military-diplomatic cooperation” atamasi u qadar uchramasada, amalda “coopération militaire internationale” (xalqaro harbiy hamkorlik) tushunchasi orqali ushbu munosabatlar, jumladan harbiy attashe faoliyati, mintaqaviy mashg‘ulotlar va strategik ittifoqchilik shaklida tarkib topgan6. Germaniyada esa harbiy-diplomatik hamkorlik “militärische Kooperation im Rahmen der Außenpolitik” atamasi orqali davlat tashqi siyosatining bir bo‘lagi sifatida Bundesverning

1 Раҳимов Ж. “Ўзбекистон ташқи сиёсатида ҳарбий-дипломатик ҳамкорликнинг ўрни” // “Тошкент Халқаро муносабатлар университети илмий ишлари тўплами”, №1, 2020 / 112–117-бетлар.

2 Юлдашев Ф. Ўзбекистон Республикаси ҳарбий сиёсатининг дипломатик йўналишлари // “Мудофаа ва хавфсизлик” журнали, №3, 2022 / 59–65-бетлар.

3 Исломов А.Н. “Миллий хавфсизликни таъминлашда ҳарбий дипломатиянинг ҳуқуқий асослари” // “Давлат ва ҳуқуқ”, №4, 2021 / 88–92-бетлар.

4 U.S. Department of Defense. (2019). Summary of the 2018 National Defense Strategy of the United States of America. https://dod.defense.gov/Portals/1/Documents/pubs/2018-National-Defense-Strategy-Summary.pdf

5 UK Ministry of Defence. (2013). Defence Engagement Strategy. https://assets.-publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/73171/defence_engagement_strategy.pdf

6 Ministère des Armées (2020). La coopération de défense internationale. https://www.-defense.gouv.fr

diplomatik faoliyati bilan bog‘liq vazifalarini qamrab oladi1. Rossiya Federatsiyasida esa mazkur munosabatlar “voenno-texnicheskoe sotrudnichestvo” va “voenno-diplomaticheskaya deyatelnost” tushunchalari orqali ifoda etilib, diplomatik kanallar orqali harbiy aloqalarni o‘rnatish, kelishuvlar tuzish va hamkorlik faoliyatini amalga oshirishni nazarda tutadi2.

Yuqorida ilgari surilgan ilmiy ta’riflardan kelib chiqib, harbiy-diplomatik hamkorlik davlatning tashqi siyosiy maqsadlariga erishishida muhim vosita bo‘lib, xavfsizlikni mustahkamlash va davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi uchun ham mintaqaviy va global xavfsizlikni ta’minlashda harbiy-diplomatik hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Shu bois, mamlakat mudofaa siyosatini belgilaydigan asosiy qonun hujjatlarida bu masalaning qay darajada yoritilgani tahlilga arziydi. Xususan, amaldagi “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonun3 va “Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi Qonun4 mazmunida harbiy-diplomatik hamkorlik tushunchasi va uning shakllari qay tarzda aks etgani muhokama etiladi. Agar mazkur hujjatlarda bu tushuncha ochiq va aniq bayon etilmagan bo‘lsa, uni huquqiy bo‘shliq sifatida baholash lozim. Quyida ushbu huquqiy bo‘shliqning mohiyati va ehtimoliy salbiy oqibatlarini yoritib o‘tamiz.

O‘zbekistonning amaldagi “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri 2001 yilda qabul qilingan)da xalqaro hamkorlikka oid umumiy norma mavjud. Mazkur qonunning 23-moddasi “Mudofaa sohasidagi xalqaro hamkorlik” deb nomlanib, unda respublika xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga tayangan holda, harbiy qurilish, tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish sohalarida boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilishi bayon etilgan5. Ya’ni, Qonun mazmunida O‘zbekistonning mudofaa sohasidagi xalqaro hamkorligi konseptual jihatdan tan olingan. Shu bilan birga, qonunda harbiy hamkorlikning qaysi shakl va yo‘nalishlarda amalga oshirilishi yoki uning mexanizmi to‘g‘risida batafsil tartib yoki ta’rif berilmagan. Masalan, qonunda harbiy-diplomatik hamkorlik tushunchasi alohida ajratib ko‘rsatilmagani barobarida, mudofaa

1 Bundesministerium der Verteidigung. (2016). Weißbuch 2016 zur Sicherheitspolitik und zur Zukunft der Bundeswehr. https://www.bmvg.de/de/themen/weissbuch

2 Ministry of Defence of the Russian Federation. (2020). Военно-техническое сотрудничество Российской Федерации с иностранными государствами. http://mil.ru

3 Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлар миллий базаси // https://www.-lex.uz/acts/108083

4 Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлар миллий базаси // https://www.-lex.uz/acts/3495885

5 Ўзбекистон Республикасининг “Мудофаа тўғрисида”ги Қонун // https://lex.uz/docs.

vazirligi va boshqa tegishli idoralarning xalqaro harbiy hamkorlikni tashkiliy tarzda amalga oshirish vakolatlari alohida bayon etilmagan. Faqat Prezident yoki Oliy Majlis vakolatlarini sanab o‘tuvchi normalar orasida jangovor harakatlarda qatnashish yoki tinchlikparvarlik operatsiyalariga yuborish tartibiga oid holatlar keltirilgan, ammo bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy-diplomatik hamkorlik konsepsiyasini ochib bermaydi1. Shu tariqa, “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonun xalqaro hamkorlikni umumiy prinsip sifatida e’tirof etgan bo‘lsa-da, harbiy-diplomatik hamkorlikning mazmuni va shakllari aniq reglamentatsiya qilinmagan.

Bundag tashqari, 2018 yil 9 yanvarda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi Qonunda mamlakat mudofaa siyosati prinsiplari va yondashuvlari belgilab berilgan. Ushbu doktrina ochiq hujjat sifatida e’lon qilingan bo‘lib, O‘zbekiston mudofaa siyosati tinchlikparvar va himoya xarakterida ekanini ta’kidlaydi2. Doktrinada xalqaro hamkorlikka doir ayrim prinsiplar va vazifalar ham keltirilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati konsepsiyasi va xalqaro huquq normalariga muvofiq, barcha davlatlar bilan teng va o‘zaro foydali munosabatlar qurishi, harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmasligi, mojarolarni tinch muzokaralar orqali hal etishga intilishi kabi tamoyillar qat’iy belgilangan3. Bundan ko‘rinadiki, doktrina O‘zbekistonning harbiy sohadagi xalqaro pozitsiyasini asosan mudofaa va tinchlikka qaratilgan yo‘nalishda belgilaydi.

Shuningdek, Mudofaa doktrinasi matnida xalqaro harbiy va harbiy-texnik hamkorlik alohida atamalar sifatida qo‘llangan. Doktrinaga muvofiq, “xalqaro harbiy va harbiy-texnik hamkorlik” Qurolli Kuchlarni zamonaviy qurol-yarog‘ va texnika bilan ta’minlash, ularni modernizatsiya qilish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, mudofaa sanoatiga xorijiy investitsiyalar va texnologiyalarni jalb etish, shuningdek, harbiy kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish kabi vazifalar doirasida tashkil etilib, amalga oshiriladi4.

---

1 Ўзбекистон Республикасининг “Мудофаа тўғрисида”ги Қонуннинг 4-moddaси (Mudofaa sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari)нинг 3-хатбоши

2 https://djournal.kr/news/article.html?no=24090#:~:text=These%20documents%20in-clude%20the% 20Defense,of% 20military% 20security%20and%20etc

3 Concerns over partnership program with Russia are groundless - Ministry of Defense // “The clause 10 of the Defense Doctrine of Uzbekistan reads: “The political course of the Republic of Uzbekistan in the field of defense is based on the following principles: non-admission of foreign military bases and facilities on its territory; non-participation of the Armed Forces in peacekeeping operations and military conflicts abroad” (3-хатбоши) / https://tashkenttimes.uz/national

4 “Ўзбекистон Республикаси Мудофаа доктринаси”нинг 36-банди (Xalqaro harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik Qurolli Kuchlarni qurol-yarog‘, harbiy va maxsus texnikaning eng yangi hamda istiqbolli namunalari bilan ta’minlash, ularni modernizatsiya qilish, ta’mirlash va utilizatsiya qilish bo‘yicha vazifalarni hal etish, qo‘shma loyihalarni amalga

Bu yerda asosan harbiy-texnik hamkorlik jihatlari bayon etilgan bo‘lib, qo‘shma harbiy mashg‘ulotlar, qurol-yarog‘ ta’minoti va kadrlar tayyorlashga e’tibor qaratilgan. Biroq harbiy-diplomatik hamkorlik atamasi yoki uning aniq shakllari doktrina matnida ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’riflanmagan. Doktrina harbiy-siyosiy munosabatlar uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoit yaratishni nazarda tutadi va qo‘shni davlatlar bilan xavfsizlik sohasida hamkorlik qilish muhimligini qayd etadi1. Lekin bu umumiy ta’kidlar amalda harbiy diplomatiyaning konkret mexanizm yoki chora-tadbirlari qay tarzda yo‘lga qo‘yilishi lozimligini tushuntirmaydi. Masalan, doktrinada harbiy attasheler faoliyati, mudofaa vazirligi darajasidagi xalqaro muzokaralar yoki harbiy delegatsiyalar almashinuvi kabi masalalar alohida yoritilmagan. Shu bois, mudofaa doktrinasi ham harbiy-diplomatik hamkorlik tushunchasini batafsil ochib bermagan, balki umumiy strategiyaviy yo‘nalishlar doirasida tanishtirgan, xolos.

Yuqoridagi tahlildan ma’lum bo‘ladiki, O‘zbekistonning amaldagi mudofaa sohasidagi qonunchilik hujjatlarida “harbiy-diplomatik hamkorlik” tushunchasi aniq va to‘la yoritilmagan. “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonun umumiy shaklda xalqaro hamkorlikni e’tirof etadi, doktrina esa xalqaro harbiy hamkorlikning ayrim texnik jihatlarini sanab o‘tadi. Biroq ikkala hujjatda ham harbiy diplomatiyaning maqsadi, vazifalari va shakllari to‘g‘risida aniq normalar mavjud emas. Bu holatni huquqiy bo‘shliq deb atash mumkin, chunki davlat siyosatida muhim o‘rin tutuvchi bir masala – harbiy-diplomatik hamkorlik – muvofiq me’yoriy asosda to‘liq qamrab olinmagan. Huquqiy bo‘shliq shundan iboratki, qonun va doktrinada harbiy-diplomatik hamkorlikning nafaqat atamasi aniq berilmagan, balki uni amalga oshirish mexanizmi, vakolatli organlar vazifalari va cheklanganliklari ham belgilanmagan. Masalan:

birinchidan, qonunchilikda harbiy hamkorlikning shakllari ochiq tavsiflanmaganligi: Aslida harbiy-diplomatik hamkorlik turli ko‘rinishlarda bo‘ladi – rasmiy harbiy delegatsiyalar viziti, qo‘shma harbiy mashg‘ulotlar, xalqaro konferensiyalarda ishtirok, harbiy ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlash bo‘yicha almashinuv, harbiy texnika va qurollarni hamkorlikda yaratish yoki xarid qilish, mintaqaviy xavfsizlik bo‘yicha ko‘p tomonlama

oshirish, mudofaa sanoati kompleksiga chet el investitsiyalari hamda texnologiyalarini jalb etish, shuningdek harbiy, harbiy-texnik kadrlar va mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish zaruriyatiga muvofiq tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi.)

1 INSTITUTE FOR STRATEGIC AND REGIONAL STUDIES UNDER THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN // Basic principles and directions of the Republic of Uzbekistan's defense policy 2-хатбоши / https://isrs.uz/en

choralarda ishtirok etish va h.k. Amalda bu kabi faoliyatlar O‘zbekiston tomonidan o‘tkazib kelinmoqda, lekin ularning huquqiy asosi asosan Prezident farmonlari, hukumat qarorlari yoki ikki tomonlama shartnomalarga tayanmoqda. Milliy qonunchilikda esa bu shakllar sanab o‘tilmagan. Masalan, qo‘shni Qozog‘iston va O‘zbekiston mudofaa vazirliklari o‘rtasida 2017 yil tuzilgan kelishuvda harbiy hamkorlikni amalga oshirishning konkret shakllari ro‘yxat tarzida sanab o‘tilgan: rasmiy tashriflar, ishchi uchrashuvlar, konferensiya va seminarlarda qatnashish, harbiy ta’lim muassasalarida o‘qish, qo‘shma harbiy mashqlarda ishtirok etish, malaka oshirish kurslari, harbiy kadrlarni birgalikda tayyorlash, ma’lumot va tajriba almashish, hatto sport-madaniy tadbirlarda qatnashish kabilar (shartnomada 10ga yaqin shakl keltirilgan)1. Bu misoldan ko‘rinib turibdiki, harbiy hamkorlikni huquqiy tartibga solishda aniq shakllarni belgilash amaliyoti mavjud. O‘zbekiston qonunchiligida esa bu kabi aniqlik yo‘q;

ikinchidan, vakolatli institutlar rolini belgilashdagi bo‘shliq: Harbiy-diplomatik hamkorlikni amalga oshirishda tashqi ishlar vazirligi, mudofaa vazirligi, mamlakatning xorijdagi harbiy attashelari va boshqa tuzilmalar ishtirok etadi. Lekin “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonunda ham, doktrinada ham, bu sub’ektlarning mos vazifa va vakolatlari ochiq-oydin bayon qilinmagan. Masalan, mudofaa vazirligi xalqaro harbiy hamkorlikni tashkil etish uchun mas’ul ekani yoki bunday hamkorlikni muvofiqlashtirish qanday amalga oshishi haqida qoidalar yo‘q. Natijada, amalda bu masalalarni tartibga solish tashkiliy buyruqlar va idoralararo kelishuvlarga qolib ketadi;

strategik hujjatlarda aniq maqsadli yo‘nalishlarning yo‘qligi: Mudofaa doktrinasi kabi konseptual hujjatda harbiy-diplomatik hamkorlik bo‘yicha davlatning ustuvor yo‘nalishlari yoki rejalari ochiq belgilanmagan. Doktrinada “xalqaro harbiy-siyosiy vaziyat” tahlili va “xalqaro harbiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish” lozimligi qayd etilgan, lekin masalan, ma’lum bir mintaqada harbiy hamkorlikni chuqurlashtirish yoxud muayyan xalqaro strukturalarda (BMT tinchlikparvarligi, ShHT doirasidagi harbiy mashg‘ulotlar va h.k.) qatnashish siyosatini bayon etuvchi normalar ko‘zda tutilmagan.

Yuqoridagilar huquqiy bo‘shliqni tashkil qiladi va bunday holatda amaldagi tartib va siyosati qonunlarda to‘liq aks etmaydi. Bu esa harbiy-

1 Соглашение между Министерством обороны Республики Казахстан и Министерством обороны Республики Узбекистан о военном сотрудничестве // Соглашение, 23 марта 2017 года / https://adilet.zan.kz/rus/docs

diplomatik hamkorlikka oid qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin, jumladan:

xalqaro hamkorlikdagi savollarga aniqlikning yetishmasligi: Qonun va doktrinada aniq reglamentatsiya yo‘qligi davlatning harbiy sohada tashqi hamkorlik olib borishida tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi ehtimoli bor. Masalan, qo‘shma harbiy mashg‘ulotlar o‘tkazish yoki xorijiy harbiy bazalarga tashriflarni amalga oshirishda, ichki qonunchilikdagi bo‘shliq tufayli protseduraviy savollar paydo bo‘lishi mumkin. Har bir yangi hamkorlik loyihasi uchun alohida qarorlar va kelishuvlar talab etilishi, bu esa jarayonni sekinlashtirishi yoki og‘irlashtirishi ehtimoldan xoli emas;

strategik rejalashtirishda noaniqlik: Agar qonunchilikda harbiy-diplomatik hamkorlikning maqsad va ustuvorliklari belgilanmagan bo‘lsa, mudofaa sohasidagi uzoq muddatli rejalarda bu masalaga yetarlicha e’tibor qaratilmasligi mumkin. Natijada, Qurolli Kuchlarni rivojlantirish dasturlari yoki milliy xavfsizlik strategiyalarida xalqaro hamkorlikdan foydalanish to‘g‘risidagi boblar imkoniyatdan kam foydalanilishi mumkin. Masalan, O‘zbekiston o‘z milliy manfaatlariga muvofiq ravishda qo‘shni davlatlar armiyalari bilan qator yo‘nalishlarda hamkorlikni kuchaytirishdan manfaatdor. Lekin huquqiy asos mustahkam bo‘lmasa, bunday hamkorlikni tizimli rejalashtirish qiyinlashadi va tashabbuslar shaxsiy darajada yoki vaqtinchalik asosda qolib ketishi mumkin;

idoralararo muvofiqlashuv muammolari: Harbiy diplomatiya faqat mudofaa vazirligining ishi bo‘lib qolmay, u tashqi ishlar vazirligi, davlat xavfsizlik xizmati, favqulodda vaziyatlar vazirligi (mudofaa bilan bog‘liq gumanitar hamkorlikda) kabi bir nechta idoralar kesishadigan sohadir. Agar qonunchilikda bu idoralarning hamkorlikdagi vazifalari aniq ko‘rsatilmagan bo‘lsa, amalda muvofiqlashtirishda bo‘shliqlar paydo bo‘ladi. Masalan, qaysi holatda mudofaa vazirligi tashqi ishlar vazirligi orqali ish olib borishi, qachon to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy delegatsiyalar jo‘natilishi mumkinligi kabi masalalarda rasmiy belgilangan tartib yo‘qligi nojo’ya byurokratik kechiktirishlarga sabab bo‘lishi mumkin;

xalqaro majburiyatlarni bajarishdagi qiyinchiliklar: O‘zbekiston bir qator xalqaro shartnomalar va tashkilotlar doirasida majburiyatlarga ega (masalan, MDH doirasidagi harbiy hamkorlik bitimlari, Shanxay hamkorlik tashkiloti xavfsizlik tadbirlari, BMT tinchlikparvarlik faoliyatidagi ishtirok va h.k.). Agar ichki qonunchilikda ularga muvofiq mexanizmlar nazarda tutilmagan bo‘lsa, xalqaro majburiyatlarni bajarish uchun har safar alohida me’yoriy hujjat chiqarishga to‘g‘ri keladi. Bu esa vaqt va resurs

yo‘qotilishiga olib kelishi, ayrim hollarda majburiyatlar ijrosida kechikishlar yoki nomutanosibliklar keltirib chiqarishi mumkin;

huquqiy belgilov kuchining zaifligi: Harbiy-diplomatik hamkorlik ayni damda asosan prezident farmonlari va hukumat qarorlari, shuningdek, ikki tomonlama shartnomalar asosida yuritilmoqda. Masalan, O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida mudofaa sohasida 2021-2025 yillarga mo‘ljallangan Strategik sheriklik dasturi imzolandi va u asosida keng ko‘lamli hamkorlik yo‘lga qo‘yilmoqda1. Rossiya bilan hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy bazasi ancha mustahkam bo‘lib, 2004 yildagi Strategik sheriklik to‘g‘risidagi bitim va 2005 yildagi Ittifoqchilik to‘g‘risidagi shartnoma bu borada asos bo‘lib xizmat qilmoqda2. Bunday alohida bitim va dasturlar, albatta, muhim; ammo ular doimiy va umumqamrovi ichki qonunlarning o‘rnini bosolmaydi. Qonun darajasida me’yor bo‘lmaganda, har bir yangi vaziyatda yangi bitim yoki qaror talab qilinaverishi mumkin. Shu bois, ichki qonunchilikdagi bo‘shliqni to‘ldirish, qabul qilingan xalqaro bitimlarni implementatsiya qiluvchi normalarni kiritib borish huquqiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Yuqorida sanalgan oqibatlar shuni ko‘rsatadiki, harbiy-diplomatik hamkorlik sohasidagi huquqiy bo‘shliq amalda O‘zbekistonning xalqaro maydondagi mudofaa sohasidagi faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Albatta, hukumat bu bo‘shliqni turli tartib-taomillar yordamida yopishga harakat qiladi (masalan, idoralararo kelishuvlar, vaqtinchalik nizomlar va h.k.), lekin tub ma’noda qonunchilik asosini mustahkamlash zarurati mavjud.

O‘zbekiston mudofaa sohasidagi amaldagi qonun va doktrinasida harbiy-diplomatik hamkorlik tushunchasi yetarlicha ochib berilmagan, bu esa huquqiy bo‘shliqni vujudga keltirmoqda. Bunday bo‘shliq shartli ravishda mamlakatning harbiy sohadagi xalqaro faoliyatini qonun bilan to‘liq qamrab ololmayotganini anglatadi. Natijada, O‘zbekiston xalqaro majburiyatlariga rioya etish va mudofaa diplomatiyasini samarali yuritish borasida ba’zi noqulayliklarga uchrashi mumkin. Mazkur huquqiy bo‘shliqning salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun quyidagilar muhim sanaladi:

1 Concerns over partnership program with Russia are groundless - Ministry of Defense // https://tashkenttimes.uz

2 Ўша манбаа: 7-хатбоши (An expanded regulatory and legal framework has been created between the defense departments of Uzbekistan and Russia, which makes it possible to conduct and intensify cooperation in various areas of the armed forces' activities. The basis of such cooperation, first of all, is the Treaty on Strategic Partnership between the countries of July 16, 2004 and the Treaty on Allied Ties of November 14, 2005, the statement says).

qonunchilikni takomillashtirish: O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonunning alohida modda sifatida “Harbiy-diplomatik hamkorlik” deb nomlangan 231 – moddasini kiritilishi va quyidagi mazmunda :

“Harbiy-diplomatik hamkorlik — bu davlatning mudofaa sohasidagi tashqi siyosatini amalga oshirish jarayonida Qurolli Kuchlar va vakolatli davlat organlari orqali boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan harbiy-siyosiy, tashkiliy va amaliy hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirishga qaratilgan kompleks faoliyat turidir. U mamlakatning milliy xavfsizligini ta’minlash, mintaqaviy va global barqarorlikni saqlash, o‘zaro ishonchni mustahkamlash hamda harbiy sohadagi axborot, kadrlar, texnologiyalar va tajriba almashinuvini huquqiy asosda yuritishni o‘z ichiga oladi” mualliflik ta’rifini ilgari surish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, 233-modda. “Harbiy-diplomatik hamkorlik shakllari” deb nomlab, mazkur normaga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va mudofaa sohasida vakolatli organlari tomonidan quyidagi shakllarda harbiy-diplomatik hamkorlik amalga oshiriladi:

– rasmiy harbiy delegatsiyalar almashinuvi;
– xalqaro forumlar va konferensiyalarda ishtirok;
– harbiy attashe faoliyatini rivojlantirish;
– qo‘shma harbiy mashqlar va o‘quvlar;
– harbiy kadrlar tayyorlash va malaka oshirish;
– ilmiy-ta’lim hamkorligi;
– harbiy-madaniy tadbirlarda ishtirok;
– axborot va tajriba almashinuvi;
– xalqaro xavfsizlik tashabbuslarida qatnashish;
– harbiy-siyosiy maslahatlashuvlar.

Mazkur harbiy-diplomatik hamkorlik O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq, xalqaro huquq normalari va ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Ushbu asoslantirilgan ilmiy takliflarni rivojlangan davlatlarning ijobiy tajribalari bilan qiyosiy tahlil qilsak ishni ilmiy salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, Britaniyaning “defence diplomacy” (harbiy diplomatiya) konsepsiyasi, Rossiyadagi “Xalqaro harbiy-texnikaviy hamkorlik to‘g‘risida”gi qonuni, Qozog‘iston va Turkiya kabi davlatlar bilan tuzilgan ikki tomonlama harbiy hamkorlik shartnomalari shuni ko‘rsatadiki, harbiy diplomatiyani qonunchilik asosida belgilash va unga

institutsional shakl berish davlatlar uchun strategik ehtiyojdir. Bu kabi xalqaro tajriba tahlili O‘zbekiston uchun ham milliy mudofaa siyosatida harbiy-diplomatik hamkorlikni huquqiy jihatdan tizimlashtirish va institutsionallashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonunda harbiy-diplomatik hamkorlikka oid moddalarni joriy etilishi:

davlatning tashqi siyosiy va harbiy strategiyasini muvofiqlashtirishni ta’minlaydi;

xalqaro maydondagi harbiy hamkorlik faoliyatini shaffof, tizimli va qonuniy asosda olib borish imkonini yaratadi;

idoralararo muvofiqlikni oshiradi va huquqiy aniqlikni ta’minlaydi.

Bu esa milliy xavfsizlikni kafolatlashda muhim huquqiy kafolat sifatida xizmat qiladi. Mazkur taklif “Yangi O‘zbekiston” sharoitida mudofaa tizimi modernizatsiyasining muhim bosqichi sifatida ko‘rilishi mumkin.

DAVLAT VA JAMOAT INSTITUTLARINING YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGIDAGI O‘ZARO MUNOSABATLARI: NAZARIY VA AMALIY YoNDAShUVLAR

Muxammadaliev Z.X.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda davlat organlari va jamoat institutlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar nazariy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Jamoat xavfsizligini mustahkamlashda fuqarolarning faol ishtiroki, davlat va jamoatchilik sherikligi mexanizmlari, hamkorlik shakllari hamda ushbu munosabatlarning huquqiy asoslari tadqiq etiladi. Shuningdek, amaliy faoliyatda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni hal etishda davlat-jamoat hamkorligining o‘rni, zamonaviy yondashuvlar hamda xalqaro tajribalar tahlil etilib, ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Yo‘l harakati xavfsizligi, davlat organlari, jamoat institutlari, o‘zaro hamkorlik, fuqarolar ishtiroki, jamoat nazorati, profilaktika, huquqiy asos, davlat-jamoat sherikligi, amaliyot va nazariya.

Har bir demokratik jamiyatda fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i va mulki xavfsizligini ta’minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bu jarayonda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash alohida ahamiyatga ega bo‘lib, jamiyatdagi barqarorlik va tartibni saqlashning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Hozirgi kunda yo‘l-transport hodisalari nafaqat shaxsiy falokatlar, balki umumjamiyat uchun og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib kelmoqda. Shu bois, bu muammoni bartaraf etishda davlat organlari va jamoat institutlarining o‘zaro hamkorligi, vazifalarni taqsimlash va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish kabi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash borasida qator huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Ichki ishlar vazirligi, Transport vazirligi, Xalq ta’limi va Sog‘liqni saqlash vazirligi kabi mutasaddi idoralar bilan bir qatorda, mahalla muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari, NNTlar va ommaviy axborot vositalari ham mazkur jarayonda muhim rol o‘ynamoqda. Bu hamkorlik nafaqat huquqbuzarliklarning oldini olish, balki aholida huquqiy ong va yo‘l madaniyatini shakllantirish, bolalar va yoshlar orasida profilaktika ishlarini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining (WHO) ma’lumotlariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘ylab 1,3 millionga yaqin inson yo‘l-transport hodisalari natijasida halok bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash muammosining global miqyosda dolzarb ekanligini yanada yaqqol namoyon etadi1.

O‘zbekiston misolida ham bu holat tasdiqlanadi. Jumladan, 2024 yil davomida yo‘l harakati xavfsizligi sohasida amalga oshirilgan islohotlarga qaramasdan, 2024 yil davomida O‘zbekistonda 9364 ta yo‘l-transport hodisasi rasman qayd etilgan bo‘lib, shundan 3045 tasi (32,5 foiz) yuk va yo‘lovchi tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari bilan bog‘liqdir. Mazkur yo‘l-transport hodisalari oqibatida jami 2200 dan ortiq fuqarolar halok bo‘lgan. Bu esa mavjud huquqiy-tashkiliy chora-tadbirlar samaradorligini oshirish zaruratidan dalolat beradi2.

1The fifth Edition of the Global Status Report on Road safety 2023 (GSRRS) has been published by the World Health Organisation (WHO) in December 2023, with the active contribution of NTUA.

2https://www.gazeta.uz/uz/2025/01/24/road-accident-2024/

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi Qonuni (58 ta moddadan iborat) hamda mazkur sohada qabul qilingan 30 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar yo‘l harakati xavfsizligini huquqiy jihatdan tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lsa-da, yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq salbiy holatlarning yuqori darajada saqlanib qolishi ushbu sohada qo‘shimcha institutsional va profilaktik choralarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash nafaqat transport sohasining, balki milliy xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim. Chunki mazkur sohadagi muvaffaqiyatlar mamlakatning umumiy barqarorligi, demografik rivojlanishi va aholining hayot sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda O‘zbekistonda ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya faoliyatini xalqchillik tamoyillari asosida tashkil etish, sohaviy islohotlarni tubdan amalga oshirish orqali kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sodir etilayotgan har bir huquqbuzarlik va jinoyatlarning sabablarini ilmiy tadqiqotlar asosida o‘rganish, ularning kelib chiqishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda profilaktik faoliyat, aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish hamda davlat organlari va jamoatchilikning o‘zaro hamkorligini kuchaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish mexanizmlarini aniqlashda ilmiy tahlillarga tayanish alohida ahamiyatga ega. Jumladan, mazkur yo‘nalishda mahalliy va xalqaro miqyosda faoliyat olib borayotgan huquqshunos olimlarning ilmiy nazariy qarashlariga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Xususan, professor Sh.Qudratqulov tomonidan yo‘l harakati qoidalariga rioya etilishini ta’minlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan ma’muriy-huquqiy vositalar bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar mazkur sohada tizimli nazorat mexanizmlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Uning ta’kidlashicha, fuqarolarning

yo‘l harakati qoidalariga nisbatan huquqiy ongi va ijtimoiy mas’uliyati yetarli darajada emasligi ular tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning asosiy omillaridan biri sanaladi. Shu bois, ma’muriy javobgarlikni kuchaytirish bilan bir qatorda, profilaktik huquqiy targ‘ibot ishlarini samarali yo‘lga qo‘yish zarur. Shuningdek, professor Qudratqulovning fikricha, yo‘l harakatidagi tartib-intizomni ta’minlashda huquqiy ta’lim va yuridik madaniyatni yuksaltirish davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifa bo‘lishi lozim1.

Bundan tashqari, professor U.Sharipov o‘zining jamoat xavfsizligi va huquqiy madaniyatga bag‘ishlangan ilmiy ishlarida yo‘l harakati xavfsizligi masalasini keng jamoatchilik madaniyati va fuqarolik pozitsiyasi bilan bog‘laydi. Uning fikriga ko‘ra, shaxsda huquqiy ong va fuqarolik mas’uliyati shakllanmas ekan, hech qanday qonun yoki jazo choralari uzoq muddatli natija bermaydi. Sharipov ta’kidlaganidek, yo‘l harakatida javobgarlik hissini oshirish uchun fuqarolar o‘rtasida “huquqiy xulq” modelini shakllantirish va uni maktab ta’limi, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlari orqali mustahkamlash talab etiladi2.

K.M.Rahimovning dissertatsiya tadqiqot ishida esa O‘zbekiston Respublikasida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasidagi mavjud tizimni har tomonlama tahlil qilish va uning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini huquqiy va institutsional jihatdan takomillashtirish uchun ilmiy-nazariy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bundan tashqari, dissertatsiyada qator vazifalar belgilangan bo‘lib, ular qatorida yo‘l harakati qoidalarining tarixiy shakllanish bosqichlarini tahlil etish va ularni davrlashtirish; yo‘l harakati xavfsizligining bugungi holatini va uning ijtimoiy zaruratini aniqlash; mazkur sohadagi asosiy nazariy tushunchalarni tahlil qilish va ilmiy jihatdan asoslash; huquqiy islohotlarning tahlili orqali rivojlanish bosqichlarini belgilash; davlat va jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlarini tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha

1Қудратқулов Ш. “Маъмурий ҳуқуқ ва ҳуқуқбузарликлар”, Т.: Adolat, 2021, 178-бет.

2Шарипов У. “Жамоат хавфсизлиги ва ҳуқуқий маданият”, Т.: Юридик нашр, 2022, 95–99-бетлар.

takliflar ishlab chiqish; qoidabuzarliklar uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish borasida takliflar berish; xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganib, milliy amaliyotga tatbiq etish hamda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning istiqboldagi yo‘nalishlarini belgilash vazifalari nazarda tutilgan1.

Shuningdek, davlat organlari va jamoatchilikning yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasidagi o‘zaro hamkorligi masalasi bo‘yicha xorijiy huquqshunos va ekspert olimlarning ilmiy nazariy qarashlariga to‘xtalib o‘tish mazkur tadqiqot ishini ilmiy saviyasini yanada ortishiga xizmat qiladi. Xususan:

Robert Vernon ta’kidlashicha, politsiya va jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlik yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Uning ta’rificha, “community policing” modeli — fuqarolarni huquqbuzarliklardan xabardor qilish, mas’uliyatini oshirish va politsiya faoliyatini jamoat ehtiyojlariga moslashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, yo‘l harakati sohasida esa bu yondashuv transport madaniyatini shakllantirishga yordam beradi deydi2. Amerikalik olimlar Djeyms Vilson va Jorj Kelling fikricha, “Broken Windows” nazariyasi asosida jamoat xavfsizligi, xususan, yo‘l harakati sohasida kichik qoidalarga rioya qilish va jamoatchilikning nazorati jinoyatchilikning oldini olishda samarali bo‘lishi mumkinligini ta’kidlashgan. Ularga ko‘ra, “yaxshi tashkiliy tizim va jamoatchilik faol ishtiroki” yo‘l xavfsizligining kafolatidir3. Shuningdek, Fransiyalik huquqshunos olimi Fransua Frey nazariyasi bo‘yicha Fransiyada amal qiluvchi milliy kengashlar va idoralararo komissiyalar faoliyatini tahlil qilib, jamoatchilik fikrini qonunchilikka integratsiya qilish va transport siyosatini fuqarolar ehtiyojlariga muvofiqlashtirish mexanizmlarini ilgari surgan. Uning fikricha, “Public Safety Committees” jamoatchilik-davlat aloqalarida

1Рахимов К.М. “Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш тизимининг назарий -ҳуқуқий жиҳатлари” Т.: 2022 й. 187 бет.

2Vernon, R. (2019). Community Policing: International Perspectives. Routledge, pp. 97–113.

3Wilson, J.Q. & Kelling, G.L. (1982). Broken Windows: The Police and Neighborhood Safety. The Atlantic.

institutsional vosita sifatida samarali ishlaydi1. Vision Zero konsepsiyasi tarafdori bo‘lgan Germaniyalik huquqshunos olim professor Klaus Shmidt fikricha yo‘l harakati xavfsizligida “nol qurbonlik” maqsadiga faqat davlat va jamoatchilikning uzviy hamkorligi bilan erishish mumkin. Uning ta’kidlashicha, mahalliy tuzilmalar, shahar hokimliklari, maktablar va nodavlat tashkilotlarning tizimli ishtiroki bu sohada muvaffaqiyatli siyosatni ta’minlaydi2. Yaponiyalik Masaru Nakagava “koban” politsiya posti instituti orqali jamoatchilik ishtirokining yo‘l harakati xavfsizligidagi o‘rnini o‘rgangan. Uning ta’kidlashicha, koban tizimi fuqarolarni xavfsizlikka daxldor masalalarda doimiy axborot bilan ta’minlash, bolalar va keksalarni himoya qilish kabi funksiyalarni bajaradi va bu yo‘lda jamoatchilik ishonchini oshiradi3. Rossiyalik huquqshunos olim, professor Vladimir Lukin MDH mamlakatlarida, xususan, Rossiyada yo‘l harakati qoidalariga amal qilishda aholining huquqiy madaniyati va politsiya-jamoatchilik hamkorligi kamchiliklarini tanqidiy tahlil qilgan. Uning fikricha, “jamoatchilikning faol ishtirokisiz jinoyatchilikni oldini olish imkoni cheklangan bo‘ladi”4. Mazkur ilmiy qarashlardan kelib chiqib, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda nafaqat jazo choralari, balki keng jamoatchilik ishtirokini ta’minlaydigan huquqiy ongni shakllantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar muhimi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bunda huquqshunos olimlarning ilmiy tahlillari nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki amaliyotga tadbiq etiladigan huquqiy yechimlar ishlab chiqishga ham xizmat qiladi.

Shu o‘rinda, yo‘l harakat xavfsizligini ta’minlashda davlat va jamoatchilikning o‘zaro hamkorlik shakllari qanday? degan o‘rinli savol yuzaga keladi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar davrida bugungi kunda davlat-jamoat hamkorligi ko‘pqirrali shakllarda namoyon bo‘layotganligini

1Frey, F. (2018). Mobilités urbaines et sécurité routière: l’enjeu de la participation citoyenne, Université de Paris, pp. 45–60.

2Schmidt, K. (2020). Vision Zero and Road Safety Governance in Germany. Transport Policy Journal, Vol. 98, pp. 119–127.

3Nakagawa, M. (2015). Community Policing in Japan: The Role of Koban. Asian Journal of Criminology, Vol. 10, No. 2, pp. 121–135.

4Лукин В.А. (2017). Правовое воспитание и профилактика нарушений в области безопасности дорожного движения, Москва: ЮНИТИ.

ko‘rishimiz mumkin. Xususan, Yevropa Ittifoqida Yo‘l harakati xavfsizligi Xartiyasi (European Road Safety Charter) fuqarolik jamiyati va xususiy sektorni yo‘l xavfsizligi bo‘yicha chora-tadbirlar o‘tkazishga tashabbus ko‘rsatishga chorlovchi eng yirik platforma hisoblanadi1.

Germaniya Federativ Respublikasida yo‘l harakati xavfsizligi ustuvor milliy maqsadlardan biri hisoblanadi. Shu bois, 2021 yilda Germaniya Federal hukumati tomonidan “Yo‘l Xavfsizligi Pakti” (Road Safety Pact 2021–2030) qabul qilindi. Ushbu strategik hujjatning asosiy maqsadi “Vision Zero” – ya’ni yo‘l-transport hodisalari oqibatida inson halok bo‘lishi holatlarini uzoq muddatda to‘liq bartaraf etishdir. Qisqa muddatli maqsad sifatida esa 2030 yilgacha halok bo‘lish holatlarini kamida 40% ga kamaytirish belgilangan2.

Mazkur pakt tubdan yangi yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda federal hokimiyat, federal shtatlar (Länder), mahalliy idoralar, shuningdek nohukumat tashkilotlar va xususiy sheriklar o‘rtasidagi institutsional hamkorlik mustahkamlanadi. Unda qonunchilik islohotlari, infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, transport ishtirokchilarining huquqiy xabardorligini oshirish va avtomatlashtirilgan transport tizimlarini qo‘llab-quvvatlashga alohida urg‘u berilgan3.

Shuningdek, “Yo‘l Xavfsizligi Pakti” doirasida bir qator amaliy tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Turn Assistant Campaign”, “Helmets Save Lives” va FeGiS+ (“Feedback Instrument for Safe Road Infrastructure”) loyihalari orqali fuqarolarning yo‘ldagi xavfli nuqtalar haqidagi fikr-mulohazalari asosida profilaktik choralar belgilanmoqda. Ushbu tadbirlar orqali nafaqat transport vositalarining xavfsizligi, balki

1https://road-safety-charter.ec.europa.eu / trid.trb.org

2Германия Федерал Нукумати (Bundesregierung), Германия Федерал Рақамлаштириш ва Транспорт Вазирлиги (Bundesministerium für Digitales und Verkehr, BMDV) // Common Strategy for Road Safety Activities in Germany from 2021 to 2030 (“Road Safety Pact”) // https: // bmdv.bund.de/SharedDocs/DE/Anlage/StV/road-safety-pact-en.pdf?__blob=publication-File

3Германия Федерал Республикасининг Рақамли ва Транспорт ишлари бўйича Федерал Вазирлиги (Bundesministerium für Digitales und Verkehr, BMDV) 2021 йилда муҳим институционал ва стратегик ўзгаришларни амалга оширди. Ушбу ўзгаришлар рақамли инфратузилма ва транспорт соҳаларидаги инновациялар, хавфсизлик ва барқарорликни оширишга қаратилган // https://www.isarsoft.com/article/-road-safety-in-germany-a-changing-perspective //

velosipedchilar va piyodalarning harakati ham himoya qilinadi1. Paktning yana bir muhim jihati — har bir hududiy ma’muriy organ o‘z hududida yo‘l harakati xavfsizligi holatini tahlil qilib, mahalliy darajada individual choralar ko‘rish majburiyatini oladi. Bu — jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish va javobgarlikni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fransiyada yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash masalasi jamoat siyosati darajasidagi ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi. Bu davlat siyosati nafaqat markaziy hokimiyat, balki mahalliy idoralar, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirokini talab qiladi. Milliy darajada YHXQ (yo‘l harakati xavfsizligi) sohasida strategik rejalashtirish va muvofiqlashtirish Milliy yo‘l harakati xavfsizligi kengashi (Conseil national de sécurité routière) hamda hukumat tarkibidagi idoralararo komissiyalar orqali amalga oshiriladi. Ushbu tuzilmalar orqali joylardagi ma’muriyatlar, tijorat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar o‘z g‘oya va takliflarini bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi2.

Jumladan, Fransiya Ichki ishlar vazirligiga qarashli Yo‘l harakati xavfsizligi va uning statistik tahlili bo‘yicha Milliy observatoriya (ONISR) har yili to‘liq analitik hisobot tayyorlab, mutaxassislar va siyosiy doiralar uchun muhim xulosalarni taqdim etadi. Bunday tahlillar asosida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, ehtiyojli hududlar va aholi guruhlariga doir aniq maqsadli tadbirlar ishlab chiqiladi3.

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YeXHT) esa o‘z a’zolari uchun jamoat xavfsizligini ta’minlashda “community policing” – ya’ni politsiya va jamoatchilik o‘rtasidagi sheriklik asosidagi faoliyat modelini taklif etadi. Bu yondashuv politsiya faoliyatini oddiy repressiv nazariy yo‘ldan chiqarib, jamoat bilan muloqot, ishonch va hamkorlikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan. Jamoat xavfsizligiga oid muammolarni profilaktik yo‘l bilan bartaraf etish, jumladan yo‘l harakatida yuzaga keladigan tavakkalchiliklarni kamaytirish ham ana shunday sheriklik modeli doirasida amalga oshiriladi4.

1https://en.wikipedia.org/wiki/PTV_Group?utm_source=chatgpt.com

2 ONISR, 2023 – https://www.onisr.securite-routiere.gouv.fr

3 Ўша манбаа: https://www.onisr.securite-routiere.gouv.fr.

4 OSCE, 2021 – https://www.osce.org/files/f/documents/5/f/67837.pdf.

Xususan, YeXHTning Kosovodagi missiyasi (OSCE Mission in Kosovo) politsiya va jamoat o‘rtasidagi ishonchni kuchaytirish maqsadida yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha keng qamrovli targ‘ibot-tashviqot kampaniyasini o‘tkazgan. Bu kampaniya doirasida o‘quvchilar, avto haydovchilar va jamoatchilikka qaratilgan vizual axborot vositalari, treninglar va ommaviy tadbirlar tashkil etilgan. Natijada, aholining yo‘l harakatidagi huquqiy madaniyatida sezilarli o‘sish kuzatilgan1. Shuningdek, YeXHT o‘zining “Community Policing Handbook” qo‘llanmasi orqali a’zo davlatlar politsiyasini jamoat bilan muloqot qilish, ishonchli aloqa o‘rnatish va xavfsizlikka oid umumiy maqsadlar yo‘lida hamkorlik qilishga undaydi. Ushbu hujjatda jamoat xavfsizligini ta’minlashda yo‘l harakati xavfsizligi muhim tarkibiy qism sifatida qayd etilgan2.

AQShda ham yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash federal, shtat va mahalliy darajalarda muvofiqlashtirilgan tizimli davlat siyosati hisoblanadi. Bu borada asosiy institutlardan biri — Milliy avtomobil xavfsizligi boshqarmasi (National Highway Traffic Safety Administration – NHTSA) o‘z faoliyatini xavfsizlikni ta’minlash, profilaktika, ma’lumotlar tahlili hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik orqali amalga oshiradi3. NHTSAning asosiy vazifalaridan biri — yo‘llarda sodir bo‘layotgan avariyalar soni va oqibatlarini kamaytirish maqsadida huquqiy, ma’rifiy va texnik mexanizmlarni joriy etishdir. Buning uchun boshqarma nafaqat davlat idoralari, balki keng jamoatchilik, ayniqsa, faoliyat yo‘nalishi yo‘l harakati xavfsizligi bilan bog‘liq bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) bilan uzviy aloqada bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, MADD (Mothers Against Drunk Driving) — spirtli ichimlik iste’moli holatida haydovchilik qilishga qarshi kurashish sohasida Amerikadagi eng yirik va ta’sirli NNTlardan biri hisoblanadi. Ushbu tashkilot bilan hamkorlik orqali NHTSA jamoatchilikda huquqiy ongni oshirish, targ‘ibot-tashviqot ishlarini kengaytirish va sud-huquq

1 https://www.osce.org/mission-in-kosovo/446636.

2 https://www.osce.org/files/f/documents/5/f/67837.pdf.

3 https://en.wikipedia.org/wiki/National_Highway_Traffic_Safety_Administration

tizimida tegishli islohotlarni targ‘ib qilishga erishmoqda1. Mazkur hamkorlik doirasida turli xil kampaniyalar — masalan, “Drive Sober or Get Pulled Over”, “No Refusal Weekend” kabi tashabbuslar amalga oshiriladi. Shuningdek, SAFE (Stop Alcohol Fatalities Everywhere) tashkiloti bilan hamkorlikda yo‘l-transport hodisalarining asosiy sabablaridan biri — mast haydovchilikka qarshi keng qamrovli tahlillar va strategiyalar ishlab chiqiladi. Mazkur tashkilotlar NHTSA bilan hamkorlikda ma’lumot to‘plash, ommaviy axborot vositalari orqali aholiga yo‘l yo‘riq berish, maktab va universitetlarda ta’limiy dasturlar joriy etish, shaharlar va viloyatlarda yo‘l infratuzilmasiga oid xavfli nuqtalarni aniqlashda faol ishtirok etmoqda2.

Ushbu hamkorlik mexanizmi AQShda “community-based approach” (jamoaga tayangan yondashuv) siyosatining muhim qismi bo‘lib, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda jamoat va davlat organlari o‘rtasidagi ishonchli hamkorlik modelini shakllantirgan. Bu holat jinoyatchilikka qarshi profilaktik siyosatda NNTlar faoliyatining ahamiyatini oshirish bilan birga, davlat organlari uchun strategik sheriklik imkoniyatlarini ham yaratdi3.

Osiyo mamlakatlarida ham davlat va jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlikga alohida ahamiyat beriladi. Xususan, Yaponiyada yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlashda davlat organlari bilan jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlikka ustuvor ahamiyat beriladi. Bu hamkorlikning o‘ziga xos institutsional shakli sifatida kobanlar va chuzaisholar – mahalliy politsiya postlari va kichik bo‘limlari faoliyati

---

1MADD.org – MADD 1980 йил 5 сентябрда Кэндис (Кэнди) Лайтнер томонидан ташкил этилган бўлиб, унинг 13 ёшли қизи Кари маст ҳайдовчи томонидан уриб кетилиб ҳалок бўлган. Бу фожиадан сўнг, Лайтнер маст ҳайдовчиликка қарши курашиш мақсадида ушбу ташкилотни ташкил этган. MADDнинг асосий мақсадлари: маст ҳолда ҳайдашга барҳам бериш; ёшлар ўртасида спиртли ичимликлар истеъмолини олдини олиш; йўл-транспорт ҳодисаларидан жабрланганларга ёрдам кўрсатиш ва маст ҳолда ҳайдашга қарши қонунларни кучайтириш.

2NHTSA (National Highway Traffic Safety Administration) — АҚШ Транспорт департаменти таркибидаги федерал агентлик бўлиб, автомобил хавфсизлиги ва йўл ҳаракати хавфсизлигини назорат қилиш, автоҳалокатлар сонини камайтириш ва йўлларда хавфсизликни ошириш билан шуғулланади.

3OSCE, 2022 (Европада Хавфсизлик ва Намкорлик Ташкилоти) фаолиятининг асосий мақсади – иштирокчи давлатларда тинчлик, демократия, инсон ҳуқуқлари ва қонунийликни таъминлашдир. У халқаро хавфсизликни мустаҳкамлаш, ҳарбий-сиёсий, иқтисодий-экологик ва инсоний ўлчовлар орқали барқарор ҳамкорликни ривожлантиришга қаратилган. Шу жумладан, жамоат хавфсизлиги ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг демократлашуви соҳасидаги ислоҳотларни қўллаб-қувватлаш ҳам муҳим йўналишлардан бири ҳисобланади.

muhim ahamiyat kasb etadi. Yaponiya Milliy politsiya agentligi (National Police Agency – NPA) tomonidan rasmiy tarzda tashkil etilgan ushbu tizim davlat va fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, nazorat va xizmat ko‘rsatish falsafasiga asoslangan1.

Koban va chuzaisho tizimining vazifalariga:

jamoatchilik bilan doimiy aloqa: politsiya xodimlari o‘z xizmat hududida istiqomat qiluvchi fuqarolar, tadbirkorlar va maktablar bilan shaxsan tanish bo‘lib, ular bilan muntazam aloqada bo‘ladi. Bu orqali xavfsizlik muammolarini ilgari aniqlash va ularni oldini olish imkoni yaratiladi;

yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash: koban xodimlari mahalliy yo‘llarda harakatni kuzatish, yo‘l harakati qoidalarini buzilishining oldini olish va profilaktik tadbirlar o‘tkazishda faol ishtirok etadi;

bolalar va keksalarni himoya qilish: politsiya xodimlari maktablar atrofida xizmat olib boradi, bolalarning xavfsiz harakat qilishini nazorat qiladi va keksa aholining jamoat transportidan xavfsiz foydalanishiga yordam beradi;

qidiruv va profilaktika ishlari: qidiruvda bo‘lgan shaxslar yoki yo‘qolgan fuqarolar bo‘yicha tezkor harakat qilish imkonini beradigan mahalliy ma’lumotlar bazasi yuritiladi.

Samaradorlik omillariga:

fuqarolarning ishonchi va politsiyaga yuzma-yuz aloqasi: Yaponiyada politsiyaning koban tizimi jamiyat bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, har bir fuqaro politsiyani muammoga emas, balki hamkorlikka chorlovchi institut sifatida qabul qiladi;

qarindoshlik aloqalariga yaqin munosabat: koban xodimlari mahalla faollari, o‘qituvchilar va mahalliy tadbirkorlar bilan hamkorlikda profilaktik suhbatlar va jamoatchilik tadbirlarini o‘tkazadi;

jinoyatlarni oldini olishda jamoat ishtirokini ta’minlash: “Community Safety Map” va “School Zone Patrol” kabi dasturlar orqali aholi politsiya faoliyatiga faol jalb etiladi.

1National Police Agency of Japan. “Community Policing and Koban System.” npa.go.jp, 2022.// Goto, M. (2018). The Koban System: Policing by Engagement. Tokyo University Press.

Yuqorida ilgari surilgan fikrlardan bilish mumkinki, bugungi kunda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash — nafaqat transport sohasiga doir, balki davlatning umumiy barqarorligi, fuqarolarning hayot sifatini oshirish, demografik o‘sishni ta’minlash va iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi ustuvor sohalardan biri bo‘lmoqda. Bu masalada davlat organlari va jamoatchilik o‘rtasidagi samarali hamkorlik mexanizmi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy-tahliliy tahqiqotlar va xalqaro tajribalarga tayangan holda, ushbu hamkorlikni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

birinchidan, me’yoriy-huquqiy bazani institutsional takomillashtirish. Bunda, yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi joriy qonunchilik tizimi qayta ko‘rib chiqilishi hamda jamoatchilik ishtirokini institutsional asosda tartibga soluvchi yangi “Yo‘l harakati xavfsizligi va davlat-jamoat sherikligi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilishi zarur. Ushbu hujjatda jamoatchilik va nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatlari, mas’uliyati va davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlari aniq belgilanishi lozim. Qonun huquqiy madaniyatni oshirish, aholi ongini shakllantirish, profilaktik tadbirlarda jamoatchilik ishtirokini ta’minlashga doir normalarni qamrab olishi kerak;

ikkinchidan, institutsional hamkorlik modelini shakllantirish va mustahkamlash. Bunda, xalqaro amaliyot (Fransiya, Germaniya, Yaponiya va boshqalar)dan kelib chiqib, mahalliy darajada “Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha jamoat kengashlari”ni tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday kengashlar mahallalarda aholi, mutaxassislar, mahalliy hokimiyat va NNTlar ishtirokida faoliyat yuritib, qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolarning ishtirokiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, ichki ishlar organlari tizimida jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha alohida bo‘limlar tashkil etish va “community policing” (jamoatchilik-politsiya sherikligi) modeli doirasida faoliyat yuritish mexanizmlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash tavsiya etiladi;

uchinchidan, jamoatchilik ishtirokini qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish. Bunda, jamoatchilik va NNTlarning yo‘l harakati xavfsizligiga oid qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki qonunchilik asosida kafolatlanishi lozim.

Xususan, qonun ijodkorligi jarayonida jamoatchilik muhokamalari majburiy tartibda o‘tkazilishi, aholi fikri asosida transport siyosati shakllantirilishi va davlat organlarining hisobdorlik mexanizmi kuchaytirilishi lozim. Fransiya tajribasidagi “Public Safety Committees” va Germaniyaning FeGiS+ platformasi bu borada namuna sifatida xizmat qiladi;

to‘rtinchidan, huquqiy ongni shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish. Bunda, fuqarolarning yo‘l harakati qoidalariga rioya etishini ta’minlashda huquqiy madaniyat va ma’rifiy ishlarni tizimlashtirish muhim hisoblanadi. Shu maqsadda:

maktab va oliy ta’lim muassasalarida yo‘l harakati xavfsizligiga oid alohida o‘quv kurslari joriy etilishi;

ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda maxsus targ‘ibot kampaniyalarini yo‘lga qo‘yish;

aholining huquqiy ongi va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish bo‘yicha “Huquqiy xulq” modelini amaliyotga joriy etish;

beshinchidan, axborot texnologiyalari va raqamlashtirishdan samarali foydalanish. Bunda, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bilan bir qatorda, jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish uchun:

yo‘ldagi xavfli nuqtalar haqida fuqarolardan ma’lumot to‘plash imkonini beruvchi raqamli platforma va mobil ilovalar yaratish;

ochiq ma’lumotlar bazasini shakllantirish va uni jamoatchilik uchun shaffof taqdim etish;

mahalliy darajada “Community Safety Map”larini yaratish orqali jamoatchilikning monitoring funksiyasini rivojlantirish zarur;

oltinchidan, profilaktik va jazo choralarini muvozanatli yo‘lga qo‘yish. Bunda, jinoyatlar va huquqbuzarliklarni faqat jazo orqali emas, balki profilaktik, ta’limiy va targ‘ibot usullari bilan bartaraf etish samarali hisoblanadi. Shu maqsadda:

yo‘l qoidalarini buzgan shaxslarga nisbatan qayta o‘qitish kurslarini joriy etish;

maqsadli ijtimoiy ishlar va jamoat xizmati orqali javobgarlikni oshirish;

NNTlar ishtirokida profilaktik suhbatlar va treninglar tashkil etish, Yaponiya va AQSh tajribasiga asosan.

yettinchidan, ilmiy-tadqiqot va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Bunda, yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi islohotlarni ilmiy jihatdan asoslash, tahlil qilish va xalqaro standartlarga mos ravishda amalga oshirish maqsadida:

“Yo‘l harakati xavfsizligi instituti” yoki ekspert markazini tashkil etish, u ilmiy tadqiqotlar olib boradi, normativ hujjatlar ekspertizasini o‘tkazadi;

yillik xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil qilish va ular orqali davlat-jamoat hamkorligi mexanizmlarini taqqoslamali o‘rganish;

YeXHT, BMT, NHTSA, Yaponiya NPA kabi xalqaro tashkilotlar bilan doimiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish, ularning amaliyotlarini adaptatsiya qilish.

Yuqorida bayon etilgan ilmiy-nazariy takliflardan kelib chiqib, xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki yangi O‘zbekiston sharoitida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga doir davlat siyosatini shakllantirishda va uning amaliy mexanizmini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, jamoatchilik ishtirokini huquqiy kafolatlash, qaror qabul qilish jarayonida fuqarolik jamiyatining faolligini oshirish, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish kabi omillar — yangi O‘zbekistonda davlat va jamoat organlari o‘rtasidagi mustahkam hamkorlik asosida xavfsiz, adolatli va huquqiy jamiyat qurishga xizmat qiladi.

“Jamoat xavfsizligini ta’minlashni ijtimoiy-huquqiy takomillashtirish yo‘nalishlari” mavzusida tashkil etilgan respublika ilmiy-amaliy KONFERENSIYADA ILGARI SURILGAN TAKLIF VA MULOHAZALAR:

1. Yangi tahrirdagi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini qabul qilishda boblarni tuzilishi va yo‘nalishlar yuzasidan takliflar;

2. Ayollar huquqlarini ta’minlashda oilada zo‘ravonlikka qarshi profilaktik chora-tadbirlar orqali oila-turmush doirasidagi nizolarning oldini olish bo‘yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish lozimligi yuzasidan takliflar:

- fuqarolarga oila-turmushdagi zo‘ravonlik faktlari haqida yoki o‘ziga nisbatan tahdid va tajovuzlar sodir etish holatlari yuzaga kelganda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga zudlik bilan xabar berish;
- zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarni vaqtincha xavfsiz joyda (reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlarida yoki ota-ona yoxud boshqa qarindosh urug‘lar oldida) bo‘lishlari uchun ularga qisqa raqamli “1146” ishonch telefoniga murojaat etish mumkinligi va mavjud muammoga tegishli yechim olishni tushuntirish;
- oiladagi nizoli vaziyatlarni ijobiy hal qilish, oila a’zolari o‘rtasida buzilgan ijtimoiy munosabatlarni tiklash va boshqa oilaviy masalalar yuzasidan psixologik yoki huquqiy maslahat olish;
- oilada zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning xulq-atvorini jamoatchilik o‘rtasida muhokama qilish, unga nisbatan ta’sir choralarini qo‘llash maqsadida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga murojaat qilishni tushuntirib targ‘ibot va tashviqot olib borish.

3. Jamoat xavfsizligini ta’minlash borasida milliy siyosat huquqiy-tashkiliy choralar bilan birga raqamli nazorat tizimlari, chegara xavfsizligini kuchaytirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga yo‘naltirilishi lozimligi yuzasidan takliflar;

4. Maktablarda va oliy ta’lim muassasalarida “Yo‘l harakati xavfsizligi asoslari” fanini majburiy tarzda kiritish lozimligi yuzasidan takliflar;

5. Televizion va raqamli platformalarda muntazam ravishda ijtimoiy roliklar namoyish etib borish lozimligi yuzasidan takliflar;

6. Jamoatchilik nazorati mexanizmlarini rivojlantirish, masalan, “Yo‘l patruli – xalq nazorati” onlayn platformalarini yaratish lozimligi yuzasidan takliflar;

7. Bolalar bog‘chalari va maktablarda “Yo‘l harakati maktablari” tashkil etish orqali yosh avlodning huquqiy madaniyatini erta bosqichdan shakllantirish lozimligi yuzasidan takliflar;

8. Tumanlararo ma’muriy konvoy guruhlari faoliyatini yanada optimallashtirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Konvoy guruhlari faoliyatida **inson huquqlari va milliy qonunchilik** normalariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash;
- Xodimlar uchun muntazam **amaliy o‘quv mashg‘ulotlari** tashkil etish;
- Transport vositalarining texnik holatini doimiy **monitoring** qilish;
- Joylardagi real sharoitlardan kelib chiqib, konvoy yo‘nalishlari va logistika tizimini **optimallashtirish**.
- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish: GPS monitoring, videokuzatuv tizimlari, maxsus signalizatsiya vositalari orqali konvoyni yanada xavfsizlashtirish;
- Huquqiy baza hamda yo‘riqnomalarni takomillashtirish: qonunchilikni zamonaviy talablarga mos ravishda o‘zgartirish va konvoy guruhlari faoliyatini yanada samarali tartibga solish;
- Ko‘p qirrali o‘quv dasturlari: xodimlarning huquqiy, psixologik va texnik tayyorgarligini ta’minlash;
- Jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish: mahalliy hokimiyat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda huquqbuzarliklarni oldini olish tizimini yanada takomillashtirish.

Shuningdek, quyidagi i**lmiy-amaliy takliflar tavsiya etiladi:**

- **Xodimlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish** — zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv o‘quv dasturlari joriy etilishini ta’minlash;

- **Transport vositalarini modernizatsiya qilish** — ekologik tozalik va xavfsizlik standartlariga muvofiq yangi maxsus avtotransport vositalarini sotib olish;
- **Psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatini tashkil etish** — xodimlarni stress holatlaridan chiqarish va ularning ruhiy sog‘lomligini saqlash maqsadida mutaxassislar joriy etish;
- **Hamkorlik va kommunikatsiyani kuchaytirish** — sudlar, tibbiyot muassasalari va ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorlik mexanizmlarini kengaytirish.

9. Zamonaviy sharoitdan kelib chiqqan holda davlat organlari o‘rtasidagi muvofiqlashtirishni kuchaytirish. Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirliklari va boshqa idoralarning favqulodda vaziyatlarda o‘zaro hamkorligi uchun mas’ul bo‘lgan yagona muvofiqlashtirish markazini tashkil etish zarur.

10. Aholining tayyorgarlik darajasini oshirish, aholiga muntazam ravishda o‘quv mashg‘ulotlari va boshqa amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish zarur.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI.....3
ASOSIY QISM.....6
Kurvanboyev T.S O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimida jamoat xavfsizligini ijtimoiy-huquqiy takomillashtirish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlar.....6
Ismailov I. Jamoat xavfsizligini ijtimoiy-huquqiy ta’minlash sohasida hamkorlikni takomillashtirish.....8
Suvanqulov M.I. Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlashda profilaktika inspektorlarining fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorligi.....18
Usmanova M.A. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnatini ijtimoiy – huquqiy takomillashtirish.....25
Матчанов A.A. Раскрытие, расследование и профилактика преступлений в сфере информационно-цифровых технологий как фактор обеспечения общественной безопасности в Республике Узбекистан.....32
Yarashev B.Ch. Jamoat xavfsizligini ijtimoiy-huquqiy takomillashtirishda aholi bandligi va kambag‘allikni qisqartirish masalalari.....39
Ikanov A.A. Alijonov I.R. Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi ilmiy amaliy tadqiqotlar faoliyatini takomillashtirish masalalari.....44
Qurbonov Sh.M. Jamoat xavfsizligi sohasida kadrlar tayyorlash va malaka oshirishning ijtimoiy-huquqiy asoslari.....48
Usmanov A.T. Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligi va davlat siyosatini ta’minlashdagi institutsional o‘rni.....53
Karimov V. Jinoyat protsessida tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan dalil sifatida foydalanish: muammo va yechimlar.....65
Alimov G‘.A. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi tushunchalari ijtimoiy jihatlarini taxlil qilishning ayrim masalalari.....73
Alijonov I.R. Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini takomillashtirish masalalari.....77
Zakirov B.E. Ayollar huquqlarini ta’minlashda oilada zo‘ravonlikka qarshi profilaktik chora-tadbirlar.....82
Maxmudov R.M. Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari harbiy xizmatchilarining aholi bilan muomala madaniyati: psixologik-pedagogik tahlil.....86
Mamatkulov D.M. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda axborot xavfsizligi muammolari.....90
Tursunova S.R. Noqonuniy migratsiya oqibatida yuzaga keladigan jamoat xavfsizligiga tahdidlar.....95

Джурабаев Р.Т. Тактические особенности задержания разыскиваемых преступников в обеспечении общественной безопасности.....101
Axmedov Sh.O. Jamoat xavfsizligi tizimida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy yo‘nalishlari.....106
Yuldashev Sh.N. Bola huquqlarini ta’minlashda profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligi: nazariy va amaliy jihatlar.....112
Максудов Х.Х. Особенности прокурорского надзора при обеспечении общественной безопасности в борьбе с незаконным оборотом наркотических средств или психотропных веществ.....117
Muxamedov U.T. Fuqarolarni vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazish tizimini takomillashtirish: mavjud vaziyat va xorijiy tajriba.....124
Yarashev B.Ch., Raxmonov X.P. Shaxsiy xavfsizlikka bo‘lgan nazariy yondashuvlar.....129
Ashurova N.O‘. Voyaga yetmaganlarga nisbatan zo‘ravonlik va majburlash tushunchalarining jinoiy-huquqiy tahlili.....133
Axmedova M.A. Tergov amaliyotida pedagog va psixolog ishtirokining bugungi holati.....139
Ochilov I.A. Giyohvandlik vositalarini noqonuniy aylanmasiga oid jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanish xususiyatlari.....144
Davletov O‘.M. Odil sudlov – xavfsizlik va jamiyat barqarorligi asosi.....148
Хужамбердиев Ф.К. Общественная безопасность в условиях глобализации и цифровизации: баланс между государственным контролем и демократическими ценностями.....151
Payziyev A.M Giyohvandlikka qarshi kurashning ijtimoiy-huquqiy muammolari: asosiy yo‘nalishlar va tavsiyalar.....156
Хужамбердиев Ф.К. Теоретико-правовые основы общественной безопасности: классические и современные концепции.....160
Davletov O‘.M. Jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ilg‘or xorijiy davlat tajribasi.....165
Isanov N.I. Jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlashda ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirishning ayrim jihatlari.....172
Aripova D.F., Anvarov T.A. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda ichki ishlar organi xodimlarining ijtimoiy sog‘lom turmush tarzi.....179
Axmedova H.Sh. Yangi O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash borasidagi islohotlarning tahlili.....184
Мусаев Дж.К. Зарубежный опыт деятельности органов по борьбе с незаконным оборотом наркотиков.....189
Anvarov T.A., Sunnatov U.T. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarga hukm etilgan shaxslarning ijtimoiy ahvoli.....195

Ikramov Sh.R. Bolaning bilim olish huquqi himoyasi doirasida jamoat xavfsizligini takomillashtirish masalalari.....201
Qoraboyev A.A. Harbiy xizmatchilarining jamoat xavfsizligini ta’minlashda aholi bilan muomala madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari.....205
Ataniyazov J.K. Jinoyat protsessida jabrlanuvchi manfaatlarini ta’minlashning ayrim jihatlari.....210
Yuldashev Sh.N., Kutlimuratov M.Sh. Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar.....219
Xamrayev J.Q. Ichki ishlar organlari xodimlarining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha professional kadrlar sifatida tayyorlash istiqbollari.....226
Xadjayev M.A. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yo‘l-patrul xizmati xodimlarining harakat ishtirokchilari bilan muomala madaniyati.....230
Toshmurodov A.O. Jamoat xavfsizligi: huquqiy asoslar va ijtimoiy islohotlar yo‘nalishlari.....235
Shaymardonov J.Z. “Jxu tracker” axborot texnologiyalari asosida jamoat xavfsizligini ta’minlash vositasi.....239
Muradov J.N. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyekt sifatidagi vazifalari.....243
Allambayev J.R. Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish - ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritishni ta’minlash chorasi sifatida.....250
Raxmatov M.M. Ommaviy noroziliklar kelib chiqishining ijtimoiy omillarini bartaraf qilish samaradorligini oshirish.....255
Haydarov A.U. Jamiyat xavfsizligini ta’minlashda yangicha yondashuvlarning tahlili.....261
Xaknazarov A.B. Jamoat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ekologik huquqbuzarliklar.....266
Maxtumova Y.B. Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning sabablari, uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar.....275
Turgunov A.A. Jinoyat-protsessual huquqdida sud tergovi tushunchasining o‘rni.....287
Kutlimuratov M.Sh. Tumanlararo ma’muriy konvoy guruhlari – huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim qadam.....296
Joldasov A.F. Jamoat xavfsizligini ta’minlashga fuqarolar va jamoat tuzilmalarini jalb qilish.....303
Joldasov A.F., Shaymordonov J.Z. Favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlashning ayrim masalalari.....310
Olimov Z.M., Tulanov A.V. Jamoat xavfsizligini tayinlashni ijtimoiy-huquqiy takomillashtirish yo‘nalishlari.....316

Yo‘Ldashaliyev I.T. Jamoat xavfsizligiga zamonaviy tahdidlarni oldini olishda aholining huquqiy ongini oshirishning ahamiyati.....320
Turanov Y.Y. Jamoat xavfsizligini ta’minlashning obyektlari va subyektlari.....326
Mirzaxo‘jayev M.D. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy maqomi va ularning ishtirokini kuchaytirish yo‘llari.....333
To‘ychiyev S.U. Huquqbuzarliklar profilaktikasi jinoyatchilikka qarshi kurashish va oldini olishning ustuvor yo‘nalishlari.....338
Raxmonov X.P. Shaxsiy xavfsizlik tushunchasining mazmun-mohiyati.....343
Sulaymonov I.M. Jamoat xavfsizligi taminlashda harbiy xizmatchi va harbiy jamoani psixologik o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari.....348
Anorboyev F.R. Jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta’minlashda milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining o‘rni.....352
Abdunazarov F.Y. Jamoat tartibini saqlash xizmati tushunchasi va harbiy bo‘linmalarning roli va ahamiyati.....356
Shagilov P.K. Ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurashishga oid qonunchilikni takomillashtirish yo‘lida.....362
Jumayev A.G‘. Jamoat xavfsizligini ta’minlash: O‘zbekiston va xorijiy tajribalar tahlili.....365
Baxtiyorov I.B. Kibermakonda sodir etilgan firibgarlikning miqdor va sifat ko‘rsatkichlari.....371
Komiljonov Sh.Q. Yoshlar tomonidan sodir etiladigon xuquqbuzarliklar profilaktikasi boyicha hamkorlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari.....376
Mavlonov A.N., Jamoat tartibini saqlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....391
Sattorov F.A. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda uchuvchisiz uchish aparatlarini qo‘llash – o‘ziga hos model sifatida.....397
Raxmatov K.X. Yoshlar jinoyatchiligining profilaktikasini takomillashtirish chora-tadbirlari.....402
Jo‘rayev J.M. Maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning oldini olish muammolari va ularning yechimlari.....409
Akramjonov I.A. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi profilaktikaning ahamiyati.....418
Munnazarov M.J. Jamoat xavfsizligini ta’minlashning ayrim masalalari.....424
Aripov A.X. Yoshlar huquqbuzarliklari: nazariy-huquqiy tushuncha, huquqiy maqomining aniqlanishi va klassifikatsiya muammolari.....428

Muxammadaliev Z.X. Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda idoralararo hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari va bugungi amaliyotdagi ahamiyati.....440
Maxmudov D.R. Yangi O‘zbekiston sharoitida jinoyatchilikni oldini olish siyosatining huquqiy va institutsional transformatsiyasi.....451
Muhamadov U.U. Ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligini qonunchilik asoslarini tahlili.....468
Aripov B.B. Harbiy-diplomatik hamkorlik shakllari va bu sohadagi xalqaro amaliyot tahlili.....486
Muxammadaliev Z.X. Davlat va jamoat institutlarining yo‘l harakati xavfsizligidagi o‘zaro munosabatlari: nazariy va amaliy yondashuvlar.....498
KONFERENSIYADA ILGARI SURILGAN TAKLIF VA MULOHAZALAR:..... 512

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNI IJTIMOIY-HUQUQIY TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI TO‘PLAMI

2025-yil 29-sentabr

Muharrir: Selimanova S.M.
Texnik muharrir: Yuldashev Sh.N.

Bosishga ruxsat berildi __.__.2025. Buyurtma №___Format 60x90/16
Times New Roman garniturasi bilan raqamli bosma usulida bosildi.
Hajmi: 32,5 sh.b.t. 30,66 t.-h.t. Adadi: 5 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi